O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BEKTEMIROV A.B., RUZIBAYEVA N.X., KARJAVOVA X.A.,

BEKTEMIROV A.A.

INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kengashi tomonidan Biznes va boshqaruv ta’lim sohasining Moliya, Bank ishi, Buxgalteriya hisobi va audit va boshqa bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Samarqand - 2023

UO'K: 333.32
B 49
KBK: 65.291

A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, X.A. Karjavova, A.A. Bektemirov. Investitsiya va innovatsiyalar. *[Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 482 bet.*

Darslikda investitsiya va innovasiyalarning mohiyati, investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli, ularning tasniflanishi, investitsion faoliyat va investitsiya siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllari va iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlarning o'rni, xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar, venchur kapital, investitsion faoliyatda risklar, ularning turlari, vyjudga kelish shart-sharoitlari, ularni boshqarish usullari, innovatsion faoliyatini baholash, investitsion muhitni yaxshilashda hamda инновацион-инвестицион фаолликни oshirishda davlatning roli yoritib berilgan. Darslik biznes va boshqaruv ta'lim sohasidagi bakalavriyat yo'nalishlari talabalariga tavsiya etiladi.

В учебнике раскрываются сущность инвестиций и инноваций, роль инвестиций в развитии макро- и микроэкономики, их классификация, инвестиционная деятельность и инвестиционная политика, формы привлечения иностранных инвестиций и роль свободных экономических зон в привлечении иностранных инвестиций в экономику, льготы, предоставляемые иностранным инвесторам, венчурный капитал, риски инвестиционной деятельности и их виды, причины возникновения рисков и методы управления ими, оценка инновационной деятельности, роль государства в улучшении инвестиционной среды и в повышении инновационно-инвестиционной деятельности. Учебник рекомендуется студентам бакалавриата образовательных направлений бизнес и управление.

Taqrizchilar:
R. G'aybullaev – TDIU SF "Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor.
G.M.Shodieva – SamISI "Real iqtisodiyot" kaferasi professori, i.f.d.

Darslik institut Kengashining 2023-yil 10 - noyabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (10.11.2023-yil 4-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-752-32-2

© A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, X.A. Karjavova, A.A. Bektemirov. SamISI. 2023 y.
©"STEP-SEL" MChJ. Nashryoti. 2023 y.

KIRISH

Bugungi jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan globallashuv jarayonida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nafaqat ichki imkoniyatlarlardan samarali foydalanilishiga balki, boshqa mamlakatlar bilan faol hamkorlik aloqalari o‘rnatilganligiga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu hamkorlik aloqalarini tovar (xizmat)lar savdosida, migratsiya masalalarida, kapital harakatida hamda innovatsion loyihalarning keng miqyosda yoyilishida ko‘rinadi.

Innovatsion-investitsion strategiyani ishlab chiqishda bu holatlarni e’tiborga olish zarur. Mamlakatimizda olib borilayotgan investitsion siyosat yuqoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yildi. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida investitsiyalar hajmini oshirishga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida ishlab chiqilgan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb nomlangan 3-bo‘limida “26-maqsad: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari belgilangan. Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish.”[1] kabi vazifalar belgilangan. Ushbu maqsad va vazifalarning samarali bajarilishi birinchi navbatda, mamlakatimizda qulay

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063#-5842914

ishbilarmonlik muhitini shakillantirishga, ilmiy asoslangan dasturlar va innovatsion lohiyalardan samarali foydalanishga bog‘liqdir.

Jahon amaliyotidan ma’lumki, mamlakatlarning taraqqiy etishida tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi esa investitsiyalardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni dadil joriy etishga bog‘liq. Shu o‘rinda

Tadbirkorlik sub’ektlarida investitsion-innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganish, investitsion-innovatsion faoliyatning samaradorligini oshirish, mamlakatda investitsion-innovatsion muhitni yaxshilashga qaratilgan yagona huquqiy me’yorlar tizimini shakllantiradigan institutsional asoslarni ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizasiya qilish davom etayotganligi, iqtisodiyotda bozor instrumentlarining zaifligi, xom ashyo resurslarini eksport qilish evaziga texnologik asbob-uskunalar, mashinalar, iste’mol tovarlari importiga asoslangan tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarning saqlanib qolganligi va mamlakat xududlarining notekis rivojlanishi mamlakatmizda innovatsion-investitsion siyosatni takomillashtirish zaruratini tug‘diradi. Bunday masalalar echimiga erishish esa bu sohada ma’lum usullsrdan va amaliy tajribalarni bilishni taqozo etadi. Bu usul va tajribalarni “Investitsiya va innovatsiyalar” fani o‘rgatadi.

Shu bilan birga “Investitsiya va innovatsiyalar” fanining asosiy maqsadi talabalarga iqtisodiyotni yuksaltirishda investitsiyalarning o‘rni, investitsiyalash maqsadlari, investitsiya jarayonlarining mazmuni va asosiy bosqichlari, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o‘rni, investitsiya faoliyatida kapital qurilish, rivojlanish davlat dasturlarining amalga oshirilishi, investitsiya loyihalarining mohiyati, manbalari va usullari, investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash, investitsion risklar, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish, innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish, innovatsiya loyihalarini venchurli moliyalashtirish, innovatsion tadbirkorlik, mamlakat innovatsiya faoliyatini baholash, investitsiya va innovatsiya faoliyatini me’yoriy tartibga solinishi hamda hozirgi kunda investitsiya faoliyatining rivojlanish an’analari, istiqboli

hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab oladi.

I BO‘LIM. INVESTITSIYALASH ASOSLARI

I BOB. INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

§ 1.1. “Investitsiya va innovatsiyalr” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi.
§ 1.2. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.
§ 1.3. Investitsiyalarning tasniflanishi.
§ 1.4. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.

§ 1.1. “Investitsiya va innovatsiyalr” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investisiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat’iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

Davlatning investitsion faoliyati va investitsiya dasturlarini amalga oshirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotga investitsiya kiritish muammolarini o‘rganish har doim iqtisodiy fanning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Buning sababi shundaki, investitsiyalar iqtisodiy faoliyatning chuqur poydevorlariga ta'sir qiladi va umuman iqtisodiy o‘sish jarayonini belgilaydi. Zamonaviy sharoitda ular milliy iqtisodiyotdagi mavjud iqtisodiy inqirozni yengish, texnologik taraqqiyotni ta'minlash, mikro va makro darajada iqtisodiy faoliyat sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashning muhim vositasidir. Shu bois ham hozirgi zamon bosqichida investitsiya fanining predmeti bo‘lib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Shuningdek, investitsiya fanini o‘rganishda asosiy e’tibor investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga qulay muhit yaratish, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini asoslash, investitsiyani boshqa moliyaviy kategoriyalar ichida tutgan o‘rni, investitsiyalarni moliyalashtirishning mukammal shakllari bo‘lgan lizing kreditlari va investitsiyalarni loyihalashni

moliyalashtirish shakllariga, mamlakatda investitsiya muhitini yaratishga va hokazolarga katta e’tibor berilishini talab etadi.

Iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda investitsiya va unga ta’sir etuvchi omillar, davlat investitsiya dasturini shakllantirish, kapital quyilmalarni mohiyati, ularni amalga oshirish va moliyalashtirish tartibi, investitsiya loyihalarini samaradorligini baholash, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari, ular tarkibida budjet, bank va boshqa moliyaviy institutlar resurslarini jalb etilishini dinamik holatini tahlil etish va ular bo‘yicha talabalarga amaliy-nazariy savollar yuzasidan bilim egallashlariga imkoniyat yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu fanni o‘rganishning asosiy maqsadi va vazifasi talabalarga hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib investitsiyalarni jalb etilishini, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyati doirasida ko‘nikmalar hosil qilish bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiya sohasida to‘plangan milliy va xorijiy tajribadan foydalanish va investitsiya faoliyatini tartibga solishning umumiy printsiplari, usullari va vositalarini ishlab chiqish zarur, bu esa ushbu faoliyatni O'zbekistonda amalga oshirish uchun huquqiy normalar va qoidalarning umumiyligini tartibga soladi. Huquqiy baza yangi ilg‘or usullarni: moliyaviy lizing, loyihalarni kreditlash, loyihalarni moliyalashtirish va boshqalarni joriy etish imkoniyatini yaratishi kerak. Samarali investitsiya tizimi bir vaqtning o‘zida davlat va investorlarning daromadlarini ko‘paytirishni, xususiy va institutsional investorlarga huquqiy kafolatlar berishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizim O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va rag‘batlantirishning keng qamrovli maqsadli konseptsiyasi asosida yaratilishi mumkin.

“Investitsiya va innovatsiyalar” fanining asosiy maqsadi – talabalarda investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarni jalb etish, davlat investitsiya dasturini shakllantirish, investitsiya loyihalarini baholash va monitoringini tashkil etish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish bo‘lib hisoblanadi.

Fanning vazifasi – talabalar investitsiya fanida o‘rganadigan savollarni to‘liq o‘rganish uchun quyidagilarga e’tiborli bo‘lishlari kerak:

– investitsiya va innovatsiyalarning iqtisodiy tabiati, mazmuni va ahamiyati;

– investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

– investitsiya jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari;

– O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari;

– iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni o‘rni;

– iqtisodiyotning xalqaro integrasiyasida xorijiy investitsiyalarning o‘rni va ularning xalqaro harakatini tartibga solish;

– iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda erkin iqtisodiy hududlarning o‘rni;

– iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishda xususiy investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati;

– investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar;

– davlat investitsiya dasturini shakllantirish tartibi;

– kapital qurilishni amalga oshirish va moliyalashtirish tartibi;

– investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash;

– investitsiya faoliyatida moliyaviy vositalar va investitsiya faoliyatini kreditlash;

– investitsiyalarni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini to‘plash usullari va shakllari, investitsiya faoliyatida lizing va investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish;

– nomoddiy aktivlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar;

– innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish va joylashtirish usullari;

– innovatsiya strategiyasini mohiyati;

– innovatsion loyihalarni venchurli moliyalashtirish;

– mamlakat innovatsion faoliyatini baholashning xorij tajribasi;

– venchurli moliyalashtirishda yuzaga keladigan innovatsion risklar;

– investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo‘llari bo‘yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o‘rgatishdan iborat.

Fanni o‘rganish ob'ekti bo‘lib investitsiya sohasidagi davlatning makroiqtisodiy siyosati va O'zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish davrida investitsiya faoliyatini moliyaviy va pul-kredit orqali tartibga solish bo‘yicha to‘plangan tajriba kiradi. Ushbu fanni o‘rganish uchun uslubiy asos bo‘lib O'zbekiston va xorijiy olimlar va iqtisodchilarning nazariy va amaliy ishlanmalari, O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishga oid qonunlari va normativ hujjatlari hisoblanadi. “Investitsiya” umumkasbiy fan hisoblanadi. Mazkur

dasturni amalga oshirish uchun talabalar o‘quv rejasida rejalashtirilgan “Moliya”, “Xalqaro moliya munosabatlari”, “Moliya bozori”, “Soliqlar va soliqqa tortish”, “Sug‘urta ishi” fanlaridan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. “Investitsiya va innovatsiyalar” fanining ishlab chiqarishdagi o‘rni aynan investitsiyalarni amalga oshirish uchun maqbul loyihalarni tanlab olish, ularni moliyalashtirishning optimal variantlarini ishlab chiqish, loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq risklarni boshqarishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birgalikda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday mulk shaklida xo‘jalik yurituvchi subektning investitsiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi mazkur fanning ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

§ 1.2. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi moddiy resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘nalishini belgilab olishda investitsiyalarning o‘rnini beqiyosligi investitsiyaning barqaror rivojlantirishdagi rolini oshirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilgan holda o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Investitsiyani mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi rolini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolari aniqlashdi va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqish, shu orqali investitsiyani iqtisodiy-ijtimoiy mazmunini va mohiyatini har tomonlama o‘rganishda olimlar fikrini tadqiq etish ushbu fanni o‘rganishni muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki investitsiyalarning iqtisodiy mazmun – mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma – xil fikrlarni mavjudligi ularni yagona tizimga keltirish iqtisodchi olimlar o‘rtasida katta ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

Bugugi kunda investitsiya tushunchasini jadal sur’atlarda kirib kelishi, uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda investitsion faoliyatga qaratilayotgan e’tibor xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning samarali faoliyat ko‘rsatishi va ularga yaratib berayotgan qulayliklari fikrimiz dalilidir. Investitsiyalar har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, ularning yordamida iqtisodiyotning innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar asosida rivojlanishi qo‘llab-quvvatlanadi, import o‘rnini bosish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatlari muvaffaqiyatli amalga

oshiriladi, zamonaviy infratuzilmalar rivojlantiriladi, yangidan-yangi ish joylari yaratilib, ishsizlik muammosining oldi olinadi, eng asosiysi erkin raqobat va tadbirkorlik munosabatlariga asoslangan zamonaviy iqtisodiy tizim rivojlantiriladi. Investitsiyalarning yana bir muhim ahamiyati shundaki, ular har qanday mamlakatning yaqin va uzoq kelajakda rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi.

Investitsiyalar tushunchasi (lotincha «investio» so‘zidan olingan bo‘lib, “kiyinaman” degan ma’noni anglatadi) amalda har qanday lug‘atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo‘yish sifatida talqin qilinadi. Bu ta’rif “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonunlarida ko‘rsatilganidek aniqlashtiriladi[2].

Investitsiya, investitsiya muhiti va shu kabilarni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi rolini oshirish masalasini nazariy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda investitsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob’ektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar[3]”, deb ta’rif berilgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni, ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);
- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa

[2] Жураев Х. Инвестиция тушунчасининг иқтисодий мазмуни ва аҳамияти. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2015, № 8. 42-50 б.
[3] https://lex.uz/doks/4664142

qimmatliklarni. Ushbu ta’rifga tayangan holda aytish joizki, “investitsiya – bu kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalariga investorlar tomonidan qonun doirasida qo‘yiladagan yoki taqdim etiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intekllektual boyliklar tushuniladi”. Bunday ta’rifni e’tirof etishdan ko‘zlangan maqsad ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash barcha ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalar majmuini yanada takomillashtirish, aholi bandligini to‘laroq ta’minlash, eksport xajmini oshirish bilan birga investitsiya miqdorini ko‘paytirish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya oqimlari mamlakatning uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik rejalarini amalga oshirishda barqaror moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Keyingi paytda iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotchilar tomonidan investitsiya, investitsiya oqimi, investitsiya muhiti kabi iqtisodiy atamalarga katta e’tibor bergan holda ularga bir nuqtada kesishayotgan ta’riflar berila boshlandi. Ammo yuqorida qayd etilgan fikrlarga katta diqqat qaratish bu katta tadqiqot ishini talab etilishini e’tiborga olgan holda biz ayni paytda asosiy diqqatni investitsiya atamasiga qaratilish muhimroqdir.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari orasidan rossiyalik mutaxassis T.T.Frolova[4]ning fikriga ko‘ra: “investitsiya – bu xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakatning ichida va mamlakatdan tashqarida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va qimmatbaho qog‘ozlarga uzoq muddatli qo‘yiladigan kapitaldir”.

M.I.Rimer[5], A.D.Kasatov va N.N.Matiyenkolar fikrlariga ko‘ra esa: “iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar tadbirkorlik faoliyatining ob’ektlariga mablag‘larni investitsiya qilish orqali ehtiyojlarni keyingi yillar davomida yanada to‘liq qondirish maqsadida ne’matlarning joriy iste’mol qilinishidan voz kechishga qaratilgan harakat sifatida e’tirof etiladi”. Shu bois investitsiya atamasini turli xil talqinlarini ko‘rib chiqqan holda, uning ta’rifini berish muhim bo‘lib hisoblanadi.

Fanda investitsiya atamasining yuqorida keltirilganlardan tashqari bir qancha talqinlari ham mavjud, ular quyidagicha tavsiflanadi:

- “investitsiyalar iqtisodiy foyda va ijtimoiy samara olish maqsadida investitsiya sohasi ob’ektlariga kiritiladigan barcha turdagi

[4] Frolova T.A. Ekonomicheskaya teoriya: konspekt leksiy. Taganrog: TTI YUFU, 2009.
[5] Rimer M.I., Kasatov A.D., Matiyenko N.N. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy / Pod. obsh. red. M.Rimera – SPb.: Piter, 2006.

mulkiy va intellektual boyliklarni aks ettiradi”[6];

- “investitsiyalar deganda foyda (daromad) olish va investorlarning individual maqsadlari singari ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalariga, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga muayyan muddatga kapitalning maqsadli yo‘naltirilgan qo‘yilmasi shaklida amalga oshiriladigan harajatlar yig‘indisi tushuniladi”[7];

- “investitsiyalar o‘zini foyda (daromad) olish maqsadida milliy va xorijiy iqtisodiyotning turli tarmog‘iga xususiy yoki davlat kapitalining uzoq muddatli qo‘yilmasi sifatida namoyon etadi”[8];

Investitsiyalar keng ma’noda o‘zini mablag‘lar va resurslarning kelgusida ko‘payishi va iqtisodiy samara yoki boshqa rejalashtirilgan natijalar olish (ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar) maqsadida ularning safarbar etilishi sifatida namoyon etadi. U.Sharp, K.Yeklund, Kempbell R.Makkonell, Stanli L.Bryular investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha ta’riflarni bayon etishgan. Nobel mukofotining iqtisodiyot bo‘yicha laureati U.Sharp ta’kidlashicha: “investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir”[9]. Ular “Investitsiyalash” atamasining ma’nosini nimanidir amalga oshirishda deb bilishadilar. “Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir” deb qarashadilar, o‘z fikrlarini davom ettirib ular mablag‘larni yoki real yohud moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin deb hisoblaydilar.

Investitsiya tushunchasi yagona va to‘liq belgi berishlik uchun anchagina keng tushuncha bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy fanlarning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o‘zining xususiyatlariga ega bo‘lgan holda ajralib ham turishadi, shu jihatdan olganda, makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zahiralarining o‘sishiga qilinadigan harajatlardan tashkil topadigan yalpi harajatlarning bir qismi hisoblanadi. Investitsiyalar – bu joriy davrda iste’mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o‘sishini ta’minlovchi YAIM ning bir qismi sifatida tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida

---

[6] Staroverova G.S., Medvedov A.Yu., Sorokina I.V. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy: uchebnoye posobiye. – M.: «KNORUS», 2006. – S. 11.

[7] Podshivalenko i dr. Investitsii: ucheb. pos. – 3-ye izd. – M.: «KNORUS», 2006. – S.7.

[8] Kolmikova T.S. Investitsionniy analiz: ucheb. posobiye. – M.: «INFRA-M», 2009. – S. 27.

[9] Sharp U., Aleksandr G., Beyli Dj. Investitsii. Per. s. angl. – M.: «Infra-M», 1997. – S. 979.

respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida 1996 yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobidan kapital qo‘yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiyalari va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo‘lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladi. Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag‘lari, chet el investitsiyalari, korxonalarning o‘z mablag‘lari va aholi jamg‘armalari qatnashmoqda.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini va inson kapitalini qo‘shib hisoblanganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olishni tushuniladi, ya’ni bugungi sarflarni maqsadi kelajakda daromad olish bo‘lib hisoblanadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, investitsiyalar – amaldagi muayyan qiymatni, bo‘lishi noaniqroq bo‘lgan kelajak qiymatga almashishdir[10].

Investitsiyalar – bu kelajakda investitsiyalarning boshlang‘ich miqdoridan oshib ketadigan yoki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun (jamiyat hayotining sifatini yaxshilash, madaniyat, ta'lim va hokazolarni rivojlantirish uchun) sof daromad olish maqsadida biznes, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va boshqa loyihalarga bo‘sh kapitalni uzoq muddatli sarmoyasidir. Investitsion faoliyat deganda moliyaviy maqsadlar va foyda olish uchun mablag‘larni investitsiyalash va muayyan harakatlarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilaridan iborat (1.1 – rasm).

[10]Mertens A.V. Investitsii: kurs leksiy po sovremennoy finansovoy teorii. – Kiyev: Kiyevskoye investitsionnoye agenstvo, 1997. 71 str.



1.1 – rasm

Investitsiyaning muhim jihatlaridan yana biri innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va tadbirkorlikning ayrim sohalarini rivojlantirish uchun investitsiyalarni o‘rni beqiyosligi bugungi kundagi muhim masaladir. Shu bois ham milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisobllanadi. Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta’minlovchi kuchdir. Shu bois barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan investitsiyalar xajmini oshirishga xizmat qilish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan investitsiya ta’rifini va uning shakllarini asoslash muhimdir.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat amaliyotida investitsiyalarning uch shakli bo‘lib ular bir-biridan o‘zaro farqlanadi. Fizik aktivlar deganda, asosiy ishlab chiqarish vositalari, ya’ni ishlab chiqarish binolari va inshootlari hamda xizmat muddati bir yildan ortiq bo‘lgan har qanday mashina va uskunalar tushuniladi. Pul aktivlari deganda, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag‘larini olish huquqi, masalan, bankdagi depozitlar, aksiyalar, obligatsiyalarni anglatadi. Nomoddiy aktivlar xodimlarni qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, litsenziyalar sotib

olish, savdo belgilarini ishlab chiqarish natijasida firma ega bo‘ladigan boyliklardir. Investitsiyaning uch shakli orasida eng muhimi va hozirgi sharoitda rivojlanish bosqichida turganlaridan biri pul aktivlariga qilingan investitsiyalar bo‘lib hisoblanadi. Qimmatbaho qog‘ozlarga qilinadigan investitsiyalar portfel investitsiyalar, fizik aktivlariga qilinadigan investitsiyalar esa real investitsiyalar deb e’tirof etiladi. Umuman olganda mablag‘larni real aktivlarga yoki moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin. Barcha turdagi investitsiyalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirish aksi bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa yirik korxonalar barpo etish, innovatsion loyihalarni investitsiyalar orqali moliyalashtirish va tadbirkorlikning ayrim sohalarini rivojlantirish uchun investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ushbu investitsiya shakllari har qanday korxona iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi va uning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyalar eng istiqbolli moliyaviy sohalardan biridir. Investitsiyalar nafaqat korxonalar egalariga, moliyaviy birjalarda tajribali ishtirokchilarga, balki minimal kapital bilan investitsiya qilishni boshlashga qaror qilganlarga ham foyda keltiradi. Muvaffaqiyatli investitsiyalar belgilangan ish haqiga, davlatga, kredit beradigan moliyaviy institutlarga bog‘liqlikdan xalos bo‘lish va ish beruvchining to‘lovidan oshadigan investitsiya daromadiga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Albatta, ijobiy natijaga erishish uchun avval siz investitsiya nazariyasini o‘rganishingiz, xatarlar va moliyaviy ahvolni to‘g‘ri baholashingiz kerak. Kapitalning eng samarali shakllari ko‘chmas mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar, aktsiyalardir. Ammo siz biznesga, omonatlarga, qimmatbaho metallarga yoki valyutaga sarmoya kiritishingiz mumkin. Qimmatbaho qog‘ozlar uzoq muddatli investitsiyalar uchun eng foydali hisoblanadi, ammo shu bilan birga ular Ajam investor uchun eng qiyin tushunchadir. Investitsiya qilish uchun siz o‘zaro fond bilan bog‘lanishingiz, bankdan yoki ikkilamchi bozorda aktsiyalar sotib olishingiz mumkin. Investitsiyalarni jalb qilish ko‘plab tashkilotlar, korxonalar, boshqaruv kompaniyalari va banklar investorlarga qiziqish bildiradigan dolzarb masaladir, shuning uchun ko‘pincha o‘z segmentida investitsiyalarga muhtoj bo‘lganlar o‘zlarining aktsiyadorlarini topadilar.

Boshqa bir variant – moliya bozoriga sarmoya kiritish, masalan, Forex. Ammo bu o‘ziga xos tote. Yutilgan pul miqdori tashkilotchilarning komissiyasini hisobga olmasdan yo‘qolgan pul miqdoriga teng bo‘ladi. Albatta, biznesning to‘g‘ri olib borilishi bilan,

tebranishlarda o‘ynashga harakat qilmasdan, aksiyalarni muntazam ravishda sotib olish sharti bilan, xususan, pastroq narxlarda, Forex munosib daromad keltirishi mumkin, garchi depozit qo‘yilgan taqdirda ham. Ammo fond bozorida muvaffaqiyatli ishlashni boshlash uchun tasodifiy harakat qilmaslik, tranzaktsion xarajatlarni optimallashtirish, tanlangan mezonga ko‘proq mos keladigan boshqa kompaniyalar aniqlanganda, o‘z investitsiya strategiyangizni ishlab chiqish muhimdir.

§ 1.3. Investitsiyalarning tasniflanishi

Vaqtlar utib “investitsiya” so‘zi bir necha yangi ahamiyatga ega bo‘lgan izoh tushunchalar bilan to‘ldirildi va turli xil faoliyatlarda undan foydalanish boshlandi, jumladan bunday ahamiyatlardan biri (qandaydir korxonaga uzoq muddatli kapital qo‘yilma) bu bunday foydalanishni massali tus olishi keyinchalik doimiy foydalanuvchi kategoriya sifatida bo‘lib qolishga olib keldi. Bunday ahamiyat-mohiyatlar bilan bu so‘z boshqa bir xil ildizli so‘zlar ma’nosini ifoda etuvchi sifatida bizni tilimizga kirib keldi. Investitsion faoliyat nazariyasi va amaliyotida investitsiyani tasniflash muhim o‘rin tutadi, bu borada turli qarashlar mavjud. A.S.Bulatov, V.N.Jimirov, Ya.S.Melkumovlarning fikricha, investitsiyalarni maqsad belgilari bo‘yicha uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin: moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, intellektual investitsiyalar.

Moliyaviy investitsiyalar – bu davlat yoki korporatsiyalar chiqargan aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga, shuningdek, bank depozitlariga kapital qo‘yishdir. Ularning tarkibida portfel invetisiyalarni farqlash mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar, ularning keltiradigan daromadi bo‘yicha baholanadi. Qimmatli qog‘ozlar kursining harakati korxonaning moliyaviy holati va butun iqtisodiyotning yaqin kelajakda istiqbollari va holatini aks ettiradi. Takror ishlab chiqarish jarayonida real aktivlar harakati kapital bozori va investitsion tovarlar bozorida o‘zaro aloqadorlikda realizatsiya qilinadi. Shuning uchun bitta korxona doirasida moliyaviy investitsiyalarning yopiq doiraviy aylanishi mumkin emas. Bozor iqtisodiyotida aynan moliyaviy qo‘yilmalar muhim rol o‘ynaydi. Bu shu bilan bog‘liqki, moliyaviy kapital, avvalombor harakatchanligi bo‘yicha ishlab chiqarishdan farqli ravishda har doim ham harakatchan emasligi bilan xarakterlanadi. Bizning fikrimizcha, bu shu bilan bog‘liqki, agarda investorlar aktiv

vositalarga mablag‘ qo‘ysalar asosan likvid bo‘ladi. Aynan shuning uchun aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishidagi moliyaviy investitsiyalar iqtisodiy tizimda tarkibiy o‘zgarishlarga ko‘maklashuvchi, bir iqtisodiyot sohasidan boshqasiga kapital ko‘chishini ta’minlaydi.

Portfel investitsiyalar – mulkdan daromad olishda huquq beruvchi qimmatli qog‘ozlarga kapital qo‘yishdir. Moliyaviy aktivlarga investitsiyalar quyidagi shakllardagi qo‘yilmalarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy iqtisodiy agentlar faoliyati jarayonida yaratilgan barcha ko‘rinishdagi to‘lov va moliyaviy majburiyatlar;
- naqd pullar;
- joriy hisobdagi mablag‘lar;
- banklarga qo‘yilgan muddatli omonatlar;
- turli xil qisqa muddatli qarz majburiyatlari;
- obligasiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar;

Portfel investitsiyalar turli loyihalar guruhlariga kapital qo‘yishni ifodalaydi. Masalan, korxona qimmatli qog‘ozlarini qo‘lga kiritish. Bu yerda investorning bosh vazifasi portfel investitsiyalarni shakllantirish va maqbul boshqarish hisoblanadi. Portfel investitsiyalar qatorida pul-kredit operatsiyalari keng tarqalgan bo‘lib, investorning kapitali kredit sifatida bu omonatlardan keyinchalik foydalanish bilan depozit omonatlar ko‘rinishida bankka joylashtirish tushuniladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli mablag‘lar qo‘yishdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga davlat yoki xususiy firmalarning kapital qo‘yishi bo‘lib, real kapital (bino, inshoot, tovar moddiy zahiralari va boshqalar) tashkil etilishini ifodalaydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar guruhiga quyidagi investitsiya turlarini ajratish mumkin: ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishda, rekonstruksiyalashda va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda yo‘naltirilganlik hamda eskirgan bino, inshoot va jihozlarning o‘rnini to‘ldirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar tovar moddiy boyliklar zahirasi o‘zgarishida muhim rol o‘ynaydi. Bir tomondan ahamiyatli investitsiyalar bu yo‘nalishda korxona faoliyatini noto‘g‘ri rejalashtirish ahamiyatli mablag‘lar susayishini yuzaga keltirilishi mumkin, qaysiki korxona faoliyati natijalarida va uning moliyaviy holatida aks ettiradi. Boshqa tomondan, zahiralar jamg‘armasi chuqur

inflyatsiya sharoitida investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

Intellektual investitsiyalar bo‘lib, ilmiy ishlar, tajribalar natijasi, lisenziyalar “nou-xau”, mutahassislar tayyorlash va kadrlarni qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini joriy etish kabilar hisoblanadi.

Investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni investitsion siyosat asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital quyilmalarning ustivor yo‘nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi. Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirishni talab etadi. Chunki mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish esa investitsiyalarni shakllarga ajratgan holda tasniflanishini taqozo etadi. Buning uchun kelajakda foyda keltiradigan har qanday narsa investitsiya ob'ekti bo‘lishi mumkin. Ushbu ob'ektning o‘zi toifasiga qarab, siz quyida bilib oladigan investitsiyalar turlari mavjud:

Haqiqiy(real) investitsiyalar. Turli shakllarda kapital bo‘lgan moddiy va nomoddiy ob'ektlarni sotib olish: allaqachon ishlayotgan biznesni sotib olish (biznesga investitsiya kiritish), yer, fondlar, patentlar, biror narsaga egalik qilish huquqi. Bunday sotib olish, odatiy xaridlardan farqli o‘laroq, qo‘shimcha daromad keltirishi mumkin. Haqiqiy ob'ektlarga sarmoya kiritish, investitsiya qilingan mablag‘lar qaytib kelmasligi uchun minimal xavfga ega.

Moliyaviy investitsiyalar. Ular foyda keltiradigan turli xil investitsiya vositalariga investitsiyalardir. Ushbu toifaga PAMM hisoblari, HYIP, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, o‘zaro fondlar kiradi. Qattiq pul ishlagan pulingizni yo‘qotish xavfi juda katta, bunday investitsiya vositalari 100% foyda keltirishingizni kafolatlay olmaydi.

Spekulyativ investitsiya. Ushbu turdagi investitsiyalar «arzonroqni toping va qimmatroq soting» tamoyili asosida ishlaydi, ya'ni sof spekulyatsiya. Spekulyativ vositalarga investitsiyalarning eng mashhur turi bu amortizatsiya paytida valyutani sotib olish va uning ko‘tarilishida sotishdir. Valyuta operatsiyalaridan tashqari, investitsiyaning ushbu turi qimmatbaho metallarni, qayta sotish uchun aktsiyalarni va obligatsiyalarni sotib olishni ham o‘z ichiga oladi.

Venchur sarmoyasi. Yaqinda boshlangan va kelajakda daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan yangi korxonalar va boshlang‘ich kompaniyalarga sarmoyalar kiritish. Bu investitsiyalardan olinadigan daromadning o‘ta xavfli turi, chunki u innovatsion biznesga, o‘xshashligi bo‘lmagan loyihalarga investitsiyalardir. Bundan tashqari, investor investitsiya platformasi «otish» yoki qilmasligini aniq bilmaydi. Shu bilan birga, biznes asoslangan g‘oya to‘liq amalga oshirilsa va iste'molchini qiziqtiradigan bo‘lsa, venchur kapital qo‘yilmalar juda katta daromad keltirishi mumkin.

Siz har qanday narsaga – moddiy narsalarga ham, o‘zingizning ta'limingiz va sog‘lig‘ingizga ham mablag‘ kiritishingiz mumkin. Investitsiyalarning maqsadiga qarab, quyida tavsiflangan uchta turdagi investitsiyalar ajratiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar. Agar investor to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy ob'ektlarga yoki ishlab chiqarishga investitsiya qilsa, unda bunday investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar deb ataladi. Bundan tashqari, biron bir sarmoyani oladigan kompaniya bo‘lsa, investor o‘zining ustav kapitalida o‘z ulushini oladi.

Moliyaviy bo‘lmagan investitsiyalar. Siz nafaqat moddiy timsolga ega bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ob'ektga, balki qonuniy kuchga ega bo‘lgan, apiori foyda keltiradigan hujjatga ham mablag 'kiritishingiz mumkin. Moliyaviy bo‘lmagan investitsiyalar qatoriga litsenziyalar, huquqlar, uskunalar va boshqa loyihalarga investitsiyalar kiradi.

Portfel investitsiyalari. Maqsadli investitsiyalarning oxirgi turi qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ular har qanday kompaniyaning aktsiyalari yoki obligatsiyalarining investitsiya portfeli bo‘lib, investorning faol boshqaruvini talab qilmaydi, u shunchaki pul qo‘yish shartlarida ko‘zlangan foyda oladi. Qimmatbaho qog‘ozlarga sarmoya kiritish juda foydali bo‘lishi mumkin va hech qanday foyda keltirmasligi mumkin – investitsiyalarning dastlabki bosqichida bunday investitsiyalar istiqbollarini aniqlash juda muhimdir.

Mulkchilik shakli. Investor kim ekanligi va investitsiya qilingan obyektga mablag‘ kiritishiga qarab ular investitsiyalar turlarini mulkka qarab ajratadilar. Davlat, kompaniya, jismoniy shaxs, boshqa mamlakatning vakili tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar, shuningdek, bir vaqtning o‘zida bir nechta turli xil investorlar bo‘lgan taqdirda aralash turdagi alohida-alohida ajratiladi.

Davlat shakli. Davlat shaklida, davlat organi yoki mansabdor shaxs davlat g‘aznasi mablag‘lari hisobidan investor sifatida ishlaydi. Ham milliy korxonalar, ham tuzilmalar, shuningdek mahalliy sarmoyadorlar ushbu shaklga kiritilgan. Davlat qayerga sarmoya kiritishi mumkin? Ko‘plab misollar mavjud: ma'lum bir mintaqaning ekologik holatini yaxshilashga sarmoya kiritishdan tortib, madaniyat homiyligiga va aholining ma'naviy rivojlanishiga qadar yo‘llarni ta'mirlashgacha.

Xususiy shakl. Bu yerda hamma narsa oddiy, agar biron bir investor biron bir joyda shaxsiy maqsadlar uchun investitsiya qilsa, unda bizda xususiy investitsiya shakli mavjud. Ko‘pincha xususiy sarmoyadorlar ularni ko‘paytirish va faqat moddiy foyda olish uchun sarmoya kiritadilar. Bu holda investitsiyalar va moliyaviy mablag‘lardan faqat shaxsiy maqsadlarda foydalaniladi.

Xorijiy / chet ellik. Ko‘pincha, boshqa mamlakatning investorlari, fuqarolari, kompaniyalari va davlat idoralari harakat qilishadi - dunyoning turli mintaqalarida biznesni yuritish uchun har xil sharoitlar mavjudligi sababli bu amaliyot juda keng tarqalgan. Agar investor o‘z mamlakatiga qaraganda katta istiqbollarni ko‘rsa, unga hech narsa chet el investitsiyalarini jalb qilishga xalaqit bermaydi.

Investitsiya muddati. Sarmoya kiritishda, qoida tariqasida, depozit ishlaydigan muddat oldindan belgilanadi. Faqatgina istisnolar bu chayqovchilik kabi investitsiya turlari, masalan, xorijiy valyutani sotib olish va uni qayta sotish, bu qulay sharoitlarda amalga oshiriladi – b u yil, oy yoki 24 soat ma'lum bo‘lmaydi.

Uzoq muddatli. Maksimal foyda olish maqsadida, investor 5 yildan ortiq vaqt davomida o‘z mablag‘lari bilan xayrlashishi mumkin. Ushbu turdagi investitsiyalar uzoq muddatli deb nomlanadi va odatda eng daromadli investitsiyalar hisoblanadi. Ko‘pincha, uzoq muddatli investitsiyalar bu qurilish uchun katta sarmoyalar, biror narsani rivojlantirish, yangi biznes sektorini rivojlantirish, bu juda foydali va kutishga loyiq bo‘lishi kerak.

O'rta muddatli. Agar investitsiya muddati 5 yildan kam bo‘lishi aniqlansa, ular o‘rta muddatli investitsiyalar haqida gapirishadi. Qoidaga ko‘ra, bunday amal qilish muddati bo‘lgan investitsiya fondi, loyihasi yoki yo‘nalishi o‘rtacha daromadlilik ko‘rsatkichiga ega.

Qisqa muddatli. Sarmoyador bo‘lish uchun, 5-10 yil ichida o‘zlarining qaytib kelishini kutib, mablag‘laringizni qaytarib berishni va keksayguncha foyda olishni kutishning hojati yo‘q. Bir yildan

oshmagan davrda daromad olishni va'da qiladigan juda koʻp qisqa muddatli takliflar mavjud. Masalan, bank depozitlarini ham olaylik - bankning har bir mijozi olti oy yoki bir yil oʻtgandan keyin depozit boʻyicha foizlar koʻrinishidagi kichik mukofot bilan mablag 'kiritishi va olishi mumkin. Shu bilan birga, agar investitsiya qilishdan olingan daromad vaqti-vaqti bilan kelib tursa, investitsiya davri uzoq boʻlishi mumkin boʻlsa-da, lekin bunday investitsiya turi annuitet deb ataladi.

Investitsiyalar xatarlarini zamonaviy tasniflash tajovuzkor, oʻrtacha, konservativ investitsiyalar turlarini oʻz ichiga oladi. Qoida tariqasida, sarmoyadorlar turli xatarlarga ega loyihalar uchun mablagʻlarni taqsimlash orqali xatarlarni diversifikatsiyalashga murojaat qilishadi.

Agressiv. Investor maksimal foyda olishni xohlaydi va tavakkal qilishdan qoʻrqmaydi. U agressiv investitsiya modelini tanlaydi, unda eng qisqa, xavfli va eng foydali usul tanlanadi.

Moʻtadil. Agar investor oʻz pulini yoʻqotishni istamasa, lekin koʻproq pul topish istagi boʻlsa, u oʻrta pogʻonani - eng maqbul nisbatda ushbu ikki koʻrsatkichni oʻz ichiga olgan investitsiya ob'ekti tanlaydi.

Konservativ. Eng ehtiyotkor investorlar mablagʻlarni yoʻqotish xavfini kamaytiradigan investitsiyalarning konservativ turlarini tanlaydilar. Bunday holda, qoida tariqasida, uzoq vaqt davomida siz ozgina foyda olishingiz mumkin, ammo kapital toʻliq xavfsizlikda.

Bugungi kunda investitsiya faoliyatini tubdan qayta koʻrib chiqish strategik ahamiyatga molik investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda xorijiy investitsiyalar uchun ishonchli va samarali investitsion loyihalarni taqdim etish, investitsiya faoliyatini ichki manbalarini toʻgʻri yoʻnaltirish va bu borada investorlar rolini yanada oshirish maqsadida iqtisodiy adabiyotlarda portfel investitsiyalar investor tomonidan sotib olingan aksiyalarning firma ustidan nazorat va ta’sir doirasi belgilariga koʻra tasniflanishiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, bu juda muhim tarmoq boʻlib hisoblanadi. Bunda investitsiyalar quyidagi belgilariga koʻra tasniflangan: qoʻyilma ob’ektlariga koʻra; investitsiyalashda qatnashish harakteriga qarab; investitsiyalash muddatiga koʻra; mulkchilik shakllari boʻyicha; hududiy belgisi boʻyicha (1.2-rasm).



1.2-rasm. Investitsiyalarning alohida belgilari bo‘yicha tasniflanishi[11]

Ushbu investitsiyalarning salkam 70 foizi ishlab chiqarish sohalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg‘or texnologiyalar sotib olishga yo‘naltirilmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, rus iqtisodiy adabiyotlarida[12] portfel (aksiya, obligatsiya va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarga, shuningdek, boshqa korxonalarning aktivlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar) va real

[11] Aliqulov I.S., Sattorov D.S. Investitsiyaning mazmun-mohiyati va tavsiflanishi. / Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2012. № 5.

[12] Bocharev V.V. Metodi finansirovaniya investitsionnoy deyatelnosti predpriyatiy. – M.: Finansi i statistika, 1998. – s. 6-7. Sergeev I.V., Veretennikova I.I. Organizatsiya i finansirovaniye investitsiy. – M.: Finansi i statistika, 2001. – s. 6.

(faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni ta’mirlash va texnik qayta qurollantirish, kengaytirish, yangi korxonalar barpo etishga yo‘naltirilgan investitsiyalar) investitsiyalar farqlanadi.

Bunday sharoitda investor-korxona mablag‘ kirita turib, o‘zining ishlab chiqarish kapitalini, ya’ni asosiy ishlab chiqarish fondlari va uning faoliyati uchun zarur bo‘lgan aylanma mablag‘larni ko‘paytiradi (oshiradi).

Portfel investitsiyalar amalga oshirilganda investor o‘zining moliyaviy kapitalini, ya’ni qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromad-dividendini ko‘paytiradi.

Real investitsiyalar – bevosita investitsiyalar bo‘lib, investorning investitsiya jarayonida bevosita ishtirok etishini anglatadi, ya’ni investor investitsiyalash ob’ektini, shuningdek, uni moliyalashtirishni tashkil etish va moliyalashtirish manbalarini bevosita o‘zi aniqlaydi.

Portfel investitsiyalar – bilvosita investitsiyalarni anglatib, bu investitsiya moliyaviy vositachilar orqali investitsiyalashni anglatadi.

Investitsiyalar majburiy joriy qilinish darajasi bo‘yicha quyidagilarga tasniflanadi:

- majburiy investitsiyalar – umumdavlat manfaatlariga muvofiq keladigan investitsiyalardir. Bunday investitsiyalar asosan o‘rab turgan muhitni saqlash, tabiatni muhofoza qilish, obyektlarni qurish, jamoat maskanlarini bunyod etish va boshqalarni moliyalashtirishga sarflanadi.

- xavf-xatardan himoyalanishga sarflanadigan investitsiyalar – komplekt mahsulot va xomashyolarni sotib olish bo‘yicha xavf-xatarni kamaytirishga yoki korxonalarga bozordagi baholar darajasini yetarli darajada ushlab turishga ko‘maklashish, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarni monopol raqobatdan himoyalashga yo‘naltiriladi;

- tezkor investitsiyalar («nou-xou», ilmiy yangiliklar uchun) – yangi texnik va texnologik imkoniyatlarni izlashga, texnik taraqqiy etishga yo‘naltiriladi;

- ijtimoiy investitsiyalar – korxona jamoasi mehnat sharoitlarini yaxshilashga yo‘naltiriladi;

- hukumat investitsiyalari – korxonalar mavqyeini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Bunday tasniflashning afzalligi va uning boshqa tasniflashlardan farqi shundaki, unda korxona o‘z investitsiyalarini qanday maqsadlar uchun safarbar etishi to‘g‘risida real holat aks ettirilgan. Umuman real va portfel investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda benihoyat katta

ahamiyatga ega bo‘lib, 1-dan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etishda, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni ustivor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlash imkonini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joyi bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

§ 1.4. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli

Investitsion sferadan kelib chiquvchi jarayonlar iqtisodiyotni umumiqtisodiy tomonlaridan; jumladan, ko‘p hollarda ishlab chiqarish va inflyasiyani dinamikasi, YaIMni o‘sishi, moliya-kredit tizimini holati va talabni barqarorlik darajasidan kelib chiqadi. Mamlakat iqtisodiyotni modernizatsiyalashga o‘tishida o‘z navbatida investitsion jarayonni yangi usulini shakllantirishi talab etiladi. Investitsion sferadagi salbiy holatlar iqtisodiyotni real sektorini texnologik rivojlantirish va innovasion darajasini, asosiy fondlarni ishlab chiqarishni sifatli tavsifiga salbiy ta’sir etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Investitsiya orqali iqtisodiyotni modernizatsiyalash, taraqqiy ettirish, barqaror rivojlanishiga erishish, korxonalarning kapital jamg‘arishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga va iqtisodiy o‘sishiga zamin yaratiladi. Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida qator funksiya va vazifalarni bajaradi, amalda ularsiz har qanday mamlakat iqtisodiyoti bir maromda rivojlana olmaydi.

Investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini muntazam barqarorlashtirishi uchun muhimdir. Real investitsiyalarni (bino va inshootlar qurish va modernizatsiya qilish, zamonaviy mashina va asbob-uskunalar sotib olish) jalb qilish iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini va jozibadorligini oshiradi. Investitsiyalar mikrodarajada ham muhim rol o‘ynadi. Bunda investitsiyalar, eng avvalo, quyidagi maqsadlarga erishish uchun zarurdir: korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish; asosiy fondlarning haddan tashqari jismoniy va ma’naviy eskirishiga yo‘l qo‘ymaslik; qimmatli qog‘ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o‘z mablag‘ini

sarflash zarurligi bilan bog‘liqdir. Investitsiyalar mikrodarajada, korxonalarning kelgusida me’yorda faoliyat ko‘rsatishi, barqaror moliyaviy holatini va maksimum (yuqori) foyda olishini ta’minlash bilan bog‘liqdir. Shu bois ham investitsiyalar makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishda katta rol o‘ynashini mamlakatda investitsiya faoliyatining holatini belgilovchi ko‘rsatkichlarni tavsiflaydi (1.3 – rasm). Ob’ektiv ravishda, investitsiya faoliyatining holatini quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlarini ham harakterlaydi, ya’ni: milliy daromad; yalpi milliy mahsulot (YAMM) va YAIM; sanoat ishlab chiqarish hajmi; sanoat mahsulotlarining alohida turini ishlab chiqarish; qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarish hajmi va boshq.

Investitsiya faoliyatining holatiga baho berishda investitsiya qo‘yilmalarisiz ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlarini tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlar u yoki bu darajada investitsiyalarning samarali ishlatilishini harakterlaydi. Agar ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlari investitsiyalarning o‘sish sur’atlaridan yuqori bo‘lsa, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi va aksincha.



1.3–rasm. Investitsiya faoliyatini holatini belgilovchi ko‘rsatkichlar

O‘zbekiston Respublikasida harakatlar strategiyasi davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar va modernizatsiya qilish jarayoni investitsiya faolligini yanada oshirdi. Investitsiyalar hajmining sezilarli ravishda o‘sib borishi orqali o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatishiga imkon bermoqda. Davlat tomonidan

xo‘jalik sub’ektlarini investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan e’tibor va qo‘llab-quvvatlash natijasida YAIMda investitsiyalarni dinamik o‘sish sur’atlariga ega bo‘ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish birinchi tomondan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirsa; ikkinchi tomondan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish orqali aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlash (farovonligini oshirish) imkonini yaratadi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadalashtirish orqali o‘sib borayotgan mehnatga qobiliyatli aholini qo‘shimcha ish joylari bilan ta’minlaydi, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko‘maklashadi va h.k.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya, real investitsiya, moliyaviy investitsiya, xorijiy investitsiya, fizik aktivlar, nomoddiy aktivlar, jamg‘arma, moliyaviy sektor.

O‘zini-o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Investitsiya faoliyatini belgilovchi ko‘rsatkichlarning ahamiyati.*
2. *Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati.*
3. *Investitsiyalar qanday belgilariga ko‘ra tasniflanadi?*
4. *Moliyaviy investitsiya deganda nimani tushunasiz?*
5. *Real investitsiya deganda nimani tushunasiz?*
6. *Investitsiyalarni iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni.*
7. *Investitsiyalarning qanday turlari mavjud?*
8. *Moliyaviy va real investitsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi.*

II BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINING MAZMUNI VA ASOSIY BOSQICHLARI

§ 2.1. Investitsiya jarayonining mazmun-mohiyati.
§ 2.2. Real investitsiyalarni amalga oshirish va o‘zlashtirish jarayonlari.
§ 2.3. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari.

§ 2.1. Investitsiya jarayonining mazmun-mohiyati

Investitsion jarayonni mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu barcha investitsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, faolyatning asosi hisoblangan uzoq muddatni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bu jarayon bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalni harakati ishlab chiqarish sohasidan savdo sotiq jarayonlariga keng yo‘l ochiladi. Investitsiya jarayoni (ingl. investment process) – bu investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni bo‘lib, bevosita investitsion amaliyotlar shakllanadigan barcha iqtisodiy munosabatar majmuasidir. Amerikalik professor Uilyam Sharpning so‘zlariga ko‘ra, investitsiya jarayoni – bu investor qaysi bozorda qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritishi, qancha yirik sarmoyalar bo‘lishi va qaysi daqiqada amalga oshirilishi kerakligini belgilaydigan jarayonlar to‘plamidir. Bir qator iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, investitsiya jarayoni – bu ba’zi bir foyda olish uchun resurslarni investitsiyalash jarayonidir.

Amaldagi qonunchilikka asosan investitsiya faoliyati – sub’ektlarning investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuidir” – deb e’tirof etilgan. Mazkur faoliyatni davlat avvalo yagona organ sifatida qonunchiliklar, xalqaro kelishuvlar, turli davrda rivojlangan davlatlarning strategik siyosatlari, turli ko‘rinishdagi imtiyozlar, ularning ishtirokchilari o‘rtasida munosabatlarni tartibga solish mexanizmlar va boshqallarni o‘z ichiga oladi. Investitsion jarayonni iqtisodiy mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo mazkur munosabatlardagi “iqtisodiy asos” ko‘proq rol o‘ynaydi. Chunki faoliyatning amalga oshishidan asosiy maqsad ortida samarali faoliyatni tashkil etish va ta’minlash yotadi.

Ba’zi mualliflar investitsiya jarayoni investitsiya qilingan kapitalning ko‘payishidan iborat deb hisoblashadi (Igonin N.V.) boshqalari uni investitsiya faoliyati bilan aniqlaydilar (Makkonel K.R., Bryu S.L.,), boshqalari investitsiya jarayoni bo‘sh pulga ega bo‘lgan kishidan mablag‘larni o‘tkazish mexanizmi deb ta’kidlashadi. Bu pulni

istagan kishi faqat moliya institutlarida va moliya bozorlarida olishi mumkin. Ko‘rib chiqilayotgan toifaning ushbu talqinlari investitsiya jarayonining mohiyatini ochib bermaydi, konsepsiyaning diqqatini o‘zgartiradi va toraytiradi.

Investitsiya jarayoni quyidagi bosqichlarga ega bo‘lishi mumkin:

1-bosqich. Investitsiya oldidagi bosqich (investitsiya imkoniyatlarini aniqlash, muqobil loyiha variantlarini tahlil qilish, optimal loyihani tanlash, loyiha bo‘yicha xulosa, sarmoyalar to‘g‘risida qaror qabul qilish);

2 – bosqich. Investitsiya bosqichi (savdolar, pudratchilarni tanlash, shartnomalar va qurilish shartnomalarini tuzish, kapital qo‘yilmalar, obyektlarni qurish, foydalanishga topshirish va boshqalar);

3 – bosqich. Operasion bosqich (xom ashyo sotib olish, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish, marketing faoliyati va boshqalar);

4 – bosqich. Tugatish bosqichi (aktivlarning qoldiq va bozor qiymatini aniqlash, ishdan chiqqan aktivlarni sotish yoki konservasiya qilish, agar kerak bo‘lsa, loyihaning salbiy oqibatlarini bartaraf etish).

Investitsiya faoliyatining asosida shu mamlakatning moliya tizimining evolyutsion rivojlanish davrlari yotadi, uning uchun iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning rivojlangan bozor iqtisodiyotiga nazar tashlasak u yerda faqat mazkur munosabatlarning asosiy evolyutsion jarayoni bilan bog‘liq. Chunki har bir malakat qonunchiligi doimiy ravishda bir yerda to‘xtab qolmay doimiy ravishda jahon iqtisodiyotiga mos takomillashib boriladi va bu ko‘zlangan natijani beradi. Bu ma’lum davrlarni va takomillashtirish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Samarali faoliyat investitsiya faoliyatini keng faollashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya’ni investitsiyalarni o‘ziga xos shakllari bo‘lishi mumkin, ya’ni:

- ✓pul mablag‘lari, banklardagi maqsadli jamg‘armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar;
- ✓harakatdagi va harakatda bo‘lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, hamda boshqa moddiy boyliklar);
- ✓mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- ✓yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari va boshqa boyliklar.

Investitsiya faoliyati deganda investitsiyalarning turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan ta’qiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan yo‘lga qo‘yish va moliyaviy mablag‘lar sarflash bilan bog‘liq munosabatlar yig‘indisi tushuniladi. Investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi. Investitsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishda har bir mulk egasi o‘z manfaatini ko‘zlab, ya’ni foyda olish va samaraga erishishni ko‘zlaydi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur tushunib yetgan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mulk egasi tez o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko‘p qirrali moliyaviy munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim, chunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish risk bilan bog‘liq bo‘lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishiga alohida e’tibor qaratiladi:

- fuqarolar, davlatga qarashli bo‘lmagan korxonalar, xo‘jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o‘rtoqlik xo‘jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan tashkilotlar, nodavlat korxonalari va muassasalari tomonidan olib borilishiga;
- davlatni ma’muriy va boshqaruv bo‘linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalari va muassasalari tomonidan olib borilishiga;
- chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslari hamda boshqa xorijiy davlatlar va halqaro moliya – kredit muassasalari tomonidan olib borilishiga;
- qo‘shma korxona ko‘rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda olib borilishiga.

Ayni paytda tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo‘lga qo‘yilishi, jahon iqtisodiy aloqalarini taraqqiy etishi, qo‘shma korxonalarni iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi rolini ortishi investitsiya faoliyatini to‘la tashkil etish imkoniyatlarini yaratmoqda. O‘z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi investitsiya faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga

qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo‘jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilash asosiy maqsad bo‘lib hisoblanadi. Shuning bilan birga rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti shundan dalolat beradiki, davlatning investitsion strategiyasining 96 asosiy yo‘nalishlari to‘g‘ri tanlanganligidan dalolat beradi. Investitsion strategiya amaldagi taktikalar natijasida ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Strategik faoliyat uchun turli ko‘rinishdagi imtiyozlar yaratiladi, bu esa barcha jarayonlarni bir tekisda muvofiqlashtirish, tartibga solish, nazorat etish, xalqaro kelishuvlarni unifikatsiyalashgan formalaridan foydalanish kabi mexanizmini ishlab chiqishni talab etadi. Investitsion jarayonni mohiyatiga ko‘ra barcha investitsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq faoliyatning asosi bo‘lib hisoblangan uzoq muddatni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bu jarayon bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalni harakati ishlab chiqarish sohasidan savdo sotiq jarayonlariga keng yo‘l ochiladi. Chunki buning asosiy sababi:

- investitsion mablag‘ o‘z egasidan uzoq vaqt davomida boshqa shaxsga o‘tadi;
- bu o‘z navbatida mablag‘ning o‘z egasidan uzoqlashganligi sababli qaytmaslik ehtimoli bo‘yicha shubha tug‘diradi;
- risk darajasi boshqalarga nisbatan kuchli bo‘ladi;
- savdo sohasida ishlab chiqarishga nisbatan daromadning kelish tezligi kuchayadi hamda risk darajasi ham nisbatan pastligi bilan harakterlanadi;
- uzoq vaqt ichida mablag‘ egasiga kelayotgan daromadlilik darajasi pasayib boradi.

Mamlakatda ushbu holatlarni boshqarishda asosan davlatning muvofiqlashtiruvchi mexanizmlari orqali yo‘lga qo‘yiladi. Bu boshqaruv avvalo davlatning bosh islohatchi sifatidagi roli orqali namoyon bo‘ladi va ushbu jarayonning jahon miqyosdagi faollashuvi esa sekin-astalik bilan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashib boradi. Umuman olganda, investitsion jarayonning keng faollashuvi mamlakat rivoji va xalq manfaati uchun qolaversa, ularning yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi va rivojlantirib boradi.

§ 2.2. Real investitsiyalarni amalga oshirish va o‘zlashtirish jarayonlari

Real investitsiya asosiy fondlar va aylanma mablag‘larga investorlar tomonidan qo‘yiladigan barcha turdagi boyliklar. Moliyaviy investitsiyalar – qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya) sotib olishga va bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo‘yilmalardir. Real investitsiyalarni kapital qo‘yilmalar, deb ham atash mumkin. Kapital qo‘yilmalar yalpi va sof kapital qo‘yilmalariga bo‘linadi. Real investitsiyalarning umumiy summasi yalpi kapital qo‘yilmalarini tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo‘yilmalardir. Sof kapital qo‘yilma yalpi kapital qo‘yilma summasiga teng yoki kam bo‘lishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi, jumladan, korxonalar miqyosida yalpi kapital qo‘yilmani sof kapital qo‘yilmaga aylantirishga alohida e’tibor berilishi lozim.

Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya’ni ishga tushirilishini ta’minlash zarur. Milliy hisoblar tizimida asosiy kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositlariga sarflangan mablag‘lar real investitsiyalar deb hisobga olinadi. Milliy hisoblar tizimida asosiy kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositlariga sarflangan mablag‘lar real investitsiyalar deb hisobga olinadi. Lekin, respublika qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlari sust sur’atlar bilan rivojlantirilayotganligi moliyaviy investitsiyalar ko‘lami kengayishini talab darajasida ta’minlamayapti.

Kelajakda bu muhim masalani hal etishga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Davlatning iqtisodiy siyosatida qishloq xo‘jalik korxonalarida ham qimmatli qog‘ozlar bozorini tashkil etish tadbirlari ishlab chiqilishi va ular amaliyotga tatbiq yetilishi lozim. Real investitsiyalar hajmini investorlarning kelajakdagi daromadliligini baholovchi boshqaruvchilar tomonidan belgilanishiga ye’tibor qaratiladi. Ular tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar real tovarlarga talabni yuzaga keltiradi, yalpi ishlab chiqarishning ko‘payishiga va asosiy kapital kengayishiga imkoniyat yaratib beradi.

Real investitsiyalar jarayoni bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro amaliyotda ushbu jarayonning uchta asosiy bosqichini ajratish odat tusiga kirgan: investitsiya oldi bosqichi, unda aniq investitsiya loyihasi tanlanib baholanadi; aniq investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan investitsiya bosqichi; investitsiyadan keyingi bosqich - bu investitsiya obyektining ishlash bosqichi. Investitsiyadan oldingi bosqich real investitsiya jarayonining

asosini tashkil yetadi, chunki aynan shu bosqichda investitsiya yechimlari uchun alternativ yechimlar variantlari ishlab chiqiladi va investitsiya loyihasi tayyorlanmoqda. O‘z navbatida, ushbu bosqich YuNIDO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti) qo‘llanmasida ta’kidlangan to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi:

- ✓ investitsiya tushunchalarini izlash bosqichi;
- ✓ investitsiya loyihasini oldindan tayyorlash bosqichi;
- ✓ investitsiya loyihaning texnik, iqtisodiy va moliyaviy jozibadorligini baholash bosqichi;
- ✓ investitsiya loyihasi bo‘yicha yakuniy qarorni qabul qilish bosqichi.

Darhaqiqat, real sarmoyalarni jalb qilish jarayonida dastlab investitsiya yo‘nalishini va shaklini aniqlash bilan bir qatorda investitsiya obyektini aniqlash zarur. Keyin investitsiya g‘oyasini amalga oshirishning barcha jihatlarini puxta o‘rganish va investitsiya loyihasini ishlab chiqish zarur, ko‘pincha u biznes-reja shaklida ishlab chiqiladi. Agar bunday investitsiya loyihasini ishlab chiqish mumkin bo‘lsa va u qiziq bo‘lsa, korxona oldida uning samaradorligini baholash vazifasi turadi. Agar bunday baholash natijalari korxona uchun jozibador bo‘lib chiqsa, investitsiya loyihasini amalga oshirish va uni moliyalashtirish manbalarini aniqlash bo‘yicha yakuniy qarorni qabul qilish bosqichi boshlanadi. Real investitsiyalarni bunday bosqichma-bosqich amalga oshirishning afzalligi shundaki, u katta miqdordagi bir martalik xarajatlarni talab qilmaydi, ammo kompaniyaga investitsiya loyihasini tayyorlashga qo‘yilgan mablag‘ miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish imkoniyatini beradi. Ushbu bosqichlarning har biri olingan natijalarni baholashni o‘z ichiga oladi, buning asosida eng istiqbolli investitsiya g‘oyalari va loyihalari tanlanadi va keyingi ishlar faqat ushbu loyihalar bilan olib boriladi. Kompaniyani qiziqtirmaydigan investitsiya loyihalari birinchi bosqichda allaqachon rad etilgan, bu esa ushbu loyihalar samaradorligini baholashga sarflanishi kerak bo‘lgan katta mablag‘larni tejashga imkon beradi. Albatta, vaqt va pulga katta miqdordagi mablag‘ aynan investitsiya oldidan real investitsiya davrining dastlabki uch bosqichida sodir bo‘ladi.

Aynan investitsiya g‘oyasini izlash va tanlash bilan haqiqiy investitsiya jarayoni boshlanadi. Dastlab, korxona investitsiya g‘oyasini rivojlantirish maqsadlarini hisobga olgan holda uni izlash mumkin bo‘lgan chegaralarni belgilashi kerak.

Real investitsiyalarni jalb qilish to‘g‘risida qaror korxonaning quyidagi maqsadlari asosida qabul qilinishi mumkin: taqdim etilayotgan mahsulot yoki xizmat uchun bozor ulushini saqlab qolish yoki oshirish; yangi mahsulot yoki xizmatni chiqarish zarurati; kompaniyaning imidjini shakllantirish yoki qo‘llab-quvvatlash; korxona ixtiyoridagi resurslardan maksimal darajada foydalanishga erishish.

Bundan tashqari, investitsiya g‘oyasini aniqlashda korxona real investitsiyalar sohasida to‘plangan tajribani, uning faoliyatining tarmoq profilini, xodimlarning malakasini, investitsiyalar uchun moliyaviy resurslarning mavjudligini va boshqa omillarni hisobga oladi.

Investitsiya g‘oyasini tanlash, bunday tanlov uchun dastlabki imkoniyatlarning xalqaro miqyosda qabul qilingan tasnifiga asoslanishi mumkin, bu tasnif quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- qayta ishlash va sanoat maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli minerallar yoki boshqa tabiiy resurslarning mavjudligi;
- demografik yoki ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’siri ostida yoki bozorda yangi tovar turlari paydo bo‘lishi natijasida talabning qiymati va tarkibidagi kelajakdagi mumkin bo‘lgan siljishlar;
- import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgan loyihalarning tug‘ilishiga turtki bo‘lishi mumkin bo‘lgan importning tarkibi va hajmi;
- boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish tuzilmasini rivojlantirish tajribasi va tendensiyalari;
- ichki yoki jahon iqtisodiyoti doirasida iste’mol sanoatida paydo bo‘lgan yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlar;
- iste’mol tarmoqlarida ishlab chiqarishni ko‘paytirish rejalari yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarga jahon bozorida o‘sib borayotgan talablar to‘g‘risida ma’lumot;
- ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish imkoniyati;
- mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish bilan xarajatlarni tejashga yerishish uchun ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish maqsadga muvofiqligi;
- umumiy iqtisodiy sharoitlar.

Albatta, sanab o‘tilgan imkoniyatlar asosida korxona investitsiya loyihasining juda katta hajmdagi g‘oyasini shakllantirishi, shuningdek, real sarmoyalar yo‘nalishini tanlashi mumkin. Agar tanlangan konsepsiya korxonaning maqsadlariga javob beradigan bo‘lsa va uning investitsiya faoliyati sohasida qaror qabul qilish uchun mas’ul bo‘lgan

menejerlari tomonidan ma’qullangan bo‘lsa, konsepsiya yanada puxta ishlab chiqilgan. Bu qo‘shimcha ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni va ma’lum bir investitsiya loyihasini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta’kidlash kerakki, moliyaviy sektor murakkab tizim bo‘lib hisoblangan holda uning ishtirokchilari real tovarlar muomalasidan ajralgan holda moliyaviy aktivlarning muomalasini amalga oshirishlari mumkin. Moliyaviy sektor tarkibida moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan turli xil moliyaviy bozorlar kiradi. Moliyaviy sektor ko‘p tarmoqli infratuzilmani va turli tuman moliyaviy instrumentlarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy sektorning asosiy vazifasi – bo‘sh pul resurslarining iqtisodiyotning real sektori subektlari o‘rtasida samarali qayta taqsimlashdir. Moliyaviy sektorning ishlamasligi real sektor sub’ektlarini o‘z jamg‘armalari darajasidan kelib chiqib investitsiyalarni amalga oshirishga majbur etadi. Shu bilan birga, globalizatsiya sharoitida moliyaviy sektorning o‘rni oshib boradi, moliyaviy bozorlarning ko‘lami kengayib ular real sektordan ajralgan holda yerkin faoliyat yuritadi. Moliyaviy kapital uchun ishlab chiqarish sohasidan ajralgan holda mustaqil ko‘payishiga yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Bunga misol sifatida offshor hududlar, ijtimoiy fondlar mablag‘lariga moliyaviy chayqovchiliklarga jalb qilishni, moliyaviy instrumentlari va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin. Kunlik tovar va xizmatlar savdosi o‘tgan asrning 70-yillariga nisbatan 50 foiz o‘sgani holda, jahon valyuta bozoridagi bitimlari hajmi 1 mlrd. dollardan hozirgi kunda 3-4 trln. dollarga yetdi.

Umuman olganda tijorat krediti keskinlik bilan o‘z o‘rnini moliyaviy instrumentlarga bo‘shatib bermoqda. Hozirgi kunda iqtisodchi olim Ernando de Soto hisobiga ko‘ra, dunyoda taxminan 13 trln. dollar naqd pul, 170 trln. dollar an’anaviy qimmatli qog‘ozlar va 600 trln. dollar (bu ko‘rsatgich 1 kvadrillion dollar atrofida ham bo‘lishi mumkin) moliyaviy instrumentlar ko‘rinishida muomaladadir. Keyingi yillarda muddatli kreditlash shaklining ustunligi sezilarli darajada oshdi. Natijada moliyaviy bozorlardagi aylanmalar hajmi real sektordan yuqoriligi qayd etildi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida avvaldan jamg‘arilgan mablag‘larni, kapitalni ko‘paytirish maqsadida tadbirkorlik ob’ektlariga joylashtirish va investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Jamg‘arilgan mablag‘lar investitsiya

sifatida real iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetib bormasdan, moliyaviy vositachilar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda investitsiyalar dastlab moliyaviy investitsiyalar ko‘rinishida maydonga chiqadi va so‘ngra real investitsiyalarga aylanadi.

Real investitsiyalar kapital qo‘yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi hamda o‘zidagi yangi qurilishlariga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-harajatlarni mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham iqtisodiy fanda va amaliyotda “investitsiya” va “kapital qo‘yilma” terminlarining mutlaq bir xil tushunchalar emasligini nazarda tutadi. Investitsiyalar kapital qo‘yilmaga nisbatan kengroq ma’noda qo‘llaniladi.

Makroiqtisodiyot ko‘lamida olib qaralganda real investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zahiralarining o‘sishiga qilinadigan harajatlardan tashkil topadigan yalpi harajatlarning bir qismi hisoblanadi. Real investitsiyalar – bu joriy davrda iste’mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o‘sishini ta’minlovchi YAIMning bir qismidir. O‘zbekiston iqtisodiyotida real investitsiyalar hajmi muttasil ravishda ortib bormoqda. 2017-2021 yillar davomida iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida katta ishlar bajarildi. Ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2019 yilning yanvar-martida 10543,7 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 1,3 mlrd. AQSH doll.) yoki 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 191,2 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 35,3 foiz tashkil etdi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlat harakatlar strategiyasi dasturi doirasida ushbu jarayonni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirib kelinmoqda. Bu esa investitsiya faoliyatini huquqiy asoslari takomillashtirish maqsadlarida qator qonun hujjatlariga va boshqa huquqiy normalarga jiddiy o‘zgarishlar kiritildi. Buning natijasida milliy investorlar va xorijdan jalb qilinadigan investorlar uchun berilayotgan kafolatlar tizimi yanada mustahkamlandi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida undagi tarkibiy o‘zgarishlar ham jadallashadi va bu investitsiya faoliyatiga

yangicha yondashishni talab etadi. Mazkur yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqadi:

– investitsiya jarayonini faollashtirish;

– investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish;

– investitsiya jarayoniga korxonalar, tashkilotlar, aholi jamg‘armalarini keng miiyosda jalb etish;

– chet el kapitalining kirib kelishi uchun investitsiya muhitini kengaytirish.

Dunyo tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish ancha murakkabligi tufayli uni amalga oshirishda moliya tizimi muhim o‘rin egallaydi. Hozirda moliya-kredit tizimi tadbirkorlar bilan ishlashning asosiy va barqaror vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tizimni yanada mustahkamlash ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning tez sur’atlarda rivojlanishiga imkon yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bank tizimi orqali moliyaviy aktivlarning tezda pulga aylanishi va sug‘urta tizimi orqali riskning taqsimlanishi moliyaviy shakldagi jamg‘arma hajmini saqlab qolishga va ko‘paytirishga imkon beradi. Moliya bozorining rivojlanishi va moliyaviy dastaklardan foydalanish orqali esa xo‘jalik ob’ektlari tavakkalchilik qilishga va jamg‘arma to‘plash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, barqaror va sog‘lom moliyaviy tizimning rivojlanishi investitsiyalashning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi[13].

Real investitsiyalardan samarali foydalanish ularni amalga oshirayotgan korxonalarda iqtisodiy jarayonlar moliyaviy sog‘lom faoliyatni tashkil etilishga ham bog‘liq bo‘ladi. Investitsiya harakteridagi qo‘yilmalarning kutilayotgan samaradorligini moliyaviy menejmentning zamonaviy usullarini qo‘llagan holda baholash va investitsion jarayon ustidan muntazam monitoring faoliyatini amalga oshirish resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Aytish joizki, investitsiyalarni moliyalashtirish mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoliga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim xususiyati xususiy

[13] “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2016 yil 16 yanvar.

tadbirkorlikka keng yo‘l ochish va biznes muhitini yanada yaxshilash borasidagi ishlarning izchil davom ettirilishidir. Jumladan, keyingi yillarda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma’muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat’iy tartib o‘rnatildi.

§ 2.3. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari

Ma’lumki, amaldagi qonunlarga ko‘ra milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishning turli manbalari mavjud bo‘lsada ham investitsiyalash jarayonida davlatning moliyaviy mablag‘lari bilan ishtirokining keskin kamayishi iqtisodiyot sub’ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini faollashtirishning yangi moliyaviy manbalarini izlashga undamoqda. Turli mulk shaklidagi korxonalarni investitsiyalashga mo‘ljallangan mablag‘larning asosiy qismi pul shaklida o‘z ifodasini topadi. Turlicha ko‘rinishda pulning investitsiyaga aylanish jarayoni amalga oshirilsada ham xo‘jalik sub’ektlari o‘zlarini faoliyatini yuritishlari uchun pul mablag‘lariga ega bo‘lgan holda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ob’ektlarni tashkil etish va kengaytirishi mumkin bo‘ladi. Bu esa investitsiyalash jarayonining oddiy shakli bo‘lib hisoblanadi.

Boshqa hollarda pul jamg‘armalarining investitsiyaga aylanishi murakkab kechadi, buning sababi aholining katta qatlamini ishlab chiqarishni boshqarish ko‘nikmasiga va uni tashkil etish uchun minimal mablag‘larga ega emasligidir. Bu esa korxonalarda bevosita investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Kapital quyilmalar ob’ektiga ko‘ra investitsiyalar yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek real va moliyaviy turlarga ajratiladi va ular o‘z navbatida iqtisodiyotning real va moliyaviy sektori o‘rtasidagi nisbatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa nomutanosiblik yoki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlanishida o‘z aksini topadi.

Nomutanosiblik bozor xo‘jaligi ichki tarkibining asosini tashkil qilishi yoki kapitalistik iqtisodiyotning boshqa dastaklari singari pul va moliya bozorining ham asosiy vazifasi iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi xaqida Dj.M.Keyns batafsil o‘z asarlarida fikr bildirib o‘tgan. Amalda esa ular teskari samara ko‘rsatib beqarorlikka olib kelishi mumkin. Buning sababi Keyns “qo‘shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to‘ldirish”da deb biladi.

Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish bir qator xususiyatlar

bilan tavsiflanadi, ularning asosiylari:

1. Moliyaviy investitsiyalar – bu iqtisodiyotning real sektori korxonalari uchun mustaqil iqtisodiy faoliyat turi.

2. Moliyaviy investitsiyalar korxona tomonidan tashqi investitsiyalarning asosiy vositasidir.

3. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining yalpi investitsiya ehtiyojlari tizimida moliyaviy investitsiyalar ikkinchi darajadagi investitsiya ehtiyojlarini shakllantiradi (ikkinchi bosqich).

4. Korxonaning strategik moliyaviy investitsiyalari uning rivojlanishining individual strategik maqsadlarini tezroq va arzonroq amalga oshirishga imkon beradi.

5. Portfel moliyaviy investitsiyalari iqtisodiyotning real sektori korxonalari tomonidan asosan ikkita maqsadda qo‘llaniladi: erkin pul mablag‘laridan foydalanish jarayonida qo‘shimcha investitsiya daromadlarini olish va ularni inflyasiyaga qarshi himoya qilish.

6. Moliyaviy investitsiyalar kompaniyaga «rentabellik-tavakkal» shkalasi bo‘yicha eng keng investitsiya vositalarini taqdim etadi.

7. Moliyaviy investitsiyalar kompaniyaga «rentabellik-likvidlik» miqyosida juda ko‘p miqdordagi investitsiya vositalarini taqdim etadi.

8. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv qarorlarini oqlash jarayoni sodda va kam mehnat talab qiladi

9. Moliya bozorining tovar bozori bilan taqqoslaganda yuqori darajadagi o‘zgaruvchanligi moliyaviy investitsiyalar jarayonida faolroq kuzatuv zarurligini belgilaydi.

Moliyaviy investitsiyalar korxona tomonidan quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:

1. Qo‘shma korxonalarning ustav fondlariga kapital qo‘yilmalar. Moliyaviy investitsiyalarning ushbu shakli korxonaning operasion faoliyati bilan eng yaqin munosabatlarga ega. Bu xom ashyo va materiallar yetkazib beruvchilar bilan strategik iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishini ta’minlaydi (ularning ustav kapitalida ishtirok etgan holda); uning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish (transport va boshqa shu kabi korxonalarga mablag‘ qo‘yishda); savdo imkoniyatlarini kengaytirish yoki boshqa mintaqaviy bozorlarga kirib borish (savdo korxonalarining ustav kapitaliga sarmoya kiritish yo‘li bilan); operatsion faoliyatni tarmoq va tovarlarni diversifikasiyalashning turli shakllari va korxona rivojlanishining boshqa strategik yo‘nalishlari. O‘zining mazmuni jihatidan moliyaviy

investitsiyalarning ushbu shakli asosan sarmoyaning o‘rnini egallaydi, shu bilan birga kapitalni kam talab qiladigan va samaraliroq. Ushbu investitsiya shaklining ustuvor maqsadi yuqori investitsiya foydasini olish emas (garchi uning minimal talab qilinadigan darajasi ta’minlanishi kerak bo‘lsa), balki korxonalarning operasion foydasining barqaror shakllanishini ta’minlash uchun ularga moliyaviy ta’sir ko‘rsatish shakllarini belgilashdir.

2. Pul vositalarining daromad turlariga kapital qo‘yilmalar. Moliyaviy investitsiyalarning ushbu shakli birinchi navbatda korxonaning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘laridan samarali foydalanishga qaratilgan. Pul investitsiya vositalarining asosiy turi bu tijorat banklaridagi omonatdir. Odatda, ushbu shakl qisqa muddatli kapital qo‘yilmalar uchun ishlatiladi va uning asosiy maqsadi investitsiyalarning daromadlarini yaratishdir.

3. Fond vositalarining daromad turlariga kapital qo‘yilmalar. Moliyaviy investitsiyalarning ushbu shakli eng keng tarqalgan va istiqbolli hisoblanadi. Bu fond bozorida erkin muomalada bo‘lgan har xil turdagi qimmatli qog‘ozlarga kapital qo‘yilishi bilan tavsiflanadi («bozor qimmatli qog‘ozlari» deb nomlanadi). Ushbu moliyaviy investitsiya shaklidan foydalanish investitsiya vositalari va ularning shartlari nuqtai nazaridan alternativ investitsiya yechimlarini tanlash bilan bog‘liq; davlat tomonidan tartibga solish va investitsiyalarni himoya qilishning yuqori darajasi; fond bozorining rivojlangan infratuzilmasi; qimmatli qog‘ozlar bozorining holati va sharoitlari to‘g‘risida uning alohida segmentlari va boshqa omillar sharoitida tezkor ma’lumotlarning mavjudligi. Ushbu moliyaviy investitsiya shaklining asosiy maqsadi ham sarmoyaviy foyda olishdan iborat, garchi ba’zi hollarda bu alohida kompaniyalarga strategik muammolarni hal qilishda (nazorat qiluvchi yoki yetarlicha muhim aksiyalar paketini sotib olish orqali) moliyaviy ta’sir ko‘rsatish shakllarini o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkin.

Aytish joizki, Keyns ta’limoti izdoshlari o‘z qarashlarida moliyaviy sektorning iqtisodiyotning beqarorligiga va sikllligiga ta’sirini tahlil etishda yagona qarash mavjud emasligini e’tirof etishadi. Fond bozori faoliyati natijasida tizimning beqarorligi hozirgi zamon fond bozorlari real investitsiyalarni moliyalashtirish uchun faoliyat yuritishlarini nazarda tutmaydi, balki aksincha ularni fond bozori faoliyatining natijasi sifatida o‘rganiladi deb ta’kidlaydi. Dj.M.Keyns real va moliyaviy investorlar qarorlari va faoliyatiga yuqori baho berib,

aksiyalar kursining pasayishi kapital samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini kapital samaradorligining yuqori nuqtasini real investitsiyalar foydaliligining kutilishi deb hisoblaydi. Real investitsiyalarni aksiyalar kotirovkasi tebranishi bilan, kotirovka esa, ularning kelajakdagi dinamikasi haqidagi fikrlar orqali belgilanishi deb talqin qiladi.

Aksariyat investorlar fikrlar dinamikasini baholashni emas, ishlab chiqarish vositalarini harid qilishni ustun qo‘yishi bilan birga kelajakda o‘z investitsiyalarining samaradorligini baholash uchun qo‘lga kiritilgan natijalarga asoslangan holda ma’lumot yig‘ishni muhim deb biladilar. Ushbu jarayonni tashkil etish usullari investitsiyaning sifat belgilarini ifodalaydi.

Fond bozori tomonidan ta’minlanadigan individual qo‘yilmalar likvidligining yuqoriligi ularning real sektorga oqib o‘tishini kuchaytiradi. Yangi sharoitlarda investitsiyaning muhim xususiyatlaridan biri, u ham bo‘lsa investitsiya faoliyatini faollashtirishga qaratilgan alohida e’tibor biznesning uzoq muddatli faoliyatiga emas, balki birja kotirovkalariga qaratgan moliyaviy investorlar tomonidan real investitsiyalar amalga oshirilishi beqarorlik muammosining chuqurlashuviga olib keladi. Xalqaro tajriba ko‘rsatishicha agar moliyaviy sektor real sektordan ustun bo‘lsa, undagi chayqovchilik harakteri investitsion qarorlarni bashorat qilish yanada qiyinlashadi. Bugungi kunda sikl fazasini belgilab beruvchi investitsiyalarning haqiqiy hajmi ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan talab va taklif narxlarini solishtirish, shuningdek, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining hammabopligi bilan belgilanmoqda. Birinchi omil investitsiyani kiritish to‘g‘risidagi qarorni, ikkinchisi esa kutilayotgan daromad baholangandan so‘ng investitsiyalar hajmini belgilab beradi.

Moliyaviy resurslar taqsimlanmagan foyda va bank kreditlaridan tashkil topganligi bois bank kreditlarining hajmi kelajakdagi kon’yuntura o‘zgarishlari tufayli kreditorlar risklarini sub’ektiv baholashga bog‘liq bo‘lishi tabiiydir.

Hozirgi sharoitda narxlarga ta’sir qiluvchi asosiy omil – investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida iqtisodiyotda to‘plangan qarzning xajmi va o‘sishidir. Qarzning ko‘payib borishi bilan bank kreditlarini jalb qilayotgan real sektorning qaramligi oshib boradi, siklning o‘suvchi fazalarida esa real sektorning kreditdan qaramligini o‘sishi bilan birga uning hammabopligi kamayib borishi mumkin.

Iqtisodiyotda moliyaviy bozorlarning me’yorida faoliyat yuritishi natijasida iqtisodiyotni “bum” holatiga olib keladi bu esa o‘z navbatida moliyaviy inqirozni keltirib chiqaradi. Demak moliyaviy beqarorlik gipotezasiga ko‘ra, real investitsiyalarni moliyalashtirish uchun qarzning ko‘payib borishi siklli dinamikasini harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Moliyaviy investitsiyalar – bu daromad olish (foizlar, dividendlar va ijara haqi kabi) va asosiy kapital qiymatini ko‘paytirish maqsadida investor tasarrufida bo‘lgan korxona aktivlardir. Mohiyat jihatdan “qimmatli qog‘ozlarga (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar), ya’ni moliyaviy aktivlarga joylashtirilgan kapital moliyaviy investitsiyalarni anglatadi”[14].

Moliyaviy investitsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin (2.1 – rasm).

Real va moliyaviy investorlar maqsadlarining turlicha bo‘lishi va fond bozorining real sektorga ta’sirining yo‘qligi bilan belgilanishi va investitsiya siyosatini nazorat qilish orqali esa ma’lum vaqtdagi investitsiyalar hajmini belgilab berishga erishish mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida pul resurslarini uzluksiz shakllantirish va ularni daromad keltiruvchi ob’ektlarga samarali investitsiyalash moliya bozori yordamida ta’minlanadi. Ushbu bozor o‘zida pul bozori, kredit bozori va fond bozorini mujassam etadi. Fond bozorida moliyaviy (portfel) investitsiyalar amal qiladiki, ular qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Moliyaviy investitsiya yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyorida mavjud bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib moliyaviy investitsiyalar joriy (qisqa) va uzoq muddatli investitsiyalarga bo‘linadi. Joriy (qisqa) investitsiyalar – erkin sotiladigan va bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatda egalik qilishga qaratilgan qimmatli qog‘ozlardir. Odatda ular bozor (likvidli) qimmatli qog‘ozlari, deb ham ataladi.

Jalb etilgan mablag‘lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, asosan, qimmatli qog‘ozlar, xorijiy investitsiyalar va bank kreditlari hisobiga amalga oshiriladi. Bank kreditlari qarz mablag‘lari tarkibiga kiritilsa ham, bu manbani jalb qilingan mablag‘lar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir, chunki bank krediti investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun chetdan, kredit tashkilotlaridan jalb

[14] Neshitoy A.S. Investitsii: Uchebnik. – 4-ye izd. – M.: «Dashkov i K⁰», 2006. – S. 14.

qilinadi. Investitsiya qilishda turlicha vositalar qo‘llanilishi mumkin: pul, valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar, mulk (moddiy va nomoddiy), turli tovar-xom ashyolar va h.k. Bular ichida qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish investorning talablarini qondirishning eng samarali va keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi.



2.1-rasm. Moliyaviy investitsiyalarni tasnifiy belgilari

Iqtisodiyotning xo‘jalik sub’ektlari uchun qimmatli qog‘ozlar bozori moliyaviy ta’minlanish manbai va aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh turgan mablag‘larini iqtisodiyotga faol jalb etuvchi, pul mablag‘larini qayta taqsimlovchi mexanizmdir. Iqtisodiyotning yangidan vujudga kelayotgan va faoliyat yuritayotgan tarmoqlarini rivojlantirish uchun turli hajmdagi investitsiyalar kerak bo‘ladi. Bunday talabni qondirishda qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasida pul vositalarini samarali qayta taqsimlovchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Bo‘sh turgan mablag‘larni aksiyadorlik jamiyatlariga yoki davlat budjetiga yo‘naltirish qo‘shimcha mablag‘ga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga olib keladi. Mana shunday vaziyatlarda pul mablag‘larini

qayta taqsimlaydigan samarali iqtisodiy mexanizm kerak bo‘ladi. Bu mexanizm moliyaviy investitsiyalar harakatini ta’minlab, iqtisodiy o‘sishga sharoit yaratadi. Moliyaviy investitsiya moliya bozorlarida amalga oshiriladi, qaysiki bunga qo‘yidagilar kiradi:

- valyuta bozori(ichki bozorlar va unga o‘xshash halqaro bozorlar);
- qimmatli qog‘ozlar bozori;
- oltin, qimmatbaho metal va toshlar bozori;
- ssuda kapital bozori;
- hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori.

Pensiya va sug‘urta fondiga o‘xshash moliya bozorini bunday segmentida investitsiya qimmatli qog‘ozlar yoki ssuda kapitali bozori orqali amalga oshiriladi.

Intellektual investitsiyalar – kelgusidagi yangi ishlab chiqarish uchun texnik texnologik jarayonlar bilan bogliq nomoddiy (ilmiy, nou-xau,programmalar, savdo markalar va boshqalar) aktivlarga aytiladi. Uning turlari:

- ilmiy yangiliklarni ishlab chiqish investitsiya;
- mutaxassislarni tayyorlash uchun qo‘yilgan investitsiya;
- ijtimoiy sohaga qo‘yilgan investitsiya;
- boshqa yangilik bilan boglik investitsiya.

Har qanday mamlakatning iqtisodiyotini asosi haqiqiy investitsiyani tashkil etadi, jumladan; u yerda jamg‘arma jarayoni va uning ko‘payishi ichki yalpi mahsulot (YAIM)ga ko‘paytirish orqali yuzaga keladi. Hozirgi sharoitda investitsiyani asosiy dolzarb bo‘lgan innovatsiyani sotib olishga qaratilgan. Innovatsiya ijtimoiy – iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan texnologik jarayonni ishlab chiqish, intellektual mehnat natijasidagi umumiy faoliyat (ishlab chiqarish, iqtisodiy, xuquqiy va ijtimoiy munosabatlar fanda, san’at va ta’lim sohasi va boshqa faoliyatlar)ning u yoki bu sferasidan foydalanishdir.

Moliyaviy investitsiya nimaga tegishli bo‘lsa u haqiqiy investitsiyani tezlashtiruvchi vosita sifatida ko‘rib chiqilsa, unda bu holat to‘g‘ri hisoblanadi yoki bu avvalgi investitsion kapitalni egallanishi qoplanishi va jamg‘arilishiga olib keladi.

Investitsiyalar nuqtai-nazaridan moliyaviy investitsiyalarni ko‘rib chiqish ma'lum bir korxonaning qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilgan investitsiyalar deb ta'riflanishi mumkin, ammo moliyaviy investitsiyalarni oluvchi korxona nuqtai nazaridan moliyaviy

investitsiyalarning xususiyatini investitsion hamjamiyatning ushbu korxonani rivojlantirish uchun ishlatishi hisoblanadi. Bundan tashqari, agar investitsiya jarayonining mukammal modelini ko‘rib chiqsak, potentsial investorlar korxona, oluvchi investitsiya kompaniyasi ustidan nazoratni o‘z zimmalariga olishni mo‘ljallamagan, korxonalarning cheksiz katta doirasi bo‘lganida, kim uning aktsiyadori yoki kreditoriga aylanishi muhim emas. Oluvchi kompaniya rahbariyati o‘z mablag‘laridan keyinchalik foydalanish va hajmini oshirish uchun aktsiyadorlar va kreditorlarning talablarini qondirishi muhimdir.

Shunday qilib, moliyaviy investitsiyalarni moliya bozorida to‘plangan sarmoyaviy hamjamiyatning mablag‘larni qabul qiluvchi korxonalarning iqtisodiy faoliyatiga jalb qilish orqali saqlash va ko‘paytirish maqsadida to‘plashi mumkin. Bunday holda, oluvchini tanlash mezoni bu investitsiya bo‘yicha istalgan natijaga erishish ehtimolidir.

Investitsiyaning maqsadi va bularni risk bilan bog‘liqligiga qarab, investitsiya:

- venchurli (riskli);
- to‘g‘ridan to‘g‘ri;
- portfelli;
- annuitet shaklda bo‘ladi

Venchurli (riskli) kapital – bu so‘zni riskli kapital qo‘ylmani nomlash uchun qo‘llanilgan bo‘lib, u yuqori risk bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarishni yangi sohasida aksiya chiqarish hisobiga investitsiyani jalb etish shaklidir. Venchurli kapitalda qo‘yilgan kapital hisob kitoblarda tez o‘zini qoplash bilan bog‘liq loyihalarga kapital investitsiya qilinadi. Kapital qo‘yilma, tartib bo‘yicha aksiyalardagi oxirgi konversiya qilish huquqi bilan bog‘liq korxona mijozini aksiyasini bir qismini sotib olish yoki unga ssuda berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Riskli kapital qo‘yilma yangi texnologiyalarga asoslangan kichik innovatsion korxonalarni moliyalashtirish zarurligiga asoslanadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya mazkur sub’ektni boshqarishda ishtirok etish huquqi orqali xo‘jalik sub’ektining daromadga ega bo‘lish va olish maqsadida ustav kapitaliga mablag‘ qo‘yishni bildiradi. Alohida ob’ektlarga investitsiyani konsentratsiyalash (zich jamlanish) alohida yutuqli natijalarga erishishga yo‘naltirilgan qo‘yilmani maqsadini ko‘zlaydi va tadbirkorlik faoliyati ustidan to‘liq ahamiyatli bo‘lgan nazoratlarni imkoniyatini beradi, biroq bu yuqori riskli hisoblanadi.

Portfel investitsiyasi portfelni shakllantirish bilan bog‘liq va bu qimmatli qog‘ozlarni va boshqa aktivlarni sotib olishni ifodalaydi. Portfel – vkladchini aniq investitsion maqsadiga erishishi uchun instrument vositasini bajaruvchi yig‘ilgan yagona holatga keltirilgan jamlangan jami barcha turli xildagi investitsion qimmatliklardir. Portfelga bir xil formadagi qimmatli qog‘ozlar va turli xildagi investitsion qimmatliklar kirishi mumkin (aksiya, obligatsiya, jamg‘arma va depozit sertifikatlari, garov guvohnomasi, sug‘urta polisi va boshqalar). Portfel investitsiyasi diversifikatsiyalash mexanizmi orqali riskni agar tadbirkorlik ustidan nazorat o‘z vaqtida joriy etilgan bo‘lsa va sof foydani aniq o‘rtachaga yo‘naltirilgandagina kamaytirishga olib boradi.

Jamg‘arish – bu joriy davrdagi qayta ishlashning moddiy asosini kengaytirish orqali aholi iste’molini oshirishga yo‘naltirilgan jarayon. Jamg‘arishning asosiy funksiyasi – takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard maqsadi aholining o‘sib va o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini bosqichma – bosqich ta’minlash bo‘lib hisoblanadi. Jamg‘arma, odatda, investitsiya sifatida iqtisodiyotga kiritiladi, ya’ni jamg‘armaning iqtisodiyotga ijobiy ta’siri investitsiyaga aylangandagina yuz beradi.

Jamg‘arma deyilganda aholi, korxona va davlat joriy daromadlarining doimiy ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to‘planib borishi tushuniladi. Jamg‘armaning hajmi barcha faoliyat yurituvchi xo‘jaliklar daromadidan iste’mol sarflarini ayirib tashlash orqali aniqlanadi. Iste’mol sarflari ulushi daromad tarkibida qanchalik yuqori bo‘lsa, jamg‘arma hajmi shunchalik kam bo‘ladi, ammo bunday holat investitsiya faoliyatiga, uning taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Jamg‘armaning o‘sishi bir tomondan, iqtisodiy ma’noda mablag‘larning iste’mol buyumlar harid qilishga yo‘naltirilishini bildirsa, ikkinchi tomondan, muddat jihatdan kechiktirilgan iste’mol jamg‘armani anglatsada, jamiyat oldida doimo bugungi va ertangi iste’molning qancha bo‘lishini yechish muammosi turadi. Jamg‘arish bilan investitsiya o‘rtasidagi muvozanat makroiqtisodiy muvozanatga erishishning eng muhim shartidir. Biroq, bu muvozanatga erishish doimo oson kechmaydi. Bunga sabab investitsiya darajasi va jamg‘arma darajasining boshqa-boshqa jarayon va holatlarga bog‘liqligidir.

Yuqori jamg‘arish me’yoriga ega bo‘lgan mamlakatlar, boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holda, odatda, yuqori iqtisodiy o‘sish

sur’atlariga ega bo‘lishadi. Shu bois ham mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini ko‘paytirish va uning iqtisodiy o‘sishini ta’minlashdagi rolini oshirishning muhim zaruriy shartlaridan biri – bu jamg‘arish me’yorining nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta’minlash hisoblanadi. Shu bois me’yori barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichi jamg‘arish bo‘lib xizmat qiladi. Jamg‘arish me’yorining o‘sishi bilan YAIMning qo‘shimcha o‘sish sur’ati ham yuz beradi. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, jamg‘arish me’yori 25 foizdan ortiq bo‘lgan mamlakatlarda YAIMning qo‘shimcha o‘sish sur’ati o‘rtacha 4,8 foizga teng bo‘lgani holda, jamg‘arish me’yori 30 foizdan ortiq mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 8,7 foizni tashkil etgan.

Annuitet (nem. Annuitat – yillik to‘lov) – investitsiya, asosan pensiyaga chiqganlar uchun bir xil vaqtlar oralig‘i ichida ma’lum daromadni vkladchiga olib kelish uchun yo‘naltiriladigan investitsiyadir. Asosan bunda mablag‘ni sug‘urtaga va pensiya fondiga qo‘yish hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyasi va pensiya fondlari muomalaga qarz majburiyatlarini chiqaradi, qaysiki ular ya’ni egalari kelgusida ko‘zda tutilmagan harajatlarni qoplash uchun foydalanadilar. Xayotni sug‘urtalash sug‘urtalovchini moddiy bog‘liqligi ta’minlangan holda sub’ektlarni kutilmagandagi o‘lim holatlarini moliyaviy xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Pensiya fondi o‘z mijozlarini pensiya yoshiga chiqqandan so‘ng pul mablag‘lari bilan moddiy ta’minlab turadi.

Shuningdek investitsiya xajmiga ssuda foiz stavkalari ahamiyatli ta’sir etadi, demak investitsiyalash jarayonida nafaqat shaxsiy mablag‘lar, balki jalb qilingan mablag‘laridan ham foydalanish mumkin. Agar kutilayotgan sof foyda normasi ssuda foizini o‘rtacha stavkasidan yuqori bo‘lsa u holda investor uchun bunday qo‘yilma ma’qul hisoblanadi. Shuning uchun ssudani o‘rtacha foiz stavkasini o‘sishi mamlakat iqtisodiyotida investitsiya xajmini kamayishiga olib keladi. Bunday holda davlat pulni kredit emissiyasini chegaralash orqali muomaladagi pul massasini kamaytirish maqsadida restriksion siyosat olib boradi.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya jarayoni, investitsiya ob’ekti, investitsiya sub’yekti, investitsiya faoliyati, jamg‘arma, annuitet, portfe’l investitsiya, venchur, Intellektual investitsiyalar

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Investitsiyaning maqsadi va ularni risk bilan bog‘liqligiga qarab, investitsiya qanday turlarga ajratiladi?*
2. *Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirishni o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
3. *Intellektual investitsiyalarning qanday turlari mavjud?*
4. *Real investitsiyalarni o‘zlashtirish jarayoni qanday amalga oshiriladi?*
5. *Investitsiya jarayoni ishtirokchilari kimlar?*
6. *Investitsiyalash ob’ektlari qanday tanlanadi?*
7. *Investitsiya jarayoni deganda nimani tushunasiz?*
8. *Annuitet deganda nimani tushunasiz?*
9. *Moliyaviy investitsiyalarning qanday tasnifiy belgilari mavjud?*
10. *Investitsiya jarayoni qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?*

III BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI

§ 3.1. Investitsion faoliyat tushunchasining ahamiyati.
§ 3.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish
§ 3.3. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining me’yoriy-qonuniy bazasi
§ 3.4. Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish bosqichlari
§ 3.5. Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko‘chishini hisobga olish

§ 3.1. Investitsion faoliyat tushunchasi

Investitsiya faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi. Davlat investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish, soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo‘llash, normalarni, qoidalar, standartlarni belgilash, monopoliyaga qarshi choralarni qo‘llash, kredit siyosati va narx siyosatini o‘tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash va boshqa yo‘llar bilan bunday faoliyatni amalga oshiradi. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir. Investitsiya kiritishda, avvalo: investitsiya faoliyatini subyektlarining mustaqilligi va tashabbuskorligi; kiritilayotgan moddiy ne’matlarga investitsiya maqomini berish; qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya faoliyatining obyekti moddiy va nomoddiy ne’matlar ishlab chiqarish obyektlari hisoblanadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, tadbirkorlikning taraqqiyoti mavjud mablag‘larini ixtiyoriy investitsiyalash asosida faoliyat yuritishni taqoza etadi. Investitsiya shu jumladan, chet el investitsiyalarini huquqiy tartibga solish, birinchidan, milliy qonun hujjatlari bilan, ikkinchidan, xalqaro shartnomalar bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyatining ob’ekti moddiy va nomaddiy ne’matlar ishlab chiqarish ob’ektlari hisoblanadi. Investitsiya faoliyatining sub’ektlaridan biri investor bo‘lib, u o‘z mablag‘larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘larni, mulkiy boyliklarini va ularga doir

huquqlarini, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob’ektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o‘ziga xos faoliyat sub’ektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo‘lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatida sohalardan birini yoki bir nechtasini tanlab olish huquqiga investorlarning o‘zlari ega bo‘ladilar. Ularni hyech kim soha yoki investitsiya obyektlarni tanlashga majbur eta olmaydi. U yoki bu sohani tanlashda va investitsiyalarni ma’lum bir sohaga sarflashdagi qarorlarni investorlarning o‘zlari qabul qiladilar. Investitsiya faoliyati subyektlari bo‘lib bir investor, bir nechta tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ishtirokchi investorlar bo‘lishi mumkin. Investitsiyalarni jalb etish va sarflash sohalariga asoslanib investitsiya faoliyati obyektlarini turkumini tuzish mumkin. Investitsiya faoliyati obyektlari turkumi investitsiyalarni sarflanish sohalariga binoan quyidagi 3.1 – rasmda ko‘rsatilgan.

Investitsiyaviy faoliyatni ikki bosqichdan iborat harakatlarga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda investor o‘zining bo‘sh mablag‘larini investitsiyaviy shaklida kiritilish to‘g‘risidagi qarorni qabul qiladi. Bunda u tadbirkorlik faoliyat obyektlarini o‘zgartirishi asosida foyda olishining maqbul yo‘llarini izlaydi. Bu bosqichda investitsiyaviy shartnomani imzolash bilan moddiy yoki nomoddiy ne’matlarga investitsiya maqomi beriladi. Investitsiya faoliyatining ikkinchi bosqichi investitsiyalarni realizatsiya qilish bo‘yicha amaliy harakatlarini amalga oshirishdan iborat. Bu bosqichning xarakterli tomoni shundan iboratki, bunda investitsiyaviy shartnomalarni amalga oshirish bo‘yicha qator harakatlar amalgam oshiriladi. Bunda investitsiyaviy faoliyatning har bir ishtirokchilarining vakolatlari doirasi, shuningdek investitsiyaviy faoliyati subyektlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich investitsiyaviy faoliyat obyektini barpo etish bilan yakunlanadi. Investitsiyaviy faoliyat subyektlarining o‘zaro munosabatlari shartnoma asosida tashkil etiladi. Investitsiyaviy shartnoma yuridik, tarkibiy murakkab shartnoma bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiya faoliyati investitsiya faoliyati sub’ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlari majmuasi tushuniladi. Investitsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishda har bir mulk egasi birinchi navbatda o‘z manfaatini ko‘zlab yagona bir maqsadga, ya’ni foyda olishga yoki ijtimoiy samara olishga intiladi.

Mamlakatimizda korxonalar investitson faoliyat samaradorligini oshirish va ularning samarali faoliyat olib borishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Lekin shunday bo‘lsada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “..iqtisodiyot o‘sishining yuqori sur’atlari va investitsiya resurslariga o‘sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emas. Mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o‘ta qoniqarsiz ahvolda qolmoqda”[15].



3.1–rasm. Investitsiya faoliyati ob’yektlari turkumlari

[15] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. 104 b.

Shunday ekan, iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan investitsiyalarni modernizatsiyalash jarayoniga qay yo‘sinda ta’sir etayotganligini aniq tahlilini olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Investitsion faoliyatni amlaga oshirish uchun qilingan sarf harajatlardan ijobiy natijaga ega bo‘lish tashqi omillarning samaradorligini kuchaytirish salbiy holatlarni yumshatish uchun ko‘pgina investitsion faoliyatini to‘laqonli va samarali boshqaruv tizimini yaratishni taqozo etadi. Alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, zamonaviy iqtisodiyotning shiddatli harakati uchun korxonaga samarali boshqaruvini yaratishni zarur qilib qo‘yadi va busiz korxona investitsion faoliyatini amalga oshira olmaydi.

Investitsion faoliyatni amalga oshirishning dastlabki bosqichi ancha murakkabdir. Chunki, aynan mazkur bosqichda yuqori ehtimollik darajasi ko‘proq tanlangan ijodiy va katta hajmdagi tahliliy yondashuvga borib taqaladi. Aynan shunday tahlillar natijasiga tayanib, korxona investitsion faoliyati rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Shuning uchun birinchi bosqich keyingi bosqichlarning tashkillashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi. Bozor kon’yukturasini prognozlashtirishdan asosiy maqsad korxona investitsion faoliyatiga ta’sir etishi ko‘zda tutilayotgan tashqi omillarni aniqlab olishdan iboratdir.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy sharoitlarida milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashning zaruriy shart-sharoitlaridan biri rivojlangan moliyaviy vositachilik tizimining mavjudligi hisoblanadi. Chunonchi, moliyaviy vositachilar ssuda kapitalining samarali harakatini ta’minlashga, mamlakatdagi investitsiyaviy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Respublikamiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti barqarorligi investitsiya siyosati bilan chambarchas bog‘langan.

Mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida hududlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy farqlanishlar va nomuvofiqlarni kamaytirishda o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu esa o‘z o‘rnida, ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanish hududlarda mavjud barcha resurslardan foydalanishni samarali amalga oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan takomillashtirishga zamin yaratadi.

Islohotlarning tadrijiyligi mamlakatimizning investitsiya siyosati milliy iqtisodiyotda ma’lum tarkibiy o‘zgarishlar yuz berishiga imkoniyat berdi, o‘z navbatida bozor munosabatlari shakllanishiga ijobiy ta’sir etdi va iqtisodiy barqarorlik uchun zaruriy shart-

sharoitlarni yuzaga keltirdi.

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi[16]” da ham ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, faol investitsiya siyosatini olib borish va ularni amalga oshirish natijasida mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini yanada kengaytirish, eksport salohiyatini yuksaltirish borasida investitsion samaradorlikni baholash kabi vazifalar belgilab berilgan.

Iqtisodiy integrasiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish, investitsiya fondlarining qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishdagi o‘rnini kuchaytirish, investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, mintaqalarning hududiy salohiyati, tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb qilishning mintaqaviy xususiyatlari bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Professor N.G‘. Karimov tomonidan mamlakat ichkarisi va tashqarisida yangi korxona yaratish va hududlarda mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, eng yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan[17].

Sh.I. Mustafaqulovning ishlarida mintaqalardagi tabiiy resurslar zahirasi, investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar, infratuzilma holati, hududlarning investitsion reytingi xorijiy investitsiyalar oqimi hamda ichki investitsiyalarning faollashuviga ta’sir ko‘rsatishi, bunda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi investitsion salohiyat va iqtisodiy salohiyat ko‘lamining yuzaga kelishini ta’minlanishi yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan[18].

Shuningdek, Sh.I. Mustafaqulov tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va hududlarda mazkur faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha investitsiyalar jalb qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi D.S. Almatova tomonidan mintaqalarda tadbirkorlik subyektlarining investitsion-innovasion faoliyatini rivojlantirish bilan

[16] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони. Т.: 7.02.2017 й.

[17] Каримов Н.Ғ. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари: монография. – Т.: 2007 й., ―Fan va texnologiya, 240 б.

[18] Мустафақулов Ш.И. “Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадор-лигини оширишнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш” мавзусидаги докторлик диссертация иши автореферати. Тошкент. 2017 й.

bog‘liq muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini asoslab berish va ularni samarali rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan[19].

Investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirish xorijiy yoki mahalliy investitsiyalarni hududlarga jalb etishda keng chora-tadbirlarni amalga oshirishni anglatadi. Boshqacha aytganda, investitsiya faoliyatini shakllantirishda investitsiya va pay fondlaridan samarali foydalanishni ifoda etadi.

AQSH tajriabsidan ma’lumki, bunday jarayonni PEST omillar tahlili deb nomlanadi va u o‘zida to‘rtta omilni ya’ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnik omillarni o‘z ichiga oladi[20]. Hozirgi kunda har qanday holatda ham strategik rejalashtirish barcha korxonaning taraqqiyotini belgilovchi asosiy boshqaruv tamoyillaridan hisoblanadi. Strategik rejalashtirish korxonaning rivojlanishi va investitsion faoliyat bilan samarali foydalanishidan belgilovchi hamda investitsion faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha korxonaning ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlab beruvchi faoliyatdir. Bularning 3 ta asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatish mumkin:

1. Investitsion siyosat;
2. Maqsadli investitsion rejalashtirish;
3. Investitsion strategiya.

Biz ko‘pgina iqtisodchi amaliyotchilarni ilmiy tadqiqotlarda kompaniya investitsion faoliyani rejalashtirish jarayonida investitsion siyosatning muhim o‘rni va roli to‘g‘risidagi qarashlarga aniqlik kiritishga harakat qildik, lekin tadqiqotlar orasida biz aniq bir fikr va to‘xtamga ega bo‘lgan yondashuvni topa olmadik. Investitsiya faoliyatida investitsiya sub’ekti, investitsiya ob’ekti, investor, investitsiya resurslari kabi tushunchalar mavjud.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi – investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig‘i asosida ta’minlaydigan investitsiya faoliyati subyekti;

Investitsiyaning ob’ekti bo‘lib, mablag‘lar ya’ni boyliklarni safarbar etayotgan ob’ektlar tushuniladi. Ular yangi korxonalar yoki amaldagi korxonalar, qimmatli qog‘ozlar, bank depozitlari bo‘lishi mumkin.

Investitsiya sub’ekti bo‘lib, investitsiyani amalga oshiruvchi

[19] Алматова Д.С. Тадбиркорлик фаолиятига инвестиция жалб қилишнинг минтақавий хусусиятлари. Монография. –Т.: «Ношир», 2013. 194 б.

[20] Petrov, A.N. Strategicheskiy menedjment / A. N. Petrov - SPb.: Piter,2005. - 496 s. (54 s.)

yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Ular: xorijiy davlatlar, halqaro tashkilotalar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruv organlari, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, mulk egasi bo‘lgan fuqorolar bo‘lishi mumkin.

Investorlar – foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

Mahalliy investorlar – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo‘lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

Reinvestitsiya – investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritishdir.

Investitsiya resurslari – bu investitsion faoliyati amalga oshirishda ishtirok etadigan har xil ko‘rinishdagi mablag‘lardir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Respublikada investitsiya faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish uchun ham hukumatimiz tomonidan bir qancha qonun va qoidalar qabul qilingan. Ushbu qonunlar investitsion faoliyatning tartibga solinishi va muvofiqlashtirilishi bo‘yicha huquqiy tizimning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari davlatning investitsion faoliyatga qanday vositalar va richaglar orqali ta’sir ko‘rsatishi ham muhim masaladir. Har qanday jamiyatdagi investitsion faoliyat o‘z-o‘zidan rivojlana olmaydi, unga albatta, muayyan ta’sir ko‘rsatuvchi sub’ektlarning aralashuvi talab qiladi. Bunday aralashuvning samarali natijasini faqat davlat tomonidan ta’minlash mumkin. Biroq bunday vaziyatda davlat investitsion faoliyatining rivojlanishini to‘xtatib qo‘ymasligi lozim, aks holda uning amal qilishida sub’ektivlik ta’sirining kuchi yuqori bo‘ladi va bo‘ysundiruvchi harakterga ega bo‘lib qoladi.

Investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish uning muhim yo‘nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga (ya’ni, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tadbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga) qaratilgan bo‘lishi lozim. Investitsion faoliyatni quyidagi

maqsadlarda muvofiqlashtirib borish davlat tomonidan ta’minlanishi lozim: bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib borish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosatni amalga oshirilishini ta’minlash; davlatning fan-texnika siyosatini o‘tkazish va buning asosida xo‘jalik tabaqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga kirib borish.

Hududning moliyaviy infratuzilmasi institusional nuqtai nazardan mintaqaning moliya institutlari sifatida investitsiyaviy faollikni oshiruvchi markaziy bo‘g‘in hisoblanadi. Shu boisdan, institusional o‘zgarishlarni amalga oshirishda uning huquqiy asoslarini ham parallel takomillashtirib borish zarur. Bu esa o‘z ichiga davlat, bank va nobank moliya institutlarining faoliyatini qamrab oladi. Ushbu omillar iqtisodiyotning rivojlanishida muhimligi bilan alohida ajralib turadi. Ammo, amaliy va moliyaviy faollikni rivojlantirish esa moliya institutlarining sonini ko‘paytirish va ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishni taqozo etadi.

Davlat tomonidan investitsion faoliyatini boshqarish bir qator chora-tadbirlarni qo‘llash, ularni hayotga tadbiq etish asosida amalga oshirilishi davr talabidir. Bu chora-tadbirlar qo‘yidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

- soliq tizimini qulaylashtirish, ya’ni soliq sub’ektlarini, ob’ektlari va stavkalarini tabaqalashtirish va soliq imtiyozlarini berish;
- samara keltirmaydigan va boqimandalik holatini yuzaga keltiruvchi soliq imtiyozlaridan voz kechish;
- amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, shu jumladan tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlash hamda amortizatsiya imtiyozlarini joriy etish;
- ayrim viloyat (tuman, shahar)larda tarmoqlarni rivojlantirishga maqsadli dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar orqali yordam ko‘rsatish;
- byudjetdan ajratiladigan subvensiyalarni taqdim etishda sohada yuz berishi lozim bo‘lgan ijobiy imtiyozni asos qilib olish;
- kredit siyosatini, davlatning norma va standartlarining antimonopol tadbirlarini ishlab chiqarish va oqilona narx-navo siyosatini o‘tkazish.
- yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;
- investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish davlat dasturlariga kiritish, investitsiya loyihalarining monitoringini o‘tkazish va mexanizmini ishlab chiqish;

- zarur hollarda yoki qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini to‘xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

Shuni ta’kidlash joizki, investitsiya faoliyatining amalga oshirilishi zaruriy barcha shart-sharoitlarning, qulayliklarning yaratilishiga bog‘liqdir. Bu investitsion iqlim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bog‘liq bo‘lgan muhit sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Bunda investitsion muhitning ahvoli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoitlarning mavjud holati yotishi lozim. Shuning uchun iqtisodiy siyosatni olib borish, davlat boshqarish organlarining investitson jarayonlarni tartibga solish, iqtisodiyotda davlatning aralashuvi, xalqaro bitimlarda ishtirok etishi va chet el investitsiyalarini jalb qilishi investitsion muhitga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ammo bunday ta’sir doimo ijobiy natijalarni qo‘lga kiritilishiga xizmat qilishi zarur.

Ushbu tizim sub’ektlari alohida holda faoliyat yurita olmasliklarini, ular bir-birining faoliyatini to‘ldirgan holda investitsion faoliyatni samarali muvofiqlashtirish imkoniga ega ekanligini jadval ma’lumotlari orqali kuzatish ham mumkin.

3.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar

Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi: - investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; - davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish.
Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va boshqa tegishli vazirliklar	Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish
O‘zbekiston Respublikasi-ning xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi	Davlatga tegishli mulkni xususiylashtirish va tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish.
Moliya Vazirligi	Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish.
Adliya Vazirligi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro‘yxatga olish.

Tashqi ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarga va O‘zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarga vizalar berish.
Ichki ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarni va O‘zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarni turar joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish.
Davlat soliq qo‘mitasi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog‘liq faoliyatini tartibga solish
Markaziy bank	Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o‘tkazilishini, valyuta mablag‘laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati.
Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko‘rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish.
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	-Mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to‘g‘risida ma’lumotlar bankini shakllantirish; -investitsiya muhitini o‘rganish; -xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko‘rsatish; -investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko‘rsatish; -chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring); -xorijiy investorlarga davlat ro‘yxatidan o‘tilganidan keyin yuridik shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatishida yordam berish (tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi bilan hamkorlikda).
O‘zbekinvest eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan sug‘urtalash
“O‘zbekinvestloyiha” milliy injiniring kompaniyasi	Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslamani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asoslamalarini tayyorlash
Davlat mulki qo‘mitasi huzu-ridagi qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiq-lashtirish va nazorat qilish markazi	Qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish.

Aytish joizki, hozirgi sharoitda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlari, birinchi navbatda, barcha xo‘jalik yuritish bosqichlarida jamg‘armalar o‘sishi sur’atlarini rag‘batlantirish

va iste’mol darajasini pasaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Iqtisodiyotdagi yuridik va jismoniy shaxslardan, chet ellik investorlardan undiriladigan soliqlarni tartibga soluvchilik funksiyasini amal qilishini kuchaytirish orqali erishish mumkin. Investitsiya faoliyatini taribga solish tizimi doirasida soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el sarmoyalari oqimini kengaytirish maqsadida, chet ellik investorlarni ishlab chiqarish quvvatlarini o‘zlashtirgunlariga qadar barcha ko‘rinishdagi bojxona to‘lovlari, soliqlar, yig‘imlardan ozod qilish maqsadga muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Investsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatda ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etishda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi – ularning maqbul nisbatlarini muvofiqlashtirish, hammasiga teng huquqiy sharoitlar va hayotda amalga oshirish uchun kafolatlar yaratib berishdan iboratdir.

O‘zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosati natijasining qanday samara berishi mamlakatdagi investitsion faoliyatning rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli, odatda, har qanday investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratiladi. Bu maqsad o‘zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solish vazifasini ham mujassam etadi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish ma’lum bir maqsadlarni amalga oshiradi:

- investorlarni rag‘batlantirish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- mamlakat kesimida investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- ichki investorlar manfaatlarini, yuzaga chiqarish va ularni himoyalash.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini tartibga solishning zaruriy asosi bo‘lib, davlat qonunchiligi, huquqiy asosni shakllantirish hisoblanadi. Davlat investitsiya faoliyatini tartibga solish bilan birga bevosita o‘zi ham unda ishtirok etadi. Bunda u:

- davlat investitsiya dasturlarini qabul qilish va ularni respublika byudjetidan moliyalashtirish;
- yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun to‘lovlilik, muddatlilik va qaytarib berish tamoyillari asosida respublika byudjetining markazlashgan investitsiya resurslarini taqdim etish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb etilgan kreditlar uchun davlat kafolatini taqdim etish;

- investitsiya loyihalarining davlat kompleks ekspertizasini olib borish;

- mahalliy va xorijiy investorlar uchun konsessiyalar taqdim etish kabilar bilan investitsiya faoliyatida qatnashadi.

Shunday qilib investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish uning muhim yo‘nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan, avvalom bor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratiladi.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o‘rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o‘ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me’yorlarni nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha sub’ektlari – chet ellik investitsiyalardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidenilar va norezidentlar)gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Huquqiy nuqtai nazardan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq. Iqtisodiy nutqtai nazadan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakat shakllari foyda olish maqsadida ko‘pdan-ko‘p qo‘shimcha risklar bilan to‘qnashish ehtimoliga ega bo‘ladi.

Aytish joizki, investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o‘z ifodasini topadi. Investitsiya faoliyati rivojlanishining ob’ektiv sharoitlarini aks ettiradigan alohida investitsiya munosabatlarining mavjudligi tartibga solishning mustaqil predmeti bo‘lishini taqazo qiladi. Huquqiy nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini tartibga solish umumiy huquqiy va xususiy huquqiy tartibga solish me’yorlarini qamrab oladi. Bu me’yorlarning birligi ijtimoiy va alohida investitsiya munosabatlarini harakteri va mohiyatini ifoda etadi hamda ularni tartibga solish usuliga aylanadi. Tartibga solish usullari huquq me’yorlarini ham alohida, ham ijtimoiy zarur investitsiya munosabatlari harakteriga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatish yo‘llaridan iborat.

Investitsiya faoliyati predmetining ko‘p ukladli iqtisodiyotini barpo etish davridagi ahamiyati bu faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilinishini talab qiladi. Respublikada

investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, birinchi navbatda, davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko‘zlaydi. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, u faoliyat sub’ektlarini sug‘urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida tashkil etiladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vazifalar: ijtimoiy va xususiy manfaatlarni; ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, xalqaro moliya institutlari, yakka investorlar manfaatlarini to‘g‘ri aniqlash; ularning o‘zaro maqbul nisbatlarini kelishib olish; ularni hayotda ro‘yobga chiqarishning teng huquqiy sharoitlari va kafolatlarini belgilashdan iborat. Ma’lumki, investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste’mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bog‘liq bo‘lib, odatda, soliqlarning fiskal (xazinani to‘ldirish) va tartibga solish funksiyalaridan foydalanish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- investorlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslarni yaratish, mustahkamlash, takomillashtirib borish;
- pul-kredit siyosati orqali;
- vayulta siyosati orqali;
- amortizatsiya siyosati orqali;
- narx siyosati orqali;
- dotatsiyalar, subsidiyalar tizimi orqali;
- byudjet-soliq siyosati, jumladan, fiksal siyosat, turli soliqlardan imtiyozlar berish, soliq kreditlari orqali;
- davlat kafolatlari tizimi orqali;
- chet ellik va mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish;
- ayrim tarmoq, soha, hududlar va ulardagi ob’ektlarni davlat o‘z nazoratida saqlab qolish, investitsiyalash orqali va shu kabilar.

Investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, u faoliyat sub’ektlarini sug‘urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirishni ko‘zlaydi.

§ 3.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish

Investitsiya faoliyatini yo‘lga qo‘yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o‘z manfaatini ko‘zlab yagona maqsadga, ya’ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi. Korxonaning taraqqiyot strategiyasi haqiqatda investitsion faoliyat orqali amalga oshadi va shu orqali ro‘yobga chiqadi. Bu o‘z ichida kompleks tizimlar harakatini va uzoq muddatli maqsadlarga erishish vositalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Investitsion faoliyat tizimi korxona xo‘jalik yuritishning har qanday darajasida investitsiyalarni joylashtirish, ularni amalga oshirish va boshqarishdan iborat bo‘ladi. Investitsion faoliyat tizimi nafaqat har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, balki turli daraja va o‘lchami, kelajakdagi istiqbol taraqqiyot strategiyasiga qaramay butun bir iqtisodiy tizimning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs, ya’ni mulk egasi tez o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko‘pqirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarda investitsiya faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

– fuqarolar, davlatga qarashli bo‘lmagan korxonalar, xo‘jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o‘rtoqlik xo‘jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan tashkilotlar, nodavlat korxonalari va muassasalari;

– davlatni ma’muriy va boshqaruv bo‘linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalari va muassasalari;

– chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslari hamda boshqa xorijiy davlatlar va halqaro moliya – kredit institutlari;

– qo‘shma korxona ko‘rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo‘lga qo‘yilishi, jahon iqtisodiy aloqalarini taraqqiy etishi, qo‘shma korxonalarni iqtisodiyotni

barqarorlashtirishda rolini ortishi investitsiya faoliyatini to‘la tashkil etish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni yaratadi. Mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi, o‘z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi investitsiya faoliyatini tashkil etish yo‘nalishlarini ham aniqlab beradi. Bunday sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo‘jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo‘li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan tartibda, qimmatli qog‘ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Mamlakat miqyosidagi manbalar hisobiga, turli mulk egalarining mablag‘lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalari orqali olib boriladi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotini barqarorligi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar yetakchi rol o‘ynaydi.

Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash hamda u yoki bu yo‘nalishda sarflash va jamg‘arish mamlakatdagi taqsimot tizimiga bog‘liqdir.

Qabul qilingan qonunlarni va ularni hayotga tatbiq etilishi eng avvalo bozor munosabatlarining rivojlantirishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni keng ko‘lamda tarqalishiga xizmat qilsa unda investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag‘lari kamayishi hisobiga boshqa mulkdorlar mablag‘lari o‘sib boradi. Ishlab chiqarish munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va davlatning samarali moliya siyosatini yuritish alohida ahamiyatga egadir. Xorijiy kapitalni kirib kelish darajasi ustun darajada mamlakatni olib borayotgan moliya siyosatiga (fiskal siyosati) bog‘liqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz o‘zining rivojlanish yo‘lida odimlanishi bilan birga xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o‘zining ijobiy ifodasini ham topmoqda.

Investitsion faoliyatni ro‘yobga chiqarish jarayonida qulay muhit sharoitini yaratib beradi yoki aksincha unga to‘siq bo‘ladi. Chunki korxona tomonidan amalga oshirishda investitsiya siyosatini dastlabki manbai investitsiya faoliyatini strategik rejalashtirishga bog‘liq. Korxona tomonidan to‘g‘ri deb tan olingan strategik rejalashtirish ichki davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ma’muriy usullar va tashqi muhit sharoitidagi inqirozlar mazkur jarayonni buzilishiga olib keladi. Shuningdek tadqiqotlarda kompaniyaning kuchli va kuchsiz tomonlari raqobatbardoshlikka chidamliligi hamda bozordagi mavqiye ham hisobga olinadi. Albatta bu ko‘rsatilgan holatlar ssenariysi kompaniya investitsion siyosatini vujudga keltiradi. Mana shu doirada investitsion faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi, ya’ni:

- investitsion faoliyatning barcha umumiy yo‘nalishlari tanlanadi va investitsiyalashning ustuvor shakllari belgilanadi;
- investitsion faollikning imkoniyatlarning geografik chegaralari belgilanadi;
- investitsiyalashnig aniq mo‘ljallangan sohasi aniqlanadi;
- yuqori tavakkalchilikka erishish mumkin bo‘lgan chegara qabul qilinadi;
- moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shakllari aniqlanadi;
- samaradorlikning maksimal va minimal erishish mumkin bo‘gan ko‘rsatkichlarga aniqlik kiritiladi (kapital qiymati, qarz majburiyati, rentabillik darajasi, moliyaviy dastak koefitsenti va boshqalar);
- investitsion faoliyat samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar aniq tizimi shakllantiriladi;
- korxonaning investitsion jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan va uni ro‘yobga chiqarish va amalga oshirish bosqichi muddatlari belgilanadi.

Korxonaning investitsiya faoliyatining strategik maqsadlari - bu rasmiylashtirilgan shaklda tavsiflangan investitsiya faoliyati holatining prognoz parametrlari bo‘lib, uni uzoq muddatda boshqarish va uning natijalarini baholash imkonini beradi. Korxonaning investitsiya faoliyatining strategik maqsadlarini shakllantirish bosqichlari:

1. Investitsiya faoliyati parametrlarini rivojlantirishning qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlash va ularga tashqi va ichki omillar ta’sirini aniqlash maqsadida investitsiya faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari tendensiyalarini tahlil qilish. Investitsiya muhitining barqaror holatida tahlil 2-3 yil ichida amalga oshiriladi, uning beqarorligi sharoitida u strategik istiqbolga mos kelishi kerak.

2. Korxonaning investitsiya faoliyatining asosiy strategik maqsadini shakllantirish. Asosiy maqsad ma’lum bir ko‘rsatkichda konkretlashtirilib, miqdoriy jihatdan aniqlanadi (masalan, ishlab chiqarishni qayta qurish hisobiga 3 yil ichida o‘z kapitalining 3 baravar ko‘payishini ta’minlash).

3. Asosiy maqsadga erishishni ta’minlaydigan investitsiya samaradorligi ko‘rsatkichlarining kerakli va mumkin bo‘lgan tendensiyalarini aniqlash. Korxonaning investitsiya faoliyatining asosiy parametrlari aniqlanib, ular asosiy maqsadning amalga oshirilishini ta’minlaydi. Tashqi va ichki muhitning qulay sharoitlari tufayli ulardan qaysi birini olish mumkinligi aniqlanadi.

4. Asosiy maqsadga erishishga xalaqit beradigan investitsiya faoliyati natijalarining istalmagan, ammo mumkin bo‘lgan tendensiyalarini aniqlash. Ularni zararsizlantirish choralarini ishlab chiqish uchun investitsiya faoliyatining asosiy maqsadini amalga oshirishga ma’lum tashqi va ichki omillarning noqulay ta’sirini aniqlash.

5. Korxonaning strategik investitsiya pozisiyasining kerakli parametrlariga erishishda obyektiv cheklovlarni hisobga olish. Ushbu cheklovlarga quyidagilar kiradi:

- korxona hajmi;
- investitsiya resurslarining mumkin bo‘lgan miqdori;
- korxona hayot siklining bosqichi.

6. Investitsiya faoliyatining asosiy strategik maqsadlari tizimini shakllantirish, uning asosiy maqsadiga yerishishni ta’minlash. Ushbu maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- korxona rivojiga investitsiyalarning o‘sish sur’ati;
- investitsiyalarning minimal qabul qilinadigan rentabelligi;
- investitsiya xavfining ruxsat etilgan maksimal darajasi;
- korxonaning investitsiya qilingan kapitalining tarkibi va boshqalar.

7. Korxonaning investitsiya strategiyasiga kiritilgan qo‘llab-quvvatlovchi maqsadlar tizimini shakllantirish. Bunday maqsadlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- investitsiyalarni sanoatni diversifikasiya qilish darajasi;
- investitsiyalarni mintaqaviy diversifikasiya qilish darajasi;
- tashqi va ichki investitsiyalar hajmining nisbati;
- investitsiya obyektlari likvidligining cheklangan darajasi;

- investitsiya resurslarining o‘rtacha tortilgan narxining maksimal darajasi va boshqalar.

8. Korxonaning investitsiya strategiyasining «maqsadlar daraxti»ni qurish. Bu korxonaning investitsiya strategiyasining asosiy, asosiy va yordamchi maqsadlarini ularning ustuvorligi va darajadagi ahamiyatini hisobga olgan holda bog‘lashga imkon beradi.

Korxonaning investitsiya strategiyasining maqsadlari tizimi asosida uning investitsiya faoliyatining strategik yo‘nalishlari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, quyidagi vazifalar hal qilinmoqda: investitsiyalarning turli shakllari nisbatlarini aniqlash, investitsiya faoliyatining tarmoq va mintaqaviy yo‘nalishini aniqlash.

§ 3.3. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining me’yoriy-qonuniy bazasi

Investitiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi xuquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolarlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug`urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarni amalga oshirish yo`lida tashkil etiladi. Hozirgi iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida mamlakatda investitsion munosabatlarni amalga oshirish va uning huquqiy tizmini tashkil etuvchi muayyan huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lsada ham uni takomillashtirib borish bo‘yicha dadil qadamlar qo‘yib borilmoqda. Umuman olganda, oxirgi yillar davomida respublikamizda investitsiya faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi yangi tahrirda, “Chet ellik investorlar huquqlarning kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Bu qonunlarda investitsion munosabatlarga taalluqli barcha jarayonlarga va tushunchalarga aniqliklar kiritildi. Investitsiya faoliyatining sub’ektlari va ob’ektlari, investitsion faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinish masalalari, xorijiy investorlarning huquq va burchlari, mol-mulk kafolatlari va imtiyozlari kabilar aniq belgilab berilgan. Ammo aytish joizki, yuqorida qayd etilgan va investitsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi qonuniy-huquqiy bazaning mavjudligi bozor munosabatlarining rivojlanganligini belgilab bo‘lmaydi. Xozirgi sharoitda investitsion muhitni tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini

amalga oshirmoq zarur.[21] Davlat mazkur qonunlar doirasida investitsion faoliyatning turli sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tartibning qanday o'rnatilganligiga qarab u yoki bu mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qanday huquqiy muhit yaratilganligini aniqlab olish mumkin.

O'zbekistonda investitsion munosabatlarni amalga oshirishda yaratilgan qonuniy asoslari mos ravishda tadbirkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi[22] Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan to'ldirilib borilmoqda.

"Tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun O'zbekistonda tadbirkorlikni faoliyat ko'rsatishning va rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy erkinliklarini kafolatlashni aniqlab berdi. Shuningdek, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Bu qonun tadbirkorlarning boshqa korxonalar, tashkilotlar va davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladi va mulkchilik shakllarini erkin tanlashni, xo'jalik yuritishni, faoliyatni teng huquqli asosda amalga oshirishni, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatni ta'minlashni o'z ichiga oladigan shartlarning shakllanishiga yordam beradi.

"Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartiblarini belgilab beradi hamda tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining mulklarini, mulkchilikning qanday shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, manfaatlarini va huquqlarini xalqaro huquqning qabul qilingan umumiy me'yorlariga muvofiq ravishda himoya qilishni ta'minlaydi. Bu qonun O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga uyg'unlashishi uchun huquqiy asosni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonunlari investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilikning yadrosini tashkil qiladi. Ular O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaratish, chet el sarmoyalari soliq tartiblarini belgilab beradi, xorijiy investorlarning samarali faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi va Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga

[21] Xalq so'zi 2005 yil 20 iyul. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to'g'risida AXBOROT
[22] O'zbekistonning yangi qonunlari. 16-son. T.: ""Adolat", 1997. 427 b.

ko‘maklashish, uni jahon xo‘jalik aloqalariga kiritish maqsadida chet el moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarni jalb etishga va ulardan foydalanishga qaratilgan.

“Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi[23] Qonunning asosiy vazifalari – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga va uning xorijiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish yo‘li bilan jahon xo‘jalik tizimiga uyg‘unlashuviga ko‘maklashishdan, shuningdek, xorijiy moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa zaxiralarni, zamonaviy texnologiyalarni va boshqaruv tajribalarini jalb qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlarning ma’lum kategoriyalarini himoya qilish chora-tadbirlari va ularni kafolatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonunning asosi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur qonunning 3-moddasida, davlat boshqaruv idoralari va davlat hukumat organlari joylarda chet el investitsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirilgan xo‘jalik faoliyatlariga aralashish huquqiga ega emaslar, deb aytilgan. Qulay investitsion muhitni yaratishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda, investitsiya faoliyatining sub’ekti etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish huquqiga egadir. Investitsiyalar bilan bog‘liq nizolar (investitsiyaga oid nizolar) sud tomonidan hal etiladi.

Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari tarkibida eng muhim sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanib, u 2019 yil 25 dekabrda qabul qilingan bo‘lib, 69 ta moddadan iborat. Ushbu Qonunning maqsadi chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonun markazlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solmaydi.

Konsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish,

[23] O‘zbekistonning yangi qonunlari. 21-son. T.: “Adolat”1998. 532 b.

ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunni mukammal bilish va unga amal qilish investitsiya munosabatlarini yanada rivojlanishiga zamin yaratib beradi. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevorini yotqizishda albatta jamiyatni taraqqiy ettirishning fundamenti hisoblanmish me’yoriy-huquqiy asosni yaratadi.

Jamiyatdagi investitsion jarayonni tartibga solish, milliy iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalar yo‘nalishini belgilab berish, investorlar tomonidan biznes loyihalarni moliyalashtirilishini rag‘batlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan me’yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlarni quyidagilarga tasniflash mumkin:

- milliy iqtisodiyotdagi investitsiya faoliyatiga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- investitsiya faoliyatini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va yurituvchi davlat institutlari to‘g‘risidagi tashkiliy-huquqiy hujjatlar;
- soha va tarmoqlar iqtisodiyotiga investitsiya kiritish, rekonstruksiya qilish hamda qurilish ishlarini olib borishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- investitsiya faoliyatining mintaqaviy jihatlari bilan bog‘liq me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- milliy iqtisodiyotdagi investitsiya jarayoniga qatnashuvchi iqtisodiy subyektlarga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- investitsiya faoliyati bilan bilvosita bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoniga doir qabul qilingan me’yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlar ichida milliy iqtisodiyotdagi investitsiya faoliyatiga doir hujjatlar birlamchi xususiyatni kasb etdi.

Davlat va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlashning yana bir samarali usuli bu hukumat darajasidagi investitsiya shartnomalaridir. Darhaqiqat, Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadal rivojlantirish va modernizasiya qilish, sanoat ishlab chiqarishni kompleks diversifikasiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tuziladigan investitsiya shartnomalari hayotga izchil tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Ayni shu maqsadda, Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuziladigan investitsiya shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan uning tuzish tartibi, taraflari, shartlari va davlatning majburiyatlari aniq belgilab qo‘yildi.

Chet el investorlariga O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan shartnoma tuzilganda qo‘shimcha kafolatlar va qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi mustahkamlandi. Shuningdek, chet ellik investorlarga O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomasi tuzish bo‘yicha mustaqil ravishda taklif kiritish tashabbusi taqdim etildi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro investitsiya tartibotlari va normalarining tahlili dolzarb amaliy ahamiyatga ega muammo hisoblanadi. Xalqaro investitsiya huquqi nazariyasi va amaliyotida xorijiy investitsiyalar tartiboti mutlaq va nisbiy qoidalarga bo‘linadi. Xorijiy investitsiyalar mutlaq tartiboti investitsiyalarni to‘liq himoyalash va xavfsizlik, haq-huquqini cheklamaslik, adolatli va teng huquqli muomala, investitsiyalarga taalluqli qoidalarga amal qilish majburiyati, xalqaro huquq doirasida muomala tamoyillariga asoslanadi. Xorijiy investitsiyalar nisbiy qoidalariga esa investorlarga imkon qadar qulaylik berish tartiboti va milliy tartibot kiradi. Xorijiy investitsiyalar mutlaq tartiboti tamoyillari chet el kapital qo‘yilmalarining to‘liq himoyasini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Adolatli va teng huquqli investitsiya tartiboti xalqaro huquqda an’anaviy umumiy qabul qilingan odat hisoblanadi. Mulkni himoyalash to‘g‘risidagi Konvensiyaning 1-moddasiga rasmiy izohda ta’kidlanishicha, “adolatli va teng huquqli muomala odatiy xalqaro huquqning bir qismini tashkil etuvchi eng kam xalqaro standartni anglatadi”. Shu nuqtai nazardan mazkur standart xalqaro huquq tamoyillarining butun tizimini, shu jumladan haqhuquqini cheklamaslik tamoyilini, xorijiy mulkni himoyalash va xalqaro standartning asosiy (eng kam) tartibotiga rioya etish majburiyatini qamrab oladi.

Ma’lumki, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar, muayyan xalqaro huquq standartlarining alohida huquqiy holati va ularning xorijiy investitsiyalarga nisbatan qo‘llanilishini shubha ostiga qo‘yadi. Bunday mantiq adolatli va teng huquqli muomala tamoyili ahamiyatini mazmunan mavhum bir nisbiy kamchilik bilan izohlash hisoblanadi. Investitsiyalarni o‘zaro himoyalash va kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomalarda, ularning umumiy huquqiy tartibotlarini belgilash muhim o‘rin tutadi. Bu har qanday mamlakatda qulay investitsiya muhitini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga egadir. Ikki tomonlama shartnomalarning mutlaq ko‘pchiligi “adolatli va teng huquqli tartibot” atamasini o‘zida mujassam etgan. Kelishilayotgan taraflarning har biri boshqa kelishilayotgan taraf investorlari kapital qo‘yilmalarining adolatli va teng huquqli tartibotini ta’minlaydi hamda asossiz va haq-huquqlarni cheklovchi choralarni qo‘llash yo‘li bilan ushbu investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan kapital qo‘yilmalardan foydalanishga va ularni boshqarishga to‘sqinlik qilmaydi. Kelishilayotgan taraflarning har biri bunday kapital qo‘yilmalar uchun to‘liq xavfsizlik va himoyani ta’minlaydi.

Amaliy nuqtai nazardan rivojlangan chet el mamlakatlarida xorijiy investorlar uchun belgilab qo‘yilgan huquqiy tartibotlarning tahlili ham qiziqish uyg‘otadi. Agar G‘arbiy Yevropa, AQSh, Kanada va Yaponiya davlatlarining tajribasiga murojaat etadigan bo‘lsak, bunda baholash mezonlarining taqqoslash O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining huquqiy tartibotlarini solishtirish uchun quyidagilarni tavsiflovchi bir necha asosiy holatlarni ko‘rish mumkin:

- ushbu mamlakatlarning davlat investitsiya siyosatidagi umumiy va alohida jihatlari;
- ularning milliy investitsiya faoliyati qonunchiligining asosiy qoidalari (xorijiy investorlar uchun imtiyozlardan tortib to mahalliy investorlar bilan solishtirilganda ular uchun belgilangan cheklovlargacha);
- ushbu davlatlar milliy iqtisodiyotiga xususiy mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarining cheklovlari.

Shu munosabat bilan nafaqat xalqaro investitsiyalar olish, balki kapitalni ishonchli va foydali tarzda eksport qilish uchun ham uzoq yillar davomida o‘zining xorijiy investitsiyalarga doir qonun hujjatlarinimuvaffaqiyatli tarzda takomillashtirgan AQShda katta qiziqish uyg‘otadi. AQShning butun tarixi mobaynida ushbu mamlakat

an’anaviy tarzda ichki va xorijiy investitsiyalarni iqtisodiy o‘sishning muhim vositasi sifatida qarab ularni amaliyotda ham, qonunchilik yo‘li bilan ham rag‘batlantirib kelgan. Uning ishbilarmon doiralarida xorijiy kapitalning ko‘payib borishi Amerika iqtisodiyotini nazorat qilinishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi xavfsirashlarga qaramay, AQShda umuman olganda xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan ijobiy munosabat ustunlik qiladi. AQShga xorijiy kapital qo‘yilmalar oqimiga ko‘maklashuvchi omillar ichida birinchi galda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi liberal tizimni (shu jumladan lisenziyalashning deyarli to‘liq mavjud emasligi), shuningdek, xorijiy kapital qo‘yilmalar qanday shaklda bo‘lmasin ta’qiqlovchi yoki cheklovchi boshqa jiddiy to‘siqlarning mavjud emasligini (iqtisodiyotning alohida strategik tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalar bundan mustasno) ajratish lozim.

§ 3.4. Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish bosqichlari

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Bu yo‘lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar, texnik va texnalogik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta’mirlash ishlarini amalgam oshirishni rag‘batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirihsga imkon yaratadi.

Yangi Qonunning 3 – moddasida investitsiya siyosatiga quyidagicha ta’rif berilgan: - “Investitsiya siyosati – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta’minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo‘naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmui;”dir belgilab qo‘yilgan[24].

S.Maxmudovning fikricha, investitsiya siyosati – davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishidagi doimiy maqsadli faoliyatlarining muhim bir qismi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekistonning faol investitsiya siyosatining muhim jihatlaridan biri investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarida markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalarni salmog‘ini kamaytirib, moliyalashtirishning

[24] www.lex.uz

bozor mexanizmlarini joriy etishni takomillashtirilib borilayotganligi muhimdir[25].

E.I.Nosirov va boshqalar tomonidan yozilgan “Investitsiya risklarini boshqarish” nomli o‘quv qo‘llanmada investitsiya faoliyatini tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonida risklarni boshqarishning nazariy asoslari bayon etilgan. Investitsiya risklarini turlari va shakllari ifodalanib, risklarni boshqarish bo‘yicha xalqaro moliya institutlari tajribasi ko‘rsatib berilgan. O‘zbekistonda investitsiya risklarini boshqarishning samarali usullari, vositalari va imkoniyatlari ochib berilgan[26].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar G.P.Podshivalenko, N.V.Kiselevalarning fikrlariga kura, Investitsiya siyosati-investitsiya hajmi va tarkibini o‘zgartirishga qaratilgan hamda uni iqtisodiyot tarmoq va sohalariga samarali joylashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuidir[27].

Shu urinda L.S.Valinurova korxona investitsiya siyosatiga quyidagicha ta’rif berib o‘tgan - Korxona investitsiya siyosati-korxonaga qo‘yilgan investitsiyalar samaradorligini ta’minlashga qaratilgan, shuningdek, jalb etilgan investitsiyalardan samarali foydalanish orqali korxona moliyaviy barqarorligini va to‘lovga qobillik darajasini, mahsulot raqobatbardoshligini ta’minlash, uzoq muddatli istiqbolda yuqori sur’atlarda rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir[28].

Shuningdek, O.Astanaqulov investitsiya siyosatiga quyidagicha ta’rif beradi; investitsiya siyosati yaqin kelajakda korxona investitsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jadal va samarali strategik rejalashtirish jarayoni va prognozlashtirishni vujudga keltirish. Davlat investitsiya siyosatini mintaqaviy, tarmoq hamda korxona investitsiya siyosatiga alohida ajratib olish maqsadga muvofiqdir[29].

Davlat investitsion siyosatini shakllantirishning maqsad va vazifalari xorijiy investorning manfaatli qiziqishlaridan kelib chiqadi. Xorijiy investorlar kapitalning qoplanish muddati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari, tomonlar ulushlari va foydaning bo‘linishi,

---

[25] Махмудов С.Б. Инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг ноанъанавий усулларини такомиллаштириш. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №5, октябрь, 2020 йил. 2 бет.

[26] Носиров Э.И. Инвестиция рискларини бошқариш. Ўқув қўлланма

[27] Подшиваленко Г.П., Киселева Н.В. Инвестиционная деятельность. - М.: Кнорус, 2005. - 432 с.

[28] Валинурова Л.С. Оценка инвестиционной привлекательности экономических систем: теория и практика / Л.С. Валинурова. - Уфа.: РИОБАГСУ, 2002. -250 с.

[29]О.Т.Астанақулов “Корхоналар инвестиция фаолияти таҳлили методологиясини такомиллаштириш” иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, Т.: 2020 йил 44-45 б.

shuningdek mamlakatda bozor mexanizmlarining ishlash tartiblari va bunga rivojlangan eksportyor davlatlar va xalqaro tashkilotlarning munosabatlari masalalariga e’tiborni qaratadi.

Bugungi kunda pandemiya sabab davlat iqtisodiy siyosatidagi nomuvofiqlik yuzaga keldi. Darhaqiqat, O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham pandemiya o‘z oqibatlarini ko‘rsatmasdan qolmadi. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida investitsion faollikni pasaygani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 91.3 % ni tashkil etadi[30].

Investitsiya siyosati jamiyatda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga maqsadli va ilmiy asoslangan investitsiyalar jalb qilishni o‘zida aks ettiradi. U yoki bu davlatning zamonaviy investitsiya siyosati iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni ko‘tarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholini ish bilan ta’minlash, innovatsion yangiliklar kiritish va shuningdek, ekologik muammolarni hal etish bilan ajralib turadi.

Mamlakat investitsiya siyosatini yuritishda ishlab chiqarish tarmoqlarini texnik va texnologik tarkibiy o‘zgartirish masalalariga ham e’tibor qaratiladi. Ishlab chiqarishning tarkib topgan tarmoqlarini qayta qurish, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari bilan qurollantirish, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir yo‘nalishi bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalishi yangi ishlab chiqarishlardagi bevosita xorijiy investitsiyalar, ya’ni avtomobilsozlik, elektron, elektrotexnika sanoati tarkib topmoqda. Qurilish industriyasi, aloqa tarmoqlari tizimida va qishloq ho‘jaligida eng yangi texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Shu jihatdan O‘zbekiston Davlati o‘z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda. Tuzilmaviy investitsiya siyosat, hududlar, tarmoqlar va korhona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o‘zaro bog‘liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investr manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora – tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy – texnika taraqqiyotini investitsiya yo‘li bilan qo‘llab – quvvatlash hisoblanadi.

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim

[30] Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум» №12(79) 2020. www.iupr.ru Российская Федерация, г.Саратов

strategiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy sub’yektlar rivojlanishini qo‘llab – quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitini juda qulayligi xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo‘lmoqda.

Investitsiya siyosati – investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muamolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy sub’ektlar uchun qulay xo‘jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuidir.

Davlatning tashqi investitsiya siyosati – bu tashqi investitsion oqimlarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari tizimidir. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyatning eng muhim doimiy vositalaridan biri investitsiya siyosati bo‘lib hisoblanadi. Bunday siyosat davlatning butun siyosiy sohasining asosiy o‘zagini tashkil etadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari, moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining oshishi ko‘p jihatdan amalda olib borilayotgan investitsiya siyosatiga bog‘liqdir. Investitsiya siyosati davlatning jamiyatda moddiy ne’matlarni takror ishlab chiqarishni tashkil etishga va investitsiya vositalarini safarbar qilishga ham qaratilgan bo‘lishi ham lozim. Davlat siyosatining ushbu sohasi, uning tegishli organlarining bunday siyosatning maqsadlari va vazifalarini belgilash, uni amalga oshirish uchun mablag‘larni qidirib topish borasidagi faoliyatidan iboratdir.

Investitsiya siyosati ob’ektiv qarashli ma’muriyat tomonidan ijro etiladigan ochiq-ravshan, samarali va qat’iy rioya qilinadigan qonunlarga ega bo‘lganida – xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun kuchli rag‘bat hosil qiladi. Bunday siyosatni ishlab chiqish respublikamizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishda oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqish yetakchi o‘rin tutadi. Investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga xizmat qiladigan qator institutlarni tashkil etish lozim. Investitsiya siyosatini tashkil etishda iqtisodiy ahvolni yaxshilashda keng ko‘lamli erkinlashtirish va barqarorlashtirish omillari alohida ahamiyatga ega. Erkinlashtirish narx-navoning erkin belgilanishini, savdoning davlat tomonidan nazorat qilinishi to‘xtatilishini, yangi kompaniyalarni hech bir to‘siqsiz tuzish mumkinligini taqozo qiladi. Barqarorlashtirish inflyatsiyaning

qisqartirilishini, xalq xo‘jaligi, tashqi iqtisodiy sohalardagi nomutanosibliklar bartaraf qilinishini ko‘zda tutadi. Islohotlarning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bu ikki omili o‘tish jarayonining dastlabki bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin va lozim.

Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy rivojlanish darajalari, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish sifatlari va hajmining o‘sishi, ishlab chiqarish infrastrukturasining taraqqiyoti ko‘p jihatdan investitsiyalar va investitsiya siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Demak, investitsion faoliyatning muhim bosqichi ko‘proq investitsion siyosatga taalluqli bo‘lib, davlat mamlakat ichkarisida investitsion faoliyatni hukumat tadbirlari orqali muvofiqlashtirib boradi.

Investitsion siyosat birinchi navbatda investitsion muhitning subyektiv tashkil etuvchilariga ta’sir etadi. Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan investitsion siyosat yo‘nalishlari ichida quyidagilarni alohida ko‘rsatish lozim:

- mamlakat va chet el investorlari uchun qulay mexanizm yaratish;
- kapital mablag‘lar samaradorligini oshirish;
- investitsion faoliyat bilan shug‘ullanishdagi risk darajasini minimallashtirish.

Investitsion siyosat oxir-oqibatda mamalakatni barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi turmush darjasini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, xorijiy investorning keyingi qiziqishlari qo‘yilgan kapitalning qoplanish muddati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari, tomonlar ulushlari va foydaning bo‘linishi, shuningdek, mamlakatdagi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining kechishi va bunga xalqaro tashkilotlarning munosabatlari masalalariga e’tibor qaratiladi.

Davlat investitsiya siyosati quyidagi tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, o‘z ichiga quyidagi strategik va taktik tadbirlarni qamrab oladi:

- davlatning muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlarini prognozlashtirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida moliyaviy siyosatni belgilash;
- davlat va investor o‘rtasidagi munosabatlarni me’yoriy tartibga solish;
- investitsion tovarlarni xarib qilish bo‘icha davlat byurtmalarini shakllantirish.

Investitsiya siyosatining tarkibiy tuzilishi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, davlat investitsiya siyosati ularni yo‘naltiruvchi bosh zvenosi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosati hududiy va tarmoq investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga innovasiya va xorijiy

investitsiyalarni joriy qilishdagi bosh reja hisoblanadi. Shuningdek, tarmoqlar hamda xo‘jalik yurituvchi korxonalar va tashkilotlar (mikro) darajasidagi investitsiya faoliyati uchun “o‘yin qoidasi” ni tashkil qilib beradi.

Davlat investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, markazlashgan investiyatsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o‘tish, ustivor investitsion loyihalarni qo‘llab quvvatlashga qaratilgan uslublar yig‘indisidir. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko‘proq ustivorlik kichik biznes sub’ektlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tuzishga qaratiladi. Davlat investitsiya siyosati mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal qilish va shu asosda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratilgan bo‘lishi lozim. Davlat investitsiya siyosatining ***ustivor yo‘nalishlari*** deb quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiyalar, ular harakatlanishi, investitsiya faoliyati ishtirokchilari munosabatlari, ularni tartibga solib turish bo‘yicha qulay huquqiy bazani yaratish, amaldagi qonunchilik-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- iqtisodiy tub islohotlarni amalga oshirish, maqsadli investitsion siyosatni yurgizish; investitsion jarayonni yaxshilash va barcha investitsion jarayon ishtirokchilarining faolligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish;

- davlat boshqaruv organlari, hukumat tashkilotlarining nazorat etish funksiyalarini yanada takomillashtirish.

Davlatning investitsion siyosatining bunday ustivor yo‘nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog‘liq bo‘ladi. Hozirda investitsion faoliyatni amalga oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o‘tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tadbiq qilinmoqda.

O‘zbekistonda Davlat investitsiya siyosati rivojlanishi quyidagi 4 bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich: 1991-1994 yillar, ikkinchi bosqich: 1995-2003 yillar; uchinchi bosqich: 2003- 2008 yillar va 2008 y. - hozirgi davr.

Birinchi bosqichdagi chora-tadbirlar sirasiga: turli mulkchilik shakllarini yaratish borasidagi investitsion jarayon nomarkazlashtirish tadbirlar amlga oshirila boshlashini; xususiy moliyalashtirish

manbalariga ega bo‘lmagan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi ob’ektlarni byudjetdan moliyalashtirish saqlab qolishini; xususiy mulkchilikni joriy etish tadbirlari olib borilishini kiritish mumkin.

Ikkinchi bosqichda esa: qonunchilik bazasi yaratildi, konkurs asosida loyihalarni moliyalashtirishga o‘tildi; xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi; iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritilishi kuchaytirildi; investitsion loyihalarni amalga oshirishda turli moliyalashtirish manbalari qo‘llanilishini kirtish amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda esa: valyuta munosabatlari va operatsiyalari liberalizatsiyalashtirildi; xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va ular manfaatlarini himoyalash bo‘yicha muhim hujjatlar qabul qilinindi; korxonalarning texnik qurollantirilishi kuchaytirilildi; eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini qoplovchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan loyihalarni moliyalashtirishga ustivorlik berilganligini kiritish mumkin.

To‘rtinchi bosqichga kelib quyidagi chora-tadbirlar oshirilmoqda va rejalashtirildi: inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqildi; banklarning investitsion faolligi kuchaytirilmoqda; erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilmoqda va bu boradagi ishlar kengayib bormoqda; valyuta bilan bog‘liq ishlar muvofiqlashtirildi va valyutani erkin almashinuvi ta’minlandi; investitsiya faoliyatlari takomillashtirilib borilmoqda; investitsion loyihalarni moliyalashtirish doirasida istiqbolli rejalar ishlab chiqilmoqda.

§ 3.5. Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko‘chishini hisobga olish

Siyosat ma’lum maqsadagi vazifalarni amalga oshirishdagi harakatlar tizimidir. Davlat iqtisodiy siyosatining muhim turlaridan biri – investitsiya siyosatidir. Investitsiya siyosat jamiyatda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga maqsadli va ilmiy asoslangan investitsiyalar jalb qilishni o‘zida aks ettiradi. U yoki bu davlatning zamonaviy investitsiya siyosati iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni ko‘tarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholini ish bilan ta’minlash, innovasion yangiliklar kiritish va shuningdek ekologik muammolarni hal etish bilan ajralib turadi.

Investitsiya siyosati investitsiya faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlar yig‘indisini aks ettiradi. Investitsiya munosabatlarining qaydarajada tashkil qilingani mamlakat ichkarisida

hukumat tomonidan ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan qarorlar va qonun-qoidalar bilan belgilanadi.

Investitsiya siyosati, xuddi moliyaviy siyosat singari, davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir. Investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ham, uning xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarining tadbirkorlik faoliyatiga ham ta'sir ko‘rsatishning muhim vositasidir.

Zamonaviy investitsiya siyosatining xususiyatlari – tadbirkorlik tuzilmalarini byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish ulushining pasayishi va korxonalarning o‘zlarini investitsiya resurslarini, shu jumladan moliya bozori vositalari va institutlari orqali topish uchun faollashtirish.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta’minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya ob’ektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta’minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Qisqa vaqt ichida (ya’ni 2030 yilga qadar) iqtisodiyotimizni rivojlangan 50 ta davlatlar darajasiga olib chiqish, uning raqobatdoshligini ta’minlash va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish masalasi hozirdan boshlab dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun esa oqilona investitsiya siyosatini yuritish va kapital quyilmalardan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini kengaytirish, baholash va ularni mamlakatimiz mintaqalariga faol jalb qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Investitsiyalarni mamlakat miqyosida oqilona joylashtirish borasida ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, ularda keltirilishicha mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida, uning kosmpleks va mutanosib taraqqiyotini ta’minlashda investitsiyalarni jalb qilish masalasi eng dolzarb ahamiyatga ega bo‘ladi[31]. Iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ularga investitsiyalarni jalb qilish maqsadlarini shakllantirishda mintaqalar iqtisodiyotini

[31] Blank I.A. Osnovi investitsionnogo menedjmenta: V 2-x tomax. Kiyev: Elga-N, Nika-Sentr. 2004. Bodi Z., Keyn A., Markus A. Prinsipi investitsiy. M.: ID «Vilyams». 2002

umumiy rivojlantirish va tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqishi kerak[32].

Tarmoq davlat investitsiya siyosati – bu makrodarajadagi investitsiya siyosatining tarkibiy tuzilishi bo‘lib, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini davlat tomonidan qo‘llab-qo‘vvatlash tadbirlaridir.

Hududiy davlat investitsiya siyosati – hudud mafaatlaridan kelib chiqqan holda faol investitsiya faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha olib boriladigan chora-tadbirlar majmuasidir. Har bir hududda davlat investitsiya siyosati o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘ladi va unga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- hududning geografik joylashuvi va tabiy-iqlim sharoitlari;
- demografik holati;
- mahalliy hokimiyat organlarining olib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosati;
- hududning mavjud ishlab chiqarish-texnik, moliyaviy va innovasion salohiyati;
- moddiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi;
- hududning investitsion jozibalorligi;
- atrof-muhitning holati.

Davlat investitsiya siyosatining tarkibida quyidagi faoliyat shakllari ajralib turadi: strategiya va taktika. Davlatning investitsiya sohasidagi strategiyasi - bu iqtisodiyotning yirik masshtabdagi, uzoq muddatli kompleks vazifalar yechimiga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Strategiyaning quyidagi elementlari mavjud:

1. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda ustuvorlik va tamoyillarga amal qilgan holda, uzoq muddatli vazifa va maqsadlarning belgilab olinishi;
2. Moliyalashtirish manbalarining aniqlab olinishi;
3. Investitsiyalash yo‘nalishlarini tanlash.

Strategik vazifalarni hal qilishda qullaniladigan boshqaruv usullari, shakllari va instrumentlari yig‘indisi taktikadir.

Davlat investitsiya siyosatining mohiyati, uning oldiga qo‘yilgan vazifalar davlatning boshqa siyosat turlari bilan bevosita bog‘liq. Misol uchun, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lgan asosiy vositalarni qayta moliyalashtirish uchun ajratiladigan va

[32] Myakshin V.N. Prioriteti restrukturizatsii investitsionnix protsessov v razvitii realnogo sektora ekonomiki Severo-Arkticheskogo regiona//Ekonomika i upravleniye. 2012. №7.S. 133-141.

foydalaniladigan ammortizasiya ajratmalarini ajratish tartibi va usullari ammortizasiya siyosatiga bog‘liq bo‘ladi.

Davlat investitsiya siyosatini uni amalga oshirishning aniq mexanizmlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi (3.2 - rasm).



3.2–rasm. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmi

Iqtisodiy mexanizm – bu iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilovchi ichki tizim va tuzulishdir. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari quyidagilarni o‘zida aks ettiradi:

1. Muayyan maqsadga erishishga qaratilgan yul xaritasi (investitsiya faoliyatida yechimini kutayotgan boshqaruv vazifalari). Investitsiya siyosatini amalga oshirish muddatlarini, mas’ullarini, moliyalashtirish manbalari va usullarini o‘zida aks ettiruvchi konsepsiyalar ishlab chiqish.

2. Investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi muayyan hokimiyat organlarini belgilab olish. Shuningdek, investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi mas’ul organlarning o‘zaro munosabat tartiblari va vakolatlarini belgilash.

3. Investitsiya siyosati vazifalarini amalga oshirish uchun muljallangan davlat resurslari hajmini belgilash. Investitsiyalarni jalb qilish uchun qo‘lay investitsion mo‘hitni shakllantirish.(investitsion bozorni ta’minlash uchun infrastrukturani yaratish).

4. Investitsiya siyosatini amalga oshirish yuzasidan nazoratlar o‘tkazish.

5. Davlat va mahalliy byudjetdan foydalanish qoidalarini o‘zida aks ettiruvchi zarur bo‘lgan normativ-huquqiy bazani yaratish. Biroq, pandemiya va uning tarqalishiga qarshi qaratilgan cheklov choralari dunyo iqtisodiyotiga keskin va sezilarli darajada zarar yetkazdi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ishlab chiqarish sur’atlarining bunday keskin pasayishi Ikkinchi jahon urushi davridan beri birinchi marta kuzatilmoqda. Jahon Bankining 2020 yil iyun oyidagi taxminlariga ko‘ra, 2020 yili dunyo iqtisodiyoti 5,2 foizga qisqarishi kutilmoqda. Aholi jon boshiga daromadlar miqdori 3,6 foizga kamayib, buning natijasida yer yuzining millonlab aholisi qashshoqlikka yuz tutishi mumkin[33]. Iqtisodiyotga investitsiyalarning kiritilishi aholining turmush farovonligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat faolligini oshirish imkoniyatini yaratadi[34]. So‘nggi 15 yil davomida mamlakatimizda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish dasturlari doirasida yoqilg‘i-energetika, to‘qimachilik majmuasi, kimyo sanoati, mashinasozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yirik hajmdagi investitsiyalar jalb qilindi.

Aksariyat mintaqalarda investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari hududlardagi ishlab chiqarishga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yordam berdi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish va undan foydalanish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur’atlari va ko‘lamiga ta’sir etadi, ilmiy-texnika taraqqiyotini va aholining ko‘p qismining bandligini ta’minlaydi. Bunga sabab iqtisodiyotimizdagi institutsional o‘zgarishlar, ishlab chiqarish kuchlarining ratsional joylashtirishi va rivojlanishi ko‘pincha investitsion faollikka bog‘liq bo‘ladi.

---

[33] Эминов А. Пандемия ва пандемиядан кейинги давр: хорижий давлатларда инвестиция сиёсати қандай кечмоқда?https://aniq.uz/yangiliklar/pandemiya-va-pandemiyadan-keyingi-davr-xorijiy-davlatlarda-investisiya-siyosati -qanday-kechmoqda

[34] Shramko O.G. Faktorniy analiz investitsionnoy privlekatelnosti regionov // Regionalnaya ekonomika. 2014. №4(331). S.41-50.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarini yaratish va amalda faoliyat yurituvchilarni qo‘llab-quvvatlash ham investitsiya asosida amalga oshiriladi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, investitsiya siyosatida chet ellik sarmoyadorlarning investitsion mablag‘larini jalb qilishga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekistonda investitsiya siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag‘ni keng jalb etishni ta’minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

– mablag‘larni respublika mustaqilligini ta’minlaydigan va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarda jamlash;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat yuritish;

Mamlakatimizni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarmoqlar turkibi va tuzilishini tubdan o‘zgartirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi quyidagi dolzarb vazifalar hal qilish belgilab qo‘yilgan:

– Iqtisodiyot tarmoqlarini ilg‘or texnika va texnologiyalar qurollantirish. Chunki, milliy iqtisodiyotimizning ko‘p tarmoqlarida eskirgan uskunalar va texnologiyalardan foydalanishi oqibatida mehnat unumdorligi jiddiy pasayib ketgan;

– Korxonalarda boshqaruvning zamonaviy ilg‘or usullarini joriy etish, boshqaruv kadrlari, mahalliy ishchi va xodimlar bilimi, mahoratlarini o‘stirish;

– Ichki bozorga tovar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik sub’ektlari uchun jahon bozoriga kirishga qulay imkoniyatlar yaratish;

– Xorijlik investorlarning qiziqishlari va manfaatlarini oshirishni ta’minlash maqsadida xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish. Chet el investorlarining ishtiroki yangi xususiylashtirilgan korxonalarga o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishlari ehtimolini ko‘paytirish yo‘li bilan ushbu jarayon samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda chet el investitsiyalarini milliy korxonalarga jalb etishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilangan:

– tibbiy xom-ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib

chiqarish, qayta ishlash bo‘yicha ekologik toza ishlab chiqarishni tashkil etish;

– ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, shu jumladan zamonaviy axborot va telekommunikatsion tizimlarini rivojlantirish;

– transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ixcham, arzon texnika va texnologiyalar asosida qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;

– resurs va energiyani tejamkor asbob-uskunalar ishlab chiqarish;

– dori-darmonlar tibbiyot texnikasi va asboblari ishlab chiqarish;

– turizm industriyasini rivojlantirish.

Xorijiy investorlarni manfaatli jalb etishda ularning sarmoyalarini himoyalangan kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ular investitsiyani milliy iqtisodiyotimizga kiritishda iqtisodiy jihatdan hadiksiraydilar. Shu bois, chet ellik investorlarning o‘z investitsiyalarini ixtiyoriy ravishda sug‘urta qilish huquqlarining kafolatganligi ularning mulklarini ekspropriatsiya qilishdan va boshqa xatarlardan muhofaza qilinishini ta’minlaydi. Xorijiy investorlar o‘z faoliyatlari natijasida olgan foydalarini hech bir cheklovlarsiz chet elga o‘tkazishlari ham, ularni respublika hududida qayta investitsiyalashlari, yohud, ulardan o‘z istaklariga ko‘ra boshqa maqsadlarda foydalanishlari ham kafolatlanadi. Ana shunday qulay muhit tufayli ularning faoliyatlari rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonning dunyodagi mavqeining mustahkamlanib borishi, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun yaxshi sharoitlarning yaratilishi natijasida chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo‘shma korxonalar soni ko‘payib bormoqda. Ammo, O‘zbekistonda chet el investitsiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilishning bir qancha muammolari mavjud. Xususan, xorijiy investitsiyalarni joylashishida hududiy nomutanosilik mavjud. Natijada chet el investorlarini hududlar miqyosida jalb etish muvozanatga solinmaganligi saqlanib turibdi. Masalan, faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma korxonalarning 73,5 foizi Toshkentda joylashgan.

Yuqorida qayd etilgan ishlarni amalga oshirish orqali mamlakatimizda chet ellik investorlar uchun yaratilgan qo‘shimcha imtiyoz va rag‘batlantirishlar amaliy natijalar beradi. Ayni paytda chet el investorlari va ular bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo‘lgan milliy tadbirkorlarga konsalting xizmatini, advokatlik idoralarini tashkil etish, mahalliy tadbirkorlar uchun xalqaro biznes va tadbirkorlik

to‘g‘risidagi ma’lumotlari doimiy va keng bazasini yaratish zarur hisoblanadi.

O‘zbekistonning investitsion siyosati quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak:

- respublika qonunchiligi kamchiliklarini bartaraf etishga;
- davlatning investitsion siyosati noizchilligini tekislashga;
- ortiqcha ishchi kuchiga ega bo‘lgan hududlarga investitsiyalarning ko‘plab to‘planishiga qulay shart-sharoit yaratadigan investitsion muhitni shakllantirishga;
- ijtimoiy masalalarni hal etishga;
- hududlardagi infratuzilmani rivojlantirishga.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyat organlari xujalik yurituvchi subyektlarga soliq, ishlab chiqarish quvvatlari, bino va inshootlar, kabi masalalarda rag‘batlantiruvchi imtiyozlarni berish orqali o‘z hududlarida investitsion faollikka erishishlari mumkin. Bu tadbirlarning barchasi investitsion muhitni yaxshilanishi hamda investitsiyalarning to‘planishiga olib keladi.

Amerika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga AQShda valyuta bitimlari borasida jiddiy cheklovlarning mavjud emasligi ham ko‘maklashadi. Umumiy qoidaga ko‘ra, masalan, kreditlarni amalga oshirish yoki olish, foydani to‘lash va kapitalani olib chiqib ketish uchun AQSh moliya organlarining roziligi talab etilmaydi. Shtatlar darajasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ko‘p ishlar qilinadi. Bunday choratadbirlar ro‘yxatida, masalan, xorijiy investorlarni ko‘chmas mulk uchun mahalliy soliqlardan va foyda solig‘idan ozod qilish eng ko‘p qo‘llaniladi. Ko‘pchilik shtatlar past stavkalar bo‘yicha kreditlar shaklida to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy ko‘maklashishni, xodimlarni o‘qitish va salohiyatli investorlarga boshqacha tarzda ko‘maklashishni taklif etadi. Investitsiya faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, AQShda xorijiy investitsiyalar aksariyat holatlarda korporativ tashkilot shakllaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Odatda, faqatgina ko‘chmas mulk va tabiiy resurslarga kiritiladigan investitsiyalar bundan mustasno. Bunda kompaniya yoki korporasiya AQSh hududida tashkil etilgan bo‘lishi shart emas. Xorijiy investor kompaniyani o‘z mamlakatida yoki uchinchi mamlakatda tashkil etishi (amerikalik tadbirkorlar aksariyat holatlarda shunday qilishadi) va faoliyatini ushbu kompaniyaning AQShdagi filiali (BRANCH) orqali amalga oshirishi mumkin. Biroq, investitsiyalarning geografik tahlili shuni

ko‘rsatmoqdaki, investorlar ko‘pincha AQShda shu’ba korxonalarni emas, balki mavjud Amerika korporasiyalari bilan qo‘shma korxonalarni (JOINT-VENTURE) tashkil etishni afzal ko‘rishadi. AQShda qo‘shma korxonalar:

- ta’sis etish va yangi yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan;
- xorijiy investor tomonidan mavjud Amerika korxonasidagi ulushning xarid qilinishi orqali tashkil etilishi mumkin.

Yuqoridagi holatlardan ko‘rib turganimizdek, bugungi kunda AQSh investitsiya faoliyatini tartibga solish huquqiy tartibotida O‘zbekistonbilan o‘xshashliklari ko‘proq uchraydi. Asosiy farq mamlakatimiz va AQSh huquqiy tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlaridadir. O‘zbekiston qonunchiligi Amerika qonunchiligidan farqli o‘laroq, an’anaviy tarzda kontinental (Yevropa) huquq tizimi tamoyillariga asoslanadi. Agar AQSh va umumiy huquq tizimiga ega bo‘lgan boshqa mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va h.k.) huquqni qo‘llash amaliyotida huquq manbai sifatida sud xulosasi asosiy rolni o‘ynasa, bizda xuddi Germaniya, Fransiya va boshqa kontinental Yevropa mamlakatlarida bo‘lgani kabi, huquqning asosiy manbalari bo‘lib parlamentlar va davlat tomonidan qabul qiinadigan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlar xizmat qiladi. Umuman olganda, muayyan ishlar yuzasidan sud qarorlaridagi emas, balki aynan umumiy tartibga soluvchi qonunchilik va qonun osti hujjatlaridagi mavjud institusional normalar huquqni qo‘llash amaliyotida rioya qilinadigan qoidalar hisoblanadi. Biroq, davlat va investor o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning amaliyotiga nisbatan ikkita huquqiy tizimning ushbu o‘ziga xos jihati ko‘pincha muhim ahamiyatga ega emas. Yuqorida keltirilgan tavsif hamda AQSh va Kanadada xorijiy investitsiyalar tartibotini huquqiy tartibga solishning asosiy belgilari bo‘yicha shuni ta’kidlash mumkinki, xorijiy kapital qo‘yilmalarni qonunchilik yo‘li bilan tartibga solish qoidalarining muhim tarkibiy qismlarini uni ushbu mamlakatlarda va Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo‘llash amaliyotida taqqoslash mumkin. Investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishni baholashning umumlashtiruvchi mezonlari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rasman e’lon qilingan va davlatning barqaror investitsiya siyosatining mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- yaxlit investitsiya qonunchiligining mavjudligi yoki mavjud emasligi;

- kapitalni kiritish va olib chiqish tartiboti va tartibi (erkin yoki cheklangan);
- soliq imtiyozlarining mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- milliy bojxona tartibotida imtiyozlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- qtisodiyotning alohida tarmoqlariga kiritiladigan milliy va xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi kafolatlarni mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- xorijiy investorlarning ichki bozorda ishlashi uchun rag‘batlantiruvchi omillarning mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- milliy korxonalarga kiritiladigan xorijiy investitsiyalar miqdori uchun cheklovlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- xorijiy investor yoki uning rasmiy vakillari tomonidan ushbu korxonalar boshqaruv organlarining tarkibida rahbar lavozimlarning egallanishi uchun cheklovlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi va h.k..

Taqqoslash uchun, bir tomondan, AQSh, Kanada, Yaponiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining, ikkinchi tomondan, O‘zbekistonning milliy qonunchiligidava huquqni qo‘llash amaliyotida aks ettirilgan investitsiya faoliyatining huquqiy tartibotini tavsiflovchi mezonlarning yuqorida keltirilgan belgilarini asos qilib olgan holda e’tiborni shunga qaratish mumkinki, O‘zbekistonning ko‘plab xorijiy ekspertlar va matbuot tomonidan izoh qilinayotgan zamonaviy qonunchiligi o‘zining aksariyat qoidalari va normalari bo‘yicha yetakchi xorijiy mamlakatlar investitsiyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining normalari bilan ko‘p jihatdan o‘xshash va alohida ustunlik holatlari ham mavjud.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya siyosati, asosiy kapital, globallashuv, chet el investitsiyalari, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsiya faoliyati, investitsiya ob’ekti, investitsiya sub’ekti, reinvestitsiyalar.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Investitsiya resurslari deganda nimani tushunasiz?*
2. *O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar qaysilar?*

3. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda qanday usullardan foydalaniladi?

4. Sanoati rivojlangan davlatlarda investitsiya faoliyati qanday yo‘nalishlarda olib boriladi?

5. *Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mohiyatini yoriting.*

IV BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI

§ 4.1. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari
§ 4.2. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari va shakllari
§ 4.3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarining iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli
§ 4.4. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar

§ 4.1. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari

Chet el investitsiyalari - foyda olish maqsadida xorijiy investorlar tomonidan tadbirkorlik va boshqa faoiyat turlarini rivojlantirishga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovasiya va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o‘zlashtirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Xorijiy investitsiyalar ob'ekti bo‘lib milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida yangi yaratilgan va modernizatsiya qilingan asosiy vositalar va aylanma mablag‘lar, qimmatli qog‘ozlar, maqsadli pul mablag‘lari depozitlari, ilmiy-texnik mahsulotlar, intellektual boyliklar, mulk huquqi bo‘lishi mumkin. Iqtisodiyoti muttasil o‘sib borishni istagan har qanday davlat o‘z milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qanday choralar ko‘rish kerak? O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni mamlakatga kiritish uchun barcha shart – sharoitlarga ega. O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ham ega. Umuman olganda qulay investitsiya muhitini

yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Aytish joizki, xorijiy sarmoyalarni jalb qilmasdan turib biror-bir davlat taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisha olgan emas. Shu bois ham bu ish mamlakatimizning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida bu siyosatni:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga kapital mablag‘larni jalb etishni ta’minlovchi huquqiy asos, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni shakllantirish;

- jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologiyalarni yetkazib beruvchi hamda iqtisodiyotning zamonaviy tuzilmalarini barpo etishga ko‘maklashuvchi xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini muntazam ravishda yuritish;

- mablag‘larni raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan bog‘liq eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga sarflash kabi tamoyillar orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada mamlakatimizdagi mavjud qonunchilik xorijiy samoyadorlarga bir qator kafolat va imtiyozlar berishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizda naqadar zarurligini e’tirof etgan holda xorijiy sarmoyadorlar O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatiga, qonun ustuvorligiga eng asosiysi to‘lov qobiliyatiga qodir bo‘lgan kuchli sherik sifatida ishonchlarini qozonish lozim. Buning uchun iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital sarmoyalar ko‘rinishida keng jalb qilinishi uchun huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish, ko‘shma korxonalar tashkil etilishiga ko‘maklashish, shuningdek, investorlar manfaatlari himoya qilinishini takomillashtirish zarur.

Albatta, mamlakatga investitsiya kiritayotgan har bir xorijiy investor uning boy imkoniyatlari bilangina emas, balki avvalambor, respublikada ijtimoiy siyosiy vaziyatning barqarorligi; iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarining aniq ravshanligi; respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning izchilligi; xorijiy sarmoyalar to‘g‘risidagi qonunlarning imtiyozli shartlari to‘g‘ri belgilanganligi bilan ham ularda qiziqish uyg‘otmoqda.

Xorijiy investitsiyalarini jalb etar ekanmiz, ichki jamg‘arma manbalarini safarbar etmasdan va korxonalarning o‘zlari faol investitsiya ishlari bilan shug‘ullanmasdan turib, iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o‘zgartirish vazifasini hal qilish qiyin bo‘ladi. Investitsiya

siyosatida asosiy e’tibor korxonalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta qurish va texnik qayta qurollantirish uchun mablag‘ qidirib topishni rag‘batlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilinar ekan, bunda bizning asosiy vazifamiz chet mamlakatlardan keladigan sarmoyalarni ishga solib, xom ashyo yetkazib beradigan mintaqadan tayyor mahsulot chiqaradigan mamlakatga aylantirish orqaligina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga erishgan bo‘lamiz. Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo‘naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to‘la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixona chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo‘la olmaydi.

Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o‘rtasida harakatda bo‘lgan investitsiyalardir. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o‘rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi.

Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo‘jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 30 foizdan oshadi. Bu ko‘rsatkich jahon savdosi o‘sishi sur’atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o‘zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg‘arilgan zahiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo‘ladi.

Kompaniyalar va jismoniy shaxslar investitsiya jarayonining ishtirokchilaridir. Ular investitsiya jarayonida ham talab tomonida ham taklif tomonida ishtirok etishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqarosi bo‘ladi. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra xorijiy investitsiyalar ssuda kapitali (ya’ni qarz va kredit), hamda bevosita va portfel investitsiyalarga bo‘linadi. Investitsiyalar nimaga yo‘naltirilganligi ular qaysi xorijiy investitsiya turiga kirishini belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar qo‘shma korxonalarda o‘z hissasi bilan qatnashib, xorijiy investorlarga to‘liq tegishli bo‘lgan korxonalarni

yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olishi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo‘lishi, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishlari mumkin. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo‘lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidir.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 3 guruh omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Iqtisodiy omillar: ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining bir maromda ushlab turilishi; jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta’siri ostida olib borilishi); ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi; jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o‘sib borishi (AQSH Transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir); ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi; xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)ning faol rivojlanishi va boshq.

2. Siyosiy omillar: kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIH), offshor hududlari va boshq.); rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish; iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash); bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshq.

3) Huquqiy omillar: xorijiy investitsiya qabul qiluvchi mamlakatda xorijiy investitsiyani har tomonlama himoya etishga javob beruvchi qonunlarni amal qilishi; xorijiy investitsiyalarni himoya etilishini kafolatlovchi me’yoriy qonun osti hujjatlarini amal qilishi; sherikchilik asosida investitsiya oqimini ta’minlashni istiqbolli dasturlarini mavjudligi.

Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalar oqimining ob’ektiv o‘zgarishlarga olib keluvchi omillar esa quyidagilardan iborat:

✓xalqaro mehnat, kapital, tajriba, texnologiya, moddiy resurslar ta’minoti va taqsimotini vujudga keltiradi;

✓moliya operatsiyalarining erkinlashuvini va xalqaro kapital ko‘chish oqimini tezlashtirishni ta’minlaydi;

✓millatlararo korporatsiyalarning paydo bo‘lishi asosida xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi.

Bu omillar o‘z navbatida, iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi, globallashuv jarayonlariga turtki bo‘ladi, raqobat sohasidagi milliy siyosatni xalqaro darajadagi siyosat bilan uyg‘unlashishini talab etadi va bilimlar ko‘lamini kengaytirishga zamin yaratadi. O‘zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo haritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol uynaydi.

Hukumatimiz tomonidan xorijiy sarmoyalarni qay darajada jalb etilishi oxir-oqibatda iqtisodiyotimizni kelajagini ko‘p jihatdan aniqlab berishi to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi kunda iqtisodiyotimizning kelgusi holati ko‘p jixatdan biz bugun xorijiy sarmoyalarni qay darajada ko‘proq jalb etishimizga bog‘liq. Bu borada xorijiy sarmoyalarni birinchi navbatda yangi texnologiyalarni joriy etilishiga va yangi quvvatlarni ishga tushirilishiga qaratilishi ko‘zda tutiladi. Xorijiy sarmoyalarga baho berilganda ularni juda qiyinchilik bilan va uzoq vaqt mobaynida belgilanishi[35], o‘zining yo‘nalishini tanlov asosida o‘zgartirishi hamda tikilgan sarmoyani ko‘paytirishi zarurligini tan olgan holda, mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar ham bo‘lishini, ammo kapital kapitalni ko‘paytirishi, foydali tarzda mablag‘ yig‘ib, undan qo‘shimcha foyda olishi mumkin bo‘lgan maydonni qidirishini, kapital shunchaki harakatsiz yotmasligini ta’kidlash mumkin.

Hozirda har bir jismoniy shaxs tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va shu orqali o‘z boyligiga boylik qo‘shishga intilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ularni qo‘llab-quvvatlovchi sarmoyalarni jalb qilish sharoitining yaratilishini talab etadi. Buning uchun eng avvalo sarmoyadorniig mamlakatda mavjud siyosiy barqarorlikka, davlatda qabul qilingan qonunlar, huquqiy me’yorlar har bir kapital egasi olishi mumkin bo‘lgan foyda (daromad)ni kafolatlashi mumkinligiga ishonch hosil qilishiga bog‘liq. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritilayotgan mintaqadagi imkoniyatlar, malakali ishchi kuchi

[35] Lorens Dj. Gitman, Maykl D. Djonk. Osnovi investirovaniya. -M.: Delo, 2007, s.10.

mavjudligi, resurslar narx-navosi, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining rivojlanish holati va istiqboli hamda jozibali loyihalarni mavjudligi investorlar qiziqishini yanada orttiradi.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o‘rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o‘ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me’yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha sub’ektlari – xorijiy investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar.

Hududlarda xorijiy investitsiya va kreditlarning jozibadorligini o‘zgarishini statistik baholashda hamda uning monitoringini olib borish bo‘yicha adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud: indikativ; riskli(ekspert); SWOT, omiliy va hokazo. Indikativ yondashuv investitsion bozorlarni ifodalovchi makroiqtisodiy va hududiy ko‘rsatkichlar dinamikasiga asoslanadi. Mamlakat hamda hududning xorijiy investitsiya va kreditlarning jozibadorligini xarakterlashda aholi soni va tarkibi dinamikasi, YaIM(YaHM), sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish mahsulotlari hajmi va o‘zgarish sur’atlari, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi, chet el investitsiya va kreditlari hajmi hamda ularning o‘zgarish sur’atlari, aholi jon boshiga va iqtisodiyotda band bo‘lgan bir kishiga to‘g‘ri kelishi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Rossiya, Xitoy, Germaniya va Janubiy Koreyaning ishbilarmonlari O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng ko‘p sarmoya kiritgan bo‘lib, investitsiya kiritgan davlatlarning umumiy soni 37 tani tashkil etdi. Ular uchun elektrotexnika, charm-poyabzal va kimyo sanoati eng jozibali bo‘ldi. O‘sish ko‘rsatkichlari neft-gaz sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarishda kuzatildi.

2019 yil 28 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etildi va quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilansin:

– mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda

ishtirok etish;

– xorijiy investorlarni axborot bilan, huquqiy va boshqa tomondan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar bilan investitsiya faoliyati sohasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etishda ularga ko‘maklashish;

– xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi istiqbolli va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari ma’lumotlarining axborot bazasini shakllantirish va yuritish, ularning amalga oshirilish holati ustidan doimiy monitoring olib borish;

– respublikaning iqtisodiy, resurs va investitsion salohiyatini keng targ‘ib qilish va ilgari surishni, yaratilgan qulay shart-sharoitlar, xorijiy investorlarga beriladigan imtiyozlar, afzalliklar haqida chet el ishbilarmon doiralari orasida, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari olib borishni tashkil etish.

§ 4.2. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari va shakllari

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag`lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo`l bilan respublika iqtisodiyotini ko`tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo`shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag`batlantirish yo`li bilan investitsiyalarni, ko`proq iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Tarkibiy tuzilishiga ko‘ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste’mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo‘shimcha o‘sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg‘armalari va aholi mablag‘lari qo‘yilmalaridir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o‘z ichiga amortizasiya va sof investitsiyalarni oladi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizasiya ajratmalari chiqarib tashlanadi. Yalpi investitsiyalar va amortizasiya o‘rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya’ni yuksalish, yo turg‘unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizasiyadan ortiq, ya’ni sof investitsiya yuqori bo‘lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo‘ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o‘sadi.

Yalpi investitsiya va amortizasiya bir-biriga teng bo‘lgan chog‘da iqtisodiyotda turg‘unlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga teng bo‘lib, iqtisodiyotda shu yili qancha kapital iste’mol qilingan bo‘lsa, uni qoplash uchun shuncha kapital qo‘yilmalar kerak bo‘ladi.

Iqtisodiy faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun yalpi investitsiyalar amortizasiyadan kam bo‘lgan holdagi vaziyat xosdir, ya’ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko‘proq iste’mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo‘lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo‘ladi. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o‘rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo‘jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 30%dan oshadi. Bu ko‘rsatkich jahon savdosining o‘sish sur’atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o‘zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg‘arilgan zahiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Chet el investitsiyalari to‘g‘risidagi qonunning 5-moddasiga asosan Chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– chet ellik investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

– O‘zbekiston Respublikasining yuridik va(yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo‘jalik jamiyatlari vashirkatlarining, banklar, sug‘urta tashkilotlari vaboshqakorxonalarning ustav jamg‘armalarida vaboshqamol-mulkida

ulush qo‘shib qatnashish;

– chet ellik investorlarga to‘liq qarashli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;

– mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;

– intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

– konsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo‘lgan konsessiyalar olish;

– savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud (4.1–rasmga qaralsin). Chizmada aks ettirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini quyida alohida ko‘rib chiqish muhimdir.



4.1 – rasm. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari

Qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo‘shma korxonalarni tashkil etishdir. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shma korxona deganda, ustav kapitalining kamida 30 foiz xorijiy investorlarga tegishli bo‘lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo‘lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150 ming AQSH dollariga teng bo‘lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi.

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg‘armasining 150 ming AQSH dollaridan kam bo‘lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug‘ullanishga ixtisoslashgan kichik qo‘shma korxonalarning keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o‘z mol-mulklari bir qismini ajratib, shu’ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu’ba korxonalarga ham qo‘shma korxonalarga qo‘yilgan talablar belgilangan. Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o‘z kapitallarini jamlagan holda xalqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Xorijiy sarmoyador ishtirokida korxona tashkil etish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi zarur:

– muassis hujjatlari paketini ishlab chiqish yoki amaldagi korxona hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish (agarda investitsiya amaldagi korxonaga jalb qilinayotgan bo‘lsa);

– firma nomini zahiraga olib qo‘yish;

– muassis hujjatlarining notarial ishonchnomasi;

– yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tganligi (qayta o‘tganligi);

– asosiy muhr va burchak shtampni tayyorlash (agar talab etilsa);

– bank xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzish va bank hisob raqamlarini ochish (endi tuzilayotgan korxonalar uchun).

Konsessiya shartnomalari - bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o‘zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi chet el investitsiyalari ishtirokida asbob – uskunalarni, texnika - texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olishdir.

Tenderlar – bu tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Erkin iqtisodiy hudud – bu ma’lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiyot hududlar to‘g‘risida»gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta’rif berilgan: «Erkin iqtisodiy hududlar – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir». Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo‘lishi lozim. Davlatning bosh islohotchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribasida aniq namoyon bo‘ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyalarini jalb etish uchun 4 dollar o‘z mablag‘larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag‘batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi.

Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o‘z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog‘liq. Shunisi harakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun katta hajmdagi investitsiyalar zarur bo‘ladi. Investitsiyalarni esa moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori orqali olib kelish mumkin. Shuning uchun ham mamlakatning iqtisodiy o‘sishida moliya bozori va qimmatli qog‘ozlarning roli nihoyatda kattadir.

Moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Faqat shunday sharoitdagina investitsiya faoliyatini faollashtirish va investitsiya oqimlarini ishlab chiqarish, so‘ngra esa yuqori texnologiyalar sohasiga qayta yo‘naltirish mumkin bo‘ladi. Zamonaviy moliya bozorlarining asosiy unsurlarini yaratmasdan turib, iqtisodiy o‘sish asosiy omillaridan biri hisoblangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning kirishiga erishib bo‘lmaydi.

Moliya bozori yordamida iqtisodiyotda pul mablag‘lari harakati ta’minlanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto‘xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. U investitsiyaga aylanayotgan pulning xo‘jalikning turli sohalari o‘rtasida erkin ko‘chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

O‘z navbatida, pulning kapital sifatida ishlab chiqarishga safarbar etilishi iqtisodiy salohiyatni kuchaytiradi, innovatsiyalar, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtiradi va shu asosda xalq farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

§ 4.3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarining iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli

Har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)larning salmog‘i va ulardan qanchalik darajada samarali foydalanayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. TTXI xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va siyosatiga ta'sir ko‘rsatishning kuchli vositasi bo‘lib, shunga muvofiq xususiy yoki davlat investitsiyalari shaklida bo‘lishi mumkin. Xorijiy investitsiyalarning asosiy shakli bu xususiy sarmoyadir, ammo ular

investitsiya qiluvchi mamlakat siyosatchilari tomonidan ham nazorat qilinadi va ma'lum bir davlatga nisbatan tashqi siyosatni olib borishda o‘z rollarini o‘ynaydilar. TTXIlar kapitalni joylashtirish shakli bo‘lib, investorni qimmatli qog‘ozlarga yoki mulkka bo‘lgan bevosita huquqidan dalolat beradi. TTXIlar, kapital qo‘yuvchi davlat yoki uning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari tomonidan investitsiyalarni kapital qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotiga joylashtirishini anglatadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya bu transchegaraviy investitsiyalarning shunday turiki, unda bir iqtisodiyotdagi rezident boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonaga investitsiya kiritishi uning boshqaruvini nazorat qilish yoki unga salmoqli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Bunda boshqaruvni nazorat qilish uchun korxonaning kamida 50 foiz ovoz berish huquqi, unga salmoqli ta’sir ko‘rsatish uchun esa 10-50 foiz ovoz berish huquqi talab qilinadi. BMTning Savdo va rivojlanish tashkilotining 1999 yildagi Jahon investitsiya hisobotida aytilishicha esa TTXI bu bir iqtisodiyotdagi rezident birlikning (xorijiy investor yoki bosh korxona) boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonaga uzoq muddatli aloqa, davomli manfaat va nazoratni ko‘zlab kiritgan investitsiyasidir.

TTXIni investor mamlakat nuqtai nazardan gorizontal, vertikal va konglomerativ turlarga ajratish mumkin. Gorizontal TTXI xorijiy mamlakatda o‘z mamlakatida ishlab chiqaradigan mahsulotlar turi bilan bir xil mahsulot ishlab chiqarish uchun yo‘naltirilgan investitsiyalardir. Shu sababli gorizontal TTXI uchun mahsulot differensiatsiyasi bozor tuzilmasining muhim elementi sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, gorizontal TTXI monopolistik yoki oligopolistik ustunliklardan yanada to‘liqroq foydalanish uchun amalga oshiriladi. Bu ayniqsa, monopolistik ustunliklardan mahalliy bozorlarda foydalanish monopoliyaga qarshi qonunlarga zid kelib qolgan holatlarda ayni muddaodir. Vertikal TTXI esa chet eldagi xom ashyo materiallardan foydalanish yoki distribyuterlik savdo shoxobchalari orqali iste’molchilarga yaqinlashish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda turli mamlakatlar ishlab chiqarishning turli bosqichlari yoki omillari bilan qatnashadi. Masalan, uzoq vaqt mobaynida AQSH avtomobil ishlab chiqaruvchilari Yaponiya avtomobil bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. Chunki Yaponiyalik avtomobil dillerlari o‘z ishlab chiqaruvchilari bilan yaqin biznes aloqalariga kirishgan va bu xorijiy avtomobillarga nisbatan qarshilikni tug‘dirayotgan edi. AQSH

avtomobil dillerlari bu to‘siqni yengib o‘tish uchun Yaponiyada o‘z mahsulotlarini sotishda o‘z dillerlik tarmoqlarini ochishga kirishganlar.

Konglomerativ TTXI esa o‘z ichiga gorizontal va vertikal TTXI qamrab oladi. Resipiyent mamlakat nuqtai nazardan esa TTXIni import o‘rnini bosuvchi, eksportni rag‘batlantiruvchi va davlat tashabbusi ostidagi turlarga ajratish mumkin. Import o‘rnini bosuvchi TTXI muayyan mamlakatda ushbu mamlakat avval import qilgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kiritilgan investitsiyalar hisoblanadi va bu mazkur mamlakatning o‘sha mahsulot bo‘yicha importini qisqarishiga va investor mamlakatning esa eksportini kamayishiga olib keladi. Bu turdagi TTXIni rag‘batlantiruvchi asosiy omillar qabul qiluvchi mamlakat bozori hajmining kattaligi, transportatsiya harajatlari va savdo to‘siqlarining mavjudligidir. Eksportni rag‘batlantiruvchi TTXI esa resipiyent mamlakatning investor mamlakat va TMK filiallari joylashgan mamlakatlarga xom ashyo materiallar va oraliq mahsulotlar eksportini rag‘batlantiradi. Chunki bu turdagi TTXI maqsadi ishlab chiqarish uchun yangi manbalar va omillar izlab topishdir. Davlat tashabbusi ostidagi TTXI turiga hukumat to‘lov balansidagi defitsitni yo‘qotish maqsadida xorijiy investorlarga turli imtiyozlar taklif qilish jarayonida jalb qilingan investitsiyalar kiradi.

TTXIni ekspansiyaviy (expansionary “egallovchi”) va himoyaviy (defensive) turlarga ajratish mumkin. Chen va Kuning (Chen and Ku 2000) fikriga ko‘ra ekspansiyaviy TTXI resipiyent mamlakatda investor firma ustunliklaridan foydalanishni ko‘zda tutadi. Bunday turdagi TTXI investor korxonaning ichki va tashqi savdosining o‘sishiga yordam beradi. Himoyaviy TTXI esa qabul qiluvchi mamlakatda mavjud arzon ishchi kuchidan foydalanib ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishni maqsad qilib qo‘yadi. Chen (Chen, 1999) empirik tadqiqotlariga ko‘ra ekspansiyaviy TTXIga eng ko‘p ta’sir qiladigan omillar firma hajmi, ilmiy-texnik salohiyati, rentabellik va texnologiya kabilar hisoblanadi. Himoyaviy TTXIga esa ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish bilan bog‘liq motivlar salmoqli ta’sir ko‘rsatadi.

TTXI uch xil shaklga ega bo‘lishi mumkin: grinfild (noldan boshlanuvchi) investitsiyalar, transchegaraviy birlashish va yutib yuborishlar va qo‘shma korxonalar. **Grinfild** investitsiyalar investor firma resipiyent mamlakat hududida yangi ishlab chiqarish faoliyatini boshlash bilan amalga oshiriladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchi

mamlakat uchun yangi ish o‘rinlarini yaratishi va ishlab chiqarishda yangi qo‘shilgan qiymatni shakllantirgani sababli ma’qul hisoblanadi.

Agar xorijiy investor yangi korxona ochmasdan mavjud korxonani sotib olib undagi ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini, ishchilarini va butun jarayonni deyarli butunlay yangilasa bunday TTXI **“braunfild investitsiyalar”** deyiladi. Bunday TTXI turi asosan o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ko‘p kuzatilgan. TTXIning korxonalarning xalqaro darajada o‘zaro birlashishi va yutib yuborishi natijasida kelib chiqadi. TTXIning bu turi xorijiy investorlar uchun grinfild investitsiyalarga qaraganda bir qancha ustunliklarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan investitsiya loyihalari odatda investor uchun arzonga tushadi va investorning bozorga qisqa muddatda kirib olishini ta’minlaydi.

Ko‘pchilik rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida TTXI asosan resurs izlovchi harakterga ega bo‘ladi. Bu turdagi investitsiyalar uchun rag‘batlantiruvchi omillar sifatida resipiyent mamlakatlarning xom-ashyo va mehnat resurslariga boyligini keltirish mumkin. Ushbu mamlakatlarda neft, gaz, mineral moddalar, metallar kabi tabiiy boyliklarning ko‘pligi va arzonligi hamda arzon ishchi kuchi mavjudligi resurs izlovchi investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantiradi. Bunday turdagi investitsiyalash natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar esa asosan eksport qilinadi.

Bozor izlovchi TTXI esa muayyan mamlakat yoki mintaqa iste’mol bozorlarini egallashni maqsad qilib qo‘yadi. Bu turdagi investitsiyalarni kirituvchi korxonalar odatda o‘z mahsulotlariga bo‘lgan joriy yoki kelgusi talabga javoban uy xo‘jaliklari uchun zarur iste’mol va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bozor izlovchi TTXI ko‘pincha himoyalovchi harakterga ega bo‘lib, korxonalar tomonidan qabul qiluvchi mamlakatdagi import to‘siqlarini aylanib o‘tish maqsadida amalga oshiriladi. Bu turdagi investitsiyalar olib kiruvchi investor uchun resipiyent mamlakatdagi liberal savdo siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Samara izlovchi TTXI harajatlar past bo‘lgan resipiyent mamlakatdagi arzonchilikdan foydalanish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish harajatlarining kamayishi esa investor korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, kredit karta kompaniyasining AQShlik mijozlar uchun Hindistonda chaqiruv (qo‘ng‘iroq qilish) markazini ochishi ishchilar uchun harajatlarni kamaytiradi va samara izlovchi TTXI sifatida e’tirof etiladi.

Strategik vosita izlovchi TTXI qachonki korxonalar o‘zlarining uzoq muddatli strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun xorijiy mamlakatga investitsiya kiritganda yuzaga keladi. Masalan, o‘zaro manfaatli ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarini hamkorlikda amalga oshirish uchun transmilliy korxona chet el mamlakatidagi boshqa korxona bilan birlashma shakllantirishi mumkin.

TTXIni ularni rag‘batlantiruvchi omillar bo‘yicha yuqoridagidek resurs, bozor, samara va strategik vosita izlovchi turlarga bo‘linishi J.Danning nazariyalariga asoslanadi. Xalqaro iqtisodiyotda turli xil nazariyalar qo‘llanilmoqda, ularning yordamida moliyaviy jarayonlarni tushuntirish mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita investitsiyalar bunday nazariyalar asosida ko‘rib chiqiladi:

1. Bozorning nomukammalligi nazariyasi. Investorlar sarmoyani yanada samarali ishlatish imkoniyatini beradigan bozor kamchiliklari bilan izlashga asoslangan. Bunday «bo‘shliqlar» savdo siyosati, ishlab chiqarish va qonunchilikka bog‘liq.
2. Oligopolistik himoya nazariyasi. Bu kapital harakatining bozor rahbari tomonidan belgilanadiganligini ko‘rsatadi.
3. «Uchayotgan g‘ozlar» nazariyasi. Ushbu modeldagi ishlab chiquvchi siz eksportchiga tovarlar import qiluvchisidan borishingiz mumkinligini ko‘rsatadi. U sanoatni rivojlantirishning uch bosqichini belgilab oldi: mahsulotni import shaklida bozorga kiritish, ichki va tashqi talabni qondiradigan investitsiyalar natijasida yangi filiallar va kompaniyalarning ochilishi, bu esa importerni eksport qiluvchi qiladi.

Endi esa TTXI bo‘yicha asosiy nazariyalar kelib chiqishiga e’tiborni qaratamiz. R.Vernon xalqaro tovar ishlab chiqarish nazariyasida TTXI va xalqaro savdo o‘rtasidagi munosabat, tovarning hayotiy sikli kabi muammolarga e’tiborni qaratadi. Ushbu nazariyada muallif xalqaro savdo, ishlab chiqarish va butun tarmoqlarning ko‘chish sabablari kabi xalqaro iqtisodiy munosabatlar elementlarini marketing nazariyasi (tovarning hayotiy sikli egri chizig‘i) bilan birlashtiradi.

Transmilliy kompaniyalar va sust raqobat nazariyasi doirasida esa kanadalik iqtisodchi Stiven Xaymer o‘z tadqiqotlarida transmilliy kompaniyalar (TMK) raqobatdoshligi va ularning xalqaro faoliyatini tahlil qilgan. Xorijiy investorlar uchun chet elga ishlab chiqarish investitsiyalarini kiritish ichki bozorda ishlab chiqarishni tashkil etishdan ko‘ra ko‘proq risklar va harajatlarni keltirib chiqaradi. Ammo

ular xorijiy bozorlardagi raqobatning nomukammalligi va sustligidan foydalanadilar.

F.T.Nikkerbokker Oligopoliya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nazariyasida oligopolistik tuzilmalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatni tadqiq qildi. Uning 20 yil mobaynida 187 ta Amerika kompaniyalarining xalqaro faoliyatini o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatdiki, oligopolistik tarmoqlarda milliy raqobatchilar beixtiyor bozor yetakchilari orqasidan ergashadilar. Bu ergashish strategiyasi 45 foiz holatda birinchi investitsiyalash vaqtidan boshlab 3 yil davomida kuzatilgan, 75 foiz holatda esa 7 yil davomida kuzatilgan. X.Grem ushbu modelni Yevropa transmilliy kompaniyalari investitsiya faoliyati harakterini tushuntirish orqali yanada takomillashtirdi. Uning aniqlashicha, ushbu korporatsiyalarning maqsadi AQShdagi o‘zlarining yevropalik raqobatchilari bilan kurashish emas, balki Yevropadagi Amerika kompaniyalari strategiyalariga qarshilik ko‘rsatish bo‘lgan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va millatlarning raqobat ustunliklari nazariyasida M.Porter to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya qabul qiluvchi mamlakatlar raqobatdoshligini tahlil qilib TTXI va raqobatdoshlik o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rgandi. U o‘nta sanoati rivojlangan mamlakatlardagi ularning eksportida asosiy o‘rin egallovchi yuzdan ortiq tarmoqlar raqobatdoshligini tadqiq qildi. Muallif transmilliy kompaniyalar va resipiyent mamlakatlarning raqobat ustunliklari o‘rtasidagi dinamik ta’sirlashuvni ko‘rsatadi.

TTXI mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va uning barqaror o‘sishini ta’minlash omili ekan, ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan unga oid nazariy asoslarning takomillashtirilishi va rivojlantirilishi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Investitsiyalar korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning ilg‘or usullarini joriy ettirish, fan-texnika yutuqlarini hamda inson kapitali imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositasi bo‘lib hisoblanadi. Investitsiyani qabul qilgan tomon o‘z vaqtida yangi korxonalar bunyod etadi, mavjudlarini texnik va texnologik jihatdan qayta quradi, raqobatdosh tovarlar ishlab chiqaradi, bu o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarini vujudga yaratilishiga imkon yaratadi. Aytish joizki, hozirgi sharoitda investitsiyaning davlatimiz va korxonalar rivojida tutgan o‘rni, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish,

texnik va texnologik yangilash, raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishdagi roli benihoya kattadir. Uning zamirida juda katta ma’no va mazmun mujassamlashgan. Hozirda iqtisodiy o‘sishni va yangi ish o‘rinlarini yaratish investitsiyalarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va uni intensiv rivojlantirish ko‘p jihatdan investitsiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Hattoki milliy iqtisodiyotni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash va mamlakatimizning eksport salohiyatini yanada oshirishni sarmoyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Umuman aytganda, islohotlarni samarali amalga oshirish, iqtisodiy taraqqiyot asosi, mamlakatning xalqaro integratsiyasi va jahon xo‘jaligidagi mavqeini mustahkamlash omili hamda unga erishishga xizmat qiluvchi va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bosh mezoni hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada tarraqiy ettirishda makroiqtisodiy mutanosiblikni ta’minlash 2019 yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini hayotga tatbiq etish, 2015-2019 yillarda muhandislik – kommunikatsiya va yo‘l – transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturi va 2030 yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifalarini amalga oshirishda TTXIlarning roli va o‘rni juda muhimdir. Bugungi kunda TTXI nafaqat oddiy pul o‘tkazmalar, balki moliyaviy va nomoddiy aktivlar, jumladan, texnologiyalar, boshqaruvchilik qobiliyatlari, marketing ko‘nikmalari ko‘rinishida ham kirib kelmoqda[36]. Investitsiya qabul qilayotgan (resipiyent) mamlakat uchun TTXI larning asosiy ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

- TTXI kapital to‘planishning qo‘shimcha manbasi sifatida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtiradi va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- TTXI oqimi boshqa shakldagi kapital importi, ya’ni portfel investitsiyalar va bank ssudalarining kirishini rag‘batlantiradi;
- TTXI oqimi ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalarning eksport va import operatsiyalari hisobiga mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantiradi;

[36] Sushama Deshmukh [2012], Effect of FDI on Emploment Generation International Referred Research Journal, [Onlaine] p 28.

TTXI oqimi mamlakatga yangi texnika va texnologiyalar kirishini rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talabni oshiradi[37].

Xalqaro statistika tajribasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri investitsiyalarning turlicha tushunchasi qo‘llaniladi. Masalan, Xalqaro valyuta fondining ta’riflashicha, chet el investorida korxona aksiyasining kamida 25 foizi bo‘lsagina investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya hisoblanadi. AQSH va Halqaro tiklanish va taraqqiyot banki statistikasi, iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko‘ra esa kami bilan korxonaning 10 foiz aksiyasiga ega bo‘lsagina, bunday investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya deb tan olinadi[38]. Aytish joizki, nvestitsiyalardan kutilayotgan daromad kapital evaziga olish mumkin bo‘lgan foiz stavkasidan yuqoriroq darajada bo‘lishi kerak. Shundagina kapital qabul qiluvchi davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan talabi qondirilishi mumkin bo‘ladi.

Xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga kiritilishi ikkala tomonga ham manfaat keltirishni ko‘zlaydi. Agar manfaatdorlik bo‘lmasa bunday munosabatlar amalga oshmaydi. Kapital qabul qiluvchi iqtisodiyot uchun xorijiy investitsiyalar daromad keltirmaganda edi, u kapitalni qabul qilmagan bo‘lar edi. Kapitalni joylashtiruvchi (xorijiy investor) uchun esa, kapitalni safarbar etishda kutiladigan daromad kapital evaziga olish mumkin bo‘lgan bank foiz stavkasidan yuqori bo‘lmaganda edi, u o‘z kapitalini o‘zga iqtisodiyotga safarbar qilmaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining baynalminallashini va O‘zbekistonning xalqaro bozorga o‘z mahsulotlarini olib chiqishini va u yerda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Buning natijasida mamlakatimizning eksport salohiyatini o‘sishi va to‘lov balansi ijobiy qoldiq bilan yakunlanib borishiga zamin yaratadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga hamda energiya tejamkor va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizga TTXIni jalb etish iqtisodiyotni yanada faollashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab

[37] Valiyev B. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi roli. Moliya. // 2014 y. 6-soni 106-109 b.

[38] Mirovie investitsii. Delovoy partner O'zbekistana, №5 (352), 1 fevral 2001, 3-bet.

chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida 2030 yilga borib mamlakatimizda YAIM ishlab chiqarishni 2 martaga oshirish vazifasini to‘liq hal etishga imkoniyat yaratadi.

§ 4.4. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yana-da yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ishchi kuchi mavjud bo‘lgan hududlarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar keng jalb etilmoqda. Respublikamizda investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bilan birga bir vaqtning o‘zida soliq tizimini isloh qilish va uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o‘z mablag‘larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o‘rin tutishini o‘z vaqtida to‘g‘ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan ivestitsion faoliyatning yo‘lga qo‘yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta’kidlash lozim.

Xususan, ichki bozorga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar uchun qator soliq imtiyozlari joriy etilmoqda. Xususan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag‘batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar

tizimi yana-da mustahkamlanayapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilan xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash asosiy yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar quyidagilardan iborat:

– ko‘rilgan zararlarning qoplanishi uchun kafolatlar;

– xorijiy investorlar kapitalining saqlanishi uchun kafolatlar;

– soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;

– foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;

– milliy so‘mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o‘tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;

– bojxona imtiyozlarining mavjudligi;

– xorijiy investorlarning mulklari va ularning o‘zlarini xavf-xatarlardan sug‘urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o‘z ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to‘lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (foyda) solig‘idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg‘armasida xorijiy investitsiya mablag‘lari hissasi 50 foiz va undan yuqori bo‘lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig‘idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini (jumladan, imtiyozlarni berish) amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanishi muhim ahamitga ega:

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat yuritish;

– respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag‘ni keng jalb etishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

– innovatsion texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yuritish;

– mablag‘larni import o‘rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim ustuvor yo‘nalishda jamlash.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, o‘z mablag‘ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi bo‘lgan chet ellik sarmoyador birinchi navbatda o‘zi uchun yaratilgan imtiyoz va yengilliklarni bilishni istaydi. Shu o‘rinda “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq chet ellik investorlar o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to‘lovi olinmasligini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha chet davlatga o‘tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari, xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarsiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo‘lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo‘lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo‘jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o‘rtasida tuziladi. Xorijiy investitsiyalari bo‘lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonanining tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o‘zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib

ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo‘jalik ishlarida hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim.

Agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko‘rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O‘zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qo‘llanilmoqda. Bu faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste’moli va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko‘rsatilgan zarar mikdorida kompensatsiya berilishini ta’minlaydi. Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o‘tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi. Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xom ashyo yetkazib beruvchilardan tashqari) ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig‘idan birinchi yil 25 foiz qismidan, ikkinchi yil 50 foiz qismidan, uchinchi yil 100 foiz ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildan 100 foiz ozod qilinadi;
- mulk solig‘idan 2 yilga ozod qilinadi;

- ishlab chiqargan mahsulotining 30 foizdan ortig‘i eksportga chiqarilsa, 50 foiz daromad solig‘idan (foyda solig‘i), 15-30 foiz eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig‘idan ozod qilinadi;

- ishlab chiqarish bilan band bo‘lsa, yer solig‘idan 2 yilga ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, shuningdek ushbu ishlarni amalga oshirish uchun zarur uskunalarni import qilishda bojlardan ozod qilinadi.

Mazkur soha korxonasi chet ellik hamkorlar bilan birga ochilsa: neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig‘idan; xorijiy hamkorlar ulushi kapitalidan olinadigan daromad va mulk solig‘idan ozod qilinadi.

Yengil sanoat sohasida: tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo‘shimcha qiymat solig‘idandan tashqari barcha soliqlardan ozod; o‘z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarini import qilishda korxonalar bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi.

Ma’lumki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omillardan biri bo‘lib mamlakatdagi soliq siyosati hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan imtiyozlar berish mamlakat investitsion jozibadorligini yanada oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon iqtisodiyotini kuzatadigan bo‘lsak, dunyo mamlakatlarining 80 foizidan ortig‘ida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliqlardan ma’lum muddatga ozod qilish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini qo‘llash kabi imtiyozlar mavjud. Soliq siyosatini to‘g‘ri va oqilona yuritish xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, hozirgi kunda respublikamizda o‘tkazilayotgan soliq islohotlari natijasida soliq tizimida qator ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan:

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar zimmasidagi soliq yukining yildan-yilga kamaytirilishi;

– soliqlarning mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini ko‘paytirishga, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlanishiga, investitsion faollikni oshirishga, mablag‘lar aylanishini jadallashtirishga hamda foydani oshirishga rag‘batlantiruvchi ta’sirining kuchayishi;

– soliq mexanizmini soddalashtirib borilayotganligi;

– resurs va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirilishi va boshqa shu kabi muhim masalalar hal etilmoqda.

Hozirda iqtisodiyotda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar miqdori yil sayin oshib bormoqda. Bunda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni qariyb 80 foizi korxonalar, aholining mablag‘lari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va kreditlar hisobidan moliyalashtirildi.

2020 yilning yanvar – iyun oylarida o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 4,8 mlrd. dollarni, shu jumladan to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar - 3,2 mlrd. dollarni va davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 1,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan - to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2,6 mlrd. dollarni tashkil etib, 2019 yildagi shu ko‘rsatkichga nisbatan 1,2 marotaba o‘sish sur’ati kuzatildi. To‘g‘ridan - to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiya hajmidagi ulushi 29,5% gacha o‘sdi.

Hisobot davrida 494 ta loyiha ishga tushirildi: 28 ta yirik ishlab chiqarish korxonasi va 466 ta hududiy ahamiyatga ega sanoat obyektlari. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritish bo‘yicha Rossiya, Xitoy, Germaniya va Turkiya davlatlari yetakchilik qildi, respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlarning umumiy soni 37 tani tashkil etdi.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda elektrotexnika sanoati (2019 yilning shu davriga nisbatan o‘sish - 13 barobar), qurilish materiallari ishlab chiqarish (o‘sish – 3,6 barobar), AKT (o‘sish – 3,5 barobar) sohalari investorlar uchun eng jozibador bo‘lib qoldi. Oziq-ovqat sanoati (o‘sish – 1,5 barobar), kimyo sanoati (o‘sish – 1,3 barobar) va to‘qimachilik sanoati (o‘sish – 1,6 barobar) ham yaxshi o‘sish dinamikasini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning o‘sish tendensiyasi mustahkamlandi va hisobot davrida 2 mlrd. dollarni tashkil etib, 2019 yilning shu davriga nisbatan 1,05 barobarga oshdi. Umumiy summaning 1,6 mlrd. dollari asosiy kapitalga yo‘naltirildi. Hududiy loyihalar doirasida investitsiyalarni o‘zlashtirish hajmi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar umumiy hajmining 62,3 foizini tashkil etdi.

Viloyatlar kesimida 2020 yilning birinchi yarmida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘sishining eng yuqori dinamikasi Namangan (1,6 barobar), Toshkent (1,6 barobar), Qashqadaryo (1,5 barobar) va Sirdaryo (1,4 barobar) viloyatlarida kuzatildi. Umuman olganda, 2020 yil oxiriga qadar 2 mingdan ortiq ijtimoiy, infratuzilmaviy va sanoat obyektlari, shu jumladan 206 ta yangi yirik ishlab chiqarish obyekti, 240 ta hududiy ahamiyatga ega ishlab chiqarish obyekti hamda 1,6 mingga yaqin ijtimoiy va infratuzilmaviy obyektlari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan[39].

Qulay soliq va bojxona siyosati O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar uchun investorlarga qator imtiyoz va preferensiyalar “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va boshqa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan[40]. Ta’kidlash joizki, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish, respublikaning investitsion salohiyatini rivojlantirish maqsadida keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan. Bunda yuqoridagi imtiyozlar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar va byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar kabi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilari barpo etilayotgani davlatimizning bu sohaga bo‘lgan katta e’tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb

[39] https://mift.uz/uz/news/uzbekiston-respublikasida-2020-jil-janvar-aprel-ojlaridagi-investitsija-faolijatining-jakunlari

[40] O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2012 yil 4 apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF – 4434-sonli Farmoni.

etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag‘batlantirish va ular uchun zarur sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro mehnat, kapital, texnologiya, moddiy resurslar ta’minoti, **xalqaro investitsiyalar,** *konsessiya, lizing shartnomasi, qo‘shma korxona, tenderlar.*

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Xorirjiy investitsiya deganda nimani tushunasiz?*
2. *Konglomerativ to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiya mohiyati.*
3. *Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari*
4. *Xorijiy investorlarga beriladigan qanday imtiyozlarni bilasiz?*
5. *To‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni mohiyati.*
6. *Bozor izlovchi va samara izlovchi to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni farqli jihatlari.*
7. *O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar nimalardan iborat?*

V BOB. IQTISODIYOTNING XALQARO INTEGRATSIYASIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI VA ULARNING XALQARO HARAKATINI TARTIBGA SOLISH

§ 5.1. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi mazmuni, jarayoni hamda milliy iqtisodiyotning rivojida uning xalqaro integratsiyasini ta’minlash va faolllashtirishning zarurligi va ahamiyati.
§ 5.2. Milliy iqtisodiyot xalqaro integratsiyalashuvining asosiy yo‘nalishlari va hozirgi talablari
§ 5.3. O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasiga qaratilgan davlat siyosatining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari
§ 5.4. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasida xorijiy investitsiyalar ishtirokini oshirishda xalqaro moliyaviy institutlarning tutgan o‘rni va ularning hamkorlik aloqalari

§ 5.1. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi mazmuni, jarayoni hamda milliy iqtisodiyotning rivojida uning xalqaro integratsiyasini ta’minlash va faolllashtirishning zarurligi va ahamiyati

Xalqaro iqtisodiy integratsiya uzoq davom etadigan ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, turli shakllarda yuz beradi. Birinchi bosqichda turli mamlakatlar o‘rtasida erkin savdo-sotiq olib boriladigan, bojxona to‘lovlari, eksport kvotalari bekor qilingan erkin savdo zonalari tashkil etiladi. Natijada davlatlararo tovar ayirboshlashda integratsiyalashuv yuz beradi.

Ikkinchi bosqichda erkin iqtisodiy zonalar shakllanib, bu yerda ham bir necha mamlakatlar birlashadi. Bu bosqichda integratsion aloqalar savdo-sotiq bilan cheklanmasdan sanoat, bank, sug‘urta ishi va texnologiya sohasida ham yuz beradi. Bu zonalar ochiq iqtisodiy hududlar hisoblanadi, iqtisodiy aloqalar erkin va ko‘p qirrali bo‘lib, barcha iqtisodiyot subyektlari imtiyozlarga ega bo‘ladilar.

Uchinchi bosqichda umumiy bozor shakllanadi. Umumiy bozorni tashkil etgan mamlakatlarning milliy bozorlari bir-biri uchun ochiq bo‘ladi, amalda milliy bozorlar birlashib, mamlakatlararo umumiy bozor vujudga keladi. Bu bozorda barcha tovarlar erkin, hech bir cheklovlarsiz ko‘chib yuradi. Ish kuchi, kapital va tovarlar bir mamlakatdan boshqasiga o‘tadi, qaysi mamlakatda resursni ishlatish

qulay bo‘lsa, u shu yerga borib joylasha oladi. Umumiy bozorda iqtisodiy chegaralar amalda bekor qilinadi, bojxona to‘lovlari, eksport kvotalari, tovar sifatiga talab minimal darajaga keltiriladi. Umumiy bozor dastlab 1957-yildan Yevropada shakllangan.

To‘rtinchi bosqichda iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida integratsiya yuz beradi. Bu yerda integratsion aloqalar savdo-sotiq va ishlab chiqarish bilan cheklanmay, moliya, pul muomalasi va bank tizimiga ham kirib boradi. Yevropa Ittifoqiga kirgan 15 mamlakatdan 12 tasida 2000—2001 yillarda umumiy pul — yevro muomalaga kiritildi, milliy pullar muomaladan asta-sekin chiqarildi, yagona soliq tizimi joriy etildi, milliy byudjetlar saqlangan holda yagona, umumiy byudjet ham tuziladigan bo‘ldi.

21-asr boshlaridagi integratsiyaning eng yuqori shakli bo‘lgan iqtisodiy va valyuta ittifoqi mamlakatlar iqtisodiyotini yuksak darajada birlashtiradi, iqtisodiy umumiylikka ustuvorlik beradi, ammo ayrim mamlakatlar mustaqilligini ma’lum darajada cheklaydi.

Iqtisodiy integratsiya – turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o‘rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o‘natilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xo‘jalikning shakllanishi jarayoni. Iqtisodiy integratsiya butun bir mamlakatlar milliy xo‘jaliklari darajasida, shuningdek, korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar darajasida ham kuzatiladi. Iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish texnologik aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvida, resurslardan hamkorlikda foydalanish, kapitallarni birlashtirishda hamda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida birbiriga qulay sharoitlarni yaratishda, o‘zaro to‘siklarni olib tashlashda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy integratsiya asosida mehnat taqsimoti yotadi. Mehnat taqsimoti tufayli ayrim mahsulotlar emas, balki detallar ham ixtisoslashgan korxona va tarmoqlarda ishlab chiqariladi. Shu tariqa korxona va tarmoqlar o‘zaro yaqin va muntazam iqtisodiy aloqa bog‘laydi. Avvalo, korxonalar o‘rtasida iqtisodiy integratsiya yuz beradi va ularning birlashmasi vujudga keladi, so‘ngra iqtisodiy integratsiya tarmoqlararo miqyosda yuz berib, yirik i.ch. majmualari paydo bo‘ladi. Bir tarmoq doirasida gorizontal integratsiya, tarmoqlararo esa vertikal iqtisodiy integratsiya yuz beradi. Vertikal iqtisodiy integratsiyaga agrosanoat majmui misol bo‘ladi, u qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Mehnat taqsimoti xalqaro miqyosda

amalga oshishi bilan xo‘jalik hayoti baynalmilallashadi, moddiy mahsulot yaratishda turli mamlakatlarda korxona va tarmoklar qatnasha boradi, binobarin, mamlakatlararo iqtisodiy integratsiya yuzaga keladi, buning natijasida mamlakatlar iqtisodiyotida ixtisoslashish yuz beradi va mamlakatlar bir-birlariga mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beradi. Shu sababli hozirgi davrda xalqaro iqtisodiy integratsiya eng yuqori darajadagi va yetakchi integratsiya ko‘rinishi hisoblanadi. Hozirgi kunda integratsion jarayonlar to‘g‘risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiyasi mavjud emas.

Bir guruh iqtisodchi olimlar integratsiyani jahon mamlakatlari o‘rtasida yangi tovarlar oqimini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo‘li deb talqin etishsa bu orqali jahon mamlakatlarida nisbatan serharajat tovarlar ishlab chiqarishga chek qo‘yilib, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, ya’ni, NIOKRga harajatlarni kamaytirish imkonini beradi, boshqa bir guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turtki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari suradi. Masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqalar. Uchinchi bir guruh iqtisodchilar esa integratsiya bu ishlab chiqarishni barqaror o‘sishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik kabi maqsadlarga yengilroq va tezroq erishish imkoniyatini beradi deb hisoblashadi. Xullas, u yoki bu nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o‘tishimiz mumkinki, integratsiya – bu hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik komplekslarining o‘zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishi jarayonidir.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosan ikki ko‘rinishda (mikro – transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali, makro – iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali) amalga oshiriladi.

Mikro miqyosdagi integratsion jarayonlar bir-biriga hududiy jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning kapitallarini o‘zaro ta’sir doirasi orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, ushbu davlatlar o‘rtasida integratsion jarayonlar iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi, kichik shahobchalar, sho‘’ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi. Tashkil topgan korxona va firmalar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning tez rivojlanishi tovar almashuvini, xizmat sohalarini, kapital va ishchi kuchining mamlakatlararo erkin harakatini ta’minlashga, ijtimoiy – iqtisodiy va

ilmiy-texnologik, tashqi iqtisodiy va mudofaa, moliyaviy va valyuta sohasida yagona siyosatni o‘tkazish zaruriyati tug‘iladi. Yagona valyuta va moliyaviy fondlar, infratuzilmalar va umumiy davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo‘lgan iqtisodiy majmualar yaratiladi. Iqtisodiyot globallashuvini rivojlantirishni ilk bosqichida sayyoramizning barcha qit’alarida integratsion jarayonlarning turli shakllarini ko‘rishimiz mumkin.

Xo‘jalik hayotida integratsiyalashuv jarayonlari kundan – kunga chuqurlashib bormoqda. Integratsiyalashuv jarayonlari jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida xalqaro savdo sohasidan tortib ilmiy – axborot, tovar ayiraboshlashgacha bo‘lgan turli ko‘rinishlarini bir-biriga qo‘shilib borishini nazarda tutadi. Jahon xo‘jaligida globallashuvi sharoitida iqtisodiy integratsion jarayonlarning asosida bir qator ob’ektiv omillar yotadi (5.1 – rasm).



5.1 – rasm. Iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yuzaga keltirib chiqaruvchi ob’ektiv omillar

Chizmada keltirib o‘tilgan ob’ektiv omillarning barchasi jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida xo‘jalik hayotining barqaror rivojlanishi, takror ishlab chiqarishning milliy xo‘jaliklar doirasidan chetga chiqish jarayonini aks ettiradi (eng avvalo, xalqaro mehnat taqsimoti asosida). Jahon xo‘jaligi baynalminallashuvining o‘sishi va rivojlanishida TMKlarning ta’sir doirasi kattadir. YUNKTAD ma’lumotiga ko‘ra hozirgi kunda jahonda 40 mingdan ortiq TMKlar va ularning 270

mingdan ortiq shaxobchalari va sho‘’ba korxonalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Jahondagi 500 dan ortiq eng yirik korporatsiyalarning 1/3 qismi esa AQShga tegishlidir.

Jahon xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish jarayonlarini ikkinchi omili - xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasidagi chuqur o‘zgarishlardir (bu asosan ITI ta’sirida yuz beradi). Xalqaro mehnat taqsimoti atamasi, bir tomondan, mamlakatlarning ma’lum bir mahsulotlar ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvini bildirsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish majburiyatlarning firma ichida va firmalararo taqsimlanishida o‘z ifodasini topadi. Umumjahon ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-texnik inqilobning hozirgi bosqichi baynalminallashuvni ham bozor, ham ishlab chiqarish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynamoqda. ITI tashqi iqtisodiy aloqalarning ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi rolini oshishini ta’minlovchi muhim omildir. Xullas, ITIning rivojlanishi u yoki bu mamlakatda alohida bir ajralgan holda to‘laqonli rivojlanib bora olmaydi.

Jahon xo‘jaligida mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarga yanada chuqurroq kirib borishida milliy davlatlar iqtisodiyotining ochiqlik darajasi muhim rol o‘ynamoqda. Turli mamlakatlarga tegishli firmalarning kooperatsiyalashuvi natijasida ishlab chiqarish va investitsiyalar sohasida yirik xalqaro muammolar kelib chiqmoqda. Milliy davlatlarda ochiq iqtisodiyotning shakllanishida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishini rag‘batlantirish ishlari bo‘yicha olib borilayotgan tashqi iqtisodiy strategiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda, albatta xorijiy mamlakatlardan kapital va ilmiy - texnologiyalar, malakali kadrlarning kirib kelishiga imkon beruvchi xuquqiy asoslarni yaratilishi ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda 20 dan ortiq xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalar (uyushmalar) mavjud. Jahon xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotida (YAIM) tovar aylanmaning 2/3 qismi va investitsiyalarning asosiy qismi ana shu birlashmalar ulushiga to‘g‘ri keladi. Bunda biz xalqaro iqtisodiy integratsion markazlar ichida uchtasini (G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo - Tinch okeani mintaqasi kabi integratsion markazlarni) alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotida 50 - yillardan so‘ng G‘arbiy Yevropada ikkita yirik integratsion guruhni – Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH) va Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasini (YEESA) vujudga kelishi natijasida integratsion jarayonlar ushbu mintaqada katta tezlikda

rivojlanib bordi. 90 – yillarning o‘rtalariga kelib YEIH (1995 yildan boshlab Yevropa Ittifoqi (YEI) deb atala boshlandi) davlatlari tashkiloti deyarli YEESAni tugashiga sabab bo‘ldi (YEESA o‘z tarkibida Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shvetsariya davlatlarini saqlab qoldi xolos). Jahon iqtisodiyotida YEESA o‘zining faoliyatida bojxona ittifoqini (BI) yaratishdan nariga o‘tmadi, uning tuzilmasi millatlararo yirik zamonaviy tashkilotlar va uyushmalar bilan mustahkamlanmadi[41]. 1990 yilda YEI va YEESAga a’zo davlatlar Yevropa iqtisodiy makonini yaratish to‘g‘risida kelishib olishdi. Ushbu makon doirasida YEESAsi a’zolarining ishlab chiqaruvchilari YEI a’zolari kompaniyalari bilan bir qatorda *preferensial* (imtiyoz, rag‘batlantirish) bojxona rejimidan foydalanishdi.

Sharqiy Yevropada sobiq sotsialistik rejali davlatlardagi demokratik qayta qurishlar 1949 yillardan beri mavjud bo‘lib kelgan O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining (O‘IYOK) tarqalib ketishiga sabab bo‘ldi. Sharqiy Yevropa davlatlari o‘zlarining iqtisodiy yo‘nalishlarini G‘arbiy Yevropa bozorlariga qaratib, yangi birlashmalarni tashkil etishga intilmoqda. Aytish joizki, 1992 yilda erkin savdo to‘g‘risida Markaziy Yevropa kelishuvi imzolanib, unga Vengriya, Polsha, Chexiya va Slovakiya a’zo bo‘lib kirdi. Sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan respublikalar (Rossiya, Ukraina, Belorus, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) esa 1991-1993 yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) doirasida Iqtisodiy Ittifoqni shakllantirdi[42].

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida ahamiyati jihatidan ikkinchi o‘rinda turuvchi yirik xalqaro iqtisodiy integratsion markaz Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Ushbu hududda 1994 yilning 1 yanvaridan Shimoliy Amerika Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (NAFTA tashkiloti) kuchga kirdi. Ushbu mintaqaviy tashkilot o‘z tarkibiga AQSH, Kanada va Meksika davlatlarini birlashtirgan. NAFTA davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, savdo-iqtisodiy munosabatlarda ro‘y berib turgan kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning YEIga nisbatan o‘ziga xos rivojlanish xususiyati integratsion jarayonlarning simmetrik

[41] Tojiyev R.R. Jahon iqtisodiyotida mintaqaviy integratsiya shakllarining qiyosiy tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016 yil
[42] O‘sha yerda

emasligidir. Kanada va Meksika davlatlari integratsiyalashuv jarayonida AQShga o‘zaro iqtisodiy bog‘liqdir.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida uchunchi integratsion markaz Osiyo Tinch okeani mintaqasi hisoblanadi. Ushbu markaz boshqa iqtisodiy integratsion markazlarga nisbatan hududi, aholisi va resurslarining miqdori bo‘yicha ancha ustundir. Biroq, integratsiyalashuv yo‘lida Osiyo – Tinch okeani mintaqasida juda ko‘p to‘siqlar (iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik va madaniy farqlar, siyosiy davolar, hududiy to‘qnashuvlar va boshqalar) mavjud. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida bir necha yirik subhududiy iqtisodiy guruhlar Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi ASEAN, Janubiy Xitoy forumi, Avstraliya va Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Shanxay guruhi davlatlari xalqaro iqtisodiy uyushmasi va boshqalar mavjud bo‘lib, ular okean sohillarida joylashgan davlatlarning umumiy tashkilotlarini shakllanishiga xalaqit bermoqda.

Osiyo Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorligi tashkiloti 1989 yilda tashkil topdi. Ushbu tashkilot turli darajada iqtisodiy rivojlangan va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida turli mavqeilarga ega bo‘lgan 20 dan ortiq davlatni o‘z tarkibiga birlashtirgan. 1995 yilda bu tashkilotning Osaka shahrida ma’qullagan harakat Dasturi 2010-2020 yillargacha savdo va investitsiyalashni Jahon savdo tashkiloti (JST) standart talablariga muvofiq erkinlashtirishga yo‘naltirilgan. Xullas, hozirgi kunda ushbu integratsion guruh rivojlanish yo‘lining eng yuqori cho‘qqisida turibdi. Muvofiqlashtiruvchi hujjatlar ushbu tashkilotda mavjud bo‘lsada, unga a’zo mamlakatlar bojxona tariflari, transport va boshqa sohalardagi muammolarni hal etish uchun ko‘p tadbiriy ishlarni amalga oshirishlari lozim.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni belgilovchi omillar. Birlashish jarayonlari barqaror iqtisodiy o‘zaro aloqalarning o‘sishi jarayonini (birinchi navbatda xalqaro mehnat taqsimoti asosidagi) hamda ishlab chiqarishning milliy xo‘jalik doirasidan chiqishini taqozo etadi. Birlashish jarayonining rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar (TMK) faol ravishda xizmat ko‘rsatmoqdalar.

Integratsion jarayonlarning o‘sishiga sabab bo‘luvchi boshqa omillar xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishining chuqurroq siljib borishidir (birinchi navbatda, ilmiy-texnika tarraqqiyoti ta’sirida). “Xalqaro mehnat taqsimoti” atamasi, bir tarafdan, odatdagidek,

millatlararo ishlab chiqarish majburiyatlariga ko‘ra, ayrim mamlakatlarning belgilangan turdagi mahsulotni chiqarishga ixtisoslashishini, taqsimlash jarayonini nazarda tutadi. Boshqa tarafdan esa, ishlab chiqarish majburiyatlari rejali tarzda ichkarida va firmalar o‘rtasida taqsim qilinadi. Ichki soha ixtisosligi keng ko‘lam topmoqda.

Ilmiy-texnik tarraqqiyotning hozirgi bosqichi integratsion jarayonlarni turli mamlakatlarda ITT tarqalishi notekis bo‘lgan taqdirda ham bozorni, ham ishlab chiqarishni sifatli yangi darajaga olib kelmoqda, turli mamlakatlarda ITT mustaqil omil bo‘lib, hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarishidagi tashqi iqtisodiy aloqalarda katta rol o‘ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi fan va texnikaning rivojlanish muvaffaqiyatlarini davlatlararo aloqalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Turli mamlakatlarning firmalari o‘rtasida kooperatsiya asosida tashkil etilishning shiddat bilan rivojlanishi ulkan xalqaro ishlab chiqarish-investitsiya komplekslarini barpo etishga olib keladi, bularni tashkil etishga ko‘pincha TNK boshchilik qiladi. Ular uchun firma ichidagi mehnat taqsimoti milliy chegaradan chiqib, xalqaro miqyosga aylangan. Xuddi shu asosda ochiq milliy iqtisodiyot darajasi oshadi. Ochiq iqtisodiyot mamlakatlarning xo‘jaliklararo aloqalariga to‘la kirib borishi asosida shakllanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ochiq iqtisodiyotni barpo etishda mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi katta rol o‘ynagan holda, eksport ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, kooperatsiyalarning chet el firmalari bilan ishlashiga ko‘maklashadi va huquqiy asos tashkil etib, chetdan mablag‘, texnologiya, malakali kadrlar kirib kelishiga yo‘l ochib beradi.

§ 5.2. Milliy iqtisodiyot xalqaro integratsiyalashuvining asosiy yo‘nalishlari va hozirgi talablari

Milliy iqtisodiyotiing jahon iqgisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi bir mamlakat boshqa mamlakatlar bilan aloqa qilmasdan, yakka, alohida holda rivojlana olmaydi. Shuning uchun mamlakatlar birlashgan holda o‘z iqgisodiyotini yuritadi. Mamlakatlar maqsadlari va imkoniyatlari bir-biri bilan kesishsa, ular bir-birlari bilan hamkorlik ravshpda ish olib borishadi va bunda ancha qulayliklarga erishiladi. Bunga YEIdagi yagona valyutaning kiritilishini misol qilishimiz mumkin. Bir modelning ikkinchi modeldan farqini keltirib chiqaruvchi elementlar va bog‘liqliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mulk shakllarining nisbatini;

- davlatning roli, davlat sektorining miqyosi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasini;

- davlat harajatlari va ularning YAIMdagi ulushini;

- iktisodiyotning ochiqlik darajasini;

- iqgisodiyotni moliyalashtirish manbalari va miqyosi, xorijiy kapitalning iqgisodiyotdagi ulushini;

- mehnat bozorini;

- tashqi iqgisodiy aloqalarning harakteri, savdo siyosatini;

- milliy iqgisodiyotning jahon iqgisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi va h.k.

Mamlakatlar iqtisodiyogining rivojlanish evolyutsiyasi makroiqgisodiy rivojlanishning kuyidagi uch modelini ajratish imkonini berdi: ya'ni o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi bozor tizimi bo‘lib, u ilgari erkin raqobat kapitalizmi, deb atalardi. Ushbu tizim asoslari A.Smit asarlarida ta'riflab berilgan bo‘lib, keyinchalik klassik liberal yo‘nalish vakillari tomonidan keng rivojlantirildi. Mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy birlashuvi va milliy davlatlar siyosatining shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Sub'ektlar o‘rtasidagi integratsion jarayonlarning borishi va rivojlanishi asosan davlatlararo ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlarning erkin harakati va xizmat ko‘rsatish sohalarda, mamlakatlar o‘rtasidagi kapital harakati va ishchi kuchi migratsiyasida, davlatlararo iqtisodiy hamkordagi o‘zaro kelishuvlarda, ilmiy-texnikaviy va texnologik sohalarda, moliya-kredit sohalarda, tashqi iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy, shuningdek mudofaa siyosati va boshqa ko‘plab boshqa sohalarda o‘z aksini topmoqda.

Jahon mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta'minlashda bir qator qulayliklarni vujudga keltirdi, ular birinchidan, xo‘jalik sub'ektlarini (tovar ishlab chiqaruvchilarni) ko‘plab resurslar bilan (mehnat va yangi texnik-texnologik materiallar) ta'minlash bilan bir vaqtda jahon bozorlariga mos, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Ikkinchidan, xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarda qatnashuvchi barcha davlatlarni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatidan bir-biriga yaqinlashtiradi. A'zo davlatlarni dunyo mamlakatlari tomonidan ruy berishi mumkin bo‘lgan turli to‘siq va raqobatdan himoya qildi. Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarda ishtirok etuvchi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarni borishi iqtisodiy rivojlanish va yuksalishdan orqada qolayotgan mintaqalarni,

hududlarni rivojlanishiga, xalqaro mehnat bozorlaridagi ahvolni yaxshilanishiga, iqtisodiy kam ta’minlangan aholini esa iqtisodiy ta’minotini yaxshilanishiga imkon tug‘diradi.

1991 yilning 31 avgustida O‘zbekiston Respublikasi suveren mustaqillikka erishishi natijasida respublikaning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida rivojlanishning yangi davri boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, respublikada O‘rta Osiyo aholisining 45 foizi yashaydi. O‘zbekiston qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston bilan chegaralanib Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlari bilan transport va telekommunikatsiya aloqalari orqali bog‘lanib turuvchi muhim strategik yo‘lak bo‘lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o‘zgarishlar va turli salbiy tendensiyalarga qaramasdan, O‘zbekistonda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat hamda xalqimizning fidokorona mehnati evaziga juda katta ijobiy natijalar qo‘lga kiritilmoqda, iqtisodiyotimizda jiddiy tarkibiy va sifat o‘zgarishlariga, ya’ni xalqimiz turmush farovonligining o‘sishiga, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘z o‘rni va mavqeining tobora mustahkamlanib borishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib borilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida umummintaqaviy tartibga solish ob’ekti bo‘lishi kerak bo‘lgan davlatlararo integratsiya dasturlarini barpo etish va amalga oshirishning alohida muhim roli va ustuvor ahamiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shu o‘rinda tashqi iqtisodiy foliyat yuritishda diversifikatsion tamoyillarga ham e’tibor qaratish, mamlakatimizning kelajakdagi istiqbolini va kutilmagan xavflarni bartaraf etish, shuningdek bunday xavflar paydo bo‘lgan taqdirda ulardan keladigan salbiy ta’sirlarni maksimal darajada kamaytirish imkonini beradi.

Diversifikatsiya – muayyan to‘plam tarkibining turli-tumanligini ta’minlash chora-tadbirlari. Diversifikatsiya darajasi turli-tumanlilik darajasi bilan belgilanadi. Diversifikatsiyalashdan muhim investitsiya konsepsiyasi tariqasida foydalaniladi. U investitsiya portfeli daromadliligini pasaytirmagan holda uning riskini pasaytiradi. Diversifikatsiyalashdan olinadigan eng yuqori samara bir turdagi aktiv qiymatining pasayishi boshqa turdagi aktiv qiymatining o‘sishi hisobiga qoplanishini ta’minlaydigan tarzda investitsiya portfeliga turli sinflar, tarmoqlar, mintaqalar aktivlarini qo‘shish orqali erishiladi.

Ya’ni, tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatishda quyidagi diversifikatsion tamoyillarga e’tiborni qaratish lozim:

- tashqi iqtisodiy aloqalarni iloji boricha ko‘proq va mintaqaviy jihatdan turlicha bo‘lgan mamlakatlar bilan o‘rnatishga;
- eksport tarkibini turlicha mahsulotlar tashkil etishiga;
- bir xil turdagi mahsulot yoki xizmatni bir vaqtning o‘zida jahonning turlicha qit’alarida joylashgan davlatlarga eksport qilishga;
- iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan import mahsulotlari ham eksport siyosatida amal qiladigan tamoyil sifatida amalga oshirilishiga;
-jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonini tashkil etishda turli mamlakatlar tajribasini o‘zimizni sharoitga moslashtirgan holatda amalga oshirishga.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari integratsiyasi mintaqadagi kompleks ustuvor muammolarni hal etib ushbu mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kuchayishining muhim omiliga aylanadi. Iqtisodiy integratsiyaning xalqaro tajribasi Markaziy Osiyo hamdo‘stligi doirasidagi integratsiya jarayonlarida foydalanish imkonini berdi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida juda muhimdir.

birinchidan, iqtisodiy vazifa sifatida mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish uchun o‘tkazilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlarning umumiy maqsadlari bilan birlashgan qatnashchi davlatlar rahbarlarining yagona siyosiy idorasi zarur;

ikkinchidan, xususiy biznesga va xorijiy investorlarga ishonch sharti sifatida barqaror makroiqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat integratsiya ittifoqi a’zosi bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiyoti integratsiyasi muvaffaqiyatli qadam tashlashining muhim sharti hisoblanadi.

uchinchidan mintaqaviy integratsiya erkin savdo zonasini, so‘ngra bojxona, to‘lov va valyuta ittifoqini tashkil etishga doir kompleks chora-tadbirlar sifatida asta-sekin, izchil amalga oshiriladigan jarayon ekanligini esda tutish zarur, bunda har bir bosqichda qatnashchilardan har birining manfaatlari va xulosalari kelishilishi kerak;

to‘rtinchidan, rivojlangan infratuzilmasi (transport, aloqa, gaz, neft quvurlari, oziq-ovqat tashish va boshqa kommunikatsiyalar) mavjudligi mintaqaviy integratsiyaning hal qiluvchi sharti hisoblanadi, ulardan integratsiya hamdo‘stligi barcha a’zolarining manfaatlari yo‘lida samarali foydalanish zarur.

Iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilardan iboratdir:

1. Erkin savdo hududi, uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o‘zaro savdo to‘siqlarini bekor qiladilar, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo to‘siqlarini buzmaydi. Bunday hududda qatnashuvchi mamlakatlar chegaralaridagi bojxona nazorati saqlab qolinishi kerak. Uning maqsadi – qo‘shni qatnashchi mamlakatlarning sustroq bojxona to‘sig‘i orqali uchinchi mamlakatlardan hududga kirib keluvchi import mollar uchun soliq undirish yoki uni ta’kiklashdan iborat (bu qoida uchinchi mamlakatlarga mol eksport qilishga ham taalluqlidir). Bunga 1960 yillarda tashkil topgan Yevropa erkin savdo uyushmasi (YEESU) misol bo‘la oladi. Unga 6 mamlakat birlashgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi davlatlararo erkin savdoni yuritishdan iboratdir. YEESU integratsiyaning quyi shakli bo‘lib hisoblanadi, chunki u muntazam kooperatsion aloqalarni bildirmaydi. MDH mamlakatlari o‘rtasidagi bitim erkin savdo zonasiga ikkinchi bir misoldir. O‘zbekiston erkin savdo o‘rtasida Ozarbayjon, Armaniston, Belarussiya, Qozog‘iston, Moldaviya, Rossiya va Ukraina bilan shartnomalar tuzgan. Bu shartnomalarga binoan tomonlar mazkur mamlakatlardan chiqariladigan va ular hududiga olib kiritiladigan tovarlardan bojxona to‘lovi olmaslik majburiyatini qabul qilgan. Shu asosida O‘zbekiston shartnoma tuzilgan davlatlardan chiqariladigan va respublika hududiga olib kiriladigan tovarlardan boj olmaydi.

2. Bojxonalar ittifoqi. Bunda qatnashchi mamlakatlar o‘zaro savdoda barcha cheklanishlarni bartaraf etibgina qolmay, tashqi savdo to‘siqlarining yagona tizimini ta’sis etadilar. Bu bilan ichki chegaralarda bojxona xizmatini saqlash zaruriyatini soqit qiladilar. Yevropa ittifoqi (YEI) bojxona ittifoqiga misoldir. Yevropa ittifoqiga 1958 yilda asos solingan bo‘lib, 1993 yilga kelib u G‘arbiy Yevropadagi 12 mamlakatni birlashtirdi. Bu uyushmaninig asosiy vazifasi ishtirokchi mamlakatlar doirasida resurslar, tovarlar va xizmatlar harakatini milliy chegaradan xoli ravishda erkin ko‘chib yurishini ta’minlash, umummiy bozorni vujudga keltirish, bozor vositasida tovarlarni davlatlararo taqsimlab, aholi talab-ehtiyojini qondirishdir. YEI tarzida G‘arbiy Yevropa bojxona ittifoqining tuzilishi savdo integratsiyasi natijalarini amaliy baholash imkonini tug‘diradi. Dunyodagi eng atoqli iqtisodchilarning fikricha, YEI doirasida bojxona ittifoqi natijasida savdoning o‘sishi ko‘proq bo‘ladi.

3. Umumiy bozor. Uning doirasidagi qatnashchilar savdodan tashqari ishlab chiqarish omillarining barchasini bemalol ko‘chirish (ishchi kuchi va sarmoya migratsiyasi) erkinligiga ham ega bo‘ldilar. Bunga yana o‘sha Yevropa iqtisodiy ittifoqi yoki Yevropa umumiy bozori misol bo‘la oladi. Uning hozirgi rasmiy nomi - Yevropa ittifoqidir.

4. To‘la iqtisodiy ittifoq. Bunda qatnashchi mamlakatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarini, shu jumladan, pul, soliq va ijtimoiy siyosatni, shuningdek, savdoga hamda ishchi kuchi va sarmoya oqimiga taalluqli siyosatni bir xillashtiradi.

Dunyoda davlatlarning necha o‘nlab iqtisodiy birlashmalari mavjud. ASEAN (Janubiy Sharqiy Osiyo) mamlakatlari o‘rtasida kooperatsiya aloqalari faol rivojlanmoqda. MDH mamlakatlari doirasidagi iqtisodiy hamkorlik ayniqsa, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida tuzilgan Markaziy Osiyo umumiy bozorini tashkil etish haqidagi bitimni ham tilga olib o‘tish kerak. Shimoliy Amerika iqtisodiy ittifoqi (NAFTA) to‘g‘risidagi bitimga katta umid bog‘lanmoqda. Jahonda rivojlanayotgan yosh mamlakatlarga xos, lekin barqaror bo‘lmagan boshqa integratsiya uyushmalari ham bor. Ularning ishtirokchilari o‘tmishdagi mustamlakalar bo‘lib, iqtisodiyoti bir yoqlama, ya’ni xom ashyo etkazishga asoslangan, shu sababli bir-birini to‘ldirib, yagona kompleksni tashkil eta olmaydi. Integratsion aloqalarning paydo bo‘lishi jahon xo‘jaligiga xos voqelik, ammo ular umumiy tus olish uchun hamma mamlakatlarda sharoit muhayyo bo‘lishi kerak.

§ 5.3. O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasiga qaratilgan davlat siyosatining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ham siyosiy, ham iqtisodiy sohada ko‘pgina yutuqlarga erishdi. Ularning eng muhimlaridan biri – bu respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etib, milliy manfaatlarga mos keladigan ko‘p tomonlama siyosat yuritishi va shu asosda jahon xo‘jaligida tutgan o‘z o‘rnini mustahkamlab borishdir. Endilikda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat maydonida borgan sari munosib o‘rinni egallab bormoqda. Qo‘yilgan ko‘pgina amaliy qadamlar O‘zbekistonning halqaro hamjamiyatda uzoq muddatli, istiqbolli yaratuvchilik faoliyatini olib borishga mo‘ljallangandir.

Boshqa davlatlar bilan bo‘ladigan iqtisodiy integratsiya davlatning har xil ehtiyojlarini qondirish va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jaddalashtirishga, millatlararo yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Xo‘jalik aloqalarining baynalminallashtirish jarayonlarining kuchayib borishida, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda mustahkamlashda tashqi iqtisodiy omil muhim rol o‘ynamoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish xususiyatlari va ularning ishlab chiqarishdagi samaradorligi milliy iqtisodiy barqarorlikni va uning rivojlanish harakatini aniqlaydi. Shunga ko‘ra jahon mamlakatlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirishga katta e’tibor bermoqdalar.

Ayniqsa, bu mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa qilish imkoniyatidan mahrum edi. Bundan tashqari xo‘jalik yuritishning yopiq, sotsialistik boshqaruv tizimi sharoitida, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi, valyuta-kredit munosobatlari kabi xalqaro ayriboshlash turlari deyarli rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning barchasi O‘zbekistonni jahon xo‘jaligi tizimiga teng xuquqli kirishiga va barcha mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorligini ta’minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy integratsiya bir tomondan, yangi texnologiyalardan xorijiy sarmoyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni tezda o‘stirishga ko‘maklashsa, boshqa tomondan, O‘zbekistonning boy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlarining jahon xo‘jaligiga ko‘shilishi, uning umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Integratsiya – O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borshini tezlashtiradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo Hamjamiyati (MDH), MDH va Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotlari (IHT) miqyosidagi integratsion aloqalarini kuchaytirishi, balki istiqbolda jahondagi boshqa bir qator integratsion uyushmalar bilan ham mustahkam munosabatlar o‘rnatishi lozim. Iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va

ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini davom ettirilishini talab etadi. Hozirda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshirilishi muhim vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu mablag‘lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarning o‘z mablag‘larini ko‘paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo‘ladi.

Mamlakatimizda infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi alohida o‘rin egallashi lozim. Mazkur jamg‘armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etish bo‘lib hisoblanadi. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida umumiy qiymati 1,28 mlrd. dollarga teng bo‘lgan Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug‘-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Ushbu moliyaviy institutning moliyaviy ko‘magida O‘zbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan ta’minlash tizimlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, qishloq xo‘jaligi erlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish bo‘yicha yangi majmua barpo etish, qishloq xo‘jaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi ko‘plab loyihalar amalga oshiriladi.

Aytish joizki, hozirga qadar chop etgan ko‘plab ilmiy asarlarda shunday holat ko‘rinmoqdaki, integratsion guruhda u yoki bu mamlakatlar ishtirok etishining ijobiy yoki salbiy tomonlarini baholash juda murakkabligicha qolmoqda. Iqtisodiy integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga kambag‘al, jahon YAIMda kam ulushga ega bo‘lgan davlatlar ko‘proq iqtisodiy samara olishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – uning qamrovi kengayib borayotganligidandir. Ushbu jarayonlar quyidagi muhim holat natijasi hisoblanadi: bir tomondan, amaliyotda tobora ko‘proq milliy bozorlarning yaratilishi, milliy iqtisodlarning tashqi aloqalarga urg‘u berishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro xo‘jalik

munosabatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish yo‘lida uchraydigan transport, kommunikatsiya sohalarida g‘ov – to‘siqlarni darhol bartaraf etuvchi texnologik innovatsiyalar bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda integratsiya jarayoni kuchayib bormoqda va bu sharoitda jahon iqtisodiga qo‘shiluvning tub bahosi yuz chandon ortib ketmoqda. 1980 – yillarning o‘rtalaridan boshlab jahon iqtisodi xalqaro savdo va xalqaro moliyaviy muomalalar haddan tashqari yuqori sur’atlar bilan o‘sayotgan davrga qadam qo‘ydi.

O‘tgan davr ichida xalqaro savdo oboroti hajmi bir yilda o‘rtacha 6,5 foizga, xalqaro xizmatlar savdosi 2,4 marta ko‘paydi, xalqaro savdoning yalpi mahsulotlaridagi salmog‘i oldingi 10 yillikdagiga nisbatan 2 marta ko‘proq oshdi. Bu milliy iqtisodlar kashfi tezlashganidan, ularning bir – biriga muhtojligi kuchayib borganligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun ham aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy integratsiya – xo‘jalik faoliyatining internatsionallashuvida oliy bosqich bo‘lib, o‘ziga xos huquqiy tizimlari bilan ajralib turuvchi, ham davlatlararo, ham ustmilliy negiziga tayangan bamaslahat siyosat asosida faoliyat ko‘rsatuvchi bir butun yagona xo‘jalik deb e’tirof etib kelinmoqda. Bunga esa Yevropa Ittifoqi misol bo‘ladi.

Milliy xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida o‘zaro chuqur va barqaror aloqalarni rivojlantirish, mehnat taqsimotini yo‘lga qo‘yish, ularning turli darajadagi, turli shakllardagi qayta ishlab chiqarish tizimlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatlarning xo‘jalik hamda siyosat sohalarida birlashuvi jarayonida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati shakllanadi.

Qo‘shni mamlakatlardagi ba’zi xo‘jalik sub’ektlari (korxonalar, firmalar)ning kapitali bir – biri bilan iqtisodiy bitimlar tuzish usullarini shakllantirish, chet elda o‘z bo‘linmalarini ochish yo‘li bilan o‘zaro mikro darajada hamkorlik qilishni ifodalaydi. Integratsiya davlatlarning iqtisodiy birlashmalarini shakllantirish hamda milliy siyosatlarini muvofiqlashtirish asosida davlatlararo (makro) darajada integratsion jarayonlar ro‘y beradi. Integratsiyaning eng muhim jihatlari:

1. iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo miqyosida yo‘lga qo‘yishda;

2. bir – biridan u yoki bu darajada mustaqil hisoblangan milliy xalq xo‘jalik majmualari o‘rniga umumiy mutanosiblikka, umumiy qayta ishlab chiqarish tizimiga ega bo‘lgan biron mintaqaviy integratsional majmuani asta – sekin shakllantirishda;

3. davlat doirasida mahsulotlar, ishchi kuchi, moliyaviy resurslarning davlatlararo harakati uchun hududiy sharoitlarni

kengaytirish hamda bunday harakatga monelik qiluvchi ko‘pdan – ko‘p ma’muriy va iqtisodiy g‘ovlarni bartaraf etishda;

4. integratsional birlashmalarda qatnashuvchi davlatlarning ichki iqtisodiy shart – sharoitlarini bir – biriga yaqinlashtirish, ularning iqtisodiy rivojlanish darajalarini tenglashtirishda namoyon bo‘ladi.

Odatda, u yoki bu jo‘g‘rofiy mintaqa, unda joylashgan qo‘shni mamlakatlar shunday integratsion birlashmalarning asosiy o‘zagini tashkil etadi. Hozirda qariyib 70 dan ortiq davlatlar tashkilotlari va 65 mingga yaqin millatlararo korporatsiyalar mavjud.

§ 5.4. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasida xorijiy investitsiyalar ishtirokini oshirishda xalqaro moliyaviy institutlarning tutgan o‘rni va ularning hamkorlik aloqalari

Uzluksiz makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘smishing yuqori sur’atlarini ta’minlash, tuzilmaviy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirib borish, iqtisodiyotning tayanch va ijtimoiy infratuzilmalarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirib borishni ta’minlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik ko‘lamining o‘sib borishiga zamin yaratmoqda.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 1945 yilda tashkil etilgan va o‘sha 186 ta mamlakat a’zo. XVFning maqsadi a’zomamlakatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to‘lov balansini tartibga solish va valyuta kursining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash uchun qarz berish hisoblanadi. Buning uchun fond to‘lov balansida qiyinchiliklar sezayotgan o‘z a’zolarini moliyalashtiradi, ularning xo‘jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko‘rsatadi. Kreditlarni berish va qaytarish to‘lov balansi muammosining xususiyatlari hamda holatlariga bog‘liq tarzda farqlanadi (5.1 – jadvalga qaralsin).

Aytish joizki, hozirda XVF kreditlash siyosatining asosini “Stend-bay” kreditlar tashkil etadi. Bunday kredit to‘g‘risidagi shartnomaga asosan a’zo mamlakatlar to‘lov balansida qisqa muddatli muammolarni bartaraf etish uchun odatda 12 – 18 oyga belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega bo‘ladilar.

5.1-jadval

XVF kreditlash shartlari

Kreditlash mexanizmi	To‘lov shartlari	Muddati (yil hisobida)		
		Eng uzoq muddat	Kutilayotgan muddat	Davriylik
«Stend-bay» krediti	Asosiy stavka + marja	3,25-5	2,25-4	Har kvartalda
Kengaytirilgan kreditlash	Asosiy stavka + marja	4,5-0	4,5-7	Har yarim yilda
Qoplovchi moliyalash	Asosiy stavka	3,25-5	2,25-4	Har kvartalda
Favqulodda yordam	Asosiy stavka	3,25-5	—	—
Qo‘shimcha zaxiralarni qoplash	Asosiy stavka + marja	2,5-3	2-2,5	Har yarim yilda
Kambag‘allikka qarshi va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash	Yillik 0,5%	5,5-10	-	-

Kengaytirilgan kreditlash mexanizmi**.** XVF kengaytirilgan kreditlash mexanizmi bo‘yicha a’zo mamlakatlar belgilangan miqdorda kredit olish huquqiga ega bo‘lgan holda bunday kredit odatda, uch-to‘rt yilga beriladi. Ushbu mexanizm asosida ajratilgan mablag‘lar a’zo mamlakatlarda to‘lov balansi holatiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tuzilmaviy xususiyatga ega muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Qoplovchi moliyalash, u kambag‘allikka qarshi va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida e’tirof etiladi, ya’ni:

- qo‘shimcha zahiralarni moliyalash mexanizmini.
- qoplovchi moliyalashni. Qoplovchi moliyalash 1963 yilda joriy etilgan bo‘lib, jahon bozorlarida tovar xom-ashyo narxining o‘zgarishi natijasida eksport tushumi kamomadi hosil bo‘lgan yoki oziq-ovqat importi qiymatining o‘sishiga duch kelgan mamlakatlarga taqdim etiladi.

Favqulodda yordam**.** Ushbu tartib favquloddagi holatlar tufayli to‘lov balansida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda a’zo mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1962 yilda joriy etilgan. 1995 yilda a’zo mamlakatlarda harbiy mojarolar tufayli ularning institutsional va ma’muriy salohiyatiga putur etkazilgani sababli mazkur tartibni qo‘llash miqyosi yanada kengaytirilmoqda.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) – Umumjahon banki guruhining asosiy tashkiloti bo‘lib, o‘rta va kam daromadli, to‘lov qobiliyatiga ega mamlakatlar hukumatlariga qarz beradi. XTTB 1944 yilda tashkil etilgan va hozirda a’zo mamlakatlar soni 186tani tashkil etadi. XTTBning maqsadi – a’zo-mamlakatlar iqtisodiyotini qayta tiklashga va rivojlanishiga kapital qo‘yilmalar berish, investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish orqali qo‘llab-quvvatlash, to‘lov balansi muvozanatini ta’minlashga qaratilgan qarz berishdan iborat. XTTB, odatda, 5 yillik imtiyozli davr bilan 20 yilgacha muddatda uzoq muddatli kreditlarni beradi. Bankning resursi ikki manbadan shakllanadi. Shu jumladan, asosiy qismi moliya bozorlarida turli xil qarz majburiyatlarini joylashtirishdan shakllanadi. XTTB a’zo mamlakatlarga hukumat kafolati asosida qarz beradi. Qarzni odatda 10-15 yil muddatga 5 yil imtiyozli davr bilan ajratiladi. XTTBning foiz stavkasi har 6 oyda o‘zgaradi va o‘rtacha 7 foiz atrofida belgilanadi. XTTB ustaviga muvofiq aholi jon boshiga 5055 dollargacha YAIM to‘g‘ri keladigan mamlakatlargina bankdan qarz olish huquqiga ega. Yirik taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, bankning 5 ta eng yirik aksionerlari qarz olishi mumkin emas. Jahon banki qariyb 70 yillik faoliyati mobaynida 140 ta mamlakatda qiymati 300 mlrd. dollarga teng 6 mingdan ortiq loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etgan. Ushbu bank O‘zbekistonda ham yirik loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) – 1960 yilda tashkil etilgan bo‘lib, unga a’zo mamlakatlar soni 169 tani tashkil etadi. XTA uzoq muddatga foizsiz, kredit ko‘rinishida qarz va deyarli bozor shartlari bo‘yicha qarz olish imkoniga ega bo‘lmagan dunyoning eng past daromadli 82ta mamlakatlariga grantlar beradi. XTA kredit operatsiyalarini donor mamlakatiga badallari, XTTBning sof foydasini o‘tkazish, XMKning grantlari va uyushma tomonidan ajratgan kreditlaridan keladigan tushumlar hisobiga moliyalashtiriladi. XTAning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berishdan iborat bo‘lib, zahiralashtirilgan kredit mablag‘larining jami hajmi 207 mlrd. Dollarga etgan. XTA kreditlari 10 yillik imtiyozli davrni kamrab olgan holda 35 — 40 yilga beriladi. Kreditlar hajmi SDRda aks ettiriladi, lekin moliyalashtirish loyiha harajatlari amalga oshiriladigan valyutada beriladi. Olingan qarz bo‘yicha foiz hisoblanmaydi, ammo kredit bo‘yicha xizmat ko‘rsatishdan kreditning 0,75 foiz miqdorida komissiya haqi olinadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) – 1956 yilda rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy sektorini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan. A’zo mamlakatlar soni 182 tani tashkil etadi. XMKning asosiy vazifasi bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy investor va moliya institutlariga kapitalni samarali joylashtirishga ko‘maklashishda vositachilik qilish hisoblanadi. XMK bozor holatiga yaqin shartlar bo‘yicha 12 yil imtiyozli davr bilan 3 yildan 15 yilgacha qarz beradi. Qariyb 80 foiz passivlari moliya bozorlaridan jalb etiladi, qolgan 20 foizi esa XTTBdan qarzga olinadi. Odatda, XMK boshqa investorlar ishtirokidagi loyihalarni moliyalashtiradi, uning ulushi 25-35 foizni tashkil qiladi. Birgalikdagi moliyalashtirish XMK faoliyatining o‘ziga xos jihati bo‘lib, qarz berishdan tashqari, xususiy korxonalar kapitaliga ham pul qo‘yishni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlyak (MIGA) – 1988 yilda a’zo mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishda ko‘mak berish maqsadida tashkil etilgan. Hozirda agentlikka 174 ta mamlakat a’zo bo‘lib, jami ajratilgan kafolatlari hajmi 20,9 mlrd. Dollarga teng. Agentlik tomonidan 2009 moliya yilida 26 ta loyiha bo‘yicha 1.4 mlrd. Dollar miqdorida kafolatlar berilgan. Ushbu agentlik rivojlanayotgan mamlakatlarga yo‘naltirilgan TTXIni rag‘batlantirish maqsadida siyosiy risklardan sug‘urtalash yoki kafolatlash xizmatlarini taklif etadi.

Investitsion nizolarni tartibga solishning xalqaro markazi (IKSID) – 1966 yilda tashkil etilgan bo‘lib, maqsadi xorijiy investorlar va investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakatlar o‘rtasida yuzaga kelgan xalqaro investitsion nizolarni arbitraj ko‘rib chiqish va tartibga solish mexanizmini ta’minlab berishdan iboratdir. Bundan tashqari ushbu markaz xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunchilik aktlari va xalqaro nizolarni arbitraj tartibga solish sohasida tadqiqot ishlarini olib boradi. Hozirgi vaqtda markazga 143 ta mamlakat.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankn YETTB – 1991 yilda tashkil topgan va unga 56 ta mamlakat a’zo. YETTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘yicha islohotlarni o‘tkazishda ko‘maklashadi. Bank uchun xususiy sektor rivojlanishi, xususiylashtirish jarayoni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, moliya muassasalari hamda sanoat sektorini tashkil etish va mustahkamlash, kichik biznesni rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor loyiha va dasturlar bo‘lib hisoblanadi.

Bank xususiy va xususiylashtirilgan korxonalar taklifi homiylar salohiyati yuqori bo‘lishi va biznes rejalarining ishonchli bo‘lishini talab qiladi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – 1966 yilda tashkil topgan va unga 57 ta mamlakat (41 ta hududiy va 16 ta hududdan tashqari mamlakatlar) a’zo. OTBga a’zolik BMTning Osiyo va Tinch okeani bo‘yicha iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘iicha komissiyasidagi barcha mamlakatlar va Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlari (agar ular BMT yoki uning ixtisoslashgan agentliklariga a’zo bo‘lsalar) uchun ochiq. A’zolikda mavjud bunday keng imkoniyatlar OTBda Osiyo mintaqasidan tashqari mamlakatlar ulushining ortishiga olib keldi, ularga bank aksiyalarining qariyb 37 foizi va ovozlarining 35 foizi to‘g‘ri keladi. OTBning maqsadi Osiyo qitasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanishda ko‘maklashishi, hududiy hamkorlikni rag‘batlantirish, a’zo-mamlakatlarga texnik yordam ko‘rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat. Xorijiy investitsiyalarni xalqaro miqyosda tartibga solishda mintaqaviy moliya institutlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari OTB va O‘zbekiston o‘rtasidagi istiqbolli hamkorlik temir va avtomil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, qishloqlarda suv ta’minoti tizimini takomillashtirish ishlarini faollashtirishni nazarda tutadi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) – 1974 yilda tashkil topgan. Unga islom diniga e’tiqod qiluvchi 35 ta mamlakat, ya’ni Islom anjumanining deyarli barcha a’zolari kiradi. Nizom kapitalining miqdori OTB dan 5 marta kam. ITBning maqsadi a’zo mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo, sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

O‘zbekiston ITBga 2003 yil 3 sentyabrda a’zo bo‘lgan bo‘lib, ushbu bank tomonidan faqat 2003 – 2009 yillar mobaynida umumiy qiymati 150 mln. Dollarga teng moliyaviy xizmatlar ko‘rsatilgan. Jahon iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini tartibga solish va rag‘batlantirish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini tashkil etish, yuritish, tartibga solish hamda qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilgan, ushbu tizimning amal qilishini ta’minlash uchun zarur qonunchilik hujjatlari qabul qilingan va ular amaliyotda investitsiya faoliyatini tartibga solishda keng qo‘llanilmoqda. Islom bankida ustamalar o‘z o‘zidan oshmaydi va penya tushunchasi umuman yo‘q. Jarimalar bor, lekin ular bir marotaba qo‘yiladi, qo‘yilish sababi esa

mijozni tarbiyalash va kelajakda shunga o‘xshash e’tiborsizliklarga yo‘l qo‘ymasligini ta’minlash. Islomiy moliyalashda kreditlar eng uzog‘i 5 yil muddatga beriladi. Agarda mijoz biror bir falokatga uchrab, to‘lash qobiliyatini yo‘qotsa, bank muddatni 6-10 yilga cho‘zib berishi mumkin ekan. Bunda summada hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi. Lekin mijoz asbob-uskunani olib qo‘yib, ularni yaxshi ishlatmay, beparvo yurgani kuzatilsa, bank sovuqqonlik uchun jarima soladi. Undirilgan bu mablag‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xayriya maqsadlariga sarflaydi. Vaholanki, islom moliyalashida jarimaga foyda sifatida qaralmaydi va u harom hisoblanadi. Islom taraqqiyot banki(ITB) 1975 yilda IHT mamlakatlari moliya vazirlari yig‘ilishining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan. ITBning shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. ITBning Hududiy ofislari 1994 yili Rabot (Marokash)da, shu yili Kuala-Lumpur (Malayziya)da, 1997 yili Olma-Ota (Qozog‘iston)da va 2008 yili Dakar (Senegal)da ochildi. Bank shuningdek, 12 ta a’zo mamlakatda mahalliy vakolatxonalarga ega: bular Afg‘oniston, Ozarbayjon, Bangladesh, Gvineya, Indoneziya, Eron, Nigeriya, Pokiston, Serra-Leona, Sudan, O‘zbekiston va Yamandir.

ITBning asosiy vazifasi a’zo mamlakatlarda shariatga muvofiq ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bank tashkil etilayotgan vaqtda uning nizom jamg‘armasi 6 mlrd.islomiy dinorni, a’zolari soni 22 tani tashkil etgan. Islomiy dinor – ITB foydalanadigan hisob birligi; bir islomiy dinor HVJning bir qarz olish maxsus huquqiga teng. Hozirgi vaqtda ITBga ishtirokchi a’zolar 56 ta davlat hisoblanadi. 2013 yili ITBning e’lon qilingan hissadorlik kapitali – 30 mlrd.islomiy dinorni, shu jumladan, obuna hissadorlik kapitali – 18 mlrd.islomiy dinorni tashkil etdi. Bankning asosiy hissadorlari Saudiya Arabistoni (23,6 foiz aksiya), Liviya (9,5 foiz), Eron (8,3 foiz), Nigeriya (7,7 foiz), BAA (7,5 foiz), Qatar (7,2 foiz), Misr (7,1 foiz), Turkiya (6,5 foiz) va Quvayt (5,5 foiz) hisoblanadilar.

2013 yilda ITB boshqaruvchilar kengashi umumiy hissadorlik kapitalini 30 mlrd.islomiy dinordan 100 mlrd.islomiy dinor (150 mlrd.dollar)ga ko‘tarish haqida qaror qabul qildi. Bankning obuna kapitali ham 18 mlrd.islomiy dinordan 50 mlrd. Islomiy dinorga oshirildi. Ushbu qaror a’zo-mamlakatlarning moliyalashtirish mablag‘lariga bo‘lgan katta ehtiyoji bilan bog‘liq. So‘nggi 12 yil davomida yetakchi reyting agentliklari (Moody”s, Standard&Poor”s, Fitch) tomonidan ITBga uzoq muddatli kredit reytingi – “AAA” va

qisqa muddatli oliy barqaror kredit reytingi – “A+” berib kelinmoqda. 2013 yilning dekabrida ushbu reytinglar yana tasdiqlandi.

ITB tarkibiga quyidagi tashkilotlar kiradi:

- Islom taraqqiyoti banki – ITB;
- Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islomiy korporatsiya – IKRCHS;
- Eksportni kreditlash va investitsiyalarni sug‘urtalash bo‘yicha islomiy korporatsiya – IKSIEK;
- Halqaro islomiy savdo-moliya korporatsiyasi – ItfK;
- Islomiy tadqiqot va o‘quv muassasasi – IIIO.

Islom taraqqiyoti banki ITB guruhi keng miqyosdagi faoliyatga jalb etilgan:

- a’zo mamlakatlarda qashshoqlik darajasini pasaytirishga ko‘maklashish;
- a’zo mamlakatlar savdo-iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish;
- loyihaviy moliyalashtirish;
- kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash (shu jumladan mikromoliyalash xizmatlari);
- a’zo mamlakatlar mablag‘larini safarbar qilish;
- eksportni kreditlari va investitsiyalarni sug‘urtalash hamda qayta sug‘urtalash;
- a’zo mamlakatlar mehnatga yaroqli aholisi uchun ta’lim dasturlari va tadqiqotlarni tashkil etish;
- a’zo mamlakatlarga favqulodda holatlarda yordam ko‘rsatish;
- a’zo mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha boshqa faoliyat shakllari.

ITB faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. ITB a’zo mamlakatlarga, davlat va xususiy sektorga qarashli yo‘llar, kanallar, to‘g‘onlar, maktablar, kasalxonalar, uy-joy, qishloq tumanlarini rivojlantirish va boshqalar kabi qishloq xo‘jaligi va infratizilma loyihalarini moliyalashtirish uchun qarzlar beradi. Ushbu loyihalar ustuvor hisoblanadi va a’zo mamlakatlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tashkil topgan vaqtidan boshlab ITB moliyalashtirgan mablag‘lar umumiy hajmi 2013 yilning oxiri holatiga 97,8 mlrd. dollarni tashkil etdi, undan 46,9 mlrd. dollari (48 foiz) loyihaviy moliyalashtirishga, 49,8 mlrd. dollari savdoni moliyalashtirishga va 0,7 mlrd. dollari (1 foiz) maxsus yordam uchun yo‘naltirildi.

ITB a’zo mamlakatlarda taraqqiyot loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun turli islomiy moliyaviy vositalardan foydalanadi. Ushbu vositalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. ***Imtiyozli qarzlar*****.** Kreditlar asosan uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishni ta’minlash maqsadida, qishloq xo‘jaligi va tayanch infratuzilmalarni rivojlantirish uchun davlat kafolotiga ega hukumatlar yoki davlat muassasalariga beriladi. Bunday qarz berish shariatga ko‘ra foizsiz hisoblanadi. Bank o‘zining ma’muriy harajatlarini xizmat ko‘rsatish uchun olingan to‘lov hisobiga qoplaydi.

2. ***Texnik ko‘mak*****.** Ushbu yordamning maqsadi aniq loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish, siyosatni shakllantirish, xodimlar tayyorlash va inson resurslarini rivojlantirish yoki muassasaviy ko‘makni ta’minlash maqsadida texnik bilimlar olishni moliyalashtirishdan iboratdir.

3. ***Lizing*****.** ITB sanoatni moliyalashtirish holatlarida ishlab chiqarish liniyalari uchun zarur bo‘lgan mashina va asbob-uskunalar, elektr energiyasi ishlab chiqarish, kemasozlik va boshqa shu kabi alohida va bir toifadagi tarkibiy qismlarni o‘zida ifodalaydigan aktivlarni sotib oladi va keyin ma’lum bir vaqt mobaynida uni oluvchiga lizingga beradi.

4. ***Bo‘lib to‘lashga sotish*****.** ITB ma’lum bir loyiha uchun zarur mashina/ uskunalarni sotib oladi, keyinchalik ularni benefitsiar (mijoz)ga bank va benefitsiar o‘rtasida o‘zaro kelishilgan ustamani qo‘shgan holda, qayta sotadi.

5. ***Istisno‘*****.** Ushbu usul aksar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qo‘llanadi.

6. ***Moliyalashtirish liniyalari*****.** ITB kichik va o‘rta, ayniqsa sanoat sektoridagi korxonalarning o‘sishiga ko‘maklashuvchi milliy taraqqiyot moliya muassasalari (NDFI) yoki islomiy banklar (IB) uchun moliyalashtirish liniyalari taqdim etadi.

7. ***Kapitalda ishtirok etish(equity*****).** ITB iqtisodiy va moliyaviy jihatdan yashovchan hisoblangan qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarishi loyihalarining hissadorlik kapitalida ishtirok etadi.

8. ***Murobaha*****.** Ushbu usul tashqi savdoni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Bank so‘ralayotgan tovarni sotib oladi va uni benefitsiarga qayta sotadi. Importni moliyalashtirish holatida moliyalashtirish davri 30 oygachani tashkil etadi: eksportni moliyalashtirish holatida esa ushbu davr 120 oygacha uzaytirilishi mumkin.

9. ***Foydani taqsimlash (Profit Sharing*****).** Foydani taqsimlash sherikchilik (mushoraka yoki muzoraba) shakllaridan biri hisoblanadi va loyihani moliyalashtirish uchun ITB hamda hamkor tomonning mablag‘larini birlashtirishni taqozo etadi; har bir sherik korxonadan kelib tushadigan sof foydadan foiz oladi ITB chet ellik taraqqiyot moliyaviy muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. 2011 yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Moliyaviy nazorat yuqori organlari halqaro tashkiloti, Butunjahon banki bilan hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv imzolandi.

Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasidagi ITB loyihalarini moliyalashtirish ITBga a’zo mamlakatlarning har biri erishishga intilayotgan Ming yillik rivojlanish maqsadlariga (Millennium Development Goals) muvofiq amalga oshirilmoqda. ITB o‘z faoliyatida davlat-xususiy sektor hamkorligi mexanizmini faol ishlatib kelmoqda, bu esa ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni qo‘llash uchun qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb qilish imkonini beradi.Misol tariqasida, Malayziyaning Selangor shtatida tezkor avtomagistral qurish bo‘yicha Malayziya taraqqiyot banki bilan davlat-xususiy sektor hamkorligi mexanizmi tamoyili bo‘yicha ITB tomonidan amalga oshirilgan loyihani keltirish mumkin.

ITB faoliyatining strategik muhim yo‘nalishi musulmon mamlakatlar aholisini malakaviy tayyorlash va o‘qimishliligi darajasini oshirish hisoblanadi. 2012 yilgi faoliyat yakunlari bo‘yicha ITB portfelidagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda eng katta ulushni ta’lim sohasidagi loyihalar egalladilar. Yuqoridagi tashabbuslar ishsizlik darajasini pasaytirishga va ITB a’zo mamlakatlar mehnatga qobiliyatli aholisining faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan. ITB a’zo mamlakatlarda qashshoqlikni bartaraf etishga alohida ahamiyat qaratdi. Ushbu muammoni yechish maqsadida mikromoliyalashtirishdan foydalanilmoqda. ITB shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasidagi loyihalarga ham yordam ko‘rsatmoqda, bunda atrof-muhit himoyasi tamoyili hisobga olinadi. Jahondagi eng yaxshi taraqqiyot banklari amaliyotiga muvofiq, ITB investitsiyalarining sezilarli qismi infratuzilmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

2012 yilda ITB mablag‘larini iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha taqsimlanishi energetik sektor ulushining (28,1 foiz) yuqoriligi bilan ta’riflanadi, undan keyin suv bilan ta’minlash va shahar xizmati (18,7 foiz), qishloq xo‘jaligi (16,9 foiz), sog‘liqni saqlash (10,9 foiz),

transport (10,1 foiz), ta’lim (6,5 foiz), moliyalar (5,8 foiz), sanoat va qazib olish (3 foiz) hamda boshqalar (0,02 foiz) turadi.

ITBga nafaqat moliyaviy vazifani amalga oshirish, balki Mavritaniya, Maldiv, Qirg‘iziston, Jibuti va boshqa kam taraqqiy etgan a’zo-mamlakatlarga texnik ko‘mak berish yuklatilgan. Bundan tashqari ITB islomiy qimmatli qog‘ozlar – sukukni joylashtirish tashkilotchisi hisoblanadi. ITB shariat o‘rnatgan cheklovlar doirasida moliyaviy mablag‘larni jamlash uchun depozitlarni jalb qilish huquqiga ega. Kredit, bozor va amaliyot xatarlarini o‘z vaqtida pasaytirish va baholash maqsadida ITB o‘z faoliyatida xatarlarni boshqarish maxsus vositalaridan foydalanadi. A’zo mamlakatlar va boshqa qarzdorlarning kredit qobiliyati, moliyaviy barqarorligini doimiy monitoring qilish ITB kredit xatarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Likvidlilik xatari va mustaqil xatarlarga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun ITBda xatar – menejmenti faoliyatining samaradorligi ustidan ichki nazorat tizimi, yuqorida qayd etilgan xatarlar ahamiyati bo‘yicha limit va cheklovlar tizimi joriy etilgan.

ITB boshqaruv organlari va tashkiliy tuzilishi. ITB a’zo mamlakatlari o‘zlarining vakillari orqali bankni boshqarishda, rahbarlik organlari – Boshqaruvchilar kengashi va Ijrochi direktorlar kengashida ishtirok etadilar. ITBni boshqaruv yuqori maslahat tashkiloti Boshqaruvchilar kengashi hisoblanadi. Boshqaruvchilar kengashining yillik yig‘ilishlari vaqtida yillik hisobotni baholash, foydani taqsimlash, grantlar berish, Direktorlar kengashi a’zolarini tayinlash va boshqa masalalar muhokama qilinadi. 2003 yilning sentyabrida ITB Boshqaruvchilarining yillik yig‘ilishi Olma-Ota shahrida bo‘lib o‘tdi. Ijrochi direktorlar kengashi 18 ta a’zodan iborat. Ijrochi direktorlar kengashi tarkibining yarmi ITB kapitalida kattaroq ulushga ega a’zo-mamlakatlarning doimiy vakillaridan shakllantiriladi, qolgan yarmi esa Boshqaruvchilar kengashi tomonidan tayinlanadi. Qayd etish lozimki, 2011 yilda Ijrochi direktorlar kengashiga birinchi marta Qozog‘iston vakili saylandi. Direktorlar kengashi ishiga doimiy qo‘mitalar yordam beradi: Ma’muriy masalalar bo‘yicha qo‘mita, Audit bo‘yicha qo‘mita, Moliyaviy masalalar bo‘yicha qo‘mita, Amaliy faoliyat bo‘yicha qo‘mita. ITBning tashkiliy tuzilishi 24 ta mustaqil faoliyatga ega tarkibiy bo‘linmalardan iborat. Xalqaro kapitallar harakatini tartibga solishda ***milliy va xalqaro usullardan*** keng foydalanib kelinmoqda.

Xalqaro kapitallar harakati jarayonining muhim xususiyatlaridan biri mazkur jarayonga davlatning faol aralashuvidir. Bunda davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ***tartibga solish;***
- ***nazorat qilish;***
- ***rag‘batlantirish***.

Davlatning boshqaruv organlariga xos bo‘lgan bunday xususiyatlar davlatning ushbu jarayonda funksiyalarini namoyon bo‘lishi deb ham faraz qilinadi, ammo davlatning ushbu jarayonlarga aralashuvi uning eng muhim funksiyalari deb bo‘lmaydi. Davlatning xalqaro kapital harakatini ta’minlashda qonunlarda belgilab qo‘yilgan chegaralarda ishtirok etadi xolos. Shunday ekan yuqorida nomlari tilga olingan jarayonlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishga harakat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Iqtisodiy o‘sish, kredit, xalqaro valyuta fondi, integratsiya, investitsiya loyihasi, xalqaro iqtisodiy integratsiya, integratsion uyushma, xalqaro iqtisodiy integratsiya, diversifikatsiya, modernizatsiya.

O‘zini – o‘zi tekshirirsh uchun savollar

1.Xalqaro valyuta fondini iqtisodiyotni xalqaro integratsiyasidagi roli.

2. Milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashni ahamiyati

3. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasida xorijiy investitsiyalarni o‘rni

4. Milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasiga qaratilgan davlat siyosatining asosiy maqsadi.

5. Iqtisodiyotni xalqaro integratsiyasini faollashtirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ishtiroki.

6. Chet el kapitali ishtirokidagi tashkil yetiladigan korxonalar turlari.

7. Xalqaro kapitallar harakatini tartibga solishning usullari.

VI BOB. IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O‘RNI

§ 6.1. Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati hamda ular rivojlanishining bosqichlari va asoslari.
§ 6.2. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari va ularga jalb etilgan investitsiyalarga nisbatan turli imtiyoz va rag‘batlarning qo‘llanilishi.
§ 6.3. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari.
§ 6.4. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarga jalb etiluvchi investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari va samaralari.

§ 6.1. Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati hamda ular rivojlanishining bosqichlari va asoslari

Dunyodagi erkin iqtisodiy zonalar rejimi Evropada 12-asrda, Boltiqbo‘yi va Shimoliy dengizlardagi savdoni boshqaruvchi taniqli Gansatik Ligasi paydo bo‘lganida sinovdan o‘tgan. Uyushma a'zolari turli xil imtiyoz va imtiyozlarga ega bo‘lib, bu uning muvaffaqiyati va uzoq umrini ta'minladi. 15-17 asrlarda bunday hududlar bilan tajribalar Italiya, Rossiya va Germaniyada o‘tkazildi. 19-asrning oxiriga kelib chinakam maxsus zonaning paydo bo‘lishi uchun qulay sharoitlar vujudga keldi. Germaniyaning Gamburg va Bremen shaharlarida mamlakatning birinchi erkin iqtisodiy zonasi paydo bo‘ldi. Gamburg o‘zining maqbul joylashuvi va rivojlangan infratuzilmasi tufayli hozirgacha o‘z imtiyozlarini saqlab kelmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalarz.da alohida xalqaro huquqiy status joriy etiladi. Lekin u qayerda joylashishidan qat’i nazar, shu mamlakatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar (yer ajratish, firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish, boj to‘lovlari, soliq to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar, qaysi valyuta yoki valyutalar to‘lov vositasini o‘tashi, hududni boshqarish tartibi va boshqalar) qabul qilingan qoidalar asosida tezkorlik bilan bajariladi. Erkin iqtisodiy zonalarz.ni tashkil etishdan maqsad ko‘plab yangi texnologiya, investitsiyalarni jalb qilib, rivojlangan iqtisodiy makon yaratish va shu yo‘l bilan mamlakat iqtisodiyotini tezkorlik bilan rivojlantirishdir.

20-asrda erkin iqtisodiy zonalarning paydo bo‘lishi odatiy holga aylandi, 70-yillarda xalqaro huquqiy mexanizm shakllandi, bu ko‘plab

davlatlarga bunday hududlarni ochishga imkon berdi. Erkin iqtisodiy zonalarni hozirgi zamon iqtisodiy integratsiya jarayonlarining mahsuli, deb qarash unchalik to‘g‘ri emas. Uning tarixi juda ko‘hna. Erkin iqtisodiy zonalarz. tarixi mil. boshlariga borib taqaladi. qadimiy finikiyaliklar, yunonlar va rimliklar savdo ishlarini rivojlantirish maqsadida chet el savdo kemalarining o‘z portlariga erkin kiribchiqishini va ularning xavfsizligini ta’minlaganlar. 16 va 17-asrlarda Yevropaning qator shaharlari o‘zlarini «erkin savdo shaharlari» deb e’lon qilganlar. Buyuk Amir Temur davrida Samarqand ana shunday erkin savdo markazi bo‘lgan, mamlakatning barcha karvon yo‘llari hokimiyat himoyasiga olingan.

Erkin iqtisodiy zonalar xo‘jalik yuritishning yangi shakllaridan biri bo‘lib, xalqaro maydonda 1950 – yillarning oxiri va 60 – yillarning boshlarida paydo bo‘lgan. 1970 – yillarning o‘rtalariga kelib esa jahon maydonida keng ommalasha boshladi[43]. Bunday hududlar dastlab sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlar hisoblangan AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada keyinchalik esa Polsha, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda tashkil etildi. Eng muhimi, dastlabki yillarda erkin iqtisodiy zonalar daryo va dengiz portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir va avtomobil yo‘llariga yaqin joylarda, sayyohlik va alohida olingan sanoat markazlarida tashkil etilgan. Chunki tovar moddiy boyliklarni chet el bozorlariga olib chiqishda va chet el investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb etishda erkin iqtisodiy hududlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning farovonligi, xayotning ko‘rkamlashib borishi, ko‘p jihatdan shu mamlakat erkin iqtisodiy hududlarining tashkil etilishi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir.

Qaysi mamlakatda chet el investorlari va tadbirkorlar faoliyati uchun qaysi mamlakatlarda keng imtiyozlar yaratilsa, ularning o‘zlarini tiklab olishlari uchun amaliy yordam berilsa va imkoniyatlar yaratilsa investitsiya miqdori ham, tadbirkorlikning mehnat qobilyati ham talab darajasida yuqori bo‘ladi. Erkin iqtisodiy zona xaqida tushuncha birinchi marta 1973 yil 18 maydagi Kioto konvesiyasida berilgan. Unga ko‘ra erkin iqtisodiy zona deb – mamlakatning bir qismini ya’ni tovarlar importi va eksportini, bojxona va soliq cheklovlarisiz olib kirish mumkin bo‘lgan zonaga aytiladi.

Hozirgi davrda sanoati rivojlangan mamlakatlarda turli maqsadlarni ko‘zlab erkin iqtisodiy zonalarni vujudga keltirmoqdalar.

[43] http://biznes-daily.uz

Erkin iqtisodiy zonalar borasida iqtisodiy jihatdan turli tuman ta’riflar mavjud. BMTning shu muammoga bag‘ishlangan ishida 20 dan ortiq ta’rif keltirilgan. Birinchi marta erkin iqtisodiy zonalarning yoki “franko zonasi” ning 1973 yilda Kioto konvensiyasida berilgan. Erkin iqtisodiy zonalarni – davlat hududining muayyan natijalarga erishmoq maqsadida milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun iqtisodiy faoliyatning preferensial shartlari, boshqaruvning alohida rejimi va boshqa tashkiliy ma’muriy tadbirlarni joriy etiladigan qismi sifatida ta’riflash mumkin. Hozir jahonda 4 mingdan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjuddir. Ular turli vazifalarni bajarishi, o‘z oldiga turli maqsadlarni umumlashtirgan. Masalan:

- maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy muolajalarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish;
- tayyor mahsulot eksportini kengaytirish uchun mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish;
- mamlakat va mintaqa byudjetiga valyuta tushumini o‘stirish;
- yangi ish joylarini yaratish;
- tashkil qilish, boshqarish va moliyalash sohasida jahon tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ishchi kuchi malakasini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 5 – sessiyasida qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonunning 1 – moddasida esa quydagicha tarif berilgan: - “***Erkin iqtisodiy zona*** deb – mintaqani jadal ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida xuquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududga aytiladi”. Hozirda erkin iqtisodiy zonalarning 30 ga yaqin turi mavjud bo‘lib, ulardan keng tarqalganlari qatoriga erkin savdo hududlar, erkin bojxona, erkin ishlab chiqarish, erkin ilmiy – texnik hududlarni kiritish mumkin. Bularning har biri erkin iqtisodiy zona toifasiga kirgani bilan o‘z funksiyasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar – konsignatsiya (ya’ni tovarlarni sotish uchun berish) omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni qadoqlash, joylash, saralash, saqlash hududlarini o‘z ichiga oladi.

Erkin bojxona hududlari – chet elda ishlab chiqarilgan va mamlakatga kirib kelayotgan mahsulotlarni imtiyozli to‘lov asosida

saqlash, markalar va sortlarga ajratish, ishlov berish, agar kerak bo‘lib qolsa komplektlashtirish va sotish kabi vazifalarni bajaradi. Bunday erkin bojxona hududlari daryo va dengiz portlarida, chegaradosh temir yo‘l tarmoqlarida va aeraportlarda chet el valyutasida daromad olish maqsadida tashkil etiladi.

Erkin savdo hududlari AQShda ko‘plab tashkil etilgan bo‘lib, ular tashqi savdo zonalari (Foreing Trade Zones) deb nomlanadi. Bugungi kunda AQShda 200 ga yaqin zona va subzonalar faoliyat qo‘rsatmoqda. Bu hududlarning faoliyatini nazorat qilish tashqi savdo zonalari Departamentiga yuklatilgan bo‘lib, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Departament tomonidan zona ochilishi uchun ruxsat berilgandan so‘ng uning faoliyat ko‘rsatguniga qadar 6 oydan – 3 yilgacha vaqt kerak bo‘ladi.

Erkin ilmiy – texnik hududlar, ilmiy ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlangan xozirgi kunda ishlayotgan va rivojlangan infrastrukturaga, chet el ilmiy – texnikaviy va texnologiyasiga, ishlab chiqarish va moliyaviy jixatdan potensialga ega bo‘lgan va maxsus xuquqiy tartibot o‘rnatiladigan alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘ladi. Erkin ilmiy texnik zonalar yuksak texnopolislar, texnoparklar, mintaqaviy inovatsiya markazlari – texnopolislar ishlaydigan zonalar shaklida tashkil etiladi. Bunday hududlarni tashkil etishda maqsad fan va texnika rivojlanishida muhim yo‘nalishlarni olib borish va uni xalqaro maydondagi nufuzini oshirishdan iboratdir. Erkin ilmiy texnik hududlar tashqi iqtisodiy masalalarni xal etish bilan bir qatorda mamlakatning ichki umumiy xo‘jalik masalalarini yechishga ham qaratilgan bo‘lishi lozim. Bunday holatda bu zonalarda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi va atrof muhitga ziyon – zahmat yetkazmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarish resurslarini o‘zlashtirish uchun yuqori imkoniyatlar mavjud bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida[44]”gi qonuniga asosan - “**maxsus iqtisodiy zona** deb – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hududga aytiladi va maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin: erkin iqtisodiy zonalar;

[44] https://www.lex.uz/docs/4737511

maxsus ilmiy-texnologik zonalar; turistik-rekreatsion zonalar; erkin savdo zonalari; maxsus sanoat zonalari.

Rossiyalik iqtisodchilardan A.Kuznetsov[45] hamda S.A.Ribakov va N.A.Orlovalar[46]ning keltirishicha, - Erkin iqtisodiy zona - xorijiy tovarlar hyech qanday bojxona to‘lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo‘lgan hudud.

O‘zbekistonlik Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G[47]. va Rossiyalik Danko T.P., Okrut Z.M[48]. , Igoshin N,B[49]. kabi mualliflar bir ovozdan, - “Erkin iqtisodiy zona - bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud”- degan xulosaga kelishgan.

Janubiy Koreyalik olim Kimning izlanishlariga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy zonalar – bu xorijiy davlatlar, korxona va firmalar uchun maxsus tashkil etilgan hududlar bo‘lib, bu erda ularning korxonalari va ishchi xodimlari hukumat tomonidan berilgan imtiyozlar tufayli o‘z navbatida mavjud qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda daromad olishi mumkin bo‘lgan zonalardir. Davlat erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan maqsad bunday zonalarda boshqa erlarga qaraganda ko‘proq iqtisodiy shaffof muhit mavjudligi va bu orqali investitsiya oqimini va raqobatbardosh sanoat hamda savdo-sotiq xususiyatlarini shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi[50]”.

V.Papovning tadqiqotlariga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy zonalar shunday hududlarki, bu boshqa hududlardan alohida ajratilgan davlat tomonidan maxsus imtiyozlar va qulayliklar berilgan, bu afzalliklar davlatning biror boshqa yerida yoki iqtisodiy tarmog‘ida kuzatilmaydi[51]”, deb ta’rif beradi.

Mamlakatimiz olimlaridan A.V.Vaxobov, S.S.Mirzalieva, M.A.Raimjonova va A.A.Ostonakulovlar tomonidan ilmiy-tadqiqot va

---

[45] Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика // Мировая экономика и международные. отношения. - 1990. - N 12. - С. 24;

[46] Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. – М.: Вершина, 2006. – С. 12.

[47] Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Фқув қўлланма. – Т.: Молия, 2010. – Б. 180;

[48] Данько Т.П., Округ З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. – М.: ИНФРА-М, 1998. – С. 27

[49] Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование. Учебник для вузов. – М.: Финансы, ЮНИТИ, 2000. – С. 45.

[50] Kim Young Rae. (2009). The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 8-75.

[51] Papava Vladimer. (2007). The Immortal idea of a free economic zone, Georgian Foundation for Strategic and International Studies, 1-16.

ilmiy-uslubiy ishlarida erkin iqtisodiy zonalar va ular faoliyatiga oid o‘z ilmiy qarashlarini bayon qilishgan.

A.V.Vaxobov tomonidan “Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi” deb, ta’rif berilgan[52].

S.S.Mirzalieva tomonidan “Erkin iqtisodiy zona – mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma’muriy boshqaruvga va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning imtiyozli rejimiga ega bo‘lgan qismidir” deb, ta’rif berilgan[53]. Ushbu ta’rifda fikrimizcha, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida jalb etiladigan investitsiyalar va ular hajmidan kelib chiqib imtiyozlarning belgilanishi nazardan chetda qolgan.

M.A.Raimjonova tomonidan “Mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma’muriy boshqaruvga ega bo‘lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishlar beriladigan hudud - erkin iqtisodiy hudud”, deb ta’rif keltirilgan[54].

A.A.Ostonakulov tomonidan “erkin iqtisodiy zona – hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularga investitsiyalarni jalb etish maqsadida alohida imtiyozlar belgilangan, shuningdek, ulardan iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir[55]”- degan fikr ilgari surilgan.

Xususan, H.R.Hamroyevning “Zonal siyosat” nomli monografiyasida erkin iqtisodiy hududlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi,faoliyati va jahon tajribasi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lim mumkin[56].

---

[52] Вахобов А.В. ва бошқалар. Хорижий инвестициялар. Фқув қўлланма. Тошкент: Молия., 2010. 360 б.-180 б.

[53] Мирзалиева С.С. Эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг хориж тажрибаси. Дисс. автореф. ... и.ф.н. Тошкент. 2001. -8б

[54] Раимжонова М.А. Ўзбекистонда эркин иқтисодий ҳудудларга инвестицияларни жалб қилиш: назарий асослари, ҳозирги ҳолати ва истиқболлари. “Extremum-press” нашриёти, 2013 й. 76 б.-11 б.

[55] Остонокулов А.А. Эркин иқтисодий зоналарда бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштириш. Дисс.. и.ф.н. Тошкент. 2017. -151 б.

[56] Ҳамроев Ҳ.Р. Зонал сиёсат: Монография.- Тошкент: Фан,- 2008.

Bundan tashqari, Ye.Avtokushin o‘zining risolalarida “erkin zonalar – investitsiya o‘chog‘i” – deb, ta’rif keltirib o‘tadi[57].

Iqtisodiy lug‘atlarda erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag‘batlantirishiga urg‘u berilgan. U yerda yozilishicha: “Erkin iqtisodiy hudud: xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyatni rag‘batlantiruvchi, imtiyozli valyuta-moliyaviy va qulayroq soliq rejimlariga ega bo‘lgan hududdir[58]”.

Ammo, respublikamizning hozirgi ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish, nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Bu esa mazkur maqola mavzusining dolzarbligini anglatadi. Tadqiqot metodologiyasi tadqiqotlarimiz davomida ilmiy abstraktsiya, analiz va dialektik usullardan foydalanildi. Hozirgi globallashgan davrda har bir davlat o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘yishi aniq, lekin bu maqsadlar investitsiyalarsiz tashkil etilishi qiyindir. Shu investitsiyalarning majoziy ma’noda o‘chog‘i hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 150 dan ortiq davlatida tashkil etilgan erkin zonalar mamlakatlar taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelmoqda. O‘zbekistonda ham qariyb, 10 yillik tajriba mavjud. Bu jarayon albatta O‘zbekiston uchun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o‘rganishni talab qiladi. Hamma davlatlarda ham erkin iqtisodiy zonalar yaratish ishlari ilmiy asosda, puxta o‘ylangan erkin iqtisodiy zonalar siyosati orqali tashkil etilgan, deb bo‘lmaydi.

Erkin iqtisodiy hududlar o‘zlarining bojxona hududiga ega bo‘lib, bu hudud teretoriyasiga kirib – chiqish o‘rnatilgan tartibga amalga oshiriladi. Erkin iqtisodiy hududlar geografik jihatdan joylashishiga qarab, “tashqi” ya’ni ikki yoki bir necha mamlakat hududida joylashgan – xalqaro va bir mamlakat hududida joylashgan “ichki” erkin iqtisodiy hududlarga bo‘linadi.

Shu bilan birga erkin iqtisodiy hududlar xalqaro maydonda xo‘jalik ixtisosligi va tashkil etish turlariga qarab ham klasifikatsiya qilinadi. Bu klassifikatsiya asosida erkin iqtisodiy hududlar xo‘jalik ixtisosligi bo‘yicha:

1. Erkin savdo hududi.
2. Sanoat va ishlab chiqarish zonasi.
3. Texnik va texnologiyani joriy etish hududlari.

[57] Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. М. 1993.С-124.

[58] Краткий внешнеэкономический словарь-справочник. Под редакцией В.И.Рыбалкин. – М.: «Международные отношения», 1991. – с.82.

4. Xizmat ko‘rsatish zonalari.
5. Kompleks zonalar.

Tashkil etish turlariga qarab esa:

1. Hududiy zonalar.
2. Maxsus tartibot zonalariga bo‘linadi.

Dunyoda 400 tadan 2000 tagacha erkin iqtisodiy hudud mavjud deb hisoblanadi. Birinchi erkin iqtisodiy hududlar AQShda 1934 yili erkin savdo hududi ko‘rinishida tashkil etilgan. Ularning asosiy yo‘nalishi tashqi savdoni faollashtirish bo‘lgan. Bunga esa bojxona bojlarining pasaytirilishi va erkinlashtirilishi sabab bo‘lgan. Bu hududlarning eng qiziqarli joyi shundaki, import qilinga yarim tayyor mahsulotlar – agar tayyor mahsulot sifatida eksport qilinsa bojxona tozalashlaridan o‘tmagan va agar import qilingan yarim tayyor mahsulotlar – tayyor bo‘lganidan keyin AQSH bozoriga kirsa to‘la bojxona to‘lovlariga va tozolovlariga tortilgan.

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskuna va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarish, eksportga mo‘ljallangan va importning o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, respublikada mavjud xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalar ishtirokini ta’minlash, birinchi galda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishga keng e’tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror sur’atlar bilan rivojlanib, aholi turmush darajasini izchil oshirish ta’minlandi. Bu borada erishayotgan yutuqlarimizni va barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz, chet el investorlariga yaratilayotgan keng shart-sharoitlar hamda kafolatlarni yirik xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari rahbarlari, ekspert va mutaxassislar tomonidan alohida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlkatimizning Navoiy, Jizzax va Angren hududlarida maxsus industrial zonalar tashkil qilindi. Ushbu amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘z navbatida, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish,

eksport, shuningdek, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish talablarini joriy etish orqali raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo‘jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ular malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni hal etish imkonini bermoqda.

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning muhim jihati ma’lum hudud yoki ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy rivojlantirishni rag‘batlantirish, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hududiy uslubi sifatida foydalaniladi. Ushbu maqsadlarga erishish, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatidagi xalqaro tajribalar afzalliklarini iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish maqsadida 2008 yil 2 dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to‘g‘risida”gi, 2013 yilning 18 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jizzax” maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida»gi va 2013 yil 13 apreldagi “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida”gi Farmonlariga asosan “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilgani qanday natija berayotgani hammamizga ma’lum. Mazkur Farmonlar yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, bu borada qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga, ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ular faoliyatini tartibga solishga qaratilgan milliy qonun hujjatlaridan tashqari, ushbu munosabatlarni tartibga solishga xalqaro huquqiy hujjatlar ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar bergan ma’lumotlarga ko‘ra bugungi kunda dunyoda 3,5 mingdan ziyod erkin iqtisodiy zonalar bo‘lib, ular 140 taga yaqin mamlakatda joylashgan. Butun dunyodagi erkin iqtisodiy zonalarda salkam 70 million kishi mehnat qiladi. Ularning yillik savdo aylanmasi esa 500 mlrd. dollardan ziyoddir. Ayni paytda EIZlarning juda ko‘p turlari bo‘lib, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hamda globallashuv jarayonining ta’siri natijasida ular ham miqdor, ham sifat jihatidan o‘zgarib va ko‘payib bormoqda. Shu tariqa iqtisodiy tizim va

dunyodagi yirik investorlar bilan aynan mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali yo‘sinda, ya’ni yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish sohalarida to‘laqonli hamkorlik qila oladigan holga keltirildi. Shunday qilib erkin iqtisodiy zona deganda muayyan mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va ular faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilayotganligi mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandlik darajasini yanada oshirishning muhim omili sifatida jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish va bu boradagi huquqiy asoslar mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integratsiyalashuviga, to‘g‘ridan–to‘g‘ri investitsiyalarni rag‘batlantirishning o‘ziga xos va betakror mexanizmini joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Navoiy” erkin sanoat-iqtisodiy hududi (“Navoiy” ESIH) 2008-2009 yillarda Navoiy shahrining endigina modernizatsiya qilingan halqaro aeroporti qoshida tashkil qilingan edi. O‘sha paytlarda ko‘pchilik nashrlarda “Navoiy” ESIH tashkil etilishi mamlakat hukumatining tanazzulga qarshi siyosati choralaridan biri sifatida baholandi. Navoiy viloyati mamlakatdagi ilk ESIH sifatida tanlab olinganligining sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. Rivojlangan transport infrastrukturasi: gap shundaki, Navoiy shahri Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi muhim savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan;

2. Qayta ta’mirlangan Navoiy shahri aeroporti yuk samolyotlarini qabul qilish imkoniyatiga ega;

3. Keng xom-ashyo salohiyati;

4. Juda qulay hududiy joylashuv: shahar O‘zbekiston Respublikasining geografik jihatdan qoq o‘rtasida joylashgan, ya’ni qo‘shni mamlakatlar hududlarigacha deyarli bir xil masofa mavjud.

Loyihani amalga oshirishga Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Singapur kabi mamlaktlarning

yetakchi kompaniyalari birlamchi sarmoyadorlar sifatida ishtirok etishgan. 2009 yilning yanvarida shahar aeroporti Korean Air aviakompaniyasiga boshqaruviga bu yerda halqaro intermodal logistika markazi tashkil qilish uchun berildi. EIH/ESIH tashkil etish mamlakatning iqtisodiy va sanoat salohiyatini to‘ldirishga imkon beradi. Shunday qilib, EIH tashkil qilayotgan mamlakatimiz birqator afzalliklarga ega bo‘ladi. Ya’ni natijada O‘zbekiston sifatli raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish, byudjetning to‘ldirilishi, kadrlarning malakasining oshishi, yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, transport infrastrukturasining rivojlanishi kabi afzalliklarga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘zining taraqqiyoti mobaynida iqtisodiy rivojlanish, investitsion siyosat, aholi farovonligining oshishi, yalpi ichki mahsulotning ortishi, aholi bandiligini ta’minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, valyuta barqarorligi va boshqa bir qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha salmoqli natijalarni qo‘lga kiritdi. Qisqa davr mobaynida O‘zbekiston tomonidan qo‘lga kiritilgan bunday yutuqlar dunyoning ko‘plab davlatlari va yirik moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar tomonidan alohida e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyot va biznesni harakatga keltiruvchi muhim omillardan biri bo‘lgan Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish masalasi respublikamiz oldida turgan muhim masalalardandir. Xususan, Navoiy erkin iqtisodiy hududi bugungi kunda mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha qisqa vaqtlarda yuqori ko‘rsatkichlarga erishib kelmoqda. Bugungi kunda esa bunday hududlar boj to‘lanmaydigan, shuningdek, boshqa iqtisodiy va tashkiliy tartibga solinganligi tufayli ishlab chiqarish va savdo rag‘batlantiriladigan, tashqi iqtisodiy faoliyat mohirona olib boriladigan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha katta imkoniyatlar taqdim qiladigan o‘ziga xos hudud sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ham bu boradagi imkoniyatlarni, xalqaro tajribani chuqur o‘rgangan holda, iqtisodiy rivojlanish sari tobora chuqur odimlab borayotganligini ko‘rib turibmiz. Shu nuqtai nazardan ham quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratish bugungi kunning muhim masalalardan hisoblanadi:

- global iqtisodiy tizimning rivojlanishi va ushbu jarayonlarda erkin iqtisodiy hududlarning o‘rni va rolini tadqiq qilishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganligi;

- erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning asosiy shakllari va tamoyillariga doir ilmiy qarashlarni tahlil qilishga bo‘lgan zaruratning ortib borayotganligi;

- sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi jarayonidagi tajribalarida Erkin iqtisodiy hududlar rivojlanishining va ularning namoyon bo‘lish shakllarini ilmiy jihatdan tadqiq qilishning ahamiyati ortib borayotganligi;

- bugungi kunda taraqqiyotda tobora yuksak marralarni zabt etayotgan Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish borasidagi bosib o‘tgan yo‘llarini ilmiy tadqiq qilishning zarurati;

- iqtisodiy rivojlanish borasida dunyoda tobora o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish istiqbollarini tadqiq qilishning ahamiyati yuqoriligi;

- Navoiy erkin industrial iqtisodiy hududining tashkil qilinishi hamda uning O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatidagi o‘rni masalalarini tadqiq qilish muhim vazifalardan biridir.

Shakllanish va rivojlanish jihatdan o‘tgan asrning ikkinchi yarmida jahon miqyosida tobora kengayib borgan, iqtisodiy va savdo instituti hisoblangan Erkin iqtisodiy hududlar bugungi kunda taraqqiyot borasida o‘zining nihoyatda yuqori cho‘qqisiga erishganligiga amin bo‘ldik. Erkin iqtisodiy hududlarga rivojlangan mamlakatlar tomonidan eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda xorijiy kapitalni jalb qilish imkonini beradigan yangi iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida qaraladi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va qulay investitsion muhitni yaratishning boshqa vositalari bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlarda turli erkin iqtisodiy hududlarni shakllantirish metodi qo‘llaniladi. Erkin iqtisodiy zonalar odatda ikki turga ajratiladi:

1) tovarlar va mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan sanoat-ishlab chiqarishga yo‘naltirish;

2) yuqori texnologiyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan, texnik joriy qilishga yo‘naltirilgan hududlar bo‘lib, asosan, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni sanoatga tatbiq qilishga asoslangan iqtisodiy hududlar.

Bunday hududlarda asosiy sub’ekt sifatida ishtirok etadigan rezidentlar ham faoliyat yuritadilar va ularning asosiy vazifasi ushbu hududlarda tadbirkorlik faoliyatini olib borish va undan foyda olishga

qaratilgan bo‘ladi. Quyida Erkin iqtisodiy zonalarning asosiy vazifalari keltirib o‘tilgan:

- iqtisodiyotga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish;
- eksportni rag‘batlantirish va shu orqali valyuta tushumini ta’minlash va oshirish;
- aholining bandligini ta’minlash;
- zamonaviy infrastrukturani shakllantirish va rivojlantirish;
- taraqqiyotdan ortda qolayotgan hududlarda ham texnik-texnologik rivojlanishni jadallashtirish;
- boshqaruv va zamonaviy xalqaro tadbirkorlik sohasidagi ilg‘or xalqaro tajribaga ega bo‘lish;
- hududlarni xo‘jalik yuritishning yangi usullarini sinov maydoniga, milliy xo‘jalik rivojlanishining qutbiga aylantirish.

Koreya va Xitoyda erkin iqtisodiy hudulardan unumli foydalanilishi oqibati o‘tgan asrning 80-90 yillarida ushbu davlatlar iqtisodi katta yutuqlarga erishdi. Natijada Xitoy YAIM hajmi bo‘yicha dunyoda ikkinchi (AQShdan keyin) o‘ringa chiqib oldi. Koreya esa iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida, ya’ni sanoat, mashinasozlik, kemasozlik va elektronikada dunyoda yetakchi mamlakatlarning biriga aylandi. Bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun Koreya va Xitoyda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarning roli katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu bois ham hozirgi sharoitda erkin iqtisodiy zonalarni yanada rivojlantirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim bo‘lib hisoblanadi:

– infratuzilmani rivojlantirish va “Navoiy” erkin iqtisodiy industrial hududining raqobatbardoshlik ustunliklarini oshirishda uning boshqa kompleks ob’ektlari, Navoiy shahri va viloyatidagi infratuzilma inshootlari bilan o‘zaro bog‘liq ravishda rivojlantirish;

– menedjment va sifat ustidan nazorat hamda xalqaro standartlarga muvofiq infratuzilma va ishlab chiqarish omillarini doimiy rivojlantirish, yangilash va kengaytirish;

– yashash uchun muhim ijtimoiy shart-sharoitlarni ta’minlash va rivojlantirish;

– yuqori malakali kadrlar va o‘rta darajadagi texnika yo‘nalishidagi mutaxassislarni uzluksiz ravishda tayyorlash.

– investitsiyalarni jalb qilish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishda esa sanoatning asosiy tarmoqlarida samarali loyihalar sonini ko‘paytirish orqali xorijiy investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish;

– jalb qilinayotgan investitsiyalar va amalga oshirilayotgan loyihalarning sifat koʻrsatkichlarini yaxshilash (yuqori texnologiyalar, eksport yoʻnaltirilgan, ishga yollash sifati va darajasini oshirish va boshqalar);

– jalb qilinayotgan investitsiyalarni mutanosib va maqsadli rivojlantirish;

– EIZga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilish maqsadida ular uchun qulay investitsion muhit va huquqiy baza yaratish eng ustuvor maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

Har qanday mamlakatda ham erkin iqtisodiy zonalar uchun birinchi qoʻyiladigan talab – bu mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni va xalqaro integrasiyalashuvning yuqori darajada ekanligi, elektr energiya bilan yetarli ta'minlanganlik, transport kommunikasiyalari bilan yetarli ta'minlanganlik kabi jarayonlarni xalqaro andozalarga mos kelishidir. Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda, jahon bozoriga tobora integrasiyalashuviga, toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarni ragʻbatlantirishning oʻziga xos va betakror mexanizmini joriy qilishda muhim soha boʻlib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning erkinlashtirish sharoitida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantiradi.

§ 6.2. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari va ularga jalb etilgan investitsiyalarga nisbatan turli imtiyoz va ragʻbatlarning qoʻllanilishi

EIHlar dunyo hamjamiyati talqiniga koʻra davlatning faol siyosiy vositasi boʻlib, u bir xil darajada ham iqtisodiy tanazzulli hududlarni sogʻlomlashtiruvchi hamda hududlarning rivojlanish nuqtalariga qoʻshimcha turtki boʻladi. Rivojlangan davlatlarda EIHlar tashkil etilishi asosan davlatning hududiy siyosati vositasi boʻlib, EIHlar aynan iqtisodiy hamda ijtimoiy darajasi yuksalishi lozim boʻlgan hududlarda tashkil etiladi. EIHlarni tashkil etishda asosan hududdagi ishsizlik darajasi hamda aholining daromadliylik darajasi bosh mezon sifatida qabul qilinadi.

Demak, erkin iqtisodiy hududning tashkil etilishi hududning, qolaversa unga yondosh hududlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu esa oʻz navbatida qoʻshimcha, koʻp haq toʻlanadigan ish oʻrinlarining yaratilishiga, raqobatbardosh hamda eksportga yoʻnaltirilgan sifatli mahsulotlarning koʻplab ishlab

chiqarilishiga, valyuta tushumining oshishiga, byudjetga to‘lanadigan soliqlar miqdorining ko‘payishiga, pirovard natijada aholi turmush darajasining yuksalishiga va farovon hayot sharoiti yaratilishiga imkoniyat beradi.

Hozirgi kunda G‘ijduvon tumani hududida Erkin iqtisodiy hududni barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlab yuborilgan. Jumladan, EIZ tashkil qilish uchun G‘ijduvon tumani hududidan belgilangan tartibda tegishli yer maydoni ajratilib, mahalliy hamda xorijiy investorlarni EIZ ga jalb qilish bo‘yicha targ‘ibot hamda tashviqot tadbirlari olib borilmoqda. Erkin iqtisodiy zonalarning tashkiliy funksional strukturasi turli tumandir.

Maxsus iqtisodiy zonalarning bir necha turlari mavjud:

– erkin savdo zonalari - mahsulotlar saqlanadigan hududning milliy urf-odatlari, ularni sotishdan oldin tayyorlash, qadoqlash, sinovdan o‘tkazish va hokazolariga kirmaydigan zonalar;

– sanoat ishlab chiqarish zonalari – muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat majmualari;

– texnik-innovatsion zonalar – ilmiy-texnik, loyihalash va muhandislik faoliyati va tadqiqot ishlari sohalari (texnoparklar);

– turistik zonalar – turizm va dam olish uchun dam olish maskanlari, bu erda tadbirkorlar uchun imtiyozlar mavjud;

– xizmat ko‘rsatish zonalari – moliyaviy (offshor) yoki eksport-import faoliyati (ko‘chmas mulk va transport xizmatlari) amalga oshiriladigan hudud; murakkab zonalar - tumanning ma'muriy chegaralari bilan belgilanadigan imtiyozli boshqaruv hududi (shuningdek, tadbirkorlik zonalari deb ataladi va yana Qrimni misol sifatida ishlatish mumkin.)

Erkin iktisodiy zonalarni tuzishda ikki konseptual yondashish mavjuddir: territorial va funksional. 1 – yondashuvda zonadagi barcha resident korxonalari xujalik mijozlardan foydalanadilar. 2 – yondashuvda esa zona bu xujalik yurituvchi muayyan shakliga, soxa, korxonaga nisbatan mamlakatning kaysi nuqtasida bulmasin imityozli rejim sharoit kullandi. 1 tipga Xitoyning, Braziliyaning Manaus va rivojlanayotgan mamlakatlatdagi eksport ishlab chikarish zonalar kiradi. 2 tipga offshor zonalar, “dpyuti fri” magazinlar kiradi.

Vaqt o‘tishi bilan sanoat zonalari o‘zgarib bordi ularning hududlariga nafakat tovarlar balki kamyob kam keltiriladigan, ularda ishlab chikarish faoliyati bilan ham shugullana boshlashdi. Natijada sanoat ishlab chikarish zonalari paydo buldi. Dastlabki erkin savdo

zonalari xalkaro savdoni rivojlantirishga karatilgan siyosat vositasi bulganligi sababli, ular tovarlar harakatining xalkaro yunalishlariga yaqin joylashgan mintakalarda keng yoyilgan. Sanoat ishlab chikarish zonalari maxsus bojxona rejimi mavjud bulgan eksportga muljallangan yoki importni urnini koplaydigan mahsulot ishlab chikariladigan hududda tuziladi. Bu hududlar sezilarli darajada soliq va moliya imtiyozlaridan foydalanish rejimida davlat sanoatining eng ustivor tarmoklarini rivojlanishi taminlaydi. Bazan pirovard mahsulot import uskunlar va texnologiyalar yordamida mahalliy xom ashyodan ishlab chiqariladi. Jahon tajribasidan kelib chiqib, biz erkin iqtisodiy zonalarni quyidagi tur va shakllarga ajratdik (6.1 - rasm).

Ilmiy texnologiya zonalari III avlod zonalaridir. Hozirgi adabiyotda ularni texnoparklar (AQSH) texnopalislar (Yaponiya) deb ataydilar. Ularning hududlarida yirik ilmiy tadqiqot markazlari Universitet atrofida joylashgan ko‘p bo‘lim talab qiluvchi firmalar shaklida ilmiy va ishlab chiqarish texnologik faoliyati birlashadi.

Bunday zonalar barcha moddiy va mexnat resurslarini yani texnologiyani sanoatga tezkor joriy qilish uchun safarbar etish maqsadida tuzildi. Eng mashxur texnopark bu Vellidir. U AQShning Kaliforniya shtatiga yaqin joylashgan va komppyuter hisoblash texnikasiga zarur bo‘lgan ehtiyot qismlarning 20 foizni yetkazib beradi. Bu zonada 20 ming ishchi xizmatchi ishlaydi va bunday zonalardan AQShda 80 dan ortiq. Yaponiyada texnopolislar 20 dan ortiq Xitoyda esa 20 ga yaqin yangi va yuksak texnologiyalarni rivojlantirish mavjud.

IV avlod-offshor zonalardir: ro‘yxatdan o‘tkazilgan korxonalar ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanmasdan, faqat vositachilik bilan shug‘ullanadi.

Bank va tijorat ishidagi maxfiylik eng oliy darajada. Xozir jaxonda 300 dan ortiq markazlari bor. Offshor zonalari mavjud bo‘lgan mamlakatlar quyidagilar: Lixtenshteyn, Panama, Normand orollari, Men oroli, Antilp va Modeyra orollari, Liberiya, Shvesariya, Gibraltor, Malpta va Mavrikiydi.



6.1-rasm

Erkin iqtisodiy zonalarning umumiy harakterli tomoni shundaki ularda ushbu mamlakatda tadbirkorlarga qo‘llanadigan umumiy rejimga qaraganda qulay bojxona investitsion moliyaviy imtiyozlari va afzalliklarning mavjudligidir.

Ushbu imtiyozlar 4 ga bo‘linadi:

Moliyaviy imtiyozlar

1. Subsidiya va imtiyozli kreditlar berish.
2. Arzon bahoda kommunal xizmatlar ko‘rsatish.

3. Uchastkalar va ishlab chiqarish ulardan arzon ijara haqi.

Soliq imtyozlari

1. 20 yilgacha daromad solig‘I to‘lashdan ozod qilish.
2. Qayta investitsiyalanuvchi foydaga soliq solmaslik.
3. Xorijiy xodimlarni daromad solig‘idan ozod qilish.
4. Soliq tatillari.
5. Jadallashtirilgan amortizatsiya.

Mamuriy imtyozlar

1. Investorlarini infratizim vositalari bilan taminlash.
2. Qulay sharoit bilan ijaraga berish.
3. Ro‘yxatdan o‘tkazish va bojxona muolajalarini soddalashtirish.
4. Xorijiy fuqarolarni kelib ketishini osonlashtirish.

Tashqi savdo imtyozlari

1. Eksport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish.
2. Erkin iqtisodiy zonalardan tovarlar eksportini kvotalar va litsenziyalardan ozod qilish.
3. Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish.

§ 6.3. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Hozirda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratishni talab etadi. Albatta, bunday dolzarb vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy zonalar muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish mamlakat ichki bozoridagi iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishga yo‘naltirilgan chet el sarmoyasini jalb qilish bilan birga:

– innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, eksport, shuningdek, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

– sanoat mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlash va valyuta tushumini ko‘paytirish, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, to‘liq siklda mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat (eksport) zonalarini tashkil etish;

– mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish, qadoqlash talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish;

– xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish;

– yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo‘jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zonalar, erkin savdo zonalari, erkin ishlab chiqarish zonalari, erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tuzilishi mumkin.

Erkin iqtisodiy zonalar mamlakatni xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlariga yanada chuqurroq jalb qilish, ya’ni eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda shu orqali valyuta tushumini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalar mamlakat ichki bozorlarini import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar bilan ta’minlash hamda shu hududda chet el sarmoyasi yordamida yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish imkonini beradi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning muhim maqsadi ma’lum hudud yoki ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy rivojlantirishni rag‘batlantirish, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida erkin iqtisodiy zonalardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hududiy uslubi sifatida foydalanishdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bugun erkin iqtisodiy zonalardan nafaqat sarmoyalarni jalb qilish, balki hududiy iqtisodiy siyosat vositasi sifatida ham foydalanilmoqda.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Oliy Majlis Senatining o‘n to‘qqizinchi yalpi majlisida ma’qullangan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga

o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun bilan esa amaldagi qonunning erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish tartibi, ularning turlari, mazkur zonalar ishtirokchilariga qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish mexanizmi, erkin zonalar hududida amalga oshiriladigan faoliyat turlariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi[59].

Mazkur qonun, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, mamlakatimizning dunyo bozoriga integratsiyalashuvida muhim hujjat bo‘lib, uning “Erkin iqtisodiy zonani tuzish” deb nomlangan 3-moddasiga erkin iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etilishi, erkin iqtisodiy zonaning maqomi, shuningdek, uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanishi, erkin iqtisodiy zonaning faoliyat ko‘rsatish muddatini uzaytirish belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin Prezident qarori bilan amalga oshirilishi kiritildi. 4-moddada esa erkin iqtisodiy zonaning maqomi uni tashkil qilish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddat tugaganda, uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda nazarda tutilgan vazifalar bajarilmaganda tugatilishi belgilandi. Shu bois, qonunning 7-moddasida erkin industrial-iqtisodiy zona ham erkin ishlab chiqarish zonalari turlaridan biri sifatida belgilandi.

Amaldagi qonunchilikni iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi tajribasi bilan muvofiqlashtirish maqsadida qonunning “Erkin iqtisodiy zonaning byudjeti” nomli 17-moddasiga ham tegishli o‘zgartishlar kiritildi. Unga ko‘ra, erkin iqtisodiy zonaning byudjeti erkin iqtisodiy zonaning Ma’muriy kengashi boshqaruvi va foydalanuvida bo‘lgan yer, bino va inshootlarni ijaraga berishdan, xizmatlar ko‘rsatishdan keladigan tushumlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlardan shakllantirilishi belgilandi.

Erkin iqtisodiy zona hududiga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning kirishi, undan chiqishi va shu hududda bo‘lishining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan soddalashtirilgan tartibi o‘rnatilganini inobatga olib, qonunning 18-moddasiga erkin iqtisodiy zona hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning kirish, chiqish va shu hududda bo‘lishining soddalashtirilgan tartibi qonun hujjatlarida belgilanishi qayd etildi. Yuqoridagi Farmonga muvofiq, “Navoiy”

[59] “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Тошкент ш., 1996 йил 25 апрель, 220-I-сон.

erkin industrial-iqtisodiy zonasi faoliyatini tezkor boshqarish Direksiya tomonidan amalga oshirilishi belgilangani bois, qonunning 20-moddasiga ham tegishli o‘zgartishlar kiritildi. Bu erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyatini muvofiqlashtirish davlat organlari vakillaridan tashkil etiladigan va shaxsiy tarkibini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Ma’muriy kengash tomonidan amalga oshirilishi belgilangani haqidagi norma bo‘lib, qonunda erkin iqtisodiy zonaning Ma’muriy kengashi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, mazkur Farmonda belgilangan erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va faoliyat ko‘rsatish tajribasi talablariga qonunning “Erkin iqtisodiy zona hududida xo‘jalik faoliyati qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish” nomli 25-moddasi qoidalarini muvofiqlashtirish hamda qonunchilik hujjatlarini bir xil talqin qilishni ta’minlash maqsadida mazkur moddaga ham bir qator aniqliklar kiritilganini ta’kidlash joiz.

Mamlakatimizda ushbu maqsadlarga erishish, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatidagi xalqaro tajribalar afzalliklarini iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish maqsadida Prezidentning 2008 yil 2 dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etildi. Prezident farmoniga ko‘ra, erkin industrial-iqtisodiy zonaning faoliyat ko‘rsatish muddati 30 yilni tashkil etadi, bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. Erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyatini muvofiqlashtirish va davlat boshqaruvi funksiyasini amalga oshirish, shuningdek, tezkor boshqarish maqsadida Ma’muriy kengash va erkin industrial-iqtisodiy zona direksiyasi tashkil etilgan.

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi 2008 yil dekabrdagi Prezident farmoniga asosan tashkil qilindi va faoliyat muddati 30 yil qilib belgilangan, biroq, bu muddatni uzaytirish imkoniyati saqlab qolingan. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona 564 ming gektar maydonga joylashgan bo‘lib, ushbu davr mobaynida bu yerda imtiyozli bojxona, soliq va valyuta tartibi amal qiladi, kirish-chiqish va u yerda turish qoidalari soddalashtirilgan tartibda yuritiladi. Shu bilan birga, eng kam sarmoya 3 mln. Yevroni tashkil etsa, soliq imtiyozi qo‘llanilishi belgilangan. Bundan tashqari, “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida huquqiy rejim belgilangani, shuningdek, uning ishtirokchilariga xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida beriladigan imtiyoz va preferensiyalarning aniq ro‘yxati ko‘rsatilgani inobatga olinib, amaldagi qonunga erkin iqtisodiy zona

tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar ko‘rsatilishi mumkinligi kiritildi.

Erkin iqtisodiy zonaning boshqa turlaridan farqli o‘laroq, bu hududda alohida imtiyozli bojxona, valyuta va soliq rejimlari davlat tomonidan ta’minlanadi. Eng muhimi, uning hududidagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi zamonaviy, xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar hamda modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishdan iborat.

Tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan mineral-xom ashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 12 yanvardagi “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4931-sonli Farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 3 maydagi PF-5032-sonli Farmoniga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Nukus-farm”, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarida “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysunfarm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etildi.

2008 yilda 1 ta, 2012-2013 yillarda 2 ta, so‘nggi ikki yil mobaynida esa 18 ta yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi (6.1 - jadval). Shunisi ahamiyatliki, ular yordamida turli hududlarda muayyan bir faoliyatni yanada rivojlantirish, itisodiyot tarmoqlariga xorijiy investorlarni yanada ko‘proq jalb etish imkoni tug‘ildi.

6.1–jadval

O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar

№	EIZ FAOLIYAT YO‘NALISHI	EIH NOMI
1	EIZ sanoat tarmoqlari (9 ta)	“Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Urgut”, “Gijduvon”, “Qo‘qon”, “Xazorasp”, “Namangan” va “Sirdaryo” EIZ
2	EIZ farmotsevtika tarmoqlari (7 ta)	“Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” EIZ
3	EIZ qishloq xo‘jalik tarmoqlari (2 ta)	“Baliq ishlab chiqaruvchi”, “Buxoro-agro” EIZ
4	EIZ turistik tarmoq	“Chorvoq” ETZ
5	EIZ transport logistika sohasi	“Termiz” EIZ
6	EIZ sport invertarlarini ishlab chiqarish bo‘yicha	“Sport” EIZ

O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarlarga mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun zaruriy qonunchilik asoslari, soliq va bojxona imtiyozlari va turli preferensiyalar tizimi shakllantirilgan.

Qonunchilikka muvofiq, O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining umumiy ko‘rinishda asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratish uchun, yuqori narxli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni taminlash, hududning ishlab chiqarish va resurs potensialidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda, ya’ni ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish uchun xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;

– tashqi bozorda talabgir va yuqori narxli import o‘rnini bosadigan mahsulotlarni zamonaviy ishlab chiqarishni yaratish bo‘yicha mahalliy va xorijiy investorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish;

– mahalliy xom-ashyo va materiallar bazasida butun respublika va erkin iqtisodiy zonalar korxonalari o‘rtasida sanoat kooperatsiyasining rivoji va tor kooperativ aloqalar asosida yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish

jarayonini chuqurlashtirish;

– ishlab chiqarish, injener kommunikatsiyasi, yo‘l-transport, ijtimoiy infrastruktura va logistika xizmatlarini jadal o‘sishini ta’minlash;

– ilmiy ishlab chiqarish markazlarini yaratish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovida ishtirok etish va boshqalar.

Erkin iqtisodiy zonalarda soliq imtiyozlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirishning muhim vositasi korxona daromadidan to‘lanadigan soliqlar uchun imtiyozlar berish, amortizatsiya ajratmalarining muddatlarini kamaytirish va soliq kreditlari taqdim etishdir.

Har qanday mamlakatda ham erkin iqtisodiy zonalar uchun birinchi qo‘yiladigan talab – bu mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni va xalqaro integrasiyalashuvning yuqori darajada ekanligi, elektr energiya bilan yetarli ta’minlanganlik, transport kommunikasiyalari bilan yetarli ta’minlanganlik kabi jarayonlarni xalqaro andozalarga mos kelishidir.

O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini butun xo‘jalik huquqiy masalalarni tartibga solish uchun maxsus dastur ishlab chiqarish;

- transport kommunikasiyalarni rivojlantirish;

- zarur infratuzilma: suv ta’minoti, elektr ta’minoti, ijtimoiy sharoit va boshqalar;

- tijorat infratizimi: bank, konsalting, yuridik xizmatlarning mavjudligi;

- erkin iqtisodiy zonalar ma’muriy boshqaruvining samarali tuzilmasini yaratish lozimdir.

Jahon amaliyotida erkin iqtisodiy hududlarni me’yoriy asoslarini shakllantirish va tashkil etish, ular joylashadigan hududlarga bo‘lgan talablar, ushbu hududlardagi mavjud sharoit bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Hozirgi davrda jahon miqyosida 200 ga yaqin mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar faoliyat yuritmoqda va ularning umumiy soni esa 4500 atrofida. Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu iqtisodiy hududlarda ishlayotgan ishchilarning umumiy soni 80 mln.dan ortiq bo‘lib, bu nihoyatda katta ko‘rsatkich hisoblanadi. Bugungi kunda Erkin iqtisodiy hududlarning jahon savdosidagi ulushi 40 foizni tashkil etadi.

§ 6.4. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarga jalb etiluvchi investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari va samaralari

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvory o‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” ma’ruzasida aynan, “...iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani, shuningdek, mamlakatimiz hududlarini rivojlantirish bo‘yicha qaysi eng muhim ko‘rsatkichlarni joriy yil birinchi choragi va birinchi yarim yilligida bajarish uchun nima qilish kerak?” ta’kidlab o‘tganlar[60]. Dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etish joizki, bugungi kunda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish hisobiga hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustuvor ta’minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Toshkent, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiat bilan bog‘liq ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulay imkoniyatlar mavjud. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo‘qon kabi jahon biladigan turistik shaharlar mavjud. Turizm sohasida deyarli barcha viloyat va tumanlarda imkoniyatlar mavjud, ammo yuqorida sanab o‘tilgan hududlarda absolyut va nisbiy ustunliklar ko‘proq sanaladi. Yana bir jiddiy farq hududlarda iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va insonlar uchun yashashi uchun zarur ne’matlar bilan ta’minlash imkoniyatlarida o‘z aksini topadi. Ana shunday murakkab holat sharoitida barcha viloyat va tumanlarni barqaror va jadal rivojlantirish, ular o‘rtasidagi tafovutlarni juda kattalashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik O‘zbekistonRespublikasi rahbariyatining jiddiy e’tibor berayotgan

[60] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. «Халқ сўзи» Г.// 16.01.2017 й.

masalalari qatoriga kiradi. Olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasiga ko‘ra hududlarning rivojlanishida, ularning iqtisodiyotining tarkibida jiddiy farqlar mavjud.

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi[61]. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularda mavjud salohiyatdan samarali va optimal foydalanish hisobidan hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustuvor ta’minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta’minlash dolzarb masalalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatning barcha viloyat va tumanlaridagi mavjud imkoniyatlarni chuqur o‘rganish, iqtisodiyotini ilmiy, amaliy tahlil etish asosida viloyat va tumanlarda,chekka qishloqlarda ham sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohalarini keng rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda. Bu jarayoning asosiy maqsadlaridan bir yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi. Mamlakatning barqaror rivojlanishi ta’minlab berayotgan hududiy iqtisodiyot tarmoqlari muhim hisoblanadi. Bu tarmoqlar mamlakat aholisining sanoat, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqatvaboshqa turdagi mahsulotlarigabo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda, qayta ishlash sanoati tarmoqlarini esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondirishda katta ahamiyatgaega. Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, mustaqillik yillarida mamlakatimiz poytaxti hisoblangan Toshkent shahri bevosita iqtisodiyotning barcha sohalarida ijobiy o‘sish tendensiyasiga erishib kelmoqda. Innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, ichki va tashqi bozorda talabgir yuqori texnologiyali, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yetakchi sanoat va kichik innovatsion korxonalar tashkil etish ularning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Bundan tashqari, ular zamonaviy xorij texnologiyalarini mahalliy ishlab chiqaruvchilarga joriy etish, ushbu maqsad uchun yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etishga

[61] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. «Халқ сўзи» Г.// 08.02.2017 й. №28 (6722).

qodir mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish bilan ham shug‘ullanadi[62].

Texnoparklar zimmasiga ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish uchun oliy ta’lim muassasalari, akademik fanlar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘zaro uzviy aloqani yo‘lga qo‘yish, ushbu maqsadda olimlar, yuqori malakali mutaxassislar, amaliyotchilar hamda talabalarni jalb etish vazifasi ham yuklatilgan. Texnopark qatnashchilari yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslarning mulk solig‘i, ijtimoiy infrastrukturani obodonlashtirish va rivojlantirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi hamda davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalardan ozod etiladi.

Innovatsion texnoparklar xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub’ektlari faoliyati rivojida ahamiyatli tomoni shundaki, aynan ushbu soha vakillari tomonidan yangi fikrlar tashabbusi natijasida innovatsion ishlanmalarni joriy etish orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilishda ustuvor ahamiyatga ega. 2016 yil 26 oktyabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bevosita hududlarda xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalarni bir xillashtirishga to‘rtki bo‘ldi[63].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi hududlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish**,** hududlarda aholining o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga erishishga, hududiy korxonalar faoliyatiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etishga, hududiy raqobatdosh va xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, hududlarda ishlab chiqarishni ixtisoslashuvini to‘g‘ri tashkil etish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishga, hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga, hududlardagi mavjud

[62] www.sputnik.uz - сайти маълумотлари. 2017 йил 17 январ.

[63] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини фаоллаштириш ва кенгайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Фармони. 26.10. 2016 йил. ПФ-4853-сон.

mineral-xomashyo resurslari imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va qazib olish hamda qayta ishlash borasida tejamkor texnologiyalarni joriy qilishga, hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish mexanizmini yanada takomillashtirish va ishlab chiqarishning to‘liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Offshor, erkin port, texnopolis, texnopark, tashqi savdo, moliyaviy markaz, erkin iqtisodiy hudud, erkin bojxona hududlari, erkin savdo hududlari, erkin ilmiy – texnik hududlar.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar:

1. Erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati

2. Erkin iqtisodiy hududlarni rivojlanish bosqichlari

3. Erkin iqtisodiy hududlarni investitsiyalarni jalb etishdagi mohiyati

4. Erkin iqtisodiy hududlarni turlari

5. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari

VII BOB. IQTISODIYOT VA UNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHDA XUSUSIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

§ 7.1. Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi mazmuni va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi ahamiyati
§ 7.2. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishi va shakllanishi
§ 7.3. Xususiy investitsiyalarning mazmuni va mulkiy asoslari.
§ 7.4. Xususiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishning xorij tajribalari
§ 7.5. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad va uning amalga oshirilishi natijalari

§ 7.1. Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi mazmuni va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi ahamiyati

Mamlakatni jahondagi o‘rnini real sektorning rivojlanish darajasi va raqobatdoshligi belgilaydi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo‘lish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur. Iqtisodiyotni real sektoriga turlicha ta’riflarni ko‘rib chiqamiz.

1. Iqtisodiyotning real sektori (IRS) (inglizcha – Real sektor of economy) – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma’lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan kichik, o‘rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

2. Iqtisodiyot real sektori – bu iqtisodiyotning yirik tarkibiy qismi bo‘lib, u turli ishlab chiqarish sohalarini iqtisodiy maqsadlar, funksiyalari orqali birlashtiradi va nazariy hamda amaliy jihatdan iqtisodiyotni boshqa qismlaridan farq qiladi.

3. Iqtisodiyotni real sektori kapitalni spekulyativ harakati istisno qilgan holda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish va iqtisodiy o‘sish jarayonlarini birlashtiradigan soha.

4. Iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotni material-buyum mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomaterial boylikni yaratuvchi va

xizmat ko‘rsatish sohalarini o‘z ichiga oladigan soha. Real sektorga moliya-kredit, birja faoliyati kirmaydi[64].

5. Iqtisodiyotni real sektori – bu iqtisodiyotni muhim sektori bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri mahsulot ishlab chiqarish, daromad olish va budjet daromadlari tushumini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish sohasi uning iqtisodiy atama sifatidagi sinonimlari hisoblanadi.

6. Iqtisodiyotni real sektori – kommersiyaga asoslangan seriyali va yirik miqdorda mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi, jumladan, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, transport xizmatini amalga oshiruvchi kichik, o‘rta va yirik korxonalar yig‘indisidir.

7. Iqtisodiyotning real sektori - iqtisodiyotning bevosita moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini oladi[65].

Iqtisodiyotda real sektorni samarali faoliyat yuritishida moliyaviy sektor muhim o‘rin egallaydi.

Moliyaviy sektor – bu qarz olish va uni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotni ijro qiladigan vositalar va institutlar to‘plamidir. Moliyaviy tizim mulk egaligini kapitaldan ajratish imkoniyatini beradi. Moliyaviy sektorga banklar, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari, moliyaviy investitsion kompaniyalar, lombardlar va boshqa moliyaviy institutlar kiritiladi. Real sektorda YaIM ni asosiy qismi yaratiladi. Butun real sektor iqtisodiyotining umumiy holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki mahsulot (SIM), milliy daromad (MD) kabilar hisoblanadi[66].

Bu ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi barcha xo‘jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi. Shu sababli, real sektordagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni milliy iqtisodiyot holatiga bog‘liq ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Bular mamlakatning iqtisodiy resurs salohiyatini,

---

[64] Комов А. Анализ системы кредитования реального сектора экономики России в 1 полугодии 2004 г. Русское Экономическое Общество. 2004. №141. С. 7-8.

[65] I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” va “Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010. 60-bet

[66] R.Xasanov, X.Asatullayev, A.Suvonqulov, X.Xakimov. Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”. 2013. 17-b.

yerosti va yerusti boyliklari zaxiralari hamda tabiiy resurslari hajmini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

2. Milliy iqtisodiyot faoliyat qilishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Bular bandlik, ishsizlik, inflatsiya, iste’mol, jamg‘arma va investitsiyalar darajasi, narxlar darajasi va uning o‘zgarishi, savdo aylanmasi, to‘lov balansi holati va boshqalar.

3. Milliy iqtisodiyot faoliyatining natijalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Ishlab chiqarishning yillik hajmi (YaIM va uning harakat shakllari).

4. Milliy iqtisodiyot natijalaridan foydalanish holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Bular YaIM da iste’mol va jamg‘arma nisbati, ish haqi va boshqa omilli daromadlar darajasi, YaIM da investitsiyalar ulushi va boshqalar.

Iqtisodiyotning real sektori – xom-ashyo, mehnat va kapitaldan ajralmagan holda xizmat ko‘rsatish, mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalardan iborat iqtisodiy sohadir. Iqtisodiyotda real sektorni samarali faoliyat yuritishida moliyaviy manba muhim o‘rin egallaydi. Iqtisodiyotning real sektori taraqqiyoti mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlash, boshqaruv mexanizmlarining yechimlarini tanlash kabi imkoniyatlarni beradi. Bu esa, istiqbolda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun joriy holatdagi iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish yo‘llarini belgilaydi.

Jahonda integratsiya va globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldiga bir qator yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Milliy iqtisodiyotning dunyo bozorida o‘z o‘rnini topishi, ya’ni ma’lum mavqeni egallashi uchun doimiy ravishda real korxonalarini texnik va texnologik jihatdan zamonaviylashtirib boorish lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida texnik va texnologik yangilanishni amalga oshirish kerak. Bunga, ishlab chiqarishda boshqaruvning yangi usullarini hamda fan va texnika yutuqlarini doimiy ravishda joriy etish orqaligina erishish mumkin. Mamlakatimizda ham o‘tgan yillarda fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini va ishlab chiqarish boshqaruvini yangi usullarini amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiyotning real sektori korxonalarining ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishiga va moliyaviy barqarorligini oshirishiga juda katta e’tibor berilmoqda. Zamonaviy informatsion texnologiyalar va nanotexnologiyalarning ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi mehnat resurslarining kasbiy malakasini oshirishni taqozo etish

barobarida, ularning sifati sohaning raqobatbardoshligini va keyingi yillarda yuksak natijalarga erishishiga zamin bo‘ladi.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning katta qismi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. O‘z navbatida, bu kabi yaratuvchanlik real sektorning YAIM tarkibida ham salmoqli o‘rin egallashini ta’minlamoqda. Shu o‘rinda, real sektorning taraqqiyoti yana qanday imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin, degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Mazkur sohaning rivojlanishi aholi daromadlarini oshishi, turmush farovonligini o‘sishi uchun imkoniyat, ta’lim, tibbiyot, madaniyat sohalari rivojida moliyaviy-moddiy asos beradi. Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi mamlakatda moddiy ishlab chiqarish sohalari uchun yaratilgan huquqiy-me’yoriy sharoit bilan uzviy bog‘liqdir. Ya’ni, mahalliy va xorijiy investitsion mablag‘larni real sektorga jalb etish uchun investorlarga huquqiy kafolat berilishi va uning ijrosini davlat tomonidan kafolatlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida 2008 yil 28 noyabrdagi “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PF-4058-sonli, 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4053-sonli Farmonlari asosida so‘nggi yillarda real sektor tarkibiga kiruvchi tarmoqlarda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi va islohotlar davom etmoqda. Mamlakatimizning jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi va raqobat afzalliklariga ega bo‘lishini ta’minlashda sanoat, agrosanoat majmuasi tarkibidagi sohalar hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish talab etiladi.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Buni mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlanayotganligida ham ko‘rish mumkin. Iqtisodiyotning yetakchi sohalarini xususan, real sektorni kreditlash jarayonlarining jadallashuvi bir qator istiqbolli imkoniyatlarni yaratib beradi.

Birinchidan, iqtisodiyotda pul massasining ortishi pirovardida ishlab chiqarish hajmining to‘g‘ri proporsional ravishda oshishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotdagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy resurslarga ehtiyojini qondiradi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi to‘lovlarni amalga oshirishni tezlashtiradi.

Uchinchidan, real sektorga ajratilgan bank kreditlari hajmining ortishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ortadi hamda ichki bozor qo‘shimcha mahsulotlarga to‘yinadi. Bundan tashqari import hajmining kamayishi va aksincha, eksportning rivoj topishiga yordam berishi mumkin.

To‘rtinchidan, kredit xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini boshlash, rivojlantirish, takomillashtirish hamda ishlab chiqarish hajmini oshishiga xizmat qiladi.

2020-2022 yillarda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Keyingi ikki yilda mamlakatimizda 37 ta korxona faoliyatida raqamlashtirish keng tatbiq etiladi, real sektor tarmoqlarini raqamlashtirishda quyidagi ustuvor uch yo‘nalish belgilangan:

- ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni avtomatlashtirish, moddiy-texnik resurslarni hisobga olish va boshqarish tizimlari (ERP);
- ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan axborot tizimlarni yagona axborot kompleksga jamlash bo‘yicha dasturiy mahsulotlar;
- mijozlar bilan munosabatlarni tartibga solish, mahsulotlarni elektron tizimlar orqali sotish, marketingni boshqarish tizimlari (CRM).

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha 2023 yilga qadar umumiy qiymati 5,2 trln. so‘mga teng jami 92 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan holatlar tahlili shundan dalolat beradiki, bank kreditlari iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Bu moliyaviy manbalar mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi, mehnat unumdorligining oshishi, aholining ish bilan bandligini ortishi va biznes ko‘lamining kengayishga xizmat qilishi mumkin. Mamlakatimizda real sektorning yanada taraqqiy topishi uchun tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash ko‘lamining oshirilishi va milliy ishlab chiqaruvchilarning mavjud ichki va tashqi imkoniyatlardan samarali foydalanganlari holda o‘z faoliyatlarini maqsadli va oqilona tashkil etishni talab qiladi.

§ 7.2. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishi va shakllanishi

Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining asosini tashkil etadi. Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarida iqtisodiy vaziyatni aniq tasavvur qilish, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini hisobga olish muhim iqtisodiyijtimoiy ahamiyatga ega.

Real sektor iqtisodiyoti tarkibi – bu milliy iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar ko‘rsatuvchi turli tarmoq va sohalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro aloqada va bog‘liqlikda iqtisodiy faoliyatda bo‘ladilar. Real sektor iqtisodiyoti ichki va tashqi bozorga ne’matlar ishlab chiqaruvchi, zamon va bozor talabidagi o‘zgarishlarga nisbatan moslanuvchan iqtisodiy subyektlar faoliyati yig‘indisidan iboratdir. Iqtisodiyotni real sektoriga mahsulot ishlab chiqarish bilan, nomoddiy boylik yaratish va xizmat ko‘rsatish sohalari ham kiritiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab real sektor infratuzilmasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti moddiy ishlab chiqarish sohalari va bozor xizmat ko‘rsatish sohalaridan tarkib topadi. Iqtisodiyotning real sektoriga quyidagi moddiy va nomoddiy boyliklar yaratish hamda xizmatlar ko‘rsatish sohalari kiradi:

- sanoat;
- qishloq xo‘jaligi;
- qurilish; - transport va aloqa;
- boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi va iqtisodiyotning barcha sohalariga sezilarli ta’sir qiladi. Xizmatlar sohasi – bu bir tomondan aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarining assortimenti bo‘lsa, ikkinchi tomondan tashkilotlar va yakka ijrochilar majmuasi bo‘lib, ular xizmat ko‘rsatish faoliyati doirasida iste’molchilarga moddiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarni ko‘rsatishadi. Xizmatlar sohasi tarkibida yetakchi o‘rinlarni transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, savdo xizmatlari, mehmonxona va turistik-ekskursiya xizmatlari egallaydi. Bulardan tashqari xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibiga kommunal xizmatlar, maishiy xizmatlar, avtomobillarni ta’mirlash xizmatlari, tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlar ham kiradi. Shuningdek xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibida bank, moliya va sug‘urta xizmatlari ham salmoqli o‘rin egallaydi, lekin ular iqtisodiyotning moliyaviy sektoriga taalluqlidir.

Makroiqtisodiyotning real sektorida turli tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish yuz bersa, moliyaviy sektorda iqtisodiy sub'ektlarning talab va taklifni shakllantiruvchi pulga oid o‘zaro munosabatlari amalga oshiriladi. Moddiy tovar ta'minoti hamda bozor sub'ektlarining bozor tizimi rivojlanishi uchun sharoitlar yaratuvchi iqtisodiy o‘zaro munosabatlari yig‘indisini o‘z ichiga oluvchi tizim real sektor infratuzilmasi deb nomlanadi. Uning tarkibiga, birinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi moddiy mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va kompaniyalar birlashtiriladi. Bunga sanoat, transport, savdo, telekommunikatsiya, marketing kampaniyalari kiradi. Ikkinchidan, noishlab chiqarish infratuzilmasi – moddiy mahsulot ishlab chiqarmaydigan va haridor bilan sotuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir ko‘rsatmaydigan tashkilotlardan iborat. Ular o‘z ichiga tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ta'sir ko‘rsatuvchi yangi g‘oyalar, asbob-uskunalar, texnologiyalarning rivojlanishiga yordam beruvchi ilmiy tashkilotlar va kompaniyalar, qonunlar va normativ hujjatlarni qabul qilish yordamida o‘zaro munosabatlarning shakllanishini tartibga soluvchi davlat tuzilmalari, turli xizmatlar ko‘rsatuvchi, tovarlarga bo‘lgan talabni yuzaga keltiruvchi va haridor bilan sotuvchining aloqalarini o‘rnatuvchi ijtimoiy tashkilotlar (sog‘liqni saqlash, madaniyat, ta'lim)ni qamrab olgan.

Real sektorning tarmoq infratuzilmasi o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ko‘pincha o‘zaro kesishadi va bir-birini almashtiradi. Real sektor tarmoqlariga elektroenergetika, oziq-ovqat sanoati, neft va gaz sanoati, qurilish materiallari sanoati va qurilish sohasi, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, kimyo sanoati, neft-kimyo sanoati, agrar sanoat majmuasi, ko‘mir sanoati, yog‘och sanoati, yuk tashish va ishlab chiqarish aloqasi, yo‘lovchi tashish va noishlab chiqarish aloqasi, mashinasozlik va metallga ishlov berish, sog‘liqni saqlash, madaniyat, san'at, ta'lim, turizm, uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish, yengil sanoat, boshqa sanoat tarmoqlari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlari kiradi.

Ular yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, sof iqtisodiy farovonlik, ya'ni aholi turmushining sifatini namoyish etuvchi, atrof muhitning holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, milliy boylik – avvalgi va hozirgi avlod mehnati bilan ishlab chiqarilgan (ijtimoiy boylik) va

resurslarni takror ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilgan (tabiiy boylik), muayyan vaqt mobaynida umumiy foydalaniladigan moddiy va nomoddiy ne’matlarning umumiy hajmidan iborat.

Iqtisodiyotning real sektorini tartibga solish sohasida davlat sanoat va tarkibiy o‘zgartirishlar siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tarkibiy o‘zgartirishlar siyosati davlatning iqtisodiyotni o‘zgarib turuvchi bozor sharoitlariga moslashtirishda ishtirok etishi jarayonini o‘zida namoyon etadi. Davlatning vazifasi iqtisodiyotning muayyan tarkibiy qismlari (tarmoqlar va sektorlar, korxonalar, faoliyat yo‘nalishlari, iqtisodiy hududlar)ni qo‘llab-quvvatlash va yuzaga keladigan harajatlarni bartaraf etishdan iborat. Umumiy tarzda aytganda, iqtisodiyotimizning real sektori – bu iqtisodiyotning asosiy moddiy ne’matlar yaratuvchi qismidir. Mazkur sektorning barqaror o‘sish tendensiyalari, raqobatbardoshligining ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligi va real sektor manfaatlarining moliyaviy sektor manfaatlari bilan muvofiqligi iqtisodiy rivojlanishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Real sektordagi korxonalarni rivojlantirish hamda ular o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini o‘sishida real sektor korxonalarining o‘ziga xos o‘ringa egaligi, ularning raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bo‘lgan intilishlarini yanada oshirdi. Bunda esa bevosita real sektor korxonalarini tubdan qayta tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish asosida real sektor korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bo‘lgan mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishni yuklab qo‘ydi. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (keyingi o‘rinlarda - YaIM) hajmi joriy narxlarda 580 203,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2019 yil bilan taqqoslaganda 1,6 % ga o‘sdi. YaIM deflyator indeksi 2019 yil narxlariga nisbatan 111,9 % ni tashkil etdi.

2020 yilda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi joriy narxlarda 16 949,1 ming so‘mni (yoki 1 685,5 AQSh dollari ekvivalentida) tashkil etdi va 2019 yil bilan taqqoslaganda 0,3 % ga kamaydi. 2020 yil yakuni bo‘yicha, YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 341 467,5 mlrd. so‘m, xizmatlar ko‘rsatish sohasida – 194 363,5 mlrd. so‘m miqdorida yalpi qo‘shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 44 372,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Joriy

davrda o‘rtacha almashuv kursi bo‘yicha hisoblangan nominal YaIM hajmi 57 698,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (2019 yilda – 57 711,9 mln. AQSh doll.). 2020 yilda YaIM o‘sishi 2019 yildagi 5,8 % va 2018 yildagi 5,4 % ga nisbatan 1,6 % gacha sekinlashdi. Shu bilan bir vaqtda, YaIM deflyator indeksida ham 2019 yildagi 118,6 % va 2018 yildagi 127,5 % ga nisbatan 2020 yilda 111,9 % gacha sekinlashish kuzatildi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 92,4 % ini tashkil etdi va 1,7 % ga o‘sdi (YaIM mutlaq o‘sishiga ta’siri 1,5 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 7,6 % ni tashkil etdi va 1,4 % ga o‘sdi (YaIM mutlaq o‘sishiga ta’siri - 0,1 f.p.) (7.1 - jadval).

7.1 - jadval

2018-2020 yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaIMni ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichkichlar	2018 yil		2019 йил		2020 йил	
	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, %da	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, %da	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, %da
YAIM Shu jumladan:	406 648,5	105,4	510 117,2	105,8	580 203,2	101,6
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	361 072,7	105,4	464 854,5	105,9	535 831,0	101,7
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	113 660,7	100,3	130 306,9	103,1	151 251,0	103,0
Sanoat	95 803,9	110,8	136 103,2	105,0	152 728,0	100,7
Qurilish	22 101,1	114,3	30 595,4	122,9	37 488,5	109,2
Xizmatlar	129 507,0	105,5	167 849,0	106,3	194 363,5	100,1
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	26 747,9	105,4	32 501,7	107,2	37 194,4	100,1
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	30 616,0	106,9	36 630,4	106,6	38 531,5	97,8
Boshqa xizmat tarmoqlari	72 143,1	104,8	98 716,9	105,8	118 637,6	101,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	45 575,8	105,9	45 262,7	104,7	44 372,2	101,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Darhaqiqat, real sektor korxonalari mamlakatda oziq-ovqat, yengil va og‘ir sanoat, metallurgiya sanoati, avtomobilsozlik sanoati, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, agrosanoat, elektr-energiya sanoati, to‘qimachilik sanoati, neft va gaz sanoati va boshqa sanoat tarmoqlarini qamrab olgan holda o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda. Shu jihatdan, “real sektor” tushunchasiga nazariy jihatdan ta’rif beradigan bo‘lsak, ***real sektor*** – haqiqatda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlari va unga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarni o‘z ichiga qamrab olgan tarmoq va sohalardir.

Yirik korxonalarda ishlab chiqiladigan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish, ya’ni, texnologik jarayonlarni hamda xom ashyo va materiallarni sarflash normalarini ratsionlashtirish, shuningdek, yo‘qotishlar va behuda harajatlarni bartaraf etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining o‘rtacha 10,1 foizga kamayishiga erishildi va umuman real sektorda sanoat korxonalari bo‘yicha mehnat unumdorligining 6,5 foizga oshganligi ta’minlandi.

Real sektorda muhim yuqori texnologik va zamonaviy ob’ektlar hamda quvvatlar ishga tushirildi. 2019 yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 29885,1 mlrd. so‘mlik, (dollar ekvivalentida 3,6 mlrd.AQSH doll.) yoki 2018 yilga nisbatan 129,9 foizga asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. YAIM ga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar – 32,8 foizni tashkil etib, 2018 yilning mos davridagi ko‘rsatkichiga nisbatan 4,4 foiz punktga o‘sish. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun kommersiya banklari tomonidan 2,1 trln. so‘mdan ko‘p bo‘lgan hajmda kredit berildi, tashabbuskorlarning 4,4 trln. so‘mlik xususiy vositalari investitsiya qilindi hamda xorijiy investorlarning 346,2 ming dollarlik vositalari o‘zlashtirildi. Qurilish materiallari sanoati (1,8 ming loyiha), oziq-ovqat sanoati (1,7 ming loyiha), yengil va to‘qimachilik sanoati (1,3 ming loyiha) va boshqalar bo‘yicha loyihalar amalga oshirildi.

Ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, real sektor tarmoqlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sishida hamda aholining turli ehtiyojlarini ta’minlashda asosiy o‘rinlardan biri sifatida e’tirof etish mumkin.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish – bu milliy manfaatlarni ta’minlovchi, iqtisodiy o‘sishga yo‘l beruvchi va nihoyat, aholi farovonligini muttasil oshib borishini ta’minlovchi yangicha

ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishdir. Chunki tarkibiy tuzilishda chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishini va aholi farovonligini ta’minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishning eng asosiy shartlaridan biridir. Tarkibiy o‘zgartirishlar uzluksiz yuz beradi, ularni rag‘batlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Hozirgi davr yangi texnologiya asri sifatida yangi tarkibiy o‘zgartirishlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash islohotlarni chuqurlashtirishning muhim jihati deb baholash zarur. Iqtisodiyot real sektori tarkibini o‘zgartirish butun milliy iqtisodiyotga xizmat qiladi va texnik taraqqiyotni ta’minlaydi. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibini o‘zgartirish davlatning ko‘magida rivoj topadi. Chunki, bu tarmoqlarni yirik sarmoyalar hisobidangina rivojlantirish mumkin. Shuning uchun yirik tarmoqlarga investitsiyalarni davlat yo‘naltiradi va shu boisdan tarmoqlar boshqalarga nisbatan jadal o‘sib boradi. Muhim tomoni shundaki, iqtisodiyot tarkibini o‘zgartirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy shartidir.

Iqtisodiyot real sektori tarkibini o‘zgartirish boshqa sohalarning ham o‘sishiga olib keladi. Masalan, neft mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi neft-gaz sohasining rivojlanishi bilan birgalikda, kimyo sanoati tarmoqlarining ham rivojlanishiga zamin yaratiladi. Bu nafaqat energiya manbalarini eksport qilish imkonini beradi, balki turli kimyoviy xomashyo moddalari va tayyor mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishga imkon yaratadi. Iqtisodiyot real sektori tarkibini o‘zgartirish mamlakat eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Tarmoqlar rivojida yangi davr boshlanadiki, bu soha korxonalari ham bozor mexanizmi asosida rivojlanadi, o‘z-o‘zini moliyalashtirish qoidasi amal qiladi, chunki iqtisodiyotni erkinlashtirish yo‘liga aytilgan tarmoqlar ham tortiladi.

Real sektordagi iqtisodiy vaziyatni baholash integrallashgan hisobkitoblar asosida quyidagi 3 ta yo‘nalishni qamrab oladi:

1) Rivojlanish istiqbollari;

2) Faoliyat samaradorligi;

3) Investitsion xatarlar.

Real sektor rivojiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, pul-kredit tizimi holati, soliq-budjet tizimi, davlatning investitsion siyosati, mamlakatning to‘lov qobiliyati holati ta’sir qiladi. Real sektor rivojini, natijada iqtisodiy

o‘sishni moddiy ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilashga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri kapital qo‘yilmalar miqdori hamda innovatsiyalar ta’minlaydi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida real sektorga mamlakatning moliyaviy sektori holati ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, foiz stavkalari darajasi, fond birjalari, sug‘urta tizimi va boshqalar.

§7.3. Xususiy investitsiyalarning mazmuni va mulkiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘p mulkchilikni amal qilishi investitsiya quyilmalarini tashkil etishdagi rolini tubdan o‘zgartirdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati qisqa muddat ichida nafaqat yetakchi tarmoqlarni texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotda energiya samaradorligini ta’minlash, uning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish, balki eksport salohiyatini yuksaltirish imkonini berdi. Xususan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlari so‘nggi o‘n bir yil davomida 8 foizdan ortiq darajada saqlanib qolayotganligi, sanoat hamda xizmat ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanishi va xalqimiz farovonligining yanada yuksalib borishiga zamin yaratmoqda. Xususan tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, bu sohaga to‘liq erkinlik berish, eng muhim ustuvor vazifa ekanini ta’kidladilar. Xususan, barqaror iqtisodiy o‘sish va mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli, aholining hayot darajasi va sifati ko‘p jihatdan aynan mana shu vazifaning qanday hal etilishiga bog‘liqligi, buning uchun amaldagi huquqiy bazani xususiy mulk manfaatlariga moslashtirish, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirish, xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishni eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab berdilar. Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalashda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga ayniqsa, sanoat tarmoqlarida qo‘llaniladigan zamonaviy laboratoriya jihozlari, oziq-ovqat sanoati sohasida foydalaniladigan zamonaviy texnologik liniyalarni ishlab chiqarish va bunday mahsulotlarni yetkazib berishda investitsiyalarni roli tobora oshib bormoqda.

Xususiy investitsiyalar – xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi. Shu bois xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, xususiylashtirish

jarayonlarini chuqurlashtirish, korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushi va aktivlarini xususiy investorlarga, birinchi navbatda, xorijiy investorlarga sotish hisobidan respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning darajasi va rolini tubdan oshirish maqsadida Prezidentimizning “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2340-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror bilan, davlat mulki bo‘lgan bo‘sh turgan va qurilishi tugallanmagan obektlarni tahlil qilib, ularni investitsiya kiritish va yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan «nol» qiymatda xorijiy investorlarga sotish, ushbu xorijiy investorlarni soliqqa tortish sohasida imtiyoz va preferensiyalar berildi. Jumladan, qaror bilan davlat aktivlariga ikki oy mobaynida talabnoma tushmagan taqdirda, ularning narxini har 15 kunda 10 foizga pasaytirish, obektlar narxi 50 foizgacha pasaytirilgandan so‘ng bir oy mobaynida sotilmasa, ular investitsiya va yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan «nol» qiymatda sotish;

- davlat aktivlari sotilgandan so‘ng 1 oy ichida investor to‘lovni to‘liq to‘lagan taqdirda, unga harid summasidan Markaziy bankning qayta moliyalash yillik stavkasi miqdorida chegirma berish;

- davlat obektlarini qismlarga bo‘lib sotish hamda to‘lovlarni 24 oygacha bo‘lgan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash,

- davlat ob’ektidan ijara asosida foydalanib turgan ijarachilar ijara ob’ekti sotilishida ustunlik berish;

- xo‘jalik boshqaruvi organlarining ustav kapitaliga berilgan davlat ulushlarini sotishdan tushgan mablag‘lar byudjetga emas, balki korxonalarning o‘zini modernizatsiyalashga yo‘naltirish;

- xususiylashtirilgan korxonalarda xususiylashtirish vaqtida aniqlanmagan davlat aktivlari yoki foydalanishga berilgan korxona hududidagi ko‘char va ko‘chmas mulk sotilgandan keyin aniqlansa, u mazkur korxonaning mulki hisoblanishi aniq belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo‘lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta’minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida, 2015 yil 24 aprelda “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingan edi. Mazkur Farmon bilan:

- aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lashdan;

- xorijiy mutaxassislarning boshqaruv xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad solig‘i, to‘lov manbaidan olinadigan daromad solig‘i, shuningdek fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy sug‘urta badallaridan ozod etilgan.

Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o‘rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida:

1. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida quyidagilar belgilab qo‘yilgan:

- tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to‘sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish;

- xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma’muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonini davom ettirish;

- barcha turdagi ro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirish;

- xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilash.

Dasturga kiritilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlik mas’ul ijrochilar — tegishli vazirliklar, idoralar, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar rahbarlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan.

2. 2015 yilning 1 iyulidan shunday tartib o‘rnatilgan:

- mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari

tomonidan to‘rt yilda bir martadan, boshqa xo‘jalik sub’ektlarida esa faqat O‘zbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga asosan uch yilda bir martadan ko‘p bo‘lmagan tartibda amalga oshiriladi;

- moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan rejali tekshiruvlar o‘tkazish muddati 10 kalendar kunidan oshmaydi;

- tadbirkorlik sub’ektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat so‘nggi rejali tekshiruvdan keyingi davrni qamrab oladi;

- qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar munosabati bilan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt jalb etgan advokatlar albatta ishtirok etgan holda (xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan ushbu huquqning rad etilish holatlari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

Moliyaviy aktivlarga nisbatan real biznesga investitsiyalarning asosiy xususiyati iqtisodiyotning real sektori bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikdir. Qimmatli qog‘ozlardagi chayqovchilik faqat ishlab chiqarish jarayonining o‘zi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, real investitsiyalarning har bir tinasi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga bevosita ta'sir qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, moliyaviy investor umuman aktsiyalarini sotib olgan kompaniyaning qanday ishlashini umuman tushunmasligi mumkin. Unga faqat korxonaning umumiy moliyaviy natijalari, shuningdek u faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiyotning holati va istiqbollari bog‘liqdir. Haqiqiy investor uchun ishlab chiqarish do‘konlarining hududiy lokalizatsiyasiga va ishchilarning o‘rtacha yoshiga qadar barcha jihatlar muhimdir.

Shuningdek, investor buni hisobga olishi kerak real aktivlarga investitsiyalar juda past likvidlikka ega**.** Ularni moliyaviy resurslarga aylantirish juda qiyin (va ko‘pincha umuman imkonsiz), bu ularni spekulyativ tarzda tasarruf etish imkoniyatini deyarli istisno qiladi. Shu sababli, real investitsiyalar doimo uzoq muddatga amalga oshiriladi. Makroiqtisodiy nuqtai nazardan real investitsiyalar real iqtisodiy o‘sishning yagona manbai hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlardagi chayqalishlar muayyan shaxslarni boyitishi mumkin, ammo faqat iqtisodiyotning real sektoriga - binolarni qurish, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalar mamlakatda ishlab chiqarishning umumiy o‘sishini ta'minlaydi.

§ 7.4. Xususiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishning xorij tajribalari

Mamlakatimizga ichki va tashqi manbalar hisobidan investitsiyalarni jalb etish hisobiga iqtisodiyotni modernizatsiyalash jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishda rivojlangan sanoatlashgan mamlakatlar tajribalariga tayangan holda investitsiya siyosatini amalga oshirishda quyidagi uch prioritetli yo‘nalishga alohida e'tibor berilmoqda:

- import o‘rnini bosish strategiyasini rivojlantirish;
- tayanch tarmoqlar va eksport salohiyatining mustahkamlash;
- ilmtalab sohalar va innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish.

Investitsiyalarni jalb etishda e'tiborli jihat Koreya Respublikasining investitsiya strategiyasida namoyon bo‘ladi. Ushbu mamlakat xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishda shunday siyosat olib borganki, bunda Janubiy Koreyaga boshqa rivojlangan mamlakatlardan, xususan AQSH va Yaponiyadan investitsiyalar jalb qilishda ulardagi samarali menejment uslublari va ishlab chiqarish texnologiyasini o‘ziga tatbiq qilishga intilgan. Malayziyaning investitsiya siyosatida esa ustuvor jihat investitsiyalarni qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirish bo‘lib hisoblanadi[67]. Ushbu mamlakatda investitsiyalarni ilmtalab va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish sohalariga, jumladan, nanotexnologiyalar, yuqori malakali xizmatlar kabi sohalarga yo‘naltirilmoqda. Xususiy sektorning o‘zida investitsiyalarning yillik o‘rtacha o‘sishi 11-12 foizni tashkil etmokda. Ularning umumiy investitsiyalar hajmidagi salmog‘i 50 foizdan ortiq bo‘lib, so‘nggi besh yil mobaynida xususiy investitsiyalarning umumiy miqdori 95 milliard AQSH dollaridan oshib ketgan. Malayziyada sanoatni rivojlantirishning bosh rejasiga asosan investitsiyalar sohasida quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish va ilg‘or texnologik tarmoqlarni rivojlantirish;
- sanoatning ustuvor tarmoqlari rivojlanishiga ko‘maklashishб sanoatga ilg‘or texnologiyalarni, jumladan, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, simsiz uzatish texnologiyalari, mikroelektromexanik tizimlari, lazer texnologiyalarini tatbiq etishni yanada kengaytirish;

[67] http://www.ved.gov.ru/articles sayti ma'lumotlari asosida

- sanoatning o‘sishida mehnat unumdorligi omilining rolini oshirish, milliy sanoatning xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;

- ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini yanada rivojlantirish va ularni sanoatga tatbiq etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy salohiyat va raqobatdoshlikni mustahkamlash maqsadida strategik hamkorlik va markazlashuvni rag‘batlantirish.

Shu bilan birga, Malayziyada investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida turli soliq imtiyozlari joriy qilingan bo‘lib, bunda investitsiya natijasida olingan foydaning faqat 30 foizi dastlabki 5 yil davomida soliqqa tortiladi. Ayniqsa, hududlarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida nisbatan yaxshi rivojlanmagan shtatlarda faoliyat ko‘rsatuvchi investorlar foyda solig‘idan dastlabki 5 yil davomida to‘liq ozod qilinadi. Yaponiyada ham investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishi yuksak texnologiyalarga asoslangan va resurs tejovchi ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Umuman olganda, Yaponiyaning rivojlanishi aynan ilmtalab sohalarning rivojlantirilishi hamda samarali ishlab chiqarish texnikalarining tatbiq etilishiga tayanadi. Yaponiyaning dastlabki rivojlanish davri tajribasi shuni ko‘rsatdiki, nafaqat yangilik yaratish uchun kapital zarur, balki kapitaldan foydalanish uchun ham yangilik zarur bo‘ladi. Ushbu ikkala yo‘nalish bir-biri bilan uzviy bog‘liq va o‘zaro bir-birini to‘ldirib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar investitsiya faoliyatida boy tajriba to‘plangan bo‘lib, undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish investitsiyalash amaliyotini takomillashtirish va investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu borada bir qator rivojlangan mamlakatlarda investitsiya me’yorining nisbatan yuqori va barqaror darajasiga erishilmoqda. Yuqorida keltirilgan ayrim chet el mamlakatlaridagi investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari mamlakatimizga tatbiq qilish muayyan ijobiy natijalarni bermasdan qolmaydi. Ayniqsa, Koreya Respublikasi investitsiya siyosatining tajribasi o‘zining ahamiyatliligi bilan ajralib turadi. Bu borada mamlakatimizda ham investitsiya siyosatining muhim ustuvorliklaridan biri aynan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda uzoq muddatli loyihalar asosida ilg‘or texnika va texnologiyalar kiritishga qaratilgan. Zero, Birinchi Prezidentimiz alohida ta’kidlab o‘tganidek, «O‘zbekiston o‘zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan

voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo‘yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda»[68].

Shu bilan birga, investitsiyalardan samarali foydalanishda bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan tanishganda, investitsiyalar asosan ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, resurs tejovchi va ekologik talofati kam bo‘lgan, mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi sohalarga yo‘naltirilayotganining guvohi bo‘lamiz. Iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarining investitsion faolligi yalpi talabning, kelajakda esa, milliy ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasining indikatori hisoblanadi. Biroq, investitsion jarayonlarni jadallashtirish uchun iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarida iqtisodiy vaziyatni aniq tasavvur qila olish kerak. Investorlar, har doim, investitsiya qilinayotgan ob’ektning salohiyatini va uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini hisobga oladilar. Iqtisodiyot sektorlarining investitsion jozibadorligi ko‘plab omillarga bog‘liq va u alohida xususiyatga ega. Iqtisodiyot sektorida yuzaga kelgan vaziyatni baholash birinchi galda xal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarni, nomutanosibliklarni aniqlaydi. Muammoli nuqtalarga o‘z vaqtida e’tiborning jalb qilinishi xorijiy investorlar uchun ob’ektlar jozibadorligini oshirishga yordam beradi.

Amaliyotda investorlarning maqsadi, vazifalari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu mamlakatda muammolarning ahamiyati nuqtai nazaridan iqtisodiyot sub’ektlaridagi investitsion vaziyatni baholash bo‘yicha bir qancha uslubiy yondashuvlar mavjud. MDH, jumladan Rossiya, Ukraina kabi mamlakatlarda bu sohadagi ishlar Hukumat topshirig‘iga ko‘ra Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, TACIS, USAID, British & American Tobacco, Ernst & Young kabi ko‘plab xorijiy tashkilotlar, xalqaro auditorlik kompaniyalarining ekspertlarini jalb qilgan holda amalga oshirilgan. Iqtisodiyotning real sektoridagi vaziyatni taqqoslama hisob-kitoblar yordamida tahlil qilish uchun turli tahliliy hisoblash va algoritmik matematik usullardan foydalanilgan. Mazkur hisob-kitoblar uchun xorijiy tajribalar natijasida ishlab chiqilgan uch omilli modeldan, investitsion jozibadorlik muammolari bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab xorijiy va mahalliy auditorlik, konsalting firmalarining yuqori malakali mutahassislari takliflaridan foydalanildi. Real sektordagi iqtisodiy

[68] Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari"//T.:O‘zbekiston, 2009, 9-bet.

vaziyatni investitsion jozibadorlik darajasi bo‘yicha baholash integrallashgan hisob-kitoblar asosida quyidagi ko‘rinishda o‘z ifodasini topgan:

1 - rivojlanish istiqbollari,

2 - faoliyat samaradorligi

3 - investitsion hatarlar. Mazkur elementlarning har biri alohida indikatorlarni guruhlash yordamida tartibga solingan yahlit ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettiradi.

1. ***Rivojlanish istiqbollari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baxolanadi:***

- sektorning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Ushbu ko‘rsatkich asosini mamlakatda amalga oshirilayotgan tarkibiy siyosatni hisobga olgan holda sektorning YAIMdagi joriy va kelajakdagi ulushi va asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining respublika bo‘yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining jami balans qiymatidagi ulushi tashkil etadi;

- sektorning iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga chidamlimligi. Mazkur ko‘rsatkich darajasi tarmoq ishlab chiqarish hajmining YAIMdagi o‘sish sur’atlari dinamikasi, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar dinamikasi asosida aniqlanadi;

- sektorning ijtimoiy ahamiyati. Mamlakatdagi jami ish bilan band bo‘lgan aholiga nisbatan tarmoqda band bo‘lganlarning ulushi, tarmoqdagi o‘rtacha yillik ish xaqining mamlakat bo‘yicha o‘rtacha yillik ish haqiga nisbati olinadi;

- sektor rivojlanishining moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi. Tahlillar uchun shaxsiy va banklarning moliyaviy resurslari hisobiga amalga oshiriladigan kapital qo‘yilmalarning salmog‘i, sektorga kapital qo‘yilmalarning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘yilayotgan kapital qo‘yilmalarga nisbatan korrelyatsion dinamikasi ko‘rsatkichlari olinadi;

- iqtisodiyot sektorining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasi. Mazkur ko‘rsatkichni miqdoriy baholash uchun davlatning tarmoqqa kiritayotgan kapital qo‘yilmalar miqdorining yalpi kapital qo‘yilmalardagi ulushi olinadi.

2. ***Rentabellik darajasi quyidagi koeffitsiyentlar yordamida aniqlanadi:***

- sektor aktivlarining rentabelligi – aktivlardan keladigan foyda darajasi haqida ma’lumot beradi;

- mahsulotlarni sotish rentabelligi – foydaning sotilgan mahsulotlar hajmiga nisbatan mosligini va uning iqtisodiyot sektoridagi tannarhini ko‘rsatadi;

- joriy harajatlar rentabelligi – mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ketgan harajatlar nuqtai nazaridan mazkur mahsulotga belgilanadigan eng maqbul narx haqida ma’lumot beradi;

- sektorga ajratilayotgan kapital qo‘yilmalarning rentabelligi

- qo‘shilgan qiymatning o‘sishi va bir yil oldingi kapital qo‘yilmalarning bir biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

3. ***Investitsion hatarlar darajasi quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:***

- to‘lovga qobillik darajasi – Kuk koeffitsiyenti asosida baholanadi, bu koeffitsiyent bank kreditlari qay darajada shaxsiy mablag‘lar hisobiga qoplanishini ko‘rsatib beradi;

- ijtimoiy mavqei darajasi – sektordagi ish haqining mamlakatdagi yashash minimumiga nisbatan muvofiqligi tushuniladi;

- xususiy kapitallar rentabelligining o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichining variatsion koeffitsiyenti – moliyaviy (investitsion) hatar darajasi dinamikasining an’anaviy o‘lchov darajasi hisoblanadi.

Iqtisodiy holat elementlari ko‘rsatkichlari o‘lchovi turli miqdor va kenglikka ega bo‘lgani hamda olinadigan natijalarni yagona masshtabga keltirish uchun ko‘rsatkichlarni darajalash uslubiyotidan foydalanilgan. Mazkur uslubiyot investitsion jozibadorlikni baholashning har bir ko‘rsatkichi bo‘yicha [0,1] intervalda teng taqsimlashga asoslangan. Baholash ko‘rsatkichining eng past darajasiga 0, eng katta darajasiga 1 beriladi. Shunday qilib, qolgan ko‘rsatkichlar interval ichida, ya’ni o‘z darajasiga mos ravishda 0 va 1 orasida taqsimlanadi.

Integral ko‘rsatkichlar sifatida investitsion jozibadorlikni baholash elementini o‘rtacha darajasidagi ko‘rsatkichlari qabul qilinadi. Shuning uchun ham, investitsion jozibadorlikni baholash elementlari darajasini ko‘rsatkichlarining qiymatlari turli omillar tizimini majmuaviy baxolash imkonini beradi.

Iqtisodiyot sektorlarining investitsion jozibadorligini baholash unsurlari har xil ma’lumotlar berganligi uchun investitsion qarorlar qabul qilishda turli xil rol o‘ynaydi. Shu sababli asosiy elementlarning ahamiyati ekspert yo‘li bilan ya’ni, baholashni tasniflovchi xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Real sektor

tarmoqlarining investitsion jozibadorligini baholash uchun asosiy elementlarning quyidagi koeffitsiyent ko‘rsatkichlari tavsiya etiladi:

- tarmoq rivojlanishi istiqbolining darajasi – 0,2;
- iqtisodiyot sektorining rentabellik darajasi – 0,65;
- tarmoqdagi investitsion xatarlar darajasi – 0,15. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, investitsion jozibadorlikni baholash ko‘rsatkichlari agarda summada o‘lchanayotgan bo‘lsa 1,0 yoki foizda 100 foiz tashkil etishi lozim.

§ 7.5. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad va uning amalga oshirilishi natijalari

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta’minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o‘rin tutmoqda. Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlari va iste’molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror sharoitda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantirmoqda. Milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda dolzarb masala hisoblangan aholini ish bilan ta’minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o‘rin tutmoqda. Kichik biznesning ixchamligi, bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlari va iste’molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi, iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror sharoitda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantirmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘zining iqtisodiyotimizdagi o‘ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta’siri boshqa hech bir soha va yo‘nalish o‘rnini bosa olmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi[69]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta’minlash orqali mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan o‘rta sinfning shakllanishiga va uning

[69] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiètimiz-ning muhim omilidir‖. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi ma’ruzasidan. Xalq so‘zi, 2010 yil 8 dekabr.

tobora mustahkam bo‘lib borishiga erishilmoqda. Shunday ekan, endilikda kichik biznesni nafaqat son jihatdan ko‘paytirish, balki uni avvalo sifat jihatdan ham rivojlantirishimiz, bu borada oddiy ishlab chiqarishdan ichki va tashqi bozorga yo‘naltirilgan murakkab, yuksak texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tish masalasiga alohida e’tibor qaratishimiz darkor. Yurtimizda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining innovatsion rivojlanish yo‘llarini ishlab chiqish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro foydali aloqalarni mustahkamlashga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga oshib bormoqda. Shunday ekan, bunday sharoitda, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta’minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan koorperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta’minlab bo‘lmaydi;

- bozor uchun zarur bo‘lgan raqobatchilik muhitini yaratadi, hamda o‘zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o‘zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xususiyatlari (muomala kapitalining kichikligi, uning tez aylanuvchanligi, ishlab chiqarish vositalarini tezda almashtirish imkoniyatlari va b.q.) uning bir qancha afzalliklarga ega bo‘lishi imkoniyatlarini yaratadi:

- izlanish, yangi mahsulotlarni maromiga etkazish va o‘zlashtirish, ularni talabning tez o‘zgarib turish xatarini hisobga olgan holda kichik uyushmalarda ishlab chiqarish;

- tezkor texnik servisning ishonchligi va iste’molchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish;

- ishlab chiqarishni moslashuvchan tarzda tashkil etish va mahsulot sotishni bozor talablariga, hamda bozor vaziyatlari o‘zgarishlariga muvofiq olib borish;

- ortiqcha ish kuchini o‘ziga singdirish;

- boshqarishning oddiyligi, katta ma’muriy apparatning yo‘qligi, qurilish va loyiha quvvatlarini o‘zlashtirishda qisqa muddat, kapital sarflarining tez o‘zini oqlashi, kapital aylanmasida yuqori tezlik;

- xom ashyo va mehnat resurslari, ishlab chiqarish chiqindilaridan to‘liqroq va samaraliroq foydalanish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda u bilan bog‘liq barcha narsalar zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzulmasini muhim va tarkibiy qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka muhim o‘rin ajratilib, ularga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda.

Kichik biznesni yanada rivojlantirish istiqbollarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish;
- huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- moliya-xo‘jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, tashkil etish tartibini soddalashtirish va faoliyat yuritishning moddiy-texnik shart-sharoitlarini ta’minlash;
- soliq va boshqa to‘lovlar borasida engilliklar yaratish, hisobot topshirish tizimini takomillashtirish, kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;
- ilg‘or ilm-fan yutuqlariga asoslangan KB va XTni rivojlantirishga keng yo‘l ochib berish, imtiyozlar va qulay sharoitlar tizimini yanada rivojlantirish;

Qaysi hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida ustuvorlikka erishilsa, shu hudud ijtimoiy-iqtisodiy tomondan barqaror rivojlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish joylari yaratish va shu orqali aholini bandligini shakllantirish muammosini hal etilishiga erishishni, aholi daromadlarini oshirishni hamda turli tarmoq sohalari o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarning mustahkamligini ta’minlaydi. Kichik biznesning imkoniyatlaridan samarali foydalanish deganda tabiiy va moddiy resurslarni eng kam jalb etgan va tejamli foydalanishni tashkil eta olish qobiliyati tushuniladi. Kichik biznesda tadbirkorlik g‘oyalari, muammolarning echimiga innovatsion yondoshuvlar juda tezlik bilan amaliyotga tatbiq etiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yuqori samaradorlikni ta’minlovchi asosiy motivatsiya – bu tadbirkorlik sub’ektlarining o‘z daromadlarini oshirish, ularning moddiy va moliyaviy resurslari, munosib mutaxassislik, kasb-kor, ma’lumot darajasi va boshqa jihatlari bilan

aniqlanuvchi jamiyatdagi o‘rta mulkdorlar qatlamiga mansubligini belgilab beruvchitegishli mavqega erishish hisoblanadi.

Har bir iqtisodiy maydonning ichki iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, undan samarali foydalanishda kichik biznes imkoniyatlarini qo‘llash tizimli tarzda amalga oshirilishi lozim. Bunda asosiy e’tibor hududdagi muammolarni hal etishda kichik biznesning kengroq ishtirokini ta’minlash imkoniyatini beruvchi ishlab chiqarish tizimini diversifikatsiyalashga qaratilishi lozim. Bunda kichik biznesdan hududlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarning manbai sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurish mulkka egalik qilishni yangi shakllarini tashkil etish va xususiy mulkka ustunlik berish maqsadida o‘tkazilgan iqtisodiy islohatlar o‘z samarasini ko‘rsatdi va bugungi kunda iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashib, kengayib bormoqda va mulkchilikni barcha turlarining tarmoq – sohalarida tovar mahsulotlari ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda shu bajarish doirasida raqobatbardjshlik jarayonlari tobora jadallashib, iqtisodiy samaradorlik taminlanmoqda. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti jarayonlarida ish yuritadigan tadbirkorlik asosiy iqtisodiy mehnat faoliyatidan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishda bilim, malaka, tajribaga ega bo‘lgan, yuqori daromad va foyda olishga erishish yo‘lida tavakkalchilik bilan ish bajaradigan tashabuskor inson faoliyati sifatida muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish, ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni ta’minlashda eng ma’qul bo‘lgan xo‘jalik yuritish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-308-sonli qarori shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari izchil amalga oshirib borilishi, aholiga qo‘shimcha er maydonlari berilgani, chorva mollari sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorini chorvachilik mahsulotlari bilan ta’minlashga, shuningdek, “Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta’minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–1737-sonli Prezidentning farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori huquqiy shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Aholining kun sayin o‘sib borayotgan moddiy ne’matlarga talab-ehtiyojlarini qondirish birinchi darajali vazifa hisoblanadi. Ya’ni, oziq-ovqat, sabzavot-poliz, chorva, baliq, parranda mahsulotlarini ishlab

chiqarishni ko‘paytirish, bu mahsulotlarni qayta ishlab, ichki bozorni to‘ldirish va iste’molchilarga taklif etish hozirgi kunning va undan keyin ham dolzarb amalga oshirib boriladigan ustuvor ahamiyat kasb etadigan chora-tadbirlar majmuini tashkil etadi.

Xalqaro amaliyotda davlat kapitali ko‘proq ssuda shaklida, xususiy va uzoq muddatli kapital esa – tadbirkorlik shaklida namoyon bo‘ladi. Kelib chiqish manbalariga ko‘ra xalqaro kapital – bu davlat mablag‘lari yoki xususiy kapital ko‘rinishida bo‘ladi. Davlat kapitali banklar ichida rasmiy kapital deb ham ataladi. U davlat byudjetidan xorijga chiqariladigan yoki u yerdan yo bevosita hukumatlar qarori bilan, yoki hukumatlararo tashkilotlar qarori bilan qabul qilinadigan mablag‘lardir.

Shakllariga ko‘ra – bu davlat qarzlari, ssudalar, grantlar (sovg‘alar), yordam ko‘rinishida bo‘lib, ularning xalqaro harakati hukumatlararo kelishuvlar bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotlarning kreditlari va boshqa mablag‘lari ham shular qatoriga kiradi. Biroq har qanday hollarda ham bu soliq to‘lovchilarning oluvchiga turli yo‘lar bilan yetib boradigan pullari hisoblanadi[70]. Xalqaro kapital migratsiyasining shakllari tadbirkorlik va ssuda kapitali ko‘rinishida bo‘ladi. Kapitalning tadbirkorlik shaklidagi migratsiyasi uchun quyidagi uchta majburiy belgilar xos bo‘ladi:

– xorijda ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish yoki unda ishtirok etish;

– xorijiy kapital qo‘yilmalarining uzoq muddatliligi;

– xorijiy korxonaga yoki uning bir qismiga mulkchilik huquqiga ega bo‘lish[71].

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xususiyatlar va ishtirok etish maqsadlarining qanchalik amalga oshishiga bog‘liq holda tadbirkorlik kapitalini chetga chiqarishning ikki turi ajratiladi: to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalar (PI). TTXI – bu xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo‘lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to‘la ega bo‘lish yoki kamida 10 foiz xo‘jalik faoliyatining ta’sirchan nazorat qilinishini ta’minlaydi[72].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalash shakllari va usullariga tegishli turlicha talqinlarning berilishi jiddiy muammolarni keltirib

[70] Киреев А. П. Международная экономика. В 2 ч. Ч. I. Международная микроэкономика: движениетоваров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. - М.: М еждународное отношения, 2000. С. 301.

[71] Ливенцев Н. Н, Костюнина Г. М. Международноедвижение капитала (Инвестиционная политика зарубежных стран): учебник. - М.: Экономист, 2004. С. 33; World Investm ent Report 2014.

[72] Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and G eneva, 2014. P. 9.

chiqardi (masalan, NAFTA va ASEAN ta’riflari shular jumlasidandir) va amaliy muammolarni hal qilishda qator variantlar-opsiyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu xalqaro investitsiyalash masalalari bo‘yicha muzokaralardagi, iqtisodiy diplomatiyadagi munozarali muammolardan biridir.

Portfel investitsiyalar - bu kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog‘ozlariga (korxona ustav kapitalining 10 foizdan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo‘lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi[73]. Ushbu turdagi tadbirkorlik kapitalini olib chiqib ketishning o‘ziga xos belgilari 7.1 – jadvalda yaqqol namoyish etilgan.

7.1 - jadval

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlar

Belgilar	**Belgilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar**	**Portfel investitsiyalar**
Olib chiqishning asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo‘llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog‘ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to‘lliq egalik qilish	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalinin kamida 25 foizini sotib olish (AQSH, Yaponiya va Germaniyada -10%)
	b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVF ustaviga ko‘ra kompaniya aksiyadorlik kapitalinin 25 foizidan kam bo‘lmasligi kerak)	
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi jarayonida portfelli nvestitsiyalar ulushining ortishi tabiiy holdir. Bu ikkita holat bilan izohlanadi:

– jahonda moliya bozorlarining jadal rivojlanishi;

– portfel investitsiyalarning yuqori likvidliligi bilan bog‘liq afzalliklar.

[73] Швандар К. В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. //Банковское дело, №02, 2008.С. 46-47.

Portfel investitsiyalar ancha yuqori likvidlilikka ega bo‘lib, harakatchan hisoblanadi. Ularni riskli zonadan boylik orttirish yengilroq boygan muhitga ko‘chirish qiyin emas. Portfel investitsiyalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va professional bilimlarni oshirish uchun katta mehnat talab etmaydi[74]. Kapitalni olib chiqishning tadbirkorlik shakli ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqadorligi tufayli ko‘pincha “ikkinchi iqtisodiyot” deb ataladi. Boshqa shakl ssuda kapitalining harakati milliy ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqaga ega bo‘lmasdan qabul qiluvchi mamlakatdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga bilvosita tarzda ta’sir qilishi mumkin[75]. Demak, kapitalning har bir guruhi yana quyi guruhlarga ajralib ketadi va ularni shartli ravishda eksport va import, deb hisoblash mumkin (7.2-jadval).

7.2 - jadval

Xalqaro kapitalning funksional bo‘linishi

Guruhlar	Quyi guruhlar	Kapital harakati
TTXI	Xorijda	Rezident va norezident o‘rtasida uzoq muddatli o‘zaro iqtisodiy manfaatning vujudga kelishiga olib keluvchi kapital harakati
	Mamlakat ichida	
Portfel investitsiyalar	Aktivlar	Qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bilan bog‘liq kapital harakati
	Aktivlar	
Boshqa investitsiyalar	Aktivlar	Davlatlararo kreditlar va bank depozitlari bilan bog‘liq kapital harakati
	Passivlar	
Zahira aktivlar	Monetar oltin	To‘lov balansi qoldig‘ini qoplash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan aktivlar bilan bog‘liq kapital harakati
	Qarz olishning maxsus qoidasi (SDR)	
	XVFning zahira pozitsiyasi	
	Xorijiy valyuta	

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirida 2008-yilda 2007-yilga nisbatan TTXIni jalb etish va chetga chiqarish hajmi jahon bo‘yicha tegishlicha 14,2 va 3,1 foizga qisqargan. Ushbu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda ham salbiy tendensiyaga ega bo‘lib, mutanosib ravishda 29,2 va 16,7 foizni tashkil etgan . Bu davrda

[74] Мельянцев В. Экономический рост Китая и Индии: динамика, пропорции и последствия. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007. С. 19-20.
[75] Ивасенко А. Г., Никонова Я. И. Иностранные инвестиции. -М.: КНОРУС, 2011. С. 184.

rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida TTXI ni jalb etish va olib chiqish hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Xalqaro kapitallar harakatidagi jiddiy o‘zgarishlar AQSH dagi ipoteka krediti inqirozi ta’sirida moliya bozorlaridagi shart-sharoitlarning yomonlashuvi va inflyatsiya ehtimolining kuchayishiga olib keldi[76]. AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlar xalqaro bozordagi asosiy investorlar bo‘lib, TTXI taklifini shakllantiradigan mamlakatlar hisoblanadilar. Shunga qaramasdan oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarning TTXIning global oqimidagi ulushi qisqarib bormoqda. Jumladan,1980-2016 yillarda xorijga chiqarilgan jami TTXIning 92,7foiz, jalb etilayotgan TXI ning 87,6 foiz rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2016 yilga kelib mos ravishda 61,3 va 41,5 foizni tashkil etdi[77].

Tahlillar ko‘rsatishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti AQSH va Yevropabank tizimi bilan bevosita uzviy bog‘lanmaganligi bois inqirozdan jiddiy zarar ko‘rmadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari ilk marotaba TTXI global oqimining yarmidan ortigini jalb etishdi. Ushbu mamlakatlardan TTXI olib chiqish ilk marotaba rekord hajmga yetdi va ularning aksariyat qismi Janub mamlakatlariga yo‘naltirilmoqda[78]. Jahon iqtisodiyotida 2010-yildan rivojlanayotgan mamlakatlar TTXIlarni jalb qilish hajmining yarmidan ortig‘ini o‘zlashtirdilar. TMKlar esa bu mamlakatlarda loyihalarni investitsiyalash va mahsulot bozorlarini o‘zgartirishda faol qatnashmoqdalar. Rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari ilk bor 2010-yilda global TTXI oqimining yarmidan ortig‘ini o‘zlashtirdilar[79]. Shuningdek, agar xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat qonunchiligi milliy investorlar uchun salbiy tomonga o‘zgarsa, odatda, xorijiy investitsiyali korxonalar uchun bu o‘zgarishlar bo‘yicha muddati kechiktirilishi ko‘zda tutiladi[80].

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanishi uchun qulay zamin yaratuvchi xususiyati – ishlab chiqarishni tabiiy va moddiy resurslarni eng kam jalb etgan va tejamli foydalangan holda tashkil eta olish qobiliyatidir. Shu bilan birga, kichik biznesda tadbirkorlik g‘oyalari,

[76] World Investment Report 2016: Investing in a Low-carbon Economy. UNCTAD,- New York and Geneva, 2016
[77] World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. UNCTAD, - New York and Geneva, 2014. p. 264.
[78] World Economic Outlook: October 2001. IMF, 2001.
[79] World Economic Outlook: September 2003. IMF, 2003
[80] World Economic Outlook: Rebalancing Growth. April 2015

muammolarning echimiga innovatsion yondoshuvlar juda tezlik bilan amaliyotga tatbiq etiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yuqori samaradorlikni ta’minlovchi asosiy motivatsiya – bu tadbirkorlik sub’ektlarining o‘z daromadlarini oshirish, ularning moddiy va moliyaviy resurslari, munosib mutaxassislik, kasb-kor, ma’lumot darajasi va boshqa jihatlari bilan aniqlanuvchi jamiyatdagi o‘rta mulkdorlar qatlamiga mansubligini belgilab beruvchitegishli mavqega erishish hisoblanadi. Hududlarning ichki iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, undan samarali foydalanishda kichik biznes imkoniyatlarini qo‘llash tizimli tarzda amalga oshirilishi lozim. Bunda asosiy e’tibor hududdagi muammolarni hal etishda kichik biznesning kengroq ishtirokini ta’minlash imkoniyatini beruvchi ishlab chiqarish tizimini diversifikatsiyalashga qaratilishi lozim.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi hamda xalqaro raqobatning kuchayib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash tarkibiy o‘zgartirish jarayonlarini taqozo etadi. Bu borada kichik biznesdan hududlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarning manbai sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurish mulkka egalik qilishni yangi shakllarini tashkil etish va xususiy mulkka ustunlik berish maqsadida o‘tkazilgan iqtisodiy islohatlar o‘z samarasini ko‘rsatdi va bugungi kunda iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashib, kengayib bormoqda va mulkchilikni barcha turlarining tarmoq – sohalarida tovar mahsulotlari ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda shu bajarish doirasida raqobatbardjshlik jarayonlari tobora jadallashib, iqtisodiy samaradorlik taminlanmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, bozor kon’yunkturasi, xususiy investitsiyalar, xususiy mulk, shaxsiy va jalb qilingan mablag‘lar, iqtisodiyotning real sektori, sanoat korxonasi, real sektorning tarmoq infratuzilmasi.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Iqtisodiyotning real sektori tushunchasining mohiyati
2. Iqtisodiyotning real sektorini tarkibiy tuzilishi
3. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish omillari
4. Xususiy investitsiyalarni iqtisodiy mohiyati

5. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda davlatning ishtiroki

6. Xususiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishning xorij tajribalari

VIII BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O‘RNI

§ 8.1. Investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar
§ 8.2. Investitsiya muhitini baholash usullari
§ 8.3. O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari

§ 8.1. Investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar

Oxirgi yillarda mamlakatimizda investitsiya muhiti yanada yaxshilandi. Bu boradagi qonunchilik yangilanib, investorlar uchun huquqiy kafolatlar mustahkamlandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy isloxatlarning asosiy negizida mamlakatimizga xorijiy kapital okimi va investitsiyalarni jalb qilish utvor vazifa sifatida qarolmoqda, bir qancha chora-tadbirlari ishlab chiqib amalda foydalanib kelinmoqda**.** Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o‘sish sur’atlari investitsiya muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning ko‘lami, yo‘nalishlari va samaradorligi, bevosita, investitsiya muhitiga bog‘liqdir.

Iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Mo‘minovlar investitsiya muhiti to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadilar: “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig‘indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko‘pqirrali tushuncha bo‘lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o‘sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, inflyatsiya sur’atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko‘rsatkichlarga ega”[81]. Shuningdek, mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui investitsiya muhitini anglatadi.

“Investitsiya muhiti” va “investitsiya iqlimi” sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususda iqtisodchi olimlardan

[81] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 153.

D.G‘ozibekov va T.Qoraliyevlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: “Investitsiya iqlimi juda keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma’lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi”[82]. Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma’lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o‘zida aks ettirgan voqelikdir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat.

Investitsiyaviy jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtai nazaridan baholanishi. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta’sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko‘rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya riski darajasini aniqlash mumkin. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga, bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Investitsiya muhiti tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zahiralari, ishchi kuchi malakasi va o‘rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy

[82] G‘ozibekov D.G‘., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. – T.: TMI, 1993. – B. 46.

kon’yunktura holati, ichki bozor sig‘imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, valyuta siyosati, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi. Qulay investitsiya muhitining yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo‘lishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy sharti bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo‘lib, birinchi navbatda, kapital mablag‘larning daromadliligini ta’minlab berishga imkoniyat yaratadi. Mamlakatning investitsiya muhitini shakllantiradigan omillar majmuini 8.1 – jadval orqali ifodalash mumkin.

8.1-jadval

Mamlakatning investitsiya muhiti va uni keltirib chiqaradigan omillar[83]

Omillar	Mazmuni
Iqtisodiy holat	Mamlakat to‘lov balansining holati, valyuta-pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarnnng rivojlanganligi, ichki bozor sig‘imining kattaligi, inflyatsiya darajasi, YAIM, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan huquqiy-me’yoriy, jumladan, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, tegishli nizom va yo‘riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xom ashyo resurslari	Mineral, xom ashyo, yoqilg‘i-energetika va suv resurslari zahiralari, qishloq xo‘jaligi xom ashyosini ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi, aholining savodxonligi
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnika salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari, investitsiya risklari darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig‘imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqgisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanishi holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mexmonxona xo‘jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug‘urta sohasi tarmog‘ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar, tabiiy iqlim va uning o‘zgarishi, xorijiy fuqarolarning unga moslashish darajasi

[83] Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 174.

Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, investitsiya muhitiga ayrim qonunlarning yoki me’yoriy hujjatlarning to‘laqonli bo‘lmasligi salbiy ta’sir etadi. Bunday kamchiliklarning mavjudligi investorning o‘z istiqbolini belgilash, qo‘yilmaning foydalilik darajasini aniqlash borasidagi qobiliyatini kamaytiradi. Amalda investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar, asosan, to‘rt guruhga bo‘linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi (8.2-jadval).

8.2-jadval

Investitsiya muhiti holatini belgilovchi kengaytirilgan omillar

Ta’sir etuvchi omillar guruhi	Ko‘rinishlari
SIYOSIY OMILLAR	1. Davlatning ichki va tashqi invvestitsiyalar bo‘yicha siyosati 2. Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi 3. Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo‘shilganlik darajasi 4. Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi 5. Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to‘qnashuvlar, qo‘shni davlatlarning osoyishtaligi) 6. Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati 7. Davlat apparatining samarali ish yuritishi 8. Ko‘p partiyaviylik va siyosiy guruhlarning mavqei 9. Soliq, valyuta, narx, pul-kredit siyosatining investitsiya siyosatiga uyg‘unligi 10. Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog‘lomlashtirish bo‘yicha siyosati ko‘lami
IQTISODIY OMILLAR	1. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli 2. Inflyatsiya darajasi 3. Soliq imtiyozlari 4. Bojxona tartibi 5. Mamlakatning tabiiy va xom ashyo resurslari holati 6. Ishchi kuchi holati va qiymati 7. Ishchi kuchidan foydalanish tartibi 8. Muayyan tovarlar uchun talab va taklif 9. Raqobat va bahoning erkinligi 10. Valyuta konvertatsiyasi, milliy valyuta kursining barqarorligi 11. Bank foiz stavkalari 12. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari 13. Mamlakatning geografik jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo‘llari, iqlim sharoiti)

IJTIMOIY OMILLAR	1. Xususiy mulk hamda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati 2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli 3. Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi 4. Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat 5. Aholining savodxonlik darajasi 6. Ishchi-mutaxassislar malakasi, ko‘nikmalari va tajribalarining o‘sib borishi va unga intilish 7. Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi
HUQUQIY OMILLAR	1.Investitsiya faoliyati huquqiy asoslarining mustahkamlik darajasi 2.Investitsiya faoliyatini bevosita ta’minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi 3. Investitsiya faoliyatining me’yoriy asoslari (farmonlar, qarorlar, qonunlar, nizomlar, yo‘riqnomalar va h.k.)

Milliy xususiyatlarga xos investitsiya dasturlari va loyihalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi qo‘shimcha chora-tadbirlarni bajarish lozim bo‘ladi:

– iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni proporsional jalb etishning umumlashgan aniq dasturini ishlab chiqish;

– tarmoq xususiyati va iqtisodiyot rivojiga qarab erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish;

– tarmoqlardagi mas’ul xodimlarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi faolligi va mas’ulligini oshirish;

– tarmoqlarda aloqa, telekommunikatsiyani rivojlantirish orqali investorlarning erkin va to‘liq axborotlar olishini ta’minlash.

O‘zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va xorijiy investorlarni respublikaga ko‘proq jalb etish maqsadida ularga uchun qator soliq va bojxona imtiyozlari belgilangan. Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Huddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir.

§ 8.2. Investitsiya muhitini baholash usullari

Har qaysi investor ma’lum bir mamlakat va uning hududiga investitsiya kiritishdan avval o‘sha mamlakat va hududning investitsiya muhitini baholash, uning jozibadorligini aniqlashga kirishadi. Albatta, bunda yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillar o‘rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda investitsiya qarorlari qabul qilinadi.

Xorijiy investor uchun yuqorida qayd qilingan barcha omillar muhimdir. Shuning uchun ham rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda investitsiya loyihalarini baholaydigan, investitsiyalar qo‘yilishiga talab bo‘lgan davlatlarning investitsiya muhitini o‘rganadigan va aniq xulosa va ma’lumotlarni investorlar uchun taqdim etuvchi maxsus firmalar, tashkilotlar mavjuddir. Masalan: Shvesariya, Germaniya kabi qator mamlakatlarning nufuzli axborot xizmatlari davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy holatini baholash uchun har biri «0» dan «4» gacha bo‘lgan (0-qoniqarsiz va 4-o‘ta qulay) 4 balli shkala bo‘yicha baholanadigan 15 ta muhim ko‘rsatkichni hisobga oladigan «**BERI**»[84] (business environment risk index)ni qo‘llaydi.

Quyidagi 8.1-rasmda ular investitsiya qarorlarini qabul qilish bo‘yicha ahamiyatidan kelib chiqib aks ettirilgan. 8.1-rasmdan ko‘rinadiki, «**BERI**» indeksiga kirgan ko‘rsatkichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 ball) eng katta ahamiyatga ega. Tahlillar ko‘rsatishicha, G‘arb ekspertlari, aynan, harbiy harakatlar yoki ichki vaziyatning keskinlashuvi yuz bergani bois, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik tufayli Gruziya, Moldava va Tojikistonga reytinglarda so‘nggi o‘rinlar berishgan, ya’ni ular «BERI» indeksining eng past ko‘rsatkichi darajasiga ega.

Mazkur usulning mohiyati shundaki, obro‘li ekspertlarni[85] tanlash asosida va ularga 5 balli (0 dan 4 ballgacha va ularning yig‘indisi 1 ga teng) shkalada 15 ta asosiy mezonlar bo‘yicha mamlakat riskini baholash taklif etiladi. Ushbu usulda baholash mezonlari va ularning qiymatlari quyidagilardan iborat[86]:

– siyosiy barqarorlik (0,12);

– xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan munosabat (0,06);

[84] Shu nomdagi firma tomonidan ishlab chiqilgan.

[85] Odatda, ekspertlarning umumiy soni taxminan 100 nafardan iborat bo‘ladi.

[86] Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 155-156.

– milliylashtirilishi xavfi (0,06), agar mamlakat qonunchiligida mulkni haq to‘lamasdan ekspropriatsiya qilish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, 0 ball qo‘yiladi;

– valyutaning devalvatsiya qilinish ehtimoli va darajasi (0,06);

– to‘lov balansining holati (0,06);

– biznesning byurokratlashish darajasi (0,04);

– iqtisodiy o‘sish sur’ati (0,1);

– valyutaning erkin almashinuv darajasi (0,1);

– shartnoma majburiyatlarini bajarish soni (0,06);

– mehnat unumdorligi darajasi va ish haqi harajatlari (0,08);

– yuridik va marketing maslahatlarini olish, malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati (0,02);

– aloqa va transportni tashkil qilish (0,04);

– davlat organlari va jamoat tashkilotlarining munosabatlari (0,04);

– qisqa muddatli kreditlarni olish shartlari (0,08);

– uzoq muddatli kreditlar, xususiy kapitalni olish, foydalanish shartlari (0,08).

Umuman olganda, «**BERI**» xizmati bu borada katta obro‘ qozongan tashkilotdir. Mazkur tashkilot kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhitini tahlil qilib, investitsiyalarning risklilik darajasini aniqlab beradi. «**BERI**» xizmati matbuotlar orqali turlicha indekslar bilan investorlarning xorijiy mamlakatlarga investitsiya qo‘yishining xavf-xatarlilik, risk darajasini aniqlab beradi.

Hozirda bu xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot 55 dan ortiq kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhitini 15 ta ko‘rsatkichni qamrab oluvchi mezon (ball) bilan baholamoqda. Bunda mamlakat investitsiya muhiti qanchalik yuqori ballga ega bo‘lsa, u shunchalik barqaror mamlakat hisoblanadi. Bu ball indekslarini hisoblashda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta’siri ham hisobga olinadi. Bu tashkilot faqatgina hozirgi joriy davrnigina emas, balki istiqbolda kutilayotgan o‘zgarishlarni ham baholaydi. Bir vaqtning o‘zida, investitsiyalar samaradorligini aniqlash ularni safarbar etishning istiqbollarini bashoratlashda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, iqtisodiyot bo‘yicha investitsiyalar taqsimotining to‘g‘ri yo‘nalishlarini aniqlab olishga imkon beradi. Shu maqsadda foydalaniladigan ICOR (incremental capital-output ratio) koeffitsienti asosiy kapitalga qo‘yilgan mablag‘larning kelgusi yilda YAIMning o‘sishiga ta’sirini aniqlashga imkon beradi va YAIMda investitsiyalar salmog‘ining

keyingi yildagi YAIMning qo‘shimcha o‘sish sur’atiga nisbatini ifodalaydi.



8.1-rasm. Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini (maftunkorligini) baholashning BERI indeksi

ICOR koeffitsiyenti investitsiya resurslarining samarali ishlatilishini belgilab beruvchi ko‘rsatkich hisoblanib, u qanchalik kichik bo‘lsa, shunchalik ahamiyatli hisoblanadi va aksincha[87]. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga kelgusida investitsiyalash manbalarini yaratish uchun ham xizmat qiladi. Shu sababli yalpi investitsiyalarning YAIMga nisbatan ulushi YAIMning o‘sish sur’atidan 4-8 marotaba ko‘p bo‘lishi lozim. Umuman yalpi investitsiyalarning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan miqdorini va uning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish darajasini aniqlash investitsiyalar samaradorligini real baholashning muhim sharti hisoblanadi.

[87] Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiya mablag‘lari samaradorligi. // «Bozor, pul va kredit», 2004. №7-8. – B. 48.

Shuningdek, muayyan bir tarmoq bo‘yicha yalpi investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda joriy davrda tarmoqda band bo‘lgan kishilar boshiga nisbatan to‘g‘ri kelgan o‘rtacha investitsiyalar miqdorini hisoblash muhimdir.

$$\mathbf{ICOR = I: \Delta YAIM}$$

bu yerda:

I – o‘tgan yilda YAIMda investitsiyalarning ulushi;

ΔYAIM – yalpi ichki mahsulotning o‘tgan yilga nisbatan qo‘shimcha o‘sish sur’ati.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ICOR ko‘rsatkichi darajasini quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin.

8.3-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ICOR **ko‘rsatkichlari**[88]

Yillar	Yalpi investitsiyaning yalpi ichki mahsulotga nisbati, foiz hisobida	YAIMning qo‘shimcha o‘sish sur’ati, foiz hisobida	ICOR (YAIM qo‘shimcha o‘sishining kapital sig‘imkorligi)
2012	25	8,5	2,7
2013	23,9	8,3	3,01
2014	22,9	8,2	2,9
2015	23	8	2,8
2016	23,3	8,1	2,8
2017	23,4	8,0	2,9

Tahlil etilayotgan davrda YAIMning kapital sig‘imkorligini aks ettiruvchi ICOR samaradorligi ko‘rsatkichi Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 2,4 ga teng[89]. 2017 yilga kelib bu ko‘rsatkich 2,9 ni tashkil etdi. **ICOR** koeffitsiyentini hisoblash uslubiyotiga asoslanib, daromad o‘sishining kapitalga nisbati ko‘rsatkichi o‘tgan yilgi yalpi investitsiyalarning (YAIMga nisbatan foizda) joriy yildagi YAIMning o‘sish sur’atiga nisbati sifatida aniqlanadi. Lo‘nda qilib aytganda, o‘tgan yilgi investitsiyalar hajmi joriy yildagi YAIMning o‘sishida o‘z natijasini beradi. Jahon amaliyotida iqtisodiy o‘sishning ijobiy sur’atini ta’minlash uchun bu ko‘rsatkichning nisbati 3/1 hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik kichik bo‘lsa, shunchalik ahamiyatli (ijobiy) hisoblanadi. Investitsiya mablag‘lari samaradorligini aniqlab beruvchi ko‘rsatkichlar va ularning

[88] Jadval O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

[89] Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 170.

tizimlari talaygina. Ular ichida hisoblanishi nuqtai nazaridan qulay bo‘lgan **ICOR** ko‘rsatkichidan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga, umuman, real sektorga yo‘naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda foydalanamiz.

Mamlakatning investitsiya muhitini baholash borasida turli nazariy va amaliy yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar bir-biridan investitsiya muhitini tashkil etuvchi omillarni to‘liq yoki qisman qamrab olishi bilan farq qiladi. Aytish joizki, “Standart & Poor’s”, “Moody’s” va “Fitch ibca” jahondagi eng yirik reyting agentliklardan hisoblanib, ular emitentning qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda va to‘laqonli bajara olish imkoniyatlari va emitentlarning kredit bera olish qobiliyatiga baho beradilar.

Agentliklar tomonidan ishlab chiqilgan va tuzilgan reytinglar mamlakat investitsiya muhitini ma’lum darajada baholash imkonini beradi. Masalan, “Standart & Poor’s” uslubiyotiga ko‘ra, uzoq muddatli reyting eng yuqori “AAA” ko‘rsatkichidan eng quyi “D” ko‘rsatkich oralig‘ida o‘zgarib boradi. “AA” dan “CCC” ko‘rsatkichigacha bo‘lgan oraliq reytingi “musbat” (+) yoki “manfiy” (-) belgilar bilan to‘ldirib borilishi mumkin va ular asosiy ko‘rsatkichlarga tegishli bo‘lgan oraliq ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Qarz majburiyatlarini bajarish sifati reytingning quyidagi ko‘rsatkichlari orqali baholanadi:

– AAA – qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda va to‘liq bajarishning eng yuqori qobiliyatini aks ettiradi;

– AA – qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda va to‘liq bajarishning yuqori qobiliyatini anglatadi;

– A – qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarishning nisbatan yuqori qobiliyati, ammo tijorat, moliya va iqtisodiy sharoitlardagi salbiy o‘zgarishlar ta’sirini ifodalaydi;

– BBB – qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarishning etarli darajadagi qobiliyati bo‘lib, moliya va iqtisodiy sharoitlardagi salbiy o‘zgarishlar ta’sirining yuqori darajada sezilishini ifodalaydi;

– B – moliya va iqtisodiy sharoitlardagi salbiy o‘zgarishlar ta’sirining keskin sezilishi hamda qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda va to‘liq bajarish imkonining mavjudigini bildiradi;

– CCC – emitentning qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolining mavjudligi bo‘lib, qarz majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishi qulay tijorat, moliyaviy va iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi;

– CC – hozirgi davrda emitentning qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolining yuqori ekanligini ifodalaydi;

– C – emitentga nisbatan bankrotlik yoki protsedurasi qo‘zg‘atilgan holda to‘lovlar yoki qarz majburiyatlarining bajarilishi davom etayotganligini bildiradi;

– CD – boshqa qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda va to‘liq to‘lanayotgan sharoitda ushbu qarz majburiyati bo‘yicha tanlanma defolt mavjudligini aks ettiradi;

– D – qarz majburiyatlari bo‘yicha defoltni ifodalaydi.

– “AAA”, “AA”, “A” va “BBB” kategoriyalari reytingi investitsion klass reytinglari hisoblanib, “BB”, “B”, “CCC”, “CC” va “C” kategoriyalari reytingi spekulyativ klassga ma’lum darajada kiradi. Kredit reytinglarini ishlab chiqishning asosiy tashkiliy qismi ularning o‘zgarishini prognozlash hisoblanadi.

Prognozning quyidagi tavsiflari keng qo‘llaniladi: “ijobiy” (reytingning ko‘tarilishi ehtimoli), “salbiy” (reytingning pasayishi ehtimoli) va “barqaror” (reytingning o‘zgarishi kuzatilmaydi). Reyting agentliklari tomonidan reyting o‘zgarishi tendensiyalarini aniqlash murakkab bo‘lgan holatda “rivojlanayotgan” prognoz tavsifidan foydalaniladi va u reytingning ko‘tarilishi yoki pasayishi ehtimoli borligini anglatadi.

§ 8.3. O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari

Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Investitsiya salohiyati deganda iqtisodiy faoliyatda ishlatiladigan (foydalaniladigan) ishlab chiqarish zaxiralari, quvvatlari, kuchlari, imkoniyatlari kabilardan iborat resurslar yig‘indisi tushuniladi. Investitsiya salohiyati foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarga mablag‘ kiritish (qo‘yish) imkoniyatlari darajasini harakterlaydi. Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig‘indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari, innovatsiya va iste’mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi.

Tabiiy salohiyat tabiiy resurslar miqdori va sifati, mamlakatning iqlimi, tabiiy-geografik shart-sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Tabiiy

resurs omillari[90] ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muhim o‘rin tutadi va quyidagilarni qamrab oladi: mineral resurslar (foydali qazilmalar); agromuhit shart-sharoitlari; er va suv resurslari; o‘simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar.

Mehnat salohiyati iqtisodiy faol aholi soni, yoshi, aholining bilim darajasi kabilarni harakterlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarishga layoqatli, bilim, malaka, mahoratga ega bo‘lgan kishilardan iborat bo‘lsa, intellektual salohiyat jamiyat a’zolarining ilmiy, ma’rifiy, ma’naviy, intellektual salohiyatini ko‘rsatadi. Qoida tarzida, xorijiy investorlarni malakali ish kuchi va arzon ish haqi to‘lanadigan hududlar jalb qiladi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakatdagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiyot tarkibi, qazib oluvchi, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan investitsiya loyihalari soni (qo‘shma korxonalar tomonidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalarini ham qo‘shgan holda), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holati va boshqalarni ifodalaydi.

Texnika-texnologiya salohiyati mamlakatdagi mashina-mexanizmlar miqdori, ularning tarkibi, texnologik tizim kabilardan iborat bo‘lib, u fan yutuqlari va ularning qay darajada tatbiq etilishi bilan bog‘liq.

Innovatsiya salohiyati mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, texnika va texnologiyalarning yangilanish darajasi (yangi avlodi), milliy ishlab chiqarishdagi yangiliklar, kashfiyotlarni harakterlaydi.

Iste’mol salohiyati investorlar tomonidan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda qancha ulishi sotilish, shu asosda talabni o‘rganish, raqobatchilar va aholining daromadlari darajasi sifatida qaraladi.

Moliyaviy salohiyat ushbu mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste’mol va jamg‘armaning nisbati, bank sohasida pul-kredit va depozit siyosati, tashqi qarzlar holati, ichki zaxiralar va boshqalarni harakterlaydi.

Investitsiya salohiyatini ifodalovchi ushbu omillarning mavjudligi xorijiy tadbirkorlarning aynan o‘sha mamlakatga investitsiya qilishining asosiy sabablaridan bo‘lishi mumkin. Biroq,

[90] Ma’lumot uchun: Yaponiya, Janubiy Koreya va qator G‘arbiy Evropa mamlakatlarida tabiiy resurslarning kamyobligi texnika-texnologiya vositasida ortig‘i bilan qoplanadi.

investitsiya salohiyatining mavjudligi xorijiy investitsiyalarning uzoq muddat davomida barqaror kirib kelishini kafolatlay olmaydi. Mamlakatdagi qulay investitsiya shart-sharoitlarisiz investitsiya salohiyati hali «hazm qilinmagan» boylik hisoblanadi. Investitsiya muhitini baholash, aynan, investitsiya shart-sharoitlariga asoslanadi.

Investitsiya shart-sharoitlariga quyidagi omillar kiradi:

– umumiqtisodiy shart-sharoitlar – YAIMning o‘sish sur’atlari, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, to‘lov balansi, monopolizm darajasi, valyuta konvertatsiyasi, tashqi qarz, investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari, davlat byudjeti defitsiti va boshq.;

– siyosiy shart-sharoitlar – mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiya faoliyatini tartiblovchi va investorlarning huquqlarini va ularga yaratilgan kafolatlarni ta’minlovchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va amal qilishi, jinoyatchilik va korrupsiya holati va boshq.;

– bozor mexanizmi shart-sharoitlari – bozor infratuzilmasining rivojlanganligi: bank, sug‘urta, fond bozori, transport va aloqa, raqobat va narx shakllanishi va boshq.;

– axborot ta’minoti shart-sharoitlari – axborot va telekommunikatsiyalarning rivojlanganligi, raqobatchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari, mahalliy hamkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning shaffofligi va boshq.;

– ekologik shart-sharoitlar – mamlakatdagi ekologik holat, mamlakatda va qo‘shni davlatlarda ekologik xavfli hududlarning mavjudligi, xalqaro qonunchilikdagi ekologik me’yorlarga amal qilish holati va boshq.;

– ijtimoiy madaniy va etnografik shart-sharoitlar – mahalliy aholining mentaliteti va madaniyati, aholining hayot tarzi va turmush holati, jamiyatning xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan munosabati va boshq.

Ma’lumki, hukumat mamlakatdagi investitsiya shart-sharoitlarini takomillashtirib, makroiqtisodiy holatni yaxshilaydi, iqtisodiy barqarorlikka erishishga harakat qiladi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Bu esa, nafaqat, xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini ta’minlaydi, balki ichki investitsiya jarayonlarini faollashtiradi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me’yoriy tizimni doimo takomillashtirib borish talab etiladi. Bu, o‘z navbatida, xorijiy

sarmoyalar kirib kelishini rag‘batlantirib, iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Iqtisodiyotda bozor ta'siridan foydalanishni kengaytirishga yo‘naltirilgan boshqa amalga oshirilgan chora-tadbirlar investitsion muhitning yaxshilanishiga ham ta'sir ko‘rsatdi. Ular orasida pul-kredit siyosatini liberallashtirish choralari ham bor. Shunday qilib, Prezidentning 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmoniga binoan, respublika yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan joriy xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklarda chet el valyutasini bepul sotib olish va sotishni kafolatlaydi. Investitsion muhitni yaxshilash maqsadida tarmoq vazirliklari va idoralari bilan hamkorlikda yagona darcha vazifasini o‘taydigan yagona axborot investitsiya portali joriy etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston investitsiya muhiti, turmush darajasi, infratuzilma, shahar va qishloq obodonligi, atrof-muhitga, innovatsiyalarni rivojlantirish va boshqa parametrlar kabi muhim mezonlarga ko‘ra, biznes sheriklaridan asta-sekin «ballar» to‘plamoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya muhiti, investitsion salohiyat, xorijiy kapital, investitsiyaviy jozibadorlik.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Investitsiya muhitining iqtisodiy mohiyati*
2. *Investitsiya muhitiga ta’sir yetuvchi omillar*
3. *Investitsiya muhitini baholash usullari*
4. *BERI indeksi ko‘rsatkichlari ahamiyati*
5. *Investitsiya muhitini shakllantirishning huquqiy tizimi.*

IX BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH

§ 9.1. Kapital qurilish va kapital qo‘yilmalar. “Qurilish industriya”si tushunchasi
§ 9.2. Kapital qurilishda loyihalashtirish va tanlovni tashkil etish
§ 9.3. Buyurtmachi va pudratchining huquq va majburiyatlari. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi
§ 9.4. Kapital qo‘yilmalar samaradorligini baholash

§ 9.1. Kapital qurilish va kapital qo‘yilmalar. “Qurilish industriya”si tushunchasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy adabiyotlarda bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq kapital qurilish va kapital qo‘yilma tushunchalari yuzaga keladi. Kapital qurilish – asosiy fondlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning shakllaridan biri. Kapital qo‘yilmalar esa kapital qurilishni amalga oshirishning moliyaviy manbasi hisoblanadi.

Kapital qo‘yilmalar – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida yangi qayta qurilgan, hamda kengaytirilgan joriy asosiy jamg‘armalar tashkil qilishga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘lar. Mablag‘lar muntazam tayyorlov bosqichidan qurilish ishlab chiqarish bosqichiga aylanadi, shundan so‘ng mahsulotni sotish bosqichiga o‘tiladi, bunda ular jamg‘arma bo‘lib o‘zgaradi. Ma’lumki, yangi korxonalarni barpo etish, mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob’ektlarini texnik jihatdan qayta qurollantirish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy, iqtisodiy, moddiy va mehnat harajatlari yig‘indisi kapital qo‘yilmalarni anglatib, o‘z navbatida, kapital qo‘yilmalar iqtisodiy jihatdan kapital investitsiyalarni anglatadi, ular deyarli bir mazmunni bildiradi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasida kiritiladigan investitsiyalarni, qo‘yilmalarni harajatlar majmuasini anglatadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kapital qo‘yilmalarning mohiyatiga quyidagicha ta’riflar berilgan: “**kapital qo‘yilmalar** – bu asosiy kapitalga yo‘naltirilgan real investitsiyalarni (qo‘yilmalarni), shu jumladan, yangi qurilish, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni texnik qayta qurollantirish, ta’mirlash, kengaytirish, mashina va uskunalar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari, shuningdek, uy-joy hamda madaniy-

maishiy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harajatlardir”[91].

Statistik hisobotlarda va iqtisodiy tahlil jarayonlarida bunday investitsiyalar kapital hosil qiluvchi investitsiyalar, deb ham nomlanadi. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, kapital qo‘yilmalar asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan qo‘yilmalarni anglatadi. Umuman olganda, kapital qo‘yilmalar aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan hamda asosiy fondlarni barpo etish va yangilash bilan bog‘liq bo‘lgan jami harajatlarni aks ettiradi.

Kapital qo‘yilmalar quyidagi harajatlarga yo‘naltiriladi:

- qurilish-montaj ishlari;
- turli jihozlar va asbob-uskunalarni sotib olish;
- boshqa har qanday harajatlar – loyiha qidiruv ishlari, qurilish maydonini tayyorlash kabilar.

Yuqorida qayd qilingan uch elementning o‘zaro nisbati kapital qo‘yilmalarning tuzilishini tashkil qiladi. Shuningdek, kapital qo‘yilmalar o‘z tarkibiga ham egadir, ya’ni tarmoq, texnologik va takror ishlab chiqarish shular jumlasidandir. Birinchisi – bu iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kapital qo‘yilmalarni miqdoriy nisbatini aks ettiradi. Kapital qo‘yilmalar iqtisodiyot tarmoqlarida buyurtmachilarga ularning mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji, rivojlanish va haqiqiy ishlab chiqarish kuchlariga qarab taqsimlanadi. Bu esa soha tuzilishini tashkil qiladi.

Kapital qo‘yilmalarning texnologik tarkibi – bu mashina va asbob-uskunalarni sotib olishga va qurilish montaj ishlarini amalga oshiriga ketadigan harajatlar orasidagi nisbatni aks ettiradi. Amalda asosiy fondlarni aktiv qismini (mashina va asbob-uskunalarni) takror ishlab chiqarishni kapital qo‘yilmalardagi ulushini oshirish yo‘li bilan ularni texnologik tarkibini takomillashtirish sarflar samaradorligini oshirishni muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Kapital qo‘yilmalarning texnologik tarkibi qurilish montaj ishlarining, jihozlarning, asbob-uskunaning, shuningdek, jamg‘armaning mulkiy hajmi hisobidagi turlicha harajatlarning ratsional hajmini aniqlashga xizmat qiladi. Kapital qo‘yilmalarning texnologik tuzilishini qurilish-montaj ishlariga sarflayotgan harajatlar miqdorini kamaytirish yo‘li bilan amaldagi asosiy jamg‘armalardan ham to‘liq foydalanish imkonini beradi. Faoliyat yuritayotgan korxonalarning quvvatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni texnik qayta qurollantirish, kengaytirish qayta qurish va yangi

[91] Neshitoy A.S. Investitsii: Uchebnik. – 4-ye izd. – M.: «Dashkov i K⁰», 2006. – S. 13.

korxonalarni qurish kapital qo‘yilmalarni takror ishlab chiqarish aks ettiradi.

Kapital qo‘yilmalarni takror ishlab chiqarish tarkibi ularni bir tomondan yangi qurilishlarga, ikkinchi tomondan mavjud korxonalarni qayta qurish va texnik qayta qurollantirishni va kengaytirishga saflanadigan mablag‘lar miqdori o‘rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Kapital qo‘yilmalarning samaradorligiga ularni texnologik tarkibi, ya’ni qo‘yilmalarni umumiy yig‘indisida sarflarni alohida turlari – uskunalar, asboblar va ishlab chiqarishda ishlatiladigan buyumlar; qurilish ishlari; loyiha va boshqa ishlarga saflarni nisbati katta ta’sir ko‘rsatadi. Kapital qo‘yilmalarning tarkibida uskunalarning ulushini, hamda ishlab chiqarish ishtirokchilarini – asosiy fondlarni faol qismini qurilish ishlariga nisbatan ko‘payishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni birligiga kapital qo‘yilmalarni pasayishiga olib keladi va ularni iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Kapital qo‘yilmalarning tarkibini yangilashga: sanoatning texnik darajasini oshishi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning o‘sishi, uskunalarni takomillashtirishga, ishlayotgan korxonalarni kengaytirish va qayta qurishga, ularning kooperatsiyalashuvi va guruhlarga birlashtirish va hokazolarga sharoit yaratadi. Aytish joizki, kapital qo‘yilmalarni tarkibini yaxshilashda rejalashtirishni yaxshilashga va qurilish ishlarining qiymatini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Yangi texnikani joriy qilish asosida ishlayotgan korxonalarni qayta qurish qisqa muddatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga va yangi korxonalarni qurishga qaraganda kamroq kapital saraflashga imkon yaratadi.

Hozirgi vaqtda ishlab turgan korxonalarga kapital qo‘yilmalarni sarflanishi texnik taraqqiyotning jadallashib borishi va ishlab turgan texnikaning eskirib borishiga bog‘liqdir. Agarda mamlakatni yangi tabiiy boyliklar konlarini ochilishi bilan bog‘liq bo‘lgan mintaqalarda kapital qo‘yilmalarni yangi korxonalarni qurishga va yangi quvvatlarni barpo qilishga sarflanishi to‘g‘ri bo‘lsa, boshqa mintaqalarda, ayniqsa qayta ishlash sanoatidagi, ishlayotgan korxonalarni qayta qurish, texnik qayta qurollantirish to‘g‘ri bo‘ladi. Hozirgi sharoitda ilgari qurilgan ko‘pgina korxonalarda eskirgan uskunalarni modernizatsiyalash zarurati yuzaga kelgan. Bu ishlab chiqarishning intensivlashga va texnikani hozirgi zamon talablariga javob berishiga va mehnat unumdorligini oshishga olib keladi. Qator mintaqalarda qayta qurish

ushbu mintaqa iqtisodiyotini ko‘p qirrali rivojlantirish, korxonalarni zarur buyumlar bilan ta’minlanishi uchun ham zarurdir. Ammo ishlayotgan korxonani qayta qurish har bir holatda chuqur iqtisodiy asoslarni talab qiladi. Tajribani ko‘rsatishicha ayrim korxonalarda dastlabki iqtisodiy hisob-kitoblarni qilinmaganligi natijasida qayta qurish bo‘yicha samarasiz ishlarni amalga oshirildiki, oqibatida qayta qurishga ketgan sarflardan ham oshib ketdi.

Hozirgi paytda kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshirish birinchi navbatda korxonalarni texnik qayta qurollantirish, mexanizatsiya va avtomatizatsiya, uni ixtisoslashtirish, texnologiyani yaxshilash va tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va bank kreditlari hisobiga korxonalarni texnik qurollantirish ko‘payib boradi.

Kapital qo‘yilmalar dastavval boshlangan qurilishlarni tugatish va ishga tushirish lozim bo‘lgan ob’ektlarga yo‘naltiriladi, shuning asosida ishlab chiqarish quvvatlarini va asosiy fondlarni ishga tushirishga erishish mumkin bo‘ladi. Kapital qurilish asosiy fondlarni barpo etishning barcha bosqichlarini (ob’ektni loyihalashtirishdan boshlab to uni ishga tushirishgacha bo‘lgan jarayonni) qamrab oladi. Uning asosiy hal qiluvchi bosqichi qurilish-montaj ishlarini bajarish hamda qurilayotgan ob’ektning ishga tushirilishini ta’minlash hisoblanadi. Ushbu bosqich moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmog‘i bo‘lgan “qurilish industriyasi” bilan amalga oshiriladi. Kapital qo‘yilmalarni samaradorligini oshirish vazifasini bajarish uchun har bir sarflangan so‘m uchun mahsulot ishlab chiqarishni o‘sishini oshirishga erishish va uning keng miqyosda tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- alohida tarmoqlarga va korxonalarga kapital qo‘yilmalarni yo‘nalishini iqtisodiy asoslash;

- o‘zining texnik darajasi bo‘yicha fan va texnika yangi yutuqlariga javob beradigan va mehnat unumdorligini o‘sishini, mahsulot tannarxini pasayishni va ishlab chiqarishni foydaliligini o‘sishini ta’minlaydigan qurilishlarni va loyihalarni sifatini oshirish;

- qurilishlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni tezlashtirish, loyiha–smeta hujjatlari va moddiy-texnik resurslar va ishlab chiqarishni tashkil qilishni ta’minlash.

Kapital qo‘yilmalarni korxonalarda belgilangan me’yorlar doirasida rejalashtirish uning iqtisodiy rivojlanish rejasining ajralmas qismi bo‘lib, korxonaning ishlab chiqarishini va uni ishlab chiqarish

salohiyatini takomillashtirish asosi bo‘lib xizmat qiladi. Rejalashtirish kapital qurilishni uzluksizligini ta’minlaydi va ularni o‘z vaqtida amalga oshirishni imkon yaratadi. Aytish joizki, sarflanayotgan kapital qo‘yilmalarining 65,1 foiz ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ob’ektlarga va 34,9 foiz ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ob’ektlarga sarflanmoqda. Barcha kapital qo‘yilmalarning asosiy qismi – 46,5 foiz qurilish-montaj ishlariga, 41,5 foiz asbob-uskunalar va jihozlarga, mavjud inventarlarni ta’mirlashga va qolgan 12 foiz boshqa turli xil jarayonlarga sarflanmoqda[92]. Ishlab chiqarish ob’ektlari bo‘yicha davlat kapital mablag‘lari sarfining takror ishlab chiqarish tuzilishini olib qaraydigan bo‘lsak, shu narsa ayon bo‘ldiki, bu maqsadga yo‘naltirilayotgan barcha kapital qo‘yilmalarining yarmidan ko‘prog‘i ishlab turgan korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va ularni rekonstruksiya qilishga ketmoqda.

Kapital qo‘yilmalarni to‘g‘ri rejalashtirish uchun va qurilish ishlab chiqarishini to‘g‘ri tashkil qilish uchun mahalliy tashabbusni kengaytirish lozim. Rejalashtirsh kapital qurilish muntazamligini ta’minlashi va qurilishlarni o‘z vaqtida tugatilishiga sharoit yaratishi lozim. qurilish nisbatan ishlab chiqarish siklini qayta muddat talab qilishligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham tayyorgarlik davri uzoq vaqtni o‘z ichiga oladi. Kapital mablag‘larni o‘zlashtirish bo‘yicha rejalarni yo‘qligi qurilish va rekonstruksiya qilish ishlarini qimmatlashtiradi. Kapital qo‘yilmalar joriy rejalashtirishni va qurilish-montaj ishlarini asosi bo‘lgan istiqbol rejalarini ishlab chiqish muhim bo‘lib hisoblanadi. Istiqbol rejalardan kelib chiqib ishlarni yillar bo‘yicha, yangi talablar asosida taqsimlash uchun aniqlashtirilgan rejalar va dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha reja topshiriqlari muayyan tarmoqlar, iqtisodiy mintaqalar va korxonalar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishlarida mo‘ljallangan o‘sishni ta’minlovchi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini o‘z vaqtida ishga tushirishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham sanoatdagi kapital qo‘yilmalar rejasi sanoat ishlab chiqarishining ishlab chiqarish dasturi bilan bog‘liq ravishda tuziladi. Shu bilan birga kapital qo‘yilmalar rejasi boshqa rejalar bilan muvofiqlashtirib tuziladi, bu esa o‘z navbatida kapital qurilishlarni o‘z vaqtida moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash imkoniyatini beradi.

Kapital qo‘yilmalarni tarmoqlar bo‘yicha taqsimlash yoki sanoatda kapital qo‘yilmalarini tarmoqlararo tarkibi o‘sha davrning

[92] www.stat.uz ma’lumotlari bo‘yicha

xo‘jalik-siyosiy vazifalari bilan belgilanadi. Mohiyat jihatidan yangi qurilish, kengaytirish, ta’mirlash, texnik qayta qurollantirish va amaldagi ob’ektlarni modernizatsiya qilish yo‘li bilan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlarini barpo etish jarayoni kapital qurilishni anglatadi. Uning yordamida jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlar yangilanadi.

“Kapital qurilish” tushunchasi adabiyotlarda va amaliyotda ikki xil tarzda talqin qilinadi: moddiy ishlab chiqarishning tarmog‘i sifatida va ishlab chiqarish faoliyatining turi sifatida. *Tarmoq sifatida* kapital qurilish quyidagi asosiy belgilari bo‘yicha harakterlanadi: aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish; texnologik jarayonlarning umumiyligi; malakali mutaxassislarning mavjudligi. Ishlab chiqarish faoliyatining turi sifatida kapital qurilish quyidagi kompleks ishlarni bajarishi asosida korxonalar bino va inshootlarini barpo etishni (yaratishni) tavsiflaydi: qurilishni amalga oshirish uchun uskunalar montaji; loyiha-qidiruv ishlari; qurilish maydonini tayyorlash; sanitar-texnik qurilmalarni (kanalizatsiya, suv o‘tkazgichlar va h.k.) barpo etish va boshq. Qurilish mahsuloti hisoblangan binolar, inshootlar va boshqa ob’ektlar ko‘p qirrali, konstruksiyasi murakkab bo‘lgan ob’ektlar hisoblanadi. Bu qurilish ishlarini ishlab chiqarishning xususiyatlari bilan harakterlanadi. Qurilishning asosiy xususiyati uning industrlashganligi bilan belgilanadi. Qurilishni industrlashtirish qurilish tarmog‘ida ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Qurilish industriyasi deganda sanoat ishlab chiqarish bloklari va konstruksiyalar holatidan kelib chiqib, qurilish ishlab chiqarishini bino va inshootlarni montaj qilish va yig‘ish jarayonini mexanizatsiyalashtirishga aylantirish tushuniladi.

Qurilishni industrlashtirish qurilish ishlarining texnologiyasi bo‘yicha keng ko‘lamdagi o‘zgarishlarni olib kiradi. Qurilishni industrlashtirishning asosiy elementlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: yig‘ma qurilishni rivojlantirish; qurilish-montaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish; qurilish ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish. Kapital qurilish ko‘p aloqalarni harakterlaydigan murakkab jarayondir. Uning asosiy xususiyati: ob’ektlarni qurishning texnik va tashkiliy jihatdan murakkabligi; moddiy, mehnat va pul resurslari harajatlarining ko‘pligi, ishlab chiqarish siklining davomiyligidir.

Kapital qurilishning asosiy vazifasi ijtimoiy-madaniy ahamiyatga doir ob’ektlar, uy-joy, bino va inshootlarni zamonaviy texnik asosda

qurish, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishdan iboratdir. Aholi farovonligining oshishi, moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining yanada rivojlanishi kapital qurilishning hajmi va samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Kapital qurilish o‘z vazifasini bajara turib, investitsiya jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Investitsiya jarayonlarida kapital qurilishning o‘rni va ahamiyatini aniqlash uchun kapital qo‘yilmalarning texnologik tarkibiga murojaat qilish zarur bo‘ladi.

Kapital qurilish – asosiy vositalarni yaratish va ularni rekonstruksiya qilish, shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan asosiy fondlarni texnik jihatdan qayta jihozlash bo‘yicha faoliyat. Kapital qurilish harayoni loyihalash va tadqiqot, qurilish montaj ishlari, qurilish montaj ishlari, qurilish materiallari va transport xizmatlarini o‘z ichiga oladi[93].

Qurilish tarmog‘i qurilayotgan obektlarning harakteri va maqsadiga qarab bir necha quyi tarmoqlarga bo‘linadi (9.1-rasm).



9.1 – rasm. Qurilayotgan obektlarning harakteri va maqsadiga ko‘ra tarmoqlarga bo‘linishi

Rasmda keltirilganidek, tarmoqlarga bo‘linish, o‘z navbatida, qurilishda ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va qurilish quvvatlarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda biror-bir tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun kerak. Investitsiyalar kiritilishida va investitsion loyihalar ishlab chiqishda hamda tarmoq tahlilini amalga oshirishda yuqorida keltirilgan har bir tarmoq xususiyatlarini e’tiborga olish talab

[93] Metodicheskiye rekomendatsiy po otsenke effektivnosti investitsionnix proyektov (vtoraya redaksiya) : ofitsialnoye izdaniye / Ministerstvo ekonomicheskogo razvitiya i torgovli Rossiyskoy Federatsii, Ministerstvo finansov Rossiyskoy Federatsii, Gosudarstvenniy komitet po stroitelstvu, arxitekture i jilishnoy politike. ; ruk. av!\ kol. : V.V. Kosov, V.N. Livshits, A.G. Shaxnazarov. M. : Ekonomika, 2000.

etiladi. Qurilish majmuasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va joylashtirish uchun qurilish hududi va joyini tanlashga ta’sir qiluvchi barcha omillar va shartlarni miqdoriy ifodalashga imkon beradigan usullarga ega bo‘lish lozim. Bunday usullar tarkibiga ekonometrik modellarni kiritish lozim bo‘lib, u o‘zgaruvchan kattaliklarning berilgan chiziqli cheklashlarni va ushbu kattaliklarning maqsadli funksiyasini maksimallashtiruvchi yoki minimallashtiruvchi qiymatlari majmuasini topish talab qilinadigan ekstremal masalalarni yechishning nazariyasi va amaliyotini o‘zida birlashtiradi[94].

Demak, qurilish tarmog‘ida investitsiyalardan foydalanish jarayonlarini chuqur o‘rganish uchun ham iqtisodiy ham ekonometrik tahlilini olib borish tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng kapital qurilish yangi dastur asosida davom ettirildi. Respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan avtomobil, oltin qazib olish, neft va boshqa sanoat tarmoqlarida yangi korxonalarni qurish boshlandi. Barcha viloyatlarda sanoat korxonalari, uy-joylar, madaniy-maishiy binolar, bozor va savdo rastalari, hammom, choyxona, shifoxona, mahalla markazlari, masjidlar qurildi, o‘nlab me’moriy majmualar, tarixiy yodgorliklar, madrasalar, masjidlar ta’mirlandi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida qurilish ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida ayrim qurilish vazirliklari tugatilib, mulkchilikning turli shakllariga o‘tkazilgan ixtisoslashgan davlat konsernlari, kompaniyalar, davlat aksiyadorlik birlashmalari, uyushmalar tashkil etildi. Ularning eng yiriklari: “O‘zsanoatxo‘jalikqurilish” korporasiyasi, “O‘zmontajmaxsusqurilish” uyushmasi, “O‘zdehqonchilik-qurilish”, “O‘zjamoaxo‘jalikqurilish” davlat shirkat birlashmalari, “Toshkentuyjoyinvestqurilish” korporasiyasi va boshqalardir. Suv xo‘jaligi va meliorativ ishlarni “O‘zsuvqurilish” davlat konserni olib boradi. “O‘ztransqurilish”, “O‘zavtoyo‘l” konserni, Energetika va elektrlashtirish vazirligi ham qurilish ishlarini bajaradi. Qurilish amaliyotida mijoz odatda umumiy ishni bajaruvchi bir buyurtmachi bilan yakunlaydi, u ishlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun hamda javobgarlikni muvofiqlashtirish majburiyatini oladi. Muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subpudratchi jalb qiladi. Bu esa o‘z navbatida shartnoma

[94] Bayxonov B.T. O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Monografiya. // Toshkent: “IQTISODIOT”, 2017.-203 bet.

asosida qurilish tarmog‘iga investitsiya qilinish chora-tadbirlarini belgilaydi.

Qurilish sohasida olib borilgan islohotlar har yili amalga oshirilib unda o‘tgan yilda rejalashtirilgan ishlarning yakunlari va kelgusida qilinadigan vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlar belgilab olinadi. 2020 йилнинг январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикасида жами 87823,8 млрд. сўм қурилиш ишлари бажарилиб, ўсиш суръати 2019 йилга нисбатан 109,1 % ни ташкил этди. Қурилиш ишлари ҳажми йирик қурилиш ташкилотлари, кичик корхона ва микрофирмалар ҳамда норасмий секторларда амалга оширилган ишлар таркиби бўйича шаклланади. 2021 йил 1 январь ҳолатига кўра, қурилиш соҳасида корхона ва ташкилотлар сони 40,9 мингтани ташкил этиб, 2020 йилга нисбатан 4,7 минг бирликка ошди.

Жами қурилиш соҳасидаги корхона ва ташкилотлар сони кўпайишининг асосий омили бу ихтисослаштирилган қурилиш ишларининг 2019 йилга нисбатан 108,0 % га (жами корхоналарнинг 58,1 % ини ташкил этади), фуқаролик обектларини қуриш соҳасидаги корхона ва ташкилотларнинг сони 122,2 % га (жами сонидаги улуши 9,3 %), бино ва иншоотлар қурилиши соҳасида 120,8 % га (жами сонидаги улуши 32,6 %) ўсишидир.

Давлат мулкчилигидаги ташкилотлар томонидан жами 3652,0 млрд. сўм ёки жами қурилиш ишларидан 4,2 % қурилиш ишлари бажарилди. Нодавлат мулкчиликдаги ташкилотлар томонидан эса 84171,8 млрд. сўм ёки жамига нисбатан 95,8 % қурилиш ишлари бажарилди. Бажарилган қурилиш ишларининг катта қисми янги бино ва иншоотларни қуришга тегишли. Жами қурилиш ишларининг 70,5 % и ёки 61881,7 млрд. сўм қурилиш ишлари айнан иқтисодиётда янги ишлаб чиқариш қувватлари, турар-жой ва бошқа ижтимоий объектларни яратишга қаратилган. Йирик қурилиш ташкилотлари бўйича янги қурилиш ҳисобидан 20639,4 млрд. сўмлик ишлар бажарилди ёки жами йирик қурилиш корхоналарининг янги қурилиш ишларидаги улуши 33,4 % ни ташкил этди. Кичик корхона ва микрофирмалар бўйича янги қурилиш ҳисобидан 26260,4 млрд. сўм ёки жами кичик корхона ва микрофирмаларнинг янги қурилиш ишларидаги улуши 42,4 % ни ташкил этди. Янги қурилиш ишлари ҳажмида норасмий сектор ҳиссаси 14981,8 млрд. сўм ёки уларнинг жамига нисбатан улуши

24,2 % ни ташкил этди (9.1-jadval).

Иқтисодий фаолият турлари бўйича қурилиш ишларининг асосий қисми қурилиш, турар жой ва яшаш учун мўлжалланган ҳамда яшаш учун мўлжалланмаган бинолар қуриш бўйича амалга оширилган қурилиш ишларидан ташкил топди. Бинолар ва иншоотларни қуриш бўйича қурилиш ишлари таркибида йирик қурилиш ташкилотлари томонидан бажарилган қурилиш ишлари улуши 26,6 % ни ташкил этиб, 2019 йилга нисбатан 4,7 % пунктга кўпайди. Ушбу фаолият турида кичик корхона ва микрофирмалар ҳиссасига тўғри келган улуш 2019 йилга нисбатан 3,4 % пунктга камайиб, 46,7 % ни ташкил этди.

9.1 – jadval

2020 йил январь-декабрь ойларида ҳудудлар кесимида қурилиш ишлари

	Қурилиш ишлари, млрд. сўм	**Ўсиш суръати % да**	**Шу жумладан, янги қурилиш, реконструкция, кенгайтириш ва техник қайта қуроллантириш**
Ўзбекистон Республикаси	87823,8	109,1	61881,7
Қорақалпоғистон Республикаси	3785,9	101,5	2341,7
вилоятлар:			
Андижон	4474,4	104,9	3053,3
Бухоро	5387,2	111,4	3054,3
Жиззах	2766,5	103,5	2215,6
Қашқадарё	4928,2	100,2	3151,0
Навоий	4392,9	105,3	3101,3
Наманган	4491,8	113,6	3392,6
Самарқанд	5665,9	109,9	3842,1
Сурхондарё	4690,6	107,1	3579,3
Сирдарё	2192,1	100,3	1001,8
Тошкент	6930,6	105,2	4364,9
Фарғона	5089,6	107,2	3137,5
Хоразм	3032,0	103,3	2217,1
Тошкент ш.	18758,9	104,1	12191,6

Норасмий секторнинг улуши эса 2019 йилга нисбатан 1,2 % пунктга камайиб, 26,7 % ни ташкил этди.

Bu borada hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan islohotlar

va qabul qilingan farmon hamda dasturlarda:

- qishloq joylarida sanoat ishlab chiqarish va qurilishini jadal rivojlantirish hamda lokalizatsiyalashtirish;

- qishloq hayotini tubdan yuksaltirish, aholi punktlarini me'moriy jihatdan loyihalashtirish;

- qishloq uylari va ijtimoiy inshootlarini namunaviy loyihalash, qishloq obektlarini barpo etish;

- zamonaviy uylar qurish, qishloq vrachlik punktlari, sport inshootlari, maktablar bo‘limini rivojlantirish, qurish, qishloq infratuzilmasini barpo etish kabi vazifalar belgilanganligi va ularni izchillik bilan amalga oshirilganligi bilan izohlash o‘rinli.

Hozirgi kunda tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonini oshirish mumkin emas, chunki, ular sonini bir foiz oshirish tarmoqda bajarilgan ishlar hajmini 0,1 foiz kamayishiga olib kelishi aniqlandi. Shu bois hozirgi kunda qurilish ishlab chiqarishining harakteri ham tubdan o‘zgardi. Og‘ir qo‘l mehnati yirik va mayda mexanizatsiya vositalari tomonidan tobora siqib chiqarilmoqda. Quruvchi-montajchilarning qurilish maydonchalaridagi mehnati industrial mehnatning bir turiga aylanib bormoqda. Bizningcha, qurilish ishlab chiqarishining texnik jihozlanganlik darajasi ortib borgan sari, jonli mehnat sarflari kamayib, yengillashib boradi, bundan tashqari, uning unumdorligi ortadi, qurilishning muddatlari qisqarib, uning sifati yaxshilanib boradi. Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarni sotib olish, qurish bilan bog‘liq harajatlar kapital sarflar yoki kapital qo‘yilmalar deyiladi. Kapital qo‘yilmalar bilan harajatlarni bir-biridan farqlay bilish kerak. Harajat, albatta, shu davrda daromad keltirishi kerak. Kapital qo‘yilma bir necha yillardan keyin daromad keltira boshlaydi.

Qurilish mahsuloti – barcha turdagi ishlar bo‘yicha tugallangan va ishga tushirishga tayyor bo‘lgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari, shuningdek, amaldagi korxonalarning kengaytirilishi va qayta ta'mirlanishi, ularda ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlanishidir. Uy-joy muammolarining yechimi batamom qurilish zimmasiga yuklatiladi.

Qurilishning milliy xo‘jalik miqyosidagi ahamiyati va yetakchi rol o‘ynashi, aholining katta qismini ish bilan ta'minlashi, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuviga, ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishiga imkon yaratishini e'tiborga oladigan bo‘lsak, ushbu sohani rivojlantirish mamlakat aholisining turmush

farovonligini oshishiga olib keladi. Keltirib o‘tilgan maqsadga erishish uchun tarmoq iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini izlab topish va tadqiqotlar olib borish orqali investitsiyalarning tavakkalchilik hamda xatarlilik darajalarini aniqlash, ularni pasaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Kapital qurilishda qurilish muddatlarini qisqartirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u kapital qo‘yilmalarning tezroq qoplanishini ta’minlaydi. Masalan, qurilayotgan ob’ekt qandaydir mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lsa, bunda qurilish muddatini qisqartirish evaziga qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish, qurilish muddati tugagandan so‘ng qo‘shimcha foyda olish imkoniyati bo‘ladi. Kapital qurilish jarayonida uch bosqich ajratiladi. Uni quyidagi rasm orqali ifodalaymiz:



9.2-rasm. Kapital qurilishning bosqichlari

Qurilish maydonini tanlash va ob’ektni loyihalashtirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi: qurilayotgan ob’ektning maqsadga muvofiqligi yuzasidan texnik-iqtisodiy tadqiqotlar olib borish; ob’ektni loyihalashtirish va qurilish uchun texnik-muhandislik ishlariga tayyorgarlik ko‘rish. Har bir yo‘nalish o‘zining maqsad va vazifalariga ega. Texnik-iqtisodiy tadqiqotlar jarayonida kelgusi ob’ektning (qurilishi mo‘ljallangan ob’ektning) asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi va qurilishni amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi baholanadi. Loyihalashtirish bosqichida ob’ektning konstruktiv yechimlari, qurilishni tashkil etishning usullari va ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, qurilishning smeta qiymati aniqlanadi. Unday keyin qurilish uchun texnik-muhandislik tayyorgarlik ishlari amalga

oshiriladi.

Qurilishni amalga oshirish bosqichida qurilish maydonida qurilish jarayonining barcha texnologik elementlari qo‘shiladi. Bunda qurilish ishlab chiqarishidagi jami harajatlar, bino va inshootlarning moddiy-mulkiy elementlari bo‘yicha harajatlari shakllantiriladi. Qurilish ishlab chiqarishining barcha elementlarining o‘zaro aloqadorligini yaxshilash uchun qurilish mahsulotini barpo etish texnologiyasi (mehnat predmetlarining (beton, g‘isht, temir, tosh va boshq.) sifat o‘zgarishlari bilan tavsiflanuvchi qurilish jarayonlarini olib borishning usullari va vositalari) ishlab chiqiladi. Qurilish jarayoni qurilish maydonida amalga oshiriluvchi asosiy, qo‘shimcha va xizmat qiluvchi texnologik operatsiyalarning jami o‘zaro aloqalarini anglatadi, o‘zaro aloqalar natijasida qurilish mahsuloti yaratiladi.

Qurilish ob’ektini foydalanishga (ekspluatatsiyaga) topshirish bosqichida qurilib bitkazilgan ob’ektlar ishga tushiriladi va tayyor mahsulot sifatida buyurtmachiga topshiriladi. Takror ishlab chiqarishning uch bosqichi kapital qo‘yilmalar aylanishining uch bosqichiga muvofiq keladi: 1) qurilish – asosiy fondlarni barpo etish shakli sifatida; 2) qurilish mahsulotining asosiy fondlarga aylanishi shakli sifatida; 3) pul mablag‘larini mahsulotga aylantirish maqsadida takror ishlab chiqarishning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko‘rish.

Ishlab chiqarish ob’ekti qurilishining davomiylik sikli qurilish maydonini rejalashtirishdan boshlab to uni ishga tushirishgacha (ekspluatatsiya) bo‘lgan oraliq vaqtni (davrni) ifodalaydi. Kapital qurilish tizimida investitsiya jarayonlarining asosiy qatnashchilari sifatida investorlar, buyurtmachilar, quruvchilar, pudratchilar, loyihalashtiruvchilar ishtirok etadi. Investor – o‘z mablag‘larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob’ektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub’ekti hisoblanadi. Investor huquqiy jihatdan investitsiya natijalariga o‘zi egalik qiladi. U kapital qo‘yilmalarni joylashtirish sohalarini o‘zi tanlaydi, qurilayotgan ob’ekt uchun shartnoma shartlarini ishlab chiqadi, investitsiya jarayoni qatnashchilari bilan moliya-kredit munosabatlarini amalga oshiradi.

Buyurtmachi – ob’ekt qurilishi bo‘yicha boshqaruvni va tashkiliy masalalarni (texnik-iqtisodiy asosnomani ishlab chiqishdan to ob’ektni ishga tushirishgacha yoki ekspluatatsiyaga topshirishgacha) zimmasiga oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir. Tugallanmagan qurilishning

mulkdori u buyurtmachiga topshirilguncha va uning haqi to‘languncha pudratchi hisoblanadi. Agar pudrat ob’ekti nobud bo‘lsa yoki shikastlansa, ob’ekt qabul qilib olingunga qadar uning tasodifan nobud bo‘lish yoki tasodifan shikastlanish xavfi pudratchi zimmasida bo‘ladi. Bajarilayotgan ishlarning xavfsizligi uchun pudratchi javobgar bo‘ladi. Agar shartnomada taraflar boshqacha tartib va shartlarni belgilab qo‘ygan bo‘lmasalar, shartnomada nazarda tutilgan ob’ektni yoki ishlar majmuini pudratchi o‘z hisobidan sug‘urtalashi shart. Kapital qurilishda loyihalashtirish qurilishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi hisoblanadi. Qandaydir ob’ektni (korxona, bino, inshoot) qurish uchun, eng avvalo, uni loyihalashtirish zarur bo‘ladi.

§ 9.2. Kapital qurilishda loyihalashtirish va tanlovni tashkil etish

Qurilish ob’ektlarini loyihalashtirish jarayoni, qoida tariqasida 3 bosqichga bo‘linadi. Ob’ektlarni loyihalashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Loyihalashtirishni tashkil etishning taxminiy sxemasini 9.2-jadval asosida ifodalash mumkin.

Qurilishning amalga oshirilishi tegishli tartibda tasdiqlangan loyihaviy hujjatlarsiz amaldagi qonunchilikka ko‘ra ta’qiqlanadi. Kapital qurilishni loyihalashtirishda loyiha oldi hujjatlari, loyiha hujjatlari, dastlabki TIA yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash, yakuniy TIA yoki texnik-iqtisodiy hisoblash, ishchi loyiha, smeta, ish hujjatlari, loyihalovchi, yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi), qurilishlarning aniq ro‘yxati, qurilishlarning titul ro‘yxati, mablag‘ bilan ta’minlovchi organ, ijro hujjatlari, qurilish maydoni, vaqtinchalik inshootlar, biriktiriladigan ishlar, shartnoma narxini bo‘lib chiqish kabi tushunchalar qo‘llaniladi. Shuni ta’kidlash joizki, kapital qurilishda loyihalashtirishning markaziy qismini loyihaning TIA egallaydi.

Taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan V.Berens, P.Xavraneklar fikricha: “***texnik-iqtisodiy asoslash*** – bu salohiyatli investorlar, loyiha quruvchilari va moliyachilarni investitsiyalash va moliyalash usullari bo‘yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minlovchi vosita”[95]. Rossiyalik olim V.Zolotogorov: “texnik-iqtisodiy asoslash – bu investitsiya loyihasining samaradorligi va maqsadliligini ko‘rib chiqishga imkon beruvchi texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko‘rsatkichlarni aks

[95] Berens V., Xavranek P.M. Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy: Per. s angl. perer. i dopoln. Izd-vo. – M.: «Intereкspert», «Infra-M», 1995. – S. 6.

ettiruvchi hisob-analitik hujjatlar to‘plami”[96], deya tavsiflaydi. Umuman aytganda, birinchidan, loyihani TIA uning samaradorligi va afzalligini ta’minlash uchun olib borilgan izlanishlar natijasida olingan tahliliy ma’lumotlarni, baholash va hisob-smeta ko‘rsatkichlarini, texnik va tashkiliy qarorlarni o‘zida mujassam etuvchi hisob-analitik hujjatlar to‘plami hisoblanadi.

9.2-jadval

Loyihalashtirish ishlarini bosqichlar bo‘yicha tashkil etish sxemasi[97]

Ishlar bosqichi	Asos	Ijrochilar
1-bosqich. Loyiha oldi ishlari		
1.1. Texnik-iqtisodiy asosnoma (TIA) ishlab chiqish	Kapital qo‘yilmalarning rejasi. Qaror (qurilishni amalga oshiruvchi tashkilotning buyruqlari)	Buyurtmachi yoki uning topshirig‘iga ko‘ra loyihaviy yoki ilmiy-tadqiqot tashkiloti
1.2. Loyihalashtirish uchun shartnomalar tuzish	Buyurtmachining taklifi	Buyurtmachi yoki loyihaviy tashkilot
2-bosqich. Loyihaviy ishlar		
2.1. Qidiruv-izlanish	Buyurtma va shartnoma	Loyihaviy tashkilot
2.2. Bosqichlar bo‘yicha loyihani ishlab chiqish	Loyihalashtirish uchun belgilangan vazifalar (buyurtma), loyihani ishlab chiqish va shartnoma tuzish uchun yo‘riqnoma	Loyihaviy tashkilot
3-bosqich. Loyihani ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash		
3.1. Loyihani ekspertizasi	Loyihani ishlab chiqish tartibi bo‘yicha yo‘riqnoma va loyihani ekspertiza qilish bo‘yicha yo‘riqnoma	Loyihaviy tashkilot, loyihalar ekspertizasi bo‘limi
3.2. Loyihani tasdiqlash	Loyihani ishlab chiqish tartibi bo‘yicha yo‘riqnoma	Loyihaviy tashkilot, tegishli muassasa tomonidan loyihaning tasdiqlanishi

Tanlovlar iqtisodiyotda nisbatan yangi hodisa bo‘lib, bunda buyurtmachi biror ob’ektni qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar yetkazib berish bo‘yicha tanlov e’lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va xohlovchilarni shu tanlovda ishtirok etishga

[96] Zolotogorov V.A. Investitsionnoye proyektirovaniye: Ucheb.pos. – Mn.: «Ekoperspektiva», 1998. – S. 33.
[97] www.ziyonet.uz ma’lumotlari asosida

taklif qiladi. Bunda maxsus hujjat tayyorlanadi va unda tanlovning asosiy g‘oyasi, uning tijoriy va boshqa shartlari ko‘rsatiladi. Bunday hujjatlar majmuasi “tender” deb ataladi.



9.3 - rasm. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligi

O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilish, shuningdek, ilgari to‘xtatib qo‘yilgan ob’ektlar qurilishini davom ettirish bilan bog‘liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini bajarish, tovarlar harid qilish, asbob-uskunalar sotib olish Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli qaroriga asosan tanlov savdolari (tenderlar) orqali amalga oshiriladi.Uni tashkil etish va o‘tkazish tartibi va shartlarini ushbu qarorda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risida”gi Nizom belgilaydi.

Investor, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi, tanlov komissiyasi va oferentlar tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari hisoblanadi.

Tanlov savdolari quyidagilarga bo‘linadi:

– ochiq tanlov savdolari – oferentlar soni cheklanmaydi;

– yopiq tanlov savdolari – oferentlar soni cheklanadi.

Yopiq tanlov savdolari o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Ochiq yoki yopiq tanlov savdolari talabgorning malakasi oldindan aniqlangan holda yoki

aniqlanmasdan yohud ikki bosqichli bo‘lishi mumkin. Talabgorning malakasini oldindan aniqlash tanlov savdolarining birinchi turi, tanlov savdolarining g‘olibini aniqlash – uning ikkinchi turi hisoblanadi. Talabgorning malakasi oldindan aniqlanadigan ochiq yoki yopiq tanlov savdolarini o‘tkazishda talabgorlarning umumiy ro‘yxati tuziladi, talabgorning malakasi oldindan aniqlanadi va malakasi oldindan aniqlangan talabgorlar o‘rtasida tanlov savdolari o‘tkaziladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolari:

– buyurtmachi tanlov savdolari predmetining aniq tavsifini va o‘ziga xosligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan;

– shartnomada ishlarni ularning rentabelligini ta’minlash uchun etarli bo‘lgan yoki tadqiq etish yoki ishlab chiqishga sarflangan harajatlar qoplanishini ta’minlaydigan hajmlarda bajarish nazarda tutilgan hollardan tashqari, buyurtmachi ilmiy-tadqiqotlar, eksperimentlar o‘tkazishga, qidiruvlar yoki ishlanmalar yuzasidan shartnoma tuzish niyatida bo‘lgan hollarda o‘tkaziladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolari quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

– birinchi bosqichda konseptual qaror va texnik, tijorat jihatidan aniqlanishi va tuzatilishi kerak bo‘lgan, tanlov hujjatlarida ko‘rsatilgan shartlar asosida ishlab chiqilgan oferta bahosi ko‘rsatilmagan holda taqdim etiladi. Tanlov savdolari predmeti parametrlari bo‘yicha oferent bilan muzokaralar olib borilishiga yo‘l qo‘yiladi. Ofertalarning umumiy sonidan tanlov savdolarining ikkinchi bosqichida qatnashishga yo‘l qo‘yiladigan ofertalar tanlab olinadi;

– ikkinchi bosqichda tanlov savdolari predmetining aniqlashtirilgan parametrlari hisobga olingan, bahosi majburiy tartibda ko‘rsatilgan holda ofertalari tanlov savdolarining ikkinchi bosqichiga o‘tgan qatnashchilarning takliflari va buyurtmalari berilgan holda tanlov hujjatlariga tuzatish kiritiladi.

§ 9.3. Buyurtmachi va pudratchining huquq va majburiyatlari. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi

Kapital qurilish tizimida buyurtmachi va pudratchilarning ma’lum huquqlar va majburiyatlarga ega. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega: talabgorning malakasini oldindan aniqlash yoki buningsiz tanlov savdolari o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish; rasmiy farmoyish beruvchi hujjat chiqargan holda tanlov savdolarini o‘tkazish shakli, turi va sanasini belgilash; tanlov savdolari tashkilotchisi funksiyasini amalga oshirish (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan tashkilotga berishi

mumkin); mustaqil ravishda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etgan holda tanlov savdolari predmetining boshlang‘ich qiymatini belgilash.

Buyurtmachining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

– barcha ishlar bajarib bo‘linganidan keyin belgilangan narxning hammasini pudratchiga to‘lashi yoki ishlarning ayrim bosqichlari tugallanganidan keyin narxning tegishli qismini to‘lashi;

– pudratchidan olingan loyiha-smeta hujjatlaridan faqat shartnomada nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanishi, loyiha-smeta hujjatlarini pudratchining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermasligi va undagi ma’lumotlarni oshkor qilmasligi;

– loyiha va qidiruv ishlarini bajarishda shartnomada nazarda tutilgan hajmda va shartlarda pudratchiga xizmat ko‘rsatishi;

– tayyor bo‘lgan loyiha-smeta hujjatlarini tegishli davlat organlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan kelishib olishda pudratchi bilan birga qatnashishi;

– pudratchiga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tufayli loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar o‘zgarishi bilan bog‘liq qo‘shimcha harajatlarni pudratchiga to‘lashi;

– tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining yoki bajarilgan qidiruv ishlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan buyurtmachiga nisbatan qo‘zg‘atilgan da’vo yuzasidan ishda qatnashishga pudratchini jalb qilishi shart.

Pudratchining majburiyatlari. Loyiha va qidiruv ishlari pudrat shartnomasiga muvofiq pudratchi:

– ishlarni loyihalash haqidagi topshiriq va boshqa boshlang‘ich ma’lumotlarga muvofiq bajarishi;

– tayyor bo‘lgan loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachi bilan kelishib olishi, shuningdek, buyurtmachi bilan birga tegishli davlat organlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan kelishib olishi;

– tayyor bo‘lgan loyiha-smeta hujjatlarini va qidiruv ishlari natijalarini shartnomada belgilangan muddatlarda buyurtmachiga topshirishi;

– buyurtmachining roziligisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

Kapital qurilishda buyurtmachi tomonidan quyidagilar ta’minlanadi: yer uchastkasini tanlash va ajratish, birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarni va qurilish hududini tayyorlash, loyiha oldi

ishlarini tashkil etish, loyihaning, ish hujjatlarining (ob’ektni foydalanishga tayyor holda qurish hollaridan tashqari) va tanlov hujjatlarining tasdiqlanadigan qismini kelishish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash; loyihalovchi va pudratchini (bosh pudratchini) tanlov savdolari orqali tanlash; ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallari bilan birgalikda shartnomalar tuzish; qurilish ob’ektini Davlat arxitektura qurilish nazorati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish; pudratchiga qurish uchun birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarni berish; buziladigan, ko‘chiriladigan yoki rekonstruksiya qilinadigan binolarda, shuningdek, ob’ekt qurilishi hududida yashayotgan shaxslarni ko‘chirish; moliyalashtirish, pudratchi tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlariga va shartnomada qayd etilgan boshqa funksiyalarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish; texnik kuzatish va ob’ekt qurilishi ustidan texnik nazorat qilish; qurilishi tugallangan ob’ektni belgilangan tartibda foydalanish uchun qabul qilish; kafolatli davrda aniqlangan nuqsonlar bartaraf etilishi ustidan nazorat qilish.

Pudratchi tomonidan quyidagilar ta’minlanadi: ish hujjatlarini ishlab chiqish va uning texnologiya qismini buyurtmachi bilan kelishgan holda qurilish jarayonida (ob’ekt foydalanishga tayyor holda qurilganda) ekspert kuzatish; ish hujjatlarini (ob’ekt foydalanishga tayyor holda qurilganda) texnologik izchillik va ob’ekt qurilishining aniq shartlari bilan bog‘liqlikda hajmlar va muddatlarda ishlab chiqarishga berish; ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq hamda belgilangan standartlarga, qurilish me’yorlari va qoidalariga rioya qilgan holda tasdiqlangan loyihada nazarda tutilgan ishlarni bajarish; shartnomaga muvofiq qurilishni asbob-uskunalar, konstruksiyalar va qurilish materiallari bilan butlash;

Buyurtmachi va pudratchi qonun hujjatlariga va shartnoma shartlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi. Buyurtmachi bilan pudratchi o‘rtasidagi vazifalarni aniq taqsimlash, shuningdek, ularning mulkiy javobgarligi darajasi qonun hujjatlariga va tanlov savdosi shartlariga muvofiq aniq bir pudrat shartnomasini tuzishda aniqlashtiriladi. Ob’ektni foydalanishga qabul qilib olish belgilangan sifat standartlari hisobga olingan holda «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi organlarining xulosasi asosida buyurtmachi tomonidan ta’minlanadi. Qurilishning qiymati va uni moliyalashtirish hajmlarini aniqlash, shuningdek, buyurtmachi va pudratchi o‘rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirishga oid hujjat smetani anglatadi va u tayyor qurilish mahsulotining bahosini ifodalaydi.

Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi yoki uni aniqlash usullari ko‘rsatiladi. Pudrat shartnomasidagi ishning bahosi pudratchining chiqimlarini va unga to‘lanadigan haqni o‘z ichiga oladi. Ishning bahosi smeta tuzish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin. Ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta bo‘yicha bajarilgan taqdirda, smeta buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga ega bo‘ladi va pudrat shartnomasining bir qismi bo‘lib qoladi. Ishning bahosi (smeta) taxminiy yoki qat’iy bo‘lishi mumkin. Pudrat shartnomasida bunday ko‘rsatma bo‘lmasa, ishning bahosi (smeta) qat’iy hisoblanadi. Qurilish shartnomasida quyidagilar aks ettiriladi: tomonlarning majburiyatlari, etkazilgan zararlarni qoplash tartibi; mavjud muammolarni hal qilish yo‘llari, xo‘jalik sudiga da’vo arizasini kiritish tartibi; shartnoma ishtirokchilarining malakasini tasdiqlash.

Smeta asosida qurilish ishlari harajatlari: texnologik, energetik, ko‘tarma-transport va boshqa uskunalar, korxona faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan boshqa asboblar va ishlab chiqarish inventarlari haridi harajatlari; ushbu uskunalarni o‘rnatish ishlari harajatlari; qurilish maydonini o‘zlashtirish harajatlari; texnik va mualliflik nazoratini amalga oshirish harajatlari; loyiha hujjatlarini ishlab chiqish harajatlarini o‘z ichiga oluvchi kapital qo‘yilmalar hajmi aniqlanadi. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati buyurtmachilar va pudratchilar, uskunalar etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish va shartnoma bahosini aniqlash hamda ular o‘rtasida hisoblashishni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Smeta qiymati ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob’ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyihaviy echimlar variantlarini baholash va ulardan iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofig‘ini tanlash uchun zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, smeta qiymati qurilishni tashkil etish va ishlarni bajarish variantlarini taqqoslash, konstruktiv va bajariladigan ishlar hajmini aniqlash hamda qurilish materiallari va uskunalarni tanlash uchun ishlatiladi. Loyihaning smeta qismi o‘z tarkibiga qurilish bo‘yicha yig‘ma smetani va ob’ekt qurilishi bo‘yicha smetani hamda bajarilgan ish turlarini qamrab oladi. Bino va korxona qurilishi bo‘yicha yig‘ma-smeta qurilishni moliyalashtirishni amalga oshirishdagi hujjat hisoblanadi.

Yig‘ma-smeta quyidagi harajat turlarini o‘zida aks ettirishi lozim: qurilish maydonini tayyorlash; ishlab chiqarish ahamiyatiga oid asosiy ob’ektlar; ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ahamiyatiga oid yordamchi ob’ektlar; transport xo‘jaligi va aloqa ob’ektlari;

elektroenergetika ob’ektlari; kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta’minoti, suv ta’minoti; korxona hududini obodonlashtirish; vaqtinchalik bino va inshootlar; loyihaviy va qidiruv ishlari; boshqa ishlar.

Qurilish uchun yig‘ma-smetada kutilmagan ishlar va harajatlar uchun quyidagi miqdorlarda mablag‘lar zaxirasi ko‘zda tutiladi: yakka tartibdagi ob’ektlar qurilishini ko‘zda tutuvchi sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport inshootlari va korxonalarini qurishdagi barcha harajatlar umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida; barcha tarmoq korxonalarining namunaviy loyihalari bo‘yicha ob’ektlar barpo etilishidagi barcha harajatlar umumiy qiymatining 3 foizi miqdorida. Hozirgi iqtisodiy sharoitda qurilish ob’ektlari smeta qiymatini aniqlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. TIA tarkibidagi loyiha oldi bosqichida TIA ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblari natijasida ob’ektlar barpo etilishidagi taxminiy harajatlar aniqlanadi.

2. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bosqichida loyihalashtiruvchilar amalga oshirilgan hisob-kitoblar va smeta me’yorlarini qo‘llash natijasida ob’ekt qurilishining smeta qiymatini aniqlaydi, shu jumladan, lokal smetalari, alohida bajariladigan ishlar uchun harajatlar qiymati va qurilish qiymatining yig‘ma-smeta hisob-kitobi. Ob’ektning smeta qiymatini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi: bevosita harajatlar – BX; ustama harajatlar – UX; rejali jamg‘arma – RJ (smeta foydasi). Unga ko‘ra, qurilish mahsulotining (ob’ektining) smeta bahosi (SB) quyidagi tenglik bilan ifodalandi:

$$\mathbf{SB = BX + UX + RJ}$$

Smeta qiymati – qurilish mahsuloti (ob’ekti) uchun erkin bahoning shakllanishi va kapital qo‘yilmalarni aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish, shartnoma majburiyatlariga rioya etilishi va qurilishning pirovard natijalari uchun investitsiya jarayoni qatnashchilarining javobgarligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12 sentyabr 2003 yildagi “Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 395-sonli Qarorida O‘zbekistonda kapital qurilishdagi shartnomaviy narxlar yagona uslubiyoti barcha mulk shakllari uchun qabul qilindi. Ta’kidlash joizki, shartnomaviy narxlar bozordagi mavjud sharoitlarni hisobga olgan material qiymatning kon’yunkturasi, ishlatiladigan mashina va mexanizmlar qiymati hamda pudrat tashkilotlarining foydasini

anglatadi.

Shartnoma O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda kapital qurilish sohasidagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tuziladi. Ushu qarorda past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan pudrat-qurilish tashkilotlarini xususiylashtirishda tegishli investitsiya majburiyatlari mavjud bo‘lgan taqdirda ob’ektlarni qonun hujjatlariga muvofiq bepul berishga ruxsat etildi. Shuningdek, markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom, ob’ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir Namunaviy pudrat shartnomasi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 24 oktyabrdagi “Kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 463-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorda “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi amaldagi yakka tartibdagi va idoraviy smeta me’yorlarini, ularning maqsadga muvofiqligini, asoslanganligini hamda qo‘mitaning me’yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash maqsadida to‘liq xatlovdan o‘tkazilishi hamda xatlovdan o‘tkazish uchun “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi ekspert komissiyalari tashkil etilishi hamda idoraviy smeta me’yorlarini keskin qisqartirish chora-tadbirlari belgilab berildi.

Shuningdek, joriy shartnomaviy narxlarni belgilash uchun idoraviy smeta me’yorlari faqat ular “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi bilan belgilangan tartibda majburiy ravishda kelishib olingan taqdirda kuchga ega bo‘lishi qayd etilgan. Kapital qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlar haridining yagona tizimini yaratish, tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 302-sonli Qarori qabul qilinib, unda:

– markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog‘liq tovarlar, ishlar va xizmatlar haridi faqat tanlov savdolari natijalari bo‘yicha amalga oshirishi;

– kapital qurilish bilan bog‘liq tovarlar, ishlar va xizmatlarni harid qilishda tanlov savdolari majburiy o‘tkazilishi uchun buyurtmachilar, tanlov savdolarini o‘tkazishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanlov savdolari tashkilotchilari javob berishlari;

– sifatli bajarilgan ishlar va xizmatlarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirish yuzasidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun shartnoma shartlariga muvofiq buyurtmachi moddiy javob berishi, shuningdek, ko‘rsatib o‘tilgan sabablar natijasida soliq organlari tomonidan hisoblangan, ularga to‘langan jarimalar va penyani pudratchiga to‘liq qoplashi;

– tanlov savdolari natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan shartlarning o‘zgarishi, buyurtmachi bilan pudratchi o‘rtasida kelishuv mavjudligidan qat’iy nazar, faqat ular belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilgandan va tasdiqlangandan keyin qabul qilingan, deb hisoblanishi;

– qurilishning amaldagi qiymatini tanlov savdolari natijalari bo‘yicha shartnomada belgilangan shartnomaviy narxga nisbatan kamaytirish natijasida tejalgan mablag‘lar pudrat tashkilotining tasarrufida qolishi belgilab qo‘yildi.

§ 9.4. Kapital qo‘yilmalar samaradorligini baholash

Zamonaviy sharoitda shunday vaziyat yuzaga keldiki, korxonalar, loyihalash va ilmiy-tadqiqot institutlari, banklar va boshqa tijorat tashkilotlari investitsiyalarni iqtisodiy asoslashning zamonaviy uslubiyoti bilan qurollanmaganligi ulardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarni iqtisodiy asoslash uslubiyotiga bag‘ishlangan ko‘pgina masalalar yoritib kelinmoqda. Shu boisdan tijorat tashkilotlari uchun ma’qul va tushunarli bo‘lgan hamda xalqaro amaliyotni hisobga oluvchi investitsiyalarni iqtisodiy asoslashning umumtanolingan uslubiyotini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kapital qo‘yilmalarni iqtisodiy samaradorligi ularni foydalanish ko‘rsatkichlaridan bo‘lib, mablag‘larni ijtimoiy-ishlab chiqarishning u yoki bu tarmog‘iga sarf qilishdan tutiladigan maqsad bo‘lib hisoblanadi.

Davlat kapital qo‘yilmalarni xalq xo‘jaligini turli sohalariga sarflar ekan, albatta uning yordamida ishlab chiqarishni kengaytirishni,

ya’ni ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solishni, va shu orqali mahsulotlarini miqdorini ko‘paytirishni, uning sifatini yaxshilash, raqobatbardoshliligini oshirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Ana shu qo‘yilayotgan maqsadlarga erishishni turli yo‘llari mavjud:

1. kapital qo‘yilmalarni iqtisodiy asoslangan yo‘nalishlarga sarflash va ularni mintaqalar bo‘yicha optimal joylashtirish;
2. korxona va tashkilotlarda milliy iqtisodiyot va chet el texnikasini oxirgi yutuqlari asosida ishlangan texnika va texnologiyalarni qurilishni va ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sifatini oshirish, mehnat unumdorligini, mahsulot tannarxini va foydalilik darajasini o‘sishini ta’minlash;
3. qurilishni jadallashtirish va ishlab chiqarishga yangi quvvatlarni kiritish, qurilishlarni sifatli ishlangan texnik loyihalar bilan ta’minlash;

Kapital qo‘yilmalarni umumiy miqdorida ishlab turgan korxonalarni qayta qurishga ketadigan sarflarni ulushini ko‘paytirish – ularni iqtisodiy samaradorligini muhim ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Ammo korxonalarni qayta qurish har bir aniq holatida chuqur iqtisodiy asoslashni talab qiladi.

Korxonalarni qayta qurishga sarflayotgan kapital qo‘yilmalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qayta qurishgacha bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar undan keyingi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Sanoat korxonalarini qayta qurish ishlab chiqarishni texnik darajasini oshirishni, uskunalarni unumdorligini o‘stirishni va ishlab chiqarish quvvatlarini o‘sishini ko‘zda tutadi. Qayta qurish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni o‘sishi korxona foydasini pasayishiga olib keladi, ammo mahsulot tannarxini pasayishiga olib kelmaydi. Bunday holatda qayta qurishni iqtisodiy samaradorligi foyda summasini o‘sishi (ΔD) zarur bo‘lgan kapital qo‘yilmalarning birligi nisbati (K) bilan aniqlanadi:

$$K_{sam} = \frac{\Delta D}{K}$$

Loyiha yechimlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun dastlab ishlab turgan korxona va inshoatlarni rekonstruksiya qilish va yangilarini qurishni zarurligini va maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy asosnomalari (TIA) ishlab chiqiladi. Bunday texnik-iqtisodiy asosnomalar rejalarga kiritiladigan har bir qurilish bo‘yicha ishlab chiqilishi lozim.

Yirik korxonalar bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnomalar loyiha tashkilotlari tomonidan ishlanadi. Texnik-iqtisodiy asosnomalarda odatda: tegishli tarmoqlarda quvvatlarning o‘sishini ta’minlovchi loyihalashtirilayotgan korxonalarni ahamiyatini xususiyatlari; korxonani mo‘ljallayotgan quvvatlarni va mahsulot xillarini asoslash; zarur kapital qo‘yilmalar hisob-kitobi; kapital qo‘yilmalardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik va mo‘ljallanayotgan qurilishning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘z aksini topishi lozim. Asosiy ko‘rsatkichlardan tashqari kapital qo‘yilmalarni iqtisodiy samaradorligini asoslash, ularni o‘zini oqlash muddatlarini hisoblash; loyiha yechimlarini iqtisodiy baholash uchun qo‘shimcha va yordamchi texnik-iqtisodiy ko‘satkichlar ham qo‘llaniladi.

Ularni qatoriga ishlab chiqarish maydonining 1 m kvadratiga mahsulot ishlab chiqarish, imorat va inshoatlarning qurilish kubaturasini ko‘rsatuvchi miqdor koeffitsiyenti va boshqalar zarur bo‘ladi. Sanoat korxonalarini loyihalashda ishlab chiqarish maydonlaridan maqsadga muvofiq foydalanish, imoratlar xillarini to‘g‘ri tanlash ancha sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin. Kapital qurilish ishlarining yuqori sifat darajasiga erishishda qurilish sifati yuzasidan olib boriladigan nazorat muhim o‘rin egallaydi. Qurilish sifati yuzasidan nazorat qurilish-montaj ishlarining, shuningdek, qurilish materiallari va buyumlarining muvofiqligini tekshirishni anglatadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Buyurtmachi, pudratchi, texnik-iqtisodiy asosnoma, loyihani ekspertizasi, oferent, ochiq tanlov savdolari, kapital qurilish, kapital qo‘yilma, qurilish industriyasi, asosiy fondlar.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy mohiyati*
2. *Qurilishning bosqichlari*
3. *Kapital qurirlishda loyihalashtirish*
4. *Kapital qo‘yilmalar samaradorligini baholash*
5. *Kapital qurilishda nazorat ishlarining mohiyati*
6. *Qurilish industriyasi tushunchasining mohiyati*
7. *Qurilishning tashkiliy shakllari.*

X BOB. RIVOJLANTIRISH DAVLAT DASTURLARINI SHAKLLANTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH

§ 10.1. O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturi, uning mazmuni, asosiy maqsadi, tamoyillari, shakllantirish tartibi bosqichlari va muddatlari

§ 10.2. Muhim investitsiya takliflarining yig‘ma ro‘yxati asosida investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish va tasdiqlash jarayoni. Rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirish ustidan nazorat

§ 10.1. O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturi, uning mazmuni, asosiy maqsadi, tamoyillari, shakllantirish tartibi bosqichlari va muddatlari

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu – davlat tomonidan horijiy investitsiyalarni qo‘llab quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo‘lgan davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi yo‘nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora – tadbirlar xamda horijiy investitsiyalar uchun qulay investitsiya muxitini yaratish va ular kiritgan mablag‘larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi – ichki va tashqi siyosatning umumyi yo‘nalishi hisobga olingan ijtimoiy – iqtisodiy va husasiy ho‘jalik qarorlari majmuasi bo‘lib, mablag‘lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida ichiga va horijga kiritilgan sarmoyalarning yo‘nalishi va joylashuvini belgilaydi. Ishlab chiqarish salohiyatining o‘sishi, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining ko‘tarilishi va butun infrastrukturaning rivojlanishi ko‘p jihatdan investitsiya va investitsiya dasturiga bog‘liq. Investitsiya dasturi davlatning investitsiya mablag‘larini mamlakatda moddiy boyliklar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun safarbar qilish vazifasidan iboratdir. Tashkiliy – huquqiy jihatdan davlat siyosatining bu sohasi uning tegishli idoralari tomonidan ushbu siyosatning maqsad va vazifalari amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiya dasturining tashqi tomoni ham bor bo‘lib, u iqtisodiyotni zamonaviy texnika, texnalogiya va ishlab chiqarishni tashkil etish asosida jadal rivojlantirish vazifasini hal etish uchun iqtisodiyotga chet el

investitsiyalarini jalb etishni o‘z ichiga oladi. Bu vazifani qo‘shma korhonalar barpo qilish, ya’ni to‘g‘ridan –to‘g‘ri xorijiy hususiy investitsiyalardan foydalanish yo‘li bilan hal etish mumkin. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari dolzarblashadi. Aniq, samarador va xayotiy rioya qilinadigan qonunlariga ega bo‘lgan ochiq va liberal investitsiya dasturi xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qudratli qurolidir. Bynday siyosatni ishlab chiqish respublikaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak[98].

Investitsiya dasturi (keyingi o‘rinlarda dastur deb ataladi) – bu Respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xom-ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan Respublikaning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir – biri bilan o‘zaro bog‘langan chora – tabdirlar kompleksidir.

“O‘zbekistonning 2020–2022 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-4563-son, 09.01.2020 y.) qabul qilindi. Qaror bilan O‘zbekistonning 2020–2022 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, quyidagilar nazarda tutilgan:

– 850,5 trln. so‘m investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish;

– 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratish.

Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston nomidan yoki kafolati ostida tashqi qarzni jalb etish bo‘yicha 2020 yilda yangi imzolanadigan shartnomalar doirasidagi loyihalar “2020 yil uchun O‘zbekistonning Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan chegaraviy hajmlar doirasida aniqlanadi. Shuningdek, qiymati 50 mln. AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi 50 foizdan kam bo‘lmagan investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini byudjet mablag‘lari hamda moliyalashtirishning boshqa ichki manbalari hisobidan qurish tartibi mazkur investitsiya loyihalari quyidagi talablarga mos kelgan taqdirda qo‘llaniladi:

[98] Yo.Q.Qorayeva. I.U.Nematov “Xorijiy investitsiyalar” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi./ “Iqtisodiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi” seriyasidan. – T.: TDIU, 2008, 162 – bet

– loyihaning iqtisodiy samaradorligi mavjudligi;

– urbanizatsiya agentligining loyihani so‘ralayotgan yer uchastkasida joylashtirishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosasi mavjudligi;

– loyihaning loyihaoldi hujjatiga davlat ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasi mavjudligi (zarur hollarda).

Investitsiyalarning miqdoriy o‘sishi ichki investitsiya dasturi (mablag‘larni noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga safarbar qilish) vositasida ta’minlanadi. Investitsiyalar sifatining o‘sishi ichki (fan va texnika yutuqlarini tadbiq qilish) va tegishli tashqi investitsiya dasturi (xorijiy investitsiyalar –texnik tarkibi va xususiyatiga ko‘ra yuqoriroq bo‘lganlarini jalb etish) vositasida ta’minlanadi. Ichki investitsiya dasturi ham tashqi investitsiya dasturi ham,har ikkalasi investitsiyalashning turli manbalaridan turli shakillardagi investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini nazarda tutadi. Investitsiya dasturining mohiyati va mazmuni eng qulay huquqiy vositalarni topish – investitsiya jarayoni va investitsiyani huquqiy tartibga solishdan iborat. Ratsional investitsiya dasturini amalga oshirayotgan davlat ixtiyorida huquqiy tartibga solishning ikki vositasi mavjud: milliy – huquqiy va halqaro – huquqiy.

Davlatning tashqi investitsiya dasturi huquqiy nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratishdan iborat bo‘lib, bu milliy huquqiy tartibod, milliy huquqiy shakillar va normalardan (qonunlar va boshqa me’yoriy aktlar) xamda xalqaro huquqiy tartibod, xalqaro – huquqiy shakl va normalardan (ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar va bitimlar) foydalanishni nazarda tutadi. Bularning barchasi ham ichki ham tashqi investitsiya siyosatlari hisobga olinishi shart. Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo‘naltirilgan ba ilmiy asoslangan asosiy vazifasi davlatning jamiyatda moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiya mablag‘larini safarbar qilish bo‘yicha faoliyat yuritishidan iborat. Investitsiya faoliyati (ingl. Investmen activity) – bu investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha olib boriladigan amaliy harakatlarning yig‘indisidir. Investitsiya dasturi alohida davlatlar tomonidan investitsiya munosabatlari sub’ektlarining (davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy) investitsiya faoliyatini kuchaytirish maqsadida choralar tizimini nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati esa uning sub’ektlarining investitsiyani amalgam oshirish bilan bog‘liq faoliyatlari yig‘indisidir.

Investitsiya dasturini shakllantirishning asosiy tamoyillari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya jarayonlarini boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, maqbul shartlarda xorijiy investitsiyalarni va kreditlarni jalb etish, shuningdek loyihalarni tanlab olish va ularning amalga oshirilishi monitoringini olib borish asosida ulardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;

- belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlarini va faoliyat sohalarni qo‘llab quvvatlash;

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarni (ta’lim, soliqni saqlash) birinchi navbatda, moliyalashtirish;

- mineral xom-ashyo resurslarini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni, tayyor mahsulotni tashqi bozorda raqobatbardoshligigi darajaga yetkazishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo‘llab quvvatlash;

- transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish;

- tarkibiy o‘zgarishlar vazifalari va amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatiga muvofiq mablag‘ qo‘yishning o‘zaro manfaatliligi asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tomonlarning investitsiya majburiyatlari asosida shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish;

- investitsiya loyihalarni investitsiya dasturining aniq ro‘yxatiga oldindan belgilangan mezonlar asosida kiritish;

- ilgari boshlangan ob’ektlarni tugallash uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni, birinchi navbatda, ajratish.

Loyihalarni tanlab olishda ularning samaradorligi, respublika iqtisodiyoti ayrim tarmoqlarini va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulot sotish ko‘rsatkichlari, shu jumladan eksportga yo‘naltirilganlik, butlovchi buyumlar va kompanentlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishda qatnashish va shu kabilar asosiy mezonlar hisoblanadi.

Investitsiya dasturida loyihaning baholash qiymati, tugallanmagan qurilishi va qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo‘yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Investitsiya dasturini ishlab chiqishda yirik va o‘ta muhim loyixalar alohida, katta bo‘lmagan bir tipdagi loyihalar

yaxlit kiritilishi mumkin (masalan: maktablar, qishloq, vrachlik punktlari qurilishi va boshqalar).

Investitsiya dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishi bo‘yicha barcha ishlarni O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtirib boradi. Investitsiya dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturida nazarda tutilgan kapital qurilishni mablag‘ bilan ta’minlash va uni kreditlash ishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida ko‘rsatilgan tartibda asosan amalga oshiriladi. Unga muvofiq investitsiya loyihasini markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag‘ bilan ta’minlash har qaysi ob’ekt bo‘yicha ajratilgan kapital quyilmalar limitlar doirasida qat’iy amal qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq mo‘ljalli ro‘yxati va qurilishlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro‘yxati asosida amalga oshiriladi.

10.1 – jadval

O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tartibi[99]

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Ma’sullar
1 - bosqich	Iqtisodiyot vazirligi uch yillik davrga O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflarni tayyorlashga oid metodik ko‘rsatmalarni tarmoq vazirliklari va idoralari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklariga (keyingi o‘rinlarda buyurtmachilar deb ataladi) har yili yetkaziladi.	Aprel	Iqtisodiyot vazirligi
2 - bosqich	Buyurtmachilar loyihalar bo‘yicha dast-labki axborotni tayyorlaydi, ularni uch yillik davrda amalga oshirish uchun tanlab oladilar va takliflarni iqtisodiyot vazirligiga taqdim etiladi.	May - Iyun	Buyurtmachilar

[99] www.ziyonet.uz маълумотлари асосида

3-bosqich	Iqtisodiyot Vazirligi takliflarni ko‘rib chiqiladi va o‘rtacha muddatli davrda aniq tarmoqni rivojlantirish ustuvor-liklariga muvofiq tarmoqlarni tanlab oladilar.	Iyun-Iyul	Iqtisodiyot viziriligining tarmoq bo‘limlari.
4 - bosqich	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, (Davarxitektqurilish) ko‘mitasi va vakolatli banklar bilan birgalikda investitsiya dasturiga kiritila-digan loyihalarni uzil-kesil tanlab oladi.	Avgust - Sentyabr	Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, vakolatli banklar
5 - bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi iqtiso-diyot vazirligi huzuridagi birlashgan hay’at tomonidan ko‘rib chiqiladi va uning qaroriga ko‘ra ishlab chiqish va Vazirligi Mahkamasining komplekslari bilan kelishish uchun tashqi iqtisodiy alo-qalar va xorijiy investitsiyalar departa-mentiga taqdim etiladi.	Sentyabr	Iqtisodiyot vazirligi xuzuridagi birlashgan xay’at, Vazirlar Maxkamasining kompleklari
6 – bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi batafsil ko‘rib chiqiladi	Sentyabr - Oktyabr	Iqtisodiyot vazirligi
7 – bosqich	Investitsiya dasturining loyihasi tasdiqlash uchun yuboriladi.	Oktyabr	Prezident devoni, VMning tegishli departamentlari
8 – bosqich	Investitsiya dasturining amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan yangidan boshlanadigan ob’ektlar bo‘yicha tanlov savdolari o‘tkaziladi.	Oktyabr - Noyabr	“Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, buyurtmachilar
9 – bosqich	Tasdiqlangan investitsiya dasturiga va o‘tkazilgan tanlov savdolariga muvofiq belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi, qurilishlarning aniq va titul ro‘yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlarining aniq ro‘yxatlari tasdiqlanadi.	Dekabr	Buyurtmachilar, pudratchilar

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo‘llab quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo‘lgan davlat tomonidan rag‘batlantiriluvchi yo‘nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora – tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag‘larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal xuquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat investitsiya dasturini shakllantirish orqali yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning barcha shakllarini faol jalb qilishda: mamlakatning hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtai-nazardan investitsiyalashga ta’sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirgan holda qulay investitsion muhitni yaratish; chet el investitsiyasini jalb etuvchi hamda shu asosda tovar eksport qilishni ko‘paytiruvchi korxonalar uchun imtiyozlarni kengaytirish; investitsiya loyihalarini iqtisodiyotning makro va mikro darajasidagi ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga olib, ishlab chiqish asosida xorijiy kredit liniyalarining investitsiyalaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har bir davlat birinchi navbatda, moddiy ishlab chiqarish sohasiga mamlakat va chet el investorlarini jalb qilish uchun harakat qilmog‘i lozim. Ushbu maqsadda muayyan investitsiya dasturi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, tegishli investitsion muhit yaratiladi.

§ 10.2. Muhim investitsiya takliflarining yig‘ma ro‘yxati asosida investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish va tasdiqlash jarayoni. Rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirish ustidan nazorat

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag‘ berish bitimiga tegishli barcha hujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, qabul qilingan me’yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirib borishni o‘z ichiga oladi. Navbatdagi qadam qarzdorning moliyaviy layoqatini baholash bo‘lib, uning balansini, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotini hamda mijozning moliyaviy – xo‘jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbai uning qaytarilishining ta’minotini tekshirish

hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizda har yili yuzlab loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar davlat byudjeti mablag‘lari, halqaro moliya institutlari kredit liniyalari mablag‘lari hisobiga, byudjetdan tashqari fondlar, banklar, chet ellik va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtilar ekan, albatta, bu mablag‘larining qaytarilishi va ma’lum miqdorda ularning foyda bilan ta’minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag‘larning muayyan foydasi bilan qaytishligini aniqlash, tekshirib borish va tahlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan, shuningdek mol etkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug‘urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loiyhalarning monitoringi olib boriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan. Har bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o‘zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zlariga xos bo‘lgan monitoring o‘tkazish tartibini ishlab chiqadilar va shu asosida faoliyat yuritadilar.

Monitoringning mazmuni “ko‘zgu” degan ma’noni anglatadi.

Monitoringni yuritishda quyidagilar ko‘zda tutiladi:

1. Amalga oshirilmoqchi bo‘lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko‘zda tutilganligi.

2. Ishlab chiqarish jarayonini bilishlik, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirgacha kuzatib borish.

3. Ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi.

4. Loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

Monitoring olib borish bosqichlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning moliyaviy – xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash;

- olingan ma’lumotlar asosida korxonalarning moliyaviy – xo‘jalik holatini tahlil etish;

- tahlil natijalari bo‘yicha xulosalar qilish va takliflar berish.

Dasturni amalga oshirilishi monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 4 yanvardagi 1 - sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to‘g‘risidagi Nizomga va Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 251 – sonli “Investitsiya loyixalarini tasdiqlash va amalga oshirish

monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish, muruvvat yordamida yuklarini va texnik ko‘maklashish mablag‘larini hisobga olish va nazorat qilish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturning davlat monitoringi:

- investitsiya loyihalarni va birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalangan holda ro‘yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

- loyihalarni belgilangan tartibda tasdiqlangan parametrlarga (texnik-iqtisodiy asoslar, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar), tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish;

- amalga oshirilayotgan loyihalar bo‘yicha axborot bazasini shakllantirish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda paydo bo‘ladigan muammoli masalalarni kuzatib borish;

- investitsiya iqlimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsadida amalga oshiriladi.

Monitoring: vazirliklar, idoralar tomonidan tashabbus ko‘rsatilgan investitsiya loyihalari va takliflari yuzasidan – Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot – tahlil departamentlari bilan birgalikda, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va toshkent shahar hokimimliklari hamda xorijiy investitsiyalar jalb etilgan korxonalar tomonidan tashabbus Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan.

Xorijiy invenstitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan – xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan monitoring:

• investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etiladigan tasdiqlangan reja – jadvallarining bajarilishi to‘g‘risidagi vxboratlarni;

•O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko‘mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda

taqdim etiladigan O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to‘g‘risidagi yig‘ma statistika axboratini;

•Mavjud va potensial xorijiy investorlar faoliyatining normativ – huquqiy bazasini takomillashtirish bo‘yicha ularning takliflarini o‘rganish asosida vaqti – vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muhiti sharhini;

•Manfatdor vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etiladigan tezkor axborotlarni;

• Markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan:

Tasdiqlangan reja – jadvallar bajarilishini, loyihalarni amalga oshirish yuzasidan zarur ishlar kompleksini olib borishning texnologik izchilligiga rioya etilishini nazorat qilish;

Texnik – iqtisodiy asoslashlarining asosiy qoidalarini ko‘rib chiqish, loyihalarni amalga oshirish mumkinligi yuzasidan umumiy qarorlar qabul qilish;

Alohida yirik loyihalar, shu jumladan texnik – iqtisodiy asoslashlar ko‘rsatkichlariga nisbatan loyihalarning qimmatlashishi yoki arzonlanishishi mumkinligini hisobga olgan holda bazaviy loyihalashtirishni tasdiqlash;

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga ajratiladigan mablag‘larning o‘z vaqtida moliyalashtirilishini va ulardan samarali foydalanilishini ta’minlash, Xukumat kafolati ostida jalb etiladigan qarz mablag‘larning o‘z vaqtida qaytarilishi ta’minlanishini nazorat qilish;

Manfaatdor vazirliklar va buyurtmachi idoralar tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyot qismlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini, shuningdek ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga kirib borishi bo‘yicha marketing dasturlarini ekspertizadan o‘tkazish;

Ayrim strategik muhim va yirik loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash chora – tadbirlari, qurilishi amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda amalga oshirilatgan loyihalarni mablag‘ bilan

ta’minlashni to‘xtatib qo‘yish, shuningdek investitsiya dasturi bajarilishi barbod bo‘lishiga yo‘l qo‘yuvchi vazirlar va idoralar, korxonalar va buyurtmachi tashkilotlarning rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashuvi boshqa asosiy masalarni ko‘rib chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va vakolatli banklardan olingan ma’lumotlar asosida investitsiya dasturining amalga oshirilishi to‘g‘risida yig‘ma axborot tayyorlaydi, xususan, investitsiyalashdan oldingi tadqiqotlarning o‘z vaqtida o‘tkazilishi, texnik – iqtisodiy asoslashlar va loyiha – smeta hujjatlarining ishlab chiqilishi to‘g‘risidagida investitsiya loyiha – smeta hujjatlarining ishlab chiqilishi to‘g‘risida investitsiya loyihalari tashabbuskorlarida olingan axborot;

Texnik – iqtisodiy asoslashlar va loyiha – smeta hujjatlari vakolatli ekspertiza organlari tomonidan ekspertiza qilinganligi to‘g‘risidagi axborot tayyorlaydi. Dasturning monitoring natijalari Dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi har choraklik axborotlarni tayyorlashda hamda navbatdagi uch yillik davrga dasturni shakllantirishda foydaniladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya dasturi, monitoring, investitsiya loyihalari, loyiha – smeta xujjatlari, texnik iqtisodiy asosnoma.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Investitsiya dasturining ahamiyati*
2. *Investitsion loyihalar ustidan monitoring olib boorish tartibi*
3. *Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi*

XI BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

§ 11.1. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati
§ 11.2. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari
§ 11.3. Investitsiya loyihalarini baholashning oddiy va diskont usullari

§ 11.1. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash juda muhim jarayon hisoblanib, u o‘z ichiga texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va baholashni qamrab oladi. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash orqali mablag‘larni samarali joylashtirish yo‘llarining eng optimalini tanlash mumkin. Har qanday investitsiya loyihasini baholashning mazmuni bugungi harajatlarni loyihadan olinadigan daromadlar oqlaydimi? degan savolga javob topishdan iboratdir. Biroq, bu savol shunchalik oddiy bo‘lishiga qaramasdan, agar diqqat bilan ko‘rib chiqilsa, uning ko‘plab qirralari ochiladiki, ba’zan unga bir xil ma’nodagi javobni topish juda mushkul.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usuli – bu turli ob’ektlarga uzoq muddatga kapital mablag‘larni qo‘yishning maqsadga muvofiqligini aniqlash usuli bo‘lib, bunda qo‘yilgan mablag‘lar kelajakda foyda keltirishi va o‘zini to‘liq qoplashi ko‘zda tutiladi. Har qanday investitsiya loyihasi, garchi u ko‘pgina ijobiy tavsiflarga ega bo‘lsada, unga qo‘yilgan mablag‘lar, ya’ni qilingan investitsiya harajatlari loyiha mahsuloti (ish, xizmat) sotishdan kelgan daromadlar bilan qoplanmasa, ko‘rilgan foyda darajasi ko‘zda tutilgan darajada bo‘lmasa, u amalga oshirilmay qoladi. Investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholashdan asosiy maqsad, aynan ko‘zda tutilgan natijalarga erishishni realligini baholashdir. Iqtisodiyoti rivojlangan malakatlarda turli loyihalarga qo‘yilgan mablag‘larning foydaliligini (samaradorligini) taqqoslashga asoslangan baholash usullaridan keng foydalanadilar. Bunda investitsiya loyihalaridan ko‘riladigan samara mablag‘larni bankka foiz hisobida qo‘yishdan yoki qimmatbaxo qog‘ozlar sotib olishdan keladigan daromad (foyda) bilan taqqoslanadi.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda loyihadan ko‘riladigan daromadning ko‘pligiga, mehnat resurslarining kam

sarflanishiga, loyihaning amalga oshirish muddatining qisqaligiga, loyiha bo‘yicha ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatiga, bozorda tutgan o‘rniga, shuningdek, harajatlarning to‘g‘ri olib borilishiga ko‘proq e’tibor beriladi. Shu bilan birga, baholashda pul oqimini to‘g‘ri ishlatilishi va nazorat qilinishi ham katta ahamiyatga ega. Bunda kapital harajatlarni yerni ijaraga olish, u yerda bino va inshootlar qurish, mashina va jixozlar yaratish yoki sotib olish, mutaxassislar tayyorlash kabi ishlarga sarflanishi, joriy harajatlar esa, xom ashyo va materiallar sotib olish, suv, energiya, mehnat va boshqa resurslarga sarflanishi e’tiborga olinadi hamda daromadlar asosiy faoliyatdan keladigan daromadlar, ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirish, royalti, davlatning obligatsiyalari orqali keladigan daromadlarga e’tibor qaratiladi.

Investitsiya loyihalarini turli usullar bilan baholash mumkin, lekin barcha usullarda eng asosiy e’tibor loyihalarning daromadlilik darajasi hamda ko‘riladigan foydaning xajmini aniqlashga qaratiladi. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda aniq natijalarga erishish, ya’ni loyihalashtirishni yakunlash, bozorga chiqish va undao‘z o‘rnini mustaxkamlash, belgilangan foydaga erishish, qilingan investitsiya harajatlarini qoplash kabi natijalarga erishish uchun belgilangan muddat ham ayniksa muhimdir. Shuningdek, baholashda ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarining samaradorligi ham hisobga olinadi. Buning muhimligi shundan iboratki, tadqiqot va ilmiy izlanish ishlarining qisqa bo‘lishi bir tomondan mablag‘larning kam sarflanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan nisbatan kam muddatda loyiha amalga oshirilib, bozorga ertaroq yangi mahsulot olib chiqiladi va hech bo‘lmaganda, qisqa muddat ichida korxona ushbu mahsuloti bilan bozorda monopol mavqega ega bo‘lishi mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, har bir loyiha mamlakatda mavjud bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy sharoitlarni va ularning o‘zgarishini hisobga olgan holda baholanishi lozim. Hozirgi paytda investitsiya loyihalarini tuzish va amalga oshirish uzluksiz jarayon bo‘lganligi sababli uni tasvirlashda kompyuter texnikasidan keng foydalanilmoqda. Bunda loyihaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda tashqi iqtisodiy muhitni belgilovchi omillar hisobga olinib, loyihaning matematik modeli tuziladi va shu model asosida loyihaning harajatlar va daromadlar oqimi aniqlanadi, samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi, ishlab chiqarish natijalarining yillik balansi tuziladi hamda tashqi va ichki omillar ta’siri tahlil

qilinadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda yirik ishlab chiqarish va moliya korporatsiyalari ana shunday modellardan foydalanadilar. Shuningdek, bunday modellardan investitsiya loyihalarini o‘rganuvchi va samaradorligini aniqlovchi turli maslahatchi firmalar ham foydalanadilar.

O‘zbekiston Respublikasida Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo‘lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamonaviy tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining yo‘lga qo‘yilishi, buning ta’sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat turlarining ko‘payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishiga eng muhim va asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Birgina misol, 2008 yilda boshlangan, bugungi kunga qadar salbiy ta’sir va oqibatlari saqlanib qolayotgan, keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlardao‘zining yangi “xuruji”ni namoyon etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi nafaqat ayrim mamlakatlar, balki dunyoning deyarli barcha qit’alarida iqtisodiy siyosatning zaif jihatlarini, ayniqsa, bank-moliya tizimining “mo‘rt” bo‘g‘inlarini oshkor etib qo‘ydi. Ana shunday murakkab bir sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyoti, bizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modelimiz yana bir bor hayot sinovidan muvaffaqiyatli o‘tib, o‘zini to‘la oqladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq.

Shuning bilan birga 2019-2021 yillarda respublikamizda investitsiya siyosatini takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi real sektorga, yani ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga va texnikg‘texnologik qayta qurollantirishga yo‘naltirildi. Xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi, ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratildi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari faoliyatining samaradorligi ortdi.

Shu bilan birga investitsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham talaygina. Xususan, jalb etilgan investitsiyalar hajmi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun

yetarli bo‘lmayapti, shuningdek, xorijiy investitsiyalar katta qismining bir nechta mintaqalarda to‘planib qolganligi respublikamiz mintaqalarida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o‘rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to‘liq aks ettirilishini taqozo etmoqda. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini o‘zida mujassam etgan Harakatlar strategiyasining eng muhim jihatlaridan biri sifatida faol investitsiya siyosati olib borilishi uchun yo‘l ochib berildi.

Investitsiya loyihalarini monitoring qilish mexanizmini namoyish qilish uchun Yevropa Ittifoqi «investitsiya loyihalarining xarajatlari va foydasini tahlil qilish to‘g‘risida» qo‘llanmasiga murojaat qilish mumkin. Loyihalarni iqtisodiy baholashning ahamiyati shundaki, u nafaqat loyihaning moliyaviy xarajatlarini, balki boshqa jihatlarni ham qamrab oladi. Muqobil loyihalarning samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish investitsiya loyihasining pul oqimlarini tahlil qilishga asoslangan va quyidagi bosqichlardan iborat:

* Bozor narxlarini buxgalteriya narxlariga o‘tkazish. Ba’zi hollarda bozor narxlari hukumat tomonidan belgilanadi va loyihaning ijtimoiy ahamiyatini aks ettirmaydi. Ushbu bosqichda soya narxlari (soyali ish haqi) va fiskal o‘zgarishlar (QQS, subsidiyalar va sof o‘tkazmalar) hisobga olinishi kerak;

* Iqtisodiy bo‘lmagan ta’sirlarni monetizasiya qilish. Ushbu bosqich loyihaning bozor qiymatiga ega bo‘lmagan jamiyatga nisbatan ta’sirini baholashni talab qiladi va shuning uchun haqiqiy pul qiymatini belgilash orqali aniqlanishi kerak.

* Qo‘shimcha bilvosita ta’sirlarni kiritish. Bilvosita ta’sirlar ikkilamchi bozorda paydo bo‘lgan narx yoki miqdor o‘zgarishiga ishora qiladi. Buzilgan ikkilamchi bozor-bu narxlar imkoniyatlarining maksimal ijtimoiy qiymatiga teng bo‘lmagan bozor. Soliqlar, subsidiyalar, monopol hokimiyat va tashqi omillarning mavjudligi bozor buzilishining asosiy sababidir. Shu bilan birga, bunday ta’sirlar faqat buzilishning miqdori yetarli darajada va o‘lchab bo‘lganda hisobga olinishi kerak, umuman olganda, bilvosita ta’sirlarni hisobga

olish uchun soya narxlaridan samarali foydalanish va tashqi omillarni yaxshi monetizasiya qilish kifoya qiladi.

* Xarajatlar va imtiyozlarni baholashni yangilash. Investitsiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar va imtiyozlar vaqti-vaqti bilan ijtimoiy chegirma stavkasidan foydalanib, yangilanib turilishi kerak. Bu kelajakda foyda va xarajatlarni qanday o‘lchash kerakligi haqidagi ijtimoiy tasavvurni aks ettiradi.

* Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash. Iqtisodiy tahlilda, narx-navoning buzilishini hisobga olgan holda va ijtimoiy diskontlash stavkasini tanlagandan so‘ng, bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash kerak. Shu jumladan, iqtisodiy aniq joriy qiymat (diskontlangan ijtimoiy foyda va xarajatlar o‘rtasidagi farq), iqtisodiy rentabellik darajasi va yangilangan foyda va xarajatlar o‘rtasidagi munosabatlar.

Yuqoridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ahamiyatiga qarab, ayrim investitsiya loyihalarini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Qoida tariqasida, iqtisodiy rentabellik koeffisiyenti ijtimoiy chegirma stavkasidan past yoki salbiy sof qiymati bo‘lgan loyihalar rad etilishi kerak, chunki bunday loyihalar kam foyda evaziga juda ko‘p ijtimoiy resurslarni iste’mol qiladi.

§ 11.2. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari

Uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri – bu asosiy etakchi sohalarni modernizasiya qilish, qishloq xo‘jaligini texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikasiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat bo‘lib, bu masalani hal etish tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanib, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashni samarali tashkil etishda qator muammolar mavjudligi investitsion jarayonlarning faollashuviga, yirik obyektlar barpo etilishiga, investitsiyalardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, investitsiya loyihalarining texnik-

iqtisodiy asosnomasi puxta tayyorlanmasligi, loyiha bo‘yicha marketing tadqiqotlarining haqqoniy olib borilmasligi, loyiha bo‘yicha risklarni oldindan aniqlash va hisoblash uslubiyotining mukammal emasligi va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish va kuchli ijtimoiy himoyani ta’minlashda investitsiyalarning muhimligini qayd etar ekan, shu paytgacha bu boradagi ishlar pala-partish bajarib kelinganini tanqid ostiga olgan holda, quyidagilarni ta’kidladilar: “Loyihalar puxta hisob-kitob qilinmagani, ularni amalga oshirishga investorlarning o‘z mablag‘lari jalb etilmagani oqibatida ko‘plab korxonalar bankrot bo‘lgan. Ularni sog‘lomlashtirish vazifasi zimmasiga yuklangan tijorat banklari ham katta zarar ko‘rgan. Shu bois joriy yildan boshlab bankrot korxonalarni banklar balansiga berish amaliyotiga chek qo‘yildi. Yuzaki o‘tkazilgan iqtisodiy tahlil oqibatida loyihalar foydalanishga qabul qilinganidan keyin ham o‘zini oqlamagan – xomashyo yo‘qligi, energiya va gaz bilan ta’minlanmagani, iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgani sababli mahsulot ishlab chiqarish o‘zlashtirilmay qolgan[100]”.

D.G‘ozibekovning “Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari” nomli ilmiy asarida investitsiyalarning makrodarajadagi va ishlab chiqarish nazariyasidagi, moliya nazariyasidagi va umuman, iqtisodiyotdagi mohiyatini ochib berishi alohida ahamiyatga ega. Muallifning fikricha, investitsiyalarning mohiyatini ta’riflayotganda ularning turli xil risklar va kutilayotgan daromadlar bilan bog‘liqligini hamisha yodda tutmoq kerak. Pulning daromad keltirish layoqati pul keladigan manbalarga va uning nimalarga sarflanishiga, ya’ni pulning qayerdan kelishi va nimalarga investitsiyalanishiga bog‘liq. Binobarin, kapital manbalarining ishonchliligi bilan mablag‘larni investitsiyalashning to‘g‘riligi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik kuzatiladi. Investitsiya ana shu belgilari bilan boshqa mablag‘ solishlardan farqlanib turadi[101].

Investitsion loyihani moliyaviy-iqtisodiy baholash mablag‘larni real aktivlar bilan turli operasiyalarga (obyektlarga) joylashning mumkin bo‘lgan variantlarni tanlash va asoslash jarayonida markaziy o‘rinni egallaydi. Moliyaviy tahlil loyihadan keladigan samaraning

[100] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикасининг ривожланиш давлат дастурларини шакллантириш ва молиялаштириш бўйича жорий этилган янги тартиб асосида ишларни ташкил этиш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи, 2018 йил, 17 январь.

[101] Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. - Т.: 2002. и.ф.д. дисс. Автореф. 11-14 б.

uning har bir ishtirokchilarining o‘z maqsadlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirishdagi erishilishi lozim bo‘lgan natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi. Iqtisodiy tahlilda esa loyihaning milliy iqtisodiyotga beradigan samarasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, Jahon banki xodimlari (mutaxassislari) har bir loyiha uchun uning iqtisodiyotga boshqa aniq resurslarni joylashtirishdagi o‘zaro ziddiyatli variantlarga qaraganda ko‘proq samara keltirishni aniqlashda keng tahlil ishlarini o‘tkazadilar[102].

G.Birman, S.Shmidtlar investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratgan[103]:

♦ loyihaning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri baholanadi;

♦ kiritilayotgan resurslar va olinayotgan mahsulotlar ularning milliy iqtiso-diyot uchun haqiqiy qadr-qimmatini aks ettiradigan noaniq baholarda baholanadi;

♦ tahlilga iqtisodiyot uchun bevosita ta’sir etuvchi jihatlar kiritiladi (importga, eksportga, aholi bandliligiga, chet el valyutasiga, talab va taklifga, ekologik ahvolga va sh.k.), shuningdek bilvosita ta’sirlar (boshqa sohalarga bo‘lgan ta’siri, sh.k.) ham kiritiladi;

♦ ijtimoiy shart-sharoitlar hisobga olinadi va hokazolar.

I.I. Mazur, V.D. Shapiro, N.G. Olderoggelar o‘zlarining asarlarida investitsiya loyihalari samaradorligiga quyidagicha ta’rif berganlar: “Investitsiya loyihalarining samaradorligi – loyihaning uning ishtirokchilarini maqsadi va qiziqishlariga muvofiqligini ko‘rsatib beruvchi kategoriya hisoblanadi[104]”. Shunga ko‘ra, loyihaning samaradorligini butunligicha baholash, shuningdek loyihada qatnashuvchi har bir ishtirokchining samarasini aniqlash talab etiladi.

V.Berens, P.Xavranekslar fikricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashga asoslangan, ularni o‘zaro taqqoslay oladigan usullar keng qo‘llaniladi[105]. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorligini baholash usullaridan foydalanishda to‘g‘ri yondashish orqali yuqori aniqlikdagi prognozlash imkoniyatiga ega bo‘lgan holda investitsion

---

[102] Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редакции Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том, 2-часть, 1995. – С. 281.

[103] Бирман Г., Шмидт С. Экономический анализ инвестиционных проектов М.: - Банки и биржи ЮНИТИ, 1997. – С . 613.

[104] Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов /Под общ. ред. И.И.Мазура.- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2001. – С. 276.

[105] Беренц В., Хавранекс П. Руководство по оценке эффективности инвестиций, пер.с англ. А.П. Белых, М.: - Инфра-М, 1995. – С. 60-80. Богатин Ю.В., Швандар В.А. “Инвестиционный анализ”: Учебное пособие для вузов.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – С. 142-162.

qarorlar qabul qilish - milliy iqtisodiyot korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, texnik-texnologik yangilash hamda mahsulot sifatini yaxshilash kabi muhim ko‘rsatkichlarga erishishning muhim omili ekanligiga baho berildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan investitsiya siyosatini tashkil etish va real sektor korxonalarini modernizasiya qilishda ularni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Investitsion loyiha samaradorligini asoslash mezonlari bo‘lib, maksimum foyda yoki daromadlilik, maqsadga erishish vaqtidagi minimum mehnat sarflari, bozor ulushi, mahsulot sifati va bahosi, zararsizlik nuqtasi va boshqalar hisoblanadi. Umuman olganda, samaradorlikni tahlil etishning asosiy maqsadi: aniqlash, tahlil qilib chiqish va maqbul qarorlar qabul qilish hisoblanadi. Investitsion qarorlarni qabul qilish esa, qisman, kredit olish yoki mablag‘larni joylashtirishdagi foiz stavkasiga bog‘liq bo‘ladi.

Investor uchun investitsion qarorlar qabul qilish juda qiyin vazifa hisoblanib, bunda asosiy mezon investorning boyligini ko‘paytirish, korxonaning qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda investitsiyalar samaradorligini baholashning quydagi usullari katta ahamiyat kasb etadi. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash ikki mezon asosida, ya’ni moliyaviy va iqtisodiy baholash orqali amalga oshiriladi[106]. Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashning bu ikkala mezoni ham bir-birini to‘ldirib turadi.

1. Moliyaviy baholash investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonidagi likvidligini tahlil qilishda ishlatiladi. Bunda, moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxonaning etarli moliyaviy resurslari bo‘lishini belgilashdir.

2. Iqtisodiy baholash esa, investitsiya loyihasining potensial qobiliyati, shu loyihaga qo‘yilgan mablag‘larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o‘sishi sur’atini etarli darajasini yaratib berishda foydalaniladi.

Ob’ektni investitsiyalashda moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi) investitsiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Investor moliyaviy holati noma’lum bo‘lgan yuridik yoki

[106] Чет эл мамлакатларининг тажрибасини, шу билан бирга YuNIDO (United Nations Industrial Development Organization) тавсияларини ҳисобга олган ҳолда

jismoniy shaxslar bilan hech qanday munosabatlar olib bormaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, korxonalar moliyaviy hisobotlarini ommaviy-axborot vositalari orqali yoki har xil to‘plamlar holatida chop etilib, e’lon qilish normal holat hisoblanadi. Bu to‘plamlar orqali kompaniyalarning moliyaviy holati to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin. Davlat, korxona va tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining mohiyati shundan iboratki, har xil xarajat birligiga (mehnat, moddiy, moliyaviy) ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar va foyda hamda milliy daromadni oshirishga erishish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, mikro va makro iqtisodiyot hamda ularning sektorlarida “samara” va “samaradorlik” degan atamalarni tez-tez uchratish mumkin. Ular o‘zlarining iqtisodiy mohiyati va mazmuniga qarab bir-birlaridan farqlanadi. “Samara” tushunchasi o‘zida iqtisodiy jarayonning qandaydir biror bo‘lagida (bo‘g‘inida) qo‘llanilgan tadbirlarning bergan natijasini (ijobiy natijaga erishishni) o‘zida aks ettiradi. Samaradorlik – mutlaq ko‘rsatkich bo‘lib, u ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalarini ko‘rsatadi. Loyihaning boshqa barcha qulay tavsifida u quyidagilarni ta’minlamasa, loyiha hyech qachon amalga oshirilmaydi:

- loyiha tovar va xizmatlarni sotish evaziga olingan daromadlar qo‘yilgan mablag‘larni qoplanishi;
- investitsiyalar rentabelligini ta’minlovchi foyda firmaning xohishi darajasidan yuqori bo‘lishligi;
- investitsiyalarning qoplash muddati firma uchun muvofiq kelgan davrga mos kelishi. Investitsion jarayonlardagi bunday natijalarga erishishning haqiqiyligini aniqlash real aktivlarga solingan mablag‘lar bo‘yicha har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunday baholashni o‘tkazish har doim birmuncha qiyin vazifa hisoblanadi, chunki unda bir qator muhim omillar ta’sirini hisobga olish talab etiladi:
- birinchidan, investitsion xarajatlar fakat bir marta yoki uzoq vaqt davomida bir necha marta amalga oshirilishi mumkin;
- ikkinchidan, investitsiya loyihasini amalga oshirishdan natijalar olish davrining davomiyligi va uzoq ekanligi;
- uchinchidan, uzoq muddatli operasiyalarni amalga oshirish investitsiyalarning barcha jihatlarini baholashda noaniqlikning o‘sishiga va xavfning tug‘ilishiga olib kelishi mumkin.

Jahon bankida investitsion loyihalarni tanlashning asosiy mezoni-bu xarajatlarni chiqarib tashlagandagi foydaning diskontlangan zamonaviy qiymatidir. Daromadlar ham, xarajatlar ham loyihani amalga oshirish jarayonida o‘sib boradi. Loyiha iqtisodiy tanlovdan o‘tishi uchun u quyidagi ikki shartga muvofiq bo‘lishi lozim:

- loyihani tatbiq qilishdan kutilayotgan foydaning sof zamonaviy qiymati salbiy bo‘lmasligi lozim;

- loyihadan kutilayotgan sof zamonaviy qiymat muqobil o‘zaro ziddiyatli loyihalardan kutilayotgan sof zamonaviy qiymatga teng yoki undan yuqori bo‘lishi lozim.

Iqtisodiy samaradorlik – investitsiyaga jalb etilgan kapitaldan foydalanilganligi uchun olingan foyda, daromad tushunilsa, **ijtimoiy samara** esa investitsiyani ishlatishdan olingan foydadan tashqari, kishilarning hayoti yaxshilanishi, tabiatni saqlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi ham tushuniladi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda “iqtisodiy samara” va “iqtisodiy samaradorlik” atamalariga e’tibor berish lozimdir.

Iqtisodiy samara – qo‘yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan natijasi bo‘lsa, **iqtisodiy samaradorlik** esa olingan iqtisodiy samara yoki investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o‘rtasidagi nisbatni anglatadi.

Iqtisodiy samara bu investitsiya hisobiga olingan daromaddan qo‘yilgan kapital summasi ayirilib topiladi va quyidagicha hisoblanadi;

$$E = D - K$$

Bu yerda:

E - iqtisodiy samara;

D - qo‘yilgan kapitaldan daromad;

K - qo‘yilgan kapital summasi;

Iqtisodiy samaradorlik qo‘yilgan investitsiyadan olingan foyda, daromadni qo‘yilgan kapital summasiga bo‘lish orqali topiladi.

$$E = \frac{I_f}{K}$$

Bu yerda:

E – iqtisodiy samaradorlik

I_f – investitsiyalashdan olingan foyda

K – qo‘yilgan kapital

Mamalakat iqtisodiyoti miqyosida investitsiyaning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi mamalakatda yaratilgan yalpi milliy

mahsulot miqdorini mamalakat miqyosida qo‘yilgan investitsiya miqdoriga bo‘lish orqali topiladi.

$$E = \frac{YaMM}{K}$$

Bu yerda:

YaMM – yalpi milliy mahsulot

K – YAMMni yaratish uchun qo‘yilgan kapitalning summasi.

Iqtisodiy samara vaqt funksiyasi hisoblanib, boshlanishida u salbiy ko‘rinishda bo‘ladi, chunki qo‘yilgan kapitaldan hali daromad olinmagan bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan kapital qaytimi bo‘lgan sari daromad orta boradi va bu ijobiy natijaga erishiladi, ya’ni qo‘yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o‘tgan sari qo‘yilgan kapital miqdoridan orta boradi.

Qo‘yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o‘tgan sari qo‘yilgan kapitalga tenglashadi. Bu davr **investitsiyani qoplash davri** deb ataladi. Bu ko‘rsatkich iqtisodning ishlab chiqarish sohasiga qo‘yilgan kapital qo‘yilmaning samaradorligini ko‘rsatadi. Investitsiyani qoplash davri kichik biznes sohasida 2-3 yil, uzoq muddatli qo‘yilmalar esa 10-15 yilgacha davom etadi. Kapital qo‘yilmalarni qoplash davrining me’yorlari degan tushuncha mavjud bo‘lib, bu xalq xo‘jaligi yoki tarmoqlarda qo‘yilgan kapital qo‘yilmalarning qoplash davrining o‘rtacha miqdori deb tushuniladi. O‘rta hisobda investitsiyani qoplash davri qilib iqtisodda 6-8 yil deb qabul qilingan.

Investitsiyaning milliy daromaddagi hissasi **investitsiya normasi** deb ataladi. Bu quyidagi formula asosida hisoblanadi;

$$YaIN = \frac{YaIS}{YaMM} \times 100$$

Bu yerda:

YaIN – yalpi investitsiya normasi

YaIS – yalpi investitsiya summasi

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab turgan chet ellik tashkilotlar vakolatxonalarining biznesga texnikaviy yordam berish va qo‘llab-quvvatlash salohiyatidan to‘liqroq foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Statistik usul yordamida loyiha sifatini, olingan investitsiyaning qaytarish muddatini baholash mumkin. Investitsiyani o‘rtacha qoplash muddatini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$U_q = \frac{C_0}{C1}$$

Bu yerda:

C_0 – boshlang‘ich korxonaga berilgan investitsiya miqdori,

C_1 – yillik o‘rtacha muomilada bo‘lgan pul miqdori.

Kiritilgan investitsiyalardan qilingan harajat bilan, undan kelgan daromad vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Qilingan harajat bilan daromadni investitsiya kiritilgan yillar bo‘yicha, investitsiya foizini e’tiboga olgan holda, taqqoslab borishga usuli dinamik usul deyiladi.

Har qanday investitsiya loyihasini moliyaviy-iqtisodiy baholash mazmunini juda sodda savolga, ya’ni kelgusidagi pul tushumlari hozirgi qilingan harajatlarni qoplaydimi yoki yo‘qmi degan savolga javob topish tashkil etadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investitsiyalarni baholashning turli loyihalarga qo‘yilgan mablag‘larning foydaliligini taqqoslashga asoslangan usullari ko‘p qo‘llaniladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uslublari deganda harajatlarning foydaliligi va qoplanishi nuqtai nazaridan turli ob’ektlarga (loyihalarga, tadbirlarga) investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash usullari tushuniladi. Investitsiyalar samaradorligini aniqlashda, ularning ayrim jihatlarinigina harakterlaydigan alohida ko‘rsatkichlardan foydalanish yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun bir necha uslublar va ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Investitsiya loyihalarini baholashda besh asosiy uslubdan keng foydalaniladi. O‘z navbatida bu uslublarni ikki guruhga aratish mumkin:

1. Diskontlash konsepsiyasini qo‘llashga asoslangan uslublar:

- sof joriy qiymatni aniqlash uslubi;
- investitsiyalarning rentabellik darajasini aniqlash uslubi;
- ichki foyda me’yorini aniqlash uslubi.

2. Diskontlash konsepsiyasini qo‘llashni ko‘zda tutmagan uslublar:

- investitsiya loyihalariga sarflangan mablag‘larni qoplash davrini aniqlash uslubi;
- investitsiyalarning buxgalteriya rentabelliligini aniqlash uslubi.

Ushbu uslublarni ko‘rib chiqishdan oldin shuni ta’kidlash zarurki, barcha keltirilgan uslub investitsiyalarning mutlaq samaradorligini aniqlash usuli sifatida ko‘rib chiqiladi. Ya’ni har bir investitsiya loyihasini amalga oshirish firmaning boshqa loyihalarga investitsiya sarflash imkoniyatlariga ta’sir etmaydi, degan shartga amal qilinadi.

Bunday shartning kiritilishiga sabab shuki, amalda ko‘pchilik investiya loyihalarining amalga oshirilishi boshqa loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini pasaytiradi yoki mutlaqo yo‘qqa chiqaradi. Bunday investitsiya loyihalari o‘zaro konfliktli loyihalar deyiladi. O‘zaro konfliktli loyihalar jumlasiga firmaning ma’lum bir pirovard maqsadiga erishishning turli yo‘llarini ko‘zda tutuvchi loyihalar kiradi. Turli loyihalarning konfliktli bo‘lishiga sabab korxona mablag‘larining cheklanganligidir. Firmalalar loyihalarni nafaqat mutlaq samaradorligi mezoniga ko‘ra, balki mablag‘ yetmay qolganligi sabab boshqa loyihalarni amalga oshira olmasligi tufayli o‘zi ko‘rishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar nuqtai nazaridan kelib chiqib ham tanlaydi. Boshqacha aytganda, firma investitsiya loyihalarini nisbiy samaradorlik mezoniga ko‘ra tanlaydi.

Investitsiyalar samaradorligini aniqlash usullarini o‘rganishga kirishishdan oldin biz e’tiborga olishimiz zarur bo‘lgan yana bir shart shundan iboratki, bu jarayonda loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan barcha harajatlar va tushumlar pul ko‘rinishiga ega deb qaraladi. Endi investitsiya loyihalarini baholashning sodda(statik) usullarini ko‘rib chiqamiz. Bu uslublar diskontlash konsepsiyasi paydo bo‘lmasdan oldin ham keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular yordamida, asosan pul kirimlari va chiqimlarini taqqoslash orqali loyihalarning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

Investitsiyalarning qoplanish davri *PP* (ingl. Paybak period), bu shunday davrki, bunda dastlabki qilingan investitsiyalar miqdori tiklanadi.

$$PP = \frac{I_0}{CF_t}$$

Bunda:

I_0 – dastlabki investitsiya miqdori;

CF_t – loyihani amalga oshirish natijasida bir yilda tushadigan mablag‘.

Bunda CF_t darajasidagi summa belgisiga e’tibor berish kerak. Bu belgi CF_t summasini ikki usulda (tomonlama) aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi. Birinchi usul qachonki, foyda yil davomida bir xil bo‘lsa qo‘llaniladi. Aytaylik, biz 600 mln. so‘m investitsiya sarf qildik va 8 yil ichida har yili 150 mln.so‘mdan foyda olishni kutayapmiz. Unda 600/150=4 yil ichida sarflangan investitsiya qoplanadi va qolgan 4 yil davomida investor sof foyda oladi.

Ikkinchi usul investitsiya qilingandan keyin, foyda bir xil bo‘lmasa yoki o‘sib boruvchi miqdorni tashkil etsa qo‘llaniladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolimizda foyda yillar bo‘yicha bir xil bo‘lmasdan ortib borsin (11.1-jadval):

11.1-jadval

Foyda dinamikasi

1-yil	50 mln. so‘m,
2-yil	100 mln. so‘m,
3-yil	200 mln. so‘m,
4-yil	250 mln. so‘m,
5-yil	300 mln. so‘m.

Bunda 3 yil ichidagi foyda investitsiya summasidan kam, 4 yil ichidagisi esa ko‘p. Bunday holatlarda investitsiyalarni qoplash davrini aniq belgilab olish uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- qaysi yillar orasida investitsiya summasi qoplanishini topish zarur. Bizning misolda 3-4 yillar orasida;
- qoplanmagan summa miqdorini aniqlash kerak, bizning misolda bu 150 mln.so‘mni (600-(100+150+200));
- aniqlangan qoplanmagan summani 4-yilgi foyda miqdoriga bo‘lish kerak, ya’ni 150/300=0,5. Ko‘rinib turibdiki qoplanmagan summa 4-yilning yarmida qoplanadi. Demak, bunda investitsiyalarni qoplash davri 3,5 yilni tashkil qiladi.

Investitsiyalarning qoplanish muddati ko‘rsatkichidan quyidagi shartlar bajarilgandagina foydalanish yaxshi natija berishini e’tiborda tutish kerak:

1. bu ko‘rsatkich yordamida taqqoslanayotgan barcha loyihalar bir xil hayot davriga ega bo‘lishi kerak;
2. barcha loyihalar boshlang‘ich investitsiyalarning bir martalik sarflanishini ko‘zda tutadi;
3. mablag‘ sarflanib bo‘lingandan so‘ng barcha investorlar loyiha hayot davrining oxirigacha bir xil foydaga ega bo‘ladilar.

Bu ko‘rsatkich hisoblab topish osonligi, tushunish uchun soddaligi bilan birga loyihaning tavakkal xavfi darajasi haqida ma’lumot berishi tufayli ham qadrlidir. Investitsiyalarning qoplanish muddati qanchalik katta bo‘lsa, dastlabki hisoblangan natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelishi xavfi shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga bu ko‘rsatkich jiddiy kamchiliklarga ham ega. Ya’ni u ikki muhim holatni inkor qiladi:

- turli muddatlarda pulning qiymati turlicha bo‘lishini;
- qoplanish muddati tugagandan so‘ng ham foydaning davom etishini.

Shu sababli ham *PP* ko‘rsatkichini investitsiyalar samaradorligini baholashda asosiy usul sifatida qo‘llab bo‘lmaydi. Shuni ta’kidlash joizki investitsiyalarning qoplanish muddatini hisoblashdagi ko‘rsatilgan birinchi kamchilikni tuzatish mumkin. Bu uchun pul oqimlari diskontlab olinadi, xolos.

Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi *ROI* (ingl. return on investment) ko‘rsatkichi loyihalarini baholashning ikkinchi sodda (statik) ko‘rsatkichi bo‘lib, adabiyotlarda investitsiyaga o‘rtacha foyda me’yori (*IRR*–ingl. average rate of return), hisoblangan foyda me’yori (*IRR*–ingl. accounting rate of return), deb ham yuritiladi. Bu ko‘rsatkich vositasida investitsiyalarga pul tushumlari asosida emas, balki buxgalteriya ko‘rsatkichi bo‘lgan firma daromadi miqdoriga asoslanib, baho beriladi. Ko‘rsatkichning nomidan xulosa qilish mumkinki, u buxgalteriya hisoboti bo‘yicha firma daromadi o‘rtacha miqdorini investitsiyalarning o‘rtacha miqdoriga nisbatini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$ROI = \frac{EBIT(1-C)}{(A_B - A_A) + 2}$$

Bu yerda:

EBIT (ingl.earnings before interest and tax) - firmaning foiz va soliqlar to‘lovlarini amalga oshirgunga qadar (yoki soliq to‘lovlaridan keyingi, lekin foiz to‘lovlarigacha) bo‘lgan foydasi miqdori;

C – soliq stavkasi (koeffitsiyentda beriladi);

A_B, A_A –aktivlarning yil boshidagi va yil oxiridagi qiymati. Bu ikkala miqdor o‘rtasidagi farq investitsiya harajatlari hajmini ko‘rsatadi.

ROI – ko‘rsatkichining qo‘llanishi uning hisoblangan darajasini tashkilot uchun standart bo‘lgan rentabellilik darajalari bilan solishtirishga asoslangan. Agar bu ko‘rsatkich tashkilot tomonidan standart deb qabul qilingan ko‘rsatkichdan katta bo‘lsa, loyiha ma’qul deb hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich hozirgacha dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida keng qo‘llanib kelinishiga quyidagilar sabab:

Birichidan, uni hisoblash oson va diskontlash kabi murakkab hisob-kitoblarni talab etmaydi. Shu bilan birga ayrim shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa, hisoblangan *ROI* miqdori *IRR* miqdoriga juda yaqin bo‘ladi. Bu shart-sharoitlar quyidagilardir:

- agar investitsiyalar perpetuitet (ingl. perpetuity) ko‘rinishida yillik pul tushumlarining teng miqdordagi summalari sifatida amalga oshirilsa;
- to‘plangan amortizatsiya qo‘shimcha mablag‘larsiz eskirgan uskunalarni yangilash uchun yetarli bo‘lsa;
- investitsiyalarni amalga oshirish davrida aylanma kapital miqdorida o‘zgarish ro‘y bermasa.

Loyihalarni baholashning statistik usullari loyiha bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar olish imkonini berishi bilan qadrlidir.

Ikkinchidan, aksiyadorlik kompaniyalarida bu ko‘rsatkich menejerlarni investitsiyalashning aksiyadorlarni eng ko‘p qiziqtiradigan buxgalteriya rentabelligi ko‘rsatkichi bilan bog‘liq bo‘lgan variantlariga yo‘naltiradi.

ROI – ko‘rsatkichi kamchiliklari uning afzalliklari aksini tashkil etadi. Ya’ni bu ko‘rsatkich vositasida investitsiya loyihalari taqqoslanganda:

- pulning turli vaqtlarda qiymati bir xil bo‘lmasligi e’tiborga olinmaydi;
- loyihalar turlicha muddat xizmat qilishi inkor qilinadi, ya’ni bir xil rentabellikka ega ikki loyihadan biri 5 yil, ikkinchisi 10 yil daromad olishini ta’minlashi bu ko‘rsatkichda aks etmaydi.

Shuningdek, investitsiyalarning buxgalteriya rentabelliligi firma boyligining real o‘zgarishini harakterlamasdan, aksiyadorlar va “chetdagi” boshqa shaxslarning talablariga mos natija olishga qaratilgan. Ko‘rib chiqilgan investitsiya loyihalarini baholashning barcha usullarini birgalikda qo‘llashgina loyihalarning samarali yoki samarasiz ekanligi to‘g‘risida aniq xulosa olish imkonin beradi.

Kompaniyalarda investitsiya qarorlarini qabul qilish moliyaviy menejerlar hal qilishi kerak bo‘lgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bizga ma’lumki, investitsiya loyihalarini baholash masalasiga korporativ moliya, yoki moliyaviy menejmentga oid adabiyotlarda yetarli darajada e’tibor qaratilgan.

Nazariy jihatdan, bu masala o‘z yechimiga ega. Deyarli barcha mualliflar investitsiya loyihalari bo‘yicha qaror qabul qilishda quyidagi baholash usullarini qo‘llashni taklif qiladilar: ***oddiy va chegirilgan qoplash muddati*** (Payback Period - PP va DPP), ***buxgalteriya daromadlilik me’yori*** (Average Rate of Return – ARR, yoki ROI), ***sof joriy qiymat*** (Net Present Value - NPV), ***ichki daromadlilik darajasi*** (Internal Rate of Return - IRR), ***daromadlilik indeksi*** (Profitability

Index - PI). O‘tgan asrning boshlarida qoplash muddati va buxgalteriya daromadlilik me’yori kabi usullardan foydalanish juda ommabop bo‘lgan.

Investitsion loyihalarni baholash metodologiyasi rivojlanishi bilan, keyinchalik, NPV va IRR kabi baholash usullari ixtiro qilindi. Bugungi kunda investitsiyalarni loyihalashtirish jarayonida yuzaga keladigan bir-qancha masalalarni hal qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir qator ko‘rsatkichlar (EVA, CFROI) yaratilgan. Umuman olganda, kompaniya menejerlari investitsiya loyihalarini baholashda to‘rtta asosiy kapital byudjet tuzish usullaridan foydalanishmoqdalar.

NPV va IRR usullari pul oqimlarini chegirish (DCF) usullari sifatida klassifikatsiyalansa, PP va ARR kbi usullar esa, pul oqimlarini chegirish orqali hisoblanmaydi (ya’ni, non-DCF)[107]. Hozirgi kunga kelib, kapital byudjet tuzishda jarayonida loyihalarni samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan u yoki bu ko‘rsatkichlarning kompaniya moliyaviy menejerlari tomonidan foydalanishining amaliy jihatlari borasida ko‘plab chet el olimlari tadqiqotlar o‘tkazganlar. Bu boradagi ilk tadqiqot ishlari Payk va boshqa bir qator olimlarga tegishli. Ammo, tadqiqot ishlarida kompaniya moliyaviy menejeri u yoki bu usul tarafdorliklari tahlilida faqat menejer tanlovi yoritilgan (gohida alohida mamlakat misolida ularning dinamikasi keltirilgan). Moliyaviy menejer nima sababdan va nimaga asoslanib bu tanlovni amalga oshirgani to‘liq o‘rganilmagan[108]. Ko‘plab natijalar yirik kompaniyalar menejerlari investitsiya loyihalarini baholashda NPV va IRR kabi ilg‘or usullardan foydalanishni afzal ko‘radilar. Ehtimol, bu yirik kompaniyalar ko‘pincha, keng miqyosdagi investitsiya loyihalari bo‘yicha qaror qabul qilishga to‘g‘ri kelishi va mos ravishda, NPV hamda IRR kabi usullarni qo‘llash orqali solishtirma harajatlar (cost per unit) kamaytirilishi bilan bog‘liqdir. Unchalik katta kapital aylanmasiga ega bo‘lmagan kompaniyalarda, aksincha, moliyaviy menejerlar investitsiya loyihalarini baholashda RR foydalanishni afzal ko‘rishadilar. Bunga asosiy sabablardan biri, kichik kompaniyalarda likvidlilik masalasi muhim hisoblanadi. Bir qancha kichik kompaniyalar chegirilgan qoplash muddati (DPP) usulidan foydalanadilar. Bu usulda pulning vaqt qiymati (Time Value of Money)

[107] N.Hermes, P.Smid, L.Yao. Capital Budgeting practices: A comparative study of the Netherlands and China. International Business Review. Elsevier, vol. 16(5), pages 630-654, 2007.

[108] R.Pike. A Longitudinal Survey on Capital Budgeting practices. Journal of Business Finance & Accounting. Vol. 23, pages 79-92, 1996.

hisobga olinadi va shu tariqa oddiy qoplash muddati (PP) usulining kamchiliklari bartaraf etiladi.

Xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, ochiq shakldagi kompaniyalar yopiq shakldagi kompaniyalarga nisbatan NPV va IRRni ko‘proq ishlatadilar. Shu bilan birga, kompaniyaning tashkiliy-huquqiy shakllari bilan uning hajmi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan rad etiladi. Madomiki, regression tahlil mazkur tavsiflar bir-biri bilan korrelyatsiyalanmasligini ko‘rsatadi[109]. Investitsiya loyihalarini baholashda chegirilgan ko‘rsatkichlarning qo‘llanilishi moliyaviy menejerning yuqori bilim darajasiga va yoshiga bog‘liq degan gipoteza tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan. Ularning fikriga ko‘ra, moliyaviy menejerning bilim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ular chegirilgan usullardan shunchalik ko‘p foydalanganlar. Yosh menejerlar yangi usullarni o‘zlashtirishlari va qo‘llay olish imkoniyatlari yoshi katta menejerlarga nisbatan yuqori.

Moliyaviy menejerlar tomonidan u yoki bu usulni tanlashga kompaniyaning moliyaviy levereji ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada quyidagi bog‘liqlik kuzatiladi: qarz kapitali ulushi yuqori bo‘lgan kompanilarda NPV va IRR ko‘rsatkichlari qarz kapitali ulushi past bo‘lgan kompaniyalarga nisbatan ko‘proq ishlatiladi (qarz kapitali ulushi yuqori bo‘lgan kompaniyalarda qarz ko‘rsatkichi 30 foizdan yuqori). Bizga ma’lumki, qarz kapitalidan foydalanishning afzalliklaridan biri *tax shield (qarz kapitalidan soliq chegirmasi)* hisoblanib, uning hisobi aynan NPV va IRR ko‘rsatkichlarini hisoblash jarayonida yuzaga keladi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *tax shield* asosan, yirik kompaniyalar, qarz kapital ulushi yuqori bo‘lgan firmalar, past risk darajasiga ega kompaniyalar uchun muhim hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, *tax shield* yuqori foyda soliq stavkasi tendensiyasiga va shu bilan birga, qarz kapitalidan foydalanishda asosli rag‘batlarga ega bo‘lgan kompaniyalar uchun muhimdir[110].

Kompaniyalarda kapital byudjet tuzishda, investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy menejerlar tomonidan ustivor bo‘lgan baholash usullarini tanlash kompaniya uchun muhim ahamiyatga ega. Madomiki, investitsiya qarorlarini qabul qilish kompaniya egalari boyliklarini maksimallashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy nuqtai-nazardan qaralganda,

[109] J.Graham, C. Harvey. How do CFOs make Capital Budgeting and Capital Structure decisions. Journal of Applied Corporate Finance. Vol.15(1), pages 8-23, 2002.
[110] Ўша ерда

investitsiya loyihalarini baholashning bir-qancha usullari mavjud bo‘lib, pul oqimlarini chegirishga asoslangan usullar loyihalarni nisbatan to‘g‘ri va aniq baholash imkoniyatini beradi. Biroq, shu bilan birga, ularni hisoblash oson ish emas.

Tadbirkorlik faoliyati samardorligi birinchi navbatda investitsion loyihalarning jozibadorligiga, sifatiga, undagi hisob-kitoblarning to‘g‘ri amalga oshirilganligiga bog‘liq. Ularning har biriga to‘xtalib o‘tsak.

Jozibadorlik. Ma’lumki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ma’lum miqdorda mablag‘lar bilan ta’minlanganlikka bog‘liq. Mablag‘lar manbai esa o‘ziniki ya’ni tadbirkorniki yoki bo‘lmasa boshqalarniki ya’ni investorniki. Investordan esa mablag‘ni osonlikcha olib bo‘lmaydi. Shu maqsadda investorga taqdim qilinayotgan investitsion loyiha investorni o‘ziga ohangrabodek tortishi zarur. Loyihalarning jozibadorligi deganda ana shu xususiyat tushuniladi. Unga qanday erishish mumkin? Buning uchun avvalo loyiha chiroyli rasmiylashtirilgan bo‘lishi, bir qaraganda investorni loyihani hyech bo‘lmasa bir qarashga undashi zarur. Loyihada o‘rtaga tashlangan masalaning tushunarli va ravon yoritilishi va hisob kitoblarning ishonchli taqdim etilishi loyihaning sifatini belgilab beradi.

Shu bilan birgalikda tadbirkorlikda ularning loyihalarini (biznes rejalarini) iqtisodiy jihatdan baholash bu loyihalarni amaliyotga tadbiq etish yoki etmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Investitsion loyihalarni hayotga tadbiq etishda avvolo uning hayotiy tsikllari o‘rganiladi va loyihaga iqtisodiy jihatdan baho beriladi. Investitsion loyihalarni iqtisodiy baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi[111]:

- sof diskontlangan daromad;
- daromadlilik indeksi;
- daromadlilikning ichki me’yori.

Sof diskontlangan daromad quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$D = \sum_{k=0}^{T} (R_t - 3_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu yerda:

Rt – investitsion loyihani amalga oshirishdan keladigan tushum (natija), ming so‘mda.

[111] Bektemirov A.A. (2020) “Economic Assessment Of Investment Projects In Entrepreneurship”, GIS Business, 15(3), pp. 121-131. Available at:https://gisbusiness.org/index.php/gis/article/view/19569

zt – loyihani amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlar, ming so‘mda.

Ye – diskontlash koeffitsiyenti.

Loyihalarni iqtisodiy baholashdagi ikkinchi ko‘rsatkich bu daromadlilik indeksidir. Daromadlilik indeksi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{ID} = \frac{1}{K} \sum_{k=0}^{T} (\boldsymbol{R_t - 3_t}) \ \frac{\mathbf{1}}{\boldsymbol{(1+E)^t}}$$

Bunda:

K- moliyalashtiriladigan mablag‘ miqdori.

Loyihalarni iqtisodiy baholashning yana bir ko‘rsatkichi bu daromadlilikning ichki me’yoridir. Bu ko‘rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sum_{\boldsymbol{t=1}}^{\boldsymbol{T}} \frac{\boldsymbol{(R_t - 3_t)}}{\boldsymbol{(1-E_n)^t}} = \sum_{\boldsymbol{t=1}}^{\boldsymbol{T}} \frac{\boldsymbol{K_t}}{\boldsymbol{(1-E_n)^t}}$$

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar investitsion loyihalarni iqtisodiy baholashda muhim rol o‘ynaydi.

§ 11.3. Investitsiya loyihalarini baholashning oddiy va diskont usullari

Investitsiya loyihasini baholash loyihani amalga oshirishdan oldin bajarilishi sababli, pul oqimlari haqidagi ma’lumotlar ham oldindan rejalashtiriladi. Loyiha samaradorligini baholashda pul oqimlarini rejalashtirish va ularni hisobga olish jarayoni asosiy o‘rinni egallaydi va investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Diskontlash usuli (noan’anaviy usul)ning mazmuni shundan iboratki, pul mablag‘larining qiymati muayyan vaqtda bir xil emasligi, ya’ni bugungi bir so‘m bir yildan keyingi bir so‘mga (iste’mol qiymati bo‘yicha) teng emasligi konsepsiyasiga asoslanadi. Diskontlashga asoslangan usullarning barchasi (sof joriy qiymatni aniqlash usuli (Net Present Value, NPV), foydaning ichki me’yorini hisoblash usuli (Internal Rate of Return, IRR), investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli (Profitability Index, PI), diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli (Discount Payback Period, DPP)da investitsiya loyihalarining muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarning o‘rtasidagi farq – sof pul oqimi (Cash Flow – CF)

aniqlanib, diskotlashtirish yo‘li bilan hisoblanadi. Binobarin, diskontlashga asoslangan usullarning mohiyatini tushunish uchun avvalo, korxona pul oqimlarining mazmunini va sof pul oqimini aniqlash formulasini bilib olishimiz kerak bo‘ladi.

Jahon amaliyotida foiz stavkalari quyidagi guruhlarga bo‘linadigan turli xil suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalaniladi:

1. Rasmiy foiz stavkalari (hisob stavkasi yoki qayta moliyalashtirish stavkasi) har bir davlatda Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Mana shu stavkalar bo‘yicha Markaziy banklar tijorat banklariga kredit berishadi. Markaziy banklar-ning kreditlash operatsiyalari tijorat veksellarini qayta hisoblash shaklida amalga oshiriladi.

2. Kredit resurslarini taqdim qilishning banklararo stavkalari eng ko‘p qo‘llaniladigan bazis stavka sifatida LIBOR – London banklararo stavkasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Frankfurt na-Maynda (FIBOR), Parijda (PIBOR), Madridda (MIBOR), Rimda (RIBOR), Stokgolmda (STRIBOR), Gonkongda (Gribor) o‘ziga xos banklararo stavkalari ham mashhur.

3. “Praym – reyt” stavkasi (birinchi darajali stavka) – bu eng obro‘li qarz oluvchilarga beriladigan kreditlarga AQSH banklari tomonidan belgilanadigan stavkadir. U kredit qiymati-ning mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi va dastlabki ikki stavkadan 1 – 2 foizga yuqori bo‘ladi.

4. O‘rta va katta bo‘lmagan firmalar va xususiy shaxslarga beriladigan kreditlar stavkalari. Ular, odatda, “praym – reyt” dan ham yuqori bo‘ladi.

Hozirgi paytda eng muhim stavka LIBOR hisoblanib, yevro-valyuta bozoridagi birinchi darajali banklar o‘rtasidagi kredit-lashda eng ko‘p qo‘llaniladigan stavkadir. Odatda, “LIBOR stavkasi” deyilganda, funt sterling va AQSH dollaridagi depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari tushuniladi. Funt sterlingdagi LIBOR stavkasi har kuni ertalab 11:00 da (London vaqti) quyidagi banklarning qat’iy stavkalarining o‘rtacha arifmetik kattaligi sifatida hisoblanadi: Lloyds, Midlend, VOA, Barklayz, Sosete Jeneral va Netvest. Mana shu tamoyil asosida AQSH dollaridagi LIBOR stavkasi aniqlanadi, bunda quyidagi banklar qat’iy stavkalari ishlatiladi: Barklayz, Benk of Tokio, Bankers Trast, Neshnl Vestminster bank.

Yevrokreditlar bo‘yicha LIBOR stavkasi, odatda, 12 ta valyuta bo‘yicha va bir necha davrlar bo‘yicha (1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9 oy va 1 yil) hisoblanadi.

Yevrokredit – bu suzib yuruvchi stavkada yevrovalyutalaridan birida beriladigan o‘rta muddatli bank kreditidir. Banklar kredit bo‘yicha foiz stavkalarini hisoblashda turli xil usullardan foydalaniladi. Misol uchun, AQShda eng ko‘p tarqalgan usullar: yillik foiz stavkasi usuli, oddiy foiz usuli, diskont stavka usuli, qo‘shish usuli hisoblanadi.

Yillik foiz stavkasi usuli – kredit bo‘yicha yig‘ilgan to‘lovlarni kredit summasiga bo‘lgan nisbatini ko‘rsatadi, ya’ni daromadlilik stavkasini ifodalaydi. Bu usul kreditning qanchalik tez qaytarilayotganligi va qarzdor kreditlash muddati davomida haqiqatda qancha summa ishlatayotganligini ko‘zda tutadi.

Oddiy foizlar usuli ham haqiqatda ishlatgan kreditni ko‘zda tutadi. Agar qarzdor kredit qaytarishni asta oshirsa oddiy foizlar usuli qarzdorlik qoldig‘i pasayishini va tegishli to‘lanadigan foiz stavkalarini aniqlab beradi. Bu usulni qo‘llashda qarzdor kredit qaytarilishi muddati yaqinlashgan sayin foiz to‘lovlarida harajat-larni tejashga erishadi.

Diskont stavka usuli. Kreditlarning asosiy qismi kreditlash muddati davomida qisman foiz va qisman asosiy qarzni to‘lashni ko‘zda tutadi, biroq diskontlash usuli foizlarning avans to‘lovini ko‘zda tutadi. Bu holatda qarz oluvchi kelishilgan kredit summasini foizlarni chegirishdan so‘ng oladi. Muddat tugashi bilan kelishilgan asosiy qarz summasini qaytarishi lozim.

Foiz oshirish usulida kredit qaytarish badallarini qarzdorga e’lon qilinguncha qadar foiz to‘lovlari asosiy qarz summasiga qo‘shib borilishi nazarda tutiladi. Agar kredit va foizlar muddat oxirida bir vaqtda qaytarilgan holatdagina foiz oshirish stavkasi oddiy foiz stavkasiga teng bo‘ladi. Har qanday boshqa holatda qarzdor shartnomada ko‘rsatilgan stavkada emas, balki kredit bo‘yicha yuqori bo‘lgan real stavkani to‘laydi.

Foiz stavkalarini hisoblashning boshqa usullari ham mavjud.

Kredit bo‘yicha foiz stavkasi tebranib turadi.

1. Ba’zi bir boshqa loyihalarning samaradorligi bundan baland yoki past bo‘lishi mumkin.

2. Ba’zi bir korxonalar o‘z ishlab chiqarishini faqatgina kredit mablag‘lar hisobiga tashkil qilmay, balki xususiy mablag‘lariga ham tayanadi. Shunda xususiy mablag‘lari aylanmasidan kelib tushgan

foyda hisobidan bank krediti foizini to‘lashga tayyor, bo‘lgani uchun, foiz stavkasi 5 foizdan oshishi mumkin.

3. Bozor iqtisodiyoti rivojlanmagan davlatlar iqtisodiyotining xalq xo‘jaligi juda notekis rivojlangan bo‘ladi. Shu sababli, turli sohalarning samaradorligi turlicha bo‘ladi. Oqibatda kimdir kredit uchun 100 foiz qo‘shimcha to‘lab berishga tayyor bo‘lsa, kimdir uchun 5 foiz ham og‘irlik qiladi. Demak, kredit foiz (qarz oluvchi istayotgan foiz stavkasi) quyidagicha aniqlanadi.

$$r = ye - t - b$$

e – kredit hisobidan amalga oshirilayotgan faoliyat samaradorligi;

t – samaradorlik hisobidan to‘lanadigan soliqlar;

b – samaradorlik hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy harajatlar.

Bizning misolimizda $r = 15 - 0{,}32 * 15 - 0{,}35 * 15 = 5$ %

Kreditor ham xuddi shu yo‘l orqali o‘zi istagan foiz bilan kredit resurslarini taklif etadi. Faraz qilaylik, r = 8 %, Ammo bu foiz qarz oluvchining ahvoli, kredit muddati, tavakkalchilik darajasi kabi omillarning ta’siri natijasida o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari qarz beruvchi kredit resurslarini kredit bozoridan o‘zi ham olishi mumkin. Masalan, jamg‘arma banklardan, tijorat banki jamg‘arma bankiga 4,5 % = r daromad to‘lab berishga tayyor. Jamg‘arma banki o‘z nabatida r dan kelib chiqqan holda omonat va depozitlar bo‘yicha foiz stavkasini r= 4 % belgilaydi.

Davlat ham r dan kelib chiqib, o‘z obligatsiyalariga foiz stavkasini belgilaydi. Agarda foiz stavkasini r dan tushirib yuborsa, aholi davlat obligatsiyalarini sotib olmaydi. Oshirish esa davlat uchun ortiqcha harajatdir, chunki r = r bo‘lganda aholi asosan r ni harid qiladi. Sababi, davlat obligatsiyalari jamg‘arma banklardagi depozitlarga nisbatan ishonchliroqdir.

Hissadorlik jamiyatlari ham o‘z aksiyalari bo‘yicha foiz stavkasini r > r kabi belgilaydi, chunki korxona aksiyalari davlat obligatsiyalariga nisbatan tavakkalchiliga yuqori hisoblanadi. Markaziy bank, o‘z navbatida, qayta moliyalashtirish stavkasini r dan kelib chiqqan holda belgilaydi. Sababi, Markaziy bank r va r orqali mamlakat ssuda kapitali bozoridagi ahvolni nazorat qiladi. Agar davlat investitsion faollikni kuchaytirmoqchi bo‘lsa r tushadi va aksincha aktivlikni kamaytirmoqchi bo‘lsa **r** ni oshiradi. Bulardan tashqari, qat’iy belgilangan (fiksirlangan) va suzib yuruvchi foiz stavkalari ham mavjud.

Fiksirlangan foiz stavkasi bu – kredit shartnomasi bajarilgunga qadar o‘zgarmasdan qoluvchi foiz stavkasidir. Bu stavka tijorat banki uchun noqulaydir, ya’ni bunda bank o‘z aktivlarining ma’lum qismini yo‘qotishi mumkin. Masalan, bank 30 foiz stavkada bir yillik kredit berdi. Uch oydan ssuda kapitali bozorida bir yillik kapitallarning foiz stavkasi 35 foizga ko‘tarilsa, bu bank uchun zarardir. Suzib yuruvchi foiz stavkasi bu ssuda kapitalidagi talab va taklifga nisbatan o‘zgarib boradigan foiz stavkasidir. Suzib yuruvchi foiz stavkasi bank uchun zarar emas. Misol uchun, valyutadagi kreditlarni ko‘rib chiqamiz. Agar Libor - 6 foiz bo‘lsa, bank spredi 1 foiz bo‘ladi, demak kredit narxi 7 foiz, agarda Libor 5 foiz ga tushsa ham, bank spredi 1 foizligicha qoladi, ammo kredit narxi tushib, 6 foizni tashkil qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Diskontlash, sof joriy qiymat, kapital byudjet, investitsiya loyihalari samaradorligi, iqtisodiy samara, iqtisodiy samaradorlik, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, bojxona siyosati, loyiha davri.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati

2. Investitsiyani qoplash davri deganda nimani tushunasiz?

3. Iqtisodiy samara va iqtisodiy samaradorlikning farqi nimada?

4. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari

5. Investitsiya loyihalari moliyaviy va iqtisodiy baholashni mohiyati.

II BO‘LIM. INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH YO‘NALISHLARI

XII BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI

§ 12.1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi
§ 12.2. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari

§ 12.1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish faol investitsiya siyosatini o‘tkazish bilan chambarchas bog‘liqdir. Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish islohotlar strategiyasining muhim shartidir. Iqtisodiyot tuzilishi qurilishining belgilangan yo‘nalishlari eksport imkoniyatining kengaytirilishiga, baquvvat investitsiya siyosatini o‘tkazish yo‘li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o‘z sarmoyalarimizni ham, tashqi kreditlarni ham bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarur. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullari va manbalari xususida so‘z yuritishdan avval ular o‘rtasidagi farqni anglab olish zarur bo‘ladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullari va manbalari o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, investor tomonidan tanlab olingan moliyalashtirish usuli orqali moliyalashtirish manbasi yuzaga keladi. Misol tariqasida, investor tomonidan qabul qilingan qaror asosida tanlangan “kreditlashtirish” usuli orqali “qarz mablag‘lari” manbai, yoki “aksionerlashtirish” usuli orqali “jalb qilingan mablag‘lar” manbai yuzaga kelishini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Investitsiya loyihalarni moliyalashtirish deganda, ajratilgan mablag‘larni ma’lum bir investitsiya loyihasining ehtiyojlari uchun foydalanishning aniq maqsadli mohiyati tushuniladi. Loyihalarni moliyalashtirish asosan moliyaviy aktivlarga emas, balki real aktivlarga investitsiyalarni jalb qiluvchi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Xususan, yangi turdagi mahsulotlar va yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan innovasion loyihalarni moliyalashtirishning eng muhim usuli bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, investitsiya loyihalari katta xarajatlarni talab qiladi. Ayniqsa, ko‘chmas mulk loyihalari. Mablag‘larning eng ishonchli

sarmoyasi hisoblangan ko‘chmas mulk eng moliyaviy intensivlikka aylanmoqda. Loyihaga g‘oyaning muallifidan boshqa hyech kim ishonmasa, dastlabki bosqichda mablag‘ topish jiddiy muammoga aylanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy sheriklar investitsiyalar umumiy hajmining uchdan bir qismi allaqachon investitsiya qilingan paytda paydo bo‘ladi. Agar kompaniyada cheksiz moliyaviy resurslar bo‘lsa, hyech qanday muammo bo‘lmaydi. Ammo puli aniq bo‘lmaganlar qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini izlashlari kerak. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, zamonaviy texnika va yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni tashkil qilish va rekonstruksiya qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish juda muhim ahamiyatga kasb etadi. Bu avvalambor aholi bandligi va daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini yaratadi. Shu boisdan ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini rivojlantirish va zarur sharoitlarni yaratib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Taniqli iqtisodchi olimlardan U.Sharp[112] ham investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikriga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlarning daromadliligi va riskliligi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga ega bo‘lgan oqilona investitsion strategiya investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg‘arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug‘urta kompaniyalari, o‘zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporasiyalarni fond bozoridan qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta’minlaydi. Fikrimizcha, Ya.Mirkin[113] ning fond bozori orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi xususidagi fikri alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, ko‘pchilik MDH mamlakatlarida korporativ aksiya va obligasiyalarga qilinadigan investitsiyalarning risk darajasi yuqoriligi va investorlar ishonchining pastligi fond bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy sabablar ekanligi qator ilmiy izlanishlarda o‘z ifodasini topgan.

U.Sharpning investitsion loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositachilarning roli xususidagi fikriga muvofik, ular

[112] Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ.-М. ИНФРА-М, 2001.-С. 9-10.
[113] Миркин Я. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. – Москва: Альпина Паблишер. 2002. – С. 117.

investitsion faoliyatni moliyalashtirishning faol subyektlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.G‘.G‘ozibekov “investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi” kabi ta’rif bergan[114].

Ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida respublikamizda investitsiya faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishning ayrim jihatlari yoritilgan. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullariga ta’sir etuvchi omillar asosida rivojlanish yo‘llarini tadqiq etish va ularni moliyaviy ta’minlashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha chuqur tadqiqotlarni amalga oshirishni, bularni mamlakatimiz amaliyotiga tadbiq qilib investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirish jarayonlarini jadallashtirish lozimligini talab qiladi.

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning maqsad va usullari **“**Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunining 30-moddasiga ko‘ra, investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash qulay investitsiya muhitini yaratish, yangi raqobatbardosh hamda innovatsion, eksportga yo‘naltirilgan va (yoki) import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir investitsiyalarni rag‘batlantirish, mavjud ishlab chiqarishlarni zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan hamda zamonaviy boshqaruv tajribasini joriy etgan holda kengaytirish va yangilash maqsadida amalga oshiriladi. Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- imtiyozlar va preferensiyalar qo‘llash;
- investitsiya loyihasini birgalikda moliyalashtirish uchun markazlashtirilgan investitsiyalar ajratish;
- moliyaviy, maslahat berish va axborot jihatidan qo‘llab-quvvatlash.

Iqtisodiyot tuzilishi qurilishining belgilangan yo‘nalishlari eksport imkoniyatining kengaytirilishiga, baquvvat investitsiya

[114] Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари - Т.:2002. и.ф.д. дисс. автореф. 11-14 б.

siyosatini o‘tkazish yo‘li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o‘z sarmoyalarimizni ham, tashqi kreditlarni ham bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarur. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish investorlar tomonidan tashkil etilgan har xil manbalar, shu jumladan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo‘li bilan, kreditlar evaziga qonunchilikda belgilangan holda qimmatli qog‘ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga amalga oshiriladi (12.1-rasm).



12.1 – rasm. Real investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari

Kapital moliyalashtirish manbalarini ham ikki guruhga ajratish mumkin:

a) markazlashtirilgan qo‘yilmalar:

- davlat byudjeti va davlat byudjetidan tashqari fondlar mablag‘lari, tashqi qarzlar limitlaridan kelib chiqib hukumat kafolati ostidagi chet el investitsiyalari va kreditlari.

b) markazlashtirilmagan kapital qo‘yilmalar:

- korxonalar mablag‘lari, shu jumladan, qo‘shma korxonalar, xorijiy korxonalar va xususiy korxonalarning mablag‘lari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining norezidentlarining mablag‘lari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mablag‘lari, banklarning, shu jumladan, xorijiy banklarning kreditlari, aholi mablag‘lari.

Aytish joizki, real investitsion loyihalarni moliyalashtirish turli shakl va usullarda olib boriladi. Hozirgi vaqtda investitsiyalarni

moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, investitsiya faoliyatining bosh muammolaridan biri hisoblanadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilmoqda:

1. Investorning o‘z moliyaviy resurslari va ichki xo‘jalik rezervlari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, maxsus zahira fondlari);
2. Investorning qarz mablag‘lari (bank krediti, byudjet krediti, obligatsiya bo‘yicha qarzlar);
3. Jalb qilingan moliyaviy resurslar (aksiyalarni sotish, mehnat jamoasining pay va boshqa ko‘rinishdagi badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallari);
4. Byudjetdan investitsion assignatsiyalari (mahalliy, davlat va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari).
5. Chet el investitsiyalari (chet el kreditlari, to‘g‘ridan – to‘g‘ri chet el investitsiyasi, qo‘shma korxonalar ko‘rinishida);
6. Lizing va seleng (investitsion loyihalarni moliyalashtirishning bir turi bo‘lib, asbob-uskuna, transport vositalari, bino va inshootlarni ijariga yoki intellektual mulkdan foydalanish huquqini berish tushiniladi).

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish shakllari va manbalarining har biri o‘zining ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy jihatlariga ega, shu sababli investitsion loyihalarni moliyalashtirish shakllarini tahlil qilib eng qulay shakl va usul tanlanadi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo‘li bevosita moliyaviy dastaklarni ishga solish bilan bog‘liq bo‘lib bu, o‘z navbatida, investorlarning investitsiya loyihasini amalga oshirishda manfaatdorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya faoliyatini tashkil etish doimo investorlar bilan bog‘liq bo‘lishi ularning moliyaviy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradigan loyihalarda yuzaga chiqarishga qaratiladi.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini turli manbalar hisobidan ta’minlash asosida iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishning tarkibi va dinamikasini tahlil qilgan holda tarmoqlarning rivojlanishi investitsiyalarni jalb etish holatiga qanchalik bog‘langanligini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, ularni jalb etishga intilish natijasi jalb etish sur’atlari bilan bevosita bog‘liqligi ham kelib chiqadi[115].

[115] Ҳайдаров Ў.А. “Ўзбекистонда инвестиция фаолиятини молиявий бошқаришнинг замонавий ҳолати”. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. 2019 йил декабрь №6. 8-б., (08.00.00, №12).

Investitsiya faoliyatini iqtisodiy boshqarish yo‘li bevosita moliyaviy dastaklarni ishga solish bilan bog‘liq bo‘lib, bu, o‘z navbatida, investorlarning investitsiya loyihasini amalga oshirishda manfaatdorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish doimo investorlar bilan bog‘liq bo‘lishi ularning moliyaviy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradigan loyihalarda yuzaga chiqarishga qaratiladi. Bunda investitsiya loyihasini moliyalashtirish orqali yuzaga keladigan investitsiya faoliyatidan uning har bir ishtirokchilari singari, albatta, davlat va jamiyat samara ko‘rishi ham talab etiladi[116].

Amaldagi moliyalashtirish manbalarining har biri ma’lum afzalliklar va kamchiliklarga ega. Shu sababli har qanday investitsiya loyihasini amalga oshirish moliyalashtirish strategiyasini asoslashni, moliyalashtirishning alternativ usullari va manbalarini tahlil qilishni, moliyalashtirish sxemasini puxta ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi (12.2 - rasm).

Ishlab chiqilgan moliyalashtirish sxemasi quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- umuman investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun va hisob-kitob davrining har bir bosqichida yetarli miqdordagi investitsiyalar;
- investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibini optimallashtirish;
- kapital xarajatlar va investitsiya loyihalari xavfini kamaytirish.

Investorlarning milliy iqtisodiyotga mablag‘ kiritishi ko‘p jihatdan nafaqat korxonalar reytingi yoki xo‘jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatga ham bog‘liq. Investorlar mablag‘ yo‘naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda[117].

[116] Haydarov, U. A. (2020). Financial management system, tools, sources of investment activities and factors. // ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), Page 14-18.

[117] Makhmudov S.B. Ways of the investment environment effect in financing investment activities development. // Indo – Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR)Volume – 6; Issue - 3; 2020. Page 2045 – 2053



12.2 - rasm. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning an'anaviy usullari

Korxonalarni o‘z mablag‘lari investitsiyalarni moliyalashtirishning eng ishonchli manbasi bo‘lib hisoblanadi. Har qanday tijorat tashkiloti doimo investitsiyalarni o‘z hisobidan moliyalashtirishga intiladi. Bu holatda moliyalashtirish manbalarini qayerdan olish kerak degan muammo vujudga kelmaydi va uning bankrotlik xavf-xatari (riski) kamayadi. Bundan tashqari ijobiy tomonlari ham mavjud. Xususan o‘z-o‘zini moliyalashtirish korxonani rivojlanganligi va uning yaxshi moliyaviy holatini bildiradi va yana raqobatchilardan ma’lum bir ustunlikka ega bo‘ladi, boshqa korxonalarda bunday imkonyat bo‘lmasligi mumkin. Har qanday tijorat tashkilotining asosiy o‘z-o‘zini moliyalashtirish manbai bu, asosan, sof foyda va amartizatsiya ajratmasi hisoblanadi.

1) «Foyda investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida».

Korxonaning asosiy maqsadi bu maksimal foyda olishdir. U korxona faoliyatining asosiy moliyaviy natijasi hisoblanadi. Korxonaning balans foydasi (Fb) quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

$$Fb= Fs+Fm+(Db-Xb)$$

Bu yerda:

Fs – mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan foyda;

Fm – korxona mulkini sotishdan tushgan foyda;

Db – boshqa operatsiyalardan tushgan daromad;

Xb – boshqa operatsiyalar bo‘yicha harajatlar.

Yalpi foyda – foyda solig‘i olish uchun soliq to‘lanadigan baza hisoblanadi. Korxonani o‘z ixtiyorida qoladigan foyda, ya’ni sof foyda (Fs) qiziqtiradi va quyidagicha teng bo‘ladi:

$$Fs=Fb-Sf$$

Bu yerda:

Fb – balans foyda;

Sf – foyda solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar.

Zamonaviy sharoitida korxona o‘z ixtiyorida qoladigan foydani o‘zi mustaqil taqsimlaydi va bu erda shunday savol kelib chiqadi, bu foydani qanday qilib eng samarali taqsimlash mumkin? Uni ishlab chiqarishni rivojlantirishga: uy-joy, dam olish uyi, bog‘cha va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ob’ektlarni qurishga; agar aksionerlik jamiyati bo‘lsa divident to‘lashga; xayriya maqsadlariga va boshqalarga yo‘naltirilishi mumkin. Foydadan samarali foydalanish uchun korxonaning ayni vaqtdagi va istiqboldagi texnik holatini va korxona jamoasini ijtimoiy holatini yaxshi bilish lozim.

Agar korxona ishchilari ijtimoy sohada, shu jumladan ish haqi darajasi bo‘yicha, boshqa korxonalarga nisbatan yaxshiroq ta’minlangan bo‘lsa, bu holda foyda birinchi navbatda, ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim. Agarda korxonaning texnik rivojlanish darajasi past bo‘lib, bu korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga to‘sqinlik qilib, korxonani bankrotlikka olib kelsa, bunday holda, foydani korxonani rivojlantirish uchun yo‘naltirish lozim. Shunday qilib, korxona foydasi uning iqtisodiy va ijtimoiy darajasiga asoslangan holda taqsimlanishi lozim.

Korxonada ushbu muhim qoidaga amal qilishlari lozim – “foyda korxonaning istiqbolda rivojlantirishini amalga oshirishga turtki berishi lozim”. Shunday qoida borki, ishlab chiqarishni rivojlanishi, oxir oqibatda korxona daromadi hajmini o‘sishiga olib keladi, bu esa kelajakda korxona jamoasini ijtimoy muammolarini hal bo‘lishiga va korxona investitsiya imkoniyatlarini kengayishiga olib keladi.

2) “Amortizatsiya ajratmalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbai sifatida”.

Amortizatsiya – asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni normativ xizmati muddati davomida qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o‘tkazib borish jarayonidir. Asosiy vositalar tarkibiga xizmat muddati bir yildan kam bo‘lmagan, qiymati 50 minimal maoshdan yuqori bo‘lgan va o‘z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga asta sekinlik bilan o‘tkazib boradigan ishlab chiqarish vositalar kiradi. Ular: bino, inshoot, asbob- uskuna, mashina, transport vositalari, o‘lchovchi uskunalar va h.k.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ham jismonan, ham ma’naviy eskiradi. Ob’ektlar qiymati hisoblangan amortizatsiya ajratmalari hisobidan qoplanadi. Amortizatsiya ajratmalari investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular qayta ishlab chiqarishni (ya’ni takror ishlab chiqarish) tashkil qilib qolmay, balki ma’lum darajada ularni kengaytirishga ham mo‘ljallangan bo‘ladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida amortizatsiya korxonaning investitsiya ehtiyojini 70-80 foizini qondiradi. Mamlakatimizni bozor iqtisodiyotiga o‘tishi bilan amortizatsiya ajratmalarini investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatidagi ahamiyati ham o‘sdi. Bu birinchi navbatda, asosiy fondlarning tez-tez qayta baholanishi va ko‘p korxonalarning zararga ishlayotganligi bilan bog‘liq.

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida boshqalariga nisbatan ustunlik tomoni shundaki, korxonaning har qanday moliyaviy xolatida, bu manba o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va doimo korxona ixtiyorida bo‘ladi.

Raqobat jarayoni, asosiy fondlarni yangilab turishni talab etadi, bu esa kelgusidagi investitsiyalar uchun jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalarini hisoblashni taqozo etadi. Lekin, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida jadallashtirilgan amortizatsiya usulini qo‘llash salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, intensiv tarzdagi qayta ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Buning natijasida amartizatsiya ajratmalari, o‘zi alohida bir shaklni tashkil qiladi. Boshqa qilib aytganda, kengayadi va investitsiyalash uchun oldingisiga nisbatan barqaror moliyaviy bazaga aylanadi. Shunday qilib, amortizatsiya ajratmalari korxonaning investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi muhim vositaga aylanadi.

3) Korxonaning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ichki moliyaviy resurslari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo‘jalik usulida bajarilgan qurilish-montaj ishlaridan kelgan foyda (qilingan iqtisod);
- asosiy vositalarni likvidatsiya qilingan vaqtda olingan yaroqli materiallar;
- aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashishi hisobiga, muomiladan bo‘shatilgan aylanma mablag‘larning bir qismi;
- korxonaning o‘zida tashkil qilingan maxsus rezerv fondlari va boshqalar.

Investitsion loyihalarni baholashda shuni hisobga olish lozimki, ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan, soliqlar ayirib tashlanadi. Ammo, bu hisoblangan soliqlar, amortizatsiya ajratmalari singari ma’lum muddat korxona oborotida qo‘shimcha ishlatilishi va vaqtincha moliyaviy resurs bo‘lishi mumkin.

4) Agar korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda o‘z mablag‘lari etarli bo‘lmasa, bunday holda, korxona mablag‘larni qimmatli qog‘ozlar chiqarish yoki bank krediti orqali jalb qilishi mumkin**.** Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning keng tarqalgan va moliyalashtirishning asosiy manbalaridan bo‘lib, qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarish, investitsiyalarni moliyalashtirishda markazlashgan mablag‘lar va bank kreditlarining hissasini pasayishiga olib keladi. Qimmatli qog‘ozlar bozori va kredit bozori, pul

mablag‘lariga ehtiyoji bo‘lgan tarmoqlarga (korxonalarga) pul mablag‘larini taqsimlab korxonalarning moliyaviy holatini barqarorlashtiradi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan harid qilinadigan qimmatli qog‘ozlar ichida keng tarqalgan turi aksionerlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan aksiyalardir.

Korxonalar o‘z investitsiya faoliyatini jalb qilingan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirish uchun bir qator imtiyozlar joriy etildi, xususan, “yuridik shaxs bo‘lgan aksiyadorning o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini ustav fondini (kapitalini) ko‘paytirish uchun yo‘naltirish chog‘ida qo‘shimcha aksiyalar qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko‘paytirish tarzida olingan daromadlari (foydasi) soliq solish ob’ekti bo‘lmaydi ”.

Har qanday holatda uzoq muddatli qarzlar va aksioner kapitali o‘rtasida balans tutib turish lozim. Qanchalik aksioner kapitali hissasi yuqori bo‘lib, shunchalik qarz majburiyatilari hissasi kam bo‘lsa, soliq to‘lagunga qadar foyda shunchalik yuqori bo‘ladi. Moliyalashtirishda qarz majburiyatlari hissasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik, majburiyatlar bo‘yicha foiz to‘lovlari yuqori bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining 23 iyul 2007 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy sohadagi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq: “Korxonalarning obligatsiyalari” degan so‘zlar “Korporativ obligatsiyalar” degan so‘zlar bilan almashtirildi (Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risidagi Qonunning 5 – moddasi).

Korporativ obligatsiyalarni faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatlari auditorlik tashkilotining xulosasi bilan tasdiqlangan o‘z kapitalining obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi miqdori doirasida chiqarishlari mumkin. Korporativ obligatsiyalar chiqarishga faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi to‘liq to‘langanidan keyin yo‘l qo‘yiladi[118]. Har bir loyihada moliyalashtirishning turli xil shakllarining oqibatlarini tubdan baholash lozim va shunday moliyalashtirish manbasini aniqlash lozimki, unda resurslar va iqtisodiy qaytim mos kelsin, ya’ni:

- aksionerlik kapitali bilan birgalikda qarzga olingan mablag‘lar ham investitsion loyihani moliyalashtirish manbai bo‘ladi.

- moliya bozorlarining asosiy vazifasi – jamg‘armalarni ishlab chiqarish investitsiyalariga yo‘naltirishdir. Aytish joizki, korxonalar

[118] O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy sohadagi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, T.: 2007 y 23 iyul № O‘RQ – 104.

o‘z mablag‘lariga tayangan holda ish yuritsalar unda istiqbolda innovatsion rivojlanishi chegaralanib qolishi mumkin.

5) Investitsion loyihani moliyalashtirishning qarzga olingan manbai bo‘lib, bank kreditlari, ipoteka ssudalari, sug‘urta kompaniyalaridan olingan qarzlar yoki byudjetdan tashqari fondlardan olingan kreditlar hisoblanadi. Ushbu, moliyalashtirish manbalari ma’lum muddatga qaytarish va to‘lovlilik shartli asosida beriladi. Investitsion loyihalarni kredit asosida moliyalashtirishning afzalroq tomoni shundaki, faoliyat yuritayotgan korxona uchun modernizatsiya, rekonstruksiya ishlari va kerakli me’yorda ishlab chiqarish quvvatini ta’minlashda, ya’ni korxona ishlab chiqarish faoliyatni kengaytirmoqchi bo‘lsa, kreditdan foydalangani ma’qul, chunki, ishlab turgan korxona aktivlari ushbu kreditlar qaytarilishiga garov bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yangi tashkil etilayotgan korxona, tashkilotlar uchun esa investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun, aksioner kapitalidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki yangi tashkil etilgan korxonalar uchun bank kreditidan foydanish yuqori risk bilan bog‘liq bo‘lib, kredit olishda korxona uni qaytarish uchun etarli darajada moliyaviy resurslar bilan yoki boshqa aktivlar bilan ta’minlanmagan bo‘lishi mumkin, bunday shartlarni yangi korxona bajarmasligi sababli, aksionerlik kapitalidan foydalanadilar. Likvidlik bilan bog‘liq bunday vaziyatlarda yangi korxona qiyin vaziyatlarga tushib qoladi. Loyiha yaxshi baholanganda, ham, yaxshi texnik asoslanganda ham banklar yuqori foiz stavkasida kredit berishlari mumkin. Aksioner kapitali esa bunday muammolar keltirib chiqarmaydi, ammo uni yig‘ish ancha murakkab vazifadir, bank kreditlari esa bundan mustasnodir.

Investitsion loyihalarni kreditlash sharti, foiz stavkasi o‘zgarishi bilan loyiha iqtisodiy ko‘rsatkichlarlarining o‘zgarishi orasidagi munosabat bilan aniqlanadi. Amalda bank foiz stavkasi o‘zgarmas va o‘zgaruvchan bo‘ladi. Shu sababli korxona investitsiya loyihasini moliyalashtirishda kredit olmoqchi bo‘lsa, u uzoq muddatli kreditdan foydalaniladi, sababi bank foizi stavkasi o‘zgarmas bo‘ladi.

Ilmiy asoslangan loyiha uchun qarz mablag‘lari olish bir muncha osonroq bo‘ladi. Moliyalashtirish jarayonini qarzga olinadigan mablag‘larni hajmini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi, bu kredit olishni kafolatlashi mumkin. Ushbu ssuda kapitalini quyidagilarga yo‘naltirilishi mumkin: asbob-uskunalar harid qilish, ishlab chiqarishni kengaytirishga, modernizatsiya, rekonstruksiya

qilish va boshqalarga. Ssuda kapitalini quyidagi turlarga ajratish mumkin: aylanma mablag‘larni tashkil qilish maqsadida tijorat, bank yoki mol yetkazib beruvchilarning turli xil shakldagi kreditlari yoki milliy va xorijiy moliyaviy institutlarining uzoq muddatli kreditlari. Bank tomonidan olinadigan foizlar beriladigan kreditning hajmi, muddati uning ta’minlanganligi, kreditlash shakli, kreditning risk darajasi va boshqalarga bog‘liq tarzda differensiyallashadi. Hozirgi vaqtda investorlar tez qaytish beruvchi tadbirkorlik faoliyatiga kreditlarni jalb qilmoqdalar. Kreditlar, kreditlash muddatiga ko‘ra qisqa muddatli (1 yilgacha) va uzoq muddatli (1 yildan yuqori) turlarga bo‘linadi. Korxonaning asosiy fondlari uchun olingan uzoq muddatli kreditlarni odatda investitsiya deb atashadi. Uzoq muddatli kreditlarning ob’ektiv zarurligi korxonani ishlab chiqarishini kengaytirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Aynan shu sharoitda kredit munosabatlarida uzoq muddatlilik harakteri vujudga keladi. Bu qarzdorga o‘z mablag‘larini o‘z muomalasidan olishga (oborotidan olishga) nisbatan, bir muncha qisqaroq vaqtda pul mablag‘larini olish imkoniyatini beradi. Kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirishning kredit usulining afzallik tomoni mablag‘larni qaytarishlik bilan bog‘liqdir.

Investitsiyalar daromadlilik darajasi bank foiz stavkasiga nisbatan yuqori bo‘lgan, savdo kredit va vositachilik operatsiyalarini kreditlash bilan chegaralanib qolmoqda. Bu esa yangi muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois investitsiyalarni jalb etishdan olingan daromad investitsiya oluvchi korxonaga nisbatan zarar keltirmasligi lozim.

§ 12.2. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari

Moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati nuqtai nazaridan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ikki usuli: tashqi va ichki manbalarga asoslangan moliyalashtirish farqlanadi. Moliyalashtirishning tashqi manbalariga davlatning maxsus imtiyozli kreditlari tijorat banklari kreditlari; qimmatli qog‘ozlar chiqarish va sotishdan tushgan mablag‘lar; xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari va boshqalar kiradi.

Moliyalashtirishning ichki usulidan foydalanishda moliyaviy resurslar tashkil topish manbalari sifatida quyidagilar maydonga chiqadi: foyda, oborotdan tashqari aktivlarni sotish, mol etkazib beruvchilardan olingan kreditlar, debitorlik qarzlarining kamayishi, amortizatsiya ajratmalari, tadbirkorlarning jamg‘armalari va boshqalar.

Ayrim holatlarda muhim moliyalashtirish manbai sifatida mol etkazib beruvchilardan olingan kreditlardan foydalanish mumkin, biroq, bunda mol etkazib beruvchilar bilan yaxshi munosabatlar saqlanishi va ta’minotning barqarorligi buzilmasligi lozim.

Tashqi moliyalashtirishning har qanday usulida korxona qarz olish hisobiga yoki aksiyalar chiqarish yo‘li bilan moliyalashtirishni tashkil etadi. Tashqi manbalardan jalb etilgan mablag‘lar quyidagi uch xil baholash mezoniga asoslanadi: mablag‘lardan imkon boricha foydalanish vaqti, harajatlar miqdori (qarz kapitali qiymati), korxona ustidan nazoratning darajasi.

Qarz mablag‘lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish moliyalashtirishning ssuda vositalaridan foiz to‘lash hisobiga foydalanishni xususiyatlovchi usulga asoslanadiki, uning miqdori mahsulot hajmi va korxona foydasi bilan bevosita bog‘langan. Ssuda yordamida moliyalashtirish olinadigan qarz qaytarilishi ta’minlanishi uchun mulkiy aktiv bo‘lishini talab etadi. Aksiyalar chiqarish yordamida moliyalashtirish uning oldindan ta’minlanishini talab etmaydi, biroq, sarmoyachi uchun korxona mulkiga ma’lum miqdorda egalik qilish huquqini beradi. Investor o‘z ulushiga mos tarzda korxona foydasida va aktivlarni boshqarishda qatnashadi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish turli usullar bilan amalga oshiriladi (12.2-rasm). Ko‘pincha, korxonani moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ham, qarz olish ham aksiyalar chiqarishning birligida qondiriladi.

Korxonani moliyalashtirishda aksiyalar chiqarishga raqobatdosh bo‘lgan manba bank kreditidir. Bank krediti faqatgina mulk yoki oborot aktivlarining garovi asosida beriladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni bu usulda amalga oshirishda kredit uchun foiz to‘lovlari, kreditlarning qaytarilish muddati va tartibini hisobga olish lozimki, bu omillar o‘ta qattiq shartlarda qo‘yiladi. Qarz mablag‘larini banklardan tashqari yana turli moliya-kredit institutlari (lizing kompaniyalari, ipoteka banklari, ishlab chiqarish zaxiralari yoki debitorlik qarzlari evaziga moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi ulgurji mol yetkazuvchi tashkilotlar yoki faktoring kompaniyalari) ham berishlari mumkin. Ko‘pincha, korxonani moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ham, qarz olish ham aksiyalar chiqarishning birligida qondiriladi.

Korxonani moliyalashtirishda aksiyalar chiqarishga raqobatdosh bo‘lgan manba bank kreditidir. Bank krediti faqatgina mulk yoki oborot

aktivlarining garovi asosida beriladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni bu usulda amalga oshirishda kredit uchun foiz to‘lovlari, kreditlarning qaytarilish muddati va tartibini hisobga olish lozimki, bu omillar o‘ta qattiq shartlarda qo‘yiladi.

Qarz mablag‘larini banklardan tashqari yana turli moliya-kredit institutlari (lizing kompaniyalari, ipoteka banklari, ishlab chiqarish zaxiralari yoki debitorlik qarzlari evaziga moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi ulgurji mol yetkazuvchi tashkilotlar yoki faktoring kompaniyalari) ham berishlari mumkin.



12.2-rasm. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari[119]

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning umumiy summasi asosiy (loyiha-qidiruv ishlari, maydon tayyorlash, qurilish, texnologiya hamda uskuna-jihozlar sotib olish, montaj, xodimlarni o‘qitish va boshqalar) va aylanma (xom ashyo, materiallar, chetdan harid qilinadigan yarim fabrikatlar, yoqilg‘i, energiya, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish harajatlari va boshqalarni) kapitalga qilinadigan harajatlardan tashkil topadi. Investitsiya faoliyati o‘zining aniq tasniflash mezonlari va yo‘nalishlariga ega bo‘lgan faoliyat turi sifatida uni moliyalashtirish quyidagi:

– qimmatli qog‘ozlar bozori orqali moliyalashtirish;

– xorijiy investitsiyalar asosida moliyalashtirish;

– tijorat banklari va xalqaro moliya institutlar mablag‘lari hisobidan ulush qo‘shish orqali moliyalashtirish mexanizmi yoki kredit

[119] G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – B. 80.

liniyalari orqali moliyalashtirish;

– sinditsiyalashtirilgan kreditlar asosida moliyalashtirish mexanizmi;

– investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi;

– venchurli moliyalashtirish;

– korporativ moliyalashtirish;

– lizing orqali moliyalashtirish kabi mexanizmlar majmui hisobiga amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihalarini ***venchurli moliyalashtirish*** – yuqori risk holatida moliyalashtirish hisoblanadi. Venchurli moliyalashtirish, asosan, zamonaviy texnika, texnologiya va yangi turdagi ishlab chiqarishlarga joylashtiriladi. Venchur operatsiyalari (riskli operatsiya) – kapital qo‘yilmalar shaklidagi pul operatsiyalari hamda qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar, ilmiy-tadqiqotlar, loyiha-konstruktorlik ishlanmalari, kashfiyotlar yaratish va joriy qilish, yangi texnologiyalarni joriy qilishni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday moliyalashtirish, asosan, innovatsion banklar va venchur firmalari (fondlari) tomonidan amalga oshiriladi. Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish islohotlar strategiyasining muhim shartidir. Iqtisodiyot tuzilishi qurilishining belgilangan yo‘nalishlari eksport imkoniyatining kengaytirilishiga, baquvvat investitsiya siyosatini o‘tkazish yo‘li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o‘z sarmoyalarimizni ham, tashqi kreditlarni ham bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarur. Ushbu moliyalashtirish shakllari va manbalarining har biri o‘zining ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy jihatlariga ega, shu sababli investitsion loyihalarni moliyalashtirish shakllarini tahlil qilib eng qulay shakl va usul tanlanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Sindikatli kreditlash, seleng, venchurli moliyalashtirish, amortizatsiya ajratmalari, innovatsion banklar.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Real investitsion loyihalarni moliyalashtirish usullari

2. Kapital moliyalashtirish manbalari tarkibi

3. Korporativ obligatsiyalarning ahamiyati

4. Korxonaning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ichki moliyaviy resurslari tarkibi

5. Venchurli moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyati.

XIII BOB. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALAR

§ 13.1. Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va tasniflanishi.
§ 13.2. Investitsiyalash manbalarini shakllantirishda kapital va ssuda bozorlarining roli
§ 13.3. Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish

§ 13.1. Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va tasniflanishi

Mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni, avvalambor iqtisodiyotning bazaviy va tarkibiy asosini tashkil etuvchi sohalarga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda, iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish, fond bozorini rivojlantirish va sog‘lom raqobat muhitini yaratish faol investitsiya siyosatini olib borish, jamiyat va davlat faoliyatining barcha sohalarini jadal va barqaror rivojlantirish uchun asos hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun zarur resurslarni jalb etish imkoniyatini beruvchi yangi moliyaviy vositalar turlarini joriy qilishda ko‘maklashish Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarida asosiy masala sifatida belgilangan.

Moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati nuqtai nazaridan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ikki usuli: tashqi va ichki manbalarga asoslangan moliyalashtirish farqlanadi. Moliyalashtirishning tashqi manbalariga davlatning maxsus imtiyozli kreditlari, tijorat banklari kreditlari, qimmatli qog‘ozlar chiqarish va sotishdan tushgan mablag‘lar, xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari va boshqalar kiradi. **Moliyaviy vositalar** – bu, umuman olganda, monetizatsiyalashgan real bazisga ekvivalent qiymatga va xossalarga ega bo‘lgan, maxsus iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta’minlangan, moliya bozoridagi munosabatlarni belgilovchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta’minlovchi, ma’lum

shakllarda daromad keltiruvchi vosita sifatida har hil turlarda, shakl va mazmunlarda namoyon bo‘ladigan ham investitsion kapital, ham to‘lov vositasi, ham alohida moliyaviy tovardir. Moliyaviy vositaning ekvivalentlik xossasi bevosita va bilvosita, real va nisbiy bo‘lishi mumkin. Moliyaviy vositalarning tovarliligi xossasi uni boshqa turdagi tovarlardan (ko‘chmas va intellektual mulk, xom ashyo va shu kabilar) farqli kimningdir (iqtisodiyot sub’ektlari) tomonidan chiqarilishi, o‘ziga xos moliya bozorida muomalada bo‘lishi, unda maxsus funksiyalarni va rolni bajarishi bilan belgilanadi.

Har qanday moliyaviy vositani u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning xossa va xususiyatlari bilan bog‘liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko‘rilalayotgan vosita turini kelib chiqishi, maqsadi va funksiyasini, uning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, albatta sezilarli farq namoyon bo‘ladi. Masalan, pul va uni tovar toifasiga aylantiruvchi vositalar (kredit, chek, kartochkalar va h.k.) muomalasi uchun ularga hos bo‘lgan moliya bozori segmentlari – mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori va h.k. zarur, valyuta uchun valyuta bozori, sug‘urta risklarini boshqarish hizmatlari uchun sug‘urta polislari bozori, qimmatli qog‘ozlar uchun esa faqat fond bozori kerak. Moliyaviy vositalarning tovar sifatidagi asosiy maqsadlaridan biri foyda olish bo‘lganligi uchun kapitalni (jamg‘armani) orttirish – bir vaqtning o‘zida kapital qo‘yilmalar uchun mo‘ljallangan bozor hamdir. Pul mablag‘lari moliyaviy vositalarning har qanday turiga qo‘yilishi (yo‘naltirilishi) mumkin. Buning barcha holatlarida yo‘naltirilgan pul mablag‘lari vaqt mobaynida o‘z orttirmasiga (yoki zarariga) ega bo‘lishi, ya’ni foyda yoki zarar keltirishi mumkin. Moliyaviy vositalarlar moliyaviy resurslarni investorlardan iste’molchilarga tomon va aksincha yo‘nalishda harakat qilishini ta’minlovchi vositalar hisoblanadi.

Fond bozori vositalari – bu investitsiyalash faoliyatini moliyalashtirishda qo‘llaniladigan turli xildagi qimmatli qog‘ozlar va ularning hosilalaridir. Investitsion maqsad va investitsiyalarni samarali boshqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli xossa va xususiyatlarga ega bo‘lgan vositalar qo‘llanilishi mumkin. Fond bozori vositalari vaqt o‘tishi bilan uzluksiz takomillashib borishi yoki qandaydir qo‘shimcha hossaga va funksiyaga ega bo‘lishi yoki mazmunan va shaklan o‘zgarishi tabiiy holatdir. Muomalaga chiqarilishi maqsadi – to‘lov va pul aylanmasi (oboroti) uzluksizligini

ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va ular bo‘yicha daromad olish bo‘yicha, mos ravishda: kredit-pul siyosatini amalga oshirishning qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi moliyaviy vositalar (davlat va bank vositalari), qarz (davlat va korporativ maqsadda) va ulush (korporativ maqsadda) munosabatlarini ifodalovchi investitsion moliyaviy vositalar.

Segmenti bo‘yicha: pul, kredit, valyuta, sug‘urta, lotereya o‘yinlari, qimmatli qog‘ozlar (fond, kapital) bozorlari vositalari.

Bazisiga ko‘ra: pul, valyuta, sug‘urta, tovar (jumladan hom ashyo), ko‘chmas mulk, indeks, foiz stavka (kelajakdagi daromad), qimmatli qog‘oz bazisli moliyaviy vositalar.

Iqtisodiyotning u yoki bu sub’ektiga ko‘ra: davlat boshqaruvi va hokimiyatlari, banklar-kredit muassasalari, sug‘urta tashkilotlari, birjalar, nomoliya tashkilotlari (korporativ) vositalari.

Chiqarilish muddati bo‘yicha: qisqa, o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy vositalar.

Milliyligi bo‘yicha: milliy, xorijiy va xalqaro moliyaviy vositalar.

Iqtisodiy-xuquqiy mazmuni bo‘yicha: qarz va ulush munosabatlarini hamda hosilaviy moliyaviy vositalar.

Iqtisodiy-huquqiy xossalariga ko‘ra: bazaviy va bazisli moliyaviy vositaalar. Bazaviy vositalarga ulush va qarz munosabatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi emissiyalanuvchi (derivativlardan tashqari) va emissiyalanmaydigan qog‘ozlar kiradi. Bazislilariga esa derivativlar (hosilaviy qimmatli qog‘ozlar) kiradi.

Funksiyasi bo‘yicha: investitsion vositalar (qimmatli qog‘ozlar), banklarning moliyalashtirish vositalari (kredit, depozit, seleng, plastik kartochkalar, cheklar va h.k.), riskni moliyalashtirish vositalari (sug‘urta polislari), to‘lov vositalari (milliy va horijiy valyuta, halqaro valyuta, kvazivalyuta, birja kotrovkasiga ega bo‘lgan valyuta sifatida o‘tuvchi oltin, platina, kumush, kamyob elementlar, qimmatbaho toshlar va h.k.), tovar taqsimlovchi vositalar (tovar varranti, konosament, ombor guvohnomasi va shu kabilar), garov qog‘ozlari, lotereyalar.

Ro‘yxatdan o‘tkazilishi bo‘yicha: emissiyalanuvchi (Aksiya, obligatsiya, derivativlar) va emissiyalanmaydigan (bank sertifikatlari, cheklar, xususiylashtirish jarayonida qo‘llaniladigan vaucher va kuponlar, veksellar, ombor guvohnomalari, konosament, garov qog‘ozlari va h.k.) vositalar.

Muomalaga chiqaruvchining tashkiliy-huquqiy shakliga koʻra: davlat, munitsipal va korporativ moliyaviy vositalar.

Egalik huquqini belgilash boʻyicha: taqdim etuvchiga, egasini ismi yozilgan, orderli moliyaviy vositalar.

Daromad turlariga koʻra: dividend beruvchi, belgilangan va suzuvchi foiz stavkali, kuponsiz (diskontli), yutuqli moliyaviy vositalar.

Toʻlov muddati boʻyicha: spot va muddatli bozor vositalari amal qiladi.

Shunday qilib, fond bozori vositalarni keng qamrovli ekanligi, investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida ularning xossa va xususiyatlari va investitsion maqsad asosida turli vositalardan foydalanish mumkinligini koʻrish mumkin. Jahon amaliyotida qimmatli qogʻozlar vositasida investitsiyalarni moliyalashtirish jahon amaliyotida keng tarqalgan. Moliyaviy investitsiyalarning asosini qimmatli qogʻozlar va ularning hosilalari tashkil etadi. Qimmatli qogʻozlar oʻzining investitsion jozibadorligi orqali firma va kompaniyalarning bozor faolligini belgilovchi vositalar ham hisoblanadi. Maxsus reyting agentliklari kompaniyalarning qimmatli qogʻozlarining sifati, ta’minlanganligi, daromadliligi va ishonchliligiga qarab uning investitsion faolligiga baxo beradilar va investorlarning qiziqishiga sabab boʻluvchi yoki kompaniyaning qimmatli qogʻozlari bozor narhiga ta’sir koʻrsatuvchi koʻrsatkichlarni tegishli tahlillar asosida e’lon qiladilar.

Qimmatli qogʻozlar – hujjatlar boʻlib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi oʻrtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad toʻlashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga oʻtkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qogʻozlarning qiymati Oʻzbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi. Qonunga koʻra, qimmatli qogʻozlarga aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit va jamgʻarma sertifikatlari, veksellar, shuningdek, hosila qimmatli qogʻozlar kiradi.

Fond bozori vositalar (qimmatli qogʻozlar)ni birlamchi va hosilaviy vositalarga ajratish mumkin. Birlamchi vositalarga aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamgʻarma sertifikatlari, veksellar va boshqa vositalarni kiritish mumkin. Ular investitsion faoliyatni

moliyalashtirishda birlamchi vositalar sifatida ishtirok etadi hamda firmaning investitsion faolligini belgilashda muhim o‘rinni egallaydi.

Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar tarkibiga esa amaliyotda opsion, fyuchers, varrant kabi vositalar kiritiladi. Hosilaviy qimmatli qog‘ozlar bazis aktivlarining sifatini, daromadliligini va bozor faolligini, qo‘yilmalarning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Birlamchi moliyaviy vositalarni ulush va qarz munosabatlarini tasdiqlovchi vositalarga ham ajratish mumkin. Ulushga egalik qilish va fond bozorida ushbu munosabatlarni ifodalashda Aksiyalar asosiy vosita sifatida ishtirok etadi.

Aksiya (fransuzcha aktion so‘zidan) – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz. O‘zbekiston qonunchiligida aksiyalarning har xil turlari – oddiy va imtiyozli, egasining nomi yozilgan va «ko‘rsatuvchi egalik qiladigan», shuningdek, kumulyativ aksiyalarning ta’rifini uchratish mumkin.

Obligatsiya (lotincha obligatio so‘zidan, majburiyat) – bu uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog‘ozning nominal qiymatini unda ko‘rsatilgan muddatda belgilangan (qat’iy) foiz to‘langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozdir. Aksiyadan farqli ravishda obligatsiya emitentning mol–mulkiga nisbatan mulk unvoni hisoblanmaydi. U ovoz berish va boshqarish xuquqini bermaydi. Obligatsiya – bu bir shaxsning (sarmoyador – kreditorning) boshqa bir shaxsga (yemitent – qarzdorga) mablag‘larni foydalanish uchun berganligi (kredit) haqidagi guvohnomadir. Obligatsiyalar ma’lum muddatga chiqariladi va so‘ndirilishi shart. Emitentning faoliyati tugatilganda ularning egalari qimmatli qog‘ozlar boshqa turlarining egalariga qaraganda an’anaviy tarzda ustunlikka ega bo‘ladi. Emitentning xususiyatiga ko‘ra obligatsiyalar quyidagi uchta katta guruhga bo‘linadi: davlat obligatsiyalari, munitsipal obligatsiyalar, korxonalar obligatsiyalari.

Davlat qimmatli qog‘ozlari – O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari. Munitsipal obligatsiyalarning emitentlari sifatida

O‘zbekiston Respublikasining milliy, davlat va ma’muriy – hududiy tuzilmalarining hokimiyat idoralari qatnashishi mumkin. Obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror davlat hokimiyatining mahalliy idoralari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimiyatlari tomonidan qabul qilinadi. Korporativ obligatsiyalar – aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblanadi. Korxonalar obligatsiyalari tijorat krediti va munosabatlarining asosiy quroli bo‘lib, unda bir turdagi korxonalar qarzdorlar, boshqa korxonalar yoki aholi esa, kreditorlar bo‘lishadi.

O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar egalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag‘lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat’iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar. O‘zbekistonda g‘azna majburiyatlarining quyidagi turlari chiqariladi:

1. Uzoq muddatli – 5 va undan ortiq yil muddatga chiqarilishi mumkin (xalqaro amaliyotda ular BOND degan nomni olishgan).
2. O‘rta muddatli – 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga chiqariladigan (NOTE)
3. Qisqa muddatli – 1 yilgacha, 3, 6 va 9 oygacha bo‘lgan muddatga

chiqariladigan (BILL).

“Uzoq muddatli va o‘rta muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to‘g‘risida”gi qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, qisqa muddatlilarni chiqarish qarori esa – Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. O‘z tabiatiga ko‘ra xazina majburiyatlari davlat obligatsiyalariga juda yaqin. Amalda xazina majburiyatlari jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan davlat obligatsiyalaridan boshqa narsa emas, ular bo‘yicha daromadlarni qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida olish mumkin.

Depozit sertifikati (ingl. Sertificate of deposite) – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz. O‘zbekistonda

mustaqillikka erishilganidan keyin 1994 yildan boshlab sertifikatlar ikki turda chiqarila boshlandi: depozit sertifikatlari – yuridik shaxslar uchun, 1 yilgacha muddatga; depozit (jamg‘arma) sertifikatlari – jismoniy shaxslar uchun, 3 yilgacha muddatga.

Veksel (nemischa Vechsel so‘zidan) – veksel beruvchining yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz. Oddiy veksel (solo veksel) – bu qarzdorning (veksel beruvchining) muayyan pul summasini ko‘rsatilgan muddatda kreditorga (birinchi oluvchisiga) to‘lash majburiyatini ifodalovchi hujjat. Oddiy vekseldan farqli o‘laroq, o‘tkazma vekselda ikkita emas, balki uchta shaxs qatnashadi: veksel beruvchi (trassant), veksel bilan birga u bo‘yicha to‘lovni talab qilish huquqini oluvchi dastlabki haridor (yoki veksel egasi), to‘lovchi (trassat), unga veksel egasi to‘lovni amalga oshirishni taklif etadi (vekselda bu «to‘lang» degan so‘z bilan ifodalanadi).

Hosilaviy moliyaviy vositalar – bu o‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsionlari, qimmatli qog‘ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlardir. Hosila qimmatli qog‘ozlar (HQQ) – bu shartnomalar bo‘lib, ular bo‘yicha bir tomon qimmatli qog‘ozlarning ma’lum bir miqdorini ma’lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi yoxud majburiyatini oladi. Ko‘pincha bazis aktivi (ya’ni shartnoma asosida yotuvchi qimmatli qogoz) sifatida aksiyalar va obligatsiyalar ishtirok etadi. Hosila qimmatli qog‘ozlar opsionlar, fyucherslar va varrantlar ko‘rinishida chiqarilishi mumkin.

Opsion (nemischa option ko‘zidan) – emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini opsionda ko‘rsatilgan muddatda qat’iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz. Opsionning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning egasi qimmatli qog‘ozning o‘zini harid qilmaydi, balki uni sotib olish yoki sotish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda u o‘zining harid qilish yoki sotish xuquqidan foydalanishi yo bo‘lmasa, undan voz kechishi mumkin. Opsionning turlaridan biri varrant (varrant) hisoblanadi.

Fyuchers (futures) - o‘zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarni qat’iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Fyuchers shartnomalari birjalarda sotiladigan qimmatli qog‘ozlarga ham, tovarlarga ham taqdim etilishi mumkin. Fyucherslarning asosiy belgisi – narxining aniqligi va ijro etishning majburiyligidir. Fyucherslar shartnoma bo‘yicha sotib olinadigan qimmatlikka egalik qilish huquqining bir qo‘ldan boshqa qo‘lga zudlik bilan o‘tkazilishini nazarda tutmaydi. Fyucherslar yordamida qonun bilan kafolatlangan majburiyat sotib olinadi, bu bitim sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. Fyuchersning o‘ziga xos belgisi shundan iboratki, ular mazkur qimmatliklar (sotuvchilarda yoki umuman) ayni yilda bormi yoki yo‘qmi, undan qati nazar, sotilishi mumkin.

O‘zbekistonning qonun hujjatlariga ko‘ra, **fyuchers** – bu ma’lum qimmatli qog‘ozlarni shartnomada belgilangan narxda ma’lum kelajak sanada sotib olish yoki sotish uchun so‘zsiz majburiyatni tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz (shartnoma)dir. Bazis aktivi birinchi marta muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog‘oz bo‘lgan fyucherslarni chiqarishga yo‘l qo‘yilmaydi.

§ 13.2. Investitsiyalash manbalarini shakllantirishda kapital va ssuda bozorlarining roli

Investitsiyalar iqtisodiy tizimning samarali ishlashini va barcha ijtimoiy takror ishlab chiqarishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘sish imkoniyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Investitsion faollik iqtisodiy dinamikaning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Hozirgi vaqtda investitsiyalarni moliyalashtirish uchun bank kreditlarining ulushi juda past - 3,5% (xorijiy banklarning kreditlaridan tashqari, atigi 2,9%). Shu bilan birga, berilgan kreditlarning 70% dan ko‘prog‘i 1 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlarga to‘g‘ri keladi va ularning miqdori to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar qiymatiga nisbatan taxminan 20% ni tashkil etadi. Ularning aksariyat qismi, ehtimol, aylanma mablag‘larni moliyalashtirishga va boshqa operatsiyalarga yo‘naltiriladi.

Omonatlarni investitsiyalarga aylantirish va bank tarmoqlarini tarmoqlararo qayta taqsimlash juda kam. **Kapital bozori**, fond bozori – bo‘sh turgan pul mablag‘larini to‘plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so‘ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shuningdek, mamlakat aholisi) o‘rtasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog‘ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldisotdi operatsiyalari olib boriladi. Pul kapitalining qayta taqsimlanishida ishtirok etadigan

banklar, fond birjalari va boshqa moliya-kredit muassasalari majmuini o‘z ichiga oladi.

Kapital bozori pul bozori bilan birga iqtisodiyotning tarmoqlari va hukumat uchun tashqi kapital manbai hisoblanadi, ssuda kapitaliga talab va taklifni shakllantiradi. Kapital bozori kompaniyalar va davlatning qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlari bilan ham shug‘ullanadi. Kapital bozori qimmatli qog‘ozlarni sotuvchilar va sotib oluvchilar, ixtisoslashgan fond brokerlari, savdo va tijorat banklari, markaziy bank, pensiya fondi, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari, sanoat korxonalari, xorijiy investorlar, korxonalar, tashkilotlar ishtirok etadilar. Manbalar va kiritilgan sohalariga qarab xalqaro va milliy kapital bozorlari bor. Kapital bozori ikki asosiy vazifani bajaradi:

a) birlamchi bozor yoki yangi emissiya bozori. Bunda investitsiya va boshqa maqsadlar uchun zarur bo‘ladigan kapital yangi aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish hisobiga shakllantiriladi;

b) ikkilamchi bozor. Bunda mavjud qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar olib boriladi. Ikkilamchi bozor qimmatli qog‘ozlarni sotuvchilardan haridorlar qo‘liga o‘tishni yengillashtiradi. Kapital bozori mamlakat moliya tizimida muhim o‘rin egallab, aholining jamg‘arilgan mablag‘larini investitsiyalarga va investitsiyalarni qimmatli qog‘ozlar portfeliga aylantirish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda 200 dan ortiq brokerlik idoralariga ega bo‘lgan «Toshkent» fond birjasi 1994 yildan qimmatli qog‘ozlar savdosi bilan shug‘ullanadi.

Iqtisodiy nazariyada ssuda kapitali deganda foiz to‘lash sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladigan yalpi pul mablag‘lari tushuniladi. Ssuda kapitalining mohiyatini to‘la tushunish uchun avvalo uning aylanma va savdo kapitallaridan farqini, harakterli xususiyatini aniqlash kerak. Ssuda kapita-li kapital bozorida muhim o‘rin tutib, milliy iqtisodiyot ehtiyojlarini qondiradi. Ssuda kapitalining o‘ziga xos xususiyatlari, uning kreditordan qarz oluvchiga bo‘lgan harakatida va aksincha jarayonda ko‘proq ko‘rinadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Ssuda kapitali kapital sifatida – bu mulk uning egasi qarz oluvchiga kapitalini doimiy egalikka emas, balki vaqtincha foydalanish uchun beradi. Bu holda kapitalga bo‘lgan egalik kapital harakatidan ajraladi. Kapital korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishning boshidan oxirigacha qatnashib, uning hajmi ortib borsada,

belgilangan kapital miqdori oxir-oqibatda o‘z egasi – kreditorga qaytib to‘lanishi lozim.

2. Ssuda kapitalining o‘ziga xos xususiyati, uning tovar sifatida ekanligidir. Kreditor tomonidan pul mablag‘lari qarzdor korxonaga “sotiladi”. Korxonalar bu kapital hisobidan ishlab chiqarish vositalari va ish kuchini sotib oladilar. Ssuda kapitalining tovar sifatidagi iste’mol qiymati – qarz oluvchi tomonidan uning samarali ishlatilishi natijasida qarzdor oladigan foyda hisoblanadi. Ssuda kapitalining iste’mol qiymati oddiy tovarning iste’mol qiymatidan farq qiladi. Ssuda kapitali bo‘yicha olingan foydaning bir qismi ssuda foizini to‘lash uchun ishlatiladi.

3. Ssuda kapitalining yana bir xususiyati, kreditor va qarz oluvchi o‘rtasidagi munosabatning uzoq davom qilishidir. Ssuda kapitalining kreditordan qarz oluvchiga o‘tish jarayoni davrlar bo‘yicha tarqatilgan to‘lov mexanizmining bosqichlarida ifodalanadi. Masalan, oddiy savdo sotiq jarayonida sotilgan tovarning narxi shu zahotiyoq to‘lanadi. Kredit resurslari va ulardan foydalanganlik uchun to‘lovlar, odatda, ma’lum vaqt o‘tgandan keyin to‘lanadi.

4. Ssuda kapitali harakatining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ssuda kapitali harakati sanoat va savdo kapitali harakatidan farq qilib, “sotuvchi” (kreditor) va “haridor” (qarz oluvchi) o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat, ya’ni kapital harakati, pul ko‘rinishida bo‘ladi.

Sudxo‘rlik kapitalidan farqli o‘laroq ssuda kapitali avvalo davlat, yuridik va jismoniy shaxslar, kredit tashkilotlaridan jalb qilingan moliyaviy resurslar hisobiga shakllanadi (bu banklarning ssuda kapitali bozorida ixtisoslashgan vositachilik o‘rnini aniqlab beradi). Moliyaviy resurslarning ssuda kapitaliga aylanishining ikki asosiy manbasini ko‘rsatish mumkin.

a) kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ssuda kapitali shakllanishining yagona manbai sifatida davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lari manbai sifatida namoyon bo‘ldi. Ular moliyaviy vositachilarga ixtiyoriy ravishda vaqtincha foydalanishga, mavjud mablag‘ni kapitalga aylantirish va ulardan foyda olishga beriladi. Bu mablag‘lar kredit tashkilotlariga tegishli bo‘lgan depozit hisoblarda qayd qilinib, o‘zlarining birinchi egalariga shu qo‘yilmalar bo‘yicha foiz ko‘rinishidagi daromad keltirishni ta’minlaydi. Bu manba o‘zining

ahamiyatini hozirgi, rivojlangan davlatlar sharoitida ham yo‘qotgan emas;

b) naqd pulsiz hisob-kitoblarning bank orqali o‘tishida ishlatiladigan mablag‘lar ham ssuda kapitali shakllanishining yangi manbai bo‘lib, bu mablag‘lar aylanma mablag‘larning doiraviy aylanish jarayonida yuzaga keladi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning vaqtincha bo‘sh bo‘lib qolishining quyidagi asosiy sabablarini ko‘rsatib o‘tish mumkin;

– ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish vaqti bilan olingan xom-ashyo, materiallar, ishchilarga ish haqi va boshqa to‘lovlar vaqtining mos kelmasligi;

– asosiy fondlarning eskirishini qoplash uchun mo‘ljallangan pul ajratmasi, ya’ni amortizatsiya fondining shakllantirilishidir.

Amortizatsiya fondi mablag‘lari ham ssuda kapitali manbasi sifatida ishlatilishi mumkin. Korxonalardagi faoliyat natijasida yuzaga keluvchi taqsimlanmagan foyda yoki uning ishlatilish jarayonida paydo bo‘lgan bo‘sh mablag‘lar (masalan, yil oxirida to‘lanadigan dividend shaklida) yuridik shaxslarning ularga xizmat ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob hujjatlarida jamg‘ariladi. Bu mablag‘lar bank tomonidan korxona va tashkilotlarning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun ma’lum muddatga o‘tkaziladi.

Ssuda kapitali bozorining tarkibi. Ssuda kapitali bozori moliyaviy bozorning tarkibiy qismi hisoblanadi va uning holati ssuda kapitalining doiraviy aylanish jarayoni bilan bog‘liq.

Ssuda bozorining asosiy ishtirokchilari bo‘lib:

* dastlabki investorlar, ya’ni turli banklarda saqlanuvchi, ssuda kapitaliga aylanuvchi bo‘sh moliyaviy resurslarning egalari;

* ixtisoslashtirilgan vositachilar, pul mablag‘larini bevosita jalb qiluvchi, ularni ssuda kapitaliga aylantiruvchi va foiz ko‘rinishida haq to‘lash va qaytarish sharti bilan vaqtinchalik foydalanishga qarz oluvchiga beruvchi kredit-moliyaviy tashkilotlari bo‘lishi mumkin;

* moliyaviy resurslarda yetishmovchilik his qiluvchi va ixtisoslashgan vositachilarga ularning bo‘sh mablag‘larini vaqtinchalik ishlatib turganligi uchun to‘lov to‘lay oladigan davlat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxs ko‘rinishidagi qarz oluvchilar bo‘lishi mumkin.

Banklardan beriladigan kredit resurslarning maqsadli yo‘nalishidan kelib chiqqan holda ssuda kapitali bozori quyidagi asosiy segmentlarga bo‘linishi mumkin:

pul bozori – aylanma mablag‘larning harakatini ta’minlovchi qisqa muddatli kredit operatsiyalarning yig‘indisi;

kapital bozori – asosiy mablag‘lar harakatini ta’minlovchi qisqa va uzoq muddatli operatsiyalar to‘plami;

fond bozori – qimmatbaho qog‘ozlar bozoriga xizmat qiluvchi kre-dit operatsiyalar to‘plami;

ipoteka bozori – ko‘chmas mulk bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalar to‘plami va boshqalar.

Har bir sanab o‘tilgan bozor segmentlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu esa amaliyotda moliya – kredit institutlarining maxsus turi ixtisoslashtirilgan tijorat banklarining tashkil topishiga olib keladi.

Moliyaviy manbalar – bu daromad, jamg‘arma va kapital hisobiga va har xil turdagi daromadlar tufayli barcha faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan aktivlarni shakllantirish uchun davlat, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar ixtiyorida bo‘lgan barcha qoidalarning yig‘indisi. Bank resurslari moliyaviy resurslarning muhim qismidir. Davlat va korxonalarning moliyaviy resurslari bu moliyaviy boshqaruvning bevosita ob'ekti, ya'ni pul mablag‘lari oqimini shakllantirish, ulardan foydalanish va harakatlanishini boshqarish. Yetarli miqdordagi moliyaviy resurslarning mavjudligi, ulardan samarali foydalanish korxonaning yaxshi moliyaviy holatini, to‘lov qobiliyatini, moliyaviy barqarorligini, likvidligini oldindan belgilab beradi.

Zamonaviy ssuda kapitali bozori asosiy ikki bo‘g‘in kredit tizimi va qimmatli qog‘ozlar bozori (birlamchi va ikkilamchi bozorlar) bo‘lishini taqozo qiladi. Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozorida yangi muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar sotiladi va sotib olinadi. Ikkilamchi bozorda (fond birjasida) oldindan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar sotiladi va sotib olinadi. Birjadan tashqarida qimmatli qog‘ozlarning sotilishi va sotib olinishi, odatda, birjadan tashqari savdo deb yuritiladi. Qimmatli qog‘ozlar bozori va kredit tizimining mavjudligi hamda rivojlanish darajasiga qarab ssuda kapitali bozorining rivojlanishi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin. Jahon amaliyotida kapital bozori AQSH, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va Yaponiyada yuksak taraqqiy qilgan.

§ 13.3. Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya bozorining ajralmas tarkibi hisoblangan qimmatli qog‘ozlar bozori (QQB) mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. QQBning iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi rolini oshirish mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan sanaladi. Ya’ni, uning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini oshirish uchun quyidagi muammolar samarali echim topishiga erishish vazifalarini bevosita hal etish bilan bog‘liq bo‘ladi: investitsiyalarni faol jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni rivojlantirish, inflyatsiyani pasaytirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Ushbu muammolarni hal etish QQBning raqobatbardoshligi, xavfsizligi, barqarorligi, likvidligi, investorlar uchun jozibadorligi va risksizligi darajasini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, turli tashqi va ichki omillar ta’sirini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Quyidagi 13/3-rasmda QQB ishtirokchilarini alohida guruhlarga bo‘lib tavsiflangan. Ushbu guruhdagi barcha ishtirokchilar QQB bilan uzviy bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatadi va QQBning yaxlit infratuzilmasini ta’minlaydi. Bularga quyidagilar kiradi: muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchilar, emitentlar, professional ishtirokchilar hamda investorlar.

Moliyaviy globallashuv sharoitida rivojlanayotgan dunyoning barcha mamlakatlari uchun muhim muammo iqtisodiyotda o‘z milliy QQB rolini oshirish, bunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, sanoatni rivojlantirish, inflyatsiyani pasaytirish, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlash maqsadida investitsiyalar jalb qilishni ta’minlash hisoblanadi[120].

Ushbu muammoni hal etishning muhim shart-sharoitlari QQBdagi investitsiyalar, jamg‘armalar, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, davlat institutlari faoliyati va monetizatsiya o‘rtasida chambarchas aloqalar mavjudligi hisoblanadi.

Fond bozori mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, iqtisodiyotga moliyaviy investitsiyalarni jalb etishda muhim o‘rinni egallaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, investorlar huquq va manfaatlarini ta’minlash, investitsion muxitni sog‘lomlashtrish

[120] Mirkin Ya.M. Natsionalniy doklad «Riski finansovogo krizisa v Rossii: faktori, ssenarii i politika protivodeystviya»//Finansovaya akademiya pri pravitelstve RF, 2006. - ss. 47-51. (www.mirkin.ru).

qimmatli qog‘ozlar bozorini samarali rivojlanish investitsiyalar hajmini oshirish imkoniyatini yaratadi. Qimmatli qog‘ozlar moliyaviy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etishning muhim vositalari hisoblanib, iqtisodiyotning xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi.Ulushga egalik qilishni tasdiqlovchi vositalar Aksiyadorlik kapitalini ko‘paytirish,samarali korporativ boshqaruvda ishtirok etish va belgilangan tartiblarga muvofiq dividendlar olish imkoniyatini yaratadi.



13.1-rasm. Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarning tarkibi[121]

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari barqaror taraqqiyotining muhim omillaridan biri ularda asosiy va aylanma aktivlarga investitsiya qilinadigan kapitallarning optimal tarkibini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu masalaning hozirgi sharoitda keskinlashuvi, birinchidan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog‘liq yirik va strategik loyihalarni moliyaviy ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi. Qolaversa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirida moliyaviy resurslar bozoridagi nobarqaror kon’yunktura yirik investitsion sig‘imga ega bo‘lgan ushbu loyihalarni moliyaviy ta’minlashda har bir aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy xizmat tizimi zimmasiga mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish vazifasini yuklamoqda. Kapitallarning optimal holatini shakllantirish,

[121] Mavzuning nazariy asoslarini tadqiq etilishi natijasida muallif tomonidan kiritilgan.

qarz kapitalining o‘z mablag‘lariga nisbati bo‘lib, bunda aksiyadorlik jamiyatlari uzoq muddatli moliyalashtirishni umumiy kapitalning harajatlari yoki kapitallarning o‘rtacha tortilgan qiymatini (WACC - weighted average cost of capital) minimallashtirishga erishni anlatadi. Kapitallar tarkibi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bir tomondan, qarz kapitali ulushi kamligi, amalda o‘z mablag‘lariga nisbatan samaradorlik jihatidan arzonroq bo‘lgan moliyalashtirish manbaidan to‘liq foydalanilmaslikni anglatadi. O‘z navbatida, kapitallarning optimal tarkibi, aksiyadorlik jamiyatlarida kapital harajatlari yuqoriroq shakllanishi va kelgusida unga jalb etiladigan investitsiyalar daromadliligiga nisbatan yuqori talablarni vujudga keltirishini anglatadi.

Birinchidan, jalb qilingan kapitalning yuqori daromadlilik talablari bilan hayotiylik davrining egri chizig‘i bo‘ylab harakatlanishi investitsiyalar tanlashda yanada qat’iy va sinchkov bo‘lishini talab etadi. Chunki biznes g‘oyalarning hammasi ham jalb qilingan kapitalga qo‘yiladigan daromadlilik darajasiga mos kelavermaydi.

Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion imkoniyatlariga qo‘shimcha cheklovlar belgilanishi sababli u raqobatda yetarli darajada harakatchan va moslashuvchan bo‘la olmaydi. Kapital harajatlar miqdori yuqoriligi savdo bozori rivojlanishining o‘zgaruvchan tendensiyalariga tez va asosiysi, samaraliroq faoliyat olib borishga to‘sqinlik qiladi.

Uchinchidan, asosiy muammo qarz kapitali va o‘z mablag‘larining mutanosiblik qiymati optimal holatga kelmaydi, korxona va mulk egalari manfaatlari o‘rtasida nizolar chuqurlasha baradi. U boshqaruv motivatsiyasi o‘zgarishida, samarasiz moliyalashtirishni amalga oshirish, investitsion qarorlarni qabul qilishda to‘g‘ri tanlanmagan uslubni, shuningdek, yuqori riskli loyihalarni shakllantirishda namoyon bo‘lishi mumkin. Nihoyat, jami kapitaldagi qarz mablag‘lari ulushi ortgani sari uning tarafdori bo‘lgan biznes bo‘yicha kontragentlar, ya’ni korxonaning aksiyadorlari va sarmoyadorlari tomonidan doimiy kuzatuvda bo‘ladi.

Kapitallarni o‘rtacha tortilgan qiymati (bunda faqat qarz mablag‘lari ko‘zda tutiladi) – jami kapitalning daromadlilik darajasini belgilovchi biznes qiymatini baholashning asosiy omillaridan biridir. Tegishli ravishda, bunday o‘rtacha tortilgan qiymat stavkasi minimal darajaga yetkazish korxonaning samarali qarz olish tizimini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi va investitsiya siyosatining

yanada moslashuvchanligini oshiradi. Natijada pul mablag‘lari oqimining samarasiz aylanish tezligini pasaytiradi va mulk egalari foydasi ortishiga olib keladi. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yangi tarmoq va bozorlar vujudga kelmoqda, katta pul oqimlari va yuqori o‘sish sur’atlari bilan tavsiflanadigan aksiyadorlik jamiyatlari shakllanmoqda. Bunday o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishi uchun zaruriy kapital qo‘yilmalarni tashqi moliyalashtirish manbalariga ehtiyojini kamaytiradi. Biroq, keng jamoatchilik tomonidan olib borilgan tahlillarga ko‘ra, moliyalashtirish manbalarini to‘g‘ri tanlash, moliyaviy vositalardan to‘g‘ri foydalanish korxonalarning yanada barqaror faoliyat olib brishini ta’minlaydi.

Kapitallarning optimal tarkibini aniqlashda miqdoriy baholash usullarining uch guruhi mavjud. Moliyaviy natijalar tahlili bilan bog‘liq jarayon birinchi guruh usuli bo‘lib hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor foydaga qaratiladi va taxminiy ma’lumotlarni beradi.

Aksiyadorlik jamiyatini tahlil qilishning moliyaviy modeli ikkinchi guruh usulida asoslanadi. Bu usul jamiyatning investitsion riski bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardan foydalanishni taqozo etadi. Uchinchi guruhdagi usullar ham tahlil qilishning moliyaviy modeliga asoslanadi, ammo, ikkinchi guruh usullaridan farqli ravishda, modellashtirishni taqozo etadi, natijada murakkabroq jarayonni o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhdagi usullardan biri, operatsion foyda usuli bo‘lib, kapitallar tarkibida ehtimoliy qarz ulushini aniqlashga yo‘naltiriladi. Mazkur usul korxona foydasining o‘zgaruvchanligini tahlil qilish asosida korxonani bankrot bo‘lish ehtimolini aniqlashga yo‘naltiriladi.

Mazkur usul kapitallar tarkibi muammolarini aniqlashni soddalashtiradigan taxminlardir. Birinchidan, kelgusidagi foydani taqsimlash va ikkinchidan, moliyaviy dastak darajasidan mustaqilligi haqidagi shart-sharoitlar bilan bog‘liqdir. Har ikki taxmin ham muhim, chunki moliyaviy dastakning yuqoriligi aksiyadorlik jamiyatining sof foydasini kamaytiradigan vaziyatlarni istisno qilmaydi. Demak, moliyalashtirish manbalari kapitallar tarkibida qarz kapitalini oshirish mohiyatan mulkdorlarning daromadlarini oshirishga yo‘naltirilgan vazifani hal etish nuqtai nazaridan teskari ma’noga ega bo‘lib qoladi. Operatsion foyda normal taqsimlangan va kapitallar tarkibiga bog‘liq emas, ya’ni korxonaning biznes rejasidan kelib chiqadigan tashqi omillar: texnologiya, resurslardan foydalanish samaradorligi,

marketing, bozor kon’yunkturasi va h.k. bilan belgilanadi. Shunda qarz miqdoriga qarab, bankrotlik ro‘y berish ehtimolini tavsiflash imkonini beruvchi statistik ko‘rsatkich hosil qilish mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Kapital bozori, fond bozori, ssuda kapitali, valyuta bozori, birja. moliyaviy vositalar, fond bozori vositalari, aksiya, obligatsiya, korporativ obligatsiyalar.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Moliyaviy vositalarning iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Moliyaviy vositalarning turlari
3. Hosilaviy moliyaviy vositalarning ahamiyati
4. Investitsiyalarni moliyalashtirishda qimmatli qog‘ozlarning roli
5. Kapital va ssuda bozorining ahamiyati
6. Opsion va fyuchersnini farqli jihatlari
7. Fond bozori vositalarining iqtisodiy mohiyati

XIV BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI KREDITLASH

§ 14.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning ob’ektiv zaruriyati
§ 14.2. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti.
§ 14.3. Investitsiya faoliyatini kreditlash foiz siyosati
§ 14.4. Kreditdan foydalanishi ustidan bank monitoringi

§ 14.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning ob’ektiv zaruriyati

Investitsiyalarni moliyalashtirishda bank krediti ishtirokini mavhum tarzda, iqtisodiyotda joriy etilgan huquqiy me’yorlar va o‘tkazilayotgan investitsiya siyosatidan, investitsiya faolligi darajasi, moliyalashtirishda qo‘llaniladigan mexanizmlardan, amaldagi soliqqa tortish talablaridan, kafolatlar va imtiyozlar tizimi va bank-moliya infratuzilmasining rivojlanganlik darajasidan ayri holda baholab bo‘lmaydi. Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarni moliyalashtirish manbai tarzida bank kreditining roli, asosan, jamg‘armalarning o‘sish sur’atlari, pul, valyuta hamda kapital bozorlarining holati bilan aniqlanadi va belgilanadi. Moliyaviy vositachilikda raqobat muhitining mavjudligi va umuman Markaziy bankning pul-kredit, foiz siyosati va bank institutlari strategiyasi aniqlovchi omillar sifatida qaraladi.Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida har qanday mamlakatning keyingi barqaror rivojlanishi va yuksalishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bevosita bog‘liq. Shuni e’tiborga olish lozimki, investitsiyalar aslida pul mablag‘lari shaklida jalb etiladi.

Pul shaklidagi investitsiyalarning manbai bo‘lib, asosan, foyda (daromad) hisoblanadi. Iqtisodiyot taraqqiyotining ayrim bosqichlarida yangi aktivlar va boyliklarni yaratish uchun investitsiyalarning pul mablag‘lari shaklida safarbar etilishi ham talab etiladi. Shunga ko‘ra, pulsiz yangi aktivlar va boyliklarning hosil bo‘lishi aslo yuz bermasligini oddiygina anglab olish mumkin. Investitsiyalar amalga oshirilmas ekan, moddiy va nomoddiy boyliklar hosil qilinmaydi. Demak, u pul mablag‘lari shaklida qolib ketaveradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, moddiy va nomoddi boyliklar muayyan faoliyat maqsadida qo‘llanmas ekan, kapitalning qiymati o‘sishi ta’minlanmaydi.

Avvalambor, korxonalarni barqaror va uzoq muddatli resurs bazasi bilan ta’minlash uchun ularning ustav kapitalini oshirishga asosiy e’tibor ham qaratilishi lozim bo‘ladi. Buning natijasida investitsiyalarni korxonalar manfaatlaridan kelib chiqib jalb etish samarali kechadi. Ayni paytda milliy iqtisodiyotning rivojlanishini ta’minlash maqsadida xorijiy investitsiyalarni har qanday ob’ektlarga ham jalb etish maqsadga muvofiq emas. Sababi, mavjud ob’ektlarni va korxonalar aksiyalarini chet ellik investorlarga sotish mamlakatimizga investitsiyalarning kirib kelishini anglatmaydi, «...chunki bunday bitimlar mavjud bo‘lgan aktivlarga bo‘lgan mulk huquqini shunchaki berishni anglatadi[122]«. Bu esa mulk qiymatining ko‘paymasligini bildiradi. Mavjud aktivlarni qayta sotish ham aynan shundaydir. Umuman olganda, investitsiyalarni amalga oshirish investitsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi va u investitsiya resurslari hosil qilinish natijasiga tayanadi va yuz beradi. O‘z navbatida, u investitsiyalashdan ko‘zlangan maqsadga bevosita bog‘lanadi. Bundan ko‘zlangan maqsadga erishish ishtiyoqi investorni kapital to‘plab, so‘ng uni shu maqsad yo‘lida safarbar etishga undaydi. Maqsad muayyan natijaga qaratilar ekan, natija ham o‘z navbatida, muayyan maqsadlarni keltirib chiqaradi va investitsiya jarayonini aks ettiradigan ketma-ketlikni hosil qiladi. Investitsiyalarning bu tarzda harakatlanishi investitsiya faoliyati orqali yuz beradi.

Bugungi kunda investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlarni sub’ektlar tomonidan faqat ivestitsiyalarni qo‘yish bilan bog‘liq harakatlar sifatida tushunmaslik lozim. Bunda mazkur harakatlar investitsiyalarni amalga oshirishning maqsadi va yo‘nalishlarini aniqlash hamda ishlab chiqish, investitsiya loyihasini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy jihatdan baholash, uni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘larni jalb etish manbalarini aniqlash, jamg‘arish va samarali sarflash kabi keng jarayonni o‘z ichiga qamrab olishini mantiqan tushunish lozim, deb hisoblaymiz. Bunda investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi, eng avvalo, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, ya’ni foyda olish maqsadida harakat qiladi. Chunki, yuqori foyda investorning kapital qiymati o‘sishiga imkon beradi.

Iinvestitsiyalarni jalb qilish, xususan, kichik biznes sohasida faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektlarni zamonaviy texnika hamda

[122] Киселева Н.В., Боровикова Т.В., Захарова Г.В.и др. Инвестиционная деятелъностъ: Учебное пособие М.:КНОРУС, 2005. -432 с.

jihozlar bilan ta’minlash, bozor talabiga javob beradigan raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanayotganligi, barqaror iqtisodiy o‘sish va mahalliy hamda xorijiy investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib borishi real sektordagi investitsion jarayonlarni faollashtiradi. Investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘li uchun kerakli choralarning ko‘rilishi, kichik biznesga kredit ajratishni oshirishga va kichik biznes korxonalarining kreditlardan to‘la foydalana olishiga yo‘l ochib beradi va shu orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Investitsiyalarni moliyalashtirishda bank krediti ishtirokini mavhum tarzda, iqtisodiyotda joriy etilgan huquqiy me’yorlar va o‘tkazilayotgan investitsiya siyosatidan, investitsiya faolligi darajasi, moliyalashtirishda qo‘llaniladigan mexanizmlardan, amaldagi soliqqa tortish talablaridan, kafolatlar va imtiyozlar tizimi va bank-moliya infratuzilmasining rivojlanganlik darajasidan ayri holda baholab bo‘lmaydi. Iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarni moliyalashtirish manbai tarzida bank kreditining roli, asosan, jamg‘armalarning o‘sish sur’atlari, pul, valyuta hamda kapital bozorlarining holati bilan aniqlanadi va belgilanadi. Moliyaviy vositachilikda raqobat muhitining mavjudligi va umuman Markaziy bankning pul-kredit, foiz siyosati va bank institutlari strategiyasi aniqlovchi omillar sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida banklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subektlarni uzoq muddatli kreditlashni tashkil qilish tartibi tijorat banklarining ichki kredit siyosati, O‘zbekiston Respublikasi “Markaziy bank to‘g‘risida”, «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarga, Markaziy bankning “Tijorat banklarining kredit siyosatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi hududida banklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subektlarning uzoq muddatli kreditlash jarayonlarini tartibga soladi. Hozirgi kunda ko‘pgina tijorat banklari uzoq muddatli kreditlash jarayonini o‘zlarining ichki kredit siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil amalga oshiradilar.

Uzoq muddatli kreditlar – ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan obektlarni, qurilish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlashga oid harajatlar bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalarni moliyalash, texnika, texnologiyalar va uskunalarni harid qilish, asosiy

chorva, ko‘p yillik o‘simliklarni shakllantirish, shuningdek, boshqa investitsiya maqsadlari uchun mo‘ljallangan kreditlardir. Uzoq muddatli kredit – 1 yildan ortiq, biroq qoplash muddatidan ortiq bo‘lmagan muddatga beriladigan ssudalardir. Uzoq muddatli kreditlar bilan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar – yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan, yuridik shaxsni hosil qilmagan dehqon xo‘jaliklari ta’minlanadilar. Kreditlanayotgan ob’ekt qiymatining kamida 30 foizi o‘z yoki boshqa xil moliyalash manbalari bilan ta’minlangan qurilish obektlarini kreditlash uchun tavsiya etiladi, lekin amaliyotda muhim investitsiya loyihalari uchun istisno tariqasida bu me’yordan past bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo‘yicha Moliya vazirligi kafolati ostida, shuningdek, byudjetdan tashqari fondlarning kredit liniyalari hisobidan kreditlanadigan ob’ektlar bundan mustasno.

Uzoq muddatli kreditning qaytarilishini ta’minlashning asosiy turlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- hukumat kafolatlari;
- mol-mulk garovi;
- banklar, boshqa kredit muassasalari va sug‘urta tashkilotlarining kafolatlari;
- uchinchi shaxslar kafilligi;
- qonunchilikka muvofiq faoliyat yurituvchi sug‘urta kompaniyalari tomonidan berilgan sug‘urta polisi (guvohnomasi) bilan tasdiqlangan kreditning qarz oluvchi tomonidan so‘ndirilmasligi (risk) xatarining sug‘urta qilinishi.

Kreditni rasmiylashtirish jarayoni o‘z ichiga:

a) kredit olishga oid buyurtmanomaning ko‘rib chiqilishi va bo‘lg‘usi qarz oluvchining huquqiy maqomini aniqlash maqsadida uning o‘rganilishini;

b) qarz oluvchining moliyaviy holati tahlilini va kreditga baholashni;

v) kreditlanayotgan loyihaning kompleks yekspertizasining o‘tkazilishini;

g) kredit shartnomasini rasmiylashtirish va tuzishni oladi.

Bunda:

- (a) va (b) bandlarida ko‘rsatilgan kredit buyurtmanomasini ko‘rib chiqish muddati bank qarz oluvchiga kredit buyurtmanomasiga yozma xulosa beradigan 5 bank ish kunidan oshmasligi kerak;

- xo‘jalik yurituvchi subektlarning kredit so‘rab taqdim yetilgan hujjatlar to‘plami va arizalari tuman bank bo‘limlari kredit komissiyasi tomonidan arizalar kelib tushgan kundan boshlab 10 kundan oshmagan, viloyat kredit komissiyasi tomonidan 15 kundan oshmagan muddatda va Markaziy idora kredit ko‘mitasi tomonidan 30 kun davomida ko‘rib chiqilib, kredit berish yoki bermasligi to‘g‘risida yozma ravishda xulosa berishlari lozim bo‘ladi. (kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalariga va Markaziy bankning tegishli me’yoriy hujjatlari asosida ko‘rib chiqish muddati o‘rnatilgan investitsiya loyihalari bundan mustasno).

Kredit shartnomasi bank bilan qarz oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosi bo‘lib hisoblanadi, olingan kreditlar, komissiyalar ularga oid foizlar va penyalar bo‘yicha agar shartnomaning o‘zida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ular imzolagan vaqtdan boshlab amal qiladi. Bank qarz oluvchi bilan kelishib, qoplash muddatlari va pul oqimlari prognozi hisobga olinadigan imtiyozli davrni belgilash huquqiga egadir va u kredit shartnomasida ta’kidlanishi kerak.

§ 14.2. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti. Kreditni rasmiylashtirish tartibi

Mamlakatimizda bozor munosabatlari tizimini har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash uchun yangidan-yangi iqtisodiy-huquqiy vositalar vujudga keltirilmoqda. Xususiy tadbirkorlik erkin iqtisodiy zonalar, lizing, ipoteka shular jumlasidandir. Xususan, ipotekani mamlakat miqyosida keng qo‘llash imkoniyati chegaralanmagan. Ipotekaning mohiyati shundan iboratki, ko‘chmas mulk, jumladan, uy, bino va shu kabilarga nisbatan huquqlarga yega bo‘lgan shaxslar ushbu huquqlarini garovga qo‘yib, kredit olishlari va ushbu mablag‘dan samarali foydalanish orqali o‘z maqsadlariga yerishishlari mumkin.

Ipoteka – majburiyatlarni ko‘chmas mulk bilan ta’minlashning bir usuli bo‘lib, bunda agar garovga qo‘yuvchi o‘z majburiyatlarini bajarmasa, garovga oluvchi o‘z talablarini garovga qo‘yilgan ko‘chmas mulk hisobidan qondirish huquqiga yega bo‘ladi. Ipoteka pul majburiyatlari ta’minotida, shu jumladan, kredit shartnomalari majburiyatlarida ishlatilishi mumkin. Ipoteka krediti – banklar tomonidan ko‘chmas mulk garovi asosida ko‘chmas mulkni sotib olish

yoki qurish uchun beriladigan uzoq muddatli kredit turidir[123]. O‘tmishda garovga noilojlik, muhtojlikda murojaat qilinadigan ko‘ngilsiz chora sifatida qaralgan. Biroq bozor tizimida garov, ayniqsa, ko‘chmas mulk garovi – ipoteka aholining faol, uddaburon, ishbilarmon qismi uchun vaqtinchalik pul mablag‘lariga zarurat sezganda qo‘llanadigan va keyinchalik ortiqcha zo‘riqishlarsiz o‘rni to‘lib ketadigan samarali tadbir hisoblanadi. Ipotekani qo‘llash uchun eng avvalo fuqaro yoki yuridik shaxsda ko‘chmas mulk ob’ektlari (bino, inshoot, kvartira, korxona, mulkiy majmua va hokazo)ga nisbatan mulk huquqi, vakolatli davlat idorasi tomonidan ajratib berilgan yer uchastkasiga nisbatan meros qilib qoldiriladigan umrbod foydalanish huquqi, fermer xo‘jaliklarida esa dehqonchilik uchun ajratilgan yerlarga nisbatan ijara huquqi bo‘lishi lozim. Ko‘chmas mulklarga nisbatan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lishi shart. Ipoteka turmushning ko‘pgina sohalarida, ayniqsa, tadbirkorlikda turli maqsadda kredit olish uchun qo‘llanadi. Ko‘chmas mulk garovi tijorat banklari uchun garovning boshqa turlariga nisbatan ishonchliroq hisoblanadi: uning qiymati katta, bahosining pasayish xavfi kam, aksincha, oshib borishi mumkin, u iste’mol qilinishi yohud yashirib qo‘yilishi mumkin emas.

Mamlakatimizda ipotekani keng va oson qo‘llash uchun barcha shart-sharoitlar: huquqiy asos, zarur infratuzilma – tijorat banklari, baholovchi tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va shu kabilar mavjud. Nizolarni sud orqali hal etish, huquqlarni himoya qilish, kreditlar qaytarilmaganda undiruvni ko‘chmas mulkka qaratish mexanizmi ishlab turibdi. Albatta, har qanday garov kabi ipotekada ham ko‘chmas mulk garovi evaziga olingan qarz qaytarilmaganda kreditorlarning talablari ko‘chmas mulk hisobidan qanoatlantiriladi. Zohiran, garovga qo‘yuvchini cho‘chitadigan holat ham shu hisoblanadi. Biroq maqsadi puxta o‘ylangan, barcha imkoniyatlar chamalangan, yetti o‘lchab bir kesilgan bo‘lsa, bunday xavfsirash uchun asos kam. Albatta, hayotda ko‘p hollarda tavakkal qilmasdan iloj yo‘q. Shubhasiz, oqilona tavakkal qilish tadbirkorlik va shijoatkorlikning muhim belgisi hisoblanadi. Ko‘p hollarda taraflar insofli bo‘lganda, ipoteka krediti qaytarilib, kredit oluvchi ko‘chmas mulkini saqlagan holda murod-maqsadiga

[123] Саттаров Б.К. Мамлакатимиз макроиқтисодий сиёсатини ипотекага таъсири // Иқтисодий оқимлар доиравий айланиш жараёнининг ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантиришдаги роли: назарий қарашлар ва замонавий талқинлар мавзусидаги олий ўқув юртлараро республика илмий-амалий семинари материаллари.– Тошкент, 2010.– Б. 57- 60.

yetadi: tadbirkorning biznes rejasi amalga oshib, katta foyda oladi, oddiy fuqaro bo‘lsa uy yoki boshqa boylik egasi bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasida ipotekani amalga oshirish tartibi Fuqarolik kodeksi, “Garov to‘g‘risida”gi, “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Fuqarolik kodeksi, “Garov to‘g‘risida”gi, “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonunlarda belgilanishicha, ipoteka ko‘chmas mulk (binolar, inshootlar, korxonalar, yer uchastkalari va boshqa ko‘chmas mulk obektlari) garovidir. Tijorat banklarida ipoteka kreditining shakllanishi va rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 5 martdagi “Respublikada uy-joy qurilishini rag‘batlantirish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-744-sonli Farmoni huquqiy asos bo‘ldi. Ushbu Farmonning e’lon qilinishi mamlakatimiz tijorat banklarining yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga, uni rekonstruksiya qilishga ipoteka kreditining muhim xususiyati uning maqsadli yo‘naltirilganligi bo‘lib, u nafaqat uy-joy qurish va sotib olish, balki ishlab chiqarish binolarini qurish va sotib olish munosabatlarini rivojlantirishda aloxida o‘rin kasb yetadi. Bu esa, o‘z navbatida, ipoteka kreditini samarali boshqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi

XXI asr boshlarida jahon xo‘jaligi rivojlanishining muhim jihati xalqaro fond bozorlarining integrasiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ipoteka kreditning ahamiyati ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlarida ipoteka qimmatli qog‘ozlari ipoteka kreditini moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ipotekani moliyalashtirish jarayonining rivojlanishi tufayli turli moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda qayta moliyalashtiruvchi mexanizm vujudga keldi.

Yurtimizdagi ipoteka mexanizmi xorijiy mamlakatlardagi ipoteka tizimidan jiddiy farqlanadi. U yerda ipoteka qarz oluvchi va tijorat banki o‘rtasidagi xususiy munosabatlardir. Ipoteka bo‘yicha hosila qimmatbaho qog‘ozlar chiqarishga zo‘r bergan moliya muassasalari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga sabab bo‘lgani hech kimga sir emas. Mamlakatimizda yaratilgan ipoteka mexanizmi esa nafaqat qarz oluvchi va tijorat banki, balki yer uchastkasi ajratib beruvchi va hududning bosh rejasini ishlab chiquvchi mahalliy hokimiyat organlari, qurilish tashkilotlari va ipoteka oluvchi uchun imtiyoz va preferensiyalar beruvchi davlat o‘rtasidagi keng ko‘lamli ijtimoiy-

huquqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlar tizimidir. Demak, ushbu munosabatlar doirasida ipoteka oluvchi davlatning qo‘llab – quvvatlashi va g‘amxo‘rligini sezib turadi va tasodifan og‘ir ahvolga tushib qolishi istisno etiladi.

Ipoteka krediti oluvchining majburiyat va huquqlari qonunda belgilangan asoslarda va tartibda uning merosxo‘rlariga o‘tadi. Shuningdek, ipoteka krediti oluvchi va masalan, uning farzandi o‘rtasidagi kelishuv hamda bank roziligi bilan ipoteka krediti oluvchi o‘rniga ipoteka shartnomasiga farzandi kirishi mumkin. Demak, ipoteka krediti oluvchi pensiyaga chiqqanda farzandi (tegishli summada barqaror daromadlarga ega bo‘lsa) uning huquq va majburiyatlarini qabul qilib, ipoteka krediti oluvchi sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. O‘zbek oilalaridagi ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar harakteridan kelib chiqiladigan bo‘lsa, yuqoridagi tartib avlodlar vorisligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ipoteka qimmatli qog‘ozlari bozori o‘zining beqarorligi, investitsion muhitining o‘zgaruvchanligi, yuqori riskliligi va investitsiyalar uchun kuchli raqobatni o‘zida aks ettirishi bilan harakterlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ipotekani qayta moliyalashtirishning jahon va O‘zbekiston tajribasini tizimli o‘rganish asosida mavjud terminologik apparatni rivojlantirish bo‘yicha qator tushunchalar mazmuni ochib berildi.

Ipoteka krediti bu – aholi uchun yangi mol-mulk sotib olish, xonadonni ta’mirlash yoki uyni qayta qurish imkoniyatidir. Kredit maqsadi: alohida shaxslarga tegishli uy-joy qurilishi, ta’mirlanishi va sotib olinishiga beriladi. Kredit summasi:

- alohida shaxslarga tegishli uy-joyning qurilishi va sotib olinishi uchun beriladi — 3 000 eng kam ish haqi miqdorigacha
- turar joy binosini qayta qurish va xonadon (kvartira) sotib olish uchun — 2 500 eng kam ish haqi miqdorigacha

Kredit muddati: 10 yilgacha. Ipoteka krediti bo‘yicha foiz stavkalari: boshlang‘ich badal kreditning umumiy qiymatidan 25 foiz. Ipoteka kreditini olish uchun zarur hujjatlar:

- Talabnoma, unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi zarur, olinadigan kreditning maqsadi, muddati va shartlari.
- Kredit talabnomasi omonatchi tomonidan imzolanadi va taqdim etilgan kun sanasi ko‘rsatiladi.

Talabnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Bank filiali joylashgan tuman yoki Toshkent sh. doimiy propiskasi haqidagi pasport belgilari ko‘rsatilgan, Omonatchi va uning rafiqasi (rafiqi) pasportlariga tegishli ma’lumotlar;
- STIR borligi to‘g‘risida soliq organlari ma’lumotnomasi;
- Omonatchining turar joyidan ma’lumotnoma, unda ushbu manzil bo‘yicha yashash muddati hamda oila a’zolari soni ko‘rsatilishi lozim;
- Ish joyidan, oxirgi vaqt (12 oygacha) ichida olgan maoshi ko‘rsatilgan, ma’lumotnoma yoki daromadining boshqa turini tasdiqlovchi hujjat;
- Oila a’zolarining roziligi va zarur bo‘lganda omontchidosh (hamomonatchi) daromadlari to‘g‘risida ma’lumotlar;
- Bank bo‘linmalariga boshlang‘ich badal kiritilganligi haqida ma’lumot (omonat kitobchasi nushasi, ma’lumotnoma yoki ko‘chirma);
- Nafaqa yig‘iladigan kitobchasi nushasi;
- Ish beruvchi imzolagan, mehnat daftarchasi nushasi;

Sotuvchi/Quruvchidan sotib olish niyati to‘g‘risidagi shartnoma va harakatdagi qonunchilikka muvofiq, sotib olinayotgan uy-joy qiymati to‘g‘risidagi mustaqil baholovchining hisoboti yoki, kredit uy-joyni qayta qurish yoki qurish uchun olinayotgan holda, qurilish-montaj ishlari loyiha-smetasi hisoboti. Ipoteka kreditlari bank xizmatlari orasida talab eng katta bo‘lgan yo‘nalish sanaladi. Buni O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan “Uy-joy qurilishiga, uni rekonstruksiya qilishga va sotib olishga ipoteka krediti berish to‘g‘risidagi nizom” kabi ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar ham tasdiqlaydi. Ipoteka krediti, odatda, olinayotgan ko‘chmas mulkni garovga qo‘yilishi evaziga ajratiladi. Yurtimizda iste’mol kreditlaridan ipoteka kreditlariga nisbatan ko‘proq foydalaniladi. Chunki ular uzoq va jiddiy moliyaviy mas’uliyatni yuklamaydi. Lekin baribir ko‘pchilik ipotekadan foydalanishni afzal ko‘rmoqda Buning bir nechta sabablari bor. Ipotekaning afzal jihatlari:

- kvartiralar tanlovining turfaligi (birlamchi va ikkilamchi bozorda);
- oluvchi uyga ega bo‘lish uchun yillab pul yig‘ishiga hojat yo‘q;
- darrov yangi uyga ko‘chib o‘tish mumkin.

Ayniqsa, yashashga joyi bo‘lmaganlar uchun ushbu masalaning tez fursatda hal bo‘lishi ipotekaning eng qulay tomoni sanaladi. Ipotekaning salbiy tomonlari:

- foiz stavkasining balandligi. O‘rtacha hisobda 17-20 foiz (yosh oilalar uchun yillik 9 foiz);
- dastlabki to‘lov 25 foizni tashkil etadi;
- bundan tashqari, agar to‘lovchi kredit olib, uni to‘lay olmagan bo‘lsa, anchagina miqdordagi jarima summasini to‘lashiga to‘g‘ri keladi;
- ipoteka ko‘pgina oilalarni iqtisod qilib yashashga majbur qiladi;
- ipotekani hamma ham ola olmaydi. Banklar mijozlarning ahvolini yaxshilab o‘rganadi.

Bular kreditlashning ushbu turining asosiy kamchiliklari. Ammo muhim bo‘lgan yana bir jihat bor, bu ma’naviy bosim, qarzdorlik hissi. Shu bois ham bunday qadamni qo‘yishdan oldin yaxshilab mulohaza qilib ko‘rish tavsiya etiladi. Kreditlashtirishning barcha bosqichlarini quyidagi asosiy bandlarga ajratish mumkin:

bankda dastlabki shartlarni kelishib olish (banklar tomonidan taqdim etilgan turli dasturlardan mosi tanlanadi);

hujjatlarni to‘plash, topshirish, bank tomonidan kredit ajratish masalasining ko‘rib chiqilishi.

Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda:

bank va mijoz o‘rtasida kredit ajratish haqidagi shartnomaning imzolanishi

sotuvchi (quruvchi)ga kafolat xatini topshirish

xonadon oldi-sotdisini notarial tasdiqlatish

xonadon uchun mulk huquqini mijozga rasmiylashtirish

xonadonni bank uchun garov sifatida rasmiylashtirish

bank tomonidan sotuvchiga pulning to‘lab berilishi

Ipoteka kreditiga ariza topshirish uchun qator hujjatlarni to‘plash kerak bo‘ladi

kredit olish uchun ariza;

ariza beruvchi (kredit oluvchi)ning pasporti;

turar joyidan oila a’zolari haqida ma’lumotnoma;

qarz oluvchining asosiy ish joyidan berilgan so‘nggi 12 oydagi daromadi haqida ma’lumotnoma;

sotuvchi (quruvchi)ning turar joyga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxalari;

sotuvchidan xonadonni sotib olish bo‘yicha kelishuv;

SHJBPH kitobchasi va STIR nusxasi.

Ichki kredit siyosatidan kelib chiqib, bank qo‘shimcha hujjatlarni so‘rashi mumkin. Qaysi bank kredit beradi? Bugungi kunda ipoteka kreditlari “Ipoteka bank”, TIF Milliy banki, “Qishloq qurilish bank”, “Asaka bank”, “Xalq banki”, “O‘zsanoatqurilishbank” kabi ko‘plab banklar tomonidan berilmoqda. Aytish kerakki, har bir bankning ipoteka krediti bo‘yicha bir nechta dasturlari mavjud bo‘lib, talabgor ularning o‘ziga mosini tanlab olishi mumkin. Banklar tomonidan taklif etilayotgan ipoteka krediti muddatlari 10 yildan 15 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Imtiyozli davrlar 12 oydan 36 oygacha bo‘lgan muddatni tashkil etadi. Boshlang‘ich to‘lov 25 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. Bundan tashqari, dastlabki to‘lovning miqdoriga qarab foiz stavkalari o‘zgarishi mumkin. Ya’ni, boshlang‘ich to‘lov qancha ko‘p miqdorda amalga oshirilsa, foiz miqdori shuncha kam bo‘ladi.

Kredit miqdori esa EKIHning 2500-3000 baravarigacha bo‘lgan summani tashkil etadi. Kreditni ham kvartira olish uchun, ham uy qurish va ta’mirlash uchun olishning imkoni mavjud. Ipoteka dasturlarida qurilishi davom etayotgan uylardagi xonadonlarni sotib olish uchun kredit olish imkoniyati ham nazarda tutilgan. Yagona istisno garov sifatida qarz oluvchining nomiga rasmiylashtirilgan boshqa bir ko‘chmas mulkni ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Ipoteka krediti kimga beriladi?

Ipoteka kreditlari faqat jismoniy shaxslarga, 18 yoshdan pensiya yoshigacha bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolariga beriladi. Kredit olish uchun talabgor ishlayotgan bo‘lishi zarur. Toshkent shahridan xonadon sotib olishi uchun esa poytaxt propiskasiga ham ega bo‘lishi kerak. Kredit oluvchining rasmiy daromadi ipoteka kreditini olish uchun yetarli bo‘lmagan holatlarda birgalikdagi qarz oluvchini to‘lovga jalb qilish mumkin. Masalan, birgalikdagi qarz oluvchi sifatida turmush o‘rtog‘i yoki boshqa qarindoshlari qatnashadi. Faqatgina ularning familiyasi va propiska manzili qarz oluvchi bilan bir xil bo‘lishi kerak.

Kredit kalkulyatorlari. Ipoteka kreditlari dasturlari bo‘yicha summalarni hisoblab chiqish uchun deyarli har bir bankning “kredit kalkulyator”lari mavjud. Mana, ularning ba’zilari: Ipotekabank, Asakabank, Qishloq qurilish bank, TIF milliy banki kalkulyatorlari. Ariza bankka topshirilganidan keyin kredit berish yoki bermaslik haqida qaror chiqariladi. Masala ijobiy hal bo‘lsa, mijoz va bank o‘rtasida bitim tuziladi. Ko‘chmas mulk shartnomada garov tariqasida

aks etadi. Bank bilan tuzilgan bitimning quyidagi bandlariga alohida e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

boshlang‘ich to‘lov summasi;

ipoteka to‘lovi muddatini uzaytirishning maksimal muddati (u tugashi bilan bank jarimalar qo‘llashi mumkin);

ipotekani olayotgan shaxsga qo‘yiladigan talablar;

to‘lanadigan eng yuqori summa;

majburiy sug‘urtalar soni.

Kiritilishi majburiy bo‘lgan dastlabki to‘lovdan tashqari ipoteka krediti olish jarayonida quyidagi harajatlar qilinadi:

uy-joy yoki kvartira narxini baholash bilan bog‘liq harajatlar;

oldi-sotdi shartnomasi (notarius, BTI) va turar-joyga bo‘lgan kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq harajatlar;

ipoteka shartnomasini rasmiylashtirish (notarius, BTI) bilan bog‘liq harajatlar;

garovga qo‘yilgan turar-joy mulkini sug‘urtalash bilan bog‘liq harajatlar;

ipoteka kreditini bankning o‘rnatilgan tariflari bo‘yicha rasmiylashtirish bilan bog‘liq harajatlar.

Aytish joizki, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan imtiyozli ipoteka imtiyozli davr (unda kredit oluvchi asosiy qarz summasi o‘zgarishsiz qolgani holda faqat foizlarni to‘lashi mumkin bo‘ladi) va foiz stavkasining pastligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, 2017–2020 yillarda “Arzon uy-joylar” dasturi bo‘yicha yurtimizda 50 mingga yaqin ko‘p xonadonli uylar qurilishi rejalashtirilgan. Mazkur dastur bo‘yicha boshlang‘ich to‘lov miqdori 12,5 foizgacha tushishi kutilmoqda. Foizlar Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi darajasida saqlanib qoladi (hozirda – 9 foiz). Yana bir narsani yoddan chiqarmaslik kerakki, har qanday moliya-kredit tashkiloti singari bank ham tijorat tashkilotidir. U birinchi navbatda turli maqsadlarga yo‘naltirilgan kreditlar orqali daromad olishni ko‘zlaydi.

Shu o‘rinda ipoteka kreditlari borasida nazarimizda muammoli bo‘lgan bir masala mavjud. Xabaringiz bor, joriy yil boshida Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi o‘zgartirilmasligi, u 2015 yilning yanvar oyidagi darajada — ya’ni 9 foiz miqdorida saqlanib qolishini e’lon qilgan edi.

2014 yilgacha mazkur stavka 10 foizni, bundan avvalgi yillarda bundan ham yuqori (12 foiz, 14 foiz, 16 foiz) miqdorlarni tashkil etgan.

Ammo banklarda amaldagi kredit bo‘yicha qayta moliyalashtirish stavkasini tushirish amaliyoti mavjud emas. Ya’ni bir necha yil ilgari 16 foiz bo‘yicha qayta moliyalashtirish stavkasi belgilangan iste’molchilar uchun hozirgacha o‘sha stavka amal qiladi. Shunday qilib qayta moliyalashtirish stavkasi tushirilganida, ipoteka kreditlari stavkasi ham shunga mos ravishda o‘zgarsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

§ 14.3. Investitsiya faoliyatini kreditlash foiz siyosati

Kreditga layoqatlilik bu mijozning moliyaviy faoliyatiga har tomonlama berilgan baho bo‘lib, u qarz oluvchining so‘ralayotgan kreditni (asosiy qarz summasi va u bo‘yicha foizlarni) o‘z vaqtida qaytarish va boshqa qarz majburiyatlarini to‘lay olish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan korxonalarda qo‘shimcha pul mablag‘lariga ehtiyoj yuzaga keladi va bu ehtiyoj zarur bo‘lganda bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Shu sababli bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit va uning muhim elementlaridan biri kreditga layoqatlilikni baholashning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda raqobatdosh korxonalar xalqaro sifat talablariga javob beradigan mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishi hamda ko‘zda tutilgan foydaning realligini ta’minlashga muhim ahamiyat qaratadilar. Bu borada eng dolzarb masalalardan biri iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashdir. Ushbu omillarsiz nafaqat iqtisodiyotda, balki hech bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektida ijobiy natijalarga erishib bo‘lmaydi. Eng muhimi, bu jarayonlarga juda katta moddiy va moliyaviy resurslar bazasini talab etiladi. Bu esa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishida albatta bank kreditlari va ssudalariga bo‘lgan zaruriyat ortadi. Bank kreditlari va ssudalarini jalb qilish qaysi mezonlari va tartiblar asosida amalga oshiriladi? Bu borada, bank va turli kredit institutlari bilan korxonalar o‘rtasida bo‘ladigan qarz munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda ularning kreditga layoqatligini baholash bosh masaladir.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarining kreditga munosabatlari yuzasidan o‘z kredit siyosatini ishlab chiqadi. Lekin ularning barchasida bitta muhim jihatga, ya’ni mijozning kreditga qodirliligini, layoqatliligini baholashga ahamiyat qaratilmog‘i lozim. Korxonaning

kreditga layoqatligini baholash korxonalar tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan davriy moliyaviy hisobotlar va boshqa hujjatlar ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. Zaruriy ko‘rsatkichlar bir-biri bilan taqqoslanib, ular o‘rtasidagi nisbat va o‘zaro bog‘lanishlar aniqlaniladi, ushbu birliklarning yaqin va uzoq davriylikdagi o‘zgarishlariga, kutilishlariga baho beriladi. Korxonalarning kreditga layoqatliligini baholash tartibini “O‘zsanoatqurilishbank” ning kredit operatsiyalari yuzasidan mijozlar bilan bo‘ladigan munosabatlari misolida batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Korxonalarning kreditga layoqatliligini o‘rganishda kreditni o‘z vaqtida va to‘la qaytarish qobiliyatini ifoda etuvchi qoplanish koeffitsenti (QK) baholanadi. Ushbu ko‘rsatkich korxonaning yaqin uzoq davriylikda o‘z majburiyatlarini (asosiy va foizli to‘lovlarni) to‘lashga qodirligini, sub’ektning yashovchanlik imkoniyatini ifoda etadi. Yana bir muhim jihati, ushbu ko‘rsatkich doimo korxonaning ish aktivligini baholab borish imkonini beradi.

Qk = JA – KDX – KX – MUDQ / JM

Bu yerda:

JA – joriy aktivlar,

KDX – kelgusi davr harajatlari,

KX – kechiktirilgan harajatlar,

MUDQ – muddati o‘tgan debitorlik qarzlari,

JM – jami majburiyatlar.

2. Likvidlilik koeffitsiyenti (Lk).

Lk = PM + QMI + DQ – MUDQ / JM

Bu yerda:

PM – pul mablag‘lari,

QMI – qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar,

DQ – debitorlik qarzlari,

MUDQ – muddati o‘tgan debitorlik qarzlari.

Likvidlilik koeffitsenti – korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga aktivlar(mablag‘lar)ning (pulga aylanish darajasiga ko‘ra) yetarligi (yetishmovchiligi)ni, to‘lov layoqati esa korxona majburiyatlarining uzoq davriylikda qoplanish darajasini ifoda etadi.

3. O‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik (mustaqillik koeffitsenti).

Mk = XK / BS

Bu yerda:

XK – xususiy kapital,

BS – balans jami

Mazkur ifoda balans jamida o‘z mablag‘lari manbasi qanchani tashkil etishini belgilaydi. Ya’ni, jami mablag‘lar tarkibida investorga tegishli bo‘lgan mablag‘ qanchani tashkil etishini o‘rganish bank uchun juda muhim ko‘rsatkich hisoblanali

4. O‘z aylanma mablag‘larining mavjudligi (NSOS).

NSOS= XK + UMKQ – UMA

Bu yerda:

XK – xususiy kapital

UMKQ – uzoq muddatli kredit va qarzlar

UMA – uzoq muddatli aktivlar

O‘z aylanma mablag‘larining mavjudligini aniqlashda mazkur ifoda uzoq muddatli aktivlarni o‘z va qarz (uzoq muddatli) mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilishidagi ijobiy farqlanish darajasi bilan belgilanadi. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirishda kreditga layoqatlikni baholashdan tashqari tahliliy tavakkalchilikni baholash tizimi (Skoring tahlil tizimi)dan ham keng foydalaniladi. Amaldagi uslubiy tartibga muvoffiq analitik hisob-kitoblar natijasi talabga javob berganda bank tomonidan korxonalarga kredit ajratiladi. Bank tomonidan korxonalarning kreditga layoqatliligini baholashda kredit inspektorlari tomonidan asosiy e’tibor beradigan jihat bu balans likvidliligi yoki nolikvidliligi masalasidir. Buning zaruriy jihati shundaki, nolikvid balansga ega bo‘lgan korxonalarga qolgan mezonlar yaxshi chiqqan holatda ham bank krediti ajratilmaydi. Balans likvidliligi o‘z aylanma mablag‘lari naqdligini mavjud bo‘lishiga qarab baholanadi.

Amalda o‘z aylanma mablag‘lari naqdligining pastligi bu korxona likvidliligi yuqori bo‘lgan aktivlarni qarz hisobiga shakllantirganligidan dalolat beradi. Hozirda qo‘llanilib kelinayotgan tartiblarda kreditga layoqatliligini ayrim jihatlarigagina o‘z aksini topganligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu taomillar umumiy kredit qarorlari yuzasidan yakuniy xulosaga kelishga to‘la imkon bermaydi. Shu sababli, korxonaning kreditga layoqatliligini tahlil etishda kompleks tahlilni amalga oshirish zarur deb o‘ylaymiz. Kreditga

layoqatlilikning baholashning kompleks tahlili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- korxona likvidlilik ko‘rsatkichlari va balans likvidligi tahlili;
- korxona mablag‘lari aylanishini tahlili;
- korxona faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili;
- moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili;
- skoring modeli bo‘yicha kreditga layoqatlilikni baholash metodi.
- korxona likvidlilik ko‘rsatkichlari va balans likvidliligi tahlili.

Balans likvidliligi tahlili korxonalarning kreditga layoqatliligini tahlilida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidliligi korxonaning har xil majburiyatlarini tegishli aktivlar bilan qoplay olish qobiliyatini bildiradi. Aylanish ko‘rsatkichlari korxonaning o‘z mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Korxona aktivlarining har bir turlari bo‘yicha aylanish turlari yuqori bo‘lsa, shunga mos ravishda kreditga layoqatligi va ulardan foydalanish samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Amaliyotda kreditga layoqatliligini baholashda qo‘yidagi koeffitsiyentlardan foydalanamiz:

- korxonaning joriy aktivlari aylanish ko‘rsatkichlari;
- korxonaning debitorlik qarzlari ko‘rsatkichlari;
- korxonaning kreditorlik qarzlari ko‘rsatkichlari;
- tovar moddiy zahiralari aylanuvchanligi.

Korxonaning joriy aktivlari aylanish koeffitsiyenti – aktivlardan foydalanish samaradorligini va aylanish tezligini ko‘rsatadi. Kak=MST /Aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati (Ayb+Ayo/2) Korxona debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti – debitorlik qarzlari aylanishi tezligini va davrini ifodalaydi. Kdm=MST /Debitorlik majburiyatlari o‘rtacha yillik qiymati (Dmdb+Dmdo/2) Korxona kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti – kreditorlik qarzlarining aylanish tezligini va davrini ifodalaydi. Kkm=MST / Kreditorlik majburiyatlari o‘rtacha yillik qiymati (Dmdb+Dmdo/2) Korxona tovar-moddiy zahiralari aylanishi koeffitsiyenti Tovar-moddiy zahiralaridan foydalanish natijaviyligini ifodalaydi. Ktmz=MST / Tovar moddiy zaxiralar o‘rtacha yillik qiymati (Tmzb+Tmzo/2) Korxona faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili. Korxona faoliyati foydaliligiga rentabellik ko‘rsatkichlari yordamida baho beriladi. Rentabellik ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi, uning natijasida yuqori foyda hisobidan har hil ko‘rinishdagi aktivlarni sotib olish imkoniyati yuzaga keladi. Quyidagi eng muhim rentabellik koeffitsiyentlarini keltirib o‘tamiz:

• joriy aktivlar rentabellik koʻrsatkichi (ROA). Bir soʻmlik korxona joriy aktiviga toʻgʻri keladigan sof foydani koʻrsatadi. Kar=Sof foyda (270-satr 2-shakl) / Joriy aktivlar (390 satr,1-shakl).

• xususiy kapital rentabellik koʻrsatkichlari (ROE). Bir soʻmlik korxona xususiy kapitaliga toʻgʻri keladigan sof foydani aks ettiradi. Kar=Sof foyda / Xususiy capital.

• sotish rentabellik koʻrsatkichi (ROS). Korxona savdo faoliyati samaradorligini koʻrsatadi. Kar=Yalpi foyda / mahsulot sotishdan sof tushum.

Moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari tahlili. Bu koʻrsatkich korxona moliyaviy mustaqil yoki qaramliligini ifodalaydi. Mablagʻlar tarkibida qarz mablagʻlari ulushi yuqori boʻlishi, moliyaviy barqarorlik pasayishiga olib keladi. Korxonaning kreditga layoqatligini baholashda foydalaniladigan asosiy koʻrsatkichlar qoʻyidagilar:

• mustaqillik koeffitsiyenti – jami mol-mulk qiymatida xususiy kapital ulushini koʻrsatadi. Ushbu koeffitsiyentning 0,5 dan yuqori boʻlishi korxonaning moliyaviy barqarorligini 0,5 dan past boʻlishi moliyaviy qaramligini bildiradi. Kmus = Xususiy kapital / jami mol – mulk qiymati.

• qarz va oʻz mablagʻlari oʻrtasidagi nisbat koeffitsiyenti – xususiy kapital va qarz mablagʻlari oʻrtasidagi nisbatni koʻrsatadi. Kqoʻmn = Majburiyatlar / Xususiy kapital.

• xususiy kapital harakatchanlik koeffitsiyenti – xususiy kapital tarkibida oʻz oborot mablagʻlar ulushini koʻrsatadi. Bu koeffitsiyent normativi Kxkxk > 0,2 yuqori boʻlish kerak. Kqoʻmn = Oʻz oborot mablagʻlari.

Yuqorida keltirib oʻtilgan koeffitsiyentlardan oqilona foydalanish orqali korxonalarni moliyaviy layoqatliligini aniqlash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

§ 14.4. Kreditdan foydalanishi ustidan bank monitoringi

Bank kredit portfelining monitoringini oʻtkazish orqali kredit portfelini holatiga baho berish mumkin. Bank kredit portfeli monitoringi - bu kredit resurslarini rasional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular boʻyicha hisoblangan foizlarni oʻz vaqtida undirib olishni taʼminlashga yoʻnaltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yoʻnaltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli

mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko‘payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida undirib olishni ta’minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. Bank kredit portfeli monitoringi jarayoni to‘rt bosqichdan iborat:

- kreditlarni rasmiylashtirishning qonuniyligi va to‘g‘riligini nazorat etish;
- berilayotgan kreditlarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta’minlash va nazorat etish;
- qarzdorning va kafolat beruvchining moliyaviy holatini, garovga olingan mulkning butligini doimiy kuzatib borish hamda kredit va u bo‘yicha hisoblangan foizlarning belgilangan grafik asosida undirilishini nazorat qilish;
- kredit va u bo‘yicha hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatlarda to‘liq undirib olishni ta’minlash, o‘z vaqtida undirilmagan taqdirda zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilash.

Kreditlardan samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat quyidagi shakllar va yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

a) to‘lov hujjatlarining ssuda hisob varag‘idan ob’ektning smetasiga va maqsadli belgilanishiga, ularning muvofiqligini kredit o‘tkazilishi chog‘ida nazorat qilish;

b) kredit shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarda qurilish joyiga chiqish bilan kreditdan maqsadli foydalanishni tekshirish;

v) bajarilgan ishlarning nazorat o‘lchashlarini o‘tkazish va kredit shartnomasida keltirilgan tartib va muddatlarda harid qilingan uskunani inventarlash.

Nazorat o‘lchashlari bank krediti hisobidan moliyalanadigan ob’ektlarda ishlab chiqarish joyining o‘zida amalga oshiriladi. Banklar shartnomaviy va to‘lov asosida buyurtmachilarning buyurtmanomalari bo‘yicha boshqa manbalar hisobidan moliyalanadigan qurilishlar bo‘yicha nazorat o‘lchovlarini amalga oshirishlari mumkin. Hajmlar va bajarilgan qurilish-montaj ishlari qiymatining tekshirilishi ularning naturada o‘lchanishi va buyurtmachidagi hamda pudrat tashkilotining bajarilgan ishlar hajmlarini hisobga olish ma’lumotlari bilan tegishlicha loyihalash smeta hujjatlari bilan taqqoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Nazorat o‘lchashlari boshlangunga kadar quyidagilar bilan bog‘liq oshib ketishlarni aniqlash maqsadida navbatdagi hujjatlashtirilgan tekshirish amalga oshirilishi zarur:

- alohida narxlar, boshqa xil va limitlashtirilgan harajatlar hajmlari, qo‘shimcha harajatlar me’yorlari noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki belgilanishi bilan;
- arifmetik xatolar bilan;
- bajariladigan ishlar qiymatiga qurilish-montaj ishlari tarkibiga kiritilmaydigan harajatlar, uskunaning sotib olinishi, ko‘p yil ishlaganlik uchun, xizmat safarlari, ishlarning harakatlanuvchi tusdaligi uchun qo‘shimcha haqlar, materiallar va konstruksiyalar chiqarish va cheklangan narxlar o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha kiritilishi bilan va boshqalar;
- loyihalash – smeta hujjatlari mavjud bo‘lmagan ob’ektlarda ishlarning bajarilishi va harajatlar bilan;
- uskuna nuqsonlarining bartaraf etilishi bilan.

Ko‘zdan yashirin ishlar hajmlarini (quyilgan poydevorlar, pollar konstruksiyasi, avtomobil yo‘llari, ularda truba-quvurlar yotqizilgan transheyalar va boshqalar) tekshirish yashirin ishlarga oid dalolatnomalar asosida amalga oshiriladi. Alohida baholar tarkibiga kiruvchi ayrim operatsiyalar haqining bo‘lib-bo‘lib to‘lanishiga yo‘l quyilmaydigan konstruktiv unsurlar va ishlar turlarining tugallanmagan qismlari, shuningdek, qurilish obektiga olib kelingan va ishga jalb etilmagan materiallar va konstruksiyalar qiymati bajarilgan ishlar qiymatining ortib ketishiga kiradi.

Nazorat o‘lchashlari natijalari bo‘yicha dalolatnomalar va ishlar qiymatini qayta hisob-kitob qilish qaydnomalari tuziladi. Nazorat o‘lchashlari dalolatnomalari, ishlar qiymatining qayta hisob-kitob qilish qaydnomalari va dalolatnomalarga oid yig‘ma qaydnomalar bank, buyurtmachi va pudratchining vakillari tomonidan imzolanadi. Haqi to‘langan (taqdim etilgan) ishlarning yig‘ma qaydnomalari nazorat o‘lchashlarining amalga oshirilishi boshlanguniga qadar imzolanadi. Nazorat o‘lchashlarini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilgan bank muassasasi rahbari nazorat o‘lchashlar dalolatnomalari, pudratchi va buyurtmachi e’tirozlarini (agar ular mavjud bo‘lsa) ko‘rib chiqadi va dalolatnomalarni ular imzolanganidan keyin 10 bank ish kunidan kechiktirmasdan tasdiqlaydilar. Moliyalovchi bank nazorat o‘lchashining tasdiqlangan dalolatnomasi asosida belgilangan tartibda kredit shartnomasida keltirilgan miqdorlarda sanksiyalarni qo‘llaydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Ipoteka krediti, layoqatlik, foiz siyosati, kredit summasi, omonatchi, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, aylanma mablag‘, kredit, foyda, rezerv, kafillik.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Investitsiya faoliyatida ipoteka kreditining mohiyati
2. Kreditni rasmiylashtirish tartibi qanday amalga oshiriladi?
3. Investitsiya faoliyatini kreditlashda foiz siyosatining ahamiyati

XV BOB. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING LIZING MEXANIZMI

§ 15.1. Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati
§ 15.2. Lizing turlari
§ 15.3. Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi
§ 15.4. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o‘rni
§ 15.5. Lizing to‘lovlari summasini aniqlash

§ 15.1. Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati

Lizing mohiyatini quyidagi ibora orqali ifoda etsak bo‘ladi: “Boylik, mol-mulkka egalik qilishdan emas, balki undan foydalanishdan iborat bo‘ladi”. Mazkur jumla lizingning asosiy g‘oyasini to‘liq namoyon etadi. Korxona yoki tadbirkorga ishlash va daromad topish uchun mol-mulkka egalik qilish shart emas, balki muayyan muddat davomida undan foydalanishning o‘zi kifoyadir. Bu ayniqsa asbob-uskunani mulk qilib sotib olish moliyaviy imkoniyatlar cheklangan korxonalar uchun muhim. Lizing mexanizmi bunday korxonalarga asbob-uskunadan muayyan muddat davomida maqbul miqdordagi lizing to‘lovlari evaziga foydalanish huquqini qo‘lga kiritish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu asbob-uskunadan foydalanish muddati tugagandan so‘ng uni korxonaning mulkiga o‘tkazish imkoniyati ham mavjud. Moliyaviy xizmatlar bozorida lizing iqtisodiy tushuncha sifatida investitsion faoliyat turlaridan biri sifatida e’tirof etilib, u rivojlangan bozor iqtisodiyotining mahsuli va turkumlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston uchun tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning yangi usulini keng joriy qilish, shu bilan birga xorijiy mamlakatlar lizing biznesidan foydalanish uchun avvalo lizing munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy tabiatini oydinlashtirib olish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish vositasi hisoblangan lizing raqobat natijasida paydo bo‘lgan va uning muayyan afzalliklari bo‘lgan. Tadbirkorlik faoliyati uchun investitsiya resurslarini qidirib topish yoki mulkni qo‘lga kiritish, unga egalik qilish hamda undan foydalanish huquqini olishning boshqa usullariga nisbatan lizingning u yoki bu afzalliklari turli huquqiy va iqtisodiy makonlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Ya’ni, lizing mol-mulkidan tadbirkorlik

maqsadlarida foydalanish imkoniyatini olish vositasi sifatida lizingdan ko‘riladigan manfaatlar yoki zararlar, uning afzalliklari yoki kamchiliklari iqtisodiy, shu jumladan, huquqiy, moliya-kredit munosabatlarining darajasi bilan belgilanadi[124]. Ba’zi adabiyotlarda lizing ijarani moliyalashtirish deb hisoblanadi va lizing usulida moliyalashtirish bankning texnika yoki mashinalarni sotib olib, ularni o‘z mijozlariga ijaraga berishini nazarda tutadi deb, ta’kidlanadi[125]. Haqiqatda esa bank mulkchilik huquqini sotib olmaydi, balki moliyalashtiradi, to‘g‘rirog‘i, ijarachining ijara munosabatlari vositasida va lizing shartnomalarida ko‘rsatilgan muddatlarda mol-mulkni qo‘lga kiritish niyatida bo‘lg‘usi huquqini moliyalashtiradi.

Bank va lizingning moliyaviy muassasa sifatida tub farqi ham shundadir. Bunga qo‘shimcha ravishda shuni ham ta’kidlash kerakki, lizing texnologiyalar va texnikalar sotib olish va samarali qo‘llash uchun lizing beruvchi va lizing oluvchilar o‘zaro maqbul kredit munosabatlariga kirishishining shaklidir. Ayrim iqtisodchilar, lizingni vaqtincha bo‘sh turgan yoki jalb etilgan moliyaviy mablag‘larni investitsiyalashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatining bir turi deb ta’riflaydilar. Lizing kompaniyalarining bo‘sh moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari ularda salmoqli o‘z kapitallarining borligi bilan izohlanadi. Lizing institutlari endigina paydo bo‘layotgan O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatda bozor munosabatlarining qonunchilik negizini shakllantirish bilan birga lizing tadbirkorlikning alohida turiga aylangani yo‘q. Shu sababli, bizning nazarimizda lizing – investitsiyalarni moliyalashtirish shakllari yoki usullaridan biridir, deb hisoblayotgan mualliflarning fikrini qo‘llab-quvvatlash mumkin[126].

Bizning fikrimizcha, lizing munosabatlari qarz olish-berish asosida vujudga keladigan iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning yaxlit tizimi deb qabul qilinmog‘i zarur. Lizing rivojlanishining tarixidan ma’lumki, uning paydo bo‘lishiga ob’ektiv sharoitlar va tegishli shartlar ko‘maklashib kelgan. Bu shart-sharoitlar bir tomondan, lizing mulkini taklif qilish, ikkinchi tomondan, unga bo‘lgan talabni shakllantirish, uchinchi tomondan esa lizing munosabatlarini amalga oshirish uchun, bo‘sh turgan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini bergan. Umuman, lizing munosabatlari o‘zining iqtisodiy mazmuniga

---

[124] Газибеков Д.Г., Собиров О.Ш. «Лизинг и его развитие в Узбекистане», - Т.: Молия, 2001 132 с.

[125] Роуз Питер С. Банковский менеджмент. — Пер. с анг., 2-го изд.- М.: Дело Лтд. 1995. 173 с.

[126] Коноплицский В., Филина Г. «Это бизнес» Толковый словарь экономических терминов.- Киев: «Альтерпресс», 1996. – 149, 447 с.; Козлов Д. «Лизинг: новые горизонты предпринимательства», Экономика и статистика, 29 июль., 1996.

ko‘ra, bizning nazarimizda, avvalo qarz olish munosabatlarini, lizing beruvchi va mulk yetkazib beruvchi bilan, davlat va milliy iqtisodiyotning norezidentlari (xorijiy davlatlar, xalqaro moliya institutlari, chet el investorlari va boshqalar) bilan mulkiy, huquqiy, taqsimot va boshqa uyg‘unlashgan munosabatlarini ifodalaydi. Har qanday holatda ham lizing munosabatlari o‘z mazmuniga ko‘ra makon va zamonda qarz olish, ya’ni taqsimot, mulkiy munosabatlarni, lizing ob’ektiga egalik qilish huquqi va undan foydalanish huquqlarini ifodalaydi va o‘z navbatida iqtisodiy jarayondagi qayta taqsimot munosabatlarini shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirsak, zamonaviy lizingning yana bir muhim jihati bo‘lgan – uchinchi (vositachi) shaxsning, ya’ni lizing kompaniyalarining vujudga kelishi uchun poydevor qurilganligini kuzatishimiz mumkin. Shulardan xulosa qilib, lizingga ta’rif bersak. Xalkaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari tomonidan lizing quyidagicha talqin qilingan: “***Lizing*** – bu mulkiy munosabatlar majmui bo‘lib, bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa bir taraf (lizing oluvchi)ning topshirig‘iga ko‘ra uchinchi taraf (mol yetkazib beruvchi)dan lizing shartnomasiga muvofiq lizing ob’ekti bo‘lgan mulkni o‘z mulki qilib sotib olib, uni to‘lash asosida lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun lizing oluvchiga beradi”. Lizingga berilgan bu ta’rifda lizingning mulkiy munosabatlar majmui va bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan foyda olish istagining mahsuli ekanligiga alohida e’tibor karatilgan.

Bundan tashqari, Yevropa federatsiyasining lizing bo‘yicha milliy assotsiatsiyasi tomonidan lizingga berilgan ta’rifi ham e’tiborga molikdir, ya’ni “Lizing – bu ijarachining ishlab chiqarish maqsadida zavod, sanoat tovarlari, uskunalar va ko‘chmas mulklardan foydalanish bo‘yicha ijara shartnomasi bo‘lib, bunda mazkur tovarlar ijaraga beruvchi tomonidan sotib olinib, u mulkka bo‘lgan egalik qilish huquqini saqlab qoladi”. Ushbu ta’rifda lizing ijara shartnomasi sifatida baholanib, uning huquqiy jihatlariga e’tibor qaratilgan. Lizingni ta’riflashda dastlab uning mulkiy munosabatlar ekanligini e’tiborga olib, bu ta’rifda unda ishtirok etayotgan barcha sub’ektlarning mavqei va manfaatlari o‘z ifodasini topishi kerakdir. Shu nuqtai nazardan olib qarasak, Sh.U. Xaydarov, X.A. Ortiqov va X.A. Tuxsanovlar o‘zlarining asarlarida lizingga quyidagicha ta’rif berib o‘tishgan: “Lizing deganda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa bir tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga muvofiq lizing ob’ekti bo‘lgan mulkni o‘z

mulki qilib sotib olib, uni lizing oluvchiga haq evaziga lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun hamda shartnoma tugagandan so‘ng lizing ob’ektini sotib olish huquqi bilan beriladigan mulkiy munosabatlar majmuidir”[127]. Ushbu ta’rifda lizingning o‘ziga xos xususiyati, ya’ni bu munosabatlarda uch sub’ektning ishtirok etishi hamda mulkchilik huquqining o‘zgarishiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xorijiy adabiyotlarda mutaxassislar lizingga ta’rif berishda uning lug‘aviy ma’nosiga ham e’tibor berishgan (inglizcha “to lease” fe’lidan olingan bo‘lib, “mulkni ijaraga berish” yoki “mulkni ijaraga olish” ma’nolarini anglatadi).

Ba’zi manbalarda ta’kidlanishicha, mashina, jixoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkni uzoq muddatli ijaraga olish lizing sifatida e’tirof etilgan[128]. Bu ta’riflarda lizingga asosan ijara munosabati sifatida yondashilib, uning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berilmagan. M.I. Leshenko tomonidan lizingga berilgan ta’riflar yuqoridagilardan bir muncha farq qiladi. Uning fikricha lizing – bu shunday tovar kreditiki, u lizingga beruvchidan lizingga oluvchiga turli shakldagi mulk (qurilma, uskuna, mashina, kema va hokazo)ni foydalanishga berilishi bilan an’anaviy bank ssudasidan farq qiladi. Lizingga beruvchi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan mulkni to‘liq qiymati bo‘yicha egaligiga olib moliyaviy xizmat ko‘rsatadi, lizingga oluvchi esa ushbu qiymatni davriy ravishda to‘lov (badal)lar hamda kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni birgalikda to‘lab qoplaydi[129]. Bu yerda lizingning o‘ziga xos xususiyati mulkka egalik qilish huquqida namoyon bo‘ladi. Mulkka egalik qilish huquqi lizing muddati mobaynida to‘liqligicha lizingga beruvchida bo‘ladi. Bu huquq lizingga oluvchiga faqatgina shartnomada ko‘rsatilgan muddatda kelishilgan to‘lovlar butunlay to‘langandan keyingina o‘tadi. Bularning barchasi lizing operatsiyalarining lizing bozori ishtirokchilari uchun naqadar foydali ekanligidan dalolat berib turibdi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, lizingga quyidagicha ta’rif berib o‘tamiz: “Lizing – bu vaqtinchalik bo‘sh turgan yoki jalb qilingan moliyaviy vositalarni investitsiyalashni o‘zida aks ettirib, bunda lizingga beruvchi ma’lum bir sotuvchidan mulkiy shartnomada kelishilgan mol-mulkka egalik qilish va ushbu mol-

[127] Ҳайдаров Ш.У, Ортиков Х.А, Тухсанов Х.А. Лизинг: Тан олиш, баҳолаш ва унинг ҳисоби.- Т.: «NORMA» МЧЖ, 2006. 43-бет.

[128] Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». -Ростов н/Д: «Феникс», 1999.56-бет.

[129] Лещенко М.И. Основа лизинга: Учеб. пособие ч-е изд. перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004.

mulkni vaqtinchalik foydalanganlik uchun to‘lov asosida oxirida harid qilish huquqi bo‘yicha lizingga oluvchiga taqdim etish majburiyatini oladi”.

§ 15.2. Lizing turlari

Korxona yoki tadbirkor ishlash va foyda olish uchun mulkka ega bo‘lishi shart emas. Ushbu mulkni ma'lum bir muddat davomida ishlatish huquqiga ega bo‘lish kifoya. Bu, ayniqsa mulkda uskunalar sotib olish uchun zarur mablag‘ga ega bo‘lmagan korxonalar uchun juda muhimdir. Lizing mexanizmi ularga asbob-uskunani ma'lum muddatga ijaraga olish huquqini olishga imkon beradi. Shuningdek, u belgilangan foydalanish muddati tugaganidan keyin uskunalar korxona mulki bo‘lganda tanlovni ta'minlaydi Lizing amaliyotida uning xilma-xil turlari mavjud bo‘lib, ko‘pgina hollarda uning quyidagi ikki turidan keng foydalaniladi:

1. Operativ lizing. Lizingning ushbu turi ijaraga berilayotgan texnika uskunalarining ijara muddati ularning xizmat kilish muddatiga qaraganda qisqa bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Mulk egasi tomonidan (lizing beruvchi) ijaraga berish maksadida sotib olingan zarur asbob-uskunalar hamda ularga ketgan sarf-harajatlar qisman qoplanadi.

2. Moliyaviy lizing. Ushbu lizing turi asosida tomonlar o‘zaro imzolangan shartnomaga binoan, shartnoma muddati tugagandan so‘ng ijarachi lizingga olingan uskunalarni koldik kiymati buyicha sotib olishi mumkin. Bu xolda lizingga berilgan mashina va uskunalarga egalik kilish huquqi bevosita ijarachiga utadi.

Operativ lizing quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- texnik uskunalar va jixozlarni ijaraga beruvchi lizing kompaniyasi xech mahal “barcha sarf-harajatlarimni yakka-yu yagona mijozim evaziga koplayman” kabilida hisob-kitoblarga tayanmaslik;
- ijaraga berilgan texnika, asbob-uskunalarning nosoz holga kelishi yoki yo‘qolishi, shuningdek, tabiiy ofatlar, zilzila, yong‘in va sel ketish oqibatida ko‘riladigan moddiy zararlar, asosan lizing beruvchi kompaniya hisobiga qoplanishini nazarda tutish;
- ijara muddati mavjud asbob-uskuna va jihozlarning jismonan butunlay ishdan chiqish muddatini qoplamasligi darajasida belgilamaslik;
- kelishilgan muddat tugagandan so‘ng, ijaraga olingan barcha uskunalar egasiga, ya’ni lizing beruvchiga qaytarib beriladi.

Operativ lizingning renting va xayring kabi turlari ham mavjud. ***Renting deganda*** mulkni bir kundan to bir yilgacha bulgan kiska muddatga ijaraga berish nazarda tutilsa, ***xayring deganda*** esa mulkni 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga berish tushuniladi. Odatda, bu muddat o‘rta muddat hisoblanadi.

Moliyaviy lizingda kelishilgan muddat tugagandan so‘ng ijarachi tomonidan ijaraga olingan uskunalar kiymatini to‘lashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijaraga berilgan mashina va uskunalar, ularni ishlab chiqargan korxona tomonidan belgilangan iqtisodiy foydalanish muddati (amortizatsiya davri)ni o‘tashi, shubhasiz, lizing kompaniyalari kutgan va oldindan belgilagan foydani keltiradi. Moliyaviy lizing ham o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi:

- ba’zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing;
- leveridj-lizing;
- “paketdagi” lizing.

Ba’zi xizmat turlarini kamrab oluvchi lizingda lizing kompaniyasi ijaraga berilgan uskunalarni o‘rnatish, sozlash, mutaxassislar tayyorlash kabi bir kator majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Leveridj-lizingda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya’ni investordan qarzga olinadi.

“Paketdagi” lizingda mavjud ishlab chikarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo‘lgan mashina va uskunalar esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi.

Lizing xizmati ob’ektga egalik kilish manbalari nuqtai-nazaridan ikkiga: bevosita va qaytariladigan lizing turlariga bo‘linadi.

Bevosita lizing. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun uning buyurtmasi asosida mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonalardan sotib oladi.

Qaytariladigan lizing deganda lizingga beruvchi kompaniya boshqa bir tashkilot (lizingga oluvchi)dan mulkni sotib olib, uni qaytadan lizing shartnomasi asosida shu tashkilotning o‘ziga (lizingga oluvchiga) ijaraga beradi. Qaytariladigan lizing o‘ziga xos lizing turi bo‘lib, unda lizing mulkining sotuvchisi bir vaqtning o‘zida lizingga oluvchi bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda lizingga beruvchi va lizingga oluvchi (sotuvchi) o‘rtasida bir vaqtning o‘zida ham oldi-sotdi shartnomasi, ham moliyaviy ijara shartnomalari tuziladi. Bu shartnomalar tuzilganidan so‘ng mulkka egalik qilish huquqi lizingga beruvchiga o‘tsada, mulk (endi lizing ob’ekti) lizingga oluvchi

ixtiyorida qoldiriladi. Shartnomaning amal qilish muddati davomida lizingga oluvchi lizingga beruvchiga har oy lizing to‘lovlarini to‘lab boradi. Shartnoma muddati tugashi bilan lizing ob’ekti yana lizingga oluvchi egaligiga o‘tadi. Agar lizingga oluvchi shartnomada belgilangan shartlarga rioya qilmasa, lizingga beruvchi shartnomani bekor qilib, lizing ob’ektini o‘z egaligida saqlab qolish huquqiga ega bo‘ladi.

Ijaraga berilayotgan mulkka nisbatan lizing kuyidagi turlarga bo‘linadi: sof lizing. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo‘shimcha harajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi; to‘liq lizing**.** Bu lizing turiga binoan ijaraga berilayotgan mashina va uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha sarf-harajatlar lizing kompaniyasi zimmasiga tushadi.

Qarzdor va qarz beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish xususiyatlari bo‘yicha lizingning: mulkni ishlab chikaruvchi (tayyorlovchi) yoki egalik kiluvchi lizing beruvchi sifatida – bevosita lizing; uchinchi shaxs ishtirokida amalga oshiriladigan – bilvosita turlarga ajratish mumkin.

Moliyalashtirish usuliga ko‘ra: bir martalik lizingni amalga oshirish – muddatli lizing; lizing shartnomasi kelishuvining birinchi muddati tugaganidan keyin davom etadigan – qayta tiklanadigan (revolverli) lizing turlari mavjud.

Ko‘pgina hollarda lizing bevosita emas, balki vositachi orqali amalga oshiriladi. Asosiy lizing beruvchi lizing to‘lovini olish huquqi bo‘yicha imtiyozga ega bo‘ladi. Shartnomada, ko‘pincha, agar uchinchi shaxs (vositachi) bankrotlik holatiga uchrasa, lizing to‘lovi bevosita lizing beruvchiga to‘lanishi kelishib olinadi. Bunday lizing turi “sublizing” deb nomlanadi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish bo‘yicha moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish dolzarb masalalardan biri sifatida belgilandi. Shunday ekan, moliyaviy xizmat turlaridan biri sifatida lizing xizmatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, uni amalga oshirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida lizing munosabatlari 1996 yilda qabul qilingan Fuqarolik kodeksining 587-599-moddalari hamda 1999 yil 14 apreldagi “Lizing to‘g‘risida”gi qonun normalari bilan huquqiy tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 587-moddasida lizing shartnomasining tushunchasi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra “Lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan sotuvchi uchunchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi” deb belgilangan. Lizing munosabatlarini tartibga soluvchi eng muhim hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni bo‘lib, u 25 moddadan iborat. Qonunda lizingga quyidagicha ta’rif berilgan: “Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob’ektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi”.

Qonunda lizing munosabatlarining ishtirokchilari (lizing sub’ekti), ob’ekti, shakllari, lizing shartnomasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, shartnoma ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, lizing ob’ektiga nisbatan jadal amortizatsiyalashni qo‘llash, ob’ekt bilan bog‘liq risk turlari, uni sug‘urta qilish, garov sifatida foydalanish kabi munosabatlar ham o‘z aksini topgan. Shunisi muhimki, lizing jarayonidagi eng muhim element, ya’ni lizing to‘lovlari va uning hisoblanishi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish masalalari ham qonunda mustahkamlangan. Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining rivoji ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligiga bog‘liqdir. Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish masalasiga Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilib kelinayotganligi sir emas. Bu borada quyidagi me’yoriy hujjatlar qabul qilindi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabrda qabul qilingan 486-sonli “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrda qabul qilingan 424-sonli “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 12 dekabrdagi 254-sonli “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2000 yil 2 noyabrdagi 424-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 maydagi “2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 14 iyulda qabul qilingan “2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi amalga oshirilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va h.k.

Ushbu me’yoriy hujjatlarga asosan lizing xizmati ko‘rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun foyda solig‘i hamda yagona soliq to‘lovi bo‘yicha besh yilga imtiyoz berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, lizing oluvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarining lizing to‘lovlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘idan, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga lizingga berilgan mulkka soliq to‘lashdan ozod qilinganligi lizingdan foydalanayotgan barcha ishtirokchilar faoliyatiga katta madad bo‘lmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 17 noyabrdagi “O‘zagrotexsanoatxolding” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2658-sonli qarorining qabul qilinishi respublikamizda qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnika bilan ta’minlash mexanizmini amalga oshirishda muhim o‘rin tutdi. “O‘zagrotexsanoatxolding” AJ tarkibiga qishloq xo‘jaligi faoliyatini ishlab chiqarishni tashkil etishga ixtisoslashgan “O‘zagrotexmash” AJ, qishloq xo‘jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berishga ixtisoslashgan “O‘zagrolizing” AJ, qishloq xo‘jalik texnikalariga servis xizmatini ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga mexanizatsiyalashgan

xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan “O‘zagroservis” AJ kabi kompaniyalar kiritilgan. Shu bilan birgalikda mazkur kompaniyalar ham o‘z tarkibiga bir qator ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda lizing kompaniyasi filiallarini qamrab olgan.

Mazkur tuzilma faoliyati zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish, sotish hamda qishloq xo‘jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berish va ularga servis xizmatlarini ko‘rsatish tizimini boshqarish bo‘yicha yagona majmuaning samarali faoliyatini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, mamlakatimizda qishloq xo‘jalini rivojlantirish, uni zamonaviy texnika bilan ta’minlashda hududlarning o‘ziga xos xususiyati ham e’tiborga olinib, bu borada ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalarining faoliyatiga alohida urg‘u berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi “Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligining texnik jihozlanganligini yanada oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3228-son qarori qabul qilindi. Qarorga asosan Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Bo‘ka, Quyi Chirchiq va Chinoz tumanlari fermer xo‘jaliklari va mashina-traktor parklariga 2017-2019 yillarda lizing asosida qishloq xo‘jaligi texnikasini yetkazib berishning prognoz parametrlari tasdiqlandi.

Qarorga asosan, yetkazib berish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat haridi va qishloq xo‘jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari va qishloq xo‘jaligi korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Lizing shartnomasi mavjud bo‘lganda va haqiqatda avans to‘lovi amalga oshirilganda esa (lizing ob’ekti qiymatining kamida 20 foizi) Jamg‘arma tomonidan moliyalashtirish uchun mablag‘lar ajratiladi. Yetkazib berish lizing asosida «O‘zagrolizing» AJ orqali yillik 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan foiz stavkasi bilan rejalashtirilgan hajmda har yili 1 dekabrga qadar amalga oshiriladi. “O‘zagrolizing” AJ va Toshkent viloyati lizing oluvchilari o‘rtasida tuziladigan shartnomalarda Jamg‘arma mablag‘lari hisobiga moliyalashtirishda lizingning quyidagi muddatlari ko‘zda tutiladi:

- fermer xo‘jaliklari uchun - 12 yilgacha;
- “Toshkent Agroservis MTP” MCHJ uchun – 10 yilgacha.

Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida 2018 yil 10 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligini o‘z vaqtida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3712-sonli Qarori qabul qilindi.

§ 15.3. Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida lizing xizmati korxonalarning ishlab chiqarish quvvatini modernizatsiya qilish, xususiy tadbirkorlikni kengaytirish va buning natijasida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga investitsiya kiritishning samarali mexanizmi sifatida tobora rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuniga asosan iste’mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashyolar lizing ob’ekti bo‘lishi mumkin, yer uchastkalari va boshqa tabiat ob’ektlari bundan mustasno. Kelajakda lizing oluvchiga lizing bo‘yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o‘ziga mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb tan olinadi. Egalik qilish va foydalanish uchun lizing ob’ektini oladigan shaxs lizing oluvchi deb hisoblanadi. Lizing beruvchi lizing ob’ektini kimdan olayotgan bo‘lsa, shu shaxs sotuvchi deb e’tirof etiladi. Lizing beruvchi mol-mulkni bo‘lajak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo‘yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag‘ bilan ta’minlagan taqdirda bir shaxsning o‘zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Lizing xizmatlari yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga lizingga beruvchilar tomonidan lizing mol-mulkini sotib olish uchun moliyalashtirilgan mablag‘larning to‘lanishi muddatliligi ta’minlanganligi va qaytarilishi shartlarida taqdim etiladi. Lizingda taraflar roziligiga ko‘ra qonunlarda belgilangan me’yorlarda lizing ob’ektini jadal amortizatsiya qilinishini qo‘llashga ruhsat etiladi. Lizing shartnomasiga bog‘liq ravishda sarflangan mablag‘lar qaytarilishining kafolati sifatida lizingga oluvchidan garov ta’minoti, bank kafolati yoki uchinchi shaxs kafilligi ko‘rinishidagi ta’minlash berilishini hamda kafilning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi moliyaviy hujjatlarni ham taqdim etilishi talab etiladi. Lizingga oluvchi lizing buyicha olingan (olinayotgan) mol-mulkni yong‘in, bo‘ron, dovul, jala,

portlash, ko‘chki, tuprokni cho‘kishi, yemirilishi, sel, yashin urishi, zilzila, yo‘l-transport xodisalari, o‘g‘rilik, olib kochish, bosqinchilik, uchinchi shaxs tomonidan ataylab kilingan xatti-harakat natijasida shikastlanish va yo‘qotish bilan bog‘liq bo‘lgan tarzdagi har kanday yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarardan lizingga beruvchi foydasiga sug‘urtalashni amalga oshiradi va sug‘urta polisini lizingga beruvchiga takdim etadi. Lizingni amalga oshirish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

– mol-mulkni lizingga olish bo‘yicha lizingga oluvchi tomonidan lizingga beruvchiga lizing obektining rusumi, soni va sotuvchi (ishlab chiqaruvchi)sini qursatgan xolda buyurtma xat bilan murojaat qilinishi;

– lizingga oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida uning tulov qobiliyatini o‘rganilishi va lizingning butun muddati uchun lizing tulovlarining qoplanishi prognozini ko‘rsatuvchi biznes-reja, loyihasini ekspertizadan o‘tkazilishi hamda natijasi buyicha Ekspert xulosasining chiqarilishi;

– chiqarilgan Ekspert hulosasining ko‘rib chiqilishi va mol-mulkni lizingga berish, berishni rad etish masalasida yakuniy qaror qabul qilinishi;

– Ekspert kengashi yig‘lishida mol-mulkni lizingga berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, bu xaqda Buyurtma bergan xo‘jalikka sababi qo‘rsatilgan holda xabarnoma yuborilishi;

– Ekspert kengashi yig‘ilishida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, lizingga oluvchi va lizingga beruvchi o‘rtasida lizing shartnomasini tuzilishi;

– lizing ob’ekti uchun lizingga beruvchi va sotuvchi o‘rtasida oldi-sotdi shartnomasini tuzilishi;

– lizingga oluvchi tomonidan lizing ob’ektini sug‘urtalashni amalga oshirilishi va sug‘urta polisini lizingga beruvchiga taqdim etilishi;

– lizingga oluvchi tomonidan lizingga beruvchiga ta’minot (garov, bank qafolati yoki uchinchi shaxs qafilligi shartnomasi) taqdim etilishi;

– lizing shartnomasida belgilangan miqdordagi avans to‘lovlarini lizingga oluvchi tomonidan to‘lab berilishi;

– lizingga beruvchi tomonidan qarz (yoki qredit) mablag‘larini shartnoma asosida lizing loyihasiga jalb etilishi;

– oldi-sotdi va lizing shartnomalarida nazarda tutilgan muddatlarda, lizing ob’ektini o‘rnatilgan tartibda sotuvchidan lizingga

beruvchiga va lizingga beruvchidan lizingga oluvchiga rasmiylashtirib berilishi;

– lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizingga oluvchi tomonidan lizing ob’ektini davlat ro‘yxatidan o‘tqazilishi hamda yagona nomer belgisi, texnik pasport va texnik talonni olinishi;

– lizingga beruvchi va sotuvchi ortasida oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha yaruniy hisob-kitoblarni amalga oshirilishi;

– lizingga oluvchi tomonidan lizing shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorlarda lizing to‘lovlarini to‘lanishi;

– lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizingga beruvchi tomonidan lizingga oluvchining lizing ob’ektidan qanday sharoitlarda va maqsadli foydalanilayotganligini texnik monitoringdan o‘tkazilishi;

– lizingga oluvchi tomonidan barcha lizing to‘lovlari (va lizingga beruvchining lizing shartnomasi bo‘yicha qilgan harajatlari)ni to‘liq to‘lab lizing ob’ektini sotib olinishi va lizing ob’ektiga bo‘lgan mulq xuquqining tomonlar o‘rtasida rasmiypashtirilgan “Dalolatnoma” asosida lizingga beruvchidan lizingga oluvchiga o‘tishi.

Taraflar o‘rtasida lizing shartnomasi tuzilgandan so‘ng, lizingga oluvchi tomonidan sug‘urta tashkiloti bilan lizingga olinayotgan ob’ektni sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta shartnomasi tuzilib, ichida lizingni butun muddati uchun lizing shartnomasida belgilangan muddatda (masalan, 10 kunlik) sug‘urta polisi olib lizingga beruvchiga takdim etiladi. Lizingga beruvchi tomonidan sotuvchidan lizing ob’ekti mulk kilib sotib olinadi va lizing shartnomasida belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizingga oluvchiga o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilib berilganidan keyin lizing operatsiyasi amalga oshirilgan hisoblanadi. Lizingga beruvchi tomonidan har bir lizingga oluvchi nomiga alohida hujjatlar yig‘ma jildi tuziladi va unda lizingga oluvchining quyidagi hujjatlari jamlanadi:

– Lizingga oluvchining Buyurtma xati;

– Yuridik shaxsning davlat statistika organlaridan ruyxatdan o‘tganligi haqidagi guvohnomasi nusxasi;

– Oxirigi hisobot sanasiga hududiy soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya balansi (balansdagi 2-shakl, byudjetga to‘lovlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma’lumotnoma bilan birga);

– Lizingning butun muddati uchun lizing to‘lovlarining koplanishi prognozini ko‘rsatuvchi Biznes-reja;

– Lizingga oluvchining "Biznes rejasi»da bankdan olingan maksadli kreditlardan lizing to‘lovlarini to‘lash uchun yo‘naltirilishi mumkinligni nazarda tutilgan bo‘limi (beti)dan ko‘chirma (lizingga oluvchining imzosi va muxri bilan tasdiklangan xolda).

Lizingga beruvchi lizingga oluvchining lizing ob’ektidan kanday sharoitlarda foydalanayotganligini va uni belgilangan maqsadga muvofiq ishlatayotganligini lizing shartnomasi shartlariga hamda qonun hujjatlari talablariga muvofiq nazorat qilishga haqlidir. Nazorat sifatida lizing ob’ekti, lizingga beruvchining vakolatli vakili yoki lizingga beruvchi tomonidan berilgan vakolatli shaxslar tomonidan texnik monitoringdan o‘tkaziladi. Texnik monitoring davomida quyidagilar aniqlanadi:

- lizing ob’ektining texnik holati (butligi, sozligi) va lizingga oluvchi tomonidan lizingga beruvchining ruxsatisiz uchinchi shaxslarga berib yuborilmaganligi;

- lizingga oluvchining lizing ob’ektidan uning o‘z belgilangan vazifasiga va ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan belgilab qo‘yilgan texnik talablar me’yorlari doirasida foydalanilayotganligi;

- belgilangan muddatlarda lizing ob’ektiga texnik servis xizmatlari yoki kapital ta’mirlash amalga oshirilayotganligi;

- lizing ob’ektining konstruksiyasiga vakolatli organ yoki lizingga beruvchining ruxsatisiz texnik o‘zgartirishlar kiritilmaganligi;

- lizing ob’ektidan jadal yemirilishga olib keladigan darajada foydalanilmayotganligi;

- lizing ob’ektidan moto-hisoblagichni ataylab buzgan holda foydalanilmayotganligi;

- lizing ob’ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va yagona nomer belgisini olinganligi, agar ushbu rusumdagi texnikalar uchun ro‘yxatdan o‘tkazish va yagona nomer belgisini olish amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan bo‘lsa;

- lizing ob’ektiga texnik servis xizmatlarini ko‘rsatilishi bo‘yicha respublika qishloq xo‘jaligi mashinasozligi zavodlarining hududiy (yoki boshqa ta’mirlash) korxonalari bilan tegishlicha shartnomalarning tuzilganligi, agar ularni tuzish shartligi lizing shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa;

- lizing ob’ektini o‘rnatilgan talablar darajasida saqlanayotganligi, agar u saqlovga qo‘yilgan bo‘lsa;

- lizingga oluvchi tomonidan lizing ob’ektini tegishlicha boshqarish huquqini beruvchi guvohnomaga ega bo‘lgan shaxsga boshqaruvga berilganligi;

- lizingga oluvchi tomonidan lizing ob’ekti uchun lizing shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorlarda lizing to‘lovlarining to‘lanayotganligi.

Lizing shartnomasida taraflarning kelishuviga muvofik texnik monitoring predmetining boshka yunalishlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Lizing to‘lovlarining summasi lizingga beruvchining lizing ob’ektini sotib olish uchun qilgan harajatlarining hammasi, lizingga beruvchining daromadi, shuningdek, agar lizing shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, lizing ob’ektini yetkazib berish, belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish, ro‘yxatdan o‘tkazish, texnik servis ko‘rsatish, ta’mirlash bilan bog‘liq bo‘lgan lizingga beruvchining boshqa harajatlaridan iborat bo‘ladi. Lizing to‘lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi. Lizing to‘lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi. Lizing to‘lovlari lizingga oluvchi tomonidan lizing shartnomasida ko‘rsatilgan to‘lov jadvali asosida to‘lanadi. To‘lov jadvali lizing shartnomasining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Lizing to‘lovlari lizingga oluvchining o‘z xohishiga qarab, to‘liq yoki qisman shartnomada belgilangan muddatlardan oldin ham to‘lanishi mumkin. Lizing to‘lovi pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirilganda lizingga oluvchi lizing to‘lovini amortizatsiya ajratmalari, foizlar, komission va qo‘shimcha to‘lovlarga alohida ajratib ko‘rsatish orqali aniqlashtirib beradi. Lizingga oluvchi tomonidan lizing shartnomasining amal qilish muddati tugagunga qadar barcha lizing to‘lovlari lizingga beruvchining lizing shartnomasi muddati tugagunga qadar qolgan davrda oladigan daromadi chegirib tashlangan holda to‘langan taqdirda, agar lizing shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, lizing ob’ektiga bo‘lgan mulk huquqi lizingga oluvchiga o‘tadi.

Shunday qilib, lizing O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning muhim moliyaviy vositasi hisoblanar ekan, uning ko‘magida korxonalarning, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining investitsiya imkoniyatlari ancha kengayadi va yangi sifat pog‘onasiga ko‘tariladi. Amaldagi lizing sohasiga oid qonunchilikda, buxgalteriya hisobotlari, bojxona tadbirlari va me’yoriy

hujjatlarda ba’zi noaniqlik va ziddiyatlar mavjudligiga qaramay, lizing munosabatlarining rivojlanish dinamikasida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda.

§ 15.4. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o‘rni

Xalqaro lizing operatsiyalarining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati bekiyosdir. Yirik xalqaro lizing tashkilotlari xalqaro lizing bo‘yicha keng ko‘lamda xizmatlar taklif qiladilar. Jahonda eng yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan “Ebikliz”ni va Milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa federatsiyasi – “Lizyurop”ni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. “Ebikliz” tashkiloti Gollandiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Frantsiya davlatlaridagi lizing kompaniyalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Bu tashkilot, ko‘pchilik hollarda, xalqaro lizing bitimlarini amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaradi. “Lizyurop” 1979 yilda tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda 17 ta mamlakatning 700 ta lizing kompaniyasini birlashtiradi. Uning tarkibiga Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Shveytsariya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Frantsiya, Italiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya, Gollandiya, Finlandiya davlatlarining lizing kompaniyalari kiradi.

Hozirgi kunda, amalga oshiriladigan xalqaro lizing operatsiyalarining teng yarmi AQSH hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSHda lizing yuksak sur’atlarda rivojlanishining muhim sabablaridan biri - investitsiyaviy soliq imtiyozining mavjudligidir.Xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshlagan. Xalqaro lizing operatsiyalrini rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir etgan: ko‘pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og‘irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarining oshirilishi, moliyaviy inqirozlar, ba’zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar. Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, ular hamkor mamlakat hukumatining valyuta, bojxona va boshqa tartibga solish qoidalari ta’siri ostida bo‘ladi. Xalqaro lizing taraqqiyoti oldidagi to‘siqlarni yo‘q qilish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida turli mamlakat va xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro moliyaviy lizing bo‘yicha Ottava Konvensiyasi 1988 yilning may oyida qabul qilingan. Jahon amaliyotida lizingning taraqqiyoti ko‘p jihatdan davlatlarning

qonunchiligida mavjud to‘siqlar va shart-sharoitlar asosida shakllanib kelmoqda. Bugungi kunda yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan “Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi” va milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa federatsiyasi (Leaseurope)ni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Xalqaro lizing tashkilotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) a’zo mamlakatlar milliy qonunchiligini o‘rganish va taqqoslash;

b) barcha xuquqiy, soliq va moliyaviy masalalarni hal etishda ko‘maklashish;

c) lizing bitimlarining shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish;

d) lizing firmalarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘rganish.

80-yillar oxirlariga kelib jahonning 60 ta mamlakatiga tegishli lizing kompaniyalar 150 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritgan. 1965 yilda “Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi” (IFLA) tashkil topgan bo‘lib keyinchalik uning tarkibiga ko‘plab moliya va lizing tashkilotlari birikishni boshlashgan. Bugungi kunda uning a’zolari soni 25 ta[130] lizing tashkilotlaridan iborat bo‘lib, har bir davlat faqat bitta lizing tashkiloti bilan a’zolikka qabul qilinishi mumkin. IFLA a’zolari muhim bo‘lgan xalqaro kredit institutlari bilan uzviy aloqalarga ham ega bo‘lishadi. “Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi” (IFLA)ga a’zo bo‘lish uchun quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- lizing tashkiloti kredit va lizing asosida moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishlari lozim;
- barqaror moliyaviy tizimga ega bo‘lishi;
- lizing tashkilotlari o‘z faoliyati, kuch g‘ayrati bilan assotsiatsiya faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashishi talab qilinadi.

“Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi” (IFLA) o‘zining asosiy maqsadi sifatida, a’zolari o‘rtasida forumlar tashkil etish va bu bilan

[130] Immorent Aktiengesellschaft, Австрия. KBC Lease Group, Бельгия. Китай Лизинг Бизнес Ассоциации Китайской ассоциации предприятий с иностранными инвестициями Предприятия, Китай. CSOB Лизинг как, Чешская Республика. Nordania лизинга, Дания. Piraeus Египет лизинговая компания, Египет. Nordea Finance Финляндии Limited, Финляндия. Ergo, Исландия. Сундарам Finance Limited, Индия. Промышленность и шахты лизинговая компания, Иран. Iccrea Bancalmpresa, Италия. ABN AMRO NV аренды, Нидерланды. DNB Bank ASA, Финанс, Норвегия. Europejski Fundusz Leasingowy SA, Польша. Caixa Лизинг электронной факторинг, Португалия. Лизинговая компания УРАЛСИБ, Россия. BCR Лизинг IFN SA, Румыния. Swedbank Финанс AB, Швеция. Tunisie лизинга, Тунис. Турецкие Финансовая Лизинговая Ассоциация, Турция. УФНА Американская ассоциация финансовых услуг, Соединенные Штаты Америки. HSBC Bank, Великобритания. Лизинг оборудования и финансам ассоциации (ELFA), Соединенные Штаты Америки.

ular o‘rtasida o‘zaro g‘oyalar, bilimlar, malaka va ma’lumotlar almashinuviga zamin yaratishga qaratgan. Bunday o‘zaro almashinuvlar tomonlar manfaatlariga xizmat qilishga yo‘naltirilgan. Assotsiatsiya o‘z faoliyati doirasida a’zolari faoliyat doirasi, ularning moliyaviy natijalari va shu kabi boshqa ma’lumotlarni o‘rganib boradi va o‘z a’zolari faoliyatini qiyosiy baxolaydi. Bugungi kunda yirik lizing markazlaridan yana biri bu Yevropa lizing bozori bo‘lib uning 78 foizi 8 ta (Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Polsha va Shvesiya) mamlakat ulushiga to‘g‘ri keladi, bundan tashqari bu mamlakatlar Yevropa ittifoqi xududida ishlab chiqarish sohasining 78 foizlik ulishiga ega hisoblanadilar. Yevropa ittifoqi (YEI) xududida faoliyat yuritayotgan firmalarni doimiy kuzatuv tahlil jarayoni bilan Yevropa markaziy banki (YEMB) shug‘ullanib boradi.

Bugungi kunda Yevropa lizing bozorining yirik ishtirokchisi bu “Leaseurope” bo‘lib unga 1972 yilda asos solingan. “Leaseurope” hozirgi kunda Yevropa davlatlarining 44 ta assotsiatsiyalarini o‘zida birlashtirgan federatsiya hisoblanadi va Yevropa lizing bozorini 93 foizini egallagan. Bugungi kunda “Leaseurope” Yevropa davlatlaridan tashqari AQSH, Kanada, Avstraliya va Yaponiya kabi davlatlarining lizing assotsiatsiyalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatgan. Yevropa mamlakatlarida 2015 yilda lizing portfelining hajmi 15.1-rasmda keltirilgan.



15.1-rasm. 2015 yilda Yevropa mamlakatlarida lizing portfeli hajmi (mlrd. yevro)[131]

[131] https://cyberleninka.ru/article/n/trends-of-international-lease-market-developing.

“Leaseurope” tamonidan “Leaseurope Index” so‘rovnomasi olib boriladi, bu so‘rovnomada Yevropa davlatlari ixtiyoriy ravishda ishtirok etishadi, shunga ko‘ra 2011 yilda Yevropada texnika va transport sohasiga kiritilgan lizing hajmi mos ravishda 8,4 foiz va 11,7 foizga oshganligi kuzatilgan. Italiya va Fransiyaning ko‘chmas mulk lizing bozorlarining qisqarganligi sababli Yevropa ko‘chmas mulk sohasida lizing hajmi 13 foizga pasaygan. Germaniya, Fransiya va Avstriya iqtisodiyotning ko‘chmas mulk sohasidan tashqari barcha javhalarda o‘sish kuzatilgan.

2012 yilning 3-choragida amalga oshirilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra imzolangan lizing shartnomolarining hajmi 16,6 mlrd. yevroni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning 3-choragiga nisbatan 17,5 foizga pasayganligini ko‘rish mumkin. AQSH lizing bozorida ko‘plab lizing beruvchilarning turlari mavjud bo‘lib, ular izchil tizim asosida faoliyat yuritishadi. Bugungi kunda AQShning eng yirik assotsiatsiyalardan biri bu “Equipment leasing and finance association” (ELFA) bo‘lib, u o‘z tarkibida 575 dan ziyod kompaniyani birlashtirgan.“ELFA” muntazam ravishda “Monthly Leasing and Finance Index” (MLFI-25) nomini olgan har oylik lizing va moliya bozorlari yakuniga bag‘ishlangan ma’lumotlarni e’lon qilib boradi. Shunga ko‘ra kuzatuv tahlili ostidagi kompaniyalarning lizing bozoridagi ulushi 2012 yilning noyabr holatiga ko‘ra 6,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib bu borada o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3 foizga o‘sish kuzatilgan. “ELFA”ning a’zolari tomonidan bugungi kunda kompyuter, tibbiyot, qishloq xo‘jalik, qurilish, tog‘-kon sanoat texnikalari, shaxsiy va yo‘lovchi tashuvchi samolyotlar, vagonlar, yuk tashuvchi va yengil avtomobillar, yirik kemalar va konteynerlar lizingga taqdim etiladi. AQShda lizingning jadal rivojlanishidagi muhim sabablardan biri investitsiyalarga nisbatan beriladigan soliq imtiyozlari hisoblanadi. Jumladan, yangi investitsiyalar yig‘indisining 10 foizgacha bo‘lgan qismi soliq yig‘indisidan chiqarib tashlanadi. Masalan, asbob-uskunalar sotib olish harajatlari 100 ming dollar deylik, soliq imtiyozi 10 foiz, soliq yig‘indisidan 10 ming dollar chiqarib tashlanadi. Lizing shartnomasida soliq imtiyozi Moliya vazirligining ichki daromadlari boshqarmasi tomonidan ijara uchun o‘rnatgan qoidalarga mos kelgan holdagina qo‘llaniladi.

Bugungi kunda Germaniyada ko‘plab lizing kompaniyalarini ko‘rish mumkin. Shulardan taxminan 200 tasi “Bundesverband

Deutscher Leasing Unternehmen” (BDL) nemis lizing assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. Lizing Germaniyada investitsiya mexanizimini harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib yillik investitsiyalarning beshdan bir qismi lizing asosida amalga oshiriladi. 2011 yil Germaniyada amalga oshirilgan lizing hajmi 49,1 mlrd. yevroni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2012 yilda 49,3 mlrd. Yevroga teng bo‘lgan. Texnika vositalariga kiritilayotgan mahalliy investitsiyalarning 22,7 foizi, xorijiy investitsiyalarning 53 foiz qismi lizing asosida amalga oshirilgan. Bugungi kunda Germaniya lizing bozorining 90 foiz qismi to‘laligicha “Bundesverband Deutscher Leasing Unternehmen” (BDL) ishtirokida kechadi. Germaniya lizing bozorida amalga oshirilgan lizing operatsiyalarning tarkibiga etibor qaratadigan bo‘lsa u yerda yirik havo kemalaridan tortib oddiy avtomobillargacha ko‘rish mumkin. Germaniya lizing operatsiyalari tarkibida eni yirik ulishga ega bo‘lgan mahsulot bu yengil va tijorat avtomobillari bo‘lib ular jami lizing portfelining 68,6 foizini tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada lizing nisbatan kech, ya’ni 1970 yildan keyingina keng ko‘lamda rivojlandi. 1981 yildan 1986 yilgacha hukumat korporatsiyalardan olinadigan soliq miqdori 52 foizdan 35 foizga pasaygan. Shu vaqtgacha qo‘llab kelingan 100 foizli soliq imtiyozi (bu imtiyoz birinchi yilga nisbatan qo‘llanilardi) 25 foizli imtiyoz bilan almashtirildi. Korporatsiyalardan olinadigan soliq stavkasi pasaytirilishi bilan lizingga nisbatan qo‘llaniladigan soliq imtiyozining ham ahamiyati pasaydi. Bu esa lizing va uskunalar sotib olish qiymatining pasayishiga olib keladi. Hozirgi kunda ham soliq imtiyozlarining ma’lum qismi saqlanib qolgan. Masalan, birinchi yili ijara to‘lovlari soliqqa tortilmaydi. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada yetakchi lizing uyushmasi bu “Finance & Leasing Association” (FLA) bo‘lib, 2012 yil holatiga ko‘ra uning asosiy a’zolari soni 112 tani tashkil qilgan bo‘lsa ularga xizmat ko‘rsatuvchi a’zolarning soni 83 taga yetgan. 2011 yilda FLA a’zolari tomonidan 72,1 mlrd. funt stirlingga teng miqdorda lizing ajratilgan. FLA a’zolari tarkibiga banklar, qurilish uyushmalari, lizing kompaniyalari, moliya uylari kiradi, ular moliyaviy lizing, operativ lizing, ko‘chmas mulk ijarasi va savdosi, turli kreditlar ajratish kabi xizmatlarni tagqdim etishadi. FLA a’zolari tomonidan 2011 yil oktyabrdan 2012 yil oktyabrgacha bo‘lgan muddat ichida amalga oshirilgan lizing hajmi 20 mln. funt sterlingdan oshgan.



15.2-rasm. Jahon miqyosda amalga oshirilgan lizing operatsiyalari hajmi (mlrd. $)[132]

Xalqaro miqyosda jadal rivojlanayotgan lizing bozorlaridan biri bu Rossiya lizing bozori bo‘lib, 2018 yil yakunlariga ko‘ra uning hajmi 1,35 trln. rubldan oshgan. Lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan yangi lizing operatsiyalari hajmi esa 1276 mlrd. rublni tashkil qilgan. Rossiya lizing bozori mana ikkinchi yildirki, o‘zining eng yuqori cho‘qqisini namoyon qilmoqda. Lizing bozorining bunday o‘sishi temir yo‘l texnikasi va avtolizing hisobiga ta’minlangan bo‘lib, ularning yangi lizing operatsiyalari hajmidagi jami ulushi 61,1 foizni tashkil qilgan. Lizing bozoridagi o‘sishni ta’minlashga xizmat qilgan eng faol 10 ta davlat lizing kompaniyalarining lizing bozoridagi jami ulushi 80 foizga yetgan[133].

§ 15.5. Lizing to‘lovlari summasini aniqlash

Lizing to‘lovlari lizing beruvchiga lizing obyekti qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan, shuningdek lizing beruvchining foizli daromadidan iborat bo‘ladi. Lizing to‘lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi. Lizing to‘lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi. Lizing to‘lovlari xajmini hisoblash lizingning turi, to‘lov usuli va to‘lov shakllari kabi omillarga qarab turli usullarda amalga oshirilishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda lizing

[132] https://cyberleninka.ru/article/n/trends-of-international-lease-market-developing.
[133] Рынок лизинга по итогам 2018 года: новый рекорд. Аналитические материалы. Москва. 20 март 2019 год.

to‘lovlarini hisoblashning bir qator usullari takdim etilgan[134]. MDH mamlakatlari moliyaviy soha mutaxassislari o‘rtasida ma’lum bo‘lgan lizing to‘lovlarini hisoblashning keng tarqalgan usullari bo‘yicha Ye.N. Chekmareva va L.N. Prilutskiylar takliflari diqqatga sazovordir. Xususan, Sh.U. Xaydarov, X.A. Ortikov va X.A. Tuxsanov hammuallifliklarida chop etilgan “Lizing: tan olish, baholash va uning hisobi” kitobida Ye. Chekmareva o‘zining “Lizing biznesi” nomli asarida sobiq ittifoq tugatilgandan keyingi bozor munosabatlari sharoitida lizing to‘lovlarini hisoblash uslubiyatini birinchilardan bo‘lib 1993 yilda chop etgan. Ushbu uslubiyat lizing to‘lovlarining umumiy so‘mmasini hisoblashni amalga oshirish va ular to‘lovi jadvalini tuzish uchun mo‘ljallangan. Risolada, shuningdek, lizing to‘lovlari amortizatsiya ajratmalari, foydalaniladigan zaxiralar uchun to‘lov, komission to‘lovlar va lizingga beruvchining qo‘shimcha xizmatlari uchun to‘lovlardan iborat bo‘ladi[135], deb ta’kidlangan. E. Chekmaryova tomonidan taklif etilgan ushbu uslubiyatni moliyaviy lizing bilan birgalikda tezkor lizing uchun ham qo‘llash mumkin deb hisoblangan. Lizing muddati tugagandan keyin lizing mol-mulki qoldiq qiymati va moliyaviy lizing bitimi muddatdan oldin yopilishini hisoblashning o‘ziga xos varianti keltirilgan. Moliyaviy lizing bitimi muddatdan oldin yopilishi so‘mmasiga qo‘yidagi 3 ta tarkibiy qism kiritilgan:

1) lizing kelishuvi bo‘yicha lizing to‘lovlarining barcha to‘lanmagan so‘mmasi;

2)lizing muddati tugaydigan paytdagi mol-mulkning qoldik qiymati;

3) lizing kelishuvining amal qilishi tugagandan paytdan boshlab to mol-mulk to‘liq amortizatsiyalanguncha qadar davr bo‘yicha mol-mulkning o‘rtacha yillik qiymati tarzida hisoblangan neustoykaning foizlarda ifodalangan kredit zaxiralaridan foydalanganligi uchun stavka so‘mmasiga va komission haqi stavka so‘mmasiga ko‘paytirilganligi.

So‘nggi yildagi Ye.Chekmarevaning uslubiyati o‘z dolzarbligini birmuncha yo‘qotganligining sababi u ijaraga oluvchi va lizing kompaniyasi o‘rtasidagi o‘zaro bozor munosabatlarini aks ettirmaydi. Boshqacha aytganda, Ye. Chekmareva uslubiyatida ijaraga oluvchining manfaatlari inobatga olinmaydi. Uslubiyat faqatgina lizingni tashkil

[134] Шабашев В.А.. и др. Лизинг: основы теории и практики: учебное пособие. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: КНОРУС, 2007. – 191с., Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». Рсотов н/Д: «Феникс», 1999. – 320с.

[135] Ҳайдаров Ш.У., Ортиқов Ҳ.А.,.Тухсанов Х.А. Лизинг: тан олиш, баҳолаш ва унинг ҳисоби. – Т.: “NORMA” МЧЖ, 2006. – 248 б.

etish va o‘tkazish bo‘yicha lizing kompaniyasining harajatlarini jamlash va uning ustama haqi (marja)ni nazarda tutadi. Lizing to‘lovlari tarkibiga lizing beruvchi tomonidan lizing shartnomasi shartlariga muvofiq, lizing ob’ektini sug‘urtalashga to‘langan sug‘urta to‘lovlari ham kiritilishi yoki uni quyidagi formula bilan izohlash mumkin:

$$\mathbf{LT = AA + KF + VX + QH + ST}$$

bu yerda:

LT – jami lizing to‘lovlari;

AA – lizing beruvchiga to‘lash uchun hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari;

KF – kredit mablag‘lari uchun to‘lanadigan foizlar yoki lizing stavkasi;

VX – lizing beruvchiga lizing ob’ektini sotish bilan bog‘liq vositachilik harajatlari;

QH – lizing beruvchiga lizing ob’ektini yetkazib berish bo‘yicha qilingan, qo‘shimcha harajatlar;

ST – sug‘urta to‘lovlari.

Lizing to‘lovlarida qo‘llanilayotgan hisoblash usuliga qarab quyidagilarni ajratish mumkin:

- lizingga beriladigan uskuna qiymatidan amortizatsiya ajratmalari, lizing uchun foiz, qo‘shimcha takdim etilgan xizmatlar uchun to‘lovlar va lizing beruvchiga har bir davrning ohirida to‘lanishi lozim bo‘lgan komission haqdan iborat bo‘lgan to‘lovlar;
- kelishuv imzolangan paytda mol-mulkni lizingga oluvchi dastavval lizingga beruvchiga belgilangan miqdorda bo‘nak (depozit) taqdim etgan holatlarda, uskuna ishlatilish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida dalolatnoma imzolangandan keyin, lizing to‘lovlarining umumiy summasini (bo‘nak chegiriladi) muntazam badallar orqali to‘lab borganda kuzatiladi;
- hisob-kitob kelishuvida qandaydir sabablarga ko‘ra qandaydir belgilangan foizga asoslangan aniq bo‘lmagan to‘lovlar. O‘zaro kelishuv bo‘yicha lizingga olingan uskunada ishlab chiqarilgan mahsulot sotuvining hajmi, sotuvdan olingan foydaning summasi yoki lizing shartnomasining amal qilish muddatida o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan boshqa parametrlar asos qilib olinishi mumkin.

Davriylik bo‘yicha to‘lovlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– lizing kelishuviga ilova qilingan, kelishuv taraflari tomonidan kelishilgan jadval bo‘yicha to‘lanadigan davriy (har yilgi, har chorakdagi, har oydagi) to‘lovlar;

– agar kelishuvda lizingga beruvchiga bo‘nak to‘lanishi nazarda tutilgan bo‘lsa, bir vaqtda to‘lanishi qo‘llaniladigan to‘lovlar;

– agar lizing kelishuvda bo‘nak to‘lovi nazarda tutilgan taqdirda, u davriy to‘lovlar bilan murakkablashtirilgan bo‘lishi mumkin.

– Lizingga oluvchining moliyaviy holati va to‘lov qobiliyatini inobatga olib, kelishuvda lizing to‘lovlarining turli usullari belgilanishi mumkin va ularga muvofiq quyidagi to‘lovlarni ajratish mumkin:

– teng ulushlar bilan;

– oshib boradigan miqdorlar bilan. Bu asosan lizingni boshlang‘ich bosqichida foydalanuvchi tomonidan lizing to‘lovini kamroq ulushlar bilan kiritish, keyinchalik esa, uskuna o‘zlashtirilib borishi va unda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sur’ati o‘sib borishiga qarab ushbu ulushlarni oshirib borish qulayroq hisoblangan barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lmagan lizingga oluvchilar tomonidan qo‘llaniladi;

– kamayib boradigan miqdorlar bilan (tezlashtirilgan to‘lovlar).

Barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lgan lizingga oluvchilar tomonidan qo‘llaniladi, bunda foydalanuvchi lizingning boshlanish davrida lizingga beruvchiga o‘z qarzining asosiy qismini kiritishni afzalroq ko‘radi.

Lizing to‘lovining asosiy qismini amortizatsiya ajratmalari tashkil etadi. Amortizatsiya ajratmalari foydalanilayotgan lizing ob’ektining jismonan va ma’naviy eskirishi natijasida yo‘qotilgan qiymatni qoplovchi asosiy manba hisoblanadi. Amaliyotda amortizatsiya ajratmalari summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathbf{AA}=\frac{\boldsymbol{BQ}*\boldsymbol{N}}{\mathbf{100}}\,\mathbf{T}$$

bu yerda:

BQ – lizing ob’ektining balans qiymati;

N – amortizatsiya ajratmalari normasi (eskirish koeffitsiyenti);

T – lizing shartnomasi muddati.

Lizing stavkasi lizing beruvchi tomonidan ijaraga olingan mulkdan foydalanganligi uchun to‘lanadigan haq bo‘lib, u lizing beruvchining daromadi hisoblanadi. Lizing stavkasining mazmuni qarzga olingan mablag‘lar (sudalar) uchun to‘lanadigan foizlar bilan bir xildir. Shu sababli uning summasi foydalanilgan kredit uchun foiz hisoblash tartibiga monand ravishda aniqlanadi:

$$\mathbf{KF}=\frac{\boldsymbol{KM}*\boldsymbol{FS}}{\mathbf{100}}$$

bu yerda:

KM – kredit hajmi;

FS – foiz stavkasi darajasi.

Ma’lumki, lizing beruvchi lizing kompaniyalari yoki banklar lizing ob’ektini sotib olish bilan bog‘liq marketing, transport va xodimlarga ish xaqi to‘lash kabi harajatlarni amalga oshiradi. Ushbu harajatlar vositachilik harajatlari bo‘lib, u lizing to‘lovlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu harajatlar lizing beruvchiga lizing oluvchi tomonidan to‘lanadigan xizmat ko‘rsatish mukofoti ham deyiladi. Vositachilik harajatlarining miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{VX}=\frac{\boldsymbol{KM}*\boldsymbol{VS}}{\mathbf{100}}$$

bu yerda:

KM – kredit hajmi;

VS – vositachilik harajatlari stavkasi. U umumiy vositachilik harajatlari summasini to‘lov davriga bo‘lib topiladi.

Bundan tashkari, lizing beruvchi lizing ob’ektini saqlash, uni lizing oluvchiga yetkazib berish, o‘rnatish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha xodimlarni o‘rgatish va turli maslahatlar berish kabi qo‘shimcha harajatlar kiladi. Ko‘shimcha harajatlar o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

$$\mathbf{QX = SX + KX + RX + BX}$$

bu yerda:

SX – xizmat safari harajatlari;

KX – ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha harajatlar;

R – reklama harajatlari;

BX – boshqa harajatlar.

Bugungi kun amaldagi me’yoriy hujjatlarga asosan, lizing oluvchi lizing to‘lovlarini amalga oshirayotganida uning amortizatsiya ajratmalariga, foizlarga, vositachilik va qo‘shimcha to‘lovlarga alohida ajratib ko‘rsatgan holdagi yoyilmasini ilova qilishi shart. Lizing to‘lovlari kelib tushganidan keyin, bank uning yoyilmasiga mos ravishda buxgalterlik o‘tkazmalarini amalga oshiradi: amortizatsiya ajratmalari lizing hisobi yuritiladigan ssuda hisobvarag‘ining kreditiga o‘tkazish orqali kreditni to‘lashga yo‘naltiriladi, lizing uchun foiz, vositachilik haqi va boshqa to‘lovlar bank daromadiga qo‘shiladi. Bu yerda shuni qayd etib o‘tish kerakki, lizing to‘lovlari lizing shartnomalaridagi kelishuvlarga muvofik, har bir ayrim holatlar bo‘yicha turlicha hisoblanishi mumkin. Masalan, ayrim hollarda lizing oluvchiga imtiyozli davr belgilanishi, ba’zi hollarda lizing to‘lovini kechiktirib to‘lashga kelishiladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa lizing

to‘lovlari lizing oluvchi tomonidan tomonlar kelishuviga muvofiq tuzilgan va lizing shartnomasining ajralmas qismi bo‘lgan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi. Lizing to‘lovlarining shakli lizingga olingan uskunada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishidan kelib tushgan pul mablag‘laridan amalga oshirilishi va takomillashtirilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda lizing to‘lovlarini hisoblashda pul mablag‘larining oqimi (PMO) usulidan ham foydalanib kelinmokda. Koeffitsiyentlar usuliga muvofiq bo‘lish bilan bir qatorda, tarkibiy qismlar (yuqorida keltirilgan dastlabki usul) usuliga muvofiq bo‘lgan hamda lizing kompaniyalari o‘zlarining harajatlarini qoplash uchun lizing to‘lovlaridan tushgan pul mablag‘lari yetarli ekanligini aniqlash uchun albatta qo‘shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirishlari lozim. Xalqaro Moliya Korporatsiyasining lizingni rivojlantirish bo‘yicha iqtisodchisi Veronika Shtelmax avvalambor, lizing kompaniyasining pul oqimlariga asoslanishni taklif etadi. Bunda lizing shartnomasining muayyan davrida lizing kompaniyasining harajatlari va lizing kompaniyasi tomonidan qo‘shib beriladigan komission haqi hisobga olinadi, xolos. Lizing kompaniyasining lizingga taalluqli bo‘lmagan faoliyatidan olingan daromadlar va harajatlari hisobga olinmaydi. Biroq PMO usulining tarkibiy qismlar usulidan farqlari mavjud. Nihoyat kredit bo‘yicha foizlar kreditlash davri bo‘yicha uning o‘rtacha qismi bo‘yicha emas, balki ssuda qarzining qoldig‘i bo‘yicha hisoblanishi lozimligi e’tirof etiladi.

V.Shtelmax lizing to‘lovining asosiy tarkibiy qismi deb, bitimni amalga oshirish uchun olingan bank krediti bo‘yicha to‘lovlarni oladi, moliyalashtirishning kredit so‘mmasi lizingga beriladigan mol-mulkning qiymatiga teng degan fikrlarni ilgari surgan. Bu barchamizga ma’lum bo‘lgan kreditni qoplash jadvali, ya’ni asosiy qarz qismini qoplaydigan to‘lovlar va qoplanmagan qismi bo‘yicha foizlardan iborat bo‘lgan teng miqdordagi to‘lovlardir. Bunday jadvalni hisoblash uchun qo‘yidagi formulani qo‘llaymiz:

$$\mathbf{g = [1 - 1 : (1 + r)^n]}$$

bu yerda:

g – vaqt davri bo‘yicha birlik ulushi kurinishidagi kredit stavkasi (vaqtning barcha davrlari uchun bir xil);

n – to‘lovlar mikdori.

Lizing amaliyotida yuqorida keltirilgan lizing to‘lovlarini hisoblash usullarini o‘zaro taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullarni o‘zaro taqqoslash uchun avvalo, lizing to‘lovlarining xajmini

davrlar bo‘yicha solishtirma holatga keltirish kerak. Lizing to‘lovlarining hajmi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ushbu kriteriyning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, korxona tomonidan usullarning noto‘g‘ri tanlanishi uning to‘lovga qobiliyatliligining pasayishiga olib keladi. Bu esa, lizing shartnomasining ikkala tomon uchun ham salbiy holatni keltirib chiqaradi. Quyida keltirilgan 15.1-jadvalda oldindan ma’lum bo‘lgan bir xil ma’lumotlarga asoslanib turli xil usullar yordamida hisoblangan lizing to‘lovlarining miqdori ko‘rsatilgan.

15.1-jadval

Turli usullar yordamida hisoblangan lizing to‘lovlari miqdorining taqqoslama tahlili, ming so‘m

To‘lovlar tartib raqami	Lizing to‘lovlari hisoblangan usullar		
	Tashkil etuvchilar	PMO	Koeffitsiyentlar
1	12851,282	38217,84	13187,86
2	12851,282	37822,54	13187,86
3	12851,282	37428,20	13187,86
4	12851,282	37033,12	13187,86
5	12851,282	1237,82	13187,86
6	12851,282	990,02	13187,86
7	12851,282	742,22	13187,86
8	12851,282	495,60	13187,86
9	12851,282	247,80	13187,86
10	12851,282	-	13187,86
11	12851,282	-	13187,86
12	12851,282	-	13187,86
Jami	154215,38	154215,38	154245,32

PMO va tashkil etuvchilar usuli to‘lovni amalga oshirish vaqtiga qaramasdan o‘z mohiyatini o‘zgartirmaydi. Bulardan farqli ravishda koeffitsiyentlar usuli agarda to‘lov lizing muddatining oxirida emas, aksincha boshida (prenumerando annuiteti) amalga oshirilsa, formulaga ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritilishi talab etiladi. Tashkil etuvchilar va koeffitsiyentlar usuli lizingga oluvchining zimmasiga bo‘lgan to‘lov og‘irligini lizing shartnomasining butun muddati davomida teng taqsimlanishini ko‘rsatib berdi. PMO usulida esa asosiy og‘irlik lizing muddatining dastlabki oylariga to‘g‘ri keladi. Lizing to‘lovlarini hisoblashning ushbu sxemasi ko‘p yillik ish faoliyatiga ega bo‘lgan, barqaror korxonalar tomonidan qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunday korxonalarning pul

mablag‘lari oqimi asosan boshqa manbalardan akkumulyatsiyalanadi (jamlanadi) hamda ushbu oqimning asosiy bo‘lmagan qismini tashkil etadi.

Ushbu usulni teskari holatda, ya’ni pul mablag‘lari oqimi to‘liq shakllantirilmagan yoki lizing ob’ekti pul mablag‘lari oqimining katta qismini ta’minlagan korxonalarda qo‘llanilsa mijozning to‘lovga qobiliyatsizligi xavfi paydo bo‘ladi. Qo‘yidagi keltirilgan 15.2-jadvalda har bir metodning afzalliklari va kamchiliklari hamda dastlabki belgilari ifodalangan bo‘lib, ular orkali lizingga oluvchilar o‘z faoliyatlarida to‘lovlarni qaysi usullar yordamida hisoblashlarini aniqlab olishlari mumkin. Respublikamizda lizing to‘lovlarini hisoblaganda bir qator o‘ziga xos xususiyatlar e’tiborga olinadi.

Lizing to‘lovlariga oid ta’rif O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 590-moddasida va “Lizing to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasida bayon qilingan. Shularga asosan, lizing to‘lovlarining umumiy yig‘indisi lizing shartnomasiga asosan berilayotgan mulkning umumiy bahosi yoki shunga yaqin qiymat o‘rnini to‘ldiruvchi so‘mma, lizingga beruvchining ma’lum loyihaga asosan lizing ob’ektini harid qilish uchun foydalanilayotgan kredit zaxiralari badaliga to‘lanadigan so‘mma va lizingga beruvchining vositachilik haqi, lizingga beruvchining shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa sarf-harajatlari (lizing asosida ijaraga berilayotgan mulkka texnik xizmat ko‘rsatish, xodimlarni o‘qitish kabi harajatlar)dan iborat. Shartnomada lizing to‘lovlari summasi, shuningdek ularni to‘lash muddatlari aks ettiriladi.

15.2-jadval

Lizing to‘lovlarini hisoblash usullarining qiyosiy tavsifnomasi

Tavsif-noma	**Usullar**		
	Tashkil etuvchilar	**PMO**	**Koeffitsiyentlar**
Afzal-liklar	1. Yuqori darajadagi aniqlik. 2. Buxgalteriya hisobini yuritishning soddaligi. 3. Tarkibiy elementlarni hisoblashning turli usullarini birlashtirish imkoniyati mavjudligi 4. To‘lovlarni davrlar bo‘yicha ko‘chirib o‘tkazish usulining soddaligi	1. Yetarli darajadagi aniqlik. 2.Harajatlarning paydo bo‘lishi va ularni tulash vaqtlari urtasida o‘zilishlar mavjud emas. 3.Tarkibiy elementlarni hisoblashning turli usullarini birlashtirish imkoniyatining mavjudligi	1. Pulning vaqtinchalik qiymati e’tiborga olinadi. 2. Mexnat sig‘imi darajasining pastligi

Kamchi-liklar	1. Mexnat sig‘imi darajasining yuqoriligi	1.Qo‘shimcha soliq og‘irligining yuzaga kelishi 2. Asosiy to‘lovlar lizing muddatining boshlariga to‘g‘ri keladi	1. Buxgalteriya hisobini yuritishning murakkabligi. 2.Tashkil etuvchilar usuli bilan qayta hisoblash ishlarining amalga oshirilishi past darajadagi aniqlik
Qo‘llaniladigan asosiy holatlar	1. Lizingga oluvchi lizing operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha tajribaga ega emas. 2. Lizingga oluvchi yangi tashkil etilgan korxona. 3. Lizing ob’ekti pul mablag‘lari oqimlarini shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi 4. Lizingga oluvchida soliqlarni rejalash-tirishning boshqa yo‘llari mavjud bo‘lmaydi.	1. Lizingga oluvchi lizing operatsiyalarini olib borish tajribasiga ega emas yoki tajribasi juda kam. 2. Lizingga oluvchi barkaror moliyaviy holatga ega. 3.Lizing ob’ektini o‘rnatish va ishga tushirish lizingga oluvchining ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatmaydi. 4. Lizing kompaniyasi parallel ravishda bir qancha lizing shartnomasini amalga oshira oladi. 5.Lizing shartnomasining muddati bank tomonidan lizingga beruvchini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit muddatiga mos keladi.	1. Lizingga oluvchi lizing operatsiyalarini olib borishda yuqori tajribaga ega. 2. To‘lovlar lizing sxema-sini amalda qo‘llash sama-radorligining dastlabki baholanishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. 3. Lizing ob’ekti pul mablag‘lari oqimlarini shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. 4. Lizingga oluvchi kuchli buxgalteriya hiso-biga va soliqlarni reja-lashtirishning rivojlangan tizimiga ega bo‘ladi

Odatda lizing to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitob qilishda umumiy to‘lov so‘mmasi oldindan belgilangan to‘lanmalardan foydalaniladi. Bu hol lizing to‘lovi amortizatsiya ajratmalari, olingan qarz mablag‘lari uchun to‘lanadigan foiz hamda lizing kelishuvi jarayonida ko‘rsatiladigan xizmat haqini o‘z ichiga oladi. Ushbu holatlar, shuningdek, lizingga oluvchining loyiha bo‘yicha sarflangan harajatlarini hisob-kitob qilish orqali olib boriladigan lizing kompaniyasi marjasini aniqlash chog‘ida ham e’tiborga olinadi.

Agar lizing shartnomasida lizing ob’ektini sotib olish holati ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda o‘zaro tomonlar kelishuvi asosida mulkning qoldiq qiymatiga teng yoki teng bo‘lmagan ulushlarda lizing to‘lovlariga kiritilishi ham mumkin. Shu tarika lizingga oluvchi sub’ekt lizing ob’ektini sotib olishni hisobga olgan holda, lizing to‘lovlarining umumiy so‘mmasini kamaytirishi mumkin. Demak, lizing to‘lovlarini qay tariqa amalga oshirish usulini tanlashda lizingga oluvchining moliyaviy imkoniyati, loyihaning iqtisodiy samaradorligi,

shuningdek, lizingga oluvchi faoliyat yuritayotgan tarmoqdagi va moliya bozoridagi holat e’tiborga olinishi lozim.

Tayanch so‘z va iboralar

Lizing, moliyaviy lizing, operativ lizing, moliyaviy lizing, mulkiy munosabatlar, renting, xayring lizing ob’ekti, lizing sub’ekti, lizing oluvchi, lizing beruvchi. lizing to‘lovlari summasi, milliy lizing, xalqaro lizing.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Lizing deganda nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy lizingni o‘ziga xos xususiyatlari
3. Operativ lizingdan qanday holatlarda foydalaniladi?
4. Xalqaro amaliyotda lizingni qanday turlari mavjud?
5. “Lizing to‘grisida”gi qonun qachon qabul qilingan?
6. Lizing to‘lovlarini amalga oshirish tartibi
7. Xalqaro moliyaviy lizingni iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o‘rni

XVI BOB. INVESTITSIYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH

§ 16.1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati
§ 16.2. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari, loyihaviy moliyalashtirish turlari
§ 16.3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish
§ 16.4. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash xususiyatlari

§ 16.1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati

Loyihani moliyalashtirish – bu investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, bunda loyiha ishlab chiquvchilarning qarzlariga xizmat ko‘rsatish manbai loyiha tomonidan ishlab chiqarilgan pul oqimlari hisoblanadi. Ushbu turdagi investitsiyalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, xarajatlar va daromadlarni baholash loyiha ishtirokchilari o‘rtasida xavf taqsimotini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.Loyihaviy moliyalashtirish mazmunini o‘rganishda ba’zi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Rossiyalik iqtisodchi olim I.Mazurning “Upravleniye proyektami” kitobida: “**loyihaviy moliyalashtirish** – bu investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni kredit ko‘rinishida taqdim etishdir”, deb ta’rif berilgan. Bu yerda, kredit qarz oluvchiga nisbatan hech qanday regressiz, cheklangan yoki to‘liq regressli bo‘lishi mumkin, deb yozilgan.

D.Morozovning fikricha esa, “**loyihaviy moliyalashtirish** – bu loyihani turli shakllarda kreditlashdir, bunda kreditlarning qaytarilishi ta’minoti loyihadan keladigan daromadlardir”, degan fikr ilgari surilgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olim D.G‘ozibekovning mulohazalariga ko‘ra, “**loyihaviy moliyalashtirish** o‘zining murakkab moliyaviy munosabatlari bilan (sindikatlashtirilgan kredit yoki qarz berishda ko‘p tomonlarning qatnashishi) kreditorga moddiy kafolatlar berish, loyihalar evaziga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni harid qilish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomalar asosida moliyalashtirishdir”. Haqiqatdan ham investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish moliyalashtirishning eng taraqqiy etgan zamonaviy shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bois ham u boy mazmunga ega. Aytish joizki, loyihaviy moliyalashtirish – loyiha bo‘yicha asosiy vositalarni sotib

olishni, tashkil etishni yoki qurilishni moliyalashtirish bo‘lib, unda kreditor asosan quyidagilarga e’tibor beradi:

- kreditni qaytarish manbasi sifatida, loyihani tatbiq etish natijasi bo‘yicha olinadigan sof pul oqimiga (mablag‘larning qaytish darajasiga);

- loyihani moliyalashtirish uchun berilgan kreditning xavfsiz qaytishini ta’minlaydigan manbasiga, ya’ni mijozning qobiliyatiga garov, kafolat va boshqa ta’minotlarga”. Loyihaviy moliyalashtirish mazmuni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining yo‘riqnomalarida quyidagicha izohlanadi: “**loyihaviy moliyalashtirish** – bu bank tomonidan kreditni berish, baholash va monitoringini olib borish jarayoni bo‘lib, bunda kredit ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarining normal ishlashi uchun qurilish, qayta ta’mirlash yoki texnik qayta qurollantirish, shu jumladan, asbob-uskunani sotib olish yoki asosiy fondlarni tashkil etish hamda ishchi kapitalni sotib olishga yo‘naltiriladi”. Loyihani amalga oshirish orqali ko‘rilgan qo‘shimcha daromad kreditni qaytarishning asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi. Agarda loyihani amalga oshirish orqali qo‘shimcha daromad olinmasa yoki loyiha bo‘yicha ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali iqtisodga erishilmasa, bunday moliyalashtirishni loyihaviy moliyalashtirish deb bo‘lmadi, u biznes-reja asosida amalga oshiriladigan moliyalashtirish hisoblanadi.

Loyihaviy moliyalashtirish – bu regressiz (talab, huquq) yoki qarzdorga bo‘lgan kreditning chegaralangan regressida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun maqsadli kreditlash bo‘lib, bunda qarz oluvchining to‘lov majburiyatlarini ta’minoti sifatida, investitsiya faoliyati davomida to‘plangan (investitsiya loyihasiga aloqador aktivlar ham kiradi) pul mablag‘lari hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditni qaytarishning manbai bo‘lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan daromad (foyda) hisoblanadi. Tijorat yoki investitsiya kreditida esa kreditning qaytarish manbasi bo‘lib, qarzdorning umumiy faoliyatidan olgan doromadi bo‘lishi mumkin. Kreditni qaytarishning asosiy manbai loyihani hayotga tatbiq etishdan olingan sof foyda va pul oqimlari hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirishda aniq bir sof ta’minotning o‘zi bo‘lmaydi. Ammo bu loyihaviy moliyalashtirishda kredit bo‘yicha ta’minot talab etilmaydi, degani emas. Loyihaviy moliyalashtirishda aniq bir garovning bo‘lmasligi loyihalarni yirik miqdorda mablag‘ jalb etishi kerakli kafolat yoki garovni yig‘ish imkoniyatini bermaydi. Loyihaviy

moliyalashtirish – bu bank tomonidan kreditni berish, baholash va monitoringini olib borish jarayoni bo‘lib, bunda kredit ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarining normal ishlashi uchun qurilish, qayta ta’mirlash yoki texnik qayta qurollantirish, shu jumladan, asbob-uskunani sotib olish yoki asosiy fondlarni tashkil etish hamda ishchi kapitalni sotib olishga yo‘naltiriladi deb e’tirof etilgan.

Umuman olganda, loyihaviy moliyalashtirish – bu investitsiya loyihalarini kreditlashtirishning bir turi bo‘lib, kreditor bu loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq risklarni qisman yoki to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Agar banklarning oddiy kredit operatsiyalarida, eng avvalo, qarzdorning kreditga qobiliyatliligini o‘rganishga, uning moliyaviy va iqtisodiy holatini, barqarorligini, shuningdek, garov sifatida foydalanadigan mol-mulklarni baholashga asosiy ahamiyat berilsa, loyihaviy moliyalashtirishda esa loyihaviy tahlilga asosiy e’tibor qaratiladi. Xullas, loyihaviy moliyalashtirish – bu yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bir qancha bank resurslarining birlashishi va risklarning loyiha ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishini anglatadi. Loyihaviy moliyalashtirishda investitsion loyihalarning ko‘plab xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

• qiymati yuqori bo‘ladi;

• loyiha ishtirokchilarini ko‘pligi;

• ko‘pincha risklarni barcha turlari uchraydi (tizimli va tizimsiz);

• kapital talabi – bu kabi loyihalar moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan talab juda katta bo‘lib, unga aralash moliyalashtirish usullaridan foydalaniladi;

• loyihalashtirish va qurilish ishlariga mehnat talabi katta bo‘ladi;

• ishga tushish muddati 5 – 7 yil va undan uzoq muddatlarda beriladi;

• loyiha ishga tushadigan joylarini ajratilishi va shu sababli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida qo‘shimcha harajatlarning kiritilishi;

• davlat yoki mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy holatiga ta’siri.

Loyihaviy moliyalashtirishning ahamiyati shundaki:

- birinchidan, u orqali turli manbalar hisobidan yirik miqdordagi mablag‘larni bir joyga birlashtira olish imkoni yaratiladi;

- ikkinchidan, amalga oshirilishi o‘ta murakkab bo‘lgan, lekin, milliy va jahon iqtisodiyoti rivoji uchun ham ahamiyati yuqori bo‘lgan investitsiya loyihalarini ro‘yobga chiqarish ta’minlanadi;

- ichki va tashqi bozordan turli resurslarni nisbatan arzon baholarda keng jalb etib, iste’molchilarga katta miqdordagi sifatli va arzon mahsulotlarni yetkazib berishga erishiladi;

- investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgan davlatning xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalari yanada rivojlanadi;

- investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgan iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar va kreditlarni keng jalb etish orqali davlatning xalqaro kapital harakati va taqsimotida faol ishtirok etishiga erishiladi;

- investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgan davlatning xalqaro bozorda intellektual mulk, innovasion g‘oyalarni qulay va samarali o‘zlashtirishi, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ta’minlanadi;

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va undagi global muammolarning hal etilishi kabilar ta’minlanadi. O‘tgan asrning 80-yillari boshidan G‘arbiy Yevropa davlatlarida qo‘llanila boshlangan loyihaviy moliyalashtirish amaliyoti endilikda butun dunyoda jadal rivojlanib bormoqda va xalqaro kapital harakatida tobora faol ishtirok etib borayotganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa jahonda xalqaro loyihaviy moliyalashtirish (XLM) amaliyotining vujudga kelishi va uning keng imkoniyatlarga egaligi bilan unga bo‘lgan e’tibor va talabning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Yirik loyihalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan quyidagi bir qator omillarni hisobga olish kerak bo‘ladi:

• loyihaning faoliyatini sifatli tekshirib turish maqsadida uni har xil bo‘limlarga bo‘lib o‘rganishni;

• loyiha amalga oshirilayotgan mintaqaning ijtimoiy - iqtisodiy holatini to‘liq tahlildan o‘tkazishni;

• loyihaning fazalarini mustaqil ravishda ishlab chiqishni;

• rejani loyihalashtirish davomida doimiy yangilanishlarni tatbiq etib borishni;

• loyihaning fazalaridagi ehtimoliy yo‘qotishlar va risklarni boshqarish uchun tezkor rejalarini ham rejalashtirishni;

• loyihaning barcha rejalarini doimiy monitoring qilishni;

• yirik loyihalarni takrorlanmasligini hisobga olishni.

Ushbu omillar va ular bilan bog‘liq risklarni ko‘pligi yirik loyihalarni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Risklarni ko‘p bo‘lishiga asosiy sabablardan yana biri bu loyihaning ishtirokchilarining ko‘pligidir.

§ 16.2. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari, loyihaviy moliyalashtirish turlari

Investitsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishda loyihaviy moliyalashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Respublikada sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirishda loyihaviy moliyalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham tijorat banklarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi mavqeining kuchayishi bevosita banklar faoliyatining samaradorligini oshirish zaruriyatini kuchaytirishga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida loyihaviy moliyalashtirish investitsiyalarni moliyalashtirishning taraqqiy etgan zamonaviy usullaridan biri bo‘lib qolmoqda.

16.1-jadval

Loyihaviy moliyalashtirishda qatnashishi mumkin bo‘lgan ishtirokchilar

Ishtirokchilar	Loyihadagi roli
Loyiha homiylari, ta’sischilari	Loyiha natijalariga bevosita qiziquvchi kompaniyalar va jismoniy shaxslar. Ular loyihani oldinga so‘rishadi, turli masalalarni kelishishadi, tegishli ruxsat(noma)lar olishadi.
Yetkazib beruvchi va pudratchilar	Berilgan loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish shartnoma majburiyatlariga egalik qiluvchi kompaniyalar.
Haridorlar	Ko‘pchilik loyihalarda mahsulot ma’lum davrda ochiq bozorlarga olib chiqilmaydi. Bunday hollarda loyiha kompaniyasi alohida haridor yoki ularning guruhi bilan muayyan miqdordagi mahsulotni sotib olish bo‘yicha oldindan uzoq muddatli shartnomalar tuzishgan bo‘ladi.
Loyiha amalga oshirilayotgan mamlakat hukumati	Zaruriy ruxsat beruvchi hujjatlarni berish, haridlarni amalga oshirish, loyihada aksioner, homiy sifatida ishtirok etish, muayyan kafolatlar taqdim etish.
Loyiha boshqaruvchisi	Loyihaning amalga oshirilishiga javob beruvchi menejerlar komandasi, loyihaviy moliyalashtirish bo‘yicha bitmning bosh bo‘g‘ini.
Qarz hisobiga moliyalashtiruvchilar	Loyiha kompaniyasiga resurslarni kelishilgan muddatga va oldindan kelishilgan shartlar asosida qarzga taqdim etuvchi tuzilmalar.
Konsultant va maslahatchilar	Loyihani amalga oshirishning turli aspektlarida moslashuvchanlikni ta’minlaydigan maslahatlar beruvchi ixtisoslashtirilgan kopaniyalar va jismoniy shaxslar.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lgan tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar turli mablag‘lar egalarining loyihani amalga oshirishdagi vazifalarini bilishga da’vat etadi, shu sababli loyihaga mablag‘larni samarali birlashtirishga bevosita ko‘mak beruvchi ishtirokchilarni yuqori natijalarga erishishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi (16.1-jadval).

Loyihaviy moliyalashtirishning jahon amaliyotida turlicha usullari va manbalari mavjud bo‘lib, har bir davlat o‘z iqtisodiy va investitsion siyosati, bozor mexanizmining amal qilish darajasiga qarab, bu usullardan foydalanishi mumkin.

Amalda investitsiya loyihalarining uzoq muddatli bank kreditlarini loyihaviy moliyalashtirishning ayrim omillar va holatlardagi kichik bir shakli sifatida qaraladi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi.

Birinchidan, tijorat banklarining nuqtai nazaridan loyihaviy moliyalashtirish doirasidagi kredit operatsiyalari yuqori riskli operatsiya hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirish tizimida bank qarzdorga regress huquqisiz kredit beradi. Kreditni qaytarish va foizini to‘lash manbasi bo‘lib, investitsiya loyihasini amalga oshirishdan oladigan daromad hisoblanadi. Tijorat banklari risklarni qabul qilganligi uchun mukofot tariqasida yuqori foiz oladi. Shu tariqa bank yuqori riskni sug‘urta qiladi.

Ikkinchidan, loyihaviy moliyalashtirishda asosiy e’tibor investitsiya loyihalarining risklarini baholashga va uni pasaytirishga qaratiladi. Bunday holda asosiy rolni yetakchi bank o‘ynaydi, u o‘zining xodimlari bilan va maslahatchilarni jalb etgan holda investitsiya loyihasining samaradorligini, pul oqimi dinamikasini, mahsulot sotish istiqbolini, loyiha risklarini baholaydi. Loyihaviy tahlil loyihaviy moliyalashtirishda eng asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir.

Uchinchidan, loyihani amalga oshirishda quyidagi ko‘pgina ishtirokchilarning qatnashishi ko‘zda tutiladi:

- loyiha tashabbuskori;
- loyiha kompaniyasi;
- maslahatchilar;
- pudratchilar (bosh pudratchi, subpudratchi);
- uskunani yetkazib beruvchilar;
- sug‘urta kompaniyalari va kafolatchi banklar;

– kreditorlar (banklar)va h.k.

Loyiha kompaniyalarining mavjudligi, uning asosiy belgilaridan biri loyihaviy moliyalashtirish bo‘lib hisoblanadi. Loyiha kompaniyalari loyihani amalga oshirish sharoitida loyiha homiylari tomonidan tashkil etiladi. Agar oddiy kredit operatsiyalarida bank qarzdorning oldingi davrdagi moliyaviy faoliyatining natijalari bilan qiziqsa, investitsiya loyihasini hayotga tatbiq etishda esa bank asosiy e’tiborni loyihani samaradorligini baholashga va loyiha kompaniyasining faoliyatini ta’minlovchi kafolat masalalariga e’tibor beradi. Olingan kredit ta’sischilarning balansida emas, balki loyiha kompaniyasining balansida o‘z aksini topadi. Bu usul “balansdan tashqari” (“of balance sheet”) deb nomlanadi. To‘rtinchidan, loyihaviy moliyalashtirishda kreditor asosiy e’tiborni, shuningdek, loyihani amalga oshirish jarayonining nazoratiga qaratadi. Ko‘p hollarda, bu funksiya kreditorlar tomonidan amalga oshirilsa, ayrim hollarda, bunga maxsus kompaniyalar taklif etiladi. Maxsus kompaniya qarzdor bilan tuzilgan shartnoma asosida loyihani amalga oshirish jarayoni ustidan doimiy nazorat olib boradi, qarzdor o‘z navbatida bu kompaniyaga bajarilgan ishlar xususida davriy hisobot berib turadi. Beshinchidan, loyihaviy moliyalashtirish bozorida banklar turlicha vazifalarni bajaruvchilar sifatida ishtirok etishi mumkin: bank-kreditor sifatida; kafolatchi sifatida; moliyaviy maslahatchi sifatida; lizing institut sifatida va h.k. Oltinchidan, qarzdor uchun loyihaviy moliyalashtirish doirasida olingan mablag‘ o‘z afzalliklari bilan bir qatorda oddiy kreditga nisbatan qimmatga ham tushushi mumkin. U quyidagilar bilan asoslanadi:

– yuqori risk sababli kredit bo‘yicha foiz ham yuqori bo‘ladi, shuningdek, ortiqcha komission harajatlar (loyihani baholash uchun, moliyalashtirishni tashkil etish uchun, monitoring uchun komissiya haqlari) mavjudligi;

– loyiha oldi ishlari bo‘yicha harajatlarning ko‘pligi;

– to‘liq ishlab chiqilgan loyiha oldi hujjatlarisiz bank moliyalashtirish arizasini ko‘rib chiqmasligi;

– qarzdor faoliyati ustidan bank tomonidan qattiq nazoratni o‘rnatilganligi.

Shuning uchun ham, ko‘p hollarda, qarzdor investitsiyalarni moliyalashtirishning oddiy an’anaviy shaklidan foydalanishni lozim ko‘radi. Loyihaviy moliyalashtirishning moliyaviy sxemalarini ikkita

turga ajratish mumkin: parallel moliyalashtirish va bosqichma – bosqich moliyalashtirish;

Birinchi tur moliyalashtirish amaliyotda “Hamkorlikda (qo‘shma) moliyalashtirish” deb ham ataladi, bunda yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun bir nechta kredit muassasalari qarz mablag‘lari ajratadi. Bosqichma – bosqich moliyalashtirishda esa yuqori nufuzga ega bo‘lgan bankning qatnashishi zarurligini talab qiladi. Parallel moliyalashtirishning quyidagi afzalliklari mavjud, ya’ni loyihaviy moliyalashtirishning parallel moliyalashtirish shakli banklarga bir tomondan me’yorlarga amal qilgan holda kredit berish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan kredit risklarini pasaytiradi. Ko‘p hollarda, loyihani moliyalashtirish tashabbuskori sifatida nufuzga ega bo‘lgan tijorat bankining yoki xalqaro moliya institutlarining ishtirok etishi qarzdorning o‘z vaqtida kreditni qaytarishiga qo‘shimcha kafolat beradi. Kredit shartnomasiga qilingan qo‘shimchalarda agar qarzdor moliyalashtirishda ishtirok etayotgan biror kreditor oldidagi to‘lov majburiyatini bajarmasa bosh kreditor kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Investitsiya loyihalarini hamkorlikda (qo‘shma) moliyalashtirishning quyidagi ko‘rinishlari (shakllari) mavjud, ya’ni hamkorlikda moliyalashtirishning ikki shakli ko‘p qo‘llaniladi: mustaqil parallel moliyalashtirish, bunda har bir bank qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuzadi va investitsiya loyihasida o‘ziga tegishli bo‘lgan qismini moliyalashtiradi (subloyiha); ko‘pchilik bo‘lib hamkorlikda moliyalashtirish, bunda barcha kreditorlar to‘planib bitta sindikatga birlashadilar, yagona kredit shartnomasi tuziladi va kredit shartnomasini tayyorlash va imzolashni bank-menedjer amalga oshiradi. Keyingi bosqichda kredit shartnomasini amalga oshirish ustidan nazoratni (ayrim hollarda investitsiya loyihasini umuman amalga oshirishni) hamda zarur hisob-kitob operatsiyalarini sindikat tarkibidagi maxsus bank-agent ma’lum miqdordagi komission haq e’vaziga amalga oshiradi.

Investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyati, asosan, birinchi sinf toifasidagi banklarda investitsiya loyihalarining ekspertizasi bo‘yicha tajribali mutaxassislarning mavjudligi, bank olamida yuqori nufuzga egaligi tufayli loyihalarni kreditlashtirish bo‘yicha ko‘plab arizalar kelib tushadi. Biroq, yirik banklar ham har doim bu loyihalarni ularning balansiga salbiy ta’sir etishi mumkinligi yoki boshqa sabablar oqibatida

moliyalashtira olmaydi. Shuning uchun, ko‘p hollarda, bu banklar loyihani kreditlashtirishning tashabbuskori sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Investitsiya loyihasini samaradorligini baholagani va kredit shartnomasini ishlab chiqqani uchun tashabbuskor bank komission haq oladi. Loyihaviy moliyalashtirishda quyidagi ishlarni bajarish o‘ta muhimdir. Boshqacha ifodalaganda, loyihaviy moliyalashtirishning bosqichlari quyidagicha:

Birinchi bosqich – loyihaning texnik tahlili. Bu bosqichda quyidagi savolga javob berish zarur: loyiha o‘zining boshlang‘ich smeta harajatlariga mos holda amalga oshirilmoqdami? Loyihaviy moliyalashtirishda qarzdorlar tajribali ekspert-injenerlarning (bu ko‘p hollarda maxsus savollarda tavsiyalar beruvchi mustaqil maslahatchilar) tavsiyasiga amal qiladi. Bunday ekspertlarning xulosasi texnik hisobot shaklida tavsiya etilishi va quyidagi holatlarni o‘zida qamrab olishi mumkin: zarur investitsiya miqdorini; kelgusidagi zarur investitsiyalarni (ko‘zda tutilmagan harajatlarni va favqulotdagi zararlarni qo‘shgan holda); loyihaning qaytimi uchun zarur vaqt; zararsizlik nuqtasi; elektr energiya, suv va boshqa harajatlar qiymati; loyihada ishlash uchun xodimlarni o‘qitish imkoniyati; loyiha mahsulotini sotish bozorining mavjudligi.

Ikkinchi bosqich – bu iqtisodiy va moliyaviy tahlil. Loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy tahlili jarayonida loyiha barcha olingan kreditlar bo‘yicha o‘z vaqtida hisob kitoblar uchun yetarlicha foydaga ega bo‘ladimi? degan savolga javob olish zarurdir.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning asosi bo‘lib sof pul oqimini tahlili hisoblanadi. Sof pul oqimi o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: loyiha egalarining aksioner kapitaliga dastlabki investitsiya qo‘yilmalarini va kreditorlarning qarz mablag‘larini; olingan foydani; sarf harajatlarni. Kreditorlar loyihaning iqtisodiy sezgirligini jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan sof qoplash koeffitsiyenti (NPV Coerage Ratio) va umumiy qoplash koeffitsiyenti (Annual Coerage Ratio) kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlashlari mumkin. Loyihalarni moliyalashtirishning uchinchi va to‘rtinchi bosqichlarida homiylarni faoliyatini, risklarni va ularni taqsimlanishini tahlil etadi. Bu bosqichda kreditorlar rahbarlarning faoliyatini va ularning imidjini, loyiha ishtirokchilari uchun risklarning to‘g‘ri taqsimotini o‘rganadi. Davlatning investitsion resurslariga turli soliqlar va majburiy yig‘imlardan tashkil topgan soliqli daromadlari soliqsiz daromadlarining bir qismi, xususiy investitsion resurslarga

iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektlarining turli fondlarda jamlangan mablag‘lari va jismoniy shaxslarning mablag‘lari kiradi.

16.2 – jadval

Investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari tarkibi[136]

Guruhi	Turi	Manblarning guruhdagi tashkiliy tarkibi
Davlat mablag‘lari (resurslari)	O‘zlik	davlat byudjeti
		mahalliy byudjetlar
		byudjetdan tashqari fondlar
	Jalb qilingan	davlat kredit tizimi
		davlat sug‘urta tizimi
	Qarz	davlat qarzdorligi (davlat zayemlari, tashqi qarzlar, xorijiy kreditlar va boshqa shu kabilar)
Korxonalar mablag‘lari (resurslari)	O‘zlik	korxonaning o‘z investitsion resurslari
	Jalb qilingan	badallar, hayriyalar, aksiyalar chiqarish, aksiyalarning qo‘shimcha emissiyasi
		rezidentlar-investitsiya kompaniyalari investitsiya resurslari, jumladan, payli investitsion fondlar
		rezidentlar-sug‘urta kompaniyalari investitsiya resurslari
		rezidentlar-nodavlat nafaqa fondlari investitsiya resurslari
	Qarz	bank va tijorat kreditlari hamda byudjet kreditlari va maqsadli kreditlar
		chet ellik investorlar investitsiya resurslari, jumladan, tijorat banklari, xalqaro moliyaviy institutlar, institutsional investorlar, xorijiy korxonalar

Xorijiy investitsion resurslarga chet el davlatlari, korxolari, xalqaro miliyaviy institutlar mablag‘lari kiradi. Ularning barchasi investitsion faoliyatni moliyaviy ta’minlash manbalari bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ishlab chiqarishni tashkil etish jihatlarini o‘zgartirib, iqtisodiy rivojlanishni xorijiy investitsiyani jalb etish orqali olib boradi. Bunday moliyalashtirish mulkchilikning turli shakllariga mansub xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini yanada samarali bo‘lishiga yordamlashadi, xo‘jalik amaliyotida asta-sekin bosqichma-bosqich iqtisodiy o‘sishni kengaytirishga, xorijiy

[136] Эргашева Ш.. Узоқов А. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2008 йил

investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi, takror ishlab chiqarishni har tomonlama jadallashtirishga imkon beradi, xususiy sektorni investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

§ 16.3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida o‘tgan asrning 80-yillarining boshida loyihaviy moliyalashtirish usullari turli xil moliyaviy operatsiyalarni bajarishda foydalanishi orqali loyiha tashabbuschilariga qarz to‘lovlariga bo‘lgan harajatlarni kamaytirishga va moliya-kredit institutlarining yordamidan foylanishga imkoniyat yaratgan edi. Dastlab, loyihaviy moliyalashtirish Amerika, Kanada, Germaniya va Yaponiya banklari o‘rtasida bo‘lib olingan bo‘lsada, hozirda Shimoliy dengizda neft va gaz qazib olishning keskin rivojlanishi natijasida ular qatoriga Buyuk Britaniya tijorat banklari ham qo‘shildi. Keyinchalik Fransiya, Shveysariya, Gollandiya, Belgiya, Italiya va boshqa mamlakatlar banklari loyihaviy moliyalashtirishning jahon bozorining faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqa boshladi.

Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari loyihaviy moliyalashtirish shakllariga katta talabni vujudga keltirdi, bu talab, eng avvalo, rivojlanayotgan bozorlarga tegishli edi. 1997-1998 yillardagi jahon moliyaviy inqiroziga qadar, loyihaviy moliyalashtirishning jahon bozorida yetakchilikni Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari egallashgan edi. 1996 yilda Gonkongda 19,3 mlrd. doll. qiymatdagi 36 ta investitsiya loyihasi, Indoneziyada 14,1 mlrd. doll. qiymatdagi 72 ta loyiha, Taylandda 9,4 mlrd. doll. qiymatdagi 31 ta loyiha amalga oshirilgan edi. 1996 yilda Osiyo davlatlarida jami 86,2 mlrd. doll. qiymatdagi 400 ta investitsiya loyihasi moliyalashtirilgan. Bu ko‘rsatkich Amerika va Yevropa kontingentlari mamlakatlarinikiga qaraganda ko‘pdir[137]. Aytish joizki, Osiyo davlatlari loyihaviy moliyalashtirishning jahon bozorida birinchilikni yo‘qotishdi va yetakchilikni yana AQSH va G‘arbiy Yevropa davlatlari egallashdi.

Biroq, oxirgi yillarda Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari inqiroz zarbalaridan o‘zini o‘nglab olgach, yana xorijiy investitsiyalarni jalb qilish evaziga iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlashga harakat qilishmoqda. Bunday davlatlar qatoriga, eng avvalo, Xitoy, Indoneziya, Fillipin, Malayziya kabi Osiyo davlatlarini va Sharqiy Yevropa davlatlarini kiritishimiz mumkin. Bu davlatlarda investitsiyalash sur’atlari oxirgi 2-3 yil ichida ancha sezilarli bo‘lib

[137] www.ziyonet.uz маълумотлари асосида

bormoqda. Loyihaviy moliyalashtirishning turli shakl va sxemalari asosida amalaga oshirilgan yirik loyihalarga misol qilib loyihaviy moliyalashtirishning “sof” namunasi bo‘lgan Buyuk Britaniyani Yevropa kontengenti bilan bilashtiruvchi “Yevrotunnel” loyihasini keltirishimiz mumkin. Mazkur loyiha davlat organlari va xalqaro tashkilotlar ishtirokisiz xususiy sektor investitsiyalari asosida amalga oshirilgan. Loyihani moliyalashtirishning umumiy qiymati 7 mlrd. funt sterlingni tashkil etib, loyihada 15 davlatdan 198 ta bank ishtirok etgan[138]. Hozirda loyihaviy moliyalashtirishning globallashuv xususiyatini hisobga olgan holda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) va Jahon banki (JB) tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy boyliklarni qayta ishlash bilan bog‘liq yirik investitsiya loyihalarini, shuningdek, kapital taqchilligi mavjud bo‘lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qator loyihalarni moliyalashtirish uchun keng foydalanib kelinmoqda.

Yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida sindikatli kreditlash shaklidan keng foydalaniladi. Bunda kredit operatsiyalarini tashkil etish jarayonida bank birinchi o‘ringa qarz oluvchining kredit tarixini o‘rganishga, uning iqtisodiy, moliyaviy ahvoliga va ta’minot turlari, garovga berilayotgan mulkni baholashga diqqat e’tiborini qaratsa, loyihaviy moliyalashtirishda esa asosiy e’tibor loyiha tahliliga qaratiladi. Loyihaviy tahlilning asosiy ob’ekti, bu loyihaviy hujjatlar (loyihani texnik-iqtisodiy asosi)dir. Loyihaviy taxlilning asosiy maqsadi – investitsion loyihani moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini aniqlab berish, investitsion loyihaning smeta harajatlari va moliyalashtirish manbalarini aniq belgilash hamda rikslarni baholash va samarali boshqarishdir. Texnik – tashkiliy, huquqiy, ekologik, tijorat iqtisodiy, moliyaviy yo‘nalishlarini loyiha tahlilining asosiy yo‘nalishlariga kiritishimiz mumkin. Dastlab yirik loyihalarni amalga oshirishda ko‘pgina ishtirokchilar jalb qilingan bo‘ladi. Jumladan:

– loyiha tashkilotchilari; tashkilotchilar ta’sis etgan loyihaviy kompaniya;

– kreditorlar (tijorat banklari, bank konsorsiumi); pudratchilar (bosh pudratchi, subpudratchilar); asbob-uskunalarni yetkazib beruvchilar;

– sug‘urta kompaniyalari; loyihaviy kompaniya chiqarayotgan aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib oluvchi institutsional

[138] Ўша ерда

investorlar;

– moliyaviy maslahatchilar; operator-kompaniyalar, ob’ektni ekspluatatsiya (ishlab chiqarish)ga kiritgandan so‘ng, uning investitsion faoliyatini boshqaradi.

Investitsion loyihalarni baholashda loyihaning ishonchligini ta’minlovchi quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

– texnik-iqtisodiy asoslanganlik va moliyaviy rejaning qoniqarligi;

– loyiha tomonidan ishlatiladigan mahsulot va xom-ashyo manbalari va qiymatlarining kafolatganligi;

– loyihaning ma’qul narxlarda yoqilg‘i bilan ta’minlaganligi;

– loyiha mahsulotlari va xizmatlarini sotish uchun bozorning mavjudligi va bozorgacha transport harajatlari ma’qul narxlarda mavjudligi;

– qurilish materiallarini kutilgan narxlarda sotib olish mumkinligi;

– pudratchi, foydalanuvchi va boshqaruvchi personallar tajribali va ishonchligi;

– loyiha ishonchsiz texnologiyalarini o‘z ichiga olmasligi;

– hamkorlar va manfaatdorlar tomonlar bilan shartnomaviy kelishuvlar tuzilgan, litsenziya va ruxsatnomalar olinganligi;

– valyuta rikslarining taqsimlanganligi;

– loyiha qo‘shimcha ta’minoti sifatida qimmatli aktivlarga egaligi;

– yetkazilayotgan resurs va aktivlarning tegishli sifatlari ta’minlanganligi;

– tegishli sug‘urta to‘lovlari qarab chiqilganligi;

– fors-major holatlari, to‘xtab qolishlar xavfi (yetkazib berishda, qurilishda va boshqalar) harajatlarning o‘sishi hisobga olingan va ularning taqsimlanganligi;

– loyihaning investorlarni qoniqtiruvchi ko‘rsatkichlarga egaligi;

– foiz stavkalari va inflyatsiyaning haqiqiy olati hisobga olinganligi.

Haqiqiy investitsion loyiha har doim ham yuqorida sanab o‘tilgan barcha mezonlarga mos kelavermaydi. Yuqoridagi mezonlar loyihaviy moliyalashtirishni muvaffaqiyatli kechishi uchun beshta asosiy tamoyillarni belgilab olishni taqozo etadi: investitsion loyihalarni hayotiyligi; loyihani amalga oshirishda tajribali, kuchli va vijdonli

hamkorlarning ishtiroki; loyiha barcha risklarining hisobi va taqsimoti; barcha xuquqiy jixatlarni tartibga solib borish; loyihani amalga oshirishda sifatli biznes-rejaning mavjudligi va aniq muvofiqlashgan harakat rejalarini ishlab chiqish.

§ 16.4. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash xususiyatlari

Hozirda kredit munosabatlari sohasida banklar faoliyatini birlashtirish zarurati tug‘ilmoqda. Birlashmalarni tashkil etish maqsadlari xilma-xil, lekin ular bank operatsiyalari bo‘yicha xatarlarni qisqartirgan holda katta ko‘lamdagi tadbirlarni moliyalash bilan yoki bitta bank yolg‘iz o‘zi hal qila olmaydigan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq. Uzoq muddatga kredit berish bilan bog‘liq xatarlar mana shunday birlashma ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanadi, bu esa a’zo banklarga o‘zlarining likvid zahiralarini ancha pastroq darajada saqlab turish imkonini beradi. Bunday birlashmalarda kredit, kafolatlash yoki boshqa kredit-moliya operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish uchun tashkil etiladigan bank sindikatlari yoki boshqa bank birlashmalari alohida o‘rin tutadi.

Davlatning sindikatlashtirilgan kreditlarga ehtiyoji eng avvalo byudjet dasturlarini moliyalash zarurligi bilan, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlaridagi davlat korxonalarini modernizatsiyalash va texnika bilan qayta qurollantirishga mablag‘larni investitsiyalash bilan bog‘liqdir. Firma va banklar sindikatlashtirilgan kredit hisobiga, qoida tariqasida, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan, shuningdek, investitsiyalash sohasi bilan, energetika, ekologiya, xom – ashyo resurslarini qazib chiqarish, fan – texnika ishlanmalarini amaliyotga joriy etish va shu kabilar bilan bog‘liq ehtiyojlarni moliyalashtiradilar.

Bank sektorini yanada isloh qilish va erkinlashtirishning davlat dasturlarida tijorat banklarining investitsiyalanadigan loyihalarni moliyalash, shu jumladan, xorijiy bank sarmoyasini jalb etgan holda moliyalash uchun sindikatlashtirilgan kreditlar berish tizimini rivojlantirilishi ko‘zda tutilgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiyalash loyihalarini sindikatlashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi 2005 yil 16 iyulda qabul qilingan Nizomga muvofiq, sindikatlashtirilgan kredit deganda yirik investitsiya loyihalarini bir necha banklar tomonidan birgalikda kreditlash tushuniladi. Respublikamiz Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan “Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini

sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi” nizomda olingan kreditni qaytara olmaslik xatarini oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta’minotga ega bo‘lishi kerakligi ta’kidlanib, mulk yoki qimmatli qog‘ozlar garovi, bank yoki sug‘urta tashkiloti kafolati, uchinchi shaxsning kafilligi kabilarni ta’minot sifatida qabul qilinishi belgilangan. Lekin, sindikatlashtirilgan kreditda yuqorida ta’kidlaganimizdek, kredit summasining katta miqdorda bo‘lishi qayd etilgan ta’minot turlarini har doim ham yig‘ish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun ko‘p hollarda loyiha ob’ekti garov hisobida qabul qilinadi. Hozirgi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning yangi usuli sinditsirlashtirilgan kreditlash (sindikatga uyushgan bir necha kreditorlarning kreditlari majmui) paydo bo‘ldi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu so‘zning aniq atamasi yo‘qligi sababli, ko‘pchilik hollarda moliyalashtirishning bu turini sindikatlashtirilgan kredit deb ham ataladi.

Sindikatlashmoq, sindikat tuzib birlashmoq ma’nosini bildirib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida yirik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirishni tashkil etish usullaridan birini anglatadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashtirilgan kreditning asosiy xususiyati shunday iboratki, bunda bir necha kreditorlarning mavjudligi, moliyalashtirish uchun berilgan kredit summasi va u bilan bog‘liq risklarning ishtiroki kreditorlar (banklar) o‘rtasida taqsimlanishidadir. Investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashtirilishi mumkin bo‘lgan kreditlarga loyihaviy moliyalashtirish ham kiradi.

Loyihaviy moliyalashtirishda kreditni qaytarishning manbai bo‘lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan foyda hisoblanadi. Moliyaviy globalizatsiya davrida investitsiya loyihalarini xalqaro kreditlash jarayonida loyihaviy moliyalashtirish tobora samarali moliyalashtirish shakli bo‘lib kelmoqda. Loyihaviy moliyalashtirish deganda odatda bank tomonidan investitsiya loyihasini moliyalashtirishdagi maxsus kreditlash turi tushunilib, bunda regressiz yoki qarzdorga bo‘lgan kreditning chegaralangan regressida yirik investitsiya loyihalarini maqsadli moliyalash (kreditlash) tushunilib, bunda qarz oluvchining to‘lov majburiyatlarining ta’minoti bo‘lib, mazkur loyiha faoliyatidan olgan daromadlari hamda bu loyihaga taaluqli aktivlar hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirishda ko‘pchilik loyihani moliyalashtirishning sindikat

kreditlari shakliga zarurat sezmoqda. Bunda kredit bitimi shartlarini tashabbuskor bank o‘rnatadi va u boshqa banklarni bu loyihani moliyalashtirishda ishtirok etishni taklif etadi. Sindikatlashgan kredit bo‘yicha foiz summasi qoidaga ko‘ra suzib yuruvchi stavkada hisoblanadi va baza qilib esa LIBOR (London Inter Bank Offered Rate – Londondagi banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavka) stavkasini olishadi va unga bank marjasi qo‘shiladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish (realizatsiya qilish) nuqtai nazaridan moliyalashtirish muddatini va ob’ektni qurish (yaratish) vaqtini kelishib olish muhimdir. Ob’ektni ishlab chiqarish quvvatlariga yetkazish va ishlash muddatining amalga oshirilishi investitsiya loyihasini moliyalashtirish vaqtini (muddati) shakllantiradi. Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Yevropa banklari tomonidan qo‘llaniladigan kreditlashtirishning maksimal muddati 10-15 yilni tashkil qiladi. AQShda esa bu muddat kamroq 7-12 yil. Agar loyihani moliyalashtirish muddati yetarlicha bo‘lmasa, u holda moliyalash tarkibini kreditlashning real imkoniyatlariga o‘zgartiriladi. Shuningdek, alohida banklar ham kafil bo‘lib chiqishlari mumkin. Bunday holat xalqaro kredit tashkilotlari yoki eksport-import kreditlarini sug‘urtalovchi milliy agentliklar tomonidan loyiha moliyalashtirilganda ko‘proq yuz beradi. Bunda sindikatishtirokchi banklar kreditor foydasiga akkredetiv ochishlari yoki kafolat berishlari mumkin.

Bunday moliyashtirishdan foyda nima? Unda qarz oluvchi moliyalashni kamroq risklar bilan oladi, ya’ni kreditlar riski tijorat bankiga o‘tadi. 90-yillar birinchi yarmi jahon xo‘jaligi uchun yuqori iqtisodiy o‘sish darajasi bilan harakterlanib, loyihani moliyalashtirish shakllariga katta talab uyg‘otdi. 1997-1998 yillardagi moliyaviy inqirozlargacha loyihani moliyalashtirishning jahon bozorida Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilib keldi. 1996 yilda Gonkongda 36ta qiymati 19,3 mlrd. dollarlik, Indoneziyada 72 ta qiymati 14,1 mlrd. AQSH dollarlik, Taylandda 31 ta qiymati 9,4 mlrd. dollarlik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Umumiy 1996 yilda Osiyo mamlakatlarida 400 ta qiymati 86,2 mlrd. AQSH dollarlik investitsion loyihalar moliyalashtirildi. O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosan tijorat banklari, byudjet mablag‘lari va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilib, yangi zamonaviy asbob-uskuna keltirishga, qurilish va ta’mirlash-montaj ishlariga, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab

chiqarishga va eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ob’ektlar qurishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun chet el investitsiyalari va xorijiy moliya institutlarining kredit liniyalari hisobiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishni tashkil etish lozimdir. Investitsion loyihalarning turlicha klassifikatsiyalari mavjud bo‘lib, belgilariga qarab investitsion loyihalarning quyidagi ko‘rinishlarini ajratish mumkin.

1. Amalga oshirish muddati bo‘yicha: qisqa muddatli – 3 yilgacha**,** o‘rta muddatli – 3-5 yil**,** uzoq muddatli – 5 yildan ortiq.

2. Ko‘lami bo‘yicha (ko‘p hollarda loyiha masshtabi investitsiya hajmi bilan aniqlanadi): kichik loyihalar; o‘rtacha loyihalar; yirik loyihalar; megaloyihalar.

3. Asosiy yo‘nalishi bo‘yicha: tijorat loyihalar; ijtimoiy loyihalar; ekologik loyihalar va boshqalar.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash texnik, texnologik, moliyaviy, tarmoq yoki hududiylik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagidan iborat:

– loyihani uning butun hayot sikli davomida ko‘rib chiqish;

– pul oqimlarini modellashtirish, bunda loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq barcha pul tushumlari va hisobot davridagi turli valyutalarni ishlatish ehtimolligini hisobga olgan holdagi harajatlar kiritiladi;

– ishonchlilik va maksimum samara.

Investitsion loyiha investor nuqtai nazaridan samarali deb baholanishi uchun, birinchidan, uni amalga oshirish ijobiy bo‘lishi, ikkinchidan, alternativ loyihalarni solishtirish chog‘ida yuqoriroq samaraga ega bo‘lgan loyihani ma’qul qo‘rish lozim.

– vaqt omili hisobi;

– loyihani amalga oshirishdagi kutilayotgan harajatlar va tushumlar hisobi;

– baholashning ko‘p bosqichligi;

– inflyatsiya ta’siri va loyihani amalga oshirishdagi bir nechta valyutalarni qo‘llash ehtimolini hisobga olish;

– noaniqlik va risklar ta’sirining hisobi;

– loyihaning turli ishtirokchilari borligini inobatga olish.

Investitsiya loyihalarini har tomonlama (xususan moliyaviy, texnologik, tashkiliy, muddati va boshqalar) harakterlash mumkin.

Bularning har biri investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhimdir, lekin ko‘p hollarda investitsiya faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy mezonlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mamlakatda investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonini samarali olib borish, kelgusida yuqori daromad keltirib, iqtisodiyotdagi ishsizlik masalasini hal etishda ham muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, sinditsiyalashtirilgan kredit deganda bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash. Yirik investitsiya loyihasi – umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasidir. Bank sindikati sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o‘rtasida o‘zaro kelishuv bo‘lib, bunda yetakchi bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas’uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob varag‘iga xizmat ko‘rsatuvchi bank hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra sinditsiyalashtirilgan kreditlar faqat yuridik shaxslarga beriladi.

Tijorat banklari tomonidan sinditsiyalashtirilgan kreditlash qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida amalga oshiriladi. Sinditsiyalashtirilgan kreditni berish qarz oluvchi va ishtirokchi banklar o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Sinditsiyalashtirilgan kredit berish muddati yirik investitsiya loyihalarini qoplanish muddatiga bog‘liq holda kredit shartnomasida belgilanadi. Sinditsiyalashtirilgan kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori sinditsiyalashtirilgan kredit to‘g‘risidagi kelishuv shartlariga ko‘ra qarz oluvchi va ishtirokchi banklar o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomasi asosida belgilanadi. Zarar ko‘rib ishlovchi, nolikvid balansga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga hamda samarasiz investitsiya loyihalarini taqdim qilgan xo‘jalik sub’ektlariga sinditsiyalashtirilgan kreditlar berilmaydi. Sinditsiyalashtirilgan kredit olgandan keyin moliyaviy ahvoli yomonlashgan qarzdordan berilgan kreditlar o‘rnatilgan tartibda muddatidan avval undirib olish chora-tadbirlari ko‘rilishi lozim. Bu qoida kredit shartnomasida albatta qayd etilgan bo‘lishi kerak.

Qarz oluvchi o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yirik kredit berishni so‘rab murojaat qilganidan keyin, bank kreditlash uchun lozim bo‘lgan standart tadbirlarni: o‘zining ichki kredit siyosatiga mos

ravishda mijozning kreditga qobiliyatliligi tahlilini, biznes-rejasi tahlilini, kredit qaytarilishini ta’minlanganligi tahlilini va boshqalarni amalga oshiradi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirishning mumkinligi to‘g‘risida kredit qo‘mitasi qaror qabul qilgan taqdirda, bank bir vaqtning o‘zida ushbu bitimga boshqa banklarni jalb etish hamda sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashkilotchisi sifatida bank sindikatini tashkil etish haqida qaror qabul qiladi. Ishtirokchi banklarni ushbu bitimga jalb etish va bank sindikatini tashkil etish to‘g‘risida yetakchi bank kredit qo‘mitasi qaror qabul qilinganidan keyin, yetakchi bank sinditsiyalashtirilgan kreditlashda ishtirok etish xohishini bildirgan banklarni aniqlaydi va ularga sindikatda qatnashish taklifi bilan birga tayyorlangan qarz oluvchi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etadi. Shundan keyin yetakchi bank ishtirokchi banklar bilan investitsiya loyihasi bo‘yicha barcha kredit hujjatlarini taqdim etadi. Taqdim etilayotgan ma’lumotlar bank siri hisoblanadi.

Sinditsiyalashtirilgan kreditni berishga xorijiy banklar va boshqa xorijiy moliyaviy institutlar jalb etilishi mumkin. Bu holda sinditsiya–lashtirilgan kreditlashni amalga oshirish xorijiy banklar va moliyaviy institutlar bilan tuzilgan bitimlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ishtirokchi banklar bilan muzokaralar boshlangunga qadar yetakchi bank tomonidan bankning ichki kredit siyosati bilan belgilangan tartibda kredit paketini tahlili asosida barcha kredit hujjatlari hamda ishtirokchi banklar o‘rtasida tuziladigan investitsiya loyihasini birgalikda kreditlash borasidagi o‘zaro kelishuv loyihasi tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Yetakchi bank ishtirokchi banklarga taklif yo‘llashdan oldin qarz oluvchi haqidagi ma’lumotlarni Banklararo kredit byurosi ma’lumotlari bilan solishtirishi lozim. Kredit shartnomasining yakuniy variantini ishlab chiqish va imzolash faqatgina yetakchi bank va ishtirokchi banklar o‘rtasida mazkur investitsiya loyihasini sinditsiyalashtirilgan kreditlash to‘g‘risida o‘zaro bitim tuzilgandan keyin amalga oshiriladi. Ishtirokchi banklar o‘rtasida mazkur investitsion loyihani birgalikda kreditlash borasida bitim imzolangandan keyin bank sindikati tuzilgan hisoblanadi va ushbu bitimni imzolagan barcha ishtirokchi banklar o‘zlariga sinditsiyalashtirilgan kreditlash borasida majburiyat olgan hisoblanadilar. Shuning bilan birga bank sindikati tuzilgandan keyin ushbu bitimdan chiqish, ya’ni sinditsiyalashgan kredit berish borasidagi kredit shartnomasini imzolashda bosh tortilgan taqdirda ishtirokchi

bank qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa ishtirokchi banklar oldida boy berilgan foydani qoplab berish borasida javobgar bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Loyihaviy moliyalashtirish, biznes reja, regress, sinditsiyalashtirilgan kredit, tijorat loyihalari, ekologik loyihalar, ijtimoiy loyihalar.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni

2. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari

3. Loyihaviy moliyalashtirishning qanday turlari mavjud?

4. Sindikatli kreditlashning o‘ziga xos xususiyatlari

5. Loyihaviy moliyalashtirish asosiy ishtirokchilarining funksiyalari

6. Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash qanday tamoyillar asosida amalga oshiriladi?

7. Belgilariga qarab investitsion loyihalarning qanday ko‘rinishlarini ajratish mumkin?

XVII BOB. INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

§ 17.1. Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar
§ 17.2. Tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirishda innovatsion faoliyatni o‘rni
§ 17.3. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning innovatsiya faoliyati zaruriyati. Innovatsiya strategiyasining mohiyati

§ 17.1. Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar

“Innovatsiya” tushunchasi (ingl. innovation – kiritilingan yangilik, ixtiro) yangilikka investitsiya kiritish ma’nosida ishlatiladi. Innovatsiya tushunchasi iqtisodiyotga XX asr boshlarida kirib kelgan. Avstraliyalik iqtisodchi olim Y.Shumpeter birinchi marotaba innovatsiyalarga oid masalalarni ko‘rib chiqqan va innovatsion jarayonga to‘liq ta’rif bergan. Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasiga ko‘pchilik mualliflar tomonidan turlicha yondoshuvlar keltirilgan. Ko‘pchilik mualliflar yangilik kiritishni iqtisodiy tadbiq yetish jihatidan nazarda tutadi, ya’ni yangi resurslarni tashkil yetish yoki mavjud bo‘lganlarini noan’anaviy holda yangicha ishlatilishini nazarda tutadilar A.Busiginning fikriga ko‘ra, innovatsiya bu asosiy kapital yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm fan, texnika va texnologiyalar yordamida yangilashdir[139].

R.Fatxutdinovning fikriga ko‘ra, innovatsiya yangilikni tadbiq yetishning yakuniy natijasi bo‘lib, ob’ekt boshqaruvini o‘zgartirish ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, ekologik va boshqa ko‘rinishdagi samaradorlikdir. Yuqoridagi ta’riflardan xulosa qilib, ***innovatsiya*** – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or ilm-fan yutuqlarini joriy etish yoki bilan yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirishdir. Innovatsiya har bir sohada bo‘lishi mumkin. Masalan, fanda, uning bir yo‘nalishida yirik yangiliklarga erishish, kashfiyotlar yaratish, izlanishlarda, ilm sohasida yangi ilm va bilimlarni ochish, texnika va texnologiyalarni yangi avlodini yaratish, ishlab chiqarish sohalarida, xizmat ko‘rsatishda yangi usullarni kiritish va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyotda esa fan, texnika, texnologiyalar sohalarida

[139] Бусыгин А.В.. Предпринимательства. – М.: Дело, 2001. 176 с.

erishilgan eng so‘nggi yutuqlarni qo‘llashni bildirishi mumkin. Innovatsion faoliyat qaysi sohada bo‘lmasin, kashfiyotlar, e’lon qilingan yangiliklar, texnika va texnologiya yutuqlari va texnologik jarayonlarni yangilash, mahsulot bilan ta’minlash va boshqa yo‘nalishlardagi barcha yangiliklarni tizimli ravishda uzluksiz joriy etib borishni ta’minlash jarayonidir.

Jahon gloaballashuvi jarayonida kuchli raqobat har sohada yangilikka undaydi. Fandagi texnika-texnologiya sohalaridagi eng so‘nggi yutuqlar, kashfiyotlar, yangiliklar, ratsionalizatorlik takliflarni ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatish sohalariga shiddat bilan kiritilib boriladi va marketing, boshqaruv, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi yondashuv, yangi texnologiya, texnikalarni qo‘llashni talab qiladi va texnologiyalarni yangi avlodini qo‘llash asosida mablag‘ kiritilishi investitsiyadan dalolat beradi. Yangilik kiritilishi asosida mavjud texnika va texnologiyalarni almashtirilishi ham investsiyani anglatishi mumkin.

Fan va texnika taraqqiyoti natijalari asosida yangi texnika, texnologiyalarni qo‘lga kiritilishi ham investitsiya ma’nosida ishlanadi. Investitsiyani aniqlovchi omil bo‘lib yangilik yaratilishi, ratsionalizatorlik takliflar yirik tashkilotlar va shunga tegishli ilgari e’lon qilinmagan yirik ishlanmalar xizmat qiladi. Kichik raqobat muhitida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida investitsiya ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyani qo‘llash asosida tashkil etishni, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi, avval qo‘llanilmagan xizmat turlarini nazarda tutadi. Innovatsiya yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash asosida yangi mahsulotni, yangi bozorga olib chiqishni ham bildiradi. Investitsiya kashfiyotlar asosida fan va texnika sohasida yangi bilimlarni qo‘llashga kiritilishini, yangi ilg‘or texnika va texnologiyalarni yaratilishini, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida qo‘llanilishini, ular asosida yangi tovar va xizmatlarni yaratilishini va ular hisobiga raqobatni kuchaytirishni, yangi bozorni yegallashni ham anglatadi.

Innovatsiya an’anaviy va yangi ilm-fan sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoq sohalarida iqtisodiy o‘sishni va raqobatbardoshlikni doimiy ravishda ta’minlovchi zaruriy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsiyaning asosiy xususiyatlarini uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi, bunday xususiyatlar quyidagilarda o‘z aksini topadi: ilmiy-texnik yangilik; amaliy qo‘llanilishi; tijoriy amalga

oshirilishi, ya’ni bozorda ma’lum darajada iste’molchilar talabini qondira olishi.

Har qanday sohada yangi fan va texnika yutuqlarini hayotga tadbiq etish eng avvalo ishlab chiqarilayotgan tovar yoki ko‘rsatilyotgan xizmatlarning bozorgirligini (hayotiyligini) saqlab qolishdan iborat. Ma’lumki har qanday tovar (yoki xizmat) bozorda o‘zining to‘rtta hayotiylik sikliga ega bo‘ladi. Bu bozorga kirish, rivojlanish, yetuklik va pasaysish (bozordan chiqish) sikllaridan iborat. Innovasiyalar ishlab chiqarilayotgan tovarlarning (ko‘rsatilayotgan xizmatlarning) bozordagi hayotiyligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, yuqoridagi mualliflik tariflarini rad etmagan holda, innovasiyalar to‘g‘risidagi tarifni quyidagicha takomillashtirishni lozim deb topdik: ***innovasiya – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarishga (xazmat ko‘rsatishga) ilg‘or ilm-fan yutuqlarini joriy etish bilan yoki yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirish orqali uning bozordagi hayotiylik davrini uzaytirishga qaratilgan jarayondir*** (17.1-rasm).

Yuqorida innovasiya jarayoniga keltirilgan tariflardan ko‘rinadiki, innovasion jarayon – bu yangilik g‘oyadan to mahsulotgacha shakllanishi va bozorga tarqalishidir (diffuziyasi).



17.1-rasm. Innovasion jarayonlar orqali tovarning hayotiylik davrini uzaytirish

Umuman olganda, innovatsion jarayon – bu yangilik g‘oyadan to mahsulotgacha shakllanishi va bozorga tarqalishidir. Innovatsion jarayon bosqichlari:

1-bosqich, bu yangi g‘oya va bilimlar;

2-bosqich, bu yangilikni (novatsii) amaliy faoliyatga tadbiq yetish, ya’ni innovatsiya;

3-bosqich, bu innovatsiyalar diffuziyasi. Ya’ni innovatsion mahsulot, xizmat va texnologiyalarni yangi makon va sharoitlarda qo‘llanilishi.

Shunday qilib, “innovatsiya” tushunchasi barcha sohalardagi (ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va boshqa) ishlanmalar, yangiliklar va takomillashtirilgan vositalar sifatida, sarf-harajatlar imkoniyatlarini ta’minlaydi yoki bo‘lmasa ularni ta’minlash uchun sharoit yaratadi. Innovatsiyalarni oxir-oqibat maqsadi tovar (mahsulot) raqobatbardoshligini kuchaytirish, uning bozorini kengaytirish, firma (korxona) faoliyati barqarorligini ta’minlash asosida foyda (daromad) hajmi va normasini ko‘paytirishdir. Innovatsiyalar o‘zining predmeti va qo‘llash sohalari bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi: mahsulotli (yangi tovar yoki xizmatlar); bozorboplik (tovarni ishlatilishini yangi sohalarini tashkil etuvchi yoki xizmatlarni yangi bozorda tadbiq etish); innovatsiyalik jarayonlari (texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari).

Innovatsiyalarni qayd etilgan mezonlar bo‘yicha tiplarga ajratish firma (korxona) strategiyasini aniqlash, innovatsiya tiplaridan kelib chiqib tovar (xizmatlari) realizatsiya shakllari hamda iqtisodiy mexanizm boshqarish shakllarini ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi. Har qanday yangilik, ya’ni innovatsiya aniq loyihalarda o‘z ifodasini topadi, aniq maqsadlarga qaratiladi hamda chuqur hisob-kitoblar, tahlil va ekspertiza asosida bo‘lajak natijalari istiqboli aniqlanadi. Innovatsiya har qanday sohada yangilikni qo‘llash bo‘lib, uzluksiz jarayonni bildiradi, tizimli faoliyatni, aniq strategiyani amalga oshirishdan dalolat beradi. Yangilikka intilish, yaratuvchanlik, kashfiyotlar va ular asosida qo‘lga kiritiladigan ishlanmalar har qanday sohada resurs talab yetadi. Innovatsion ishlab chiqarish tashkil etishi munosabati bilan uni muntazam ravishda yuksaltirish, yangilanishni, ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalanishni, progressiv boshqaruv usullarini qo‘llashni, turli yo‘nalishlarda samara keltiruvchi iqtisodiy-moliyaviy resurslarni, ya’ni investitsiyalarni kiritishni talab etadi.

Makroiqtisodiy darajada innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratiladi va iqtisodiy taraqqiyotni umumiy shart-sharoitlarini yaxshilab boradi hamda iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilishini ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish mukammal omillarga ega bo‘lishi talab etiladi va zaruriy iqtisodiy resurslar, ya’ni investitsiyalarni talab etadi. Bunda innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g‘oyaviy-siyosiy belgilarini takomillashtirilishiga safarbar etiladi. Bunday investitsiyalar resurslar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xizmatlar, mulkchilik shakllari, iqtisodiy mexanizm, intilinayotgan g‘oya va siyosatning ustuvorligini ta’minlanishiga qaratiladi. Makroiqtisodiyot darajasida innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar kuchli raqobat muhitida firma (korxona)larning raqobatbardoshligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ularning mavqeini mustahkamlash bilan, samaradorligini yuksaltirish, foyda (daromadi) hajmi va me’yorini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan investitsiyalardir.

O‘zbekiston iqtisodiyotida firma (korxona)lar hayotiyligini ta’minlash, ular rivojlanishi va daromaddorligini orttirish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan holda, jahon talablari darajasidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdir. Yangi, zamonaviy va ilg‘or texnika-texnologiyalarni qo‘llagan holda sifatli, arzon tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga yetkazish uchun qaratilgan investitsiyalar innovatsion investitsiyalardir. Firma (korxona) innovatsiya strategiyasini yaxlitlikda ta’minlashga qaratilgan investitsiyalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ishlab chiqarish hayotiyligini saqlab qolish;
- jamoa rivojlanish dasturini ta’minlash;
- zamonaviy boshqarish usullarini qo‘llash;
- foydani maksimallashtirish;
- jamoa faoliyatini takomillashtirish;
- yangi sohalarga kirib borish;
- manfaatlarga mos keladigan maqsadlarga erishish;
- moliyaviy holatga risk vaziyat ta’sirini kamaytirish qobiliyatiga ega bo‘lish kabi vazifalarni qamrab oladi va ularni ta’minlashga qaratiladi.

Biznes sohasida g‘oyani amaliyotga tadbiq qilishda tajriba, mahorat, intilish bilan bir qatorda moliyalashtirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda moliyalashtirishda odatiy

kredit, ustav kapitalga pul kiritish, grant, aksiyalarni sotish, hosilaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish singari odatiy usullardan tashqari boshqa turli vositalar ham amalda o‘ylab topilgan. Biz shulardan biri bo‘lgan kraudfanding haqida to‘xtalamiz.

Kraudfanding (xalq moliyalashtrishi, ingl. crowd funding, crowd – “omma”, funding – “moliyalashtirish”) – insonlar (donorlar)ning jamoa bo‘lib birlashuvi bo‘lib, ular beg‘araz maqsadda o‘z mablag‘lari va turli resurslarini biror bir loyiha yoki maqsadni amalga oshirmoqchi bo‘lgan tashkilot yoxud insonga sarflashlari hisoblanadi[140]. Odatda kraudfanding internet tarmog‘ida amalga oshiriladi. Bu so‘z 2006 yilda paydo bo‘lgan. “Wired” jurnali muharriri Jeff Xau maqolalaridan birida internet foydalanuvchilari orasidagi ko‘ngilli pul beruvchilarni nazarda tutib kraudfanding so‘zini qo‘llagandi. Jamoaviy beg‘araz moliyalashtirish (kraudfanding) Internetda tobora mashhur bo‘lib bormoqda. Ushbu mashhurlik to‘lqinini o‘z vaqtida aniqlagan holda amerikalik tadbirkorlar Kickstarter.com loyihasini ishga tushirishgan. Ushbu sayt mualliflarga amalga oshirmoqchi bo‘lgan g‘oyalari uchun investitsiya qidirish va jalb qilish maqsadida tashkil etilgan. Yuqoridagi sayt xizmatlaridan investitsiya qidirish maqsadida tadbirkorlar, ijodiy soha vakillaridan rejissyorlar, yozuvchilar, musiqachilar, o‘yin ishlab chiqaruvchilar, rassomlar, ssenariy mualliflari birday foylanishlari mumkin.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin, kraudfanding qanday ishlaydi? Aytaylik, siz biror qiziq yoki muhim loyihani amalga oshirmoqchisiz, lekin bunga mablag‘ingiz yetarli emas. G‘oyangizni kraudfanding platformasida bayon etasiz va moddiy yordam so‘raysiz. Ushbu loyihaga qiziqqan va uni qo‘llab-quvvatlagan foydalanuvchilar sizga mablag‘ o‘tkazishadi. Yetarli mablag‘ to‘planganidan so‘ng loyihangizni amalga oshirishga kirishishingiz mumkin. Investitsiya faoliyatida kraudfandingni afzalliklari 17.2- rasmda keltirib o‘tilgan.

Kraudfandingda loyihalar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin: xayriya yordami ko‘rsatish, siyosatchilar, sportchi va ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy loyihalar. **Kraudfandingda loyihalarini moliyalashtirish usullari asosan quyidagicha bo‘lishi mumkin[141]:**

[140] https://ru.wikipedia.org
[141] Ўша ерда

- **“Hammasi yoki hech narsa”.** Agarda belgilangan muddat ichida yetarlicha miqdordagi mablag‘ yig‘ilmasa, pullar egalariga qaytariladi, loyiha tashabbuskoriga hech qanday mablag‘ berilmaydi.

- **“Barchasi”.** Belgilangan muddat ichida qancha pul yig‘ilsa, o‘sha mablag‘ning barchasi loyihaga o‘tkaziladi.

- **“Doimiy moliyalash”**. Mablag‘ yig‘ish muddati belgilanmaydi, kerakli miqdordagi pul yig‘ilmaguncha loyiha ochiq turadi.

- **“To‘xtash nuqtasi”**. Mablag‘ “to‘xtash nuqtasi”ga yetib kelganidan so‘ng (masalan so‘ralgan mablag‘ning yarmi yig‘ilganidan so‘ng) loyiha muallifiga beriladi.

- **“Nomoliyaviy bonus”**. Loyihaga pul o‘tkazgan shaxs biror moddiy buyumga ega bo‘ladi. Masalan, kitob chop etilishi uchun mablag‘ o‘tkazgan shaxsga o‘sha kitob bepul taqdim etilishi mumkin.

17.2-rasm

Kraudfandingning afzalliklari



Ushbu faoliyatda mablag‘ yig‘ishda har bir kraudfanding maydonchasi loyiha, uning muuallifi va homiylarga nisbatan o‘z talablariga ega bo‘ladi. Umuman olganda bu talablar bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Platformalarning talabiga ko‘ra, uning ishtirokchilari voyaga yetgan, o‘z loyihasini taqdim etishi, loyiha qonunchilikka zid bo‘lmasligi hamda yig‘ilgan pul o‘sha loyihani amalga oshirishga sarflanishi lozim. Muallif loyihani, uning o‘ziga xos xususiyatlari va qanday naf keltirishini bayon etadi. Asosiysi, pul qanday maqsadda yig‘ilayotganligi aniq ko‘rsatilishi kerak. Muallif shuningdek, maqsadga erishish uchun qancha mablag‘ kerakligini ham ko‘rsatadi.

Loyihaning ishlash tartibi juda oddiy. Sayt foydalanuvchisi o‘z g‘oyasini ilgari suradi va yozma ravishda izohlaydi, kerakli bo‘lgan mablag‘ni ko‘rsatadi va mablag‘ni yig‘ishning eng so‘nggi muddatini belgilaydi. Ayrim hollarda foydalanuvchi beg‘araz moliyalashtiruvchilarga turli mukofotlar taklif qilishi mumkin, masalan o‘z logotipi tushirilgan futbolkalarni sovg‘a qilishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, barcha beg‘araz yordam pullari yaxshi maqsadlarda yig‘iladi va bepul futbolka loyihani amalga oshirish uchun pul tikkan insonlar olishi mumkin bo‘lgan yagona narsadir. Har qanday loyiha homiysi o‘zi pul tikkan loyihaning amalga oshirilishini kuzatishi mumkin, biroq loyiha muallifi foydasidan foiz olishga haqli emas, ulush yoki korxonani tashkil etishdagi aksiyalarga egalik qilish huquqiga ham ega emas.

Bu borada yig‘ilgan pullar Amazon Payments tizimi yordamida yaratilgan maxsus hisobraqamga yo‘naltiriladi. O‘ziga ma’qul kelgan g‘oyalarga pul tikmoqchi bo‘lgan xohlovchilar pul miqdorini o‘zlari mustaqil belgilaydilar. Oldindan belgilangan muddat nihoyasiga yetsa mablag‘lar yig‘ilishi to‘xtatiladi. Agar belgilangan mablag‘ to‘plangan bo‘lsa, pullar muallifning hisobraqamiga o‘tkaziladi. Agar belgilangan miqdor tegishli muddatgacha yig‘ilmagan bo‘lsa ham pul yig‘ilishi baribir to‘xtatiladi va bekor qilinadi. Bu o‘z navbatida mualliflarni o‘z g‘oyalarini yanada tushunarliroq va ko‘proq insonlarni jalb qilish uchun qiziqarliroq qilib taqdim qilishga undaydi.

Kickstarter jalb qilingan mablag‘lardan 5%, Amazon Payments esa o‘z navbatida qo‘shimcha 3—5% komission haq ushlab qolishadi[142]. Mablag‘ va investitsiyalar jalb qilish uchun mo‘ljallangan boshqa ko‘plab forumlardan farqli o‘laroq, Kickstarter loyiha va ishlanmalarga nisbatan mulk huquqiga da’vo qilishmaydi, lekin sizdan olingan intellektual mulkni eksklyuziv bo‘lmagan turli maqsadlarda foydalanishi mumkin. Shunga qaramasdan saytda amalga oshirilgan loyihalar saqlanib qoladi va barcha uchun ochiq sanaladi. Loyihani moliyalashtirish yakunlangandan keyin ham saytga yuklangan ma’lumotlar tahrir qilinishi yoki o‘chirilishi mumkin emas. Kickstarter ishtirokchilari saytni o‘z mahsulotlarini sotish va sinab ko‘rish uchun maydon sifatida foydalanishlari mumkin. Hozirda Kickstarter tizimidan faqat AQSH fuqarolari foydalanishlari mumkin. Biroq shunga o‘xshash tizimni bizning mamlakatimizda ham yaratishda aytarlik cheklanishlar yo‘q.

[142] Ўша ерда

Aslida kraudfanding O‘zbekiston uchun ham begona emas, amalda bu usuldan foydalanish holatlari mavjud. Masalan, biror bir kishining sog‘ligi yomonlashganda operatsiya yoki davolanish uchun zarur bo‘lgan pulni to‘plash kerak bo‘lsa internet ijtimoiy tarmoqlarida va turli saytlarda yordam so‘rab plastik karta raqamlarini qoldirgan holda murojaat etish holatlari mavjud. Bu ham kraudfandingning bir ko‘rinishi.

Biroq kraudfandingni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va yangilik kiritish bo‘yicha qilinadigan loyihalardagi g‘oyalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish juda muhim sanaladi. Shunday g‘oyalar borki, ular mavsumiy yoki bir martalik harakterga ega, yaratuvchisiga moddiy manfaat olib kelmaydi, biroq jamiyatga juda katta foyda berishi mumkin. Aynan shu loyihalarni moliyalashtirishda kraudfandingning o‘rni beqiyosdir. Biroq bunda loyihani amalga oshiruvchi mablag‘ kelib tushadigan tashkilot yoki insonning naqadar ishonchli va maqsadli harakat qilishi masalasi asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Ularning faoliyati shaffof va kuzatuvchilar uchun ochiq bo‘lishi lozim. Shundagina kraudfandingdan samara yuqori bo‘ladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni tatbiq etishning tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslarini rivojlantirish maqsadida bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Shu jumladan, 2006 yil 7 avgustda PQ–436 sonli “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916 sonli “Innovatsion loyihalar va texnolgiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 30 noyabrdagi PQ-3416-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2018 yil 7 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Ushbu qarorlar asosida Respublika innovatsion g‘oya, texnologiya va loyihalar yarmarkasi amalga oshirilmoqda. Bu yarmarka Iqtisodiyot Vazirligi, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo‘mitasi, investitsiyalar va savdo Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil etilgan.

§ 17.2. Tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirishda innovatsion faoliyatni o‘rni

Hozirgi kun dunyo iqtisodiyotini innovatsion yangiliklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayni paytda jamiyat hayotida innovatsion soha shu darajada jadal rivojlanmoqdaki, iqtisodiyotda innovatsiyalarning ulushi kundan kunga oshib bormoqda va buning natijasida innovatsiya xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va inteluktual salohiyat kabi mamlakatning asosiy boyligiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, - Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz[143]. Tadbirkorlik taraqqiyoti novatorlikdan, erkin bozor talablarini bilmoqlikda, ularni istiqbolini his etmoqlikda, ularga mos tovar va xizmatlarni yetkazmoqlikda va shu yo‘l bilan o‘z maqsadlariga erishmoqlikdadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh me’zoni bo‘lib tadbirkorlik xizmat qiladi.

Endi esa biz “innovatsion faoliyat” tushunchasining iqtisodiy mohiyati va nazariy jihatlariga e’tiborimizni qaratsak.

Iqtisodchi – olimlar V.D. Dorofeyev va V.A. Dresvyannikovlar[144]ning fikriga ko‘ra, - “innovatsion faoliyat – bu ko‘pgina bozor ishtirokchilarining innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish maqsadida yagona innovatsion jarayonda birgalikdagi faoliyatidir «. Innovatsiya ilmiy-texnikaviy bilimlarni yaratish, rivojlantirish, tarqatish va ilm-fanning barcha sohalarida qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ilmiy-texnik faoliyatga asoslangan. Innovatsion faoliyat ilmiy-texnik faoliyatni iqtisodiy «dengiz»ga aylantiradi, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishni va tijorat maqsadlarida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy tarkibiy qismni ta’kidlab, biz innovatsiya konseptsiyasini quyidagicha shakllantiramiz: to‘plangan bilimlar,

---

[143] O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr, http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyoyevning -o-22-12-2017

[144] Дорофеев В.Д., Дресвянников В.А. Инновационный менеджмент: учеб. пособие. – Пенза: Изд-во Пенз. гос. ун-та, 2003. – с. 14.

texnologiyalar va uskunalarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyatining kompleks to‘plamidir. Innovatsiyalar natijasi yangi yoki qo‘shimcha tovarlar va xizmatlar yoki yangi sifatlarga ega bo‘lgan tovarlar va xizmatlardir.

A.V. Surin, O.P. Molchanova[145]lar innovatsion faoliyatni «innovatsion jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirish faoliyati» sifatida ifodalaydi. Bu ilmiy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlarining natijalari yoki boshqa yangiliklar, bozor uchun yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni yaratish, amaliyotda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni yaratish, ularni tarqatishdir, shuningdek, tegishli ta’lim, konsalting, moliyaviy va boshqa turdagi xizmatlarni taqdim etish.

Shuni ta’kidlash kerakki, ilm-fanni innovatsion faoliyatga kiritish zarur bo‘lgan yondashuv mavjud. Innovatsiyalarning eng muhim qismi sifatida fan quyidagi tuzilmani izchil amalga oshiradi: fundamental tadqiqotlar - amaliy tadqiqotlar - foydali modellar – tajriba konstruktorlik ishlari. Innovatsion faoliyatning umumiy tarkibidagi tadqiqotlarning umumiy hajmining 10% dan ko‘p bo‘lmagan qismini egallaydigan «fundamental tadqiqotlar» havolasi yangi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishning bevosita maqsadi hisoblanadi[146]. Biroq, zamonaviy jamiyat nafaqat ilmiy yangiliklarga, balki uning hayoti sohalarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan eng foydali innovatsiyalarga qiziqadi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat – bu yangiliklarni yaratish va tarqatish uchun o‘zaro bog‘liq ish turlarining to‘plamidir.

V.P. Barancheyev[147]ning fikriga ko‘ra, innovatsion faoliyat – bu yangiliklarni yaratish (rivojlantirish), ishlab chiqarishni rivojlantirish va tarqatish (amalga oshirish) faoliyati.

Xuddi shunday yondashuvni I.A.Ivanchenko[148] tomonidan ilgari surilgan ta’rif ham ko‘rsatib turibdi: innovatsion faoliyat – bu ilmiy va texnik g‘oyalarni, ixtirolarni, ishlanmalarni yangiliklardan amaliy foydalanish va amalga oshirish uchun mos natijaga yetkazish faoliyati. Taqdim etilgan nuqtai nazarlarning afzalligi, bizning fikrimizcha, ushbu mualliflar nafaqat yaratishni, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarqatishni,

[145] Сурин А.В., Молчанова О.П. Инновационный менеджмент: учеб. – М.: ИНФРА-М, 2008. – с. 5.
[146] История и философия науки (Философия науки): учеб. пособие / под ред. Ю.В. Крянева, Л.Е. Моториной. – М.: ИНФРА-М, 2007. – с. 78.
[147] Баранчеев В.П. Управление инновациями / В.П. Баранчеев, Н.П. Масленникова, В.М. Мишин. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Издательство Юрайт, 2014. 264 с
[148] Иванченко И.А. Понятие и специфика инновационной деятельности предприятия. URL: http://projects.innovbusiness.ru /content/document_r_B34F1E23-71CD-4BD5-AE39-24BAB1366CE3.html

amaliyotga tatbiq etishni ham taklif qilishadi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat tushunchasining iqtisodiy mohiyati to‘liq aks ettirilmagan, chunki ko‘rib chiqilayotgan talqinlardan foydalanilganda «innovatsiya» tushunchasining mohiyatini qo‘shimcha ravishda ochib berish talab etiladi.

M.V.Lobacheva[149] innovatsion faoliyatni innovatsion hayot siklining istalgan bosqichida amalga oshirish mumkin, deb ta’kidlaydi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, innovatsiyalarni qo‘llash uchun imkoniyat yo‘q, bundan tashqari, butun innovatsion faoliyat jarayoni, aslida, intellektual ish natijalariga qadar kamayadi.

Jarayon yondashuvini aks ettiruvchi biroz boshqacha talqinni A.A.Trifilova[150]ning asarlari namoyish etadi. Ushbu muallifning fikriga ko‘ra, innovasion faoliyat – bu tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga, amalda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga aylantirishga qaratilgan jarayondir. Ko‘rib turganingizdek, ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga alohida urg‘u berilgan. A.A.Trifilovaning nuqtai-nazariga ko‘ra, tadqiqotlar va ishlanmalar natijalari yangi texnologik jarayonda yoki intellektual mahsulotda aks etadi.

«Innovatsion faoliyat» atamasining murakkabligi va noaniqligi, bizning fikrimizcha, yangiliklarni qo‘llashning keng sektori bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagi innovatsion hatti-harakatlar turlarida aks etadi. Bunday hatti-harakatlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, shu jumladan mahsulot va texnologik jarayonlarning modifikatsiyalari, bozorga yangi mahsulotlarni, xizmatlarni chiqarish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga olgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish tartibini belgilash uchun rejalar va chizmalar tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda innovatsion faoliyatning murakkab xususiyati hisobga olinishi kerak.

Innovatsion faoliyatni har xil talqin qilish bilan ko‘pchilik olimlar kerakli natijaga erishish uchun ushbu faoliyat turini boshqarish kerak degan fikrga qo‘shilishadi.

Raqobatda yanada omon qolish va farovonlik uchun, innovatsiyalarni samarali rivojlantirish va amalga oshirish uchun zamonaviy korxonaning aniq innovatsion maqsadlariga erishishga

---

[149] Лобачева М.В. Современные концепции цикличности инноваций. URL: http://www.rae.ru/monographs/112-3768

[150] Трифилова А.А. Управление инновационным развитием предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. 176 с.

qaratilgan innovatsiyalarni boshqarishning asosiy tamoyillarini qo‘llashi kerak.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat mazmunini tashkil etuvchi barcha elementlar shunchaki bir-biridan kelib chiqmaydi, balki o‘zaro chambarchas bog‘liq va bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash kerakki, innovatsion faoliyat «innovasiya» tushunchasidan tortib, innovasiyalarni boshqarishgacha bo‘lgan ko‘plab jihatlarini o‘rganish uchun juda keng sohadir. Bu xilma-xillikning barchasi keyingi o‘rganish jarayonida hal qilinishi kerak bo‘lgan innovatsion faoliyat sohasidagi juda keng vazifalarni belgilashga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibtiki, tadbirkor har qanday imkoniyatni boy bermasdan, o‘z manfaatida o‘zi uchun iloji boricha maksimal yutuq maqsadida, hech qanday talofatlardan qo‘rqmay tashabbusni qo‘lga oluvchi, kuchli va harakatchan insondir. A.Smitni ko‘zga ko‘rinmas qo‘l qoidasiga binoan, tadbirkor har qanday imkoniyatni nafaqat o‘zi uchun balki jamiyat kelajagi uchun ishlatuvchidir. Tadbirkor bo‘lish, demak, yangi ishni amalga oshirish qarorini qabul qilishdir. Tadbirkorlik, iste’molchilarni turli tovar va xizmatlar bilan ta’minlash yo‘li bilan, daromadni oshirishga qaratilgan turli faoliyatdir. Tadbirkorlik faoliyati doimiy ravishda o‘z mulkiy mas’ulligidan, o‘z qo‘rquv va tavakkalligidan kelib chiqib yuritiladigan faoliyat hisoblanadi. Haqiqiy tadbirkor faqat o‘z g‘oyasiga ega bo‘lgan insonlardir, olimlarni fikriga ko‘ra, dunyodagi insonlarni faqat 15-20 foizigina tadbirkordek fikr yuritish va harakat qilish qobiliyatiga egadirlar. Amerikaliklar tadbirkorlarning millatini “oltin foyda” deb atashadi. Nobel’ mukofoti laureati, taniqli iqtisodchi Fridrix Fan Xayekni fikricha, tadbirkorlikning mohiyati yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlashdir, uni axtarib topishdadir.

Tadbirkorlik oddiygina faoliyat emas, u yaratuvchanlikka mos va xos faoliyatdir. Tadbirkorlikni yuritish va yuksaltirish uchun tadbirkor ijodiy hislatga ega bo‘lishi kerak. Tadbirkorlikka xos bo‘lgan hislatlar bular: tashabbuskorlik; yaratuvchanlik; ijodkorlik; yangilikka intiluvchanlik; o‘zining g‘oyasiga ega bo‘lmoqlik; tavakkalchilik va qaltislikni o‘z bo‘yniga olmoqlik; novatorlik, eskini buzib, ijodiy ravishda yangilikni kiritmoqlik, ya’ni doimiy rivojlanmoqlik; faoliyat oqibatlarini ko‘ra bilmoqlik; o‘z majburiyatlarini bajarmoqlik; o‘z qaroridan qaytmaslik; uddaburonlik va doimiy intiluvchanlik, yaratuvchanlik. Qayd etilgan hislatlarga ega bo‘lganlargina tadbirkorlikni aniq jarayon sifatida tasavvur qila oladilar, buzish

qobiliyatiga ega bo‘la oladilar, yangilikni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadbirkorlik taraqqiyoti novatorlikdadir, ya’ni eskini ijodiy yondashuv asosida buzib, yangisini ijod etishdadir. Taniqli nemis iqtisodchisi D.A.Shumpeterni fikriga ko‘ra, texnologiya taraqqiyoti iqtisodiy yuksalishni boshqaradi, novatorlik ya’ni doimiy ijodiy yondashuv va yaratuvchanlik rivojlanishni ta’minlaydi.

D.A.Shumpeterni fikriga ko‘ra, inovatorlikni amalga oshiruvchisi bo‘lib tadbirkor xizmat qiladi, moliyaviy mablag‘lar esa uni ta’minotini tashkil etadi. Demak, tadbirkorlik o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikni tadbiq etmoqlik, tashabbuskorlik negizida tadbirkorlik, uddaburonlik, intiluvchanlik va doimiy rivojlanmoqlikni anglatadi. Ushbu jihatdan tadbirkorlik faoliyati innovatsiya faoliyatidan boshqa narsa emasdir.

Shu sababli, respublikamizdagi xo‘jalik subyetlari o‘z mahsulot (xizmat)larini raqobatbardoshligini ta’minlash uchun milliy ilm-fan markazlari ya’ni oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o‘rnatishi va faol tadbirkor sifatida faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Faol tadbirkor – o‘z faoliyatida eng zamonaviy fan va texnika yutuqlarini qo‘rqmasdan hayotga tadbiq etuvchi, zamondosh tadbirkorlar ichida ilg’or fikrlovchi shaxsdir. U doim o‘z faoliyatini tahlil qilib boradi, izlanishda bo‘ladi. Hozirgi kunda faol tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yurtimizda ijobiy qadamlar tashlanmoqda.

Mamlakatimizda buning uchun barcha me’yoriy-xuquqiy asos yaratilgan. Jumladan faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha bir qator qonun hamda qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi (O‘RQ-630-son) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018-yil 5-maydagi PQ-3697-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5583-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar innovatsiya markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi 832-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2020-yil 3-noyabrdagi «UzVC» milliy venchur fondini tashkil etish to‘g‘risida»gi 684-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 545-son Qarori shular jumlasidandir.

Shu o‘rinda, ushbu yo‘nalishda mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkazib borilayotgan, davlat organlari, ishbilarmon doiralar, potentsial sarmoyadorlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining o‘zaro muloqot qilishlari uchun platforma yaratishga qaratilgan «InnoWeek» – innovatsion g‘oyalar haftaligi, startap loyihalar tanlovlari, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda ilmiy ishlanmalar uchun grant tanlovlari, hududlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, istiqbolli innovatsion g‘oyalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilayotgan «Innovatsion g‘oyalar va ishlanmalar hududiy ko‘rgazmasi» muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, respublikamizda faol tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning ulushini kengaytirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va aholi (xususan, yoshlar)ning biznes ko‘nikmalarini oshirish maqsadida 2018-2022 yillar oralig‘ida 8 ta texnopark, 1 ta biznes-inkubator, 1 ta biznes-akselerator, 1 ta kovorking markaz, 3 ta o‘quv markaz va 2 ta innovatsion poligonlar[151] faoliyati yo‘lga qo‘yildi (17.3-rasm).



17.3 - rasm. Innovatsion tadbirkorlik muassasalari[152]

Shu bilan birga ilmiy tadqiqotchilar, tadbirkorlar va investorlarning o‘zaro muloqot qilishlariga qulay platforma yaratish va

[151]O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018-2021 yil yakunlari yuzasidan hisoboti. Toshkent-2021 y. https://mininnovation.uz/opendata/post-69
[152]https://mininnovation.uz/opendata/post-69

buning natijasida «buyurtmachi-tadqiqotchi-investor» uzviyligini ta’minlash orqali ilm-fan va tadbirkorlik faoliyatining integrasiyasiga ko‘maklashish hamda ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar va innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish ishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ilmiy ishlanmalar va innovatsion g‘oya (loyiha)lar portali (http//:portal.spcenter.uz) ishga tushirildi. Ushbu ilmiy ishlanmalar va innovatsion g‘oya (loyiha)lar portalidan foydalanuvchilar uch guruh («Buyurtmachi», «Tadqiqotchi» va «Investor»)ga ajratilgan bo‘lib. Bugungi kunda, portalning «Buyurtmachi» guruhida ilmiy va innovatsion ishlanmalarga bo‘lgan buyurtmalar soni 167 taga yetgan bo‘lsa, «Tadqiqotchi» guruhiga ilmiy tadqiqotchilar tomonidan 607 tadan ortiq ilmiy ishlanmalar joylashtirilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2018–2022-yillar ichida 94 ta startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha umumiy hajmi 73,8 mlrd.so‘mlik shartnomalar tuzilgan bo‘lib, mazkur startaplarning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari kesimidagi ulushiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning 20 tasi (18,7 mlrd. so‘mlik) sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha, 19 tasi (15,7 mlrd. so‘mlik) axborot texnologiyalari sohasi bo‘yicha, 23 tasi (15,2 mlrd. so‘mlik) qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha, 12 tasi (10,2 mlrd. so‘mlik) transport va energetika sohasi bo‘yicha, 7 tasi (4,9 mlrd. so‘mlik) qurilish sohasi bo‘yicha, 5 tasi (3,3 mlrd. so‘mlik) oziq-ovqat sohasi bo‘yicha, 8 tasi (5,8 mlrd. so‘mlik) esa iqtisodiyotning boshqa sohalariga oid loyihalardan iborat (17.4-rasm)[153].

Shu bilan bir o‘rinda, innovatsion loyihalarni tijoratlashtirishgacha tayyorlash maqsadida umumiy hajmi 102.1 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan 137 ta loyiha Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lib, ushbu loyihalarning 44 tasiga 35,718 mlrd.so‘m miqdoridagi mablag‘larni iqtisodiyot sohalari va xususiy sektor tomonidan jalb etish rejalashtirilgan.

Hozirda ushbu innovatsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida 42 ta innovatsion korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘tgan 2021-yilning o‘zida 603 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etilgan. Albatta, mamlakatimizda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilm-fan va tadbirkorlik faoliyatining integratsiyasini chuqurlashtirish, innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarini

[153]O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018-2021 yil yakunlari yuzasidan hisoboti. Toshkent-2021 y. https://mininnovation.uz/opendata/post-69

qo‘llab-quvvatlash hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha sezilarli ishlar qilinmoqda, bunga yuqorida keltirib o‘tilgan ko‘rsatkichlar yorqin misol bo‘la oladi. Ammo, respublikamizda innovatsion tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar hamda o‘z yechimini kutib turgan masalalar mavjud.



17.4-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo‘yicha innovatsion startap loyihalari

Jumladan, hozirgi kunda, respublikamizning hududlar kesimidagi salohiyati (xususan, investitsiyaviy va innovatsion salohiyati) hamda mavjud resurslar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, tadbirkorlarning o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan axborotlarni olish imkoniyatining cheklanganligi va aksariyat hollarda yopiqligi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bu holat o‘z navbatida milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi aniq. Negaki, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiyotimizni lokomativ yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, tadbirkorlar va investorlar o‘z faolyatlari uchun kerakli bo‘ladigan ma’lumotlarni qonun doirasida olish, tanishish va tahlil qilish orqali, o‘zlarining harakat rejalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Mamlakatimizda ilmiy yangiliklar, ilg‘or va zamonaviy innovatsiyalar, texnik va texnogik ishlanmalar hamda startap loyihalar bozorining shakillanib borayotganligi, umuman olganda bunday bozorning mavjudligi ayni muddao, lekin iqtisodiyot nazariyasining talab-taklif qonunidan barchamizga ma’lumki, mahsulotga ehtiyoj

(talab) mavjud bo‘lgandagina, ushbu mahsulotning bozori chaqqon bo‘ladi. Ya’ni, mahalliy tadbirkorlarimizda innovatsion loyihalarga bo‘lgan talab yetarli darajada bo‘lsagina, taklif etilayotgan innovatsion loyihalar va ishlanmalarning hajmi ortadi, bu esa o‘z navbatida raqobat muhitini yuzaga keltirib, tadqiqotchilar va innovatsion loyihalar mualliflarini o‘z loyihalari ustida yanada kreativ ishlashga undaydi. Albatta, so‘ngi yillarda yurtimizda innovatsiyalar bozorini shakillantirish bo‘yicha bir qator mutasaddi idora va tashkilotlar tomonidan samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda, Biroq, innovatsion loyihalarga bo‘lgan talab xo‘jalik subyektlarining o‘zida yuzaga kelsagina, ushbu jarayon haqiqiy bozor qonuniyatlari asosida rivojlanib boradi. Shu o‘rinda, savol tug‘iladi, ilg‘or va zamonaviy ishlanmalar bo‘lsayu, nima uchun ularga bo‘lgan ehtiyoj yetarli darajada emas? Bizning nazarimizda, buning bir nechta sabablari mavjud. Birinchidan, aksariyat xo‘jalik subyektlari an’anaviy tadbirkorlik faoliyatiga o‘rganib qolishgan va shu sababli, ular innovatsion loyihalarga qiziqishmaydi. Ikkinchidan, innovatsion loyihalar orqali foyda olish bo‘yicha tadbirkorlarda yetarli bilim-ko‘nikmalarning mavjud emasligi va shuning uchun tavakkal qilishdan qo‘rqish. Uchinchidan, xo‘jalik subyektlari o‘rtasida raqobat darajasining yetarli darajada emasligi va buning natijasida ularning o‘zlari faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik turida yangilik qilishga bo‘lgan ishtiyoqning va iste’molchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish bo‘yicha tashabbasning sust ekanligi. Zero, raqobat muhiti mavjud bo‘lmagan hududda va sohada innovatsion loyihalar hamda startaplarga bo‘lgan ehtiyoj ham sezilarli darajada bo‘lmaydi, ya’ni yuqorida aytib o‘tganimizdek, tadbirkor o‘z faoliyatiga yangiliklarni kiritishga ehtiyoj sezmaydi, faoliyat esa eskichasiga davom etib ketaveradi, go‘yoki raqobat, iqtisodiy muhit-tenglik muhitiday. To‘rtinchidan, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan xo‘jalik subyektlari o‘z faoliyatlariga innovatsiyalarni faol jalb etmayotganlarining sabablaridan yana biri sifatida, ushbu subyektlarning imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Ya’ni, xo‘jalik subyektlarining aksariyat qismida innovatsion va startap loyihalarni ishlab chiqarish uchun hozirgi talabdan kelib chiqqan holda innovatsion loyihalar va yangiliklar ustida ish olib bora oladigan va bu bo‘yicha zaruriy bilm-ko‘nikmalarga ega bo‘lgan qobiliyatli ishchi-xodimlarning mavjud emasligi yoki yetishmasligi, shuningdek, ko‘p holatda tadbirkorlarning bu kabi tajribali xodimlarni

qoniqtiradigan maosh bilan ta’minlay olmasligi hamda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish uchun moliyaviy holati va moddiy-texnika ta’minoti darajasining qoniqarli darajada emasligi. Beshinchidan, respublikamizdagi tadbirkorlarning aksariyatida tadbirkorlik hamda uni boshqarish, ishbilarmonlik etikasi, investorlar va hamkorlar bilan ishlash ko‘nikmasi kabi biznesga oid bilim-ko‘nikmalarning etishmasligi ham tadbirkorlik faoliyatiga innovatsiyalarni faol joriy etishga ta’sir etadigan omillardan biri sifatida hisoblashimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari marketing tadqiqotlaridan unumli foydalanadilar. Bunday tadqiqotlar muammoni o‘rganish va uni hal etishga qaratilgan bo‘ladi. «Marketing tadqiqotlari o‘zining texnikasiga ko‘ra to‘rtta “miqdoriy tahlil va bashoratlash», «sinovdan o‘tkazish», «tajriba-sinov ishlab chiqarish va test», «tekshirib ko‘rish va nazorat» guruhlarga bo‘linib, har bir guruh bir nechta usulni qamrab olishi mumkin. Ushbu guruhlar tarkibiga kiruvchi usullar aniq bir vazifani hal qilishga moslashgan bo‘ladi»[154].

Yuqorida mulohazalarimiz va keltirib o‘tilgan tahliliy materiallar asosida xulosa qilib aytib o‘tishimiz mumkinki, ishlab chiqarishga (xizmat ko‘rsatishga) innovatsion loyihalarni faol joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada jadallashtirish hamda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mamlakatimizdagi mavjud tadbirkorlarning va ushbu faoliyat bilan shug‘illanishni rejalashtirib turgan shaxslarning biznesga oid zamonaviy bilim-ko‘nikmalar bilan ta’minlash hamda davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida xabardor qilish, ularga o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil etish va innovatsiyalarni amaliyotga to‘g‘ri joriy etish yo‘llarini hamda bunda tadbirkor tomonidan e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlarni ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Negaki, buning natijasida joylarda ishbilarmonlik muhiti darajasi oshadi, tadbirkorlarda innovatsion loyihalar hamda muvaffaqiyatli startaplarni ishlab chiqish va ilgari surish bo‘yicha zarur ko‘nikmalar shakillanadi. Shuningdek, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha tadbirkorlarda yuzaga keladigan texnik hamda psixologik to‘siqlarga ham barham beriladi. Shu nuqtai nazardan, respublikamizdagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda barcha tadbirkorlarni va ushbu faoliyatga qiziquvchilarni Savdo-sanoat palatasining hududiy bo‘limlarida qisqa

[154]V.Jurayev. Marketing tadqiqotlarini rivojlantirish-iqtisodiyot tarmoqlari yuksalishi garovi. http://biznes-daily.uz

muddatli (bir haftalik) kurslarga jalb etish va ushbu kursni muvaffaqiyatli tugatganlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir o‘rinda, innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri hamda samarali tashkil etishlari va yoki rejalashtirishlari uchun kerak bo‘ladigan, qonunda taqiqlanmagan axborotlar hamda ma’lumotlar (misol uchun, hududlardagi mavjud resurslar bazasi, infratuzilma, aholi soni, bandlik darajasi, fuqarolarning o‘rtacha daromadi va boshqa shu kabi ma’lumotlar) to‘liq va rasman e’lon qilinishi lozim. Negaki, har qanday tadbirkor ma’lum bir hududda faoliyatini boshlar ekan u eng avvalo, ushbu hududga oid bo‘lgan ma’lumotlarga qiziqishi tabiiy, zero, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish jarayonida e’tibor berilishi kerak bo‘ladigan bir qator omillar bo‘lib, ushbu omillar tadbirkorlarning rejalari va strategik dasturlarining hayotiyligini ta’minlaydi. Bu omillar quyidagilar:

- ✓ hudud aholisi soni va uning demografik holati;
- ✓ aholining ish bilan band bo‘lmagan qismi;
- ✓ har bir fuqaroga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromad ko‘rsatkichi;
- ✓ hududning tabiiy shart-sharoitidan kelib chiqqan holda iqtisodiy imkoniyatlari.

Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatida turli xildagi risklardan saqlanish yoki uni pasaytirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatining har bir turi bo‘yicha marketing tadqiqotlarini kengaytirish va rivojlantirish. Bu tadbirkorlik faoliyatida talabning real hajmini aniqlash, taklif darajasi bilan solishtirish, bozorda muvozanatni o‘rnatish imkonini beradi.

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatida raqobat muhitini yanada jonlantirish maqsadida xo‘jalik subyektlari faoliyatini o‘rganib borish va o‘zi faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni faol joriy qiluvchi iqtidorli tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim. Negaki, buning natijasida raqobat muhitidagi iqtisodiy tenglik holati o‘zgaradi va tadbirkorlik subyektlarining bozorni egallash imkoniyatlari har xil bo‘lib, raqobat muhiti shakllanadi. Natijada iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan subyektda innovatsion faoliyatga qiziqish kuchayadi.

Muxtasar qilib aytishimiz mumkinki, yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda tadbirkorlarning o‘z faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil etgan holda innovatsiyalarni faol joriy etishga rag‘batlarini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Haqiqiy tadbirkorlik negizida novatorlik, yangilikni kiritish, hayotga tadbiq etish yo‘li bilan rivojlanishni ta’minlash yotadi. Innovatsiya faoliyatiga ham xos bo‘lgan belgilar bo‘lib, tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida xizmat qiladi. Tadbirkorlikni innovatsion faoliyatsiz his qilib bo‘lmaydi, ushbu jihatdan tadbirkorlik faoliyati oddiy biznesdan farq qiladi. Faqat innovatsiyalarga tayangan holda tadbirkorlikni yuritish tadbirkorlik faoliyati maqsadiga xos bo‘lgan yutuqlarni va yuqori daromadni ta’minlaydi. Bunda tadbirkorlik faoliyati erkin raqobat muhitida sinmaydi, u faol rivojlanadi, taraqqiyotga erishadi, yuksaladi.

Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyaning ahamiyati juda ham katta. Korxonalarda innovatsion yangiliklarni o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida qo‘llash xarajatlarning keskin kamayishiga hamda mehnat unumdorligining o‘sishiga olib keladi. Buni biz rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Masalan Yaponiya, Amerika, Germaniya kabi mamlakatlar shular jumlasidandir[155]. “Forbes” jurnalining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyodagi eng yuqori darajadagi innovatsion kompaniyalarning deyarli 10 foizi Yaponiyada joylashgan ekan. Dunyoni o‘zgartira olgan eng katta ixtirolarning ko‘pchiligi aynan Yaponiyada yaratilgan. Masalan, cho‘ntak kalkulyatori (1970), android robotlar (2003), ekspress poyezdlari (1964) va boshqalar[156]. Endi Germaniyaga to‘xtaladigan bo‘lsak, “National Geographic” Germaniyani “Yevropaning eng kuchli iqtisodiy va industrial kuchi” deb ta‘riflaydi, chunki Germaniya tadqiqot, texnologiya va ilm-fanni rivojlantirishga juda ko‘p kuch va vaqt sarflaydi. Gete institutining ma‘lumotiga ko‘ra, “2016-yilda Germaniya hukumati tomonidan 80 milliard yevro ilmiy tadqiqotni rivojlantirishga ajratilgan. Germaniya bu borada AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan yirik global investordir. Germaniya tadqiqot va rivojlanishga katta miqdorda iqtisodiy chiqimlarni bag‘ishlaydigan

[155] Олимова Н.Х., Юлдашев Д.Т. The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities // Молодой ученый. — 2016. — №9. — С. 682-683

[156] www.weforum.org (World economic forum)

eng yaxshi o‘n mamlakat ichida. Shuningdek, u yangi innovatsiyalarni yaratish bo‘yicha ham birinchi o‘ntalikda”. Bilamizki, Germaniya – kichik va o‘rta biznes mamlakatdir. Germaniyada 500 tagacha ishchisi bo‘lgan har qanday tadbirkorlik kichik biznes hisoblanadi va u yerdagi kompaniyalarning 99 foizini aynan shu turdagi kompaniyalar tashkil etadi. Buni aniq sonlar bilan aytganda 3,6 mln kompaniya yoki Germaniyadagi barcha ish o‘rinlarining 80 foizi demakdir”[157]. Bulardan shu narsa yaqqol ko‘rinadiki, rivojlangan mamlaktlarda kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining taqdirini belgilaydigan asosiy omildir.

Innovatsion tadbirkorlik uch asosiy turga bo‘linadi: ***Mahsulot innovatsiyasi*** – korxona mahsulotini sotish darajasi imkoniyatini yangilash jarayonini namoyon etadi. ***Texnologiya innovatsiyasi*** – ishlab chiqarish imkoniyati (potensial) yangilash jarayonidir. ***Ijtimoiy innovatsiyalar*** korxonaning gumanitar doirasini reja asosida yaxshilash jarayonini namoyon etadi. Shunday qilib hozirgi sharoitda faqat innovatsion tadbirkorlik raqobatga bardosh bera oladi, rivojlana oladi, taraqqiyotga erisha oladi, chunki uni innovatsiyalar yuksaltira oladi. Novatorlik asosida innovatsiya faoliyatiga tayanib tadbirkorlikni tashkil etish, oddiy biznesni yuritishdan farqli ravishda rivojlanishni ta’minlaydi. Doimiy izlanishga, yangilikni kiritishga, raqobatbardoshlikni yo‘lga qo‘yishga, muntazam modernizatsiyalarni ta’minlashga, fan va texnika yutuqlari natijalarini joriy etib borishga qaratilgan tadbirkorlik albatta o‘z taraqqiyotiga erisha oladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida faqat innovatsion tadbirkorlik raqobatga bardosh bera oladi, rivojlana oladi, taraqqiyotga erisha oladi, chunki uni innovatsiyalar yuksaltira oladi. Novatorlik asosida innovatsiya faoliyatiga tayanib tadbirkorlikni tashkil etish, oddiy biznesni yuritishdan farqli ravishda rivojlanishni ta’minlaydi.

Tadbirkorlar faoliyatining samaradorligini oshishida innovatsion yangiliklar yaratilishi hamda ularning amaliyotda qo‘llanilishi juda ham muhim hisoblanadi. Bu borada ham yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni izchil yo‘lga qo‘ya oladigan mustahkam iqitisodiy sohaga aylanishini ta‘minlash lozim.

[157] www.make-it-in-germany.com

§ 17.3. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning innovatsiya faoliyati zaruriyati. Innovatsiya strategiyasining mohiyati

Innovatsion strategiyani shakllantirishda bir qator tashqi va ichki omillarni hisobga olish kerak, ular orasida iqtisodiy muhit prognozlari, korxona salohiyatini tahlil qilish, innovatsiyalarni korxonaning umumiy strategiyasiga muvofiqligi va boshqalar bor. innovatsion strategiya korxonaning umumiy strategiyasi, iqtisodiy muhit tahlili, korxonaning ilmiy-texnikaviy, kadrlar salohiyati va o‘ziga xos innovatsion loyihalarini birlashtiradi. Mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bois ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, diversifikatsiya qilish masalalariga hozirda davlatimizning ustuvor vazifsia sifatida qaralmoqda. Hozirgi zamonaviy sharoitda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosida nazariya yotibdi, bu fikrimizni nemis klassigi Immanuil Kant (1724-1804)ning “nazariyasiz amaliyot ko‘rdir”[158] degan so‘zlari ham tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda milliy innovatsion rivojlanishning nazariy asosiga xizmat qiladigan asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olishini lozim topdik. Zamonaviy sharoitda har qanday mamlakatning innovatsion rivojlanishining milliy tizimini tashkil etuvchi va uni rag‘batlantiruvchi ikkita muhim omil mavjud: “innovatsion muhit”, “innovatsion infratuzilma”ni shakllantirish hamda uni amaliyotga joriy etish omilidir. Bizning nazarimizda, “innovatsion iqtisodiyot”ni uzluksiz ishlab chiqarish va raqobatni ta’minlashga xizmat qiladigan xo‘jalik yuritishning zamonaviy usuli sifatida qabul qilish lozim.

O‘zbekistonda mulkchilikning turli shakllari rivojlanishiga yo‘l ochilishi bilan tadbirkorlikni rivojlantirishning haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yaratildi, ularga: mustaqil xo‘jalik yuritish, mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, narx belgilash va tasarruf qilish erkinligi; ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga bo‘lgan mulkchilik huquqlarining ta’minlanishi; erkin tadbirkorlikni ta’minlaydigan muayyan umumiy qonunchilik, soliq imtiyozlari, tadbirkorlikni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjudligi; yetarli moliyaviy mablag‘, moddiy texnika resurslari, yuqori malakaga ega bo‘lish, iqtisodiy xavf-xatarga qo‘l ura bilish va hokazolarni kiritish mumkin. Hozirda barcha xo‘jalik

[158] Иммануил Кант. “Трактаты и письма. — М.: «Наука», 1980, Стр. 523. 710 с.

yurituvchi sub’ektlar teng huquqli bo‘lib, raqobat muhitida o‘z faoliyatini olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lishadi.

Erkin raqobat muhitini yaratilishi va uni tobora kuchayib borishi xo‘jalik yuritish sub’ektlari zimmasiga ularning mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, doimiy tarzda rivojlanishni, yangilanishni, raqobatbardosh bo‘lishni yuklaydi. Bunday sharoitda oddiy xo‘jalik yuritish naf keltirmaydi, raqobatbardoshlikni taminlamaydi, raqobatbardoshlikka erishish va uni doimiy ravishda ta’minlash xo‘jalik yurituvchi sub’ekt zimmasiga mulkiy shaklidan qat’iy nazar, tadbirkor bo‘lishni, rivojlanish yo‘lini tanlab olishni, iqtisodni belgilab olish vazifalarini yuklaydi. Raqobatbardosh mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish va ayni paytda yuqori daromadga erishish xo‘jalik yurituvchi sub’ektdan izlanuvchi ijodkor bo‘lishni, yangiliklarni doimiy joriy etishni, yaratuvchan bo‘lishni, yangi ishni amalga oshiruvchi, fan va texnika yutuqlari natijasidan oqilona foydalanuvchi, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi xo‘jalik yuritishni yangi tashkiliy jihatlarini targ‘ib etuvchi, boshqaruvni takomillashtiruvchi, bozorni tadqiq etuvchi bo‘lishni, tovarlarni yangi turlarini ishlab chiqaruvchi, resurs tejash usullaridan foydalanuvchi, raqobat muhitiga moslashuvchi, novator bo‘lishni, barcha innovatsiyalarini o‘z faoliyatiga kiritib boruvchi bo‘lishni, uddaburonlik va hokazolarni talab etadi. Shu bois ham har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt birinchi navbatda tadbirkor sifatida innovatsiya faoliyatini yuritishi zarur.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z faoliyatini oddiy yo‘l bilan olib borar ekan, u erta yoki kech raqobat muhitida yengiladi, ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi, rivojlana olmaydi, oxir oqibatda yengiladi, bankrotlikka uchraydi. Shuning uchun ham har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z faoliyatini innovatsiyalar asosida amalga oshirishi zarur. Albatta innovatsiyalar keng qamrovlidir. Innovatsiya strategiyasi korxonaning tashkiliy, ishlab chiqarish, texnologik, boshqaruv va boshqa tuzilmaviy salohiyatidan kelib chiqib shakllantiriladi. Innovatsiya strategiyasi o‘zining qamrovi, muddatlari, sohalari, yo‘nalishlari bilan farqlanadi. Innovatsiya strategiyasi korxonaning o‘z imkoniyatlari hamda iqtisodiyotning bozor infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Ko‘p hollarda innovatsiya strategiyasi iqtisodiyotdagi umumiy muhit bilan, erkin raqobat muhiti holati bilan, soha va tarmoqlardagi holat, ishlab chiqarish, texnologik, tadbirkorlik salohiyatlari va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib shakllantiriladi.

Korxona faoliyati tanlov asosida tashkil etilishi uni u yoki bu innovatsiya strategiyalarini ishlab chiqishga undaydi. Innovatsiya strategiyasini shakllantirish yuqorida qayd etilganidek innovatsiya loyihasi sifatida shakllantiriladi. Innovatsion loyihalar portfeli ko‘pgina hollarda ular tarkibidan tanlovni tashkil etish imkoniyatini beradi. Innovatsion loyihalar muayyan muddatlarga texnologik, boshqaruv va boshqa tuzilmaviy salohiyatidan kelib chiqib shakllantiriladi. Innovatsiya strategiyasi o‘zining qamrovi, muddatlari, sohalari, yo‘nalishlari bilan farqlanadi. Innovatsiya strategiyasi korxonaning o‘z imkoniyatlari hamda iqtisodiyotning bozor infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Ko‘p hollarda innovatsiya strategiyasi iqtisodiyotdagi umumiy muhit bilan, erkin raqobat muhiti holati bilan, soha va tarmoqlardagi holat, ishlab chiqarish, texnologik, tadbirkorlik salohiyatlari va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib shakllantiriladi. Korxona faoliyati tanlov asosida tashkil etilishi uni u yoki bu innovatsiya strategiyalarini ishlab chiqishga undaydi. Innovatsiya strategiyasini shakllantirish yuqorida qayd etilganidek innovatsiya loyihasi sifatida shakllantiriladi. Innovatsion loyihalar portfeli ko‘pgina hollarda ular tarkibidan tanlovni tashkil etish imkoniyatini beradi. Innovatsion loyihalar muayyan muddatlarga Innovatsiya strategiyasi innovatsiya loyiha sifatida shakllantirilib, uning biznes rejasi ishlab chiqiladi va istiqboli belgilanadi. Innovatsiya strategiyasini mukamalligi avvalom bor xo‘jalik yurituvchi sub’ekt yoki korxona salohiyatiga, bilimlar darajasiga, ijodiy yondoshuvga, yaratuvchanlikka, istiqbolni tasavvur qila olishga, axborotga ega bo‘lishga, o‘rnatilgan xalqaro aloqalarni rivojlantirishga, zamonaviy texnologiyalarni bilishga va qator boshqa omillarga bog‘liqdir. Korxona tadbirkorlik faoliyati salohiyati uning innovatsiya strategiyasini aniqlovchisi sifatida xizmat qiladi. Innovatsiya sirategiyasini shakllantirishda yana asosiy omillardan biri erkin bozor holatidan kelib chiqib, uni istiqbolini belgilash va faoliyat tanlovini aniq amalga oshirishdir.

Umuman olganda, korxonaning innovatsion strategiyasi (innovatsiya strategiyasi) ma'lum mantiqiy tuzilma sifatida tavsiflanishi mumkin, shu asosda korxona innovatsion sohada uning oldida turgan asosiy vazifalarni hal qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, har bir alohida yangilik uchun ham, ishlab chiqarilgan har bir mahsulot (xizmat) uchun ham qat'iy individual strategiya va taktikalar mavjud. Shu bilan birga, korxonaning innovatsion faoliyatining keng qamrovli qarashlari o‘ziga

xos strategiyalarni ham, yangiliklarni ishlab chiqarish va amalga oshirishning turli jihatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Innovatsiyalar har qanday ishlab chiqarishni (xizmat ko‘rsatishni) uzluksiz rivojlantirishning eng maqbul yo‘li hisoblanadi. Albatta innovasiyalar o‘z-o‘zidan hayotimizga kirib kelmaydi. Uning uchun ma’lum bir intellektual-ijodiy mehnatni, vaqtni hamda mablag‘larni talab etadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, iqtisodiyot sohalariga kiritilayotgan investisiyalarning aksariyati innovasion faoliyatni faollashtirishga emas, balki ishlab chiqarish omiliga qaratilgan. Iqtisodiy jihatdan bu holatga baho beradigan bo‘lsak, kiritilayotgan investisiyalar xo‘jalik subyektlarining faqatgina bozor raqobati sharoitida jon saqlashi uchungina kiritilayotgandek. Shuning uchun, investision jarayon ishlab chiqarish omiliga emas, balki innovasion jarayon faolligini oshirishga qaratilishi zarur. Shundagina har bir korxona o‘z faoliyatining bozordagi mavqyeini yanada oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Demak kelgusida investision-investision strategiyani ishlab chiqishda bu holatni albatta e’tiborga olish kerak. Innovasion-investision strtegiyasi bu - biznesning doimiy parametrlarini uyg‘unlashtirish orqali biznesning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishish uchun moliyaviy chora-tadbirlar tizimini shakllantirishdir. Bunda:

1. Loyiha hujjatlarini, tasdiqlovchi hujjatlarni, loyiha ta’minoti tayyorlanadi.

2. Har bir strategiyaning samaradorligi baholanadi.

3. Yuqori ustuvorlik nuqtai nazaridan uzoq muddatli strategik biznes maqsadlariga maksimal darajada mos keladigan strategiya tanlanadi.

Investision-investision strategiyalar amalga oshirish ***muddatlariga qarab*** quyidagicha tasniflanadi:

1. *Uzoq muddatli strategiyalar.* Bu uch yildan kam bo‘lmagan muddatni o‘z ichiga oladi. Bunday strategiyalar turli darajadagi xavf va kutilgan daromadga ega bo‘lgan har qanday vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

2. *O’rta muddatli strategiyalar.* Innovasion-investision davr bir yildan uch yilgacha. Bunday strategiya uchun vositalar to‘plami uzoq muddatli bilan solishtirganda biroz kichikroq. O‘rta muddatli strategiyaning bir qismi sifatida narxlari o‘zgarib turadigan vositalarni

tanlash mumkin, ammo bir yildan uch yilgacha bo‘lgan davrda foyda keltirishi mumkin.

3. *Qisqa muddatli strategiyalar.* Bir yilgacha bo‘lgan innovasion-investision davrini o‘z ichiga oladi. Ularning daromadliligi kotirovkalardagi vaqtinchalik tebranishlarga bog‘liq.

Shu bilan birga innovasion-investision strategiyalar ularning ko‘lamiga qarab korxona miqyosida, ma’lum bir xudud bo‘yicha va mamlakat bo‘yicha ishlab chiqilishi mumkin.

Korxonaning innovasion-investision strategiyasi asosan quyidagi masalalar yechimiga qaratiladi:

1. Korxona ishlab chiqarish quvvatini oshirish.
2. Korxonada ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish.
3. Korxonada kadrlar salohiyatini oshirish.
4. Korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlash.

Xududning innovasion-investision strategiyasi esa:

1. Hududning kompleks iqtisodiy rivojlanishi-ni ta’minlash.
2. Hududni moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash.
3. Xududning bozor infratuzilmasini rivojlantirish.
4. Hudud aholisining yashash darajasini oshirish.
5. Hududning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish

masalalarini o‘z ichiga oladi.

Mamlakatning innovasion-investision strategiyasi quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

1. Mamlakat YaIM hajmini oshirish.
2. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish.
3. Ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish.
4. Inson kapitali imkoniyatlarini oshirish.
5. Mamlakat aholisining yashash darajasini oshirish.

Mamlakatda iqtisodiyotni modernizasiya qilishning to‘liq tugallanmaganligi, iqtisodiyotda bozor instrumentlarining zaifligi, xom ashyo resurslarini eksport qilish evaziga texnologik asbob-uskunalar, mashinalar, iste’mol tovarlari importiga asoslangan tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarning saqlanib qolganligi va mamlakat xududlarining notekis rivojlanishi malakatmizda investision siyosatni takomillashtirish zaruratini tug‘diradi.

Investisiyalarning vazifasi ishlab chiqarishni kengaytirish bilan birga ma’lum texnika va texnologiyalarning kirib kelishini ta’minlaydi. Mamlakatmizga kirib kelayotgan texnologiyalarni odatda yangi texnologiyalar deb ataymiz (biz uchun). Ammo bu texnologiyalar qaysi

mamlakatdan kiritilayotgan bo‘lsa, o‘sha mamlakat uchun bu yangi emas, balki jismonan eskirgan yoki bo‘lmasa ma’naviy eskirgan texnologiyalar hisoblanadi. Ularni umri qisqa bo‘ladi. Ular ishlab chiqarishni vaqtincha rivojlantirishga yordam beradi. Bunday holatni tubdan o‘zgartirish, ya’ni ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishdagi yangi texnologiyalarni mamlakat kadrlar salohiyatidan kelib chiqib mamlakatimizda yaratilishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bunda inson kapitali eng muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kapitalining yuksalishi, uning intellektual salohistini oshirish innovasion-investision strategiyaning bosh maqsadiga aylanishi zarur. Investisiyalarni bu yo‘nalishga jalb etish uning qaytarish muddatini ma’lum muddatga uzaytirsada, kelgusida uning samarasi benihoya katta bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Innovatsiya, innovatsion faoliyat, mahsulot innovatsiyasi, texnologik innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya, innovatsiya strategiyasi.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalarning mohiyati

2. Xo‘jalik yurituvchi subektlar innovatsion faoliyatining ahamiyati

3. Innovatsiya strategiyasi shakllantirish tartibi qanday?

XVIII BOB. INNOVATSION LOYIHALARNI VENCHURLI MOLIYALASHTIRISH

§ 18.1. Venchurli moliyalashtirish jarayoni tarkibi
§ 18.2. Venchurli moliyalashtirishda yuzaga keladigan innovatsion risklar va ularni boshqarish
§ 18.3. Ilmiy, ilmiy-texnologik parklar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi parklar

§ 18.1. Venchurli moliyalashtirish jarayoni tarkibi

Zamonaviy ma’noda xususiy biznesni moliyalashtirishning alternativ manbai sifatida venchur kapitali AQShda 50-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. «Venchur kapitali» atamasi zamonaviy biznes amaliyotiga allaqachon kirib kelgan va ushbu hodisa rivojlangan mamlakatlarda katta nisbatlarga ega bo‘lib, texnik va tashkiliy dizaynga ega bo‘ldi. Venchurli kapital ikki xil xususiyatga ega: bir tomondan bu risk va yangi yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun urinish, ikkinchi tomondan yo‘qotishni emas, balki kapitalni ko‘paytirish istagi. Umumiy biznesda o‘z ulushiga ega bo‘lgan venchur kapitali egasi tavakkalchilikni baham ko‘radi. Kompaniya muvaffaqiyatga erishsa, foydaning tegishli qismini oladi. Xatarning yuqori darajasi hisobga olinsa, u qoida tariqasida biznesga qiziqish bildiradi, chunki u o‘zi uchun investitsiyalaridan yuqori daromad olish imkoniyatini ko‘radi.

Venchur kapitalining birinchi namoyondalari, amerikalik iqtisodchilar J.V.Fenn, N. Layang, S. Prauz, P.Jonson venchur kapitalni ishlab chiqarish va sotish bosqichida katta o‘sish potensialiga ega bo‘lgan innovatsion kichik biznesning ustav kapitalini moliyalashtirish deb ta’rifladilar.

Venchurli investitsiya jarayoni ishtirokchilarining eng taniqli professional tashkiloti – Yevropa venchur kapitallari assotsiatsiyasi (YEVCA) «venchur kapital» tushunchasiga quyidagi ta’rifni taklif etadi: «Xususiy korxonalarga bir vaqtning o‘zida ularning rivojlanishi, kengayishi va qayta tashkil etilishida katta o‘sish potensialini namoyish etadigan professional firmalar tomonidan berilgan kapital[159]«. Venchur kapitali deganda qimmatli qog‘ozlari fond bozorida kotirovkalanmagan yosh kompaniyalarning investitsiyalarini amalga oshiradigan va bir vaqtning o‘zida ularni boshqarishda ishtirok etadigan ixtisoslashgan firmalar tomonidan investitsiya qilingan kapital sifatida belgilanishi

[159] Voronov V.A., Ivina L.V. Osnovnie ponyatiya i termini venchurnogo finansirovaniya. M., 2002.

mumkin. Maqsad – investitsiyalarning yuqori rentabelligidir. Aslida, venchur kapitalini shakllanishining dastlabki bosqichida bo‘lgan kompaniyalarga, ularni kengaytirish va modernizatsiya qilish uchun mavjud korxonalarga, yirik korporatsiyalar yoki xususiy firmalar tarkibiga kiradigan ayrim korxonalarni moliyalashtirish uchun besh yil davomida taqdim etiladigan uzoq muddatli investitsiyalar manbai sifatida tavsiflash mumkin. «Venchur kapitali» tushunchasiga ko‘ra, yuqori darajadagi tavakkalchilik va yuqori daromadni o‘z ichiga olgan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya kiritish uchun mo‘ljallangan moliyalashtirish manbalarining umumiyligini tushunish maqsadga muvofiqdir. Kichik hajmdagi venchur kapital innovatsion korxonalar, qoida tariqasida, ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni yangi texnologiyalar va mahsulotlarga aylantirish bilan band. Bunda ular oddiy kichik korxonalardan farq qiladi.

Venchur innovatsiyalarni rivojlantirish ikkita asosiy shartni talab qiladi: venchur moliyalashtirishning mavjudligi va venchur faoliyatining to‘g‘ri tashkiliy shaklini tanlash. Innovatsiyalarni rivojlantirish va joriy etishni moliyalashtirishning asosiy usuli asta-sekin venchur investitsiyalariga aylanishi kerak, chunki ilgari iqtisodiyotning ushbu sektori tayanadigan markazlashtirilgan moliyalashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z o‘rnini yo‘qotmoqda. Innovatsiyalarni rivojlantirish va joriy etishni moliyalashtirishning asosiy usuli asta-sekin venchur investitsiyalariga aylanishi kerak, chunki ilgari iqtisodiyotning ushbu sektori tayanadigan markazlashtirilgan moliyalashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z o‘rnini yo‘qotmoqda. Venchur kapital uchta asosiy o‘qga bo‘linadi, ularsiz ushbu iqtisodiy toifaning mavjudligi umuman mavjud bo‘lishi mumkin emas. Xususan, bu quyidagilarni anglatadi:

- amaliy risklar muhiti;
- daromadning yuqori darajasi;
- venchur investitsiya kiritish jarayoni.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu uchta o‘qning barchasi ham uni qo‘llaydigan mamlakat va «venchur kapital» toifasini baholashda tanlangan yondoshuvdan qat’i nazar o‘zgarmas bo‘lib qoladi. O‘zbekistonda o‘tish davri sharoitida, qattiq raqobat sharoitlari va korxonalarning vayron bo‘lishi ehtimoli yangi texnologiyalarni, mahsulotlarni, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish usullarini joriy etishni talab qilganda, innovatsiyalarni o‘zlashtirishning yanada

samarali shakllarini qo‘llash zarur. Bunday variantlardan biri venchur kapitaldir (18.1 – rasm).



18.1 – rasm. Venchur kapital yordamida innovatsiyalarni o‘zlashtirish

Ushbu yondashuv bilan kompaniya buyurtma asosida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaradi, shu bilan ishlab chiqish va tajriba amalga oshirish xavfini minimallashtiradi, investor g‘oya haqida ishonchli ma’lumotga ega bo‘ladi va innovator daromadning bir qismi shaklida zarur mablag‘larni oladi. Shunday qilib, venchur kapitali iqtisodiy kategoriya sifatida investorlarning va innovatsion kompaniyalarning innovatsiyalar uchun intellektual mulkni tan olish va baholash jarayonida innovatsion korxonani yaratish va rivojlantirishda uzoq muddatli investitsiya kiritish, investitsiyalarni kafolatlash va xavflarni oldini olish va daromadlarni o‘zaro foydali taqsimlash jarayonida o‘zaro munosabatlarni ifoda etadi. Iqtisodiy harakteriga ko‘ra, venchur moliyalashtirish – bu boshlang‘ich badalni (ustav kapitaliga qo‘shiladigan ulush) tezda ko‘paytirish va keyinchalik bozor narxida amalga oshirish maqsadida istiqbolli firmalar, kompaniyalarni yaratish va rivojlantirishning zamonaviy shakli. Venchur kapital qo‘yilmalar uzoq vaqt, risk elementlari, kompaniyani boshqarishda ishtirok etish va dividendlar ko‘rinishidagi kapitalga nisbatan ko‘proq daromad olish bilan bog‘liq. Venchur kapital qo‘yilmalari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- uzoq muddatli – uch yildan yetti yilgacha;

- investitsiya ob’ektlari – venchur kapital egalarining fikriga ko‘ra innovatsiyalarni ishlab chiqish yoki amalga oshirish yoki biznes-jarayonlarni qayta qurish orqali o‘zlarining bozor narxlarini tez oshirib borishga qodir bo‘lgan kompaniyalar;

- investor, boshqaruv kompaniyasi orqali investitsiya qiymatini oshiradigan venchur kapital egalarining tajribasi va aloqalari asosida qo‘llab-quvvatlash va maslahat berish maqsadida investitsiya qilingan kompaniyaning boshqaruv jamoasi bilan hamkorlik orqali investitsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- kapital qo‘yilmalarning rentabelligi ko‘proq investitsiya davri oxirida kapital qiymatining oshishi shaklida bo‘ladi.

Venchurli moliyalashtirish innovatsion zanjirning barcha elementlariga ta’sir qilmaydi, odatda tajribali ishlab chiqarish bilan boshlanadi va bozorda innovatsion mahsulotni ishga tushirish bilan yakunlanadi, fundamental tadqiqotlar va mahsulot ishlab chiqarish va sotishni yanada rivojlantirish masalalariga ta’sir qilmasdan.

Venchurli moliyalashtirish manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- innovatsion korxona muassislari va uning sheriklarining mablag‘lari;

- uchinchi tomon ixtisoslashgan (venchur) investorlar va kreditorlarning mablag‘lari.

Hozirgi vaqtda texnologik innovatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari korxonalarning o‘z mablag‘lari: foyda, amortizatsiya, ustav kapitali, qimmatli qog‘ozlar chiqarilishidan keladigan daromadlar va moliyaviy-sanoat guruhlarining resurslari. Texnologik qayta jihozlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar manbalari tarkibi jahon investitsiya bozori tarkibiga yaqinlashdi, ularning qariyb 65-70 foizi korxonalarning shaxsiy mablag‘lari bo‘lib, ularning 80 foizi amortizatsiya va 20 foizi sof foyda hisoblanadi. Bu borada jahon ishlab chiqarish bozorlariga chiqish uchun O‘zbekiston yangi raqobatbardosh loyihalarni ishlab chiqishi zarur. Ushbu maqsadlar uchun venchur fondlari tashkil etiladi. Bunday fondlarni tashkil etishning mohiyati eng ilg‘or ishlanmalar sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi xatarlarni qoplashdir. Venchur fond – bu o‘z hisobvaraqlariga mablag to‘playdigan tashkilot bo‘lib, keyinchalik innovatsiyalarni joriy qilishdan yoki patentlangan nou-xauga ega

bo‘lish huquqiga ega bo‘lish imkoniyatini baham ko‘rishda ishtirok etish asosida istiqbolli ishlanmalarga investitsiya qilinadi.

Venchur kapitali fondini venchur kapital egasi boshqaradi. Uning o‘zi innovatsion kompaniyalarga kapital qo‘ymaydi. Venchur kapital egasi – bu venchur fondiga mablag kiritgan sindikatlangan (jamoaviy) investorlar va ushbu aksiyalarni sotib olgan innovatsion kompaniya o‘rtasida vositachi. Jamg‘arma tomonidan olingan foyda investorlarga tegishli va venchur kapital egasi ushbu foydaning faqat bir qismiga tayanishga haqlidir.

§ 18.2. Venchurli moliyalashtirishda yuzaga keladigan innovatsion risklar va ularni boshqarish

Innovatsion risklar, birinchi navbatda, tubdan yangi tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarishga investitsiya qilish, yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘qotishlar ehtimoli, chunki ularning yangiliklari va farqlari tufayli yakuniy iste’molchini topa olmaydilar. Shu bilan birga, har bir innovatsion loyihaning o‘ziga xos xavf-xatar turlari mavjud, ular loyihaning bosqichlariga, o‘ziga xoslik darajasiga va nihoyat, qamrov doirasiga bog‘liq. Venchur moliyalashtirish doirasida innovatsion loyihani amalga oshirishning 1-bosqichi loyiha g‘oyasini shakllantirish va loyihaga sarmoya kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish o‘rtasidagi vaqt oralig‘i sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Ushbu bosqichda quyidagi risklar yuzaga kelishi mumkin:

- **yangilik riski** – ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmatning mutlaqo yangi sifati analoglarning mavjudligi sababli yo‘q bo‘lib ketish xavfi. Shuning uchun bunday mahsulotlar uchun bozorni oldindan baholash juda muhim va ixtiro qilingan mahsulot (xizmat) ning asosiy parametriga almashtiriladigan mahsulotlar yo‘qligiga ishonch hosil qilish kerak.
- **asoslanganlik riski** – bu mutlaqo yangi mahsulot, noqulayligi, yuqori narxi, unga ehtiyojning yetishmasligi va boshqalar tufayli butunlay talab qilinmaydigan bo‘lib qolishi mumkin bo‘lgan holat.
- **egalik qilish riski** – bu investitsiyalarni oluvchilar o‘z g‘oyalarini investorlarga topshirish vaqtida, ixtirochining ma’lumot va qonuniy qobiliyatsizligi tufayli mulkka investorga o‘tish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan risk.

Innovatsion risklarni boshqarish riskning boshlang‘ich darajasini maqbul darajaga tushirishga yo‘naltirilgan aniq innovatsion korxona

uchun iqtisodiy jihatdan samarali tavsiyalar va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion loyihani venchur moliyalashtirish jarayonida ushbu risklarni boshqarish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi[160]:

1)innovatsion loyiha xavfini baholashning mavjud usullarini ko‘rib chiqish;

2)innovatsion loyihaning mumkin bo‘lgan xavflarini aniqlash;

3)loyiha xavflarini sifatli va miqdoriy baholash;

4)xavflarni kamaytirish va tekislash;

5)yuzaga keladigan xatarlarni boshqarish va monitoring qilish.

Risklarni boshqarish, risklarni baholash, innovatsion korxonaning potensiali va faoliyat ko‘rsatadigan muhitini texnik, texnologik va iqtisodiy tahlil qilish, biznes uchun amaldagi normativ-huquqiy bazani, tahlilning iqtisodiy va matematik usullari va boshqa tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Risklarni boshqarish innovatsion firma uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– kompaniya uchun salbiy voqealar bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni, risk bilan bog‘liq vaziyatlarni, natijada maqsadlariga erisha olmagan vaziyatlarni aniqlash;

– istalmagan voqealar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan zararning xususiyatlarini olish;

– qarorni tayyorlashda oldindan rejalashtirish va kerak bo‘lganda riskni maqbul darajagacha kamaytirish choralarini ko‘rish;

– qaror qabul qilishda, dastlabki baholash va risklarni boshqarish bilan bog‘liq harajatlarni hisobga olish;

Risklarni boshqarish deganda, noto‘g‘ri qaror qabul qilish xavfini kamaytirish va tadbirkor tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish jarayonida noxush rivojlanishning mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyatni tayyorlash va amalga oshirish jarayoni tushuniladi.

Innovatsion korxonada risklarni boshqarish qabul qilinadigan risk tushunchasiga asoslanadi, bu bizga xavf darajasiga oqilona ta’sir ko‘rsatish va uni korxona uchun maqbul qiymatga yetkazish imkonini beradi. Albatta, ehtimol yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk haqida bilish juda muhim, ammo uning innovatsion korxona natijalariga ta’sirini aniqlash, voqea ro‘y berishi ehtimolini va uning

[160] D. M. Minnulina, Yu. N. Zatsarinnaya. Upravleniye riskami kak faktor effektivnosti innovatsionnix proyektov//Vestnik Kazanskogo texnologicheskogo universiteta. T. 17. № 10. 2014.

kompaniyaning iqtisodiy ahvoliga qanday ta’sir qilishini aniqlash muhimroqdir.

Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda riskni boshqarishning konseptual yondoshuvi – bu xatarli vaziyatda ushbu faoliyatning mumkin bo‘lgan oqibatlarini aniqlash; xatarlar ta’sirining oldini olish, oldini olish yoki kamaytirish choralarini ishlab chiqish; faoliyatni xavf-xatarlarga moslashtirishning bunday tizimini amalga oshirish, uning yordamida nafaqat salbiy ehtimoliy natijalar zararsizlantirilishi yoki qoplanishi, balki innovatsion faoliyatdan yuqori tadbirkorlik daromadlari olish imkoniyati maksimal darajaga ko‘tariladi. Risklarni boshqarish korxona faoliyatidan alohida ko‘rib chiqilishi mumkin emas, chunki u ushbu faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi, risklarni boshqarish innovatsion maqsadlarga erishishda boshqaruv tuzilmalariga yordamdir. Risklarni boshqarish tashkilotdan qo‘shimcha harajatlarni talab qiladi, ammo ular oqilona risklarni boshqarish orqali olinadigan qo‘shimcha foyda bilan qoplanadi.

Korxonalar jarayonida risklarni boshqarish ma’lum prinsiplarga asoslanadi, ularning asosiylari 18.2-rasmda keltirilgan. Muayyan prinsiplarning ustuvorligi to‘g‘risida gapirish juda qiyin, chunki risklarni samarali boshqarish uchun rasmdagi barcha tamoyillarga rioya qilish kerak.



18.2 – rasm. Risklarni boshqarish tamoyillari

Barkamollik tamoyili risklarni boshqarish jarayonida tashkilotni yo‘qotish va yo‘qotishlardan himoya qilish uchun barcha mavjud vositalar, usullar va choralardan foydalanish kerakligini anglatadi.

O‘z vaqtida qabul qilish tamoyili korxonaning barqaror va daromadli ishlashini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarning proaktiv xususiyatini ta’minlaydi.

O‘zaro hamkorlik va muvofiqlashtirish tamoyili, innovatsion korxonaning barcha manfaatdor idoralari va xizmatlari risklarni boshqarish jarayonida ishtirok etishlari kerak, risklarni boshqarish samaradorligi faqat tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha umumiy harakatlar muvofiqlashtirilganda amalga oshiriladi.

Qonuniylik tamoyili risklarni boshqarish jarayonida tashkilot barqarorlikni ta’minlash uchun faqat huquqiy usul va uslublardan foydalanishni anglatadi. Bundan tashqari, korxonada tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha tadbirlar tadbirkorlik innovatsiyalari, axborot xavfsizligi, xususiy xavfsizlik sohasidagi davlat qonunlarni, shuningdek davlat organlari tomonidan tasdiqlangan boshqa normativ hujjatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Faoliyat tamoyili xatarlarni boshqarish jarayonida innovatsion tashkilot manfaatlarini himoya qilish yetarli darajada qat’iylik va barcha mumkin bo‘lgan usul va vositalar bilan amalga oshirilishi kerakligini anglatadi.

Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik tamoyili xatarlarni boshqarishda xavfning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararining solishtirilishini va korxona tomonidan ushbu zararni neytrallashtirish yoki minimallashtirishni ta’minlash harajatlarini taqqoslashni nazarda tutadi.

Ixtisoslashuv tamoyili risklarni boshqarish yoki ularni amalga oshirish oqibatlarini bartaraf etish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning tavakkalchiliklarni boshqarishida qo‘llaniladigan muayyan chora-tadbirlar va vositalarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda qatnashishni nazarda tutadi.

Kapital qo‘yilmalardagi risklarni kamaytirish va yo‘q qilish usullariga murojaat qilsak, birinchi navbatda, eng keng tarqalgan usulni – har xil risk va rentabellik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan turli xil loyihalar orasida kapital qo‘yilmalarni diversifikatsiya qilish yoki taqsimlashni ta’kidlash kerak. Bu sizga bir vaqtning o‘zida bir nechta

investitsiyalarni jamlashning o‘rniga, bir nechta riskli aktivlarning egasi bo‘lish imkonini beradi[161]. Venchur kapitalini diversifikatsiya qilish bir necha usullardan biri bilan amalga oshirilishi mumkin:

- rivojlanishning turli bosqichlaridagi loyihalarga, shuningdek, sohalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni diversifikatsiya qilish (ma’lum bir sohaning loyihalarida ixtisoslashmagan universal fondlar uchun);
- loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish (transhlar);
- loyihalarni birgalikda moliyalashtirish uchun boshqa investorlarni jalb qilish (yoki xavfni tarqatish), bu ular bilan xatarlarni bo‘lishishga imkon beradi va aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy-sanoat guruhlari yaratilishi mumkin, boshqa sarmoyadorlar bilan fondlar hatto aksiyalar almashishi, turli uyushmalar va boshqa tashkilotlarga qo‘shilishlari mumkin. Eng oddiy usul – bu yuqori darajadagi riskga ega bo‘lgan loyihani moliyalashtirishdan qochish yoki rad etish. Biroq, bu usul venchur moliyalashtirishning «xavfli» xususiyatiga zid keladi, chunki yuqori risk darajasi odatda kutilayotgan daromadning yuqori darajasi bilan bog‘liq. Sarmoyadorlar loyiha xavfining mumkin bo‘lgan manbalari to‘g‘risida oldindan ma’lumotga ega bo‘lgan hollarda, ular faoliyatning muayyan sohasini mahalliylashtirish va boshqarish usulidan foydalanishlari mumkin. Ushbu usulni innovatsiyalarni venchur moliyalashtirish uchun qo‘llash deyarli mumkin emas, ammo uni boshqa ba’zi usullar, masalan, limitlash bilan birgalikda qo‘llash mumkin. Limit qo‘yish – bu bitta kompaniyaga (loyihaga) investitsiyalarning mumkin bo‘lgan maksimal miqdorini aniqlash. Ushbu usul ko‘pincha fond siyosatining bir qismidir, masalan, bitta kompaniyaga 2 mln. doll.dan ortiq mablag‘ kiritmaslik va salbiy natijalar yuzaga kelgan taqdirda ushbu jamg‘armaning katta yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymasligi.

Sarmoyadorlar tomonidan qo‘llaniladigan risklarni kamaytirishning yana bir usuli moliyaviy zahira usuli (risklarni saqlash, kompensatsiya usuli) bo‘lib, u faol mablag‘lar va to‘plangan zahira summalarining ulushini hisoblashga asoslanadi, bu nisbat fond tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar soniga ham bog‘liq. Investor tomonidan yaratilgan zahira barcha loyihalarning yo‘qotishlarini qoplamasligi kerak, ammo ba’zi loyihalar buzilgan taqdirda sug‘urtani ta’minlashi va fondning qisqa muddatda «suzishi» kerak. Ushbu usul

[161] I.I.Xaxonova. Razvitiye metodiki upravleniya finansovimi riskami//Fundamentalnie issledovaniya. № 6-1. 2012.

venchur kapital firmalarida keng tarqalgan emas, chunki qoida tariqasida venchur kapital fondida sezilarli bo‘sh pul mablag‘lari mavjud emas, uning mablag‘lari muomalada faol ishtirok etishi kerak va bunday zahirani yaratishni yo‘qotilgan foyda deb hisoblash mumkin.

§ 18.3. Ilmiy, ilmiy-texnologik parklar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi parklar

So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yirik universitet yoki ilmiy markaz atrofida jamlangan zamonaviy yuqori texnologiyali firmalarning birlashuvining yangi shakli tobora keng tarqalmoqda. Ilmiy muassasalar va sanoatning bunday simbiozi **ilmiy parklar** deb nomlandi. Ularning asosiy maqsadi sanoat uchun ilmiy yangi texnologiyalar uzatishni rag‘batlantirish hisoblanadi.

Ilmiy parklar birinchi marta AQShda 50-yillarda paydo bo‘lgan. San-Fransisko hududida “Silikon vodiysi” deb nomlanuvchi ilmiy park yaratildi. Taxminan bir vaqtning o‘zida, Boston hududida ilmiy park tashkil etildi va hozirgi kunda bu “Shosse 128” deb nomlanadi. Ushbu ilmiy parklar nafaqat zamonaviy texnologiyalarni (ayniqsa, elektron hisoblash va aerokosmik) rivojlanishida katta rol o‘ynadi, balki AQShda va boshqa mamlakatlarda ilmiy parklar tarmog‘ini rivojlantirishda namuna bo‘lib xizmat qildi. Ayni paytda dunyoda yuzlab ilmiy parklar mavjud va yangilarini yaratishni rejalashtirmoqda. Agar 1980 yilda Germaniya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya va Buyuk Britaniyada atigi 10 ta ilmiy parklar mavjud bo‘lsa, 1985 yil oxiriga kelib 60 ta mavjud va 50 dan ortiq yaratilayotgan va rejalashtirilayotgan parklar mavjud edi. Ilmiy parklarning faoliyati ilmiy va texnologik yangiliklarni yanada faol yaratish va amalga oshirishga, tijorat maqsadlarida keng foydalanishga, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirishga va milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ilmiy park (tor ma’noda) – bu har xil o‘lchamdagi va rivojlanish bosqichlarida ilm talab qiladigan firmalar joylashishi uchun mos bo‘lgan juda katta maydon. Ushbu hudud, hech bo‘lmaganda, mahalliy ilmiy markaz (universitet)ning ilmiy-texnik ishlanmalariga asoslangan kamida kichik hajmdagi ishlab chiqarishlarni joylashtirish imkoniyatini yaratishi kerak. Odatda ilmiy parklar jozibali tabiiy va iqlim sharoitiga ega bo‘lgan go‘zal hududda tashkil etiladi.

Ilmiy park ikki shaklda shakllantirilishi mumkin: tashqi tomondan kapital jalb qilish yoki mahalliy resurslardan maksimal darajada foydalanish orqali.

Ilmiy parklar fenomenini batafsil koʻrib chiqishga kirishishdan oldin kichik bir terminologik izoh berish oʻrinli boʻladi. Turli mamlakatlarda ilmiy parklarni shakllantirish jarayoni oʻziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli, «ilmiy park» tushunchasi bilan bir qatorda «texnopark», «tadqiqot parki», «innovatsiya markazi» va «texnopolis» atamalari tez-tez uchraydi. Garchi ularning barchasi, masalan, universitet, yangi texnologiyalarni sanoatga oʻtkazish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan maxsus infratuzilmaga ega boʻlgan ma'lum bir zona yaratilishini nazarda tutsa ham, ushbu shartlarning har biri oʻziga xos yukga ega. «Ilmiy park» atamasi keng ma'noda ham, tor ma'noda ham qoʻllaniladi. Birinchi holda, bu umuman koʻrib chiqilayotgan hodisaga tegishli. Ikkinchi holda, biz universitetning yoki boshqa biron bir ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-texnik ishlanmalariga asoslangan yuqori texnologiyali kompaniyalar joylashgan maxsus ajratilgan nisbatan katta maydonlar haqida gapiramiz.

Ilmiy parklardan farqli oʻlaroq, **ilmiy – tadqiqiot parklari** texnik prototiplardan tashqarida ishlab chiqarishni koʻpaytirishga imkon beradigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish imkoniyatini ta'minlamaydi.

Innovatsiya markazlari asosan mintaqada yangi yuqori texnologiyali korxonalarni shakllantirishga qaratilgan. Fransuzcha «**texnopolis**» atamasiga kelsak, u turli xil turdagi ilmiy va ishlab chiqarish markazlarini birlashtiradi va shuning uchun keng ma'noda «ilmiy park» atamasini qoʻllaydi.

Belgilangan farqlarga qaramay, ilmiy parklar deb nomlangan barcha tuzilmalar uchun bir qator umumiy xususiyatlar ularning oʻziga xos hodisasi haqida gapirishga imkon beradigan xususiyatlarga ega. Bu, birinchidan, ilmiy parkning yadrosi boʻlgan universitet yoki boshqa oliy oʻquv yurtining mavjudligi.

Uning vazifalari tijorat maqsadlarida foydalanish uchun istiqbolli yangi gʻoyalarni shakllantirishni oʻz ichiga oladi; sanoat firmalarini qiziqtiradigan yoki oʻz biznesini ochishga qodir boʻlgan mutaxassislarni tayyorlash; manfaatdor kompaniyalar buyurtmasi boʻyicha malakali maslahat yoki ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

Ikkinchidan, olimlar, muhandislar, yangi ish boshlagan tadbirkorlarga boshlang‘ich bosqichlarning yuqori harajatlaridan qochish, yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish va istiqbollarini baholashda yekspert yordamini olishga imkon beradigan kichik biznes inkubatorining mavjudligi;

Uchinchidan, istiqbolli tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun venchur kapital mablag‘lari yoki boshqa manbalar mavjudligi;

To‘rtinchidan, kichik va o‘rta biznesning muvaffaqiyatli ishlashi uchun barcha zarur iqtisodiy sharoitlarning mavjudligi va ba’zi hollarda yirik sanoat kompaniyalarining ilmiy-tadqiqot bo‘linmalari, shu jumladan yerlarni ijaraga olish yoki ijaraga olish, binolarni qurish yoki ijaraga olish, asbob-uskunalarni lizingga olish, universitet bilan hamkorlik o‘rnatish va mahalliy soliq imtiyozlari yoki zarur moliyaviy va aloqa xizmatlarini taqdim etish uchun boshqa moliyaviy imtiyozlar olish;

Beshinchidan, qulay geografik joylashuv, magistral avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, havo yo‘llari yaqinligi, qulay iqlim va ekologik sharoitlar, bu ilmiy parkda o‘z oilalari bilan yashash olimlar, tadbirkorlar va xodimlarni jalb qiladi.

Ilmiy parkni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun yuqorida sanab o‘tilgan asosiy shartlardan tashqari, uning faoliyatiga qiziqish va davlat, mahalliy hokimiyat va tegishli universitet ma’muriyati tomonidan zarur yordam ko‘rsatilishi muhimdir. Shu bilan birga, AQSH tajribasidan ma’lumki, yirik ilmiy parklar yangi istiqbolli ishlanmalar paydo bo‘lishi va bozorga ularga bo‘lgan yuqori talab natijasida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan (oddiy misol Kaliforniyadagi Silikon vodiysi). Shuning uchun, barcha holatlar uchun maqbul bo‘lgan ilmiy parkni tashkil etish uchun biron bir odatiy loyiha yo‘q. Ilmiy parklarga «boshpana» tashkilotlar turlarining 51 foizi xizmat ko‘rsatish sohasida, 26 foizi fundamental va amaliy tadqiqotlar bilan, 18 foizi sanoat korxonalari va 5 foizi boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanadilar. Har qanday ilmiy park statistik yoki dinamik tarzda shakllanishi mumkin. Statik model ilmiy parki bo‘lishi mumkinligini aniq belgilar bilan amalga oshirish mumkin. Agar ba’zi belgilar yomon ifodalangan bo‘lsa, unda ilmiy park faqat dinamik tarzda paydo bo‘ladi, ya’ni qo‘shimcha harakatlar talab etiladi. Parkning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

– binolar joylashgan hudud;

– xodimlar va ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yangi innovatsion

markaz;

– ilmiy salohiyatni bozorga o‘zgartiradigan sanoat korxonalari;

– boshqaruv tuzilmasi;

– infratuzilma ob’ektlari.

Har qanday parkda asosiy rolni tadqiqot markazlari egallaydi. Bu xususiy kompaniya, universitet, laboratoriya bo‘linmasi bo‘lishi mumkin (unchalik muhim emas, xususiy yoki davlat). G‘arbiy Yevropa va AQShda universitet ko‘pincha amaliy fanning ham, fundamentalning ham markaziga aylanuvchi yangi innovatsion markaz rolini o‘ynaydi.

Texnopolis – bu yaxshi rivojlangan xizmat ko‘rsatish infratuzilmasiga ega bo‘lgan va geografik jihatdan alohida shaharda joylashgan ilmiy-ishlab chiqarish kompleksidir. Bunday holda, ushbu hudud iqtisodiyotida texnopolis muhim o‘rin tutadi. Texnopolislar ko‘pincha noldan yaratiladi.

Ilmiy mintaqa – rivojlangan ilmiy va sanoat kompleksiga ega bo‘lgan ulkan hudud. Ilmiy mintaqa texnopoliyaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi, ammo miqyosi farq qiladi, bu bitta shaharning emas, balki butun aglomeratsiyaning (yig‘ish), tumanning yoki tumanning iqtisodiyotiga ta’sir qiladi.

Texnopark – innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun hududiy, ilmiy, texnologik va texnik resurslar bazasidir.

Tayanch so‘z va iboralar

Venchur kapitali, venchurli moliyalashtirish, innovatsion risklar, innovatsion loyiha, risklarni boshqarish, ilmiy park, ilmiy – tadqiqiot parklari, texnopolis.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Venchurli moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?*
2. *Venchur kapitali nima?*
3. *Venchurli moliyalashtirish manbalari tarkibi nimalardan iborat?*
4. *Venchur kapitali fondining ahamiyati*
5. *Innovatsion risklarning turlari*
6. *Risklarni boshqarishni qanday tamoyillari mavjud?*
7. *Ilmiy parklarning iqtisodiy mohiyati*
8. *Texnopolis deganda nimani tushunasiz?*

XIX BOB. MAMLAKAT INNOVATSIYA FAOLIYATINI BAHOLASH

§ 19.1. Mamlakat innovatsiya faoliyatini baholashning xorij tajribasi

§ 19.2. Yevropa innovatsion tablosi (European Innovation Scoreboard), Texnologik yutuqlar indeksi (Technology Achievement Index), Innovatsion salohiyat indeksi (Innovation Capacity Index); Boston konsalting guruhining umumjahon innovatsion indeksi (GII BCG), INSEAD Umumjahon innovatsion indeksi (GII INSEAD), Innovatsiyalarning global omili (Global Innovation Quotient).

§ 19.1. Mamlakat innovatsiya faoliyatini baholashning xorij tajribasi

Mamlakatning (mintaqaning) raqobatdoshligi va iqtisodiy rivojlanishida innovatsiyalarning ulkan ahamiyatini anglash tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Demografik inqiroz (aholining qisqarishi) va tarkibiy islohotlarni yakunlash tendensiyasiga duch kelgan rivojlangan davlatlar o‘nlab yillar oldin innovatsion salohiyatni rivojlantirishning jadal rivojlanish darajasi qanchalik zarurligini anglab yetdilar, bu esa samaradorlikni tezroq o‘sishiga va iqtisodiyotning tez sur’atlar bilan o‘sishiga imkon beradi. Yangi texnologiyalar va jarayonlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi va harajatlarning pasayishiga olib keladi, yangi biznes modeli va tashkiliy tuzilmalarning joriy etilishi kompaniya ishining yaxshilanishiga, qarorlarni qabul qilish va axborotni qayta ishlash tezligining oshishiga va iste’molchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishga olib keladi.

Innovatsion faoliyat bizga resurslar yetishmasligi, iqlim va geografik xususiyatlar sharoitida ham raqobatbardoshlikning yuqori darajasini va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlashga imkon beradi, bunga yaqqol misol Yaponiya iqtisodiyotdir, uning iqtisodiy salohiyati ko‘p jihatdan innovatsiyalarni faol rivojlantirish va joriy etish bilan bog‘liqdir. Innovatsion rivojlanishning ahamiyatini inobatga olgan holda, chet ellik mutaxassislar uzoq vaqtdan beri innovatsion jarayonlarni o‘rganmoqda, ularning rivojlanishi va mamlakat, mintaqa, korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholab kelmoqdalar.

Hozirgi vaqtda Yevropa mamlakatlari mamlakatlar va mintaqalarning innovatsion rivojlanish darajasini baholashning turli usullarini ishlab chiqish va amaliy qo‘llash borasida katta tajribaga ega. Hududlarning innovatsion faoliyati reytingi doirasida ko‘rib chiqiladigan mezonlar innovatsion rivojlanishning asosiy segmentlariga mos keladigan uchta asosiy guruhga bo‘lingan:

1. Innovatsion mahsulotlarning chiqarilishi – 2 ta indikator;
2. Innovatsion kompaniyalar faoliyati – 3 ta indikator;
3. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish – 2 ta indikator.

Plyus 1 ko‘rsatkichi – «umumiy innovatsion indeks» hisoblanadi, jami 8 ko‘rsatkich.

Birinchi guruhga quyidagilar kiradi: iqtisodiy samaralar va innovatsion kompaniyalar. Ikkinchi guruhga: kompaniyalarning investitsiyalash darajasi, tadbirkorlik, ishlab chiqarish hajmi. Uchinchi guruhga esa, moliyaviy yordam va inson resurslari kiradi.

7 ta innovatsion indikatorlarning har biridan o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblab chiqiladi va ularning barchasi yagona integratsiya qilingan innovatsion indeksga qo‘shiladi. O‘z navbatida har uch guruhdan o‘rtacha ko‘rsatkich olinadi va ular o‘rtacha qo‘shilgan indeksni hisoblash uchun qo‘shiladi. Bu ko‘rsatkichlarning barchasi qo‘shilib boriladi, natijada umumiy innovatsion ko‘rsatkich olinadi. 8 bosqichli indeks yaratish yo‘lida:

1 – qadam. Axborotni o‘zgartirish;

2 – qadam. Tomonlar samaradorligini aniqlash;

3 – qadam. Asosiy davrni tanlash;

4 – qadam. Ma’lumotlarni saralash;

5 – qadam. Ma’lumotni ekstrapolyatsiya qilish;

6 – qadam. Maksimal va minimal ko‘rsatkichni aniqlash;

7 – qadam. Ko‘rsatkichlar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi: minimal ko‘rsatkich umumiy ko‘rsatkichdan chiqariladi, so‘ng maksimal va minimal ko‘rsatkich o‘rtasidagi farqga bo‘linadi;

8 – qadam. Umumiy innovatsion ko‘rsatkichlarni hisoblash. Har bir yil uchun va har bir innovatsion ko‘rsatkich uchun (inson resurslari, moliyalashtirish, innovatsion kompaniyalarga investitsiyalar, tadbirkorlik, ishlab chiqarish hajmi, innovatsion kompaniyalar, iqtisodiy samaralar) umumiy innovatsion ko‘rsatkich hisoblanadi. Har bir yil va har bir indikatorlar guruhi bo‘yicha guruhning umumiy innovatsion ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Umumiy innovatsion indeks mamlakat innovatsion faoliyatining o‘rtacha ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Ushbu indeks hisoblash uchun tuzilgan paytda mavjud bo‘lgan eng mos Yevrostat va boshqa xalqaro manbalardan foydalangan holda hisoblanadi. Mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro solishtirish imkoniyatini yaratish uchun xalqaro resurslardan faol foydalanilmoqda. Ko‘rsatkichlar bo‘yicha mamlakatlar quyidagi guruhlarga bo‘linishi mumkin:

1. Innovatsion faoliyat liderlari
2. Yetib oluvchilar
3. Mo‘’tadil novatorlar
4. Orqada qolayotganlar

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu indikator tizimlariga asoslangan ushbu usullar asosan rivojlangan mamlakatlarning innovatsion salohiyatini baholashga qaratilgan, shuning uchun ular rivojlanayotgan bozorlarga xos bo‘lgan bir qator omillarni hisobga olmaydilar. Shu bilan birga, iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlardagi vaziyatni tahlil qilish bo‘yicha ba’zi xulosalar chiqarildi. Tez rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlanayotgan bozorlarga innovatsion investitsiyalar kiritishda rivojlangan mamlakatlardan ustun turadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Osiyoning rivojlanayotgan bozorlari, asosan Xitoy sharofati bilan, Yevropa va Yaponiyadan ko‘ra ko‘proq tadqiqot va rivojlanish uchun sarmoya kiritmoqda. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiyoti tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda ekspertlarning fikriga ko‘ra, u yoki bu darajada innovatsiyalarni joriy etishga to‘sqinlik qiladigan bir qator muammolar yuzaga keladi. Ekspertlarning 40 foizga yaqini rivojlanayotgan mamlakatlarda intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha tegishli qonunchilik yo‘qligini ta’kidladilar, 20 foizi esa fan, texnologiya va amaliy fanlarni rivojlantirish bo‘yicha samarali tizim va siyosatning yo‘qligi ushbu holatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidladilar, 15 foizi esa emigratsiya siyosati, 28 foiz yuqori soliq stavkalari bilan bog‘liq jiddiy muammolarni qayd etdilar. 2007 yildan beri Kornell universiteti konsorsiumi (AQSH), INSEAD Biznes maktabi (Fransiya) va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti global innovatsion indeksni tuzmoqda. GII-2019 129 mamlakat uchun yettita guruhga birlashtirilgan 80 ko‘rsatkichlar asosida shakllantirilgan. Yakuniy reyting ikkita kichik indekslarning o‘rtacha qiymati sifatida hisoblanadi – innovatsion resurslar (institutlar, inson kapitali va fan, infratuzilma,

ichki bozor va biznesni rivojlantirish) va innovatsiya natijalari (texnologik va bilim iqtisodiyotining rivojlanishi, ijodiy faoliyatning rivojlanishi). Innovatsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti ikkita kichik indekslarning nisbati sifatida aniqlanadi, bunda berilgan innovatsion potensial bilan innovatsion faoliyatning jamlangan samaradorligi aks etadi.

Ushbu reytingda ro‘yxatning birinchi o‘rinini Shveysariya egallagan, undan keyin Shvesiya, AQSH, Niderlandiya va Buyuk Britaniya yetakchilik qilgan. Mazkur reyting bilan tanishgan har qanday yurtdoshimiz va xorijdagi vatandoshlarimizda yaqin qo‘shnilarimiz Qozog‘iston (79-o‘rin), Qirg‘iziston (90-o‘rin) va Tojikiston (100-o‘rin) bu ro‘yxatda bo‘la turib, nima uchun O‘zbekiston chetda qolgan, degan asosli savol paydo bo‘lishi tabiiy.

Qayd etish joizki, to‘liq shaffoflikni ta’minlash maqsadida mamlakatlarning GII reytingi ro‘yxatiga kiritilishi uchun zarur bo‘lgan statistik va boshqa ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ro‘yxatdagi davlatlarning o‘zidan olinmaydi. Ma’lumotlar Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO), Xalqaro Energiya Tashkiloti (IEA), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO), Birlashgan Millatlar Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (UNIDO), Xalqaro Savdo Tashkiloti (WTO) kabi xalqaro tashkilotlar va Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO), HIS Markit, Bureau van Dijk, ZOOkNIC Inx, Thomson Reuter va Wikimedia Foundation kabi tashkilotlarning ma’lumotlari asosida jamlanadi.

Bu yil o‘n ikkinchi marta e’lon qilingan GII solishtirma tahlilning global vositasi bo‘lib, innovatsion sohada davlat siyosatini yurgizayotgan shaxslar va idoralarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning bosh omillaridan biri sifatida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlarni aniqlashga va baholashga ko‘mak beradi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, GII 80 ta parametr (indikator) asosida baholanadi, jumladan, masalan, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini investitsiyalash darajasi, patentlar va tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishga xalqaro arizalar sonidan boshlab, yanada zamonaviy ko‘rsatkichlargacha, masalan, yaratilgan mobil ilovalar soni va yuqori texnologiyali mahsulotlarning eksport darajasigacha inobatga olinadi.

§ 19.2. Yevropa innovatsion tablosi (European Innovation Scoreboard), Texnologik yutuqlar indeksi (Technology Achievement Index), Innovatsion salohiyat indeksi (Innovation Capacity Index); Boston konsalting guruhining umumjahon innovatsion indeksi (GII BCG), INSEAD Umumjahon innovatsion indeksi (GII INSEAD), Innovatsiyalarning global omili (Global Innovation Quotient)

Mamlakatlarning raqobatbardoshligini va ularning innovatsion faoliyatini baholash muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, dunyoda milliy innovatsion faoliyatning eng muhim global reytinglaridan biri bu European Innovation Scoreboard – Yevropa innovatsion tablosidir (YEIT)[162].

Yevropa innovatsion tablosi – bu innovatsion faoliyatni qiyosiy baholash usuli bo‘lib, Yevropa Ittifoqining 27 a’zosi va boshqa bir qator davlatlar masalan, Shveysariya, Xorvatiya, Norvegiya, Serbiya, Avstraliya, AQSH, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, BRIKS mamlakatlari: Rossiya, Braziliya, Xitoy, Hindiston, JAR tomonidan amalga oshiriladi. Lissabon strategiyasi doirasida Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan YEIT pilot loyihasi 2000 yilda boshlangan va 2001 yildan boshlab har yili tizimning sharoitlarini, yangi bilimlarni yaratish, firmalarning innovatsion sa’y-harakatlari va yangi mahsulotlar, xizmatlar va intellektual mulk bo‘yicha natijalarni qamrab oluvchi keng ko‘rsatkichlar asosida YEITning to‘liq versiyalari nashr etilmoqda. Baholash metodologiyasi aniqlangan kamchiliklarni hisobga olgan holda doimiy ravishda o‘zgartirilmoqda.

Shunday qilib, 2006 yilda innovatsion tizim rivojlanishining barcha parametrlari ko‘rsatkichlar guruhlari – «input» va «output»ga bo‘lindi, 2008 yildan boshlab uchta asosiy blok (24 ko‘rsatkich) bo‘yicha qiyosiy baho olib borildi[163].

1. imkoniyatlar (Enablers) – inson resurslari ko‘rsatkichlari (3 ko‘rsatkich va ta’lim darajasini o‘lchashni o‘z ichiga oladi), ochiq va jozibador innovatsion tizimlar (3 ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi va ilmiy asosning xalqaro raqobatbardoshligini o‘lchab, xalqaro qo‘shma ilmiy nashrlarga, eng ko‘p iqtibos keltirilgan nashrlarga), shuningdek moliyaviy, innovatsion sektorni qo‘llab-quvvatlash;

---

[162] Денисюк В.А. Конкурентоспособность и инновационная активность государств: анализ международных рейтингов и индикаторов [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://iee.org.ua/files/alushta/39-denisyuk-konkur_i_ innov_aktiv.pdf (дата обращения: 10.05.2013).

[163] Innovation Union Scoreboard 2013 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://ec.europa.eu/enterprise/ policies/innovation/files/ius-2013_en.pdf (дата обращения: 08.05.2013).

2. firmalar faoliyati (Firm activities) – firmalarning investitsiya faolligi ko‘rsatkichlari (ITTKI bilan bog‘liq bo‘lmagan); hamkorlik va biznes ko‘rsatkichlari; intellektual mulklar;

3. natijalar – “outputs” – kichik va o‘rta korxonalarning innovatsion faoliyati ko‘rsatkichlari, shuningdek ularning faoliyati samaradorligini baholaydigan ko‘rsatkichlar.

EIT usuli qiyoslangan ob’ektlarga qarab quyidagi ko‘rsatkichlar guruhlariga bo‘linadi (19.1 – jadval):

19.1 – jadval

Yakuniy innovatsion indeksni baholashda ishlatiladigan Yevropa innovatsion sxemasi – European Innovation Scoreboard (EIS) ko‘rsatkichlari

Asosiy tur / innovatsion o‘lchov / ko‘rsatkich			
№	**IUS**	**Xalqaro taqqoslashda foydalaniladigan indikatorlar**	**RIS**
1. Imkoniyatlari (Enablers)			
1.1	**Inson resurslari**		
1.1.1	Aspirantura va doktorantura bitiruv-chilari (ISCED 6 – oliy ta’limning ikkinchi bosqichi) 25 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan har 1000 kishiga to‘g‘ri keladi	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
1.1.2	30 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan oliy ma’lumotli (oliy ma’lumotli) aholining ulushi	ko‘rsatkich 25 dan 64 yoshgacha bo‘lgan guruhda baholanadi	ko‘rsatkich 25 dan 64 yoshgacha bo‘lgan guruhda baholanadi
1.1.3	O‘rta maxsus ma’lumotli 20 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan aholi ulushi	Ishlatilmaydi	Ishlatilmaydi
1.2	**Ochiq va jozibali tadqiqot tizimlari**		
1.2.1	1 000 000 aholiga to‘g‘ri keladigan xalqaro qo‘shma ilmiy nashrlar	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
1.2.2	10% eng yaxshi ilmiy maqolalarga Dunyo bo‘yicha eng ko‘p iqtibos keltiril-gan maqolalarni umumiy ilmiy nashrlardagi %	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
1.2.3	Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarda olinmagan ilmiy darajaga ega bo‘lgan aholining ilmiy darajaga ega bo‘lgan talabalarning umumiy soniga nisbati.	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
1.3	**Moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash**		
1.3.1	ITTKI harajatlari YAIMga nisbatan foizda	**IUS bilan bir xil**	**IUS bilan bir xil**
1.3.2	Venchur kapitaliga investitsiyalar hajmi YAIMga nisbatan %da	Ishlatilmaydi	Ishlatilmaydi
2. Firma faoliyati (Firm activities)			
2.1	**Firmaning investitsion faoliyati**		

2.1.1	ITTKI ishlariga sarflanadigan harajatlar YAIMga nisbatan %da	**IUS bilan bir xil**	**IUS bilan bir xil**
	ITTKIga bog‘liq bo‘lmagan innovatsiya-larga sarf-harajatlar, tovar ayri-boshlash foiz hisobida	Ishlatilmaydi	**O‘xshash (faqat KO‘BS uchun)**
2.2	**Aloqa va biznes**		
2.2.1	Korxona ichidagi innovatsiyalardan foydalanadigan kichik va o‘rta korxonalar soni, kichik va o‘rta korxonalar umumiy soniga nisbatan foizda	Ishlatilmaydi	**IUS bilan bir xil**
2.2.2	Boshqalar bilan hamkorlikda innovatsiya-larni qo‘llayotgan kichik va o‘rta korxo-nalar soni, kichik va o‘rta korxonalar umumiy soniga nisbatan foizda	Ishlatilmaydi	**IUS bilan bir xil**
2.2.3	Qo‘shma davlat-xususiy nashrlar (1 mln. kishiga)	**IUS bilan bir xil**	**IUS bilan bir xil**
2.3	**Intellektual mulk**		
2.3.1	Patent kooperatsiyasi to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq ro‘yxatdan o‘tka-zilgan patent talabnomalarining soni, 1 mlrd. YAIMga to‘g‘ri keladigan	**IUS bilan bir xil**	1 mlrd. YAHMga Yevropa patent tashkilo-tiga berilgan patent bu-yurtmanomalari soni
2.3.2	Ijtimoiy muammolarni (ekologiya, sog‘liqni saqlash) hal qilish uchun patentga talabnomalar soni, 1 mlrd. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
2.3.3	Yevropa Ittifoqida ro‘yxatdan o‘tgan savdo belgilar (lekin mamlakatda emas) 1 mlrd. YAIMga nisbatan	Ishlatilmaydi	Ishlatilmaydi
2.3.4	Yevropa Ittifoqida ro‘yxatdan o‘tgan sanoat namunalari (mamlakatda emas), 1 mlrd. YAIMga nisbatan	Ishlatilmaydi	Ishlatilmaydi
3. Natijalar (Outputs)			
3.1	**Innovatsion firmalar**		
3.1.1	Texnologik innovatsiyalar bilan shug‘ulla-nadigan kichik va o‘rta korxonalar soni, barcha kichik va o‘rta korxonalarning umumiy soniga nisbatan % da.	Ishlatilmaydi	**IUS bilan bir xil**
3.1.2	Marketing va tashkiliy innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi kichik va o‘rta kor-xonalar soni, barcha kichik va o‘rta kor-xonalarning umumiy soniga nisbatan%da.	Ishlatilmaydi	**IUS bilan bir xil**
3.1.3	Innovatsion tashkilotlarning yuqori o‘sishi (indikator hali kiritilmagan)	Ishlatilmaydi	Ishlatilmaydi
3.2	**Iqtisodiy samaralar**		
3.2.1	Yuqori texnologik sohalarda (ishlab chiqarish va xizmatlar) bandlik, to‘liq bandlikka nisbatan %	Ishlatilmaydi	Yuqori texnologik, o‘rta va yuqori texnologiyali

			sohalarda ish bilan ta’-minlanganlik,umumiy bandlikka nisbatan %
3.2.2	Eksportning umumiy hajmida o‘rta va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti ulushi (umumiy eksportning %)	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
3.2.3	Yuqori texnologik xizmatlar eksportining ulushi (umumiy eksportning %)	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi
3.2.4	Bozor va firmalar uchun yangi mahsulot-larni sotish umumiy oborotga nisbatan % da	Ishlatilmaydi	**O‘xshash (faqat KO‘BS uchun)**
3.2.5	Xorijdan olingan patent va litsenziyalarni sotishdan olingan daromad, YAIMga nisbatan foizda	**IUS bilan bir xil**	Ishlatilmaydi

Avstraliya ishtirok etgan xalqaro taqqoslashda BRIKS mamlakatlari (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, JAR), Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQShni YEIga a’zo davlatlarni taqqoslashda 24 ga qarshi 13 indikator bo‘yicha kompozit indeks qiymati bo‘yicha joylashtirilgan. YEIT 2013 dasturida yetakchi o‘rinlarni AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya yegallamoqda, BRIKS mamlakatlari orasida Xitoy jadal rivojlanmoqda.

RIS indeksini tuzishga bo‘lgan yondashuv YEITga a’zo davlatlar taqqoslash nuqtai nazaridan YEIT indeksini tuzishga bo‘lgan yondashuv bilan bir xil, ammo u butun mamlakatga emas, balki alohida mintaqalarga nisbatan qo‘llanilmaydi va ko‘rsatkichlarning ancha kam sonini o‘z ichiga oladi – jami indeksni tashkil etuvchi 24ga nisbatan 12 ta. Ko‘rsatkichlarning kamligi mintaqaviy darajada tegishli ma’lumotlarning yetishmasligi bilan bog‘liq. Shunday qilib, **RIS** ko‘rsatkichi innovatsiyalarni mintaqalararo taqqoslashda «ilg‘or tajribalarni» qo‘llash uchun Yevropa Ittifoqiga a’zo 20 davlatning 200 ga yaqin mintaqalarining innovatsion siyosati to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion faoliyatni baholashning yana bir xalqaro metodologiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va 2001 yilda kompozit indeks sifatida kiritilgan, texnologik yangiliklarni tarqatish va yaratishda mamlakatning rivojlanish darajasini belgilaydigan Texnologik yutuqlar indeksidir – Technology Achievement Index (TAI). Uning maqsadi mamlakatda (mintaqada) texnologik salohiyat rivojlanishining hozirgi holatini baholash va boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda ob’ektiv pozitsiyani aniqlashdan

iborat[164]. TAI mamlakatning texnologik rivojlanishining 4 tarkibiy qismini o‘lchash uchun mo‘ljallangan:

1. Yangi texnologiyalarning yaratilishi (jamiyatda innovatsiyalar darajasi) 2 ko‘rsatkichga asoslanadi: kishi boshiga berilgan patentlar soni – ixtirochilik faoliyatining hozirgi darajasi; chet eldan berilgan litsenziyalar bo‘yicha royalti va mukofotni jon boshiga olish, o‘tgan muvaffaqiyatli yangiliklarning zahirasi darajasi;
2. So‘nggi innovatsiyalarning diffuziyasi (aholi jon boshiga internet-xostlar ulushi, eksportning umumiy hajmida o‘rta va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti ulushi);
3. Mavjud innovatsiyalarning diffuziyasi (tarqalishi) – mezon rivojlanayotgan davlatlar uchun muhimdir (aholi jon boshiga shahar telefonlari va uyali telefonlar soni, aholi jon boshiga elektr energiyasini iste’mol qilish);
4. Ko‘nikmalarni rivojlantirish (15 yosh va undan katta yoshdagi o‘quv yillari, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar soni).

TAI texnologiyani rivojlantirishning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan, ammo tor ixtisoslashuv va ko‘rib chiqilgan mezonlarning ko‘pligi tufayli u umuman mamlakat (mintaqa)ning innovatsion sohasi rivojlanishining ob’ektiv manzarasini aks ettirmaydi. Innovatsion imkoniyatlar indeksi (Innovation Capacity Index (ICI)) – bu 131 mamlakatning innovatsion salohiyatini 60 mezon bo‘yicha baholaydigan, 5 ta kichik indekslarga guruhlangan, mamlakatning innovatsiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan muhitni yaratishga ta’sir ko‘rsatadigan indeksidir[165], bular:

1. inson kapitali (ta’lim, ijtimoiy integratsiya);
2. institutsional muhit;
3. normativ-huquqiy baza;
4. ITTKI uchun shart-sharoitlar;
5. axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish va ulardan foydalanish – infratuzilma sifati, hokimiyat organlari, internet, kompyuterlar va televideniye, mobil aloqa tomonidan AKTdan foydalanish.

---

[164] Measuring the Technology Achievement of Nations and the Capacity to Participate in the Network Age [Электронный ресурс] / MEGHNADDESAI, SAKIKOFUKUDA-PARR, CLAES JOHANSSON and FRANSISCOSAGASTI // Journal of Human Development. – 2002. – Vol. 3, No. 1. – Режим доступа: http://unpan1.un.org/intra doc/groups/public/documents/apcity/unpan014340.pdf

[165] Augusto López-Claros, Yasmina N. Mata// Policies and Institutions Underpinning Country Innovation Results from the Innovation Capacity Index [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.innovationfordevelopmentreport.org/ ici.html (дата обращения: 09.05.2013).

Boston Konsalting Guruhining Jahon miqyosidagi innovatsion indeks – The Global Innovation Index (The Boston Consulting Group – GII BCG) mamlakatda innovatsiyalar darajasini baholash uchun xalqaro ko‘rsatkich bo‘lib, innovatsiyalar natijalari va davlat siyosatining innovatsiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish qobiliyatining ko‘rsatkichidir. Indeks ikki elementdan iborat – innovatsion potensial (innovation inputs) va innovatsion samaradorlik (innovation performance), ular o‘z navbatida ma’lum mezonlar to‘plamidan iborat[166].

1. Innovatsion salohiyat:

1.1. moliyaviy siyosat;

1.2. ta’lim, savdo, sanoat, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, migratsiya siyosati;

1.3. innovatsion muhit (ta’lim sifati va infratuzilma, ishchi kuchining rivojlanish darajasi (ishchilarning tayyorlik darajasi va mehnat faoliyati), tadbirkorlik muhiti);

2. Innovatsion faoliyat natijalari:

2.1. ITTKI natijalari (ITTKIga investitsiyalar, maqolalar, bilim tarqalishi, patentlar va boshqalar).

2.2. biznes samaradorligi (o‘rta va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti, mehnat unumdorligi);

2.3. innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.

Yana bir global innovatsion indeks – bu taniqli xalqaro biznes maktabi va tadqiqot instituti tomonidan e’lon qilingan va dunyoning eng yaxshi biznes maktablari orasida eng innovatsion va nufuzli deb tan olingan The Global Innovation Index (GII INSEAD), Kornel universiteti, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti.

GII INSEAD – yillik statistik reyting bo‘lib, u jamlama ko‘rsatkichga ko‘ra mamlakatlarni innovatsion faoliyat uchun qulay muhit va innovatsion faoliyatning samaradorligi darajasiga ko‘ra ajratib turadi. GII INSEAD indeksiga ikkita kichik indeks kiradi:

1) innovatsion salohiyat (innovatsion kirish) va 2) innovatsion faoliyat natijalari (innovatsion mahsulot), o‘z navbatida ular quyidagi guruhlardan iborat:

1.1. institutlar va siyosat (siyosiy muhit, biznes muhiti, normativ-huquqiy baza);

[166] Global Innovation Index (Boston Consulting Group) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://en.wikipedia.org/wiki/Global_Innovation_Index_ (Boston_Consulting_Group) (дата обращения: 09.05.2013).

1.2. kadrlar potensiali (o‘rta maxsus ma’lumot, oliy ma’lumot, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlari darajasi);

1.3. umumiy infratuzilma va axborot texnologiyalari infratuzilmasi (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, umumiy infratuzilma, yekologik barqarorlik);

1.4. bozor raqobatbardoshligi (kredit va investitsiya siyosati, raqobatbardoshlik, savdo),

1.5. kompaniyalarning raqobatbardoshligi (malakali ishchi kuchi, innovatsion munosabatlar, bilimlarning tarqalishi va rivojlanishi);

2.1. ijodiy natijalar (nomoddiy aktivlarni, tovarlar va xizmatlarni yaratish, onlayn ijodkorlik);

2.2. bilim va texnologiyalar natijalari (yaratish, bilim, harajatlar va royaltilar ko‘rinishidagi innovatsiyalar natijalari, litsenziyalar bo‘yicha foiz va boshqalar).

Ushbu kichik indekslar 84 ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi.

Bloomberg – moliyaviy bozorlarning professional ishtirokchilari uchun moliyaviy ma’lumotlarning ikki yetakchi provayderlaridan biri, har yili innovatsion rivojlanish omilini aniqlash maqsadida 200 dan ortiq mamlakatlar va suveren mintaqalarni o‘rganadigan reytingni (Global Innovation Quotient (GIQ)) nashr etadi.

GIQ reytingi yettita omillar guruhini, shu jumladan ilmiy-tadqiqot va intensivlik (vazn 20 foiz), unumdorlik (vazn 20 foiz), yuqori texnologiyali kompaniyalar ulushi (vazn 20 foiz), olimlar va tadqiqotchilar ulushi (vazn 20 foiz), texnologik va ishlab chiqarish imkoniyatlari (baholash) vazn 10%), ma’lumot darajasi (vazn 5 foiz) va patent faoliyati (vazn 5 foiz) asosida shakllantiriladi. Manba ma’lumotlar Jahon Banki, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, notijorat global tashkilot konferensiya kengashi Conference Board (inglizcha «konferensiyalar kengashi» dan), OYECD va YUNESKOning ma’lumotlari hisoblanadi.

So‘nggi yillarda innovatsion faoliyatni baholash ob’ekti torayish tendensiyasi kuzatilmoqda, xususan, innovatsion faoliyat koeffitsiyenti bo‘yicha indeksatsiya nafaqat mamlakat miqyosida, balki viloyat miqyosida, shu jumladan alohida shaharlarda amalga oshirilmoqda. Viloyatlar va shaharlar bilimlarning tarqalishi, mahalliy innovatsion tizimning qurilishi, mintaqaviy iqtisodiyotning innovatsiyalar salohiyatining o‘sishi uchun asosiy fazoviy birlikka aylandi. Mintaqaviy darajada innovatsion faoliyatni baholash juda muhimdir,

chunki u kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga, siyosat yo‘nalishini ob’ektiv ravishda o‘zgartirishga, investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga va mintaqaning innovatsion salohiyatini tavsiflovchi individual ko‘rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi. Biroq, mintaqaviy innovatsion tizimlarni baholashda mutaxassislar asosan hududlarning innovatsion ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yetishmasligi muammosiga duch kelishmoqda. Xalqaro amaliyotda indekslar mintaqaviy innovatsion tizimlarni baholash uchun ishlatiladi, masalan, Yevropa innovatsion tablosi doirasida yuqorida aytib o‘tilgan Regional Innovation Scoreboard (RIS), Amerika mintaqalaridagi innovatsion indeks (Innovation Index in American regions), Avstraliyaning 2thinknow agentligi reytingi va boshqalar.

RIS indeksiga o‘xshab Amerika mintaqalaridagi innovatsion indeks – Innovation Index in American regions (II) AQShdagi ekspertlar va tahlilchilar tomonidan mintaqalarning innovatsion faoliyatini taqqoslashda qo‘llaniladi. Uning yordami bilan innovatsiyalarni yaratishga va investitsiyalarni jalb qilishga ta’sir qiluvchi turli jihatlarni o‘rganish, mintaqaning innovatsiyalarga qanchalik tayyorligini aniqlash mumkin.

II indeks 23 o‘zgaruvchini innovatsion potensialni, innovatsion natijalarni va iqtisodiy rivojlanishni yuqori baholashni ta’minlovchi kompozit indeksga birlashishni anglatadi. U ikki toifadan iborat – innovatsion potensial (innovation input) va innovatsion faoliyat natijalari (innovation output). Har bir toifada innovatsiyalarni baholash uchun qo‘shimcha mezonlar sifatida qo‘shimcha ma’lumotlar va individual tadbirlar taqdim etiladi:

1. inson kapitali – bu butun mintaqa aholisi va uning mehnatga layoqatli qismi innovatsiyalarda ishtirok eta olish darajasini ko‘rsatadi (ta’lim; aholining o‘sishi, xususan, 25 yoshdan 44 yoshgacha; iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadigan sohalarda ish bilan ta’minlash: axborot texnologiyalari, muhandislik, sog‘liqni saqlash va tibbiyot; matematika, statistika, buxgalteriya hisobi, tabiiy fanlar va atrof-muhitni boshqarish, oliy ta’lim va yuqori texnologiyali sanoat, yuqori texnologiyali sohalarda bandlik ko‘rsatkichi alohida ko‘rib chiqiladi);
2. iqtisodiy dinamika ichki bozorning holatini va tadbirkorlar va kompaniyalar uchun mavjud bo‘lgan resurslarni o‘lchaydi (venchur kapitalga investitsiyalar, keng polosali tarmoq – 1000 oilaga to‘g‘ri keladigan turar-joy binolaridagi internetga ulanish punktlari soni); keng polosali xolding kompaniyalar sonining o‘rtacha yillik o‘zgarishi; erkin

bozor (yangi kompaniyalarning kirib kelishiga to‘sqinlik qilmasdan), KO‘B va yirik korxonalar soni);

3. mehnat unumdorligi va bandlik iqtisodiy o‘sishni, innovatsiyalarning bevosita natijalarini tavsiflaydi (yuqori texnologiyali sohalarda bandlikning o‘sishi; mehnatga layoqatli aholi sonining o‘sishi butun aholining o‘sishiga nisbati; patent faoliyati, YAHM);

4. iqtisodiy farovonlik – innovatsion iqtisodiy tizimlar iqtisodiy farovonlikni oshirishga yordam beradi: aholi jon boshiga daromadlar ko‘paymoqda, bandlik oshmoqda va turmush darajasi ko‘tarilmoqda, shuning uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi: o‘rtacha turmush darajasi, o‘rtacha ishsizlik, aniq migratsiya (tug‘ilish va o‘limdan tashqari), ish haqi, aholi jon boshiga shaxsiy daromadlarning o‘sishi.

5. davlat konteksti – nazariy jihatdan muhim bo‘lgan, ammo faqat davlat darajasida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar (YAIMga nisbatan davlat va xususiy ITI harajatlari, ilmiy-tadqiqot ishchilarining ish haqi va boshqalar). Ushbu kategoriya hisobga olinadi, lekin indeksga kiritilmaydi, chunki indekslar yagona davlat chegarasida xiralashadi va natijada mintaqaviy darajada innovatsion faoliyatni baholashda tarafkashlik omili paydo bo‘lishi mumkin.

II indeks innovatsiyalar sohasidagi kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha vakolatli mintaqaviy siyosatni shakllantirish uchun mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini baholashga yordam beradi. Kompaniyalar o‘rganilayotgan ob’ektning institutsional muhitini hisobga olgan holda innovatsion potensialni ochishga qodir bo‘lgan indekslarga asoslanishi kerak.

Tayanch so‘z va iboralar

Innovatsion faoliyat, Yevropa innovatsion tablosi, RIS indeksi, innovatsion salohiyat, Bloomberg, inson kapitali, davlat konteksti.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Innovatsion indeksning mohiyati

2. Yevropa innovatsion tablosini mamlakatlar innovatsion faoliyatini baholashdagi o‘rni

3. BRIKS mamlakatlari tarkibi qaysi davlatlardan tashkil topgan?

XX BOB. NOMODDIY AKTIVLARGA SAFARBAR ETILADIGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH

§ 20.1. Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar–investitsiya ob'ekti sifatida
§ 20.2. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati
§ 20.3. Nomoddiy aktivlarni baholash va "gudvill".

§ 20.1. Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar–investitsiya ob'ekti sifatida

Ma'lumki, nomoddiy aktivlarga[167] yo'naltirilgan investitsiyalar korxonalarning ilmiy-texnik salohiyatini kengaytirishga mo'ljallangan bo'lib, mulkchilik huquqiga ega bo'lmasdan turib, foyda keltiradi. Nomoddiy aktivlar moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, xo'jalik yurituvchi sub'ekti faoliyatida uzoq vaqt (bir yildan ortiq) davomida foydalaniladigan mulk bo'lib, bir qancha turlarga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nomoddiy aktivlarga berilgan ta'riflar deyarli bir xil mazmunni ifodalaydi. Masalan, "Nomoddiy aktivlar" nomli 38-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida quyidagicha ifodalangan: nomoddiy aktivlar pul (qiymat) ko'rinishiga, material-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda qatnashuvchi, ijaraga berish mumkin bo'lgan va boshqaruv maqsadlarida foydalanuvchi aktivlardir.

Aytish joizki, xorij iqtisodchi olimlaridan B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduyellar "***nomoddiy aktivlar*** – jismoniy ko'rinishga ega bo'lmagan, sotib olinayotgan aktivlar tarkibida kapital qo'yilmalarni tashkil etuvchi asosiy aktivlar", deb qaraydilar[168]. R.Entoni nomoddiy aktivlarni "yakka tartibda sotiluvchi aktivlar va korxona bilan birga sotiluvchi aktivlar", deb e'tirof etadi. Yakka tartibda aks ettiriluvchi aktivlar barcha huquqlarni o'zida namoyon etsada, mahsulotlar belgilari, uning xilma-xilligi korxonaning umumiy qiymatiga qo'shiladi. Rossiyalik iqtisodchi olim A.Sheremet nomoddiy aktivlarga umumiy holda quyidagicha ta'rif beradi: "…moddiy qiymatga ega bo'lmagan yuridik va boshqa huquqiy munosabatlarni o'zida namoyon etuvchi, o'z egasiga ma'lum vaqt davomida foyda (daromad)

[167] "Ko'rinmas", "sezib bo'lmaydigan", "ushlab bo'lmaydigan" aktivlar tushuniladi.
[168] Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – М.: «Финансы и статистика», 1996. – С. 227.

keltiruvchi, foydalanuvchilar uchun qulayliklarni yaratuvchi aktivlardir”[169].

Hozirgi kunga qadar chop etib kelingan iqtisodiy adabiyotlarda “nomoddiy aktivlar o‘zida nojismoniy elementlarni tavsiflovchi aktivlardir” yoki “nomoddiy aktivlar – korxona aktivlarining ajralmas bir qismi hisoblanib, ular buyum shakligi ega bo‘lmaydi” yohud “nomoddiy aktivlar - moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan intellektual faoliyat mahsuli, ya’ni intellektual mulk”, deb ta’riflangan. Demak, nomoddiy aktivlarning tushunchasi ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ular moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan, uzoq vaqt davomida harajatlarga aylanib boruvchi, korxonaga kelajakda daromad keltiruvchi va aktivlarning bir qismini tashkil etadigan hamda huquqiy munosabatlarni o‘zida mujassam qiluvchi aktivlar hisoblanadi. Shuningdek, nomoddiy aktivlar moddiy mohiyatga ega bo‘lmagan aktivlarga bo‘lgan va uning egalariga uzoq davr davomida muayyan daromad yoki boshqa xil foyda olishni ta’minlaydigan aktivlarga nisbatan mulkiy huquqlardir.

Umumiy tarzda yondashib fikr yuritadigan bo‘lsak, korxona faoliyatida bir yildan ortiq ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan, indentifikatsiyalanuvchi, moddiy buyumlashgan shaklga ega bo‘lmagan aktivlarga nomoddiy aktivlar deyiladi. Nomoddiy aktivlar boshqa aktivlardan quyidagilar bilan farqlanadi:

– asosiy vositalardan – moddiy-mulkiy qiymatlikka yega bo‘lmasligi bilan;

– tovarlardan – sotish uchun mo‘ljallanmaganligi bilan;

– ishlab chiqarish zaxiralaridan – ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat (bir yildan ortiq) foydalanilishi bilan.

Ko‘p hollarda, nomoddiy aktivlar deganda ma’lum qiymatlikka ega bo‘lgan intellektual mulk ob’ektlari, mulk huquqlari tushuniladi. Bozor munosabatlarining tobora rivojlanib borishi va erkinlashishi hamda raqobat muhitini keskinlashib borishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining aktivlari tarkibida nomodiy aktivlar hissasini orttirib borishni taqozo etadi. Nomoddiy aktivlar bo‘lib, korxonaga mulkchilik xuquqlarida tegishli bo‘lgan aniq, moddiy asosga ega bo‘lmagan, pul shaklida bo‘lmagan aktivlar hisoblanadi, ishlab chiqarishda, xizmat ko‘rsatishda, ijara uchun yoki ma’muriy maqsadlarda bir yildan ortiq ishlatiladi va daromad keltiradi. Nomoddiy aktivlar xo‘jalik yuritish faoliyatida uzoq vaqt (bir yo‘ldan ko‘p vaqt) mobaynida foydalanilgan

[169] Шеремет А., Рахман З. Бухгалтерский учет в рыночном экономике. – М.:«Инфра-М», 1996. – С. 135.

moddiy ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan mulk ob’ektlaridir. Nomoddiy aktiv deb e’tirof etish uchun mulk ob’ekti quyidagi shartlarga javob berishi talab etiladi:

- foydalanish evaziga iqtisodiy yoki boshqa turdagi samara keltirishligi;
- xizmat muddati bir yildan ortiq bo‘lishi mumkin;
- moddiy ashyoviy asosga ega bo‘lmasligi;
- qiymatga ega bo‘lishligi va uni aniq o‘lchash mumkinligi.

Intellektual mulk ob’ektlari iqtisodiy ob’ekt sifatida o‘zining o‘rni va roliga egadir. Intellektual mulkni boshqa mulk ob’ektlaridan farqi shundaki, u inson salohiyatini hosilasini tashkil etadi. Intelektual mulk uning kelib chiqishi va tashkil etish xususiyatlaridan kelib chiqib hamda mualliflik huquqi himoyalanishi jihatidan ikkita turga ajratiladi: sanoat mulki; asarlar. Sanoat intellektual mulki tarkibiga tegishli hukumat muassasasi tomonidan berilgan patent bilan e’tirof etilgan ixtirolar kiradi. Lekin barcha turdagi ixtirolar ham to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lavermaydi. Patent orqali himoyaga olingan ixtironing mualliflik guvohnomasi bilan himoyalangan iqtidordan farqi shundaki patent bilan himoyaga olingan ixtironi patent egasigina qo‘llash huquqiga yegadir. Mualliflik guvohnomasi esa iqtidorni istisno sifatida faqat davlat tomonidan qo‘llanilishi mumkinligini e’tirof etadi, muallifga esa mukofot to‘lovi huquqini beradi.

Patent – bu yangi yaratilgan mahsulot, texnologiya va faoliyatni qo‘llash, ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilish bo‘yicha ularni egasiga maxsus davlat patentlashtirish idorasi tomonidan berilgan huquq, yangi ixtiro uchun olingan patentga qaratilgan investitsiyalar tarkibiga uning yaratilishiga sarflangan harajatlar (materiallar sarfi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, amortizatsiya va boshqalar), patentlashtirish idorasiga to‘langani bois va boshqa patentga erishishga doir harajatlar majmuasi kiritiladi.

Litsenziya - bu ma’lum bir faoliyat turi bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi rasmiy hujjat. Litsenziyalarni nomoddiy aktiv sifatida tan olishning zaruriyati negizida, uni ma’lum vaqt birligi davomida korxona, firma, xo‘jalik yuritish sub’ekti, tadbirkorga daromad keltirishi yotadi.

Bundan tashqari sanoat intellektual mulki tarkibiga:

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bajarilishi oqibatida olinadigan ilmiy-texnik mahsulot;
- ilmiy ishlar tadbiq yetiladigan sanoat namunalari kiritiladi.

Mualliflik huquqi bilan himoyalanadigan intellektual mulk ob’ektlari sirasiga:

- adabiyot va san’at asarlari;
- musiqa asarlari;
- rassomchilik asarlari;
- kinematografiya asarlari;
- ilmiy izlanishlar, ilmiy kashfiyotlar va boshqalar kiritiladi.

Intellektual mulk ob’ektlari boshqa mulk ob’ektlaridek o‘zining qiymatiga egadir. Intellektual mulk boshqa mulk ob’ektlari singari narxi aniqlanadi, undan foydalanish esa qo‘shimcha naf keltirish mumkin bo‘ladi. Moddiy ashyoviy asosga ega bo‘lmagan jami nomoddiy aktivlar xo‘jalik sub’ektlariga nisbatan shartli ravishda uchta yirik guruhga ajratilishi mumkin:

Birinchi guruh tarkibiga muayyan korxonadan, firmadan xo‘jalik yuritish sub’ektlaridan ajratib olib bo‘lmaydigan nomoddiy aktivlar kiradi:

- maxsus malaka yegalari bo‘lish, ma’lumotli personal;
- reklama sohasida va o‘z mahsulotini ilgari surishdagi erishilgan yutuqlar;
- hududiy joylashish afzalliklari;
- biznesda erishilgan reputatsiya, ya’ni obro‘-e’tibor.

Ushbu guruh tarkibiga kiritilgan aktivlar qoida sirasida noaniq xizmat ko‘rsatish muddatiga ega bo‘lganligi tufayli jamlangan holda baholanadi. Bunday aktivlarni xizmat ko‘rsatish muddatini aniqlash va amortizatsiya normalarini o‘rnatish mumkin bo‘lmaganligi uchun, amortizatsiya ajratmalari hisoblanmaydigan, ya’ni amortizatsiya ajratmalari qilinmaydigan aktivlar deb e’tirof etish mumkin.

2-guruh tarkibiga korxona, firma yoki xo‘jalik yuritish sub’ekti xodimidan ajratib olib bo‘lmaydigan aktivlar kiradi. Bular jumlasiga har bir xodimlarning obro‘-e’tibori, ya’ni reputatsiyasi va professionallik ko‘nikmalari, mahorati, shu jumladan shaxsiy nou-xau, tijorat sohasidagi mahorati moliya operatsiyalarini o‘tkazish va hokazolar kiradi. 1-guruh tarkibiga kiritilgan aktivlardek, bu aktivlar ham har biri ajratib olib bo‘lmaydi, foydalanish muddatiga ega emas va amortizatsiya qilinmaydi.

3-guruh tarkibiga, korxona, firma yoki xo‘jalik yuritish sub’ektidan ajratib olinib, baholanishi mumkin bo‘lgan aktivlar kiritiladi. Bularga fabrika markalari, firma yoki savdo belgilari, savdo markalari, mualliflik huquqlari, patentlar, litsenziyalar, franchayz va

boshqalar kiritiladi. Bu guruhdagi har bir aktiv ajratilgan holda, yakka tartibda alohida baholanishi mumkin va ularni ko‘pchiligi aniq xizmat ko‘rsatish muddatlariga egadir. Bunday aktivlar amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e’tirof etilgan va ularni korxona, firma yoki xo‘jalik yuritish sub’ekti balansida aks ettirish mumkin.

Franchayz – bu mahsulot va tovarlarni ishlab chiqarishda o‘zga korxonalarning texnologiya, algoritm, formula va boshqa tashqi ko‘rinishlaridan foydalanish huquqi. Bunday huquq asosan boshqa firma yoki boshqa tuzilmalardan shartnomalar asosida sotib olinadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish hamda erkin raqobat muhiti vujudga kelishi munosabati bilan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqobatbardoshlikni ta’minlashda nomoddiy aktivlarni o‘rni ko‘tarilib, ular roli borgan sari oshib boradi. Barcha turdagi nomoddiy aktivlarni tashkil etish o‘z navbatida investitsiyalarni talab etadi. Moddiy mulk ob’ektlaridek, nomoddiy aktivlarni tashkil etish va doimiy tarzda yangilab borish muayyan sarf-harajatlarni talab etadi.

Nou-xau yoki ishlab chiqarish siri - bu ilmiy-texnik sohadagi intellektual faoliyat natijalari va uchinchi shaxslarga noma’lumligi sababli haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga yega bo‘lgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari to‘g‘risida har qanday xarakterdagi ma’lumotdir.

Nomoddiy aktivlar muayyan vaqt birligida ishlab chiqarishni boshqaruvchi, tovar mahsulotni ilgari surishda, mahsulot tannarxini pasaytirishda, umuman kapitallashuvni ta’minlashda erkin raqobat muhitida juda ham qo‘l keladigan aktivlar qismi hisoblanadi. Investitsiyalarni bir qismi korxona, xo‘jalik yuritish sub’ekti tomonidan asosiy kapitalni tiklash, yangilash, kengaytirish va muntazam modernizatsiyalashga qaratilsa, ikkinchi qismi nomoddiy aktivlar majmuasini kengaytirishga, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etishga, nou-xaulardan foydalanish huquqlarini qo‘lga kiritish hamda korxona salohiyatini oshirishga, uning obro‘-e’tibor qozonishiga, yuqori imidjga ega bo‘lishiga qaratiladi. Investitsiyalarni yana bir qismi aylanma mablag‘larni tashkil etishga, ularni to‘ldirishga qaratiladi. Nomoddiy aktivlarga investitsiyalar keskin raqobat muhitida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida yetishtirilgan tovar mahsulot va xizmatlarni ilgari surishni, ular aylanma muddatini qisqartirishni, iste’molchilarga qisqa muddatlarda yetkazilishini ta’minlaydi, ko‘maklashadi. Nomoddiy aktivlar raqobatbardoshlikni yangi texnologiya, mahsulot patentlari, litsenziyalar va boshqa nomoddiy

aktivlar turlarini harid yetish yo‘li bilan xo‘jalik yuritish sub’ekti faoliyatini yangilanib borishga, zamonaviylashtirishga va bozor talablariga javob bera oladigan tovar va xizmatlarni yaratilishiga zamin yaratiladi. Nomoddiy aktivlarni asosiy turlari patentlar, litsenziyalar, savdo markalari, tovar belgilari franchayz, dasturlar ta’minoti, “gudvill” va boshqalar kapitallashtiriladi va foydalanish davri mobaynida so‘ndirib boriladi.

§ 20.2. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida intellektual tovarlarga bo‘lgan talabni tobora kuchaytirib boradi. Ayniqsa, aqliy mehnat mahsuli bo‘lmish tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talab ko‘tarilib boradi. Maxsus tovar hisoblangan ilmiy g‘oyalar, texnikaviy yangiliklar, texnologik ishlanmalar, xilma-xil axborotlardan xabardor bo‘lish va ulardan raqobatbardoshlikni ta’minlash maqsadida doimiy tarzda foydalanish zaruriyati paydo bo‘ladi. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida, ayniqsa, ilmiy texnikaviy ishlanmalarga bo‘lgan talab kuchayadi. U amalda patent, litsenziya, franchayz, nou-xau, dasturiy ta’minot, turli axborot, savdo markalari, tovar belgilari va boshqalarga bo‘lgan talablardir. Ilmiy-texnikaviy ishlanmalar bozorni, ko‘pincha, tashqi bozorni, mamlakat tashqarisidagi bozorlarni nazarda tutadi. Ilmiy-texnikaviy ishlanmalar bozori XXI asrda tez kengayib bormoqda, yangi-yangi qismlarga ajratilmoqda va ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida ulardan juda ham unumli foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Buning sababi iqtisodiyotda intellektual mehnat mavqeining kuchayib borishidir. Ilm talab ishlab chiqarishning o‘sishi eng avvalo turli xizmatlar, axborot xizmati ahamiyatining kuchayishi bilan harakterlanadi. Buni internet xizmati bozorining shiddat bilan yer yuzida o‘sib borishi tasdiqlaydi. Shunday ekan, kuchli raqobat muhitida o‘z mavqei, obro‘-e’tiborini yo‘qotish, raqobat muhitida sinish hech gap emas. Ilmiy-texnikaviy yangiliklar haridor mulkiga aylanish sharti bilan yoki o‘z egasi mulki bo‘laturib, vaqtincha foydalanish huquqi yoki shartlari orqali ishlab chiqarishga tatbiq etadi. Ishlab chiqarish sub’ektlarini novatsiyalarga, ya’ni yangilik kiritib borishga undaydi.

Nomoddiy aktivlar tarkibining asosiy qismini intellektual mulk ob’ektlari tashkil etganligi uchun mazkur paragrafda ularni baholashga alohida e’tibor qaratamiz. Ma’lumki, intellektual mulk ob’ektlarini

baholash “Intellektual mulk ob’ektlarini baholash tartibi to‘g‘risida”gi[170] Nizomga asosan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, intellektual mulk ob’ektini baholash Mol-mulkni baholash milliy standartlariga muvofiq baholovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va baholash hisoboti bilan rasmiylashtiriladi. Intellektual mulk ob’ektining qiymati uch yondashuv bilan, ya’ni daromadli, harajatli va qiyosiy yondashuvlar bilan aniqlanadi.

Daromadli yondashuv – bu baholash ob’ektidan kutilayotgan daromadlarni aniqlashga asoslangan baholash ob’ektining qiymatini baholash uslublari majmui. Bunday usul intellektual mulk ob’ektidan foydalanishdan daromad olish yehtimollari mavjud bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Intellektual mulk ob’ektidan foydalanishdan tushgan daromadlar intellektual mulk ob’ektidan foydalanish huquqi topshirilgan huquq egasi tomonidan ma’lum davr uchun olinadigan pul tushumlari va pul to‘lovlari orasidagi farqdir. Intellektual mulk ob’ektidan foydalanishdan olinadigan asosiy daromadlar quyidagilar hisoblanadi:

– mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotishda va (yoki) asosiy va aylanma mablag‘larga sarmoya kiritishdagi harajatlardan tejash, shuningdek, harajatlarni amalda kamaytirish, intellektual mulk ob’ektidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritishda harajatlarning bo‘lmasligi (masalan, litsenzion to‘lovlarning yo‘qligi, litsenziarga daromaddan eng ko‘p ehtimoldagi ulushni ajratish zaruratining bo‘lmasligi);

– ishlab chiqarilayotgan dona mahsulotning (ish, xizmat) narxini oshirish, uning sotuv hajmini oshirish;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni kamaytirish, qarz evaziga xizmat ko‘rsatish to‘lovlarini kamaytirish;

– baholash ob’ektini ishlatishdagi pul oqimini olishdagi tavakkalchilikni kamaytirish, baholash ob’ektidan foydalanishdagi pul oqimining vaqtinchalik tuzilishini yaxshilash.

Intellektual mulk ob’ektlarini baholashning harajatli yondashuvi – bu mulkning eskirganligini inobatga olgan holda baholash ob’ektini tiklash yoki almashtirish uchun zarur bo‘lgan sarf-harajatlar miqdorini belgilashga asoslangan baholash uslublari majmui. Bunday usulni qo‘llash baholash ob’ektini tiklash yoki almashtirish imkoni bo‘lganda

[170] Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining 2009 yil 22 apreldagi 01/19-18/08-sonli Qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2009 yil 8 mayda 1953-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

amalga oshiriladi. Harajatli yondashuvni qo‘llash orqali baholash quyidagi asosiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

– baholash ob’ektiga shunga o‘xshash yangi baholash ob’ektini yaratish uchun sarflanadigan harajatlar miqdorini aniqlash;

– baholash ob’ektining shunga o‘xshash yangi ob’ektga nisbatan eskirganligi hajmini aniqlash;

– baholash ob’ekti qiymatini unga nisbatan shunga o‘xshash yangi baholash ob’ektini yaratish uchun sarflanadigan harajatlar miqdorini chegirib tashlash yo‘li bilan hisoblash.

Qiyosiy yondashuv – bu baholash ob’ektini unga nisbatan bitimlari qiymatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan boshqa shunga o‘xshash ob’ektlar bilan solishtirish orqali baholash ob’ektining qiymatini baholash uslublari majmui. Bu usulni qo‘llash baholash ob’ektlarining o‘xshash narxlari haqidagi ishonchli va to‘liq ma’lumot hamda ular bilan amalga oshiriladigan bitimlarning haqiqiy shartlari mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. Qiyosiy yondashuvni qo‘llagan holda qiymatni aniqlash quyidagi asosiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi: baholash ob’ektini shunga o‘xshash ob’ektlar bilan solishtirishdagi elementlarni aniqlash; baholanayotgan intellektual mulk ob’ektining har bir solishtirish elementlari bo‘yicha shunga o‘xshash har bir ob’ektdagi xususiyat va farqlari darajasini aniqlash va h.k.

§ 20.3. Nomoddiy aktivlarni baholash va “gudvill”

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida korxonalarni bir biriga qo‘shilish jarayonlari keng tarqalmoqda. Hatto korxonalarni sotib olish yo‘li bilan qo‘shilishlar yuz bermoqda, ammo korxona yoki firmaning jami mulkiy xo‘jalik uning aktiv va majburiyatlari o‘rtasida tafovut mavjud. Ingliz iqtisodiy adabiyotida ushbu farq “gudvill” deb nomlanadi. Milliy hisob iqtisod adabiyotlarida “gudvill” korxona narxi, korxonaning taniqli nomi (obro‘-e’tibor), o‘rnatilgan ishchan aloqalar, korxona sheriklar tushunchalari bilan bir qatorda ishlatiladi.

Gudvill – bu «firmaning obro‘si, uning mijozlar bazasi, biznes aloqalari va firma daromadiga hissa qo‘shadigan xodimlarning malakasi», kompaniyaning nomoddiy aktivlarining pul qiymati: firma nomi, imidji, barqaror mijozning mavjudligi va boshqalar. Gudvill - bu kompaniyani fond birjasi tomonidan baholanishi va uning kompaniyaning balansida ro‘yxatdan o‘tgan moddiy boyliklari miqdori o‘rtasidagi farq. Gudvill - bu haridor tomondan faoliyat yuritayotgan

kompaniya (firma, korxona, biznes)ni sotib olishda, uning yangidan tashkil etishga nisbatan qo‘lga kiritilgan afzalliklaridir. Gudvillni baholashning ikki usuli bor:

1) proporsional baholash usuli[171];

2) to‘liq baholash usul[172].

GUDVILL = investitsiya – sof aktivlar qiymati * egalik ulushi (1)
summasi (sho‘ba korxonaning)

Bu usul orqali baholashda birgina aksionerlar ulushigina o‘rganilmasdan, balki sho‘ba korxonaning xaqiqiy narxining barcha aktivlariga nisbatini olish bilan o‘rganiladi.

GUDVILL = (aksiyonerlar nazoratidagi + aksiyonerlar nazoratida) – sho‘ba korxonaning (2)
investitsiyalar bo‘lmagan ulush sof aktivlari

Gudvill ijobiy yoki salbiy bo‘lish mumkin. Korxonaning taniqli nomi bo‘lsa, korxona qiymati uning aktiv va majburiyatlari jami qiymatidan yuqori yekanligidan dalolat beradi. Bunda ushbu korxona faoliyatida sezib bo‘lmaydigan, uning aktiv va majburiyatlari qiymatida o‘z aksini topmagan narsa sifatida korxonaning barqaror haridorlari, geografik jihatidan qulay joylashuvi, sifat jihatidan qozongan obro‘-e’tibori, marketing va mahsulot sotish ko‘nikmalari, texnik nou-xau, o‘rnatilgan aloqalar, boshqarish tajribasi, korxona personallarini malaka darajasi va h.k. bo‘lishi mumkin bo‘lgan daromaddan yuqoriroq daromad darajasini ta’minlaydi.

Gudvill ko‘pincha nazariy hisoblash usuli yordamida aniqlanadi. Kompaniyaning daromadliligi o‘tgan yillardagi foyda ko‘rsatkichlaridan iborat. So‘nggi uch moliyaviy yil davomida olingan foyda gudvilni aniqlashda boshlang‘ich nuqta sifatida qabul qilinadi. Ushbu yillardagi foyda kutilmagan xarajatlar va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar bo‘yicha tuzatiladi. Keyin tadbirkor o‘z ishi uchun o‘zi to‘laydigan ish haqidan kamaytiradi. Va nihoyat, xususiy kapitalga foizlar foydadan tushiriladi. Yakuniy summa - yuqori foyda.

Misol tariqasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Jaxongirda avtomobillarni bo‘yash sexi bor. Birinchi yilda u 45 378 yevro, ikkinchi yili 11 344 yevro zarar ko‘rdi, uchinchi yilda esa 68 067 yevro foyda

---

[171] *Игорь Забута* Гудвилл: методы расчета и обесценение (рус.). Dipifr.info (15 апреля 2010). Архивировано из первоисточника 19 марта 2012. Проверено 26 декабря 2011

[172] *Игорь Забута* Гудвилл: методы расчета и обесценение (рус.). Dipifr.info (15 апреля 2010). Архивировано из первоисточника 19 марта 2012. Проверено 26 декабря 2011.

oldi. Birinchi yilda u o‘zining bo‘yoq do‘konini to‘liq yangilab, uni atrof-muhit va sanoatning eng qattiq talablariga moslashtirdi - bu unga 68.067 yevroga tushdi. Ta’mirlash uchun kutilmagan xarajatlarni hisobga olmaganda, o‘rtacha yillik foyda uch yil davomida 56,722 yevro miqdorida olingan. Jaxongir o‘zi uchun yillik ish haqi 36302 yevro to‘laydi. Kompaniyaning xususiy kapitali 22 689 yevroni tashkil yetadi.

Ortiqcha foyda quyidagicha bo‘ladi:

- yalpi foyda 56,722 yevro;
- ish haqi 36 302 yevro;
- kapital uchun tovon puli (10%) 2268 yevro = 18 151 yevro.

Birinchi yilga qo‘yilgan sarmoyalar hisobiga avtomobillarni bo‘yash sexi foydasi prognozi oshgan bo‘lishi mumkin. Bunday holda, gudvillni juda yuqori deb hisoblash mumkin. Ammo yangi ekologik qoidalar tufayli bo‘yoq texnologiyasi allaqachon eskirgan bo‘lsa yoki avtoulovlarni bo‘yash do‘konining joylashishi endi davlatning rejalariga to‘g‘ri kelmasa, gudvill hajmi sezilarli darajada kamayadi. Agar siz kompaniya sotib olgan bo‘lsangiz, iloji boricha tezroq to‘lagan gudvill qiymatini o‘chirishni hohlaysiz. Yaxshi ishbilarmonlik obro‘si kutilgan foydali muddati davomida amortizatsiya qilinishi kerak. Ushbu xizmat muddati cheklangan deb hisoblanadi, ammo 10 - 20 yil oralig‘ida.

Sotib olish qiymati sotib olingan aktivlar va majburiyatlarning adolatli qiymatidan past bo‘lganida paydo bo‘ladigan salbiy gudvilni tan olish ushbu baholash sababiga bog‘liq. Agar salbiy gudvill kelajakdagi kutilayotgan zararlar va xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, taxminiy yo‘qotishlar va xarajatlar paydo bo‘lishi sababli natijaga gudvill qo‘shilishi kerak. Boshqa hollarda, salbiy gudvill qayta baholash zahirasiga kiritilishi kerak, so‘ngra bosqichma-bosqich hisobdan chiqarish yoki bir martalik summani hisobdan chiqarish kerak.

Tayanch so‘z va iboralar

Patent, litsenziya, daromadli yondashuv, franchayz, gudvill, nou-xau, intellektual mulk, nomoddiy aktiv, asosiy vosita.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. Nomoddiy aktivlar deganda nimani tushunasiz?

2. Nomoddiy aktivlarni baholash qanday amalga oshiriladi?

3. Gudvillni baholash usullari

4. Franchayzning iqtisodiy mohiyati

5. Intellektual mulk ob'ektining qiymatining qanday yondashuvlari mavjud?

XXI BOB. INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO‘LLARI

§ 21.1. “Investitsiya risklari” tushunchasi, mazmun-mohiyati va xususiyatlari
§ 21.2. Investitsiya faoliyati bilan bog‘liq risklar va ularning tasniflanishi. Investitsiya risklarini aniqlash usullari
§ 21.3. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo‘llari

§ 21.1. “Investitsiya risklari” tushunchasi, mazmun-mohiyati va xususiyatlari

Investitsion faoliyatda risk – bu investitsiyalarni qisman yoki to‘liq yo‘qotish, kutilgan daromaddan kamroq foyda olish va loyihada ko‘zlangan maqsadlarga erisha olmaslik xataridir. Loyihadan qanchalik ko‘p miqdorda daromad olish taxmin qilinsa, shu qadar yuqori riskli deb e’tirof etiladi. Hozirgi kunda loyiha risklari deganda loyihani amalga oshirish natijasida ko‘zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo‘ladigan vaziyatlar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga loyiha riski investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig‘indisini ham anglatadi. Riskni ma’lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo‘qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo‘shimcha harajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

Amaliyotda investorlar har doim rejalashtirilgan natijalarga erisha olmaydilar. Buning asosiy sabablaridan biri – risklarning mavjudligidir. Shunday holatlar bo‘lganda tadbirkor investitsiyalarni jalb etish, undan samarali foydalanish orqali foyda (daromad) olganligini his etadi. Bunday his tuyg‘ular tarkibida yana bir hohish yuzaga keladi, ya’ni agar men ushbu ishni xayotga tadbiq etishda professional yondashganda ko‘zlangan foyda 10-15 foiz ko‘p bo‘lgan bo‘lar edi deb faraz qiladi. Unda savol tug‘iladi. Tadbirkor investitsiyani jalb etib ko‘zlangan foyda (daromad)ni qo‘lga kiritgan bo‘lsa yana qanday foyda (daromad) ustida gap borishi mumkin? Darhaqiqat, har bir moliyaviy munosabatlarni oqilona tashkil etishda to‘siqlar bo‘ladi, ko‘pincha ularni e’tiborga olib bo‘lmaydi, bir to‘siqni oldini olsak, ikkinchi omil yuzaga kelib harajatlarni oshiradi, foydani esa kamaytiradi. Shu sababli qo‘lga kiritilgan har qanday moliyaviy natija bu riskli faoliyat yuritish natijasidir, risksiz faoliyat bo‘lmaydi.

Investitsion faoliyatda risk – bu investitsiyalarni qisman yoki

to‘liq yo‘qotish, kutilgan daromaddan kamroq foyda olish va loyihada ko‘zlangan maqsadlarga erisha olmaslik xataridir. Loyihadan qanchalik ko‘p miqdorda daromad kutilsa, u shunchalik yuqori riskli hisoblanadi.

Risk atamasiga turlicha ma’no berib kelinmoqda. “Risk” so‘zi Yevropaning ko‘p tillarida mavjud. Misol uchun greklarda ridsikon so‘zi mavjud bo‘lib, u qoya, cho‘qqi ma’nosini bildiradi.

Italiyaliklar tilida risiko so‘zi xatar, tahdid ma’nosini, risicare so‘zi qoyadan mohirona o‘tish ma’nosini bildiradi. Fransuzlardagi risdoe so‘zi taxdid, qoyani aylanib o‘tmoq ma’nosini beradi. Vobster lug‘atida risk – xavf-xatar, zarar va yo‘qotish ehtimoli deb ta’riflangan. Ojegova lug‘atida risk - xavf ehtimoli yoki muvaffaqiyat umidida xavf tomon borish ma’nosida kelishi ko‘rsatilgan. Iqtisodchi Ye.S.Stoyanovaning “Moliyaviy menejment” kitobida “risk - bu zararning paydo bo‘lishi yoki prognozlashtirilganidek daromad ololmaslik xavfi ehtimoli” deb ta’rif beradi. Graboviy P.G., Petrova S.N.larning “Zamonaviy biznesda risk” kitobida ta’riflanishicha, “Risk deganda ma’lum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida korxona tomonidan o‘z resurslarini ma’lum qismidan ayrilish, foyda ololmaslik yoki qo‘shimcha harajatlar qilish ehtimoli”dir. Iqtisodchi Chaliy-Prilutskiy V.A.ning “Bozor va risk” kitobida keltirilishicha: “Risk - bu tanlov sharoitida bajarilgan shunday faoliyatki, qachonki muvaffaqiyatsizlik sharoitida tanlov oldidagiga nisbatan og‘irroq sharoitga tushib qolish ehtimoli mavjud bo‘ladi”[173].

Risk – bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda xaqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning yuzaga kelish ehtimolidir. Risk kutilishi mumkin bo‘lgan xatar bo‘lib, investitsiyadan mo‘ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo‘lgan noumidsizlikdir. Risklarning paydo bo‘lish sabablari turlichadir. Masalan, ma’lumotlarning tanqisligi yoki to‘liq bo‘lmasligi, tashqi va ichki muhitdagi harakatlar (raqobatchilar, ishchilar holati, xukumat va boshqalarning harakatlari) va h.k. “Risk” tushunchasiga juda yaqin bo‘lgan “noaniqlik” tushunchasi riskning aniq turlarini tasniflash uchun sinonim sifatida qo‘llaniladi. Noaniqlik – bu investitsion loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari xaqidagi ma’lumotlarning to‘liq yoki aniq yemasligidir. Masalan, inflyatsiya xaqidagi, texnika-texnologiyalardagi o‘zgarishlar haqidagi, loyiha quvvatining, ob’ektning qurilish va foydalanishga topshirish

[173] Морозов Д.С.Проектное финансирование:управленение рисками. Учебное пособие. – М: Анкил, 1999, 26 с.

muddatlari, harajat va natijalarning notug‘ri hisob-kitob qilinishi kabi ma’lumotlarning to‘liq yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik yuzaga keladi.

Riskni tushunishda ikki xil qarash mavjud. Birinchidan, risk – bu ob’ektiv, ya’ni xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik va uning natijasida moliyaviy resurslarining bir qismidan yoki butunlay ajralish, rejalashtirilgan daromadni ololmaslik, zarar ko‘rish deb qarash. Ikkinchidan, risk – bu sub’ektning xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik, zarar ko‘rish ehtimolini bila turib, yaxshi natijaga erishish umidida faoliyatni amalga oshirish deb qarash. Demak, ikkinchi xil qarashda risk faoliyatdir, faoliyat boshlash yoki boshlamaslikning sharti.

Ammo shu o‘rinda aytish joizki, investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelish imkoniyati bilan bog‘liq salbiy holatlar va oqibatlar risk tushunchasi bilan izohlanadi. Risk bilan noaniqlikning farqi shundaki, natijalar ehtimolligi joriy davr ma’lumotlari asosida baholanayotgan vaqtda risk e’tiborga olinadi. Noaniqlik esa bunday ehtimollik o‘tgan va kelasi davr ma’lumotlari yetishmasligi yoki to‘liq emasligi sababli sub’ektiv aniqlangan vaqtda e’tiborga olinadi. Har qanday holda ham kelgusi iqtisodiy holatlar istiqbolini belgilash (inflyatsiya, foiz stavkasi, talab va taklif, ishlab chiqarish, sotish hajmi va boshqalar) kelajakning ma’lum emasligi sababli faqat taxminiy va noaniq natijalar bo‘lishi mumkin.

Risklarning har ikkalasi ham loyihadagi yo‘qotish va zararlarga bog‘liq bo‘lganligi uchun ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda ifodalash maqsadga muvofiqdir. Investitsiya risklarini turli belgilar bo‘yicha tasniflash mumkin (21.1 – jadval). Shu o‘rinda aytish joizki, risklardan mutloq yo‘qotishlar “0” ga teng bo‘lgan holatini yuzaga keltiradi. Bunday holatdan chiqish esa tadbirkorning innovatsion g‘oyalarini amaliyotda qo‘llash darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida uning har bir bosqichi (fazasi) o‘ziga xos risklar bilan bog‘liqdir. Birinchi bosqichda (investitsiya oldi fazasida) ko‘proq loyiha tashabbuskorlari marketing riskiga, bozor riskiga, informatsion va ijtimoiy risklarga ta’sirchan bo‘ladi. Investitsiya bosqichida ko‘proq ilm-texnika riski, moliyaviy risklar, tashqi iqtisodiy risklar va siyosiy risklar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ekspluatatsiya bosqichida esa loyiha ishtirokchilari texnologik, ekologik, fors-major, nolikvidlik, iqtisodiy va moliyaviy risklar bilan yuzma-yuz bo‘lish ehtimoli mavjud.

21.1 - jadval

Investitsiya risklarini belgilari bo‘yicha tasniflash[174]

№	Risklarni yuzaga keltiruvchi belgilari	Risk turlari	Natija	Yo‘qotish darajasi			
				≤ 1	> 1	< 1	≥ 1
1	Tarkibi bo‘yicha risklar	iqtisodiy risk; bozor riski; inflyatsiya riski; valyuta riski; siyosiy risk; ijtimoiy risk; ekologik risk; texnologik risk; marketing riski; moliyaviy risk; kredit riski; bankrotlik riski; ilm-texnika riski; informatsion risk va boshqalar	yo‘qotishlar, foyda olish imkoniyati tadbirkorning innovatsion faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi	+	+	+	+
2	Muddati bo‘yicha risklar	qisqa muddatli risklar; uzoq muddatli risklar	yo‘qotishlar, foyda olish imkoniyati tadbirkorning innovatsion faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi	+	+	+	+
3	Olinadigan natijaga qarab risklar	spekulyativ risk; sof risklar	ular ta’sirida katta zarar yoki katta foyda olish imkoniyati mavjud bo‘ladi ular ta’sirida “0” ga teng bo‘lgan zarar (foyda) ko‘rish mumkin bo‘ladi	- -	+ -	+ -	**0** **± 0**
4	Loyihaga ta’sir etish darajasi bo‘yicha risklar	mumkin bo‘lgan risklar; kritik risklar; katastrofik risklar	Ular ta’sirida kutilgan foydadan ayrilish mumkin Loyiha pul tushumlarida ayrilishi kutiladi Daromaddan va kiritilgan investitsiyalardan ayrilishi kuzatiladi	- - -	- - -	- - -	**-0** **-0** **-0**

Bundan tashqari, loyiha faoliyatida eng ko‘p uchraydigan risklar ham mavjud, ya’ni iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy xolatning o‘zgarib turishi; investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog‘liq risklar; chegaralarning berkilishi; siyosiy holatning noaniqligi, bozor kon’yunkturasining, ya’ni baho, valyuta kurslari, yalpi ichki

[174] Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

mahsulot va boshqalarning o‘zgarib turishi, tabiiy iqlim sharoitlarining o‘zgarishi, tabiiy ofatlarning yuz berishi, ishlab chiqarish texnik risklari asbob – uskunalarning buzilishi va to‘xtab qolishi; loyiha ishtirokchilari maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro‘si haqidagi ma’lumotlarning to‘liq emasligi va boshqalar.

§ 21.2. Investitsiya faoliyati bilan bog‘liq risklar va ularning tasniflanishi. Investitsiya risklarini aniqlash usullari

Investitsion loyihalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqlik masalasini hal etishda risk tahlili asosiy o‘rinni egallab, bu asosida loyiha yuzasidan mumkin bo‘lgan barcha yo‘qotishlar o‘rganilib, ularning oldini olish yoki tegishli vaziyatlarda ularni benuqson hal etish yoki pasaytirish choralari ishlab chiqiladi. Riskdan keladigan yo‘qotishlarni kamaytirish yoki barham toptirish va ular bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif etish uchun eng avvalo risklarning vujudga kelishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash, ularning ahamiyatini baholash, ya’ni “risk tahlili” deb nomlanuvchi ishni bajarish lozim bo‘ladi.

Risk tahlilining maqsadi investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishda qatnashishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlardan himoyalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat. Shunga ko‘ra, risk tahlilini loyihaning barcha ishtirokchilari mustaqil tarzda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Risk tahlili investitsion loyihaning barcha ishtirokchilari, buyurtmachilar, pudratchilar, bank, sug‘urta kompaniyalari, lizing kompaniyalari, mol etkazib beruvchilar tomonidan olib borilishi lozim. U, odatda, bir-birini to‘ldiruvchi ikki turga: risklarning turlari, omillari va doirasini aniqlash maqsadini ko‘zlovchi sifat tahlili; alohida risklar kabi loyihalarning ham hajmini hisoblash imkonini beruvchi miqdoriy tahlil.

Risklarning sifat tahlili – risk omillarni va turlarini aniqlash maqsadiga ega. Loyihaviy risklarning sifat tahlilini o‘tkazish jarayonida loyiha bo‘yicha aniq risk turlari aniqlanadi, ularni paydo bo‘lish sabalari o‘rganiladi, risklarni pasaytirish barcha takliflarda loyihani amalga oshirish oqibatlari tahlil qilinadi.

Hozirgi sharoitda investitsion faoliyat ma’lum miqdordagi moliyaviy resurslarni jalb etilishini talab qiladi. Investorlar sarflangan resurslardan ma’lum daromad, foyda olishni ko‘zlaydi. Olinadigan

foyda esa investorlarning harajatlarini, inflyatsiya omilini, tadbirkorlik riskini qoplashi lozim. Har qanday holda ham kelgusi iqtisodiy holatlar istiqbolini belgilash (inflyatsiya, foiz stavkasi, talab va taklif, ishlab chiqarish, sotish hajmi va boshqalar) kelajakning ma'lum emasligi sababli faqat taxminiy va noaniq natijalar bo‘lishi mumkin. Chunki o‘tgan davr ma'lumotlari asosida faqat noma'lum kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lib o‘tgan rivojlanish tendensiyasini aniqlash mumkin. Shunday qilib risk oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan moliyaviy zararlarni paydo bo‘lish ehtimolini harakterlaydi. Uning darajasini hisoblangan yoki o‘rtacha investitsion daromaddan kutilayot daromadni og‘ishini aniqlashda baholanadi. Shuning uchun, risklarni baholash doimo kutilayotgan daromad va uni zararlarini baholash bilan bog‘liq. Biroq riskni baholash sub'ektiv jarayondir. Investitsiya loyiha faoliyatidagi risklar yuzaga kelishi mumkin:

Loyiha ishtirokchilari riski - bu ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o‘z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik riski. Birgina loyiha ishtirokchisining o‘z majburiyatlarini bajarmasligi, boshqa ishtirokchilarning o‘z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi, natijada loyiha barbod bo‘lishi mumkin. Loyixa ishtirokchilari riskiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin: ishtirokchilarning vijdonsizligi; ularning professionallik darajasi, moliyaviy holatining nobarqarorligi, ishtirokchilarni turli risklardan yetarlicha sug‘urtalanmaganligi natijasida kelib chikadi. Masalan, loyiha smeta qiymatining oshish riski qurilish tashkilotining vijdonsizligi natijasida ro‘y berishi mumkin. Ish sifatining pastligi riski, ko‘p hollarda, tanlangan pudratchi va boshqa ishtirokchilarning yetarli tajribaga ega emasligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Loyiha smeta qiymatining oshish riskiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin: loyihalash jarayonidagi xatolar, pudratchilarning resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay olmasligi, loyihani amalga oshirish shartlarini o‘zgarishi va boshq.

Qurilishni o‘z vaqtida tugallanmaslik riskiga quyidagilar ta'sir ko‘rsatadi: pudratchilarning o‘z majburiyatlarini bajarmasliklari; tashqi shart-sharoitlarning o‘zgarishi, qurilish ishlari muddatining cho‘zilib ketishi natijasida qo‘shimcha harajatlar kelib chiqishi: kredit bo‘yicha foizlarni hisoblash, narxlarning inflyatsiya natijasida o‘sishi oqibatida ish va material qiymatining oshishi kabi qo‘shimcha harajatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, bu risk natijasida kelgusidagi ob'ektga xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan va kelgusidagi loyiha

mahsuloti iste’molchilari bilan shartnomaviy munosabatlar to‘xtashi mumkin. Ish va ob’ekt sifatining pastligi riski pudratchilar majburiyatining buzilishi, loyixalashtirishdagi xatolar va boshqalar natijasida kelib chiqishi mumkin. Ob’ekt sifatining pastligi natijasida loyiha bo‘yicha qo‘shimcha investitsion harajatlar qilinishi kerak bo‘ladi. Bu harajatlar kamchiliklarni tuzatishga sarflanishi mumkin. Agar kamchilik saqlanib qoladigan bo‘lsa, loyiha mahsulotini ishlab chiqarishga qo‘shimcha harajatlar qilish kerak bo‘ladi.

Konstruksion va texnologik risk. Konstruksion risk – bu investitsiya fazasidayoq loyihaning texnik amalga oshmaslik riskidir. Bu loyiha hujjatlarini ishlab chiquvchilarning xatolari, bu hujjatlarni ishlab chiqishda zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yetarli yoki aniq yemasligi natijasida ro‘y berishi mumkin. Texnologik risk – bu ishlab chiqarish texnologiyalarining sanoat darajasida qo‘llanilmasligi natijasida ma’lum texnik-iqtisodiy parametrlardan ob’ekt ekspluatatsiyasidagi cheklanishlar riski. Bunga ekspluatatsiya harajatlarining oshishi, ekologik me’yorlarga mos kelmaslik kabilar ta’sir etadi.

Ishlab chiqarish riski - bu ishlab chiqarish jarayonida kamchiliklarni yuzaga kelish riski. Bu ishlab chiqarish davomiyligining buzilishida, ob’ektning loyihaviy quvvatga erishmasligida, qo‘shimcha ishlab chiqarish harajatlarida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish riskining bir turi bu texnologik riskdir. Bu risklar ta’minotdagi uzilishlar, resurs zahiralarining yetishmasligi, xom ashyo sifatining pastligi, transport masalalari va boshqalar sabab kelib chiqadi. Ishlab chiqarish harajatlarining yuqori darajasi harajatlarni xato hisoblash, xom ashyo va boshqa resurlar miqdori va sifatiga ma’lum talablarni aniq emasligi natijasida bo‘ladi.

Boshqaruv riski - bu ishlab chiqarish riskining bir turi, boshqaruvchi shaxsning tajriba va malakasini yetarli darajada emasligi natijasida ro‘y beradi. Ayrim hollarda, boshqaruv riski deganda, loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlaridagi menejment darajasining pastligi va xatolari bilan bog‘liq risklar tushuniladi.

Sotish riski - bu loyiha mahsuloti sotish xajmining va shu mahsulot baxosining kamayish riskidir. Sotish riski bozor kon’yunkturasining o‘zgarishi, marketing yoki baho riski deb ham ataladi. Sotish riski, ayniqsa bahoni taxmin qilish ancha qiyin bo‘lgan, yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarda yuqori bo‘ladi.

Moliyaviy risk. Bu riskning loyiha faoliyatidagi asosiy turlari: kredit riski; valyuta riski; foiz stavkasini o‘zgarish riskidir. Kredit riski – bu loyihani amalga oshirayotgan tashkilotning kreditor bankka kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini to‘liq yoki umuman to‘lay olmaslik riski. Bu risk asosan loyihani moliyalashtirishda loyihani kreditlovchi bankning riskidir. Valyuta riski – bu risk loyiha mahsuloti mahalliy bozorda sotilganda va xokimiyat mahsulotni milliy valyutada sotilishini talab qilayotgan paytda yuqori bo‘ladi. Bu risk loyiha mahsulotini sotishdan olinadigan valyuta bilan kredit valyutasi bir xil bo‘lmagan hollarda yuzaga keladi. Foiz stavkasining o‘zgarish riski – bu risk kredit resurslari o‘zgaruvchan stavkada qo‘llanilganda ro‘y beradi. Bunday resurslarni jalb qilishda loyihada qo‘llanilgan kapital qiymatining oshishi va mahsulot rentabelligining kamayish xavflari mavjud bo‘ladi.

Mamlakat riski – bu tashqi loyiha risklariga tegishli bo‘lib, uning mazmuni shundaki, loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari va davlatning siyosati loyiha faoliyati uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratishi va hatto loyihani barbod qilishi ham mumkin. Mamlakat riskining omillari: markaziy va mahalliy xokimiyatlarning harakati, urushlar, ish tashlashlar, terrorchilik harakatlari va boshqalar bo‘lib bular loyiha ishtirokchilari ta’siri doirasidan tashqarida bo‘ladi. Davlatning siyosati bilan bog‘liq mamlakat risklarini shartli ravishda ikkita guruhga bo‘lish mumkin: siyosiy va iqtisodiy. Siyosiy mamlakat riski – hukumatning chet el investorlari va kreditorlari ishtirokidagi loyiha faoliyatini to‘xtatish yoki cheklashga qaratilgan harakati bilan bog‘liq. Bularga foydani boshqa mamlakatga olib o‘tishdagi ta’qiqlashlar va cheklashlar, chet el kapitali uchun avval yaratilgan imtiyozlardan mahrum qilish, konsepsiya va litsenziyalarni qaytarib olish va boshqalar kiradi.

Ma’muriy risklar – loyiha kompaniyalari va loyiha faoliyatining boshqa ishtirokchilarini davlat nazorat va tartibga solish boshqarmalaridan turli litsenziyalar, ruxsatlarni olishi bilan bog‘liq. Litsenziyalar, ruxsatlar loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida talab qilinishi mumkin: loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda, tenderlar o‘tkazishda, mashina va asbob-uskunalarni yetkazib berishda, qurilishda, dastlabki ishlar va ob’ektning ishga tushirilishida talab qilinadi. Litsenziyalar, ruxsatnomalar soni ayrim loyihalar bo‘yicha juda ko‘p bo‘lishi mumkin: loyiha faoliyatining u yoki bu turi bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi, tabiiy resurslardan

foydalanish, tabiiy resurslarni va valyutani chetga olib chiqish huquqini beruvchi litsenziyalar, ruxsatlar bo‘lishi mumkin.

Huquqiy risk – bu risk qaysidir darajada mamlakat, ma’muriy va boshqaruv risklari bilan bog‘lik. Avvalo, bu risk kreditorning kafolat bermaslik va boshqa kredit bilan ta’minlashlar ehtimoli bilan bog‘liq noaniqlik va ishonchsizligida namoyon bo‘ladi. Bunday noaniqlik va ishonchsizlik sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin: qonunlar majmuining va xalqaro huquq normalarining mukammal emasligi, huquqiy hujjatlar sifatining pastligi, sud mexanizmidagi kamchiliklar va boshqalar. Ayrim huquqiy risklar loyiha ishtirokchilari nazoratidan tashqarida bo‘lib, ular mamlakat va siyosiy risklarga yaqin. Bundan boshqa huquqiy risklarni milliy qonunchilikni, xalqaro investitsion huquqlarni yaxshi biluvchi, shartnoma, kelishuvlar va boshqa loyihaning huquqiy hujjatlarida ishtirok yetuvchi malakali huquqshunos maslahatchini jalb qilish bilan yechish mumkin.

Fors-major riski – loyiha faoliyatiga tegishli bo‘lmagan tashqi risklardan biri bo‘lib, unga yer silkinishi, yong‘inlar, suv toshqini, bo‘ronlar va boshqa tabiiy hodisalar kiradi. Fors-majorga ayrim ijtimoiy va siyosiy tabiiy hodisalar ham kiradi: ish tashlashlar, inqiloblar, qo‘zg‘olonlar va boshqalar. Shunday yo‘l bilan mamlakat riskining bir qismi fors-major riski sifatida namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy bozor eng yuqori riskga ega bo‘lgan soha deb hisoblanadi.

Undagi risklar ikkita katta guruhga bo‘linadi: tizimli risklar; tizimsiz risklar.

Tizimli risklar (investitsiya portfeli risklari) – bu xatar ta’siriga ba’zi bir qimmatli kog‘ozlar emas, balki butun bozor, uni katta bir qismi risklarga uchraydi. Bu holda iqtisodiy nobarqarorlik tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra ko‘pchilik emitent va qimmatli qog‘ozlar egalari zarar ko‘rishlari mumkin. Tizimli risklarga quyidagilar kiradi: foiz riski; valyuta riski; inflyatsiya riski; siyosiy risklar.

Tizimsiz risklar – xatarga ba’zi bir qimmatli qog‘ozlar yoki ularni majmuasi uchraydi, ya’ni ma’lum bir korxonaning qimmatli qog‘ozlari yoki tarmoqning qimmatli qog‘ozlari kiradi. Tizimsiz risklarga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik riski; moliyaviy risklar; nolikvidlik riski.

Aniqlik kiritish uchun quyidagi risklar kategoriyalarini aks ettirish mumkin.

Likvidlikni yo‘qotish riski (liquidity risk) – u yoki bu qimmatli

qog‘ozlarga bg‘lgan talab sezilarli darajada hzgarishga yuz tutishi mumkin, undan ham yomoni ushbu qimmatli qog‘ozlarga umuman talab yo‘qolib ktishi mumkin.

Tadbirkorlik riski (business risk) – qimmatli qog‘ozlarning narxi (xususan aksiyalar) istalgan kompaniyaning, qanchalik darajada kompaniya o‘z tanlagan yo‘nalishida muvofaqiyat bilan ishlashiga bog‘liq.

Moliyaviy risklar (financial risk) – kompaniya aksiyalar narxi, kompaniya rahbariyati tomonidan o‘tkazilayotgan moliyaviy siyosatga bog‘liq holda tebranadi. Masalan, agar Fond bozorini moliyalashda asosiy e’tiborini qarz majburiyatli korporativ qimmatli qog‘ozlar chiqarishga qaratilsa, moliyaviy risk darajasi yuqori bo‘ladi.

Majburiyatlarni bajara olmaslik riski (default risk) – agarda emitent o‘z majburiyatlarini har xil sabablarga ko‘ra o‘z vaqtida yoki umuman bajara olmasa, paydo bo‘ladigan investitsiya risklariga aytiladi.

Tizimsiz risklarni ta’sirini minimallashtirish uchun diversifikatsiya deb ataladigan metod qo‘llaniladi va uning natijasida investitsion portfel tuzish zaruriyati paydo bo‘ladi. Investitsin portfel yaratish orqali investor bir qancha emitent chiqargan moliyaviy instrument to‘plpmini yaratadi va shunda u bir emas bir qancha tizimsiz risklariga duch keladi. Shu yo‘l investor risklarni diversifikatsiyalaydi va daromadlilikni birdaniga o‘zgarishini oldini oladi. Ushbu sharoitda investitsion portfelda qimmatli qog‘ozlar qanchalik kam bo‘lsa risk darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Diversifikatsiya metodi tizimsiz risklarini minimallashtiradigan eng samarali dastakdir, lekin u faqatgina investitsion portfelni yetarlicha miqdorda ko‘p instrumentlar jalb qilingandagina qulaydir.

Diversifikatsiya metodining chegaraviy darajasi, risk darajasiga bog‘liq, chunki ular faqatgina aniq moliyaviy bozorni ochib beradi. Bu risklarini turli tumanligini inobatga olgan holda quyidagi xillarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Foiz risklarii (interest rate risk) – foiz stavkalari tebranishidan hosil bo‘ladigan investitsiya risklari. Ayniqsa qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar egalariga daxldordir.

Valyuta riski (exchange rate risk) – bu shunday investitsiya risklariki mohiyatan chet el emitentlarining qimmatli qog‘ozlarga kiritgan investitsiyalarning valyuta kursi tebranishilaridan paydo bo‘ladigan investitsiya risklari. Inflyatsion risklari (Inflation risk) –

inflyatsiya darajasining kutilmaganda oshib ketishi, emitentlar faoliyatini o‘zgarishiga olib boradi va bu aksiya narxiga sezilarli ta’sir etishi mumkin.

Siyosiy risklari (Political risk) - kutilmaganda xususan, shiddatli siyosiy vaziyatdagi o‘zgarishlarning qimmatli qog‘ozlar bozoriga ta’sir etmasdan iloji yo‘q, aksincha ancha oqibati yomonroq bo‘ladi. Ayniqsa bu risk rivojlangan mamlakatlar moliyaviy instrumentlar bilan ishlagan dolzarb va yana turg‘un bozorlarda ham uni uchratish mumkin.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan risklardan tashqari, qimmatli qog‘ozlar bozoriga samarali investitsiya qilishga oz yoki ko‘p miqdor(daraja)da ta’sir etuvchi omillar ham mavjud. Ushbu risklarning tasnifi shartli ravishda bo‘lib, har bir loyiha uchun ahamiyatli risklarni aniqlash nuqtasiga yo‘naltirish sifatida qaraladi. Bunday risklar aniq holatlarda mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tarmoqqa tegishliligi, masshtablari, tanlangan texnologiya, loyihani amalga oshirayotgan mamlakat va boshqa loyihaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Loyiha risklarining bir necha turlari mavjud. Ularning hech birini ta’siri jihatidan ahamiyatsiz va xavfsiz, deb bo‘lmaydi. Investitsiya risklari kichik bir texnologik yoki shu kabi mikrodarajadagi jarayondan tortib, to mamlakat, hatto, xolqaro miqyosdagi turli holatlar va hodisalarning o‘zgarishiga bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin.

§ 21.3. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo‘llari[175]

Investorlar uchun investitsiya kiritish vaqtidagi muhim masalalardan biri bu mavjud investitsiya risklarini tahlil qilish va ularni boshqarish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Mavjud riskli muhitga qaramasdan ayrim brokerlik idoralarining fikricha, qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish qarori hamma vaqt irratsionaldir. Undan tashqari oxirgi yillardagi texnik analizning rivojlanishi, ko‘pgina hollarda investitsion qarorlar (ayniqsa rivojlanayotgan bozorlar) yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan omillar guruhini batafsil tahlil asosida qabul qilinadi.

Risklar jamiyat rivojlanishini ta’minlaydi. Innovatsion faoliyatda esa ilmiy texnik rivojlanishga olib keladi. Bunday rivojlanish ba’zi birovlarning muvaffaqiyati bilan birga, ba’zi birovlarning muvaffaqiyatsizligi natijasida ro‘y beradi. Ikkinchidan tavakkal

[175] Ushbu bandni tayyorlashda A.A.Bektemirovning tadqiqot natijalaridan foydalanilgan.

qilmagan yutmaydi ya’ni iqtisodiy foyda olish uchun tadbirkor ongli ravishda riskli qaror qabul qilishi zarur. Bunday holatda risklarni tahlil qilishda qulay bo‘lishi uchun risklarni ularning xususiyatlariga qarab tasniflash va shu orqali baholash va ta’sir darajasini pasaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Avvalgi tadqiqotlarimizda risklarni baholash usullariga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsak, bu tadqiqotlarimizni yanada rivojlantirgan holda avvalo iqtisodiy adabiyotlarda risklarni tasniflashga qaratilgan fikr-mlohazalar va takliflar tahlilini amalga oshirishni zarur deb topdik[176].

Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni turli guruhlarga ajratib tasniflash va ularni pasaytirish usullari taklif etilgan. Ulardan eng ahamiyatlilariga to‘xtalib o‘tamiz.

Rus iqtisodchilari O.A.Firsova[177] va I.A.Sokolova[178]larning ilmiy tadqiqotlarida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatidagi risklarni tashqi va ichki guruhlarga bo‘lgan. Bunda tashqi risklar guruhiga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, xuquqiy, moliyaviy, valyuta, inflyasiyaviy, fors major, tabiiy, bozor konyukturasining o‘zgarishi, iste’molchining to‘lov qobiliyati pasayishi bilan bog‘liq risklarni kiritgan. Ichki risklar guruhini esa strategik, taktik va operativ risklar guruhiga bo‘lgan.Uning ishida ayrim noaniqliklar mavjud.

Ye.M.Xitrova[179] risklarni iqtisodiy natijalarga ko‘ra risklarni sof va chayqov risklari guruhiga ajratgan. Ishda risklarning bu guruhlariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsada, risklarning vujudga kelish jihatlarini to‘liq qamrab ololmaydi.

N.V.Kuznesova[180] o‘z tadqiqotlarida korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida vujudga keladigan risklarni hududiy, tabiiy-iqlimiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy, shaxsiy risklarga ajratgan. Kredit, valyuta, moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, hisobiy, mulkiy va transport risklariga ajratib ko‘rsatgan. Risklarni guruhlarga ajratmasdan bunday tasniflash, ularni tahlil qilish va baholash ishlarini qiyinlashtiradi.

A.R.Samoxvalova[181]ning tadqiqotlarida tadbirkorlik risklari ularning tadbirkorlik faoliyatining doirasiga, riskning ta’sir qilish

[176] Бектемиров А.А. Тадбиркорлик рискларини баҳолаш ва уни пасайтириш йўллари (1-мақола)// Сервис. – Самарқанд. – 2021. - №1

[177] Фирсова О.А. Управление рисками организаций. Учебное пособие Орел: МАБИВ, 2014. – 100 с.

[178] Соколова И.А. Управление предпринимательскими рисками на предприятиях сферы услуг. Автореферат диссертации на соискание ученой стпени к.э.н., Тольятти-2005.

[179] Хитрова Е.М.Основы управления рисками. Учебное пособие. Иркутск. Издательство БГУ. – 2016.

[180] Кузнецова Н.В. Управление рисками. Учебное пособие. Издательства Дальневосточного университета, 2004

[181] Самохвалова А.Р. Управление предпринимательскими рисками. Автореферат диссертации на соискание к.э.н., Москва -2004.

davriga, riskli holatlarning vujudga kelish chastotasiga, riskning vujudga kelish sohasiga, yechim sohasiga, riskli holatlarning oqibati tavsifiga, tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir qilish darajasiga, tadbirkorlik faoliyati turiga qarab risklar turlarga ajratilgan. Bu risklarning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlashga yordam bersada, risklarning turlarini to‘liq qamrab ololmaydi.

G.A.Axtamovaning[182] ilmiy tadqiqotlarida risklarni vujudga keltiruvchi omillarning xususiyatlari ochib berilgan. Muallif tadqiqotlarida o‘rganilgan risklarni to‘liq tasniflangan deb bo‘lmaydi.

Risklarni tasniflash bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, bizning nazarimizda ineternet https://www.grandars.ru saytida risklarni tasniflash bo‘yicha keltirilgan umumlashma ma’lumotlar risklarni to‘liq tasniflash imkonini beradi. Unga ko‘ra risklar kelib chiqish omillariga qarab uchta katta guruhga ajratilgan, ya’ni: tabiiy-iqlimiy risklar; siyosiy risklar;xo‘jalik risklari. Har bir guruhga tegishli bo‘lgan risklar tarkibi va ularning vujudga kelish shart sharoitlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval). Risklarni bunday tasniflash ularni baholash uchun qulay.

21.1-jadval

Risklar va ularning vujudga kelish shart-sharoitlari

Risklar guruhiga tegishli risklar		**Risklarning vujudga kelish shart sharoitlari**
1-guruh	Zilzilalardagi risklar	Inson irodasiga bo‘ysinmaydigan hodisalar oqibatida to‘satdan (stixiyali tarzda) vujudga keladi
	Suv toshqinlaridagi risklar	
	Bo‘ronlardagi risklar	
	Epidemiyalardagi risklar	
2-guruh	Xo‘jalik faoliyatini olib borish imkoniyati yo‘qolishi bilan bog‘liq risk	Harbiy holatning vujudga kelishi, inqiloblar va mamlakat ichki siyosiy holatining keskinlashuvi oqibatida vujudga keladi
	Korxonalarning xususiylashtirilishidagi risk	
	Korxonalarni yoki tovarlarni konfiskasiya qilishdagi risk	
	Embargo joriy etishdagi, ya’ni davlat tomonidan tovar va valyutalarni kiritish yoki chiqarishni man etishdagi risk	
	Yangi hokimiyatning avvalgi hokimiyat majburiyatlarini inkor etishidagi risk	
	Favqulodda holat sababli ma’lum bir muddatga tashqi to‘lovlarni moratoriya qilishdagi (to‘xtatishdagi) risk	

[182] Ахтамова Г.А. Управление предпринимтельскими рисками в сфере услуг. Автореферат диссертации на соискание к.э.н., Москва - 2004.

	Davlat tomonidan soliq siyosatining o‘zgartirilishidagi risk	
3-guruh	Mol-mulkning tasodifiy yo‘qotilishi riski	Avariyalar, yong‘inlar, o‘g‘irliklar, saqlash tartib qoidalarining buzilishi va qo‘poruvchilik natijasida vujudga keladi
	Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk	Tijoratdagi sheriklarning vijdonan ishlamas-ligi, ularning olgan majburiyatlarini bajarmasligi yoki ular to‘lov qobiliyatining yo‘qolishi oqibatida vujudga keladi.
	Iqtisodiy risk	Korxona iqtisodiy faoliyat jarayonining buzilishi va rejalashtirilgan iqtisodiy ko‘rstkichlarning bajarilmasligi oqibatida vujudga keladi (masalan tovar realizasiyasi yoki foyda hajmlari). Bu bozordagi holatning o‘zgarishiga shu bilan birga korxona menejerlarining noto‘g‘ri hisob-kitoblari natijasida ro‘y beradi..
	Narx-navo riski	Eng xavfli risklardan biri bo‘lib, korxona daromadi va foydasining kamayishi bilan bog‘liq.U tovar ishlab chiqaruvchilar sotuv bahosining, vositachi tashkilotlarning ulgurji bahosining, boshqa xizmat ko‘rsatish tashkilotlar narx va tariflarning ko‘tarilishi natijasida vujudga keladi.
	Marketing riski	Bozorda harakatlanish strategiyasining noto‘g‘ri tanlanishi(iste’molchiga noto‘g‘ri yo‘naltirish, assortimentdagi xatoliklar) natijasida vujudga keladi
	Valyuta riski	Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tijorat operasiyalariga ta’luqli bo‘lib, valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida valyuta yo‘qotilishida vujudga keladi.
	Foiz riski	Bank tomonidan korxonaga berilgan kredit foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida vujudga keladi.
	Inflyasiya riski	Korxona pul daromadlarining inflyasiya o‘sishida qadrsizlanishi natijasida vujudga keladi.
	Investitsiya riski	Korxonaning investitsion faoliyatida kutilma-gan moliviy yo‘qotishlar natijasida vujudga keladi.
	To‘lov qobiliyatini yo‘qo-tishdagi risk	Koronaning pul mablag‘lari tushimi va sarfi hajmining vaqt bo‘yicha noto‘g‘ri rejalash-tirilishi oqibatida vujudga keladi.
	Transport riski	Bu transportirovka qilish vaqtida tovarlarning buzilish natijasida vujudga keladi.

Mazkur tasniflash tizimi xizmatlar bozori xususiyatidan kelib chiqqan holda shartli xarakterga ega bo‘lib, avvalo xizmatlar bozorida sodir bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga bog‘liqdir. Tasniflangan ushbu risklar asosida muayyan makon va zamonda ularning tadbirkorlik subyektlariga ta’sir ko‘rsatish darajasini baholash imkonini beradi.

Risklarni baholash murakkabligi ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yo‘qligi yoki to‘liq emasligi bilan belgilanadi.

Ko‘pchilik holatlarda ularning kutilmagan holda ro‘y berishi, ularning turli holatlarda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hodisa va holatlarni prognoz qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning uchun avvalo ularning ta’sir darajasini o‘rganish maqsadga muvofiq. Yuqorida keltirilgan risklarning tasnifi asosida ularning ta’sir darajasini ekspert baholari yordamida aniqlaymiz.

21.2-jadval

Risklarning ta’sir ko‘rsatish darajasiga ko‘ra o‘tkazilgan ekspert so‘rov natijalari

Risk guruhi	Risklar	Ekspertlar soni	Ekspert bahosi				
			1	2	3	4	5
Xo‘jalik risklari (3-guruh)	Mol-mulkning tasodifiy yo‘qotilishi riski	105 nafar	45	30	15	0	15
	Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk		0	10	24	36	35
	Iqtisodiy risk		0	0	9	51	45
	Narx-navo riski		0	15	15	60	15
	Marketing riski		2	13	40	23	27
	Valyuta riski		0	15	30	15	45
	Foiz riski		15	14	30	15	31
	Inflyasiya riski		0	0	15	50	40
	Investitsiya riski		15	31	14	30	15
	To‘lov qobiliyatini yo‘qotishdagi risk		2	8	50	21	24
	Transport riski		45	45	15	0	0

Birinchi va ikkinchi guruh risklarining kelib chiqishi mutloq mavhumligini e’tiborga olgan holda uchinchi guruh, ya’ni xo‘jalik risklari guruhi tarkibiga kiruvchi risklarning ta’sir darajasini baholashga harakat qilamiz. Bu jarayonni quyidagi 2-jadval yordamida amalga oshiramiz. Jadvalga ko‘ra risklarning ta’sir darajasini baholash 1 dan 5 gacha bo‘lib, uning ta’sir ko‘rsatish bahosi to‘g‘risiga har bir ekspert tomonidan baholanadi. Bunda baholash ko‘rsatkichlari: 1-ta’sir darajasi juda past bo‘lgan risklar; 2-ta’sir darajasi kuchsiz bo‘lgan risklar, 3- ta’sir darajasi o‘rtacha bo‘lgan risklar, 4-5 gacha kuchli ta’sir ko‘rsatishni bildiradi. Avvalo ekspertlar tomonidan har bir riskning tadbirkorlik subyekti faoliyatiga (foydasi yoki daromadiga) ta’sir ko‘rsatish darajasini ifodalovchi bahosini quyib chiqamiz va barcha ekspertlar tomonidan berilgan bahoni umumlashtiramiz, ya’ni har bir ekspert tomonidan har bir riskka nechtadan 1, 2, 3, 4 va 5 baholar

qo‘yganligini mos ravishda jadvalga kiritamiz. Bunda tadqiqotda ishtirok etayotgan ekspertlar 105 nafarni tashkil etadi.

Jadval ma’lumotlaridan foydalanib, risklarning ahamiyatlilik darajasini aniqlaymiz. Bu har bir risk uchun ekspertlar tomonidan qo‘yilgan baholar sonini (2-jadvalga qarang) ekspertlar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

21.3-jadval

Risklarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash jadvali

Risk guruhi	**Risklar**	**Risklarning ahamiyatlilik darajasi (%)**				
		Riskning shartli belgisi	**Ta’ sir darajasi juda past risklar**	**Ta’ sir darajasi kuchsiz risklar**	**Ta’ sir darajasi o‘ rtacha risklar**	**Ta’ sir darajasi kuchli risklar**
Xo‘ jalik risklri	Mol-mulkning tasodifiy yo‘qotilishi riski	α_1	43	29	14	14
	Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikdagi risk	α_2	0	9	23	**68**
	Iqtisodiy risk	α_3	0	0	9	**91**
	Narx-navo riski	α_4	0	14	14	**72**
	Marketing riski	α_5	2	12	38	48
	Valyuta riski	α_6	0	14	29	57
	Foiz riski	α_7	14	13	29	44
	Inflyasiya riski	α_8	0	0	14	40
	Investitsiya riski	α_9	14	30	13	43
	To‘lov qobiliyatini yo‘qotishdagi risk	α_{10}	2	8	47	43
	Transport riski	α_{11}	43	43	14	0

Bunda risklarning ta’sir ko‘rsatish darajasini 4 kategoryaga ajaratish maqsadga muvofiq, ya’ni darajasi juda past bo‘lgan risklar; ta’sir darajasi kuchsiz bo‘lgan risklar; ta’sir darajasi o‘rtacha bo‘lgan risklar; kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi risklar. Natijalarni 3-jadvalga kiritamiz.

Hisoblashlar natijasida risklarning ta’sir doirasini quyidagicha guruhlash mumkin:

– mumkin bo‘lgan (“bo‘lishi mumkin bo‘lgan”) – faoliyat davomida doimo bo‘ladi va u katta ziyon yetkaza olmaydi. Uning qiymati $0<\alpha i<45$ chegarada bo‘ladi;

– keskin (“jiddiy”) – faoliyatni tang ahvolga olib kelishi mumkin.

Uning qiymati $45<\alpha i<60$;

– katastrofik (“halokatli”) – tadbirkorlik subyektining to‘lov qobiliyatini yo‘qotadi va bankrotlikka olib keladi. Uning qiymati esa $60<\alpha i<100$ chegarada bo‘ladi.

Bu tadbirkorlik faoliyatida ta’sir doirasi katta bo‘lgan risklarni tanlab olib, uning ta’sir darajasini pasaytirish tadbirlarini amalga oshirish imkonini beradi. Ekspert xulosalari natijasida tuzilgan 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik risklarining tarkibida bo‘lgan iqtisodiy, narx-navo hamda shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik risklarining ta’sir ko‘rsatish darajasi eng yuqori ekan. Bu o‘z navbatida tadbirkordan aynan shu risklarning ta’sir ko‘rsatish darajasini pasaytirish bo‘yicha ma’lum tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Risklarning ta’sir ko‘rsatish darajasini pasaytirish bo‘yicha taklif qilinayotgan usul. Risklar iqtisodiy hodisa sifatida obyektiv xususiyatga ega bo‘lsada, uni baholash ko‘rsatkichi subyektivdir. Uning ishonchliligi turli ma’lumotlar bazasining ishonchliligi va to‘liqliligi, boshqaruvchi xodimlarning malakaliligi va tajribasi kabi omillarga tayanadi.

Investitsion risklar nafaqat investitsion qarorlar qabul qilish, balki qilingan investitsiyaning butun hayot siklida tahlil etish lozim. Investitsion qarorlarni qabul qilish mas’uliyati va faoliyati jarayoni maxsuslashtirilgan moliyaviy vositachilar tizimini shakllantirishga olib keladi va ular quyidagi funksiyalarni belgilangan rag‘batlantirish evaziga o‘z yelkalariga olishadi: barcha yoki ularning ayrim sifatlari xususiy investitsiya risklari tahlili; investitsiya qarorlarini qabul qilish; investitsiya qarorlarini qabul qilish qilish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlarni taqdim etish; investorlarni u yoki bu ko‘rinishdagi risklardan sug‘urtalash (xedjerlash); investitsion risklarni keng doirada har qanday holat bo‘lmasin investitsiya qilingan kapitalning to‘liq yoki qisman yo‘qotish sifatida anglash mumkin.

Mos ravishda investitsiya risklarini boshqarishning keyingi bosqichida (muvofiqlashgan qimmatli qog‘ozlar bozori darajasi) investor siyosiy, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy risklarni boshqarish tizimi zarurligi. Shunday qilib investor tadbirkorlik risklarining tayanch ko‘rinishlarini asl ko‘rinishiga qaytishishi ko‘rinadi, lekin bu boshqa sifatdagi darajada amalga oshadi.

Siyosiy va makroiqtisodiy risklar bilan bog‘liq risklarni boshqaruvi qoidaga ko‘ra iqtisodiy sube’ktlarning o‘zaro munosabatlari

me’yorida va siyosiy va davlatlararo munosabatlar terminlarini tavsiflaydi. Investorlar nuqtai nazaridan, bu turdagi risklar boshqaruvi vositachilari ularning manfaatlarini miqiyosida to‘nashuvidan maqsad quyidagilarni tashkil etadi: siyosiy partiyalar va harakatlar, professional assotsiatsiyalar va biznes klublar va boshqalar.

Mikroiqtisodiy risklarni boshqarish (g‘arb adabiyotlari corporate governance sifatida aytiladi), davlat makroiqtisodiy siyosati shakllanishiga ta’sir etish orqali amalga oshiriladi, lekin odatda ularni minimizatsiyasi uchun moliyaviy vositachilar (auditorlik kompaniyalari, boshqaruv konsultantlari) keyinchalik moliyaviy infrastruktura elementlari sifatida qaraladi, shu orqali muammo bartaraf etiladi.

Investitsion risklarni boshqarish tizimi rivojlanish sxemasi shuni ko‘rsatadiki, qimmatli qog‘ozlar bozori infrastrukturasini ob’ektiv ravishda paydo bo‘lishi va shakllanishini risklarni minimallashtirish instrumenti sifatida qaraladi.

Investitsion risklarning organik o‘zaro uzviy aloqasi aniqlanishi tartibi amalda uchramaydi, shu vaqtda infrastruktura risklarining umumiy kompleks tarzda ajratib ko‘rsatishi o‘z navbatida uning tizimli tadqiqoti imkoniyatini isbotlaydi. Ushbu ish hajmining qisqaligi moliyaviy strukturani xuddi investitsion risklarni boshqaruv tizimi sifatida taxlil etishni chegaralaydi. Ushbu tizimlar sub’ektlarining o‘zaro munosabatlari asosiy qonuniyatlari shakllanishidagi yondashuvlarni o‘rganish, milliy qimmatli qog‘ozlar bozori doirasi (masshtabi)da, bu tizim amal qilishining optimizatsiyasi va muvofiqlashuvi. Talab qilinayotgan daromadlilikni baholayotganda investitsiya riskining hisobga olinishining aniqligi uchun investor-kompaniya kapitalining egasi qabul qilgan qarorlar mantig‘ini tushunish lozim. Investorlar o‘z kompaniya pul mablag‘larini kapital bozoriga ma’lum bir aniq shart sharoitlarda yo‘naltirishadi (tikilgan mablag‘ning qaytishiga turli xil risklar analitikasi va qo‘shimcha ravishda daromad olish).

Kapital bozori bilan o‘zaro hamkorlikda, kompaniya menedjerlari moliyaviy resurslarni bozor investorlaridan sotib oltishni afzal ko‘rishadi. Taxlilning qiymat modelining markaziy momenti – investorlar tomonidan kapatalga mablag‘ni yo‘llashda tanlovni tan olish imkoniyatidir. Bozor investorlari alternativga ega bo‘ladi, va bozor qancha rivojlangan bo‘lsa, alternativ ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Xuddi shunday kompaniyani moliyalashtirish manbalari orasida topish

imkoni mavjud. Ularning maqsadi - moliyalashning eng arzon variantini jalb qilish sharti (kompaniyaga risklarni) bilan topishdan iborat. Kreditorlar (ushbu vaziyatda investorlar) va investitsiyani qabul qiluvchilarning bozor munosabatlari kapital bozorini shakllantirishadi. Kapital bozorining rivojlanishi kapital egasi qo‘lga kiritadigan daromadlilik va investitsiya riski orasidagi bog‘liqlikni tushunish imkonini berad. Daromadlilik tahlilining kalit jarayoni kapital bozorida moliyaviy resursning “narx”ni aniqlashdan iborat.

Risk to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lgach, moliyaviy aktivlvrning, eng avvalo aksiyalarning bazaviy narx shakklanish modellari xolatini aytishimiz lozim. Risklarni baholashning maqsadi investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishda qatnashishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlardan himoyalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli ma’lumotlarni taqdim qilishdan iborat. Shunga ko‘ra, risk tahlilini loyihaning barcha ishtirokchilari mustaqil tarzda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Risk tahlili investitsion loyihaning barcha ishtirokchilari – buyurtmachilar, pudratchilar, bank, sug‘urta kompaniyalari, lizing kompaniyalari, mol yetkazib beruvchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Risklarni baholash, odatda, bir-birini to‘ldiruvchi ikki turga, ya’ni:

- risk turlarini, uni vujudga keltiruvchi omillarni va risklarni pasaytirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni aniqlash maqsadini ko‘zlovchi sifat tahlili;

- loyiha risklarini sondagi ifodasini loyiha ko‘rsatkichlari orqali hisoblash imkonini beruvchi miqdoriy tahlilga bo‘linadi.

Risklarni tahlil qilish va baholashdan maqsad loyihaga ta’sir etuvchi risk turlarini aniqlab, ularni pasaytirish chora-tadbirlarini va usullarini qo‘llashdan iboratdir. Risklarni baholash deganda risk darajasini sifat va miqdor jihatdan aniqlash tushuniladi. Risklarni pasaytirish usullari turlicha bo‘lib, ular risk turiga va risk guruhiga qarab tanlanadi. Umuman olganda, risklarni aniqlash – sifat tahliliga; risklarni baholash – miqdor tahliliga taalluqlidir. Risklarni boshqarish jarayoni korxona hayotiyligining barcha bosqichlarida muntazam ravishda amalga oshirilishi lozim. Risklarni boshqarish risk va foyda miqdorini oqilona qo‘shilmasini aniqlashga qaratilgan harakatlardir. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi – ularni pasaytirish hisoblanadi.

Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘linadi:

1. Risk omilini aniqlash;

2. Risk omilini tahlil qilish va baholash;

3. Risklarni pasaytirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;

4. Risklarni oldini olish va nazorat qilish;

5. Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo‘llash;

6. Risk vaziyatlari va ularni oqibati xaqida ma’lumot to‘plash va kelajakka tavsiyalar ishlab chiqish.

Shu o‘rinda aytish joizki, risk omilini aniqlash deganda risk sababini, ya’ni loyihaga ta’sir qila oladigan voqea yoki vaziyatlarni aniqlash tushiniladi. Riskni boshqarishdan maqsad, eng avvalo, riskning oldini olishdir. Qaror qabul qilayotgan shaxs yuz berishi mumkin bo‘lgan noxush voqealarning oqibatini yaqqol tasavvur etishi kerak. Bu uning keyingi harakatlarini belgilab beradi. Bank boshqaruvi xodimlari o‘z ishlarini amalda joriy qilishlari uchun riskni oldini olish taktika va strategriyasini ishlab chiqishlari kerak

Risklarni baholash algoritmi (ketma-ketligi) quyidagi tartibda bo‘ladi:

birinchidan, korxonalar foydasining shakllanishiga ta’sir etadigan risklarni turli xil variantlari mavjud bo‘lganda uning eng optimal variantlarini tanlash va tegishli qarorlar qabul qilish, shuningdek, turli xil oraliqlarda qarorlar qabul qilinishi avvalgi qabul qilingan qarorlarga bevosita bog‘liqligi va uni istiqbolda yanada rivojlantirish holatini aniqlab beradi. Bunda riskni tahlil qiluvchi barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak;

ikkinchidan, qoida tariqasida, korxona investitsiya faoliyatini amalga oshirish davomida qilingan harajatlar bir martalik moliyaviy qo‘yilmalarni amalga oshirishni talab qilmasdan, uzoq muddat davomida amalga oshirishni taqozo etadi. Bu holat korxona menejeriga kapital qo‘yilmalarni qayta baholash zaruriyatini hamda amalga oshirishdagi o‘zgarishlarga tezkorlik bilan munosabat bildirishni talab qiladi;

uchinchidan, risklar tarkibini va davomiyligini aniqlash, korxonalarning investitsiya faoliyatiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan asosiy risklarni aniqlash, asosiy risklarning sodir bo‘lish vaqtini aniqlash, asosiy risklarning sodir bo‘lishi natijasida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlarni shakllantirish.

Risk omilini aniqlash deganda risk sababini, ya’ni loyihaga ta’sir qila oladigan voqea yoki vaziyatlarni aniqlash tushiniladi. Shuni

e’tiborga olish lozimki, investitsiya loyihalari risklarini boshqarishda ularning tahlil qilinish natijalariga asoslanib, boshqarish usullari tanlanishi lozim.

Tayanch so‘z va iboralar

Risk, fors-major, tizimli risk, tizimsiz risk, siyosiy risk, valyuta riski, foiz riski, moliyaviy risk.

O‘zini – o‘zi tekshirish uchun savollar

1. *Risk tushunchasining iqtisodiy mohiyati*
2. *Investitsiya risklarining mazmuni va xususiyatlari*
3. *Risklarni aniqlash usullari*
4. *Risklarni boshqarish yo‘llari*
5. *Risk omilini aniqlash deganda nimani tushunasiz?*

GLOSSARIY

Asosiy kapital – ishlab chiqarishda qatnashadigan, uzoq vaqt davomida haqiqiy shaklini o‘zgartirmaydigan, bir necha ishlab chiqarish siklida qatnashadigan va o‘z qiymatini yangidan yaratiladigan mahsulotga asta-sekin o‘tkazadigan mol-mulk guruhi.

Annuitet to‘lov – bu asosiy qarz summasini va kredit uchun hisoblangan foizlar summasini o‘z ichiga oladigan, kredit bo‘yicha teng miqdorlarda to‘lanadigan oylik to‘lov summasi.

Aktivlar rentabelligi – daromadni oshirish uchun kompaniya aktivlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi moliyaviy ko‘rsatkich.

Biznes – foyda olish maqsadiga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyat.

Biznes reja – batafsil tuzilgan loyiha rejasi, maqsadlarni, kelgusidagi faoliyatni, material harajatlarni, yangi loyihaning moliyaviy jihatlarini yoki kompaniyaning kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiruvchi hujjat.

Bojxona boji – davlat chegarasini kesib o‘tganda solinadigan maxsus pul solig‘i.

BERI indeksi – turli mamlakatlarning investitsiya muhitini tahlil qilib, ularning risklilik darajasini baholaydi. Bunda turlicha qiymatga ega bo‘lgan 15 ta ko‘rsatkichga ball berish orqali umumiy summa aniqlanadi.

Bank krediti – bir tomondan ma’lum muddat va shartlar asosida bank tomonidan beriladigan pul summasini anglatsa, ikkinchi tomondan buyurtmachining moliyaviy talabini qondirishga qaratilgan aniq bir texnologiyani anglatadi.

Valyuta – ma’lum bir davlatning qonun bilan o‘rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valyutasi ko‘rinishidagi jahon rezerv pullari, xalqaro valyuta fondi va Yevropa valyuta tizimi a’zolari tomonidan ko‘p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklari.

Valyuta kursi – milliy valyutalar o‘rtasidagi nisbat, bir mamlakat valyutasining xorijiy pul birliklarida ifodalanishi.

Valyuta siyosati – mamlakatda xorijiy valyutalarning pul-kredit aylanmasini tartibga solishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimi.

Valyuta rezervlari – xorijiy valyuta, oltin, SDR, XVFdagi rezerv pozitsiya ko‘rinishidagi valyuta likvid vositalarning jami.

Valyutaning konvertirlanganligi – milliy valyutani xorijiy valyutalarga rezidentlar uchun ham, rezident bo‘lmaganlar uchun ham

to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha almashtirish imkoniyati.

Venchurli moliyalashtirish – ilmiy sig‘imli loyihalarni yuqori riskli moliyalashtirirish bo‘lib, bunda investorlar tomonidan kichik ilmiy-tadqiqot firmalarning nizom kapitaliga investitsiyalar kiritilishi (aksiyalar sotib olish) yoki innovatsion loyihani amalga oshirish uchun o‘rta yoki uzoq muddatga investitsion kredit berish tushuniladi.

Vertikal TTXI – chet eldagi xom ashyo materiallardan foydalanish yoki distribyuterlik savdo shoxobchalari orqali iste’molchilarga yaqinlashish maqsadida amalga oshiriladi.

Gorizontal TTXI – xorijiy mamlakatda o‘z mamlakatida ishlab chiqaradigan mahsulotlar turi bilan bir xil mahsulot ishlab chiqarish uchun yo‘naltirilgan investitsiyalardir.

Da’vogar – malaka talabidan o‘tgan, ofertasi qabul qilingan tenderda raqobatlashuvchi shaxs.

Davlat investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, markazlashgan investiyatsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o‘tish, ustivor investitsion loyihalarni qo‘llab quvvatlashga qaratilgan uslublar yig‘indisidir.

Diversifikatsiya – sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.

Diskontlash – kelgusidagi turli davrdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash.

Dividend – aksiyaning turi va soniga qarab, aksiyadan keladigan daromad shaklida aksiyadorlar o‘rtasida yillik taqsimlanadigan aksionerlik jamiyati foydasining bir qismi.

Differensiallashgan to‘lov – bu kreditlash davrining so‘nggiga qadar kamayadigan kredit bo‘yicha oylik to‘lov bo‘lib, bu asosiy qarzning to‘lanadigan doimiy ulushi va kreditning qoldiq summasiga foizlardan tashkil topadi.

Ilmiy park (tor ma’noda) – bu har xil o‘lchamdagi va rivojlanish bosqichlarida ilm talab qiladigan firmalar joylashishi uchun mos bo‘lgan juda katta maydon.

Investor – investitsiyalarni amalga oshiradigan korxona, tashkilot va davlat.

Investitsiyalar – foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat ob’ektlariga yo‘naltiriladigan moddiy va nomoddiy qiymatlar va ularga doir huquqlar.

Investitsiya siyosati – ishlatish chora-tadbirlarining yig‘indisi hisoblanadi.

Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig‘indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari, innovatsiya va iste’mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi.

Innovatsiya – ilm-fan yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan holda texnika, texnologiyalar, mehnatni tashkil etish va boshqarish sohalariga yangiliklarni kiritish, shuningdek, ushbu yangiliklardan jamiyatning turli sohalari va yo‘nalishlarida foydalanishdir.

Innovatsion investitsiyalar – yangi yoki takomillashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), ishlab chiqarish jarayonini, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda yangi marketing uslubini yoki tashkiliy uslubni ishlab chiqish va o‘zlashtirishga kiritiladigan investitsiyalar.

Innovatsion faoliyat – shunday bir jarayonki, unda tugallangan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlar bozorda sotish uchun ishlab chiqilgan yangi yoki takomillashgan tovarga, amaliyotda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonga, shuningdek, qo‘shimcha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga qaratilgan bo‘ladi.

Innovatsion bozor – bu umumiy bozor tizimining bir bo‘g‘ini hisoblanib, uning yakuniy tovari bo‘lib ilmiy va ilmiy-texnik natijalar, intellektual faoliyatning mahsuloti bo‘lmish mualliflik huquqi va shunga o‘xshash milliy hamda xalqaro me’yoriy hujjatlarga mos holda rasmiylashtirilgan boshqa huquqlar hisoblanadi.

Ijtimoiy investitsiyalar – inson salohiyatini, ko‘nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar.

Investitsiya loyihasi – 2 xil ma’noda ishlatiladi: biznes, faoliyat, biron-bir maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan tadbirlar rejasi; kelajakda ma’lum bir faoliyatni amalgam oshirish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hujjatlar tizimi.

Investitsiya faoliyati ob’ektlari – moddiy va nomoddiy boyliklar ishlab chiqarish ob’ektlari.

Investitsiya faoliyatining sub’ektlari – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari – jismoniy va yuridik shaxslari, davlat va mahalliy organlar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va uzoq vaqt mobaynida chet yelda yashayotgan O‘zbekiston fuqarolari.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘sishi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning markazlashgan manbalari – respublika va mahalliy byudjetlardan, byudjetdan tashqari fondlardan yig‘ladigan mablag‘lar, shuningdek Hukumat kafolati ostida kirib keladigan xorijiy investitsiya va kreditlar.

Investitsion loyiha dasturi – O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo‘yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatini maqsadga muvofiqligini asoslovchi va shuningdek investitsiyalarni (biznes reja) amalga oshirish bo‘yicha amaliy faoliyatning dasturidir.

Iqtisodiy samaradorlik – mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish natijalari bilan ishlab chiqarish va mehnat harajatlari o‘rtasidagi nisbat.

Iqtisodiyotning real sektori (inglizcha – Real sector of economy) – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma’lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan kichik, o‘rta va yirik (industrial) korxonalarni birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir.

Ipoteka krediti – ko‘chmas mulk garovi ostida bank tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxslarga beriladigan uzoq muddatli kredit. Bunda garov sifatida ishlab chiqarish va turar joy binolari uchun yerlar, inshoot va qurilmalar bo‘lishi mumkin.

Investitsion risklar – ko‘zda tutilmagan ko‘ngilsiz hodisalarning yuzaga kelishi natijasida rejalashtirilgan foydani ololmaslik yoki umuman foyda va boshlang‘ich investitsiyalardan ajralish ehtimolidir.

Kapital investitsiyalar – asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiyalashga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar.

Kapital qurilish – iqtisodiyotning alohida tarmog‘i bo‘lib, unda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sanoati uchun asosiy vositalar quriladi, ta’mirlanadi va modernizatsiyalanadi. Kapital qurilishning tayyor mahsuloti bo‘lib bino, inshoot va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

Kapital qurilishni tashkil etishning pudrat usuli – qurilishni amalga oshirish uchun shartnoma asosida maxsus qurilish tashkilotini jalb qilish.

Kapital qurilishni tashkil etishning xo‘jalik usuli – kapital qurilishni korxona va tashkilotlar o‘z kuchi va o‘z mablag‘i hisobidan ma’lum bo‘lim yoki bo‘linma tomonidan amalga oshirilishi.

Kredit – pul yoki tovar shaklida beriladigan, qaytarishlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, foizlilik sharti asosida beriladigan qarz.

Kredit shartnomasi – kreditor va byurtmachi o‘rtasida tuziladigan shartnoma bo‘lib, unga ko‘ra bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) qarzdorga shartnomada ko‘rsatilgan shartlarda va hajmda pul mablag‘larini (kreditni) berish majburiyatini oladi. O‘z navbatida qarzdor ham olingan pul summasini qaytarish va foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

Kredit riski – qarz oluvchi tomonidan kreditorga asosiy qarz va u bo‘yicha foizlarni qaytarib bermaslik riski.

Likvidlilik – 1. Majburiyatlarni bajarishga mulkni naqd pulga aylanish imkoniyati. 2. Moddiy qiymatliklarni naqd pulga aylanish tezligi.

Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob’ektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda, haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing beruvchi - lizing ob’ektini o‘z mulki qilib sotib olib, uni lizing oluvchiga lizing shartnomasiga ko‘ra vaqtinchalik foydalanib turish uchun beruvchi shaxs.

Lizing oluvchi – lizing ob’ektini lizing shartnomasiga ko‘ra unga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanib turish uchun olgan shaxs.

Lizing shartnomasi – lizing oluvchi va lizing beruvchi o‘rtasida tuziladigan, qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan, lizing ob’ektining mazmuni, tomonlarning majburiyati, lizing to‘lovlarining

qiymati, muddati, to‘lov tartibi, shartlari va h.k. lar ifodalangan yozma ko‘rinishdagi shartnoma.

Lizing to‘lovlari – lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga lizing ob’ekti qiymatini qoplanishi va lizing oluvchining foizli daromadi tushuniladi. Lizing to‘lovlari shartnomaning muddati davomida taqsimlanib, qismlarga bo‘linib to‘lanadi, ularning hajmi va qanday muddatlarda to‘lanishi lizing shartnomasida belgilanadi.

Loyihaviy moliyalashtirish – bu yirik investitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirish bo‘lib, bunda kiritilgan investitsiyalarning qaytarilishi loyiha hamkorlarining balans ko‘rsatkichlariga emas, balki loyihadan keladigan kelgusi pul oqimiga asoslanadi.

Litsenziya – 1) korxona, tashkilotlar va jismoniy shaxslarga patent bilan himoyalangan ixtirolar, texnologiyalar, texnik va tijorat ma’lumotlaridan foydalanishni taqdim etish; 2) davlat organlari tomonidan turli faoliyatlarni aniq bir cheklov doirasida amalga oshirishga beriladigan ruxsat bo‘lib, shunday faoliyatlar nazarda tutiladiki, ular nazorat ostida bo‘lishi yoki ruxsat berilganligiga to‘lovlar to‘lanishi lozim.

Moliyaviy investitsiyalar – qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalarga (aksiya, obligatsiya, nota, depozit sertifikatlari, xorijiy valyuta, hukumat obligatsiyalari va qarzlar) yo‘naltiriladigan investitsiyalar.

Moliyalashtirishning qarz manbalari – ma’lum davrga qarz sifatida olinadigan, foizi bilan qaytariladigan pul mablag‘lari. Bularga kreditlar, qarz mablag‘lari va korxona obligatsiyalari kiradi.

Moliyaviy instrumentlar – to‘lov, jamg‘arma va almashinuv vazifasini bajaruvchi alohida moliyaviy tovar. Ularga naqd pul, valyuta, qimmatli qog‘oz, hisob-kitob hujjatlari, nodir metallar, plastik kartalar, depozitlar, sug‘urta va kredit xizmatlari va boshqa shu kabilar.

Moliyaviy lizing – lizingning bir turi bo‘lib, bunda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak: izing shartnomasining muddati tugagach, lizing ob’ekti lizing oluvchining mulki bo‘lib o‘tsa lizing shartnomasining muddati lizing ob’ekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo‘lsa yoki lizing ob’ektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining 20 foizidan kam bo‘lsa, lizing oluvchi lizing ob’ektini qat’iy belgilangan narxda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganda aniqlanadigan narxda sotib olish huquqiga ega; lizing shartnomasi

davridagi to‘lovlarning umumiy summasi lizing ob’ekti qiymatining 90 foizidan ortiq bo‘lsa.

Moliyaviy risklar – moliyaviy resurslarni yo‘qotish ehtimoli bilan bog‘liq risklar.

Nou-xau – ilmiy, texnik, moliyaviy, sanoat, tijorat kabi turli bilimlar majmui yoki omma tomonidan keng qollanilmaydigan boshqaruv, harakter, tajriba, malakaviy faoliyat.

Nomoddiy aktivlar – bu moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan, lekin “nomoddiy qiymat” ga ega bo‘lgan va shu sababli, firmaga qo‘shimcha daromad keltiruvchi aktivlardir. Ularga tovar markalari va belgilari, ishlab chiqarish sirlari, nashr etish huquqlari, patentlar va firmaning yaxshi reputatsiyasi (nomi, imidji) kabilar kiradi.

Oferta – tender hujjatlariga muvofiq tender ob’ektiga talabgorning taklifi.

Obligatsiya – qarz munosabatini ifodalovchi qimmatli qog‘oz bo‘lib, egasiga uning qiymatiga ko‘ra qat’iy belgilangan foizlar shaklida daromad keltiradi.

Patent – 1) ixtirochiga beriladigan avtorlik huquqini hamda ixtiro uning o‘ziga tegishliligini tasdiqlovchi hujjat, guvohnoma; 2) qandaydir ish (kasb) yoki amaliy faoliyat bilan belgilangan sharoitlarda va belgilangan to‘lovlarni (patent uchun to‘lovlarni) to‘laganda shug‘ullanishga ruxsat beruvchi hujjat.

Pudratchi – qurilish ishlari bo‘yicha maxsus litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxs.

Pul oqimi – korxona pul mablag‘larining barcha kirim va chiqimlarini hisobga oluvchi pul mablag‘larining harakati.

Riskli biznes – tadbirkorlikning shunday bir turiki, ko‘proq kichik firmalar tomonidan amalga oshiriladi, ilm talab etuvchi sohalarga asoslanib, innovatsiyalarni tijorati bilan shug‘ullaniladi.

Real investitsiyalar – ko‘chmas mulkka (bino, inshoot) va uning ishlashi uchun zarur bo‘lgan ishchi kapitalga (xom ashyo, zahiralar, pul mablag‘lari va b.) yo‘naltiriladigan investitsiyalar, shuningdek nomoddiy aktivlarga (litsenziya, patent, savdo markasi va b.) yo‘naltiriladigan investitsiyalar.

Reinvestitsiyalar – investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritishdir.

Rentabellik indeksi – diskontlangan pul oqimi summasini boshlang‘ich investitsiyalarga nisbati.

Sindikat – yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida kreditorlarning vaqtinchalik birlashishi bo‘lib, o‘z zimmalariga loyihani kreditlash bo‘yicha barcha faoliyatlarni amalga oshirish bilan birga har bir a’zo bankning ish yuritish va yuridik jihatdan mustaqilligini saqlab qoladilar.

Sindikatli kreditlash – odatda, yagona kredit kelishuvi doirasida aniq ulushlarda eng kamida ikkita kreditor (kreditorlar sindikati) orqali byurtmachiga beriladigan kredit.

Sof risklar – salbiy natija bo‘lishini yoki hech qanday natija bo‘lmasligini anglatadi, quyidagi risk turlarini o‘z ichiga oladi: fors-major, ekologik, siyosiy, transport va qisman tijorat risklari (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo) ham kiradi.

Spekulyativ risklar – oqibatida ham ijobiy, ham salbiy natijaga erishish mumkin. Bunday risklarga tijorat risklarining bir qismi bo‘lgan moliyaviy risklar kiradi.

Siyosiy risklar – mamlakatning siyosiy holati va hukumatning siyosiy faoliyati bilan bog‘liq. Siyosiy risklar ishlab chiqarish va savdo shart-sharoitlarining buzilishi aynan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga bog‘liq bo‘lmagan risklar.

Texnopolis – bu yaxshi rivojlangan xizmat ko‘rsatish infratuzilmasiga ega bo‘lgan va geografik jihatdan alohida shaharda joylashgan ilmiy-ishlab chiqarish kompleksidir.

Texnopark – innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun hududiy, ilmiy, texnologik va texnik resurslar bazasidir.

To‘lov balansi – mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma’lum vaqt oralig‘idagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarini sistemalashtirilgan holda qayd etilishidir.

Tender – tender hujjatlarida ko‘rsatilgan mezon va shartlarga muvofiq tarzda mahsulot, ish va xizmatlarni optimal variantda taklif qiluvchini tanlovchi tanlov savdosi.

Texnik-iqtisodiy asosnoma – bu loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ko‘rishga imkon beruvchi boshlang‘ich ma’lumotlar, shuningdek, asosiy texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko‘rsatkichlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi hisob-analitik hujjatlar to‘plamidir.

Tovar belgisi, savdo markasi – maxsus davlat muassasasidan ro‘yhatdan o‘tgan ifoda, belgi bo‘lib, tovarda yoki qadoqlangan idishida mazkur tovarlarni va ularni ishlab chiqaruvchilarni boshqalardan ajralib turishi uchun xizmat qiladi.

Tadbirkorlik risklari – korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida yo‘qotishlarning paydo bo‘lish ehtimoli bo‘lib, tuzilgan tijorat bitimining natijalarini noaniqligini bildiradi.

Fors major risklar – tabiiy ofatlarning yuzaga kelishi natijasida paydo bo‘ladi: zilzilalar, suv toshqini, sunami, yong‘inlar, epidemiyalar va h.k.

Xalqaro birja bozori – xorijiy valyuta va xorijiy valyutadagi to‘lov hujjatlarini sotish va sotib olishda ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional munosabatlar tizimi.

Xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari – jahon valyuta tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va kapital aylanishini rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar.

Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashga va rivojlantirishga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Xususiy investitsiyalar – xususiy, korporativ xo‘jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag‘lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan qo‘yiladi.

Ekologik risklar – atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog‘liq risklar.

Emissiya – barcha shakldagi banknotalarni muomalaga chiqarilishi.

Emitent – qimmatli qog‘ozlarni, valyutani muomalaga chiqaruvchi institut yoki tashkilot.

Erkin bojxona hududlari – chet elda ishlab chiqarilgan va mamlakatga kirib kelayotgan mahsulotlarni imtiyozli to‘lov asosida saqlash, markalar va sortlarga ajratish, ishlov berish, agar kerak bo‘lib qolsa komplektlashtirish va sotish kabi vazifalarni bajaradi.

Qarzni restrukturizatsiyalash – kreditni to‘lash muddatlarini foizlarni to‘lashni orqaga surish orqali cho‘zish.

Qarz oluvchiga nisbatan hech qanday regressiz bo‘lgan loyihaviy moliyalashtirish – kreditor loyihadan keladigan pul oqimlarini baholab, ularni kredit va foizlarni qaytarishga yo‘naltirgani holda o‘z zimmasiga loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq barcha tijoriy va siyosiy risklarni oladi

Qarz oluvchiga nisbatan cheklangan regressli loyihaviy moliyalashtirish – loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan

barcha risklarni nazarda tutadi. Loyiha risklari loyiha ishtirokchilari orasida shunday taqsimlangan bo‘ladiki, ularga bog‘liq bo‘lgan risklarni o‘zlari qabul qilishga tayyor bo‘ladilar.

Hosilaviy moliyaviy vositalar – egasiga qimmatli qog‘oz, valyuta, tovar yoki nomoddiy aktivlar kelajakda belgilangan shartlarda sotish yoki sotib olish huquqini yoki majburiyatini beruvchi qimmatli qog‘ozlar (opsion, svop, fyuchers va forvard bitimlari).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonuni. 2020 yil 17 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni - T.: 2019 y. 25 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonuni - T.: 1998 y. 30 aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi Qonuni - T.: 1998 y. 30 aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni. 1999 y. 14 aprel.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2015 yil 25 avgust // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 2017 yil 7 fevral.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5717-son Farmoni. 14.05.2019 y.
9. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://www.prezident.uz/uz/lists/ view/3324
10. Allel Dj. Effektivnie investitsii. Kak zarabativat na roste i padenii aksiy, inflyatsii, skachkax sen na neft … i ne tolko / Per.s angl. Pod red. V.V.Ilina. – SPb.:Piter, 2009. -416 s.: il. - (Seriya «Treyding & investitsii»).
11. Anshin V.M. Investitsionniy analiz. -M.: - Delo”. 2000.
12. Bodi Z., Keyn A., Markus A. Prinsipi investitsiy. M.: ID «Vilyams». 2002.
13. Bayxonov B.T O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Monografiya. // Toshkent: “IQTISODIOT”, 2017.- 203 bet.
14. Berens V., Xavranek P.M. Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy: Per. s angl. perer. i dopoln. Izd-vo. – M.: «Intereкspert», «Infra-M», 1995. – S. 6.

15. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: Moliya, 2010. 328 b.
16. Van Xorn Dj. Osnovi upravleniya finansami. Per. s angl. – M.: Finansi i statistika, 2001. – S. 231.
17. Voronov V.A., Ivina L.V. Osnovnie ponyatiya i termini venchurnogo finansirovaniya. - M.: 2002.
18. Yerigina N.S. Obzor institutov kollektivnogo investirovaniya//Ekonomika i menedjment. – Moskva, 2016. - №1. –S. 93-94.
19. Zayirov L., Nasirov E., Xanova N., Asamxodjayeva Sh. Investitsii. Uchebnoye posobiye. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 448 s.
20. Zolotogorov V.A. Investitsionnoye proyektirovaniye: Ucheb.pos. – Mn.: «Ekoperspektiva», 1998. – S. 33
21. Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya, upravleniye i finansirovaniye: Uchebnik. – M.: YUNITI-DANA, 2012. – 360 s.
22. Kayumov R.I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. Uchebnik. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 367 s.
23. Kempbell R. Makkonell, Stanli L. Bryu. Ekonomiks, prinsipi, problemi i politika. 2-tom. – M.: «Respublika», 1992. – S. 388.
24. Kovalev V.V. Metodi otsenki investitsionnix proyektov. – M.: Finansi i statistika, 2002.
25. Kiseleva N.V., Borovikova T.V., Zaharova G.V.i dr. Investitsionnaya deyatel’nost’:Uchebnoye posobiye M.:KNORUS, 2005. - 432 s.
26. Lorens Dj. Gitman, Maykl D. Djonk. Osnovi investirovaniya. – M.: Delo, 2007, s.10.
27. Lukasevich I. Ya. Investitsii. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2012. – 413 s.
28. Mamatov B.S., Xo‘jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 608 b.
29. Margolin A.M. Investitsii. – M.: «RAGS», 2006. – S. 464.
30. Nikolayev V.A. Prioritetnie napravleniya venchurnogo finansirovaniya innovatsionnix proyektov. – M.: Dashkov i K, 2011. – S. 509.
31. Nosirov E. I., Mamatov B. S., Shoislomova N. K., Sharifxodjayeva K. U. Investitsiya risklarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 148 b.

32. Nikolayeva I.P. Investitsii. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2013. – 256 s.
33. N.Hermes, P.Smid, L.Yao. Capital Budgeting practices: A comparative study of the Netherlands and China. International Business Review. Elsevier, vol. 16(5), pages 630-654, 2007.
34. R.Pike. A Longitudinal Survey on Capital Budgeting practices. Journal of Business Finance & Accounting. Vol. 23, pages 79-92, 1996.
35. Sabirova L.Sh., Xujamkulov D.Yu. Investitsiya. Uchebnoye posobiye. - T.: Iqtisod-moliya, 2019.- 254 s.
36. Sergeev I.V., Veretennikova I.I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. – M.: Finansi i statistika, 2001. – S. 16.
37. Samuelson P.A. Ekonomika: per. s angl. – M.: «BINOM», 1997. – S. 783.
38. Toshov O. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: Akademnashr, 2012. – 168 b.
39. Tkachenko I.Yu. Investitsii: ucheb. posobiye. – M.: «Akademiya», 2009. – S. 6.
40. Fabotsi F. Upravleniye investitsiyami: Per. s angl. - M.: «INFRAM», 2000. XXVIII, - 932 s. - (Seriya «Universitetskiy uchebnik»).
41. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Mo‘minova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtiish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2014. – 247 b.
42. Xazanovich E.S. Inostrannie investitsii: uchebnoye posobiye/ E.S.Xazanovich. 2-ye izd., ster. - M.:KNORUS, 2011. -312s.
43. Hamidova F.A. Prioritetnie napravleniya privlecheniya finansovix investitsiy. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2014. – 115 s.
44. Sharp U. i dr. Investitsii: uchebnik. MIR, 1994. – 704 s.
45. Shimshirt N.D., Kopilevich V.V., Xolodova Ye.I. Sovremennaya investitsionnaya i innovatsionnaya politika gosudarstva: uchebno-metodicheskoye posobiye. – Tomsk: Izdatelskiy Dom TGU, 2016. – C.102.
46. Shramko O.G. Faktorniy analiz investitsionnoy privlekatelnosti regionov // Regionalnaya ekonomika. 2014. №4(331). S.41-50.
47. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti. 2013. 26 bet.

48. Yankovskiy K.P., Muhar I.F. Uchebnik. Organizatsiya investitsionnoy i innovatsionnoy deyatelnosti. - SPb: Piter, 2012.

Internet saytlari

www.lex.uz
https://mift.uz
www.institutiones.com
www.stat.uz
www.ifm.org
www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

KIRISH 2
I BO‘LIM. INVESTITSIYALASH ASOSLARI 6
I BOB. INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI 6
§ 1.1. “Investitsiya va innovatsiyalr” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi ... 6
§ 1.2. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati 9
§ 1.3. Investitsiyalarning tasniflanishi 16
§ 1.4. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli 24
II BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINING MAZMUNI VA ASOSIY BOSQICHLARI 27
§ 2.1. Investitsiya jarayonining mazmun-mohiyati 27
§ 2.2. Real investitsiyalarni amalga oshirish va o‘zlashtirish jarayonlari 31
§ 2.3. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari 37
III BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI 48
§ 3.1. Investitsion faoliyat tushunchasi 48
§ 3.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish 61
§ 3.3. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining me’yoriy-qonuniy bazasi 65
§ 3.4. Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish bosqichlari 71
§ 3.5. Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko‘chishini hisobga olish 77
IV BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI 88
§ 4.1. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari 88
§ 4.2. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari va shakllari 94
§ 4.3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarining iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli 99
§ 4.4. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlar 107
V BOB. IQTISODIYOTNING XALQARO INTEGRATSIYASIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING

O‘RNI VA ULARNING XALQARO HARAKATINI TARTIBGA SOLISH..... 115
§ 5.1. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasi mazmuni, jarayoni hamda milliy iqtisodiyotning rivojida uning xalqaro integratsiyasini ta’minlash va faolllashtirishning zarurligi va ahamiyati..... 115
§ 5.2. Milliy iqtisodiyot xalqaro integratsiyalashuvining asosiy yo‘nalishlari va hozirgi talablari..... 122
§ 5.3. O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasiga qaratilgan davlat siyosatining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari..... 127
§ 5.4. Iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasida xorijiy investitsiyalar ishtirokini oshirishda xalqaro moliyaviy institutlarning tutgan o‘rni va ularning hamkorlik aloqalari 131
VI BOB. IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O‘RNI 142
§ 6.1. Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati hamda ular rivojlanishining bosqichlari va asoslari 142
§ 6.2. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari va ularga jalb etilgan investitsiyalarga nisbatan turli imtiyoz va rag‘batlarning qo‘llanilishi 155
§ 6.3. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari 159
§ 6.4. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarga jalb etiluvchi investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari va samaralari..... 166
VII BOB. IQTISODIYOT VA UNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHDA XUSUSIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI 170
§ 7.1. Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi mazmuni va uning milliy iqtisodiyot rivojidagi ahamiyati..... 170
§ 7.2. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishi va shakllanishi. 175
§7.3. Xususiy investitsiyalarning mazmuni va mulkiy asoslari 181
§ 7.4. Xususiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishning xorij tajribalari..... 185
§ 7.5. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad va uning amalga oshirilishi natijalari 190
VIII BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O‘RNI 200
§ 8.1. Investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar..... 200

§ 8.2. Investitsiya muhitini baholash usullari 205
§ 8.3. O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari 210
IX BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH 214
§ 9.1. Kapital qurilish va kapital qo‘yilmalar. “Qurilish industriya”si tushunchasi..... 214
§ 9.2. Kapital qurilishda loyihalashtirish va tanlovni tashkil etish... 227
§ 9.3. Buyurtmachi va pudratchining huquq va majburiyatlari. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi 230
§ 9.4. Kapital qo‘yilmalar samaradorligini baholash 236
X BOB. RIVOJLANTIRISH DAVLAT DASTURLARINI SHAKLLANTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH..... 239
§ 10.1. O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturi, uning mazmuni, asosiy maqsadi, tamoyillari, shakllantirish tartibi bosqichlari va muddatlari 239
§ 10.2. Muhim investitsiya takliflarining yig‘ma ro‘yxati asosida investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish va tasdiqlash jarayoni. Rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirish ustidan nazorat... 245
XI BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH..... 250
§ 11.1. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati 250
§ 11.2. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari 254
§ 11.3. Investitsiya loyihalarini baholashning oddiy va diskont usullari 269
II BO‘LIM. INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH YO‘NALISHLARI 274
XII BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI..... 274
§ 12.1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi..... 274
§ 12.2. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari 286
XIII BOB. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALAR 290
§ 13.1. Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va tasniflanishi 290
§ 13.2. Investitsiyalash manbalarini shakllantirishda kapital va ssuda bozorlarining roli..... 297

§ 13.3. Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish 302
XIV BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI KREDITLASH ... 307
§ 14.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning ob’ektiv zaruriyati 307
§ 14.2. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti. Kreditni rasmiylashtirish tartibi 311
§ 14.3. Investitsiya faoliyatini kreditlash foiz siyosati 319
§ 14.4. Kreditdan foydalanishi ustidan bank monitoringi 323
XV BOB. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING LIZING MEXANIZMI 327
§ 15.1. Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati 327
§ 15.2. Lizing turlari 331
§ 15.3. Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi 337
§ 15.4. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o‘rni 342
§ 15.5. Lizing to‘lovlari summasini aniqlash 347
XVI BOB. INVESTITSIYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH 357
§ 16.1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati 357
§ 16.2. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari, loyihaviy moliyalashtirish turlari 361
§ 16.3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish .. 367
§ 16.4. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash xususiyatlari .. 370
XVII BOB. INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH 377
§ 17.1. Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar 377
§ 17.2. Tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirishda innovatsion faoliyatni o‘rni 386
§ 17.3. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning innovatsiya faoliyati zaruriyati. Innovatsiya strategiyasining mohiyati 399
XVIII BOB. INNOVATSION LOYIHALARNI VENCHURLI MOLIYALASHTIRISH 405
§ 18.1. Venchurli moliyalashtirish jarayoni tarkibi 405
§ 18.2. Venchurli moliyalashtirishda yuzaga keladigan innovatsion risklar va ularni boshqarish 409

§ 18.3. Ilmiy, ilmiy-texnologik parklar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi parklar 414
XIX BOB. MAMLAKAT INNOVATSIYA FAOLIYATINI BAHOLASH 418
§ 19.1. Mamlakat innovatsiya faoliyatini baholashning xorij tajribasi 418
§ 19.2. Yevropa innovatsion tablosi (European Innovation Scoreboard), Texnologik yutuqlar indeksi (Technology Achievement Index), Innovatsion salohiyat indeksi (Innovation Capacity Index); Boston konsalting guruhining umumjahon innovatsion indeksi (GII BCG), INSEAD Umumjahon innovatsion indeksi (GII INSEAD), Innovatsiyalarning global omili (Global Innovation Quotient)..... 422
XX BOB. NOMODDIY AKTIVLARGA SAFARBAR ETILADIGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH 431
§ 20.1. Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar– investitsiya ob'ekti sifatida..... 431
§ 20.2. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati..... 436
§ 20.3. Nomoddiy aktivlarni baholash va "gudvill" 438
XXI BOB. INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO'LLARI 442
§ 21.1. "Investitsiya risklari" tushunchasi, mazmun-mohiyati va xususiyatlari 442
§ 21.2. Investitsiya faoliyati bilan bog'liq risklar va ularning tasniflanishi. Investitsiya risklarini aniqlash usullari 446
§ 21.3. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari .. 452
GLOSSARIY 463
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 473

BEKTEMIROV A.B., RUZIBAYEVA N.X., KARJAVOVA X.A.,

BEKTEMIROV A.A.

INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR

DARSLIK

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: D. Hamrayev

Darslik Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 10 - noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

“STAP-SEL” MChJ. Nashriyoti, Samarqand - 2023

ISBN: 978-9910-752-32-2

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Bosishga ruxsat etildi: 14.12. 2023 y.
© “STAP-SEL” MChJ. Nashriyoti, Samarqand 2023 y.

15.12.2023 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 30.12
Buyurtma № 0125A/23. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.